

**BEKMURATOV Q.A.**

# SUN'IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

**BEKMURATOV Q.A.**

**SUN'IY INTELLEKT  
VA NEYRON  
TARMOQLARI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligining  
Muvoifiqlashtiruvchi kengashi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**«Mahalla va oila nashriyoti»  
TOSHKENT – 2021**

**UO'K 004.8(075.8)**

**KBK 32.813ya7**

**S 95**

**Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlari (Darslik). Bekmurotov Q.A –T.: «Mahalla va oila nashriyoti», 2021. – 373 bet.**

Xozirgi paytda eng samarali ishlayotgan dasturlash tillaridan biri bu Java dasturlash tilidir. Java dasturlash tilini chuqur o'zlashtirish va uning imkoniyatlarini turli sohalarga qo'llay bilish AT mutaxassislarning mehnat bozoridagi mavqiyesini keskin oshiradi. Zamonga mos, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish imkonini beradi.

Ushbu darslikda aynan shu masalalarga e'tibor berilgan. Darslikda Java dasturlash tilining o'ziga xos xususiyatlari, yuqori darajadagi boshqa dasturlash tillaridan farqi va bu dasturlash tilining ma'lumotlar bazasi, tarmoqlar obyektlarini dasturlash, hamda zamonaviy mobil vositalar va planshetlar uchun milliy ta'lim resurslarini tayyorlashdagi imkoniyatlari yoritilgan.

**Taqrizchilar:** A.X.Nishanov – texnika fanlari doktori, professor;  
G.U.Jurayev – fizika-matematika fanlari doktori.

**ISBN 978-9943-7779-0-3**

**© BEKMUROTOV Q.A. 2021 y.  
© «Mahalla va oila nashriyoti»2021 y.**

## So`z boshi

Axborot texnologiya(AT)lar va tizimlar evolyutsiyasi ular intellektuallashuvining yuqoriqoq darajasi bilan aniqlanadi.

Intellektual ATlar - informatikaning kelajagi porloq va tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ilmiy va amaliy sohasi hisoblanadi. U kompyuterlardan foydalanish bilan bog`liq barcha ilmiy va texnologik yo`nalishlarga sezilarli darajada ta'sir ko`rsatadi, u jamiyatga ilmdan nima kutilayotgan bo`lsa o`shani bugunning o`zidayoq bermoqda, amaliy ahamiyatga ega bo`lgan natijalar, ularning ko`pchiligi ularni qo'llash mumkin bo`lgan sohalarda tubdan o`zgarishlar qilishga qodir.

Intellektual ATlarning maqsadlari, birinchidan, kompyuterlar yordamida yechiladigan masalalar ko`lamini kengaytirish, ayniqsa sust strukturalangan predmet soha(PrS)larda va ikkinchidan, zamonaviy mutaxassisning intellektual axborotni qo'llab-quvvatlash darajasini oshirishdan iborat.

Intellektual ATlarning ilmiy fundamentidagi kalit komponent sun'iy intellekt(SI) hisoblanadi.

SI haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar - «Aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo`lib Stanford universitetining (AQSh) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956 yili tashkil topgan ilmiy to`garakda paydo bo`ldi.

Bu to`garak tarkibiga Massachuset (AQSh) texnologiya oliygohi «Elektronika va hisoblash texnikasi» fakultetining faxriy professori Marvin Minskiy, «Umumiy masala yechuvchi» va «Mantiqchinazariyotchi» intellektual dasturlar bunyodkorlari - kibernetik Allen Nyuell va Karnegi-Mellen, dorilfununning mashhur psixologи Gerbert Saymon, hisoblash texnikasining ko`zga ko`ringan mutaxassislari Artur Samuel, Oliver Selfridj, Klod Shannon va boshqalar kirar edilar. Aynan shu to`garakda «Sun'iy intellekt» tushunchasi paydo bo`ldi.

SIning ilmiy yo`nalish sifatida yaratilishi va rivojlanishi uchun chet elda N.Viner, U.Makkalox, U.Pitts, D.Makkarti (birinchi bo`lib «Artificial intelligence» terminini kiritdi), F. Rozenblatt, Sazerlend, M. Minskiy, S. Peypert, A. Nyuell, G. Saymon, Dj. Shou, E. Feygenbaum, A. Kolmeroe, N. Xomskiy, T. Vinograd, M. Kuillian, R. Shenk, I. Kilson, P. Uinston, L. Zade, R. Reddi, D. Lenat, Dj. Xinton, Dj. Anderson, J.L. Lorer, T.Gvyazda, D.E. Goldberg, S.Manu, F.Martines, N.J.Nilsson, D.Poole, S.Rassel va boshqalar o`z xissasini qo'shgan. Sobiq ittifoqda, keyinchalik esa

Rossiyada SI shakllanishi va rivojlanishini A.A. Lyapunov, A.I. Berg, G.S. Pospelov, M.M. Bongard, A.V. Gavrilov, V.F. Xoroshevskiy, A.P. Yershov, L.T. Kuzin, A.S. Narinyani, A.I. Polovinkin, V.V. Chavchanidze, V.K. Finn, E.V. Popov, E.X. Tiugu, O.I. Larichev, A.I. Galushkin, A.V. Chechkin, D.A. Pospelov, A.I. Bashmakov, A.N. Gorban, A.V. Kolesnikov, Z. Mixalevich, S.D. Sht va boshqalarning nomlari bilan bog'lashadi. Shuningdek, O'zbekistonda M.M. Kamilov, T.F. Bekmuratov, SH.X. Fazilov, R. Xamdamov, K. Ignatyev, A.X. Nishanov va boshqa olimlar SI sohasida ilmiy natijalarga erishgan va hozirgi vaqtida ham ilmiy-tadqiqotlarni shogirdlari bilan birga davom ettirmoqda.

Zamonaviy ATlarning asosiy yo'naliishlardan biri insonga talluqli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi sun'iy intellekt tizim(SIT)larni yaratishdir.

Mazkur kurs SITlarni ishlab chiqish texnologiyalari - usul, model va algoritmik-dasturiy vositalari bo'yicha yurtimizda va horijda olib borilgan tadqiqotlar, amalga oshirilgan natijalar, tadbiq etilgan ishlanmalarga asoslangan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga yo'naltirilgan, shu bilan birga SITlarini rivojlantirayotgan asosiy mexanizmlardan hisoblangan neyron tarmoq(NT)larni ham qamrab olgan. Kursning fan dasturi mazmuniga mos ravishda o'quv qo'llanmada qo'yilgan asosiy maqsad – SIning asosiy tushunchalari va rivojlanish bosqichlari, tasnifi, sinflari va arxitekturasi, intellektual agent(IA)lar va ularning sinflari, arxitekturasi, xususiyatlarni o'rganish, bilimlar va ularning tiplari, xususiyatlari, tushunish darajalari, bilimlarni olish usullari haqida tasavvur hosil qilish, qidiruv, bilimlarni taqdim etishning mantiqiy, tarmoqli, mahsuliy va freymli modellari yordamida SI muammolarni echish, ekspert tizim(ET)lar, ma'lumotlar va bilimlar noaniqligini taqdim etishda Bayes qoidasidan foydalanish, noaniqlikni modellashtirish va noravshan mantiqiy xulosa chiqarish, NTlar, genetik algoritm(GA)lar va gibrid tizim(GT)lardan foydalanib SI masalalarini echish, turli SITlarida kechayotgan axborot jarayonlarining roli va xarakteri to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish, shuningdek, SITlarning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini, SITlarni inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilish asoslarini o'rganish va SIni rivojlanish istiqbollari va yo'naliishlari bilan tanishishdan iboratdir.

O'quv qo'llanmaning asosi sifatida Toshkent axborot texnologiyalar universiteti va uning Samarqand filialida muallif tomonidan o'quv jarayonida talabalarga o'qilayotgan materiallar

olingen. Uning strukturasi va mazmunini to'ldirishda SIning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan yuqorida keltirilgan olimlar va mutaxassislar tomonidan yaratilgan monografiya, darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalarda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanilgan.

O'quv qo'llanmaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining 2012-2014 yillar uchun e'lon qilingan A5-ФК-0-18644-A5-049: «Informatika va axborot texnologiyalari hamda kasb ta'limi (Informatika va axborot texnologiyalari) ta'lim yo'nalishlaridagi Intellektuai tizimlar fanidan o'quv-uslubiy majmualar yaratish» amaliy grantida olingen yakuniy natijalar hamda 2015-2017 yillar uchun e'lon qilingan A5-038 - «Qo'lyozma matnlarni (harf, raqam, yordamchi belgilar, so'zlar) va shaxs imzolarini tanib oluvchi, ularning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlovchi algoritmlar va dasturiy vositalarni yaratish» amaliy grantida olingen dastlabki natijalar ham kiritilgan.

“Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari” fani bo'yicha dasturni amalga oshirish bakalavtiatura o'quv rejasida rejalashtirilgan “Diskret matematika”, “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”, “Dasturlash tamoyillari”, “Tizimli dasturlash”, “Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari”, “Ma'lumotlarning intellektual tahlili”, “Mashinali o'qitish”, fanlari bilan uzviy bog'liq va shu fanlardan olingen bilimlarga asoslanadi.

Magistrantlarga tavsiya etilayotgan ushbu kitob o'quv rejaning 1.00 umummetodologik fanlar blokining 1.04 qismida keltirilgan “Sun’iy intellekt va neyron tarmoqlari” fani bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 18 avgustda tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlandi.

Kitob 300000-Ishlab chiqarish bilim sohasidagi 330000-Kompyuter texnologiyalari va informatika hamda 350000-Aloqa va axborotlashtirish telekommunikatsiya texnologiyalari ta'lim sohalarining barcha magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan. Bu o'quv qo'llanmadan SI sohasi bo'yicha shug'ullanuvchi doktorantlar, tadqiqotchi izlanuvchilar va mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

O'quv qo'llanma kirish, o'nbitta bob, xotima, qisqartma so'zlar, o'zbekcha atamalardan iborat.

*Kirish* qismida o'quv qo'llanmadagi masalalar, SIning asosiy masalasi, SIning bazaviy funksiyalari, SI sohasidagi tadqiqotlarning bazaviy yo'nalishlari taqdim etilgan.

*Birinchi bobda* SI haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda asosiy tushunchalar va ta'riflar, rivojlanish bosqichlari, SIni modellashtirishning asosiy yo'nalishlari va sinflari, Tyuring testlari, IAlar, asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi, asosiy xususiyatlari hamda SI masalalarini yechish va qo'llanilish sohalari tavsiflangan.

*Uchinchi bobda* SI masalalarini qidiruv yordamida muammolarni echish keltirilgan bo'lib, unda holatlar fazosi(HF)da yechimni qidiruvning ojiz, qarshi ta'sirlanish sharoitida, lokal, cho'qqiga chiqish, otjig emulyatsiyali va evristikli qidiruv algoritmlari bayon etilgan.

*Uchinchi bob* SI da bilimlarni taqdim etishga bag'ishlangan bo'lib, unda SI rakursida tasavvur va idrok, bilim, bilimlarning tiplari, sinflari, xususiyatlari, tushunish darajalari, bilimlarni olish usullari, muloxazalar va predikatlar mantiqi, birinchi tartibli predikatlar mantiqi va SIda mantiqiy xulosalashlar keltirilgan.

*To'rtinchi bobda* ETlar bayon etilgan bo'lib, unda ETlarni xususiyatlari, afzalliklari, tarkibi, yaratish bosqichlari, sinflari, instrumental vositalari, shunungdek, bilimlarni taqdim etishning tamoyil va usullari, qoidalarga va modellarga asoslangan ETlar, gibrild ekspert tizim(GET)lari, adaptiv rejalshtirish va ETlarning amaliy ilovalari keltirilgan.

*Beshinchi bob* ma'lumotlar va bilimlar noaniqligini taqdim etishga bag'ishlangan bo'lib, unda noaniqliklar manbalari va turlari, ETlarga ehtimollar nazariyasini qo'llash, ma'lumotlar va bilimlar noaniqligini taqdim etishda bayes qoidasidan foydalanib SI masalalarini echish bayon etilgan.

*Oltinchi bob* noravshan mantiq va uning ETlarga qo'llanilishiga bag'ishlangan bo'lib, unda ma'lumot va bilimlarning noaniqligi, xususiyatlari, noravshan bilimlar va ular ustida mantiqiy va oddiy amallar, noravshan munosabatlari, noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari va lingvistik o'zgaruvchilar, shuningdek, ETlarda noravshan mantiqni, ishonchlik koeffitsientlari va dalillarni chandalashning qo'llanilishi tavsiflangan.

*Ettinchi bob* NTlarning asosiy tushunchalari va elementlari, arxitekturasi, obyektlarni tanib olishga o'rgatishning umumiy sxemasi va uslubiy jihatlari, ular yordamida yechiladigan asosiy masalalar,

NTlarni tavsifi va ularning turlari, yutuqlari va kamchiliklari bayon etilgan.

*Sakkizinch bobda* vizual axborotni qayta ishlash tizimlarining qo'llanilish sohalari, vazifalari va tasniflanishi keltirilgan bo'lib, unda tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tahlil qilish va tanib olish masalasi tavsiflangan. Shuningdek, geometrik figuralarni, qo'lyozma raqamlarni, shaxs imzolarini, rastri tasvirlar va videotasvirlarga ishlov berish va tadqiqot o'tkazish algoritmlari va dasturiy vositalari ham keltirilgan.

*To'qqizinch bob* GAlar va ularning modifikatsiyalariga bag'ishlangan bo'lib, unda GAning asosiy tushunchalari va bosqichlari, kodlash, GAlar va an'anaviy optimallashtirish usullarining bog'liqligi, GAlar haqidagi asosiy teorema va klassik GAning modifikatsiyalarini bayon etilgan.

*O'ninch bobda* gibrid intellektual tizim(GIT)lar bayon etilgan bo'lib, unda GITlarning sinflari, neyro-noravshan tizim(NNT)lar, NTlarda evolyutsiyali algoritmlar, GAlar va NTlardan bирgalikda foydalanish va evolyutsiyaning odatiy sikli tavsiflangan.

*O'nbirinchi bob* SI yo'nalishlari va NTlarni rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlangan.

O'quv qo'llanmada asosiy g'oya yanada tushunarli bo'lishi uchun har bir bobning bo'limlarida misollar keltirilgan. Shuningdek, har bir bobning oxirida nazorat savollari, mustaqil ishlash va amaliy ko'nikmani mustaxkamlash uchun nazorat testlari, mavzuning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib masala va topshiriqlar berilgan.

O'quv qo'llanma kamchiliklardan holi bo'limganligi tufayli, muallif o'quv qo'llanma haqidagi tanqidiy fikr va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi va o'z tashakkurini izhor etadi.

O'quv qo'llanmaning qo'lyozmasi bilan mufassal tanishib, uning sifatini yaxshilash yo'lida foydali ko'rsatma va maslahatlar bergan taqrizchilar texnika fanlari doktori, professor Sh.X.Fazilov va fizika-matematika fanlari nomzodi, professor A.B.Qarshiyevlarga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.

.

*Muallif*

## Kirish

Hozirgi vaqtida dunyo mamlakatlari o'rtasidagi ustunlik mamlakatlarning maydoni va tabiiy resurslari bilan aniqlanmaydi. Endi barcha sohalardagi ustunlikni ta'lif saviyasi va jamiyatda to'plangan bilimlar hajmi belgilaydi. Kelajakda qaysi mamlakat yangi bilimlarni yaratishda va o'zlashtirishda oldingi o'rninga chiqsa, o'sha mamlakat gullab-yashnaydi. Bunda asosiy ro'lni yangi ATLari, unda esa-SIning usullari va vositalari egallaydi. SIning asosiy texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilish uchun SIning muhim konsepsiyalari qanday tarzda dasturiy yechimlarga tadbiq etilganligini o'rganish zarur. Dasturlar turli jarayonlar tavsifini aniq qurishga imkoniyat yaratadi. Ularning strukturasi yechiladigan masalalar strukturasini o'zida aks ettiradi.

*SI deganda* - maqsadli yo'nalishdagi harakatni o'zida namoyon qilish qobiliyatiga ega ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar tushuniladi. Sun'iy yoki formal tizimlar muloqot, bilimlarni yig'ish, idrok etish, o'rgatish, anglab olish, moslashish va h.k. larni o'z ichiga oladi.

SI - hisoblash mashina(HM)larining insonlarga aqli bo'lib ko'rindigan tomonlarini bajarishga imkon beradigan konsepsiylar haqidagi fan. Inson aqli o'zi nima? U fikrlash qobiliyatiga egami? U bilimlarni o'zlashtirish va qo'llash qobiliyatiga egami? U g'oyalarni almashish va ular bilan ishslash qobiliyatiga egami? Shubhasiz, bu barcha qobiliyatlar aqlning qismini tashkil etadi. Lekin bu so'zga oddiy ma'noda ta'rif berib bo'lmaydi. Chunki aql - bu ma'lumotlarni qayta ishslash va namoyish etish sohasidagi bilimlarning qorishmasidir [2, 6, 7].

SIning asosiy masalasi HMLarini foydaliroq qilish va aql asosida yotadigan prinsiplarni tushunishdan iborat. Modomiki asosiy masalalardan biri HMLarini foydaliroq qilish ekan, hisoblash texnikasi sohasidagi olim va muhandislar SI qiyin masalalarni hal qilishda ularga qanday yordam berishi mumkinligini bilishlari kerak.

SIT sohasidagi tadqiqotlarning *boshlanishini* (50-yillar oxiri) Nyuell, Saymon va Shoularning turli xil masalalarni yechish jarayonlarini tadqiq qilish ishlari bilan bog'lashadi. Ular ishining natijasi mulohazalar hisobidagi teoremalarni isbotlashga mo'ljallangan «Mantiqchinazariyotchi» va «Umumiylashtirish» dasturlari bo'ldi. Bu ishlar SIT sohasidagi tadqiqotlarning birinchi bosqichini boshlab berdi. Shuningdek, ushbu bosqich davomida turli xil o'yinlar, boshqotirmalar va matematik masalalar tadqiqot maydoni hisoblangan.

O'zlarining dasturlarini tafsiflashda Nyuell va Sayman dalil sifatida shuni ta'kidlashdiki, ularning dasturlari inson fikrlashini (tafakkurini) modellashtirar ekan. 70-yillar boshida ular bunga o'xshash ko'plab

ma'lumotlarni chop etishdi va fikrlashni (tafakkurni) modellashtiradigan dastur tuzishning umumiy usulini taklif etishdi. Nyuell va Saymanning ishlari ko'pchilikni jalb qilgan bir paytda Massachusetts texnologiya instituti, Stenford universiteti va Stenford tadqiqotlar institutida tadqiqotchilar guruhi tomonidan SIT sohasidagi tadqiqotlarda masalani yechish yo'li matematik va belgilar mantiqi asosida rivojlandi.

SIT sohasini tadqiq etishda Robinsonning rezolyutsiyalar usuli katta ta'sir etdi. Bu usul predikatlar mantiqidagi teoremlarni isbotlashga asoslangan va isbotlashning mukammal usuli hisoblangan. 60-yillar oxiriga kelib turli xil o'yinlar, boshqotirmalar va matematik masalalar kabi tadqiqotlarni sun'iy muhitlarda emas, balki real muammoli muhitlarda qo'llashga harakatlar qilindi. SITning real muhitlarda ishlayshini tadqiq qilish integral robotlarni yaratish masalasiga olib keldi. Bunday ishlarning o'tkazilishini SIT ustidagi tadqiqotlarning *ikkinchi bosqichi* deyish mumkin.

70-yillar o'rtalarida Stenford universiteti, Stenford tadqiqotlar instituti va boshqa bir qancha joylarda laboratoriya sharoitida ishlaydigan robotlar yaratildi. Bunday tajribalarning o'tkazilishi bir qancha muammolarni hal qilishni talab qildi. Bunday muammolarga bilimlarni namoyish etish, ko'rish orqali idrok etish, robotlar bilan tabiiy tilda muloqot qilish kabilar kiradi. Bu muammolar tadqiqotchilar oldiga yanada aniqroq ifodalangan vazifalarni qo'ydi. Bu davr SITni tadqiq etishning *uchinchchi bosqichi* edi. Uning xarakterli tomoni tadqiqotchilardan oldiga qo'yilgan masalani real muhitda o'zi yechadigan muqobil ishlaydigan tizimni emas, balki inson intellektini va EHMning imkoniyatlarini birlashtiradigan inson-mashina tizimlarini yaratish masalasidan iborat edi.

Hozirgi vaqtida raqobat kurashidagi ustunlik mamlakatning o'chovlari bilan ham, uning tabiiy resurslari bilan ham aniqlanmaydi. Endilikda buni jamiyat to'plagan ta'lim darajasi va bilimlar hajmi hal qiladi. Kelajakda boshqa mamlakatlarga qaraganda yangi bilimlarni yarata olgan va egallagan mamlakatlarga gullab yashnaydi. Bunda asosiy ro'lni yangi ATlar o'ynasa, ularda esa SI usullari va vositalari o'ynaydi.

*SIT deganda fe'l - atvori maqsadga yo'naltirilgan qobiliyatni o'zida aks ettiruvchi ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar tushuniladi [7].*

Oxirgisi o'zida aloqa, bilimlarni jamlash, qarorlar qabul qilish, o'rganish, moslashish va boshqa xususiyatlarni o'zida namoyon etadi. Hozirgi vaqtida kompyuterlarni intellektuallashtirishning turg'un yo'nalishi va uning dasturiy ta'minoti (DT) mavjud. Kelajakdag'i kompyuterlarning asosiy funksiyalari - ko'proq hisoblashga oid bo'limgan

xarakterdagи masalalarни, ya'ni mantiqiy xulosa chiqarish, BBni boshqarish, intellektual interfeys ta'minoti va boshqa masalalarни yechishga qaratilgan. Kompyuterlarni intellektuallashтирish maxsus apparaturalarni (masalan, neyrokompyuterlar) va DTlarni (ETlar, bilimlar bazasi (BB), masala yechuvchilar va h.k.) yaratish hisobiga amalga oshiriladi,

“Sun'iy intellekt tizim” tushunchasining ishchi ta'rifi [2]da keltirilgan. Tizim intellektual hisoblanadi, agar unda uchta bazaviy funksiyalar amalga oshirilgan bo'lsa:

1. *Bilimlarni taqdim etish va qayta ishlash funksiyasi.* SIT o'zida tevarak atrof to'g'risidagi bilimlarni toplashga qodir bo'lishi, ularni pragmatika va ziddiyatsizliklar nuqtai nazaridan sinflashi va baholashi, yangi bilimlarni qabul qilish jarayonlarini aniqlaydi, ma'lumotlar bazasi(MB)da saqlanayotgan bilimlar bilan yangi bilimlar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashi lozim.

2. *Mulohaza funksiyasi.* SIT mantiqiy xulosa yordamida yangi bilimlarni vujudga keltirishi va to`plangan bilimlarda qonuniylik mexanizmini namoyon qilishi, alohida (shaxsiy) bilimlar asosida umumlashgan bilimlarni olishi va o'z faoliyatini mantiqiy rejalashtirishi kerak.

3. *Aloqa funksiyasi.* SIT inson bilan unga yaqin bo'lgan tilda aloqa qilishi va

insonning tevarak-atrofnı qabul qilishiga (avvalo, ko'rish va ovozli) analogik bo'lgan kanallardan ma'lumot qabul qilish, “o'zi uchun” yoki biror kishining iltimosiga ko'ra shaxsiy faoliyatni tushuntirishni shakllantirishni bilishi (ya'ni, “Buni qanday amalga oshirdim?” kabi savollarga javob berishi), insonga uning xotirasida saqlanayotgan bilimlar hamda mulohaza qilishning mantiqiy vositasi hisobiga yordamlashishi kiradi.

SITning asosiy texnologiyalari haqidagi tasavvurni shakllantirish uchun, uning dasturiy yechimlarda muhim konsepsiyanining mujassamlanishini o'rganishimiz lozim.

SIT sohasida tadqiqot strukturasini aniqlashdagi urinishlar takror-takror amalga oshirilgan. Bu savol borasidagi barchasidan ko'ra mashhur nuqtai nazarlar [2]da ifoda etilgan. Unga muvofiq SIT sohasidagi tadqiqotlar ikkita bazaviy yo'naliishlarni o'z ichiga oladi:

- *Bionik*, inson ongi uchun xarakterli va inson tomonidan yechiladigan masalalar asosida yotuvchi strukturalar va jarayonlarni sun'iy qaytadan tiklash muammolari bilan shug'ullanadi;

- *Dasturli-pragmatik*, inson intellektini (qidirish, sinflash, o'qitish, qaror qabul qilish (QQQ), timsollarni tanib olish (TTO), mulohaza va boshqalar) alohida huquq deb hisoblaydigan masalalarni yechish uchun dasturlar tuzish bilan shug`ullanadi.

Birinchi yo`nalish bo`yicha sun'iy NTlar modellarini qo`llaydigan DT yaratish muammolari qarab chiqiladi.

Bionik yo`nalishning maqsadlari va masalalari qiyinligi tufayli oxirgi vaqtgacha SITda dasturli-pragmatik yo`nalish ustunlik qiluvchi hisoblanadi, garchi kelajakda baribir bionik yo`nalish ehtimol aniqlovchi bo`ladi.

Dasturli-pragmatik yo`nalishda uchta yondashuv ajratiladi:

- *lokal* yoki *maqsadli* - insonning intellektual faoliyatiga xos, inson erishishi mumkin bo`lgan natijalardan kam bo`lmaydigan har bir masala uchun (masalan, shaxmat o`yini uchun o`yin dasturi) yaratish;

• *tizimli* yoki *bilimlarga asoslangan* - hozirgi vaqtda bu yondashuv ustunlik qilmoqda, bilimlar asosida intellektual masalalarni yechish uchun dastur tuzishda avtomatlashtirish vositalarini yaratish;

- dasturlashtirishning mbosqichrotseduralarini qo`llovchi intellektual dasturlar tuzish uchun tabiiy tilda masalalarni tavsiflash.

SITlari teoremlarini isbotlash, komp'yuter o`yinlari, TTO, QQQ, adaptiv dasturlash, mashinada musiqalarini bastalash, tabiiy tilda ma'lumotlarni qayta ishslash, o`qituvchi tarmoqlar va boshqa yo`nalishlarda keng qo`llanilmogda.


80-yillarning boshlarida SI sohasida «Ekspert tizimlar» mustaqil yo`nalish sifatida shakklandi. SIning amaliy tizimlarini yaratilishida ETlar birinchi qadam bo`lib hisoblanadi [7].

ETlar SI tizimlarni bir qismi bo`lib, u nazariy jihatdan bu sohani rivojlantirishda muhim ro`l o`ynadi. ETlar SI g`oyalari va usullariga asos bo`lib, unda bilimlar, ma'lumotlar yig`indisi va ular yordamidagi boshqaruva tizimlari hamda mantiqiy qidiruv, assotsiativ, hisoblash amallari va bilimlar manbai aniq bir ko`rinishda ishlataladi.

# **1-BOB. SUN'iy INTELLEKTGA KIRISH VA INTELLEKTUAL AGENTLAR**

## **1-§. Asosiy tushuncha va ta'riflar**

Tadqiqotlar va odamlar intellektual deb hisoblagan xatti-harakatlarni aniqlaydigan mashinalarni yaratilishini biz SI deb ataymiz. Eng keng tarqalgan va zamonaviy mashinalar - kompyuter texnikasi va aloqa vositalari hisoblanadi, shuning uchun ham SI yo'naliishi kompyuterlar va hisoblash tizimlari sohasiga tegishli hisoblanadi.



Intellekt atamasi lotincha *intellektus* so'zidan olingan bo'lib - bu aql, idrok, ong tushunchalarini anglatadi; insonning fikrlash qobiliyati [7]. Shunga ko'ra, sun'iy intellekt (*artificial intelligence*) - inson intellektining alohida funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi avtomatik tizim sifatida qaraladi, masalan, oldindan to'plangan tajribalarga asoslangan bilimlar va tashqi ta'sirlarni ratsional tahlil qilish asosida optimal tanlash va QQQ.

SI ning turli xil ta'riflari mavjud. Quyida ulardan ba'zilarini keltiramiz [7, 31]:

1) "Inson tomonidan amalga oshirilganda intellektni talab qiluvchi funksiyalarni bajaruvchi mashinalarni yaratish san'ati".

2) "Anglab olishni, fikrlashni va harakat qilishni ta'minlaydigan hisoblashlarni o'rganish".

3) "Intellektual xarakter(xulq-atvor)larni avtomatlashtirish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi".

Barcha urinishlarga qaramasdan hozirgacha "Sun'iy intellekt" tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emas, va u yangi ilmiy g'oyalar paydo bo'lishi bilan uning ta'rifi yana o'zgaradi. Keling, bu kontseptsiyaning hech bo'limganda chegaralarini aniglaylik.

SIT - bu kompyuterli, kreativ tizim (ko'p funksiyali, integratsiyali, intellektualli), murakkab strukturali moslashish, o'rnatish uchun, (sintaktik, semantik, pragmatik axborot) maqsadga erishish uchun (aniq maqsadlilik) muhit o'zgarishiga moslashish va soha o'zgarishidagi ichki holat hisoblanadi.

SIT deganda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lgan apparat dasturiy majmualari tushuniladi:

- olam va ommalashgan tajrabalarga asoslanmagan bilimlarni faol idrok etish asosida ularni yig'ish va tuzatish;
- mantiqiy xulosalash asosida harakatlarni maqsadga yo'naltirish, noaniqliklarni tavsivlashning turli darajadagi algoritmlari va murakkab tizimlarini boshqarish.

## **2-§. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari Sun'iy intellektning shakllanishi.**

SI borasida olib borilayotgan tadqiqotlarni shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin [2, 7, 20, 31].

**Birinchi bosqichda** (1956-1970 yy.) olimlarning harakati evristik (mutaxassisning tajribasi natijasida) qidiruv nazariyasini yaratishga va faoliyat yoki intellekt darajasiga tegishli bo'lgan «Masala yechuvchilar»ni yaratish bo'yicha muammoni hal qilishga qaratilgan. Tadqiqot uchun instrument bo'lib elektron hisoblash mashina(EHM) xizmat qilgan, har xil o'yinlar, boshqotirmalar, oddiy musiqa asarlari, matematik masalalar o'ylab topilgan. 1956 yilda Dartmut kolleji (AQSh) seminarda "Sun'iy intellekt" atamasi taklif etildi [6, 30, 31]. SI bo'yicha birinchi ishlar M.Minskiy va J. Makkarti rahbarligida Massachussets Texnologiya Institutida va G.Saymon va A. Nyuell rahbarligida Carnegie Mellon Universitetida olib borildi. Ular S.I.ning "otalari" hisoblanadilar.

SI sohasidagi evristik qidiruv va teoremalarni tasdiqlash (1956-1969) bo'yicha tadqiqotlarning boshlanishi (50-yillarning oxirlari) turli muammolarni hal qilish jarayonlarini tekshirgan Nyuell, Sayman va Shoylarning ishlari bilan bog'liq [6, 30, 31]. Ularning natijalari "Mantiqchi-nazariyotchi" deb nomlangan dasturlar bo'lib, ular teoremalarni isbotlash uchun mo'ljallangan va "Masalani universal yechuvchi" bo'lgan. Ushbu ishlar SI sohasidagi tadqiqotlarning birinchi bosqichining boshlanishi bo'lib, u turli xil murakkab usullarni qo'llagan holda muammolarni hal qiladigan dasturlarni ishlab chiqish bilan bog'liq.



Allen Nyuell  
Shoy  
(1927-1992)

Xerbert Saymon  
(1916-2001)

Jon Klifford  
(1922-  
1991)

1957-yilda F. Rozenblatt tomonidan ob'yektlarni idrok etuvchi va tanuvchi model - perseptron taklif qilindi [35]. 1960-yillar oxirida ba'zi tillar uchun lug'atdan foydalanish qoidalari va asosiy grammatik qoidalarni sinflash va yetarlicha qayta ishlashga asoslangan holda ilmiy yoki ishchi matnlarni tarjima qiladigan algoritmlar yaratildi. 1960 yildan boshlab birinch tartibli predikatlar mulohazasida teoremlarni isbotlashni amalga oshiradigan bir qator dasturlar K. Grin va Xao Vanga tomonidan ishlab chiqildi va SI da deduktiv xulosalashda qo'llanilgan. 1960 yillarda universal kompyuterlar bilan boshqariladigan sezuvchi robotlar yaratila boshladi [20, 31]. Semantik tarmoqlar 1967 yilda M. Quillian tomonidan taklif qilingan [6, 25]. Tabiiy tilni tushunish tizimini yanada takomillashtirish R. Shenk va W. Wuds nomlari bilan bog'liq. E. Feygenbaum, B. Bukhenenom, E. Liderbergom tomonidan 1969 yilda ishlab DENDRAL [20] ET ishlab chiqilgan va murakkab organik molekulalar strukturalarini tanish uchun qo'llanilgan.

*Ikkinchisbosqichda* asosiy e'tibor (70-yillarning boshidan to 80-yilgacha) intellektual robotlar (real uch o'lchovli muhitda mustaqil holda harakat qiladigan va yangi masalalarni yechadigan) qurishga qaratildi. 1970 -yillarning boshlarida A. Nyuel va G. Saymonlar fikrlashni modellashtiradigan dasturni tuzish uslubini taklif etdilar [20, 31]. 1973 yilda Wuds LUNAR tizimini yaratdi, bu esa geoglarning oydan olib kelingan toshlarning namunalari bo'yicha tabiiy tilda savollar berishiga imkon berdi [7, 31]. 1973 yilda A. Kolmeroe mantiqiy dasturlash tili - Prolog tilini yaratdi [31]. Keyinchalik E. Feigenbaum, B. Bukxenen, E. Shortliff tomonidan ichak kasalliklariga tashxis qo'yuvchi MYCIN ET ishlab chiqildi [7, 31]. 1979 yilda foydali qazilmalarni topishda maslahat beruvchi PROSPECTOR ET yaratildi [7, 31].

SI sohasidagi navbatdagi tadqiqotlarning rivojlanishiga predikatlar mantiqi teoremalarini isbotlashga asoslangan Robisonning rezolyusiya usulining paydo bo'lishi ta'sir etdi. Bu tadqiqotlarning maqsadi-inson yechadigan masalalarni huddi insonga o'xshab yechadigan dasturlarni ishlab chiqishdan iborat bo'lган.

*Uchinchi bosqich* (1980-yillar boshi) idrok etuvchi, dinamik muhitda murakkab rejalarini amalga oshiruvchi, bilimlarni tavsiflovchi, inson bilan tabiiy tilda muloqot qiluvchi robotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq. 1982 yilda McDermott tomonidan sanoatda qo'llanadigan birinchi IT K1 ET ishlab chiqilgan [2, 7]. 1985 yildan boshlab, ETlar, undan keyin tabiiy tillarni tushunuvchi tizimlar, so'ngra NTlar tijorat ilovalarida faol qo'lanila boshladi. 1986-1996 yillarda SI sohasidagi tadqiqotlarda mustaqil yo'nalish sifatida ETlar yoki bilimlar muxandisi shakllandi. 1996-2000 yillarda SI sohasidagi tadqiqotlarda *integrallashgan va gibridd prinsiplariga asoslangan tizimlar* yaratildi va shakllandi.



Dartmut ergunganida "Artifical intellect" tushunchasi paydo boldi

**1956 Sun'ty Intellicet**


**ELIZA 1966** Inson kabi suhabat qilishga qodir ELIZA kompyuter dasun

MYCIN ekspert bizi - qonning infektion kesaliklerini tahlil qiladi va keyingi davolash kursini tavsya etadi

**Stenfordlik ROBOT**

**1970 MYCIN**

"Stanford eravachasi" universitet nomi bilan ataluvchi evtonom boshqarishli birinchil haraketenuvchi robot



Nuance kompaniyasi Dragon Systems - birlinchi ijtorat nutqini tanish tizimlerini ishlab chiqara boshladi

**1982 Nutqni tanib olish**

**NUANCE**



**Eksklusiv sod ROBOT**

**1993**

Massechuset tarmologik institut eksklusiv obb boruvchi va mehnitorlar bilan muqobil qiluvchi Pol robotini yaratigan


Kompyuterning yutishi

Deep Blue super kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon championi Garry Kasparovni 6 partiya yutishga muvaffaq bolgan

**Yungdor ROBOTLAR**

**1997 Futbolchi ROBOTLAR**


Birinchi marta 38 davlatdan robodamning ishlarida futbol bo'yicha jahon championati o'tkazilgan



Tabilby-nutqiy so'rovhami tanuvchi binnchi qidiruv tizimi WolframAlpha Steven Wolfram komandasini tomonidan yaratilgan

**1998**

40 min Furby robotlari Rojetstvo bayramidan otdin so'zligan U-ingiz bliki davmy orqinab borgan.



**Vatson Superkompyuteri**

**2009**

**Semantik VEB**

IBM kompaniyasi ishlab chiqqan Watson superkompyuteri Jeopardy televizionda sobiq championini yutgan

**JEOPARDY!**



**Watson Superkompyuteri**

**2011**

**ROBOMOBIL**



Nevada shtatida ishlashiga nusret olgan evtonom boshqarishli Google avtos.

**SMARTFON bilan boshqaruv**

**2013**

Anid kompaniyasi Smartfonlar uchun iOS ishlab chiqdi, u o'rinchqo poyga avtomobilli xuddi tabib yis qilib boshqarish va o'z-o'zini o'rnatish imkoniyatiga ega



Mur qomuniga ko'ra kompyuterlar arborotni o'yta ishlashda inson miyosi darajasi yetsish kerak

**2029 MUR qomuni**



**KELAJAK 2045**

Teknologik hukmronlik beshorat: sun'iy intellekt inson intellektoni otdi va mustaqil rovganshtini davom ettradi.

## 1.1-rasm. Sining vaqtli taqvimi.

XXI asr boshlanishi SIning o'zini-o'zi o'rgatadigan, moslashuvchan, o'zida NTlarni va bilimlarni tavsiflash modellarini birlashtiruvchi GTlar uchun intellektual muloqotli tizimlarni yaratish va tadqiqotlar olib borish bilan xarakterlanadi.

SITlarining hozirgi davrgacha va kelajakdagи vaqtli taqvimi 1.1-rasmida keltirilgan.

### **3-§. Zamonaviy intellektual tizimlarning asosiy yo'nalishlari**

Tarixiy jihatdan SIni modellashtirishning *uchta asosiy yo'nalishlari* shakllandi [2, 6, 7, 20, 30-32].

*Birinchidan*, tadqiqotning maqsadi inson miyasining tuzilishi va mexanizmlari va yakuniy maqsadi fikrlash sirlarini oshkor qilishdir. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlarning zarur bosqichlari psixofiziologik ma'lumotlarga asoslangan modellarni qurish, ular bilan tajriba o'tkazish, intellektual faoliyat mexanizmlari bo'yicha yangi farazlarni ilgari surish, modellarni takomillashtirish va boshqalar.


*Ikkinci yondashuvda* tadqiqot obyekti sifatida SI qaraladi. Bu yerda so'z kompyuterlar yordamida intellektual faoliyatni modellashtirish masalasi haqida boradi. Bu yo'nalishdagi ishlarning maqsadi - kompyuterlar uchun algoritmik va DTni yaratishdir, bu esa intellektual vazifalarni insondan yomonroq bo'limgan holda yechish imkonini beradi.

*Uchinchi yondashuv* tabiiy intellekt va SI imkoniyatlarini birlashtiruvchi interfaol intellektual tizimlar yoki inson-mashina tizimlarni yaratishga mo'ljallangan.

#### **3.1. Neyron tarmoqlar yo'nalishi**

Neyronli modellar nafaqat inson miyasining funksiyalarini takrorlaydi, balki shu bilan bir qatorda o'zlarining funksiyalarini ham bajarishi mumkin. Shuning uchun ham neyronli modellashtirishda bir-birini o'zar o'tdiruvchi ikkita maqsad bor edi va hosirgi vaqtida ham mavjud: *birinchisi* - fiziologiya va psixologiya darajasida inson miyasi tizimlari faoliyatini tushunish, va *ikkinchisi* - inson miyasi tizimlari faoliyatiga o'xshash funksiyalarini bajaruvchi hosoblash mashinalarini (sun'iy NTlarni) yaratish [31].

Neyronli qayta ishlash tizimlarni 1.2-rasmdagidek sinflash mumkin [31].



1.2 -rasm. Neuronli qayta ishlash tizimlarini sinflash.

*Umumiy maqsadlarga mo'ljallangan neyropaketlar* - keng ko'lamli vazifalar (masalan, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash) uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlardir.

*Neyroilovalarni ishlab chiqish tizimlari* - bu ma'lumotlarni qayta ishlash uchun o'rgatilgan NTlardan foydalanadigan dasturiy kodni ishlab chiqishi mumkin bo'lgan dasturdir.

Murakkab NTlarini ishlab chiqish uchun qulay vositalardan biri - MATLAB hisoblanadi. MATLAB qayta ishlash (*wavelet* - tahlil, statistika, iqtisodiy tahlil va h.k.) usullari bilan birgalikda neyroto'rli usullarni tahlili uchun qulay muhit hisoblanadi.

Neyron tarmoqlar yo'nalishining to'liq tavsifi 7-bobda bayon qilingan.

### 3.2. Axborotli yo'nalishi


Axborotli yo'nalishi uch tipga bo'linadi [31].

**1. Evristik dasturlash** - bu original usulblarni ishlab chiqish, masalalarni inson kabi, ba'zi hollarda undan ham yaxshi yechadigan algoritmlarni ishlab chiqishdir. *Evristika* - bu murakkab masalalar yechimni topishda qo'llaniladigan tizimning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladigan qoida, strategiya, uslub yoki qoidalar tushuniladi. *Evristik dastur* - bu evristikani ishlatadigan kompyuter dasturi. Webster lug'atiga ko'ra, "evristik" - "kashfiyotni osonlashtirish" degan ma'noni anglatadi.

Evristik dasturlar shaxmat, shashka, karta o'yinlarini o'nashi mumkin, savollarga javoblarni topadi, matematik hisoblar sohasidan yechimlarni topadi, matematik mantiq va geometriya teoremlarini

isbotlaydi, o'z tajribalari asosida o'rgatishlarni amalga oshiradi va turli xil masalalarni yechadi.

**2. Bilimlarga asoslangan tizimlar.** Bu yo'nalish SIning poydevorini tashkil etadi [31]. Ushbu yo'nalishda bilimlar asosida SIni o'rganish muammolari o'rganiladi (1.3 - rasm).




1.3-rasm. Intelлектуал масалаларни yeshuvchi dasturlar.

SI bo'yicha o'rganilayotgan keyingi katta muammo - bu tizim xotirasida bilimlarning tasvirlanishi. Buning uchun bilimlarni tasvirlashning turli xil modellari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda intellektual tizim (IT)larda bilimlarni tasvirlashning mantiqiy, semantik tarmoqlar, freymlar va mahsuliy(produksiya) modelllaridan foydalanadi. Bu modellarning tavsifi 3 va 4-boblarda qaraladi.

**3. Intelлектуал dasturlash.** Intelлектуал ilovalarni yaratishdagi qiyinchiliklar foydalanilgan algoritmik tilga, instrumental tizimga, dasturlash paradigmalariga, intelлектуал axborot tizim(IAT)ni yarish

vositalariga va bilimlarni olishga, grafikli tizimlarga bevosita bog'liq (1.4-rasm) [13, 20, 31].



1.4-rasm. Bilimlarga asoslangan tizimlar strukturası.

Ko'plab dasturiy tillar orasida SI bo'yicha kichik bir qismi ishlataladi:

1)C, C ++ kabi an'anaviy dasturlash tillari asosan instrumental tizim yaratish uchun qo'llaniladi.

2) Maxsus dasturlash tillari:

- Ro'yxatlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan LISP va uning ko'p sonli versiyalari;

- PROLOG mantiqiy dasturlash tili. Oldin mashinali tarjima qilishda, keyinroq esa mantiqiy ifodalardan mantiqiy xulosalashda qo'llaniladi;


- Rekursif funksiyali REFAL tili.

3) Bilimlarni namoyish etishda qo'llaniladigan tillar: KL-1, KRL, FRL freymlarga mo'ljallangan, PILOT produsiyali modellarga mo'ljallangan.

Turli xil ITlarni loyihalash va yaratish uchun mo'ljallangan instrumental tizimlar yetarli darajada tez rivojlanadi. Hozirgi davrgacha ETlar deb nomlanuvchi ko'plab instrumental vositalalar ishlab chiqilgan [13, 20, 31]. Masalan, EKO, Leonardo, Nexpert Object, Kappa, EXSYS, GURU, APT, KEE Vva h.k.

Shuningdek, oxirgi yillarda integrallashgan instrumental tizimlar ishlab chiqarila boshlandi. Sunday tizimlarga misol sifatida Work bench tizimlarga KEATS, Shelly, VITAL larni keltirish mumkin [31].

### ITlarni yaratish vositalari (1.5-rasm).



1.5-rasm. ITlarning instrumental vositalari.

Bularga muammoga / predmetga yo'naltirilgan muayyan sinf muammolarini (bashoratlash, rejalashtirish, boshqarish va h.k. larni) yechishga mo'ljallangan va muayyan funksional modullarni o'z ichiga olgan vositalar, PrS tiplari haqidagi bilimlar uchun - predmetga mo'ljallangan vositalar kabi qobiq va muhitlarni kiritamiz.

*Dasturlash paradigmalariga* protsedurali, ma'lumotlarga, qoidalarga va obyektga mo'jallangan dasturlashlar kiradi. *Protsedurali dasturlash* jarayon(lar)ning deterministik harakatlar ketma-ketligini tavsiflash uchun ishlatiladi. *Ma'lumotlarga mo'ljallangan dasturlash* ma'lumotlarga murojaat qilishda ishlatiladi. *Qoidalarga asoslangan paradigmada* "shart-harakat" qoidalari aniqlanadi va ular yordamida MBdagi timsol(obraz) BBdagi namunaviy timsol bilan solishtiriladi. *Obyektga mo'ljallangan paradigma* lokal proseduralar va lokal qiymat(o'zgaruvch)larga ega bo'lgan obyektlar deb ataladigan tushunchalar atrofida tashkillashtiriladi. Bu yerda xatti-harakatlar obyektlar orasidagi xabarlarni bir-biriga jo'natish orqali amalga oshiriladi. Obyekt xabarni olib, lokal protseduralar va qiymarlar asosida ushbu habarni lokal ravishda o'zgartiradi. *Kognitiv grafikli tizimlar* intellektual dasturlashning yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U matnli va ko'rinishga ega bo'lgan obyektlar haqidagi bilimlar asosida ularni aniqlash bilan shug'ullanadi. Bu yo'nalish juda istiqbolli bo'lib, kelajakda bu sohada masalalarni yechishning yangi uslublari va ularni yechishning yangi texnologiyalari yaratiladi.

**SITlarini qurishning turli yondashuvlari.** SITlarini qurishning quyidagi mavjud yondashuvlarini keltiramiz:

1) *Mantiqiy yondashuvda* model uchun asos sifatida Bul algebrasini xizmat qiladi. Bul algebrasining rivojlanishi predmet belgilar, ular orasidagi munosabatlar, mavjudlik va ixtiyorilik kvantorlarini o'z ishiga olgan predikatlar mantiqi hisobiga kengaydi. SIning har bir tizimining ishlashi asosan mantiqiy qoidalarga asoslangan. Bunga misol sifatida teoremlarni isbotlashni keltirish mumkin. Bu yondashuv 3-bobda tavsivlangan.

2) *Strukturali yondashuvda* inson miyasining tuzilishini modellashtirish asosida SIni qurish masalalari qaraladi. Bunday modelni qurishga misol sifatida Rozenblatt perseptronini, xatoliklarni teskari tarqalishiga asoslangan NTlar, Hopfield NTlar va stoxastik NTlarini keltirish mumkin (6-bobda bayon etilgan).

3) *Evolyutsionli yondashuvda* SIni qurish masalalarida asosiy e'tibor boshlang'ich modellar va qoidalarni qurishga qaratiladi va undan

keyin ular asosida SIni qurish evolyutsiyali (uzluksiz rivojlanish) shaklda rivojlanadi. Bu rivojlanish turli tipdag'i usullarni o'z ichiga oluvchi yangi modellarni qo'llash bilan amalga oshiriladi. Masalan, NTlar modeli, mantiqiy qoidalar nabori va boshqa ixtiyoriy modellar bo'lishi mumkin (9 va 10-bobda keltirilgan).

4) *Imitatziyali yondashuvda* insonning boshqalardan nusxa olish qobiliyati, ya'ni boshqalar nima qilayotgan bo'lsa, xuddi ularga o'xshab bajarishni amalga oshirish modellashtiriladi. Ko'p hollarda nusxa olish qobiliyati insonga biror ishni bajarishda vaqtini kam sarflashga olib keladi.

### 3.3. Sun'iy intellekt tizimlarini sinflash

Muammolarni maqsadli tavsiflash uchun SI tizimlarini sinflashning eng muhimlarini keltiramiz.

*A.V. Andreychikov va O.N. Andreychikova SITlarni quyidagicha sinflashni taklif qiladi [31]:*

1) *Intellektual axborot tizimi* - muammolarni hal qilish uchun yuqori malakali ekspertlar bilimlarini o'rganish va qo'llashdir. Bunday tizimlarning xususiy holi sifatida ETlarni keltirish mumkin (4-bobda keltirilgan).

2) *Tabiiy tilli interfeys va mashinali tarjima*. Bu tabiiy tilda insonning kompyuter bilan aloqa jarayonini amalga oshirishni ta'minlaydigan tizimlarni ishlab chiqish va usullarni tadqiqot qilishdan iborat.

3) *Nutqni generatsiya qilish va tanib olish*. Ovozli aloqa tizimlari kompyuterga axborot kiritish tezligini oshirish, shuningdek, masofadan turib ivozli muloqotni amalga oshirish uchun yaratilgan.

4) *Vizual axborotlarni qayta ishlash*. Bunday tizimlarda tasvirni qayta ishlash, tahlil qilish va sintez qilish masalalari yechiladi (9-bobda keltirilgan).

5) *O'rgatish va o'zini-o'zi o'rgatish*. Ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtiruvchi protseduralardan foydalangan holda bilimlarni yig'ish va shakllantirishni avtomatlashtirish uchun modellar, usullar va algoritmlar yaratish.

Bu tizimlarga Data-mining, Knowledge, Discovery va boshqalar kiradi.

6) *TTO*. Obyektlarni belgilari asosida o'rganish jarayonida sinflarga xos belgilarni topish va ular asosida yangi obyektlarning

oldindan berilgan sinflarning qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlash yoki obyektlarni avtomatik ravishda sinflarga ajratishdan iborat.

7) *O'yinlar va mashinali ijod qilish*. Mashinali ijod qilish - bu musiqalar, rasmlar va grafikalar, she'rlar, badiiy asarlar, yangi obyektlarni kashf etish, intelektual kompyuter o'yinlarini yaratish uchun mo'ljalangan mashinali dasturlar.

8) *SI tizimlarining DTi*. SI tizimlarini yaratishning instrumental vositalariga- belgili axborotlarni qayta ishlash (LISP, SMALLTALK), mantiqiy dasturlash tillari (PROLOG, LISP, CLIPS, EKLIPS, PLANNER, MERKURY, ALISE, KL0, ShapeUp), bilimlarni tavsiflash tillari (OPS-5, KRL, FRL), instrumental vositalardan iborat integrallashgan dasturiy muhitlar (KE, ARTS, GURU, G2), shuningdek, ekspert tizimning qobig'lari (BUILD, EMYCIN, EXSYS, Professional, ЭКСПЕРТ) kiradi.

9) *Yangi kompyuter arxitekturasi*. Bu belgili axborotlarni qayta ishlashga qaratilgan Fon Neyman arxitekturasiga asoslanmagan kompyuterlarni yaratish. Hozirgi vaqtida parallel va vektorli kompyuterlar mavjud.

10) *Intellektual robotlar*. Hozirgi vaqtida qat'iy sxemali boshqarishga ega dasturlashtiriladigan manipulyatorlar ishlatalidi.

#### 4-§. Sun'iy intellektni turli sohalarga tadbiqi

SI ning qo'llanilish sohalariga teoremalarni isbotlash, o'yinlar, TTO, QQQ, adaptiv (moslashuvchan) dasturlash, mashinada musiqalarini bastalash, tabiiy tilda ma'lumotlarni qayta ishlash, o'rnatuvchi NTlar, og'zaki kontseptual o'qitish kabilalar kiradi.

TTO SIning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u nazariy va amaliy jihatdan bu sohani rivojlantirishda muhim ro'l o'ynadi. TTO yo'nalishida obyektlar, hodisalar, jarayonlar o'rganiladi va natijada tanib olish, sinflash, klasterlash va bashoratlash kabi masalalar echiladi. Jumladan, Rossiyada RASPOZNAVANIE dasturiy tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, u ko'plab amaliy masalalarni yechishda qo'llanilgan va amaliyotga quyidagi masalalarni echishga tadbiq etilgan [16].

*Biznes va va moliya sohasida* - kvartiralarning narxini baholash, kreditli kartochkalarni nazorat qilish va harakatdagi obyektlarni tanib olishda.

*Tibbiyotda va sog'ligni saglash sohasida* - aholini yoshi bo'yicha klasterlashda, ko'krak rakini aniqlashda, insultga tashxis qo'yish, yurak

tomirlariga tashxis qo'yish, sariq kasalligini bashoratlash va qandli diabet kasalligini bashoratlash.

*Texnik tashxis qo'yish sohasida* - dvigatellarning yaroqli yoki yaroqsizligini aniqlashda, texnik qurilmalarning holatini nazorat qilishda.

*Qishloq xo'jaligi sohasida* - ekin maydonlarining holatini aniqlashda va mevalarni o'lchoviga qarab taxlashda.

*Geologiya sohasida* - kam uchraydigan metallar va neft qazilmalarini aniqlash, foydali qazilmalarining holatini aniqlash.

*Tasvirlarni qayta ishlash sohasida* - qo'lyozma raqamlarni, harflarni va simvollarni tanib olish, shaxs imzolarini tanib olish, biometrik belgilari – barmoq izlari, qo'l, yuz, qulqoq, ko'z tasvirlarini tanib olish, tasvirlar ketma-ketligida dinamikani segmentlash va tanib olish.

ETlar - bu SIning amaliy tizimlari bo'lib, u nazariy jihatdan bu sohani rivojlantirishda muhim ro'l o'ynadi. ETlar SI g'oyalari va usullariga asos bo'lib, unda bilimlar, ma'lumotlar yig'indisi va ular yordamidagi boshqaruv tizimlari hamda mantiqiy qidiruv, assotsiativ, hisoblash amallari va bilimlar manbai aniq bir ko'rinishda ishlataladi.

Hozirgi vaqtida ETlar *tibbiyotda* - ichak, sil va gipertonik kasalliklarning turli shakllariga tashxis qo'yishda; *harbiy sohada* – samolyot yerga qo'nishida uchuvchiga yordam berishda, analitikka tutuvchi signalni jo'natgan radar turini aniqlashda, xaritada o'zgarish kiritish bo'yicha kartografik ishlarni amalga oshirishda, raqiblarning buyruq beruvchi markazlari, boshqaruvi va aloqalarining razvedka qilinganida olingen natijalarni qayta ishlashga yordamlashishda, raqibning radioalmashish razvedkasi sohasida vaziyatni baholashni amalga oshirishda va razvedkadagi analitiklarga keyingi qurolli to`qnashuv qachon va qayerda bo'lishini bashorat qilishda; *informatikada* – MBni ishlab chiquvchi va MBning konseptual sxemasini aniqlovchi mutaxassislarga yordamlashishda; *kompyuter tizimlarida* - lokal tizimlarni loyihalashda va katta EHMDagi katta razryadli MVT operatsion tizimlarni boshqarishda; *elektronikada* – telefon tarmog'idagi nosozliklarni aniqlashda, uni sozlash va tiklash chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalar berishda; *energetikada* – energetik tizimlarda ishdan chiqish holatlarini aniqlash va tuzatishda; *geologiyada* – foydali qazilmalarini topishda va holatini aniqlashda; *qishloq xo'jaligida* – mevali bog'larga qarashga maslahat berishda; *matematikada* – teoremlarni isbotlashda va algebraik ifodalarni

soddalashtirishda; *kimyoda* – murakkab organik molekulalar strukturalarini anglashda; *biologiyada* – DNK strukturasini aniqlashda keng va samarali tadbiq etilmoqda.

SITlari kelajakda *qishlog xo`jaligida* - ekinlarni zararkunandalardan himoya qilishi, daraxtlarni kesishi va tanlash xususiyatiga asoslanib parvarishlashni ta`minlashi; *tog` sanoatida* - insonlar uchun o`ta xavfli bo`lgan sharoitlarda ishlashi; *ishlab chiqarishda* - yig`ish va texnik nazoratning turli xil masalalarini bajarishi; *tashkilotlarda* - jamoa va alohida xodimlar uchun jadval tuzishi, yangiliklar haqida qisqacha ma`lumot berish bilan shug`ullanishi; *o`quv yurtlarida* - talabalar yechadigan masalalarni ko`rish, undagi xatolarni qidiruv va ularni bartaraf qilish masalarini hal qilishi, talabalarni hisoblash tizimlarining xotirasida saqlanadigan superdarsliklar bilan ta`minlashlari; *kasalxonalarda* - be`morlarga tashxis qo`yish, ularni kerakli bo`limga yuborish va davolash davomida ularga maslahatlar berishi va nazorat qilishi; *uy ishlarida* - ovqat tayyorlash, mahsulot harid qilish bo`yicha maslahatlar berishi, uyning va bog`dagi gazonlarning holatini nazorat qilish kabi masalalarni amalga oshirishi lozim. *Uy ishlarida* HMLari ovqat tayyorlash, mahsulot harid qilish bo`yicha maslahatlar berish, uyning va bog`dagi gazonlarning holatini nazorat qilishi kerak.

## 5-§. O`zbekistonda intellektual tizimlarning rivojlanishi

*Vatanimizda Norma kompaniyasi tomonidan amaliy buxgalteriya, kichik korxona elektron buxgalteriya, amaliy soliq to`lovlar, «A» dan «Ya»gacha tekshiruv, kadrlar bo`yicha maslahatchi, soliqlar bo`yicha savollar va javoblar, eksport-import operatsiyalari, tashkilot yuristish, qurilish, kichik korxona uchun hisob, soliq va huquq, aqlii bichish-tikish, mohir taxlam va b.q ET lar ishlab chiqilgan.* Har xil qo`llanishga mo`ljallangan intellektual robotlarni yaratish borasida 50 dan ortiq mamlakatlarda, jumladan, O`zbekistonda ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, «Rossiya ko`rgazmalar markazi»da




1.6-rasm. “Robotjon” va “Mikro-Robotjon”


2014 yilda ACP Geek Picnic ko'rgazmasida Ozbekistonlilklar kichik robotlar, uchuvchi moslamalar, gumanoid robotlar, mega robotlar, 3D-printerlarda robot qismlarini yasash, mini-sumo va mikro-sumo turlarida "Robotjon" hamda "Mikro Robotjon" bilan qatnashdi va Mikro Robotjon musobaqada «Eng texnologik robot» deb topildi (1.6-rasm).

## 6-§. Sun'iy intellektning asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi

SIning tarkibiy qismlari 1.7-rasmdagidek keltirish mumkin. SI tizimlaridan PrSga, masala tipiga va foydalanuvchiga moslashish nuqtai-nazaridan foydalanishning funksional strukturasini 1.8-rasmda keltirish mumkin. Bu struktura uchta hisoblash vositalari majmuasidan tashkil topgan. *Birinchi majmua* masalani samarali yechish nuqtai nazaridan loyihalangan dasturni bajaruvchi vositalar majmuidan tashkil topgan, ba'zi hollarda muammoli yo'nalishga ega. *Ikkinci majmua* - keng doiradagi foydalanauvchilar talablariga tez moslashuvchi strukturaga ega bo'lgan intellektli interfeys vositalari majmui. *Uchinchi vositalar majmui* birinchi va ikkinchi majmuaning o'zaro aloqasini ta'minlaydigan BB hisoblanadi. *Bajaruvchi tizim* shakllangan dasturni bajarishni ta'minlaydigan barcha vositalar majmuuni birlashtiradi. *Intellektual interfeys* - dasturiy va instrumrntal vositalar tizimi bo'lib, foydalanauvchilar uchun ularning kasbiy faoliyatida vujudga keladigan masalalarni yechishda kompyuterni qo'llashni ta'minlaydi. BB - boshqa komponentalarga nisbatan markaziy o'rinni egallaydi. Chunki BB orqali masalani yechishda ishtiroy etadigan hisoblash tizimlari vositalarining birlashushi amalga oshiriladi.



1.7- rasm. SIning tipik sxemasi.



1.8-rasm. SI tizimlarini qo'llashning funksional strukturasi.  
*/-g. Sun'iy intellektning asosiy xususiyatlari*

SI asosan formallahmagan masalalarni echish uchun mo'ljallangan. *Formallahmagan masalalar* odatda quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi [7]:

- xatolikli, bixilliksiz, to'liqmaslik va boshlang'ich ma'lumotlarning qarama-qarshilikligi;
- xatoli, muammo haqidagi bilimlarning to'liqmasligi va qarama-qarshilikligi;
- yechim fazosi o'lchamining kattaligi, ya'ni yechimni qidiruvda birma-bir tekshirishning katta bo'lishi;
- ma'lumotlar va bilimlarning dinamik o'zgaruvchanligi.

SIning *muhimligi* quyidagilardan iborat [7]:

- SI texnologiyalari kompyuterda yechiladigan va yechimi iqtisodiy samara olib keladigan amaliy masalalar ko'lamini oshiradi;
- SI texnologiyalari murakkab sohalarni qayta ishlashda yuqori sifat va uzoq muddatlilikga erishish;
- bir necha marta qayta ishlashlar sifatini boshqaruvchi murakkab tizimlarni yo'naltirishdagi yuqori sifat;

-SI texnologiyalari bilan an'anaviy dasturlashtirish texnologiyalarini birlashtirganda: dasturchi tomonidan emas, foydalanuvchi tomonidan sohaning dinamik modifikatsiyalarini ta'minlash; sohalarning yanada «silliqligi»; yaxshi grafika, interfeys va o'zaro ta'sir hisobiga dasturiy mahsulotga yangi sifatlar qo'yiladi.

SIT ni yutuqqa olib kelgan sabablar quyidagilar hisoblanadi [7].

*Integral lashganlik.* SIning boshqa axborot vositalar (Computer Aided Software Engineering (CASE) - dasturiy ta'minotni avtomatik yaratish, MBni boshqarish tizim (MBBT), kontroller, berilganlar kontsentratori va boshqalar) bilan oson integrallashadigan texnik vositalari ishlab chiqilgan.

*Ochiqlilik va ko'chimlilik.* SI ning texnik vositalari ochiqlik va ko'chimni ta'minlaydigan standartlarni kuzatish orqali ishlab chiqiladi.

*An'anaviy dasturlashtirish tillari va ishchi stansiyalardan foydalanish.* SI tizimlarida Lisp, Prolog va boshqa texnik vositalardan an'anaviy dasturlashtirish tillariga(C, C++ va boshqalar) o'tish integrallash ta'minotini qisqartirdi, EHM da operatsiya bajarish tezligini oshirdi va operativ xotira hajmini kamaytirdi. Ishchi stansiyalardan foydalanish sohalar doirasini kengaytirdi.

*Mijoz-server arxitekturasi.* Mijoz-server arxitekturasi bo'yicha taqsimlangan hisoblashlarni qo'llab-quvvatlaydigan SIning sohalari ishlab chiqarilgan. Ular qurilmalar qiyamatini tushiradi, ishonchni va umumiyl ishlab chiqarishni yuksaltiradi.

*Muammoli sohaga mo'ljallangan ITlar.* Umumiy masalalarni yechishga mo'ljallangan ITlardan muammoli, fanga mo'ljallangan ITlarga o'tish, sohalarni qayta ishlash muddatini qisqartiradi, sohalardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ekspert ishini tezlashtiradi va osonlashtiradi hamda axborot va DTdan (obyektlar, sinflar, qoidalar, protseduralar) qayta foydalanishni ta'minlaydi.

## 8-§. Intellektual agentlar

### 8.1. Asosiy tushunchalar va ta'riflar

Agent tushunchasining aniq ta'rifi bugungi kungacha mavjud emas. Asosan agentning ta'rifi sifatida 1996 yilda Tokiyada lingvistika bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiyada qabul qilingan quyidagi ta'rifdan foydalaniladi: "Agent-bu qandaydir muhitda joylashgan, uni o'zgartiradigan va ushbu muhitga ta'sir etadigan buyruqlarni bajaruvchi

hisoblanadi. Agent dastur va apparat kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi" [37].

Agentning aniq ta'rifi hozirgacha mavjud emasligini hisobga olib, quyida agentning ba'zi bir ta'riflarni keltiramiz [37].

*Agent* - bu apparatli yoki dasturiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, u sohib yoki foydalanuvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilish qobiliyatiga egadir.

Agent sifatida *inson* qaralganda maxsus qurilmalar sifatida - uning ko'zi, qulog'i va his etish a'zolari hisobga olinadi, bajaruvchi mexanizmlari sifatida esa - uning qo'li, oyog'i, og'zi va tanasining boshqa qism a'zolari qaraladi. Agent sifatida *robot* qaralganda maxsus qurilmalar sifatida - undagi videokameralar va masofa o'lchagich dalnomerlar hisobga olinadi, bajaruvchi mexanizmlari sifatida esa - undagi turli xil dvigatellar qaraladi. Agent sifatida *dasturiy ta'minot* (*DT*) qaralganda kiruvchi sensorli ma'lumotlar sifatida fayllarni va tarmoqli paketlarni o'zida saqlovchi klavishalarni bosish kodlari qatnashadi, unig muhitga ta'sirini esa ma'lumotlarni ekranga chiqaruvchi, fayllarni yozuvchi va tarmoqli paketlarga uzatuvchi *DT*lar bilan ifodalanadi.

*IA* - bu axborotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayonida hamda maqsadli yo'nalshida axborotlar fazosi ichida avtonom harakat qiluvchi inson harakatini modellashtirishdir. IAning muhim *xususiyati* - uning axborotlar noaniq, noravshan va qarama-qarshi bo'lganda harakat qila olish qibiliyatiga ega ekanlidir.

"Agent" va "Intellektual agent" atamalari ikkita ma'noga ega va bu ba'zan chalkashlikka olib keladi. *SIda IA sifatida* shunday mazmunlar tushuniladiki, ular jarayonlar holati haqidagi ma'lumotlarni sensorlar yordamida oladi va bu ma'lumotlarga aktuatorlar orqali ta'sir etadi. *IA - bu dasturiy tizim, murakkab avtomatlashtirilgan tizim bo'lishi mumkin, masalan texnologik, logistik, iqtisodiy yoki ixtiyoriy boshqa jarayonlarni kompleks boshqaruv.* Agar agentning muhit bilan o'zaro aloqasi qo'yilgan talablar darajasida adekvatli bo'lsa, u holda agentning intellektualligi to'g'risida gapirish mumkin.

Kompyuter fanida *IA - bu kompyuter foydalanuvchisi tomonidan uzoq vaqt davomida belgilangan vazifani mustaqil ravishda bajaradigan dastur*. IAlar operatorga yordam berish yoki ma'lumot to'plash uchun ishlataladi. Agentlar bajaradigan vazifalarning bir misoli - Internetda doimiy ravishda qidirish va kerakli ma'lumotlarni to'plash. Kompyuter viruslari, botlar, qidiruv robotlari - bularning barchasi

IAlarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Bunday agentlar, har qanday boshqalar singari, masalan, Google qidiruv tizimida NTlari tomonidan amalga oshiriladigan murakkab algoritmga ega. Ushbu nuqtai-nazardan intellektual deganda, masalan, qidiruv so'rovlarini va ularni berish natijalarini tahlil qilish natijalari bilan o'zaro bog'lanish imkoniyati tushuniladi. Bitta kompyuter yoki lokal tarmoqda UNIX operatsion tizimlarida IA sifatida demon qatnashadi.

*Informatika va SI sohasidagi IAlar har qanday jismoniy yoki virtual birliklar sifatida tushuniladi [7]:*

- ma'lum bir muhitdagi narsalarga, boshqa agentlarga, shuningdek o'zlariga (harakatlarga) ta'sir ko'rsatishga qodir;
- boshqa agentlar bilan aloqa qilish imkoniyati (aloqa);
- ba'zi ehtiyojlardan kelib chiqqan holda va maqsadlarni belgilashga qodir (ehtiyoj-maqsad bazasi);
- e'tiqod, istak, niyat kabi xarakterli xususiyatlarga ega bo'lish;
- muayyan majburiyatlarni o'z zimmasiga olish va bir qator xizmatlarni taqdim etish (majburiyatlarining mavjudligi);
- o'z manbalariga ega bo'lish, ularning avtonomligini ta'minlash;
- muhitni idrok etishga qodir (cheklangan o'lchamdag'i idrok);
- ushbu muhitni idrokiga qarab qisman vakillikni yaratishga qodir, ya'ni. sezgi qobiliyatlari va qobiliyatlari (muhitning mahalliy vakili);
- o'rganish, evolyutsiya va moslashishga qodir;
- o'zini o'zi tashkil qila oladigan va o'zini o'zi qayta tiklashga qodir.

## **8.2. Intellektual agentlarning xususiyatlari, arxitekturasi va klassifikatsiyasi**

IAlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- mustaqillik - sohibning ishtirokisiz o'zining shaxsiy harakatlarini va ichki holatini nazorat qilish hamda faoliyat yuritish qobiliyatiga egaligi;
- faollik - tashkillashtirish va amalga oshirish qobiliyatga egaligi;
- kirishimlilik - boshqa agentlar bilan o'zaro bog'lanishni va aloqani yo'lga qo'yishga egaligi;
- reaktivlik - tashqi muhit holatini adekvatli idrok etish va unung o'zgarishiga ta'sir etish qobiliyatiga egaligi;
- maqsadga yo'naltirilganlik - shaxsiy dalillarini aniq maqsadga yo'naltirish qobiliyatiga egaligi;

- bazaviy bilimlarning mavjudligi - o'zi, boshqa agentlar va tashqi muhit haqidagi bazaviy bilimlarga egaligi;
  - ishontirish - vaqt o'zgarishi bilan BBning qismi o'zgarishiga osontirish qobiliyatiga egaligi;
  - intilish - aniq maqsadga ishtiyoyq qobiliyatiga egaligi;
  - niyat (maqsad) - o'zning majburiyatlarini yoki hohishlarini bajarishi uchun agent tomonidan rejalashtirilgan harakatlarning mavjudligi;
  - majburiyatilik - bir agentning boshqa agentlar tomonidan qilingan iltimos yoki topshiriqlarni bajarish masalalari.
  - rostgo'ylik - chin ma'lumotlarni yolg'onga almashtirmaslik qobiliyatga egaligi;
  - xayrixohlik (mehribonlik) - agent o'zining oldiga qo'ygan shaxsiy masalasini yechishda boshqa agentlar bilan qarama-qarshiliklarning oldini olish maqsadida ular bilan hamkorlikda ishlash qobiliyatiga egaligi;
  - al'truizm - shaxsiy manfaatlaridan umumiylar maqsadlarni ustun qo'yish qobiliyatiga egaligi;
  - harakatchanlik - agentning tarmoqda kerakli axborotlarni qidirishni amalga oshirish qobiliyatiga egaligi.

Faqatgina dunyoning rasmini ramziy shaklda aniq tasvirlaydigan va rasmiy mulohaza va taqqoslash usullaridan foydalangan holda qaror chiqaradigan arxitektura va agentliklar odatda maslahatchi (1-yondashuv) deb belgilanadi.

Alovida agentlarning va butun tizimning ishlashi "vaziyat-harakat" tipidagi qoidalarga muvofiq amalga oshiriladigan agentlar va arxitekturalar reaktiv deb nomlanadi. Bunday holda, vaziyat ichki va tashqi holatlarning potentsial murakkab kombinatsiyasi sifatida tushuniladi (2-yondashuv).

**Agent arxitekturasi.** Agentlar arxitekturasi agentning funksional komponentalariga qo'yilgan va ish jarayonida uning komponentalarini o'zaro aloqasini tashkillashtirishning qabul qilingan usullari strukturasining ko'rinishiga qarab sinflashtiriladi.

Agentlar arxitekturalarini bazaviy sinflash qabul qilingan arxitekturalarga asoslanadi. Bunga ko'ra agentlar arxitekturasi ikkita sinfga ajratiladi:

- bilimlarga asoslangan agentlar arxitekturasi - "Intellektual agent arxitekturasi";

- tashqi olam hodisalarini hisobga oluvchi tizimlar harakatiga asoslangan agentlar arxitekturasi -“Reaktivli arxitektura”.

Qoidaga ko’ra agent arxitekturasi ko’ppog’onali sxemada ifodalanadi. Ko’ppog’onali arxitekturada har bir pog’ona agentlarning turli xil, ya’ni tashqi hodisalarini idrok etish va ularga oddiy ta’sir etish kabi funksional xarakteristikalarini ifodalaydi. *Funksional xarakteristikalarga munosabat bildirish, maqsadlarni boshqaruv, boshqa agentlar munosabatiga qarab harakatni boshqarish, agentning ichki holatini yangilash, tashqi olam holatini bashoratlash, navbatdagi qadamda o’zining harakatini aniqlash va h.k. kiradi.*

Agent arxitekturasida ko’p uchraydigan pog’onalar harakatlarni qabul qilish va bajarish, reaktivli va kooperativli munosabatlarni, lokal rejalahtirishni amalga oshirish, tashqi muhitni modellahtish, maqsadni shakkantish va agentni o’rgish kabi masalalarga mas’ul hisoblanadi.

**Agentlar klassifikatsiyasi.** Har bir jamoa yoki muallif tomonidan masalaning yechimi, yaratilayotgan ishlanma, joriy etish texnikasi va o’rnatilgan mezonlar kabi parametrlarni hisobga olishiga qarab agentlarni avtonom agentlar, maxsus assistentlar, IAlar, sotsial agentlar kabi sinflarga ajratish mumkin [37]. Tashqi olamni ichki tasvirlash imkoniyat darajasi va agentlarning harakat uslublariga qarab ularni lokalli, tarmoqli, mobilli, interfeysli, transliyatsiya qiluvchi va marshrutlovchi agentlar kabi sinflarga ajratish mumkin [37].

### **8.3. Agentning samaradorlik ko’rsatkichlari, ratsionalligi va muammoli muhit**

**Samaradorlik ko’rsatkichlari.** Samaradorlik ko’rsatkichlari agentning muvaffaqiyatli xatti-harakatlarini baholash mezonlarini o’z ichiga oladi. Agent muhitga kirishgandan so’ng, u qabul qilingan idrokka mos keladigan harakatlar ketma-ketligini ishlab chiqadi. Ushbu harakatlar ketma-ketligi muhitni holatlar ketma-ketligidan o’tishga majbur qiladi. Agar ushbu ketma-ketlik xohishingizga mos tushsa, u holda agent yaxshi ishlaydi. Albatda, barcha agentlar uchun mos keladigan bitta doimiy ko’rsatkich bo’lishi mumkin emas. Alovida agentning o’z ishidan qoniqaanligi haqidagi subyektiv fikrini bilish mumkin, ammo ba’zi agentlar bunday savolga javob bera olmaydilar, boshqalari esa o’zlarini aldashni ma’qul ko’radilar. Shu sababli, obyektiv samaradorlik ko’rsatkichlaridan foydalanishni doimiy ravishda

izlash kerak va odatda agentni qurishni loyihalovchi bunday ko'rsatkichlarni e'tiborga oladi.

Umumiy qoida sifatida shuni ko'rsatish kerakki, bunda samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda agent loyihalovchi fikri bilan emas, balki ushbu muhitda haqiqatdan nimaga erishish kerakligini hisovga olishi kerak.

**Agentning ratsionalligi.** *Ratsional agent* - bu to'g'ri harakat qiladigan kishi. Birinchi taxmin sifatida biz to'g'ri harakat - bu agentning eng muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlaydigan harakat deb aytishimiz mumkin. Shuning uchun muvaffaqiyatni o'lchashning ma'lum bir usuli talab qilinadi. Muvaffaqiyat mezonlari muhitning tavsifi bilan bir qatorda, agentning sensorlari va aktuatorlari agent oldida turgan vazifalarning to'liq spetsifikatsiyasini ta'minlaydi. Ushbu tarkibiy qismlar yordamida biz "ratsional" so'zi nimani anglatishini aniqroq aniqlashimiz mumkin.

Har qanday vaqtida, agentning harakatlarining mantiqiyligini baholash quyida keltirilgan to'rt omilga bog'liq [37]:

- 1) Muvaffaqiyat mezonlarini belgilaydigan ishlash ko'rsatkichlari;
- 2) Agentning muhit to'g'risidagi ilgari olingan ma'lumotlari;
- 3) Agent tomonidan bajarilishi mumkin bo'lган harakatlar;
- 4) Agentning idrok etish harakatlarining ketma-ketligi.

Ratsional agent o'rganish va avtonom bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi  
kerak.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, ratsional agentning quyidagi ta'rif shakllantirilishi mumkin: *idrok qilish harakatlarining har bir ketma-ketligi uchun, ratsional agent ushbu idrok aktlari ketma-ketligi va barcha mavjud bilimlarni hisobga olgan holda, o'z ko'rsatkichlarini maksimal darajada oshirishni kutadigan harakatni tanlashi kerak.*

*Ratsionallik* - bu kutilgan ko'rsatkichni oshirish, mukammallik esa haqiqiy ish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Ratsional agent nafaqat ma'lumot to'plashi kerak, balki u qabul qiladigan ma'lumotlardan iloji boricha ko'proq narsani o'rganishi kerak. Agar agent o'z idrokiga emas, balki o'z dizaynerining dastlabki bilimlariga tayanadigan daraja juda yuqori bo'lisa, unda bunday agent yetarli darajada avtonomiya yaga ega bo'lmaydi. Ratsional agent avtonom bo'lishi kerak, ya'ni u apior bilimi to'liq bo'limgan yoki noto'g'ri bo'lgan holatda uni kompensatsiya qilish uchun hamma narsani o'rganishi kerak.

**Muammoli muhit.** Ratsionallik tushunchasini anglab olganimizdan keyin avvalo ratsional agent "echim" sifatida xizmat qiladigan muammoli muhit nima ekanligini aniqlash kerak. Muayyan agent dasturiga eng mos keladigan loyihani tanlash bevosita ko'rib chiqilayotgan muammoli muhit turiga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida oddiy agentning ratsionalligini o'rganishda biz *samaradorlik ko'rsatkichlari*, *muhitni hamda agentning bajaruvchi mexanizmlari* (aktuatorlari) va *datchiklarini* aniqladik. Ushbu omillarning barchasini muammoli muhit deb tavsiflaymiz va uni PEAS (Performance (samaradorlik), Environment (muhit), Actuators (bajaruvchi mexanizmlar), Sensors (datchiklar)) deb belgilaymiz [37]. Har qanday agentni loyihalashtirishning birinchi bosqichi har doim imkon qadar to'liqlilikga ega bo'lgan muammoli muhitni aniqlashdan iborat bo'lishi kerak.

1.1-jadvalda bir nechta agentlar uchun PEASning asosiy elementlari keltirilgan. 1.1-jadvaldagи taksi haydovchisining muammoli muhiti (PEAS) misolidan ko'rinish turibdiki, birinchi navbatda avtomatlashtirilgan haydovchi faoliyatini rag'batlantiradigan ishslash ko'rsatkichlarini aniqlashi kerak.

Kerakli sifatga erishishga istalgan maqsadga muvaffaqiyatlari etishish, yoqilg'i sarfini minimallashtirish, safar davomiyligi va / yoki narxini minimallashtirish, yo'l harakati qoidalarini buzish va boshqa haydovchilar bilan kesishishni minimallashtirish, yo'lovchilar xavfsizligi va qulayligini maksimal darajada oshirish va foydani ko'paytirish kabilalar kiradi.

Sida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli muhitning turli xil variantlari bor. Muammoli muhit variantlari quyidagilardan iborat [37]:

1. *To'liq kuzatish yoki qisman kuzatish.* Agar agent sensori unga har qanday vaqtida muhitning holati to'g'risida to'liq ma'lumot olish huquqini beradigan bo'lsa, unda bunday muammoli muhit to'liq kuzatiladigan deb nomlanadi. Aslida, muammoli muhit to'liq kuzatiladi deb hisoblanadi, agarda agent harakatni tanlashi uchun sensorlar barcha relevantli ma'lumotlarni aniqlasa. Relevantlik, o'z navbatida, samaradorlik ko'rsatkichlariga bog'liq. Shovqin keltirib chiqaradigan va noaniq sensorlar tufayli yoki uning holatining ba'zi xususiyatlari sensorlardan olingan ma'lumotlarda yo'qligi sababli muhit *qisman kuzatilishi* mumkin, masalan, avtomatlashtirilgan taksi haydovchisi boshqa haydovchilar qanday harakatlarni amalga oshirishni rejalashtirishni bilishmaydi.

*2. Deterministik yoki stoxastik.* Agar muhitning keyingi holati hozirgi holat va agent tomonidan bajariladigan harakatlar bilan to'liq aniqlansa, unda bunday muhit deterministik, aks holda stoxastik deb ataladi.

### 1.1-jadval. Agent turlari va ularning PEAS tavsiflariga misollar.

Agent turi	Samaradorlik ko'rsatkichlari	Muhit	Bajaruvchi mexanizmlar	Datchiklar
Taksi haydovchisi	Qoida ramkasida xavfsiz va tez haydash hamda eng ko'p foyda olish.	Yo'llar, boshqa transport vositalari, piyodalar, mijozlar.	Rolli boshqaruvi, gaz, tormoz, yoryg'lik signallari, ovozli signallar, display.	Videokameralar, masofani ultraovozli o'Ichagich, boshqarish tizimi, dvigatel datchiklari.
Tibbiy diagnostik tizimi	Bemorni muvaffaqiyatli davolash, xarajatlarni minimallashtirish, sudga hech qanday sababning yo'qligi	Bemor, shifoxona, xodimlar	Savollar, testlar, tashxislar, tavsiyalar, ko'rsatmalarining xulosasi	Alomatlarining klaviatura orqali kiritilishi, laboratoriya tekshiruvi natijalari, bemorning javoblari
Sun'iy yo'ldosh tasvirlarin i tahlil qilish tizimi	Tasvirlarni to'g'ri sinflash	Orbitaning sun'iy yo'ldoshida n olingan ma'lumotlarni uzatish kanali	Tasvirning ma'lum bir qismini sinflash natijalarini displayda chiqarish	Rangli ma'lumotlar -ga ega bo'lgan piksell massivlar

*3. Epizodik yoki ketma-ket.* Epizodik muammoli muhitda agentning tajribasi bo'linmas epizodlardan iborat bo'ladi. Har bir epizod agentning muhitni idrok etishini va keyin bitta harakatni bajarishni o'z ichiga oladi. Keyingi epizod avvalgi epizodlarda qilingan harakatlardan mustaqil bo'lishi juda katta ahamiyatga ega. Sinflash masalalarining

ko'philigi epizodikli hisoblanadi. Masalan, detallarni yig'ish liniyasida nuqsonli detallarni aniqlovchi agent, oldingi qarorlardan qat'iy nazar, joriy detal uchun har bir qarorni shakllantiradi. Shuningdek, navbatdagi detalning nuqsonini aniqlash joriy holartda qabul qilingan qarorga bog'liq bo'lmaydi. Boshqa tomondan, *ketma-ketlik sharoitida* joriy qaror kelajakdag'i barcha qarorlarga ta'sir qilishi mumkin. Shaxmat o'yini kabi masalalar ketma-ketlikga asoslanadi, ya'ni qisqa muddatli harakatlar uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4. *Statik yoki dinamik.* Agar agent keyingi harakatni tanlash jarayonida muhit o'zgarishi mumkin bo'lsa, u holda bu muhit ushbu agent uchun dinamik, aks holda statik deyiladi. Agar muhitning o'zi vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, lekin agentning ishlash ko'rsatkichlari o'zgarsa, unda bunday muhit yarim dinamik deb ataladi. Masalan taksi haydash muhitini dinamik, vaqt nazorati bilan shaxmat o'ynash muhitini yarim dinamik va krossvordli jumbojni hal qilish statik muhit hisoblanadi.

1.2-jadval. Muammoli muhit variantlari va ularning xarakteristikalariga misollar.

Muammoli muhit	To'liq kuzatiladigan (TK) yoki qisman kuzatiladigan (QK).	Deterministik (DM) yoki stoxastik (SX)	Epizodik (EP) yoki ketma-ket (KK)	Statik (ST), dinamik (DI) yoki polidinamik (PD)	Diskret (DK) yoki uzluksiz (UZ)	Bitta agent (BA) yoki ko'pagej (KA)
Taksi haydash	QK	SX	KK	DI	UZ	KA
Tibbiy diagnostika	QK	SX	KK	DI	UZ	BA
Tasvirni tahlil qilish	TK	DM	EP	PD	UZ	BA

5. *Diskret yoki uzluksiz.* Muhitning diskret va uzluksiz versiyalari o'rtaсидаги farq muhitning holati, vaqtini qayd etish usuli va agentning idrok va xatti-harakatlariga bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, shaxmat o'yini singari diskret sharoitida chegaralangan sonlar mavjud. Taksi haydash faoliyatini uzluksizdir (boshqaruv burchagini doimiy sozlash va boshqalar).

*6. Bitta agent yoki ko'p agent.* Krossvordli jumboqni mustaqil ravishda hal qiladigan agent bitta agentlik muhitida, shaxmat o'yinaydigan agent esa ikki agentlik muhitida ishlaydi. Biroq, ko'p agentli muhit tabiatda har xil bo'lishi mumkin. Masalan, shaxmatda B raqibi o'z ko'rsatkichlarini maksimal darajada oshirishga harakat qiladi va bu, shaxmat qoidalariga ko'ra, A agenti ko'rsatkichlarining minimallahishiga olib keladi. Shunday qilib, shaxmat raqobatbardosh ko'p agentlik muhitidir.

1.2 - jadvalda muhitga xos bo'lgan bir nechta variantlarning xususiyatlari keltirilgan.

#### **8.4. Sun'iy intellektdagi intellektual agentlarning turlari**

**Intellektual agentlarning sinflari.** SI da agentlarning bir nechta tipi mavjud. Masalan:

*1. Fizik agent* - bu muhit haqidagi axborotlarni sensorlar yordamida qabul qiladi va manipulyatorlar yordamida harakat qiladi.

*2. Vaqtli agent* - bu vaqt bo'yicha o'zgaradigan axborotlardan foydalanuvchi va ba'zi harakatlarni taklif etuvchi, yoki ma'lumotlarni kompyuter dasturiga yoki insonga taqdim etuvchi va axborotlarni dasturli kiritish orqali oluvchi hisoblanadi.

**Agent tuzilmasi.** SIning vazifasi - idrok va xatti-harakatlarni aks ettirishda agent funksiyasini ifodalovchi dasturlarni ishlab chiqishdan iborat. Bu holda dastur fizik datchiklar va bajaruvchi mexanizmlardan iborat hisoblash qurilmasi asosida ishlashi taxmin qilinadi. By komponentlar agentning arxitekturasi deb nomlanadi va agent tuzilmasi shartli ravishda quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$\text{agent} = \text{arxitektura} + \text{dastur}$$

Arxitektura an'anaviy shaxsiy kompyuter bo'lishi mumkin yoki u videokameralar va boshqa datchiklarga ega robotlashtirilgan avtomashina sifatida amalga oshirilishi mumkin. Umuman olganda, arxitektura datchiklardan olingan idrok natijalarini dasturga, dasturni bajarishga va dastur tomonidan tanlangan harakatlar variantlarini ijro etuvchi mexanizmlarga o'tkazishni ta'minlaydi.

**Agent dasturlari.** Barcha agent dasturlar bir xil tuzilishga ega: ular datchiklardan joriy idrok etish natijalarini kirish ma'lumotlari sifatida qabul qiladi va tanlangan harakat variantini bajaruvchi mexanizmlarga (aktuatorlarga) qaytaradi. Agent dasturi kiruvchi ma'lumotlar sifatida faqat joriy idrok natijalarini oladi, chunki u o'z

muhitidan boshqa hech narsa o'rgana olmaydi. Deyarli barcha ITlarning asosini tashkil etuvchi dasturli agentlarning *oddiy refleksli, modellarga asoslangan refleksli, maqsad asosida harakat qiluvchi va foyda asosida harakat qiluvchi* asosiy turlari mavjud.

**Oddiy refleksli agentlar.** Oddiy refleksli agentlari juda sodda, ammo

ular juda cheklangan aqlga ega bo'ladi. Ushbu turdag'i agentlar, agar to'g'ri qaror faqat hozirgi idrokka asoslangan holda, boshqacha aytganda, muhit to'liq kuzatilgan bo'lsa, ishlaydi. Kichik miqdordagi kuzatilmaslikning joriy etilishi uning ishlashiga jiddiy xalaqit berishi mumkin. Misol. АГЕНТ - tozalagich: Qarorlar faqat mavjud joy va unda axlat borligi haqidagi ma'lumotga asoslanadi.

**Modelga asoslangan refleksli agentlar.** Qisman kuzatish sharoitida ishni tashkillashtirishning eng samarali usuli - bu joriy vaqtida agent tomonidan idrok etilgan ma'lumotlarga mos keluvchi dunyoning qismini kuzatishdan iborat. Bu shuni anglatadiki, agent idrok qilish aktlari tarixiga bog'liq bo'lgan va shu bilan birga hech bo'limganda hozirgi holatning kuzatib bo'lmaydigan tomonlarini aks ettiradigan o'ziga xos ichki holatni saqlab turishi kerak. Misol sifatida mashinani boshqarishda mashina xarakatini bir qatordan boshqasiga o'tish masalasini hal qilish uchun agent boshqa barcha avtomobilarni bir vaqtning o'zida ko'rolmasa, u boshqa mashinalarning qaerdaligini kuzatishi kerak. Vaqt o'tishi bilan ushu ichki holat haqidagi ma'lumotni yangilash uchun ikki xil ma'lumot agent dasturiga kodlangan bo'lishi kerak. Birinchidan, mashinalar xarakati holati agentdan bog'liq bo'limgan holda o'zgaradi, masalan, oldinda xarakatlanayotgan mashinani quvib o'tmoqchi bo'lgan mashina oldindi xarakatini o'zgartirib oldindi mashinaga yaqinlashadi. Ikkinchidan, agentning o'z xatti-harakatlari holatga qanday ta'sir qilishi to'g'risida ma'lum ma'lumotlar talab qilinadi, masalan, agent rulni soat yo'nalishi bo'yicha aylantirganda, mashina o'ngga buriladi yoki mashina besh minut mobaynida shimolga xarakatlangandan keyin u besh minutdan oldindi holatiga nisbatan 5 kilometr shimolda joylashgan bo'ladi. Bu holatlarning o'zgarishini mantiqiy sxemalar yoki murakkab ilmiy nazariyalar bilan model ko'rinishda tasvirlash mumkin. *Bunday modeldan foydalananadigan agentga modelga asoslangan agent deyiladi. Modelga asoslangan refleksli agent ichki holat asosida harakat qiladi va hozirgi idrok oldindi ichki holat bilan birlashtirilib, hozirgi holatning yangilangan tavsifini beradi.*

**Modelga va maqsadga asoslangan agentlar.** Muhitning hozirgi holatini bilish har doim ham nima qilish kerakligi to'g'risida QQQ uchun yetarli emas. Masalan, chorrahada taksi chapga, o'ngga yoki to'g'riga harakatlanishi mumkin. To'g'ri qaror, bu taksining qaerga borishiga bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, agent nafaqat hozirgi holatning tavsifiga, balki yo'lovchini belgilangan manzilga etkazish kabi istalgan vaziyatlarni tavsiflovchi maqsad haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Agent dasturi maqsadni amalga oshiruvchi harakatlarni tanlash uchun ushbu ma'lumotlarni mumkin bo'lgan harakatlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan (refleks agentining ichki holatini yangilash uchun ishlatalgan ma'lumot bilan) birlashtirishi mumkin.

Ba'zan maqsadga asoslangan harakatni tanlash vazifasi oddiy bo'ladi, agarda maqsadga erishish bitta harakatning natijasi bo'lsa, ba'zida bu vazifa yanada qiyinlashadi va bu holda agent maqsadga erishish uchun harakatlarning uzoq ketma-ketliklarini hamda burilashlarni ko'rib chiqishi talab qilinadi.

**Maqsadga asoslangan agent** kamroq samaraliroq bo'lsada, u yanada moslashuvchan, chunki uning qarorlariga asoslangan bilim aniq taqdim etiladi va o'zgartirilishi mumkin.

**Foydalilikga asoslangan agentlar.** Foydalilik funksiyasi holatni (yoki holatlar ketma-ketligini) agentning qoniqish darajasiga mos keladigan haqiqiy son bilan ifodalaydi. Foydalilik funksiyaning to'liq spetsifikatsiyasi maqsadlar natija bermaganda quyidagi ikkita holatda ratsional QQQ imkoniyatini beradi. Birinchidan, shunday qarama-qarshi maqsadlar mavjud bo'lib, ularning ba'zilariga (masalan, yoki tezlik, yoki xavfsizlik) erishish mumkin bo'lsa, u holda foydalilik funksiyalar sizga maqbul murosani topishga imkon beradi. Ikkinchidan, agar agent erishishi mumkin bo'lgan bir nechta maqsadlar mavjud bo'lsa, ammo ularning hech biri to'liq aniqlik bilan amalga oshmasa, u holda foydalilik funksiyasi maqsadlarning muhimligini hisobga olib, yutuqga erishishning ehtimolini baholashning qulay usulidan foydalanishga imkoniyat yaratadi.

**Oddiy agentlar.** Bunday agentlar joriy bilimlar asosida harakat qiladi. Ularning agentlik funksiyasi "shart-harakat" sxemasiga asoslanadi.

IF (shart) THEN harakat

Bu funksiya muvaffaqiyatli qo'llaniladi, qachonki bizni o'rab turgan muhitni to'liq nazoratga olish mumkin bo'lsa.

**O'rganuvchi agentlar.** O'rganuvchi agent(O'A)ning tuzilishini to'rtta kontseptual tarkibiy qismga bo'lish mumkin. Eng muhim farq takomillashtirishni amalga oshirishga javob beradigan *o'rganuvchi komponent* va tashqi harakatlarni tanlashni ta'minlaydigan *samaradorlik komponenti* o'rtasida kuzatiladi.

*Samaradorlik komponenti* - bu idrok qilingan ma'lumotni qabul qiladigan va hatti-harakatlarning bajarilishi haqida qaror qabul qiladigan agentning qismi hisoblanadi. *O'rganuvchi komponent* agentning qanday harakatlanishini baholash uchun tanqidchining fikridan teskari aloqa yordamida foydalanadi va kelajakda samaraliroq harakatlanish uchun samaradorlik komponentni qanday o'zgartirish kerakligini aniqlaydi.

Nikolay Kasabov [22] fikriga ko'ra, *IAlar tizimi quyidagi qobiliyatlarni namoyon qilishi kerak:*

- atrof-muhit bilan o'zaro munosabat jarayonida o'rganish va rivojlanadirish;
- real vaqt rejimiga moslashish;
- katta hajmli ma'lumotlarga asoslanib tez o'rganish;
- muammolarni hal qilishning yangi usullariga bosqichma-bosqich moslashish;
- misollar bazasini to'ldirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- tez va uzoq xotirani, yoshni va boshqalarni modellashtirish parametrlariga ega bo'lish;
- xulq, xato va muvaffaqiyat nuqtai nazaridan o'zini tahlil qilish.

**Subagentlar.** IA o'zining vazifasini faol bajarish uchun ko'plab subagentlarni o'z ichiga oluvchi ierarxik tuzilmaga ega bo'ladi. Subagentlar IAlar tarkibiga kiradi va ular quyidagi qayta ishslash va bajarish funksiyalarini amalga oshiradi. IAlar va subagentlar birgalikda murakkab masalalarni bajarishda to'liq tizimni tashkil etadi.

Subagentlarning bir nechta *tipi* mavjud:

- 1) Vaqtli agentlar - tezkor QQQ uchun;
- 2) Fazoli agentlar - haqiqiy olam bilan o'zaro aloqa qilish uchun;
- 3) Sensorli agentlar - sensorli signallarni qayta ishslash uchun;
- 4) Qayta ishlaydigan agentlar - nutqni tanish tipidagi muammolarni yechadi;
- 5) Qaror qabul qiluvchi agentlar - muammolar bo'yicha QQQ uchun;
- 6) O'Alar - boshqa IAlar uchun strukturalar va MBni yaratish uchun;

7) Dunyoviy agentlar-avtonom ravishda harakat qilish maqsadida o'zida barcha qolgan agentlarni birlashtirish uchun.

**Bilimlarga asoslangan agentlar.** Bilimlarga asoslangan ixtiyoriy agentning asosiy komponenti uning BB hisoblanadi. BBni yangi bilimlar bilan to'ldirib borish va BBdagi mavjud bilimlarni o'zgartirishning ma'lum uslubi (dasturi) mavjud bo'lishi kerak. BBdagi bilimlar mantiqiy mulohazalar sifatida qaraladi va ular ustida mantiqiy amallarni qo'llab mantiqiy xulosalar hosil qilinadi. Bunday mantiqiy amallarni bajarish uchun maxsus Tell va Ask dasturlaridan foydalaniladi. Bu dasturlar mavjud bilimlarga mantiqiy amallarni qo'llab yangi mantiqiy xulosalarni hosil qiladi. Tell va Ask dasturlaridan foydalanuvchi agent dasturining ishlashi uch qadamdan iborat. Birinchi qadamda - Tell funksiyasi yordamida qabul qilingan ma'lumotlar BBga joylashtiriladi, ikkinchi qadamda - Ask funksiyasi yordamida qanday harakatni amalga oshirish kerakligi haqida BBga so'rov yuboriladi. Ushbu so'rovga javob berish jarayonida tashqi olamning joriy holati bo'yicha mukammal fikrlashlar o'kaziladi, mumkin bo'lgan harakatlar ketma-ketligi asosida olingan natijalar tahlil qilinadi. Uchinchidan, agent Tell funksiyasi yordamida o'zining tanlagan variantini ro'yxatga oladi va o'z harakatini bajaradi. Tell funksiyasi o'zining navbatdagi amali yordamida action harakatining haqiqiy bajarilganligi haqida BBga ma'lumot yuboradi.

## 8.5. Informatika sohasida intellektual agentlar

**Kompyuter sohasidagi IAlar.** Bunda asosan to'rtta tipli IAlar mavjud:

1. Sotish bilan shug'ullanuvchi robotlar;
2. Foydalanuvchiga mo'ljallangan yoki personal agentlar;
3. Boshqaruvchi va kuzatuvchi agentlar;
4. Axborotlarni oluvchi agentlar.

1. Sotish bilan shug'ullanuvchi robotlar-tarmoq resurslaridan (ko'proq intenetdan) sotiladigan tovarlar va xizmat ko'rsatish to'g'risidagi axborotlarni to'playdi. Bunday robotlar xo'jalik tovarlari, ya'ni kompakt-disklar, kitoblar, elektr tovarlari va boshqa tovarlarni sotish uchun samarali ishlaydi. Bunday robotlarga misol sifatida Amazon.com ni keltirish mumkin.

2. Foydalanuvchiga mo'ljallangan yoki personal agentlar-busizning nomingizdan sizning qiziqishingizga qarab harakat qiluvchi IA hisoblanadi. Bunday agentlar quyidagi topshiriqlarni bajaradi:

- sizning pochtangizni tekshiradi, ularni muhimligi bo'yicha saralaydi, keladigan xat to'g'risida sizni xabardor qiladi;

- kompyuter o'yinlarida sizning opponentingiz sifatida o'ynaydi;

- yangiliklarni to'playdi;

- tanlangan fan bo'yicha axborotlarni izlaydi;

- mustaqil ravishda web-shakllarni to'ldiradi va kelajakda foydalanish uchun axborotlarni saqlaydi;

- web - sahifalarni ko'rib chiqadi va tayanch axborotlarni yoritadi;

- siz bilan turli mavzularda bahslashadi.

3. Boshqaruvchi va kuzatuvchi agentlar - bu kuzatishni amalga oshiradi va hisobtlarni jo'natadi. Masalan, "NASA's Jet Propulsion Laboratory" da inventarlar, rejalashtirish, jadval tuzish holatlarini kuzatuvchi agent bor. Bunday agentlar kompyuter tarmoqlarini kuzatadilar va tarmoqqa ulangan har bir kompyuter konfigurasiyasini nazorat qiladi.

4. Axborotlarni oluvchi agentlar - bu ma'lumotlar omborida harakat qilib ma'lumotlarni yig'ish bilan shug'ullandi. Ma'lumotlar ombori turli manbalardan olingan axborotlarni o'zida birlashtiradi. Axborotlarni yig'ish - bu kelajakda foydalanish uchun ma'lumotlarni qidirish jarayoni, masalan, sotuvni ko'paytirish yoki sotib oluvchilarni jaib etish.

**Dasturli agentlar.** Bunday agentlarni sinflashda quyidagi asosiy alomatlardan foydalaniladi:

- tashqi muhit haqidagi ichki tasvirlashlarning rivojlanish darajasi;

- munosabat uslubi.

Birinchi alomat bo'yicha agentli dasturlar intellektual (kognitivli, fikrllovchi) va reaktiv agentlarga bo'linadi.

*Intellektual agentlar* o'zida mavjud BBga, harakatlarni fikrlash va tahlil qilishning mavjudligi uchun tashqi muhitni yaxshi va simvolli modellashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

*Reaktivli agentlar* tashqi olam haqida umuman yoki cheklangan tasavvurga ega va bashorat qilish ko'lami juda cheklangan bo'ladi. Ular o'zining harakatini rejalashtirish qobiliyatiga ega bo'lmaydi, tashqi olam ta'siriga kuchli bog'langan bo'ladi. Ular fikrlashdan foydalanmaydi va shaxsiy resurslarga han ega bo'lmaydi.

*Kognitivli agentlar* reaktivli agentlarga nisbatan tashqi olam to'g'risida ko'proq tasavvurga ega bo'ladilar. Bunga ular o'zlaridagi mavjud BB va masalani yechishning mexanizmlari yordamida erishadilar. Kognitivli agentlar tashqi olamni ichki tasavvur etish va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanganligi sababli turli holatlarni saqlash va tahlil qilish, o'z harakatiga ta'sir etuvchi turli holatlarni bashorat qilish, o'z harakatlaridan kelib chiqib kelajakda qanday harakat qilishni rejalashtirish uchun xulosa chiqarish qobiliyatlariga ega.

*Mobilli agentlar* - bu tarmoq bo'yicha ko'chib yuradigan dastur hisoblanadi. Ular o'zining harakatini bajarish uchun kliyent kompyuterdan chiqadi va masofaviy serverga ko'chadi, undan keyin yana orqaga qaytadi. Mobil agentlar KTlar uchun istiqboli porloq hisoblanadi, lekin hozirgi vaqtida ularni yaratishning alohida standartlari mavjud emas, bir qator muammolar, ya'ni tarmoq bo'yicha siljishning rasmiy uslublari, tarmoq bo'yicha beriladigan viruslardan himoyalash, agentlar tomonidan shaxsiy mulk huquqiga rioya qilish, axborotlarning maxfiyligini saqlash kabilar o'z yechimini topaolmayapti.

**Dasturli agentlarga misollar.** 1) IBM firmasi tomonidan ishlab chiqilgan ABE (Agent Building Environment) agentlarni yaratish muhiti - IAlarga asoslangan hamda mavjud ilovalarni yangi agentlar bilan to'ldiruvchi ilovalarni yaratish uchun qo'llaniladi. Bunda IA muhit shartlarini kuzatadi, qoidalar asosida qaror qabul qiladi va natijada ba'zi harakatlarni bajaradi.

2) Bits & Pixels firmasi tomonidan ishlab chiqilgan Intelligent Agent Library maxsuloti agentlarning o'zaro aloqasini va agentlar guruhini qurishni ta'minlash uchun qo'llaniladi. U Web-ilovalarda ishlaydigan agentlarning namunaviy misollarini o'z ichiga olgan. Bu ilova mobil agentlarni yaratishda qo'llaniladi.

## 8.6. Ko'pagentli tizimlar

**Ko'p agentli tizimlar sohasidagi tadqiqotlarning tuzilmasi.** So'nggi o'n yillikda SIning turli sohalarida "ko'pagentli tizimlar" (KAT) nomi bilan olib borilgan tadqiqotlar etakchi o'rirlardan birini egallab kelmoqda.

*Ko'p agentli tizimlar* o'zlarining bilim bazalari va fikrlash vositalariga ega bo'lgan alohida ITlarning birikmasidan iborat bo'lib taqsimlangan intellekt tamoyili asosida quriladi. KATlarni qandaydir

maqsadga erishish uchun hamkorlik qilayotgan bir nechta agentlarning dasturiy tizimi sifatida qarash mumkin. Agarda har bir agent tizim tomonidan o'ziga alohida qo'yilgan masalani yecha olmasa, u holda agentlar ushbu masalani birgalikda yechishi kerak.

*KAT - bu maqsadga erishish uchun bir nechta agentlar hamkorlik qiladigan dasturiy tizim.* Tizimga qo'yilgan masalani echishni har bir alohida agent amalga oshira olmasa, u holda agentlar guruhi uni birgalikda hal qilishlari kerak. Muammoni hal qilishda agentlar o'z doiralarida ma'lumot almashishlari, bir-birlariga qismmasalalarni echish uchun uzatishlari mumkin.

Bugungi kunda KAT tarmoqda tarqatiladigan, tegishli ma'lumotlarni,

bilimlarni va protseduralarni qidirishda va qarorlarni qabul qilish jarayonida hamkorlikda ishlaydigan IAlar to'plami sifatida qaraladi.

*KAT sohasidagi tadqiqotlarni shartli ravishda quyidagi asosiy yo'naliishlarga bo'lish mumkin:*

- agentlar haqidagi fikrlarni tavsiflash va agentlar istaydigan xususiyatlarni tavsiflash uchun rasmiyatçiliklar (formalizmlar) va matematik usullarni hisobga oladigan agentlar nazariyasi;

- muammolarni birgalikda hal etish jarayonida yoki o'zaro ta'sirning boshqa har qanday variantlarida agentlarning hamkorlik usullari (kooperativ xatti-harakatlarni tashkil etish);

- agentlar va ko'pagentlik tizimlari arxitekturasi - ma'lum bir xususiyatlarga javob beradigan, kompyuterlar nazariyasi yordamida ifodalangan kompyuter tizimini yaratish bo'yicha tadqiqotlar sohasi;

- agentlar dasturlash tillari;

- agentlar bilan aloqa qilish usullari, tillari va vositalari;

- agentlarning harakatchanligini qo'llab-quvvatlash usullari va dasturlari (agentlarning tarmoq orqali ko'chishi).

**KATlarni sinflash.** KATlar quyidagi *qidalarga* tayanadi:

1) KAT oddiy va bir-biri bilan bog'liq agentlar birlashmasidan hosil qilinadi;

2) har bir agent hodisalarga munosabatini lokal tarmoqda mustaqil va boshqa agentlar bilan o'zaro kelishilgan holda aniqlaydi;

3) agentlar orasidagi aloqalar to'gridan-to'g'ri (gorizontal) bo'ladi, ya'ni boshqa agentlar bilan o'aro munosabatni boshqaruvchi агента-супервизор mavjud bo'lmaydi;

4) agentlarning global xatti-harakatlarini aniqlash uchun aniq qoidalar bo'lmaydi;

5) jamoaviy darajadagi xatti-harakatlar, xususiyatlar va tuzilmalar faqat agentlarning lokal o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Tashqi dunyoni ichki tasvirlash darajasiga qarab KATlar intellektual va reaktiv agentlarga ajraladi.

**Reaktiv agentlar.** Bunday agentlar tashqi muhitni ichki tafsivlashda ancha cheklangan (yoki umuman yo'q) va oldindan bashorat qilish doirasi juda cheklangan bo'ladi va deyarli o'z harakatlarini rejalashtirishga qodir emas, asosan stimul-reakтив aloyalar darajasida ishlaydi, juda kam individuallikka va tashqi muhitga (agentlar hamjamiyatiga) kuchli bog'langan bo'ladi.

**Kognitiv agentlar.** Bunday agentlar tashqi muhitni reaktiv agentlarga qaraganda yaxshiroq tasavvur qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu holat ularda BB va masalani echish mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Kognitiv agentlar tashqi muhitni ichki tasvirlashning rivolanganligi hisobiga va fikrlash qobiliyatlarini imkoniyatlarining mavjudligi tufayli turli xil vaziyatlarni saqlashi va tahlil qilishlari, o'zlarining xatti-harakatlariga mumkin bo'lgan reaksiyalarni oldindan bilishlari, bundan keyingi harakatlar uchun foydali bo'lgan xulosalar chiqarishlari va natijada o'z xatti-harakatlarini rejalashtirishlari mumkin.

Kognitiv agentlar aniqroq individuallikka ega, ular reaktivlardan ko'ra avtonomdir va boshqa agentlardan mustaqil ravishda, agentlar jamoasida rivojlangan maqsadli harakatlar bilan ajralib turadi. Kognitiv agentlar murakkabligi, bilimlari, xatti-harakati va tashqi muhit haqida mulohaza yuritish qobiliyati tufayli ancha moslashuvchan xatti-harakatni namoyish etib, nisbatan mustaqil ravishda ishlashlari mumkin.

**O'z-o'zini o'rganuvchi agentlar.** Bunday agentlar modeli KAT hamjamiyatida istiqbolli modellardan biri hisoblanadi. Bynda SIning ETlar sohasida bilimlarni hosil qilish va mashinali o'rganish yo'nalishlaridagi olingan natijalarga murojaat qilinadi. Shubhasiz, KATga nisbatan o'rganish muammosi hali ham hisobga olinmagan va u o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jamoaviy xatti-harakatlar asosida O'Alar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega, chunki muammolarni birgalikda hal etishda bir nechta agentlarning bilimlaridan birgalikda foydalanish nazarda tutiladi.

**Ko'pagentli tizimlar arxitekturasi.** Agentning arxitekturalari agentning funksional tarkibiy qismlariga qo'yilgan tuzilmalar turiga va ishslash jarayonida uning tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini tashkil qilish uchun qabul qilingan usullarga qarab sinflashtiriladi.

Agent arxitekturalarining bazaviy sinflashtirilishi qabul qilingan arxitektura asosidagi paradigmaga asoslanadi. Ushbu belgilar asosida *axitektura* ikkita asosiy sinfga ajraladi:

- klassik SI printsiplari va usullariga asoslangan arxitektura, ya'ni bilimlarga asoslangan tizimlar ("intellektual agentlar arxitekturasi");
- xatti-harakatlarga asoslangan yoki tashqi dunyodagi hodisalarga bildirilgan reaksiyalar tizimidan kelib chiqadigan "reaktiv arxitektura"ga asoslangan arxitektura.

Faqat sodda agent dasturlari bitta bosqichli sxemada amalga oshirilishi mumkin. Odatda, agentning arxitekturasi bir necha qatlamlardan iborat bo'ladi. Bu qatlamlar *agentlarning* turli funksional xususiyatlarini namoyon qiladi, masalan:

- tashqi hodisalarni idrok etish va ularga oddiy reaksiyalar bildirish;
- xatti-harakatlarni maqsadga asosan bosharish;
- boshqa agentlarning xatti-harakatlarini hisobga olib oz harakatlarni muvofiqlashtirish;
- agentning ichki holatini yangilash, ya'ni tashqi dunyo haqidagi e'tiqodlarni yangilash;
- tashqi dunyo holatini bashorat qilish;
- o'zining keyingi bosqichdagи harakatlarini aniqlash va h.k.

Ko'pincha agent arxitekturasida quyidagilar uchun javob beradigan xatti-harakatlarni idrok etish va bajarish, reaktiv munosabatlar, lokalli rejalshtirish, kooperativ munosabat, tashqi muhitui modellashtirish, niyatlarni shakllantirish va agentlarni o'rgatish kabi pog'onalar qatnashadi.

**Agentlarning hamkorligi.** Ko'agentlik g'oyasi jamoaviy muammolarni hal qilishda agentlarning hamkorligini nazarda tutadi. KATda, biron bir muammoni mustaqil hal qila olmaydigan agent boshqa agentlarga murojaat qilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, umumiy qiyin muammoni hal qilish uchun agentlar guruhidan hamkorlikda foydalilanadi. Shu bilan birga, agentlar nafaqat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, balki boshqa agentlarning rejalarini va istaklarini hisobga olib harakat rejalarini tuzishlari kerak. Ma'lumki, hatto eng oddiy avtomatlar jamoasida ham har bir avtomat o'z boshlang'ich maqsadlarini ko'zlagan holda xamkorlikda juda murakkab muammolarni hal qilishga qodir. Misol sifatida asalari uyasi yoki chumolilarni keltirish mumkin. Agentlar boshqa agentlarning rejalarini va

manfaatlarini hisobga oladigan tizim ko'p hollarda yanada moslashuvchan bo'lishi mumkin.

*Agentlarning bir-biriga ta'sirining ikkita asosiy modeli mavjud:*

- bir bosqichli arxitektura - agentlar ierarxiyani shakllantirmaydilar va taqsimlangan tashkiliy strukturada umumiy masalani echadilar;

- ierarxikli arxitektura - agentlarning taqsimlangan ishlashini muvofiqlashtirish ma'lum darajada maxsus agent tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, bu esa maxsus agentning boshqa agentlarga nisbatan metadarajasini belgilaydi.

**KATni ishlab chiqish va amalga oshirish.** KATlarni yaratish va ulardan foydalanish nuqtai-nazaridan DCOM, Java RMI, COBRA kabi texnologiyalar ancha samarali hisoblanadi.

*DCOM* - bu turli dasturlash tizimlaridan foydalanib yaratilgan ilovalarni birlashtirish imkoniyatini yaratadi.

*Java RMI* ilovasi mijoz va serverdan iborat bo'ladi. Serverda tarmoq orqali uzatish uchun obyektlar yoki masofadagi ilovalarni chaqirib olish uchun usullar yaratiladi, mijozda esa masofadgi obyektlardan foydalanuvchi ilovalar hosil bo'ladi. *Java RMI* ilovasining asosiy xususiyatlaridan biri -bu tarmoq bo'yicha nafaqat usullarni, balkim obyektlarni ham uzatish imkoniyatining mavjudligidir.

*COBRA* ilovalar o'rtasidagi aloqani o'rnatadi, bunda u IDL interfeysidan foydalanadi.

## **8.7. Intellektual agentlarga misollar**

Rasmiy ravishda har qanday dasturlash tilida agentlar yaratilishi va har qanday operatsion tizim platforma sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo bir nechta agentlarning o'zaro ta'siri va aloqasi zarur bo'lganda, tegishli muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan maxsus agent platformalardan foydalanish maqsadga muvofiq. *KATlarni qo'llash sohasiga ko'ra agentlarga asoslangan platformalarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin:*

1) Sanoatga mo'ljallangan - bu ishonchlilik, mashtablilik qobiliyati, mavjud tizimlar va boshqa agent platformalar bilan integrallashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu platformalarda vizualizatsiya imkoniyatlari odatda mavjud emas, ammo murakkab SI usullari, o'zaro ishlash standartlari va Internet bilan qo'llab-quvvatlanadi.

2) Modellashtirish uchun - bu animatsiya, biologik, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni modellashtirish. Odadta agentlarni o'zaro ta'sirini vizualizatsiya qilish va tahlil qilish uchun vositalarni o'z ichiga olgan yopiq platformalar hisoblanadi.

3) Virtual olam va kompyuter o'yinlari, robototexnika - bu yuqorida ikki agent platformalarning kombinatsiyasidan iborat. Agent uch uch o'lchovli dunyoda harakat qiladi, uni idrok etadi, shu kabi agentlar va muhit obyektlari bilan o'zaro ishlaydi. Haqiqiy olamga eng yaqin muhitlarning eng murakkab turlari hisoblanadi.

Har bir platforma o'ziga xos metodologiyasi, agentlar va KATlarni ishlab chiqish uchun mos vositalarning mavjudligi va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

**Agent platformalari.** Eng qadimgi agentl platformalaridan biri Cougaar (<http://cougaar.org>) bo'lib, u 1996 yilda DARPA ishtirokida boshlangan. Cougaar - mobil tarmoqlarda, Internetda, sanoat dasturlarida, harbiy dasturlarda, katta taqsimlangan tizimlarda qo'llaniladi. Agent tavsifi tili - Java, intellekt mexanizmlari tashqari tomon pluginlari (плагины) orqali mavjud.

*JADE* agent platformasi (<http://jade.tilab.com>) eng ommabop bo'lib,

sanoat sohasida ham (rejalashtirish, logistika, mobil tarmoqlar, Web) va agentlar texnologiyalarini tadqiq qilishda ishlatiladi. Ushbu platforma etuk (2000 yildan beri), agentlarni tavsiflash tili Java, BDI va FSM intellect mexanizmlari, protokol kutubxonasi FIPA standartlariga muvofiq amalga oshiriladi, ontologiyalar, Semantik Web va Web-servis pluginlari bilan qo'llab-quvvatlanadi.

*Aglobe* platformasidan (<http://agents.felk.cvut.cz/aglobe>) muhandislik tizimlarini modellashtirish uchun foydalanish mumkin. Agentlarni ishlab chiqish uchun Java tilidan foydalaniladi. Afsuski, ushbu platforma qabul qilingan FIPA standartlarini qo'llab-quvvatlamaydi.

*Jeyston* agent platformasi (<http://jason.sourceforge.net>) avstraliyalik xobbichilar uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan va tadqiqot loyihibarida foydalaniladi. Ushbu platformaning o'ziga xos xususiyati boshqa platformalar, masalan, JADE agentlari bilan aloqa qilishi hisoblanadi. Agentlarni tavsiflash tili - AgentSpeak, BDI intellekt mexanizmlari, Moise + tashkiliy modeli.

Yuqorida agent platformalardan bepul foydalanishlari va hujjatlari hamma uchun erkin taqdim etiladi. Sanoat, harbiy va mobil

tarmoqlarda ishlataladigan Jek platformasi (<http://aosgrp.com/products/jack/index.html>) kabi tijorat mahsulotlari ham mavjud.

Vizual modellashtirish, jumladan 3D - *MASON* (<http://www.cs.gmu.edu/eclab/projects/mason>), Repast (<http://repast.sourceforge.net>), Ascape (<http://ascape.sourceforge.net>), NetLogo (<http://ccl.northwestern.edu/netlogo>) platformalarida qo'llab-quvvatlanadi. Soar platformasi (<http://sitemaker.umich.edu/soar/home>) virtual olam va kompyuter o'yinlari, robototexnika qurilishida ishlataladi.

### **Nazorat savollari**

1. SI ning olimlar tomonidan taklif qilingan qanday ta'riflari mavjud?
2. SI usullarini rivojlanishining uchta pog'onasini keltiring?
3. Axborotli yo'nalish qanday qismlarga bo'linadi?
4. Strukturali, evolyutsiyali va imitatsiyali yondashuvlarni izohlang?
5. SITlarning tipik sxemasi qanday bloklardan iborat?
6. SITlardan foydalanishning funksional strukturasi qanday bloklardan iborat?
7. Intellektual agent va oddiy agent o'rtasidagi farqni tushuntiring?
8. Informatika va SIda intellektual agentlarning asosiy xususiyatlарини keltiring?
9. Intellektual agentlar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
10. Modellashtirilgan, maqsadga va foydalilikga asoslangan agentlarni ta'riflang?
11. Subagentlarning asosiy turlarini keltiring?
12. Ko'p agentli tizimlarga ta'rif bering?
13. SIda qanday maxsus agent platformalari mavjud?

### **Nazorat testlari**

1. Intellekt -bu ..... tushunchalarini anglatadi.  
a) ong va insonning fikrlash qobiliyati; b) harakat va bilish;  
c) sezish va his qilish; e) bilish va anglab olish.
2. Sun'iy intellekt - bu inson intellektining alohida funksiyalarini bajarishni ta'minlovchi ..... anglatadi.

- a) avtomatik tizim; b) fizik qurilma; c) oddiy dastur; e) mexaanik qurilma.
3. SIT deganda olam va ommalashgan tajrabalarga asoslangan bilimlarni faol ..... etish asosida ularni ..... va tuzatish tushuniladi.  
a) idrok; yig'ish; b) tasavvur; tarqatish; c) sezish; bo'lism; e) idrok; bo'lism.
4. SIdan foydalanishning funksional tuzilishi qanday komplekslardan iborat?  
a ) Bajaruvchi tizim, intellektual interfeys, bilimlar bazasi;  
b) Foydalanuvchi, muloqot tizimi, programmalar;  
c) Hisoblash, translyatorlar, axborotli qatlam;  
e) Konseptual qatlam, bajaruvchi, qidiruv vositalari.
5. Agent - bu apparatli yoki .....tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, u sohib yoki ..... tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilish qobiliyatiga egadir.  
a) dasturiy; foydalanuvchi; b) dasturiy; ekspert;  
c) mantiqiy; foydalanuvchi; e) mantiqiy; ekspert.
6. Intellektual agent -bu axborotlarni yig'ish va qayta ishslash jarayonida hamda .....yo'nalshida axborotlar fazosi ichida avtonom harakat qiluvchi .....harakatini modellashtirishdir.  
a) maqsadli; inson; b) dasturiy; ekspert;  
c) mantiqiy; foydalanuvchi; e) mantiqiy; ekspert.
7. Modelga asoslangan refleksli agent .....holat asosida harakat qiladi va hozirgi idrok oldingi ichki holat bilan....., hozirgi holatning yangilangan tavsifini beradi.  
a) ichki; birlashtirilib; b) birlashtirilgan; ko'paytirilib;  
c) joriy; inkori olinib; e) tashqi; birlashtirilib.
8. O'r ganuvchi, samaradorlik, tanqidchi, muammolar generatori kabi komponentlar qaysi agentlar turiga xos?  
a) o'r ganuvchi agentlarga; b) maqsadga yo'naltirilgan agentlarga;  
c) modelga asoslangan agentlarga; e) refleksli agentlarga.
9. Intellektual agentlar tarkibiga kiruvchi va quyi pog'onadagi qayta ishslash va bajarish funksiyalarini amalga oshiradigan agentlar - by .....  
a) subagentlar; b) maqsadga yo'naltirilgan agentlar;  
c) modelga asoslangan agentlar; e) refleksli agentlar.

10. Ko'pagentli tizim - bu ..... erishish uchun bir nechta ..... hamkorlik qiladigan ..... dasturiy tizim.

- a) maqsadga; agentlar;
- b) modelga; expertlar;
- c) foydaga; subagentlar;
- e) maqsadga; foydalanuvchilar;.

### Masala va topshiriqlar

1. Quyidagi tushunchalarning ta'riflarini o'zingiz shakllantiring:  
agent; agent funksiyasi; agent dasturi; ratsionallik; avtonomiya;  
reflekli agent; modelga asoslangan agent; maqsadga asoslangan  
agent; yordam dasturiga asoslangan agent; o'rganuvchi agent.

2. Ham samaradorlik ko'rsatkichlari, ham yordamchi  
funksiyalar agentning qanchalik yaxshi ishlashini o'lchash uchun  
ishlatiladi. Ikkala mezon o'rtaidagi farqni tushuntiring.

3. Ushbu mashq agent funksiyalari va agent dasturlari  
o'rtaidagi farqlarni o'rganadi.

a) Berilgan agent funksiyasini bajaradigan bir nechta agent  
dasturlari bo'lishi mumkinmi? Ijobiy javobni tasdiqlovchi misol  
keltiring yoki nima uchun bunday vaziyat imkonsizligini ko'rsating,

b) biron bir agent dasturida amalga oshirilmaydigan biron-bir  
agent funksiyalari mavjudmi?

c) Har bir agent dasturida bitta kompyuter funksiyasi bajarilishi  
rostmi, agar kompyutering arxitekturasi o'zgarishsiz qolsa?

d) Agar arxitektura n-bit xotirani ta'minlasa, unda uning  
yordami bilan nechta xil agent dasturlari bajarilishi mumkin?

4. Ushbu mashq changyutgich vositasining turli funtsiyalarining  
mantiqiyligini tekshiradi.

a) changyutgichning oddiy funksiyasi haqiqatan ham  
intellektual ekanligini isbotlang.

5. Quyidagi agentlarning har biri uchun muammolar  
muhitining PEAS tavsifini ishlab chiqing:

a) robot-futbolchi;

b) Internetda kitob sotib oluvchi agent;

c) avtonom marslik o'ziyurar;

d) teoremani isbotlash bilan shug'ullanuvchi matematik  
assistant.

6. 5-masalada keltirilgan agentlarning har bir turi uchun 1.2-  
jadvalda keltirilgan xususiyatlarga muvofiq muammoli muhit uchun  
variantlarni tavsiflang va tanlang.

## 2-BOB. SUN'iy INTELLEKT TAQDIMOT VA QIDIRUV SIFATIDA

### 1-§. Axborotli qidiruv va holatlar fazosini tadqiq qilish

Masalani yechish jarayoni qoidaga ko'ra ikki pog'onadan iborat bo'ladi: *masalani tasvirlash* va *yechimni qidiruv*.



Mashina yordamida masalalarni tasvirlash shakllarini qidiruv masalasi qiyin formallahsgan ijodiy jarayon hisoblanadi. Shuning uchun masalalarni tasvirlashda qo'llaniladigan ba'zi shakllarni quyidagicha keltirish mumkin [20, 31]:

- 1) Holatlar fazosi(HF)da tasvirlash;
- 2) Masalalarni masalalar ostilariga keltirish yo'li bilan tasvirlash;
- 3) Teoremlar ko'rinishida tasvirlash;
- 4) Kombinatsiyali tasvirlash.

Masalalarning holatini tavsiflashning turli shakllari mavjud. Xususan, masalalarni qatorlar, *vektorlar*, *matritsalar* va *graflar* ko'rinishda tavsiflash mumkin

HFda yechimlarni qidiruv protseduralari boshlang'ich holatni maqsad funksiyaga aylantiruvchi operatorlar ketma-ketligini aniqlashga asoslanadi.



*Masalalar ostilarining o'zaro aloqasi strukturasi* ikki tipda bo'lishi mumkin: *VA*-strukturalar va *VA-YOKI*-strukturalar. *VA*-strukturalarda asosiy masalani echishda barcha masalalar ostilarini yechish talab etiladi. *VA-YOKI*-strukturalarda xususiy masalalar guruhlarga bo'linadi va bu guruhlar bir-biri bilan *YOKI munosabati* yordamida, guruhlar ichidagilar esa bir-biri bilan *VA munosabati* yordamida bog'lanadi. Bunday holda boshlang'ich masalani yechish uchun, faqat qandaydir bitta guruhga taalluqli barcha masalalar ostilarini yechish yetarli hisoblanadi.

*Masalalarni masalalar ostilariga keltirishni tavsiflash* uchun masalalarni reduksiya(tiklash)lash grafi deb nomlanuvchi grafdan foydalilanadi (2.1-rasm). Bunda grafning tugunlariga masalalar, yoylariga esa masalalarni reduksiyalash operatorlari mos qo'yiladi. Daraxt ildiziga boshlang'ich masala, 1-pog'ona tugunlarga esa boshlang'ich masaladan hosil qilingan masalalar ostilari mos qo'yiladi. 2.1-rasmida A masala yechiladi, agarda B va C masalalar yoki D masala yechilsa. B masala yechiladi, agarda E yoki F masala yechilsa. C-

masala yechiladi, agarda G masala yechilsa. D masala yechiladi, agarda H va I masalalar yechilsa.

*VA*-strukturali tugunlarning bog'lanishini ko'rsatish uchun maxsus egri chiziqdan foydalaniladi. Agar daraxtda *VA*-strukturali bog'langan tugunlar bo'lsa, u holda ular uchun qo'shimcha tugunlar kiritiladi va ushbu tugunlar *VA*-strukturali tugunlarning bosh tugunlariga aylanadi (2.2-rasm). Bundan keyin faqat *almashtirilgan reduksiyalash daraxtlarini* qaraymiz.

Masalalarni masalalar ostilariga keltirishni tasvirlashda boshlang'ich masalani bir nechta masalalar ostilariga bo'lish qaraladi va bo'lingan har bir masala osti yechimi boshlang'ich masalaning yechimini beradi. Har bir masala ostilari oz navbatida yana masala ostilariga bo'linishi mumkin. Masala ostilariga bo'lish jarayoni nazarijihatdan chegaralanmagan. Amaliy jihatdan masala ostilariga bo'lish jarayoni eng quyi pog'onadagi masala ostilari yordamida yechimni olguncha davom ettiriladi.



2.1-rasm. Masalalarni reduksiyalash daraxti.

2.2-rasm. Almashtirilgan reduksiyalash daraxti.

## 2-§. Holatlar fazosida qidiruv strategiyalari va usullari

HFda yechimni qidiruv usullari odatda quyidagilarga bo'linadi [20,31]:

- 1) Chuqurligi bo'yicha qidiruv;
- 2) Kengligi bo'yicha qidiruv;
- 3) Evristikli qidiruv.


HFda yechimlarni qidiruv protseduralari boshlang'ich holatni maqsad funksiyaga aylantiruvchi operatorlar ketma-ketligini aniqlashga asoslanadi. Agar operatorlar ketma-ketligi bir nechta va optimallashtirish mezoni berilgan bo'lsa, u holda masala ushbu mezonnini qanoqlantiruvchi optimal operatorlar ketma-ketligini qidiruv masalasiga keltiriladi.

HFda yechimlarni qidiruv usullarini holatlar daraxtidan foydalanib tavsivlash qulay hisoblanadi. Holatlar daraxtida yechimlarni qidiruv masalasi daraxt ildizidan maqsadli holatga mos tugungacha bo'lган yo'lni (optimalli, agar optimallik mezoni berilgan bo'lsa) topishga keltiriladi.

Umumiy holda holatlar daraxtini ( $S_0, F, G$ ) uchlik ko'rinishda berish mumkin. Bu yerda  $S_0$  – bitta elementdan iborat to'plam, F- operatorlar to'plami, G-maqsadli holatlar to'plami.


Holatlar daraxtini qurish quyidagicha amalga oshiriladi: avvalo daraxt ildiziga(boshlang'ich holat) F dagi operatorlarni qo'llab 1-pog'onali tugunlar quriladi; Keyin, F dagi operatorlardan 1-pog'onali tugunlarga qo'llaniladiganlaridan foydalanib 2-pog'onali tugunlar quriladi va h.k. Ushbu protseda maqsadli tugunni topguncha davom ettiriladi.

*Misol.* Yuk tashuvchi robot A punktdan chiqib, (B, C, D) punktlarning har birida faqat bir martadan bo'lib, yana A punktgaga qaytib kelishi kerak. Punktlar orasidagi masofalar va marshrutlar sxemasi 2.3-rasmida keltirilgan. Marshrutni tanlash masalasi uchun HFda yechimlarni qidiruv 2.4-rasmida keltirilgan. Ushbu grafda boshlang'ich tugunga A holat mos keladi. A tugun AB, AC, AD



holatlarga mos keluvchi uhta 1-pog'onali ichki tugunlarni hosil qiladi. 1-pog'onali  $AB$ ,  $AC$ ,  $AD$  ichki tugunlar 2-pog'onali ichki tugunlarni hosil qiladi va h.k.

Grafda tugunlarning ochilish tartibi qidiruv strategiyasi deb ataladi.



2.4-rasm. Masalaning holatlar grafi.

### 3-§. Ojiz algoritmlar

*Ojiz algoritmlari* - bu har qanday vaqtida eng maqbul tanlov qilishga intiladigan algoritmlardir. Eng maqbul tanlov har bir qadamda, keyingi qadamlarni hisobga olmasdan tanlanadi. Algoritmlarning ojiz deb atalishiga sabab ularda ojizlik xossasidan foydalaniladi. Ojizlik xossasi esa har bir vaqt momentida eng maqbul tanlovni tanlashdan iborat bo'ladi.

*Ojiz algoritmi (greedy algorithm)* -bu qarorlarni qabul qilish jarayonini elementar bosqichlarga bo'lish mumkinligiga asoslanib, har birida alohida qaror qabul qilinadigan optimallashtirish muammolarini hal qilish usuli hisoblanadi. Har bir bosqichda qabul qilingan qaror faqat joriy bosqichda maqbul bo'ladi va bu qaror oldingi yoki keyingi qarorlarni hisobga olmasdan qabul qilinadi.

Ojiz algoritmi har doim eng yaxshi bo'lib ko'rinishdigan tanlovni amalga oshiradi - ya'ni, lokal maqbul tanlov global muammoni maqbul echishga olib keladi degan umidda amalga oshiriladi. Ojiz algoritmlar har doim ham maqbul echimga olib kelmaydi, ammo ko'pgina muammolarda ular kerakli natijani beradi.

*Masalani ojiz algoritm yordamida echish mumkinligi quyidagi belgilari bilan bilan aniqlanadi [20]:*

- 1) Masalani qismmasalalarga ajratish mumkin;
- 2) Masaladagi miqdorlarni ham qismmasalalarga ajratish mumkin;
- 3) Ikki qism masalaning eng maqbul echimlar yig'indisi butun masalaning maqbul echimini beradi.

*Misol.* Yo'lovchi tashiydigan lift  $W$  kg dan ortiq ko'tarolmaydi. H odamlar liftga kirishga harakat qilishadi va ularning har biri uchun uning vazni ma'lum:  $W_1, W_2, \dots, W_n$ . Bir vaqtning o'zida liftni ko'taradigan odamlarning maksimal sonini aniqlang.

*Echimi.* Ko'rinish turibdiki, oddiy qismmasala -bu liftga bitta kishini qo'yishdan iborat. Liftga joylashtirish uchun bir nechta nomzod bo'lsa, unda eng yaxshi tanlov eng kam vaznga ega bo'lgan odam bo'ladi, chunki tashish qobiliyati jihatidan eng katta zaxira saqlanib qoladi. Shuning uchun, masalani echishda odamlarni o'z vazniga qarab saralaymiz va eng engilidan boshlab ularni liftga joylashtiramiz.

Ommabop ojiz algoritmlarga *Deykstr*, *Kruskal*, *Prim* algoritmlarini va *Huffman* daraxtlarini misollar sifatida keltirish mumkin.

### **3.1. Deykstr algoritmi**

Deykstr algoritmi grafdag'i alohida tugundan barcha boshqa tugunlarga bo'lgan eng qisqa yo'lni topadi. Graf sifatida yo'naltirilgan graf qaraladi va uning barcha qirralariga qandaydir fizik birliklar (vazn, tezlik, masofa va h.k.) qo'yiladi. Har bir chekka yo'nalishga va har bir chekka og'irlilikka ega.

Deykstr algoritmi juda ko'p sohalarda qo'llaniladi. U yo'l tarmoqlarida manzilga borishning eng tez marshrutini topishda juda foydalii hisoblanadi.

Algoritm quyidagi qoidalarga amal qiladi:

1. Har safar yangi tugunga tashrif buyurish uchun barcha tugunlarga ma'lum bo'lgan masofalardan eng kichik masofaga mos keluvchi tugun tanlanadi.
2. Navbatdagi tugunga o'tilgandan so'ng har bir qo'shni tugunlar tekshiriladi. Ushbu yangi tugunga olib keladigan qirralarning narxini yig'ish orqali qo'shni tugunlardan ildiz (bosh) tugunlarigacha bo'lgan masofa hisoblanadi.

3. Agar oxirgi tugunga qadar bo'lgan masofa ma'lum bo'lgan masofalardan kam bo'lsa, u holda eng qisqa masofa yangilanadi (2.5-a-rasm).

Birinchi qadamda boshlang'ich tugun tanlanadi. Masalan *A* tanlanadi. Barcha masofalar cheksizlikka tenglashtiriladi, chunki oxirgi tugunga boradigan masofalar hozircha noma'lum bo'ladi (2.5-b-rasm).

Grafda *A* tugun boshlang'ich sifatida tanlanadi. U holda *A* dan *A* gacha bo'lgan masofa 0, *A* dan *B* gacha bo'lgan masofa 4, *A* dan *C* gacha bo'lgan masofa 2 bo'ladi. Bu masofalar ro'yxati 2.5-b-rasmning o'ng tomonida joylashgan.

Endi *A* tugundan chiquvchu qirralar orasidan eng kichik vaznga ega bo'lgan qirra tanlanadi. Bu qirra orqali *C* tugunga boriladi. Navbatdagi *B* tugunga *C* tugun orqali boriladi. U holda *B* tugunga boruvchi yo'llar orasidan minimumi  $\min(4, 2+1) = 3$  tanlanadi (2.5-c-rasm).


*A* tugundan *C* tugun orqali *D* tugunga, ya'ni *ACD* yo'l uzunligi 6, *A* tugundan *C* tugun orqali *E* tugunga, ya'ni *ACE* yo'l uzunligi 7 ga teng bo'ladi (2.5-d-rasm).

Endi *ACB*, *ACD*, *ACE* lar orasidan eng kichigi tanlanadi, ya'ni *B* tugun tanlanadi. *B* tugun orqali boruvchi  $ACBD=5$ ,  $ACBE=6$  yo'llar uzunligi 2.5-e-rasmida keltirilgan.

Endi *ACB*, *ACD*, *ACE* lar orasidan eng kichigi tanlanadi, ya'ni *B* tugun tanlanadi. *B* tugun orqali boruvchi  $ACBD=5$ ,  $ACBE=6$  yo'llar uzunligi 2.5-f-rasmida keltirilgan.

Yuqoridagi protsedura *B* uchun takrorlanadi va *D* tugun tanlanadi (2.5-g-rasm).

Endi oxirgi *E* tugun tanlanadi va *E* tugun uchun yuqoridagi protsedura takrorlanadi (2.5-h-rasm). Natijada *A* tugundan har bir keyingi tugungacha bo'lgan qisqa yo'lni 2.5-i-rasmdagidek ko'rsatish mumkin.



2.5-rasm. Deykstr algoritmiga misol.

**Xulosa.** Ojiz algoritmlar juda tez ishlaydi, lekin hamma vaqt ham eng yaxshi global echimni ta'minlay olmaydi.

### 3.2. Chuqurligi bo'yicha qidiruv

Graflarda hal qiluvchi yo'llarni qurishga yo'naltirilgan bir qator strategiyalar masalani yechishda baholash funksiyasi(BF)ga asoslanadi [20, 31]. BF grafning tugunlarida aniqlanadi va haqiqiy qiymatlarni qabul qiladi. Ixtiyoriy tugun uchun hosil qilingan BF qiymati ushbu tugundan hal qiluvchi yo'lni davom ettirish kerakligi yoki yo'qligini aniqlaydi

Chuqurligi bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning baholash funksiyasi qiymati ushbu tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga to'g'ri proporsional bo'ladi. Kengligi bo'yicha qidiruvda bu bog'lanish teskari proporsional bo'ladi. Tugunlarning chuqurligi deganda tugunlarning pog'onalarini tartib raqamiga teng bo'lgan son tushuniladi. Chuqurligi bo'yicha qidiruv strategiyasini faqat tugunlar  $N = \{n_1, n_2, \dots, n_r\}$  ro'yxati va yoylar  $L = \{l_1, l_2, \dots, l_s\}$  ro'yxatidan iborat HF berilganda qo'llash maqsadga muvofiq. Bu yerda  $l_k = (n_{ik}, n_{jk})$  qirralar bo'lib,  $n_{ik}$  tugundan  $n_{jk}$  tugunga yo'naltirilgan bo'ladi.

*Chuqurligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi* quyidagidan iborat: grafning boslang'ich tuguni yo'lning bo'shanish tuguni sifatida qabul qilinadi.Undan keyin boshlang'ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan boshlang'ich tugundan eng uzoqda (uzunligi bo'yicha) joylashgan tugun tanlanadi. Navbatdagi tugunlararni tanlash, xuddi boshlang'ich tugundagidek, o'zidan oldingi tugunga nisbatan eng uzoqda joylashgan tugunni tanlash bilan davom ettiriladi. Tugunlarni tanlash algoritm bo'yicha maqsadga erishuvchi yo'lni topishgacha davom ettiriladi. Misol sifatida marshrutni tanlash masalasi uchun HFda yechimlarni qidiruvda A, AB, ABC, ABCD, ABCDA optimal marshrutni keltirish mumkin (2.3, 2.4-rasmlar).

Ta'kidlash lozimki, yechimni chuqurligi bo'yicha qidiruvda eng chuqurlikga ega bo'lgan tugunlar bir nechta bo'lsa, u holda ular orasidan *eng chapdagisi* tanlanadi. Agar yechimni qidiruv tupikli holatga kelib qolsa, ya'ni joriy tugun maqsadli yechimga olib kelmasa va uning chuqurroq tugunlar bilan aloqasi bo'lmasa, u holda oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan yechimni chuqurligi bo'yicha qidiruv davom ettiriladi.

### **3.3. Kengligi bo'yicha qidiruv**

*Kengligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi* quyidagidan iborat: grafning boshlang'ich tuguni yo'lning bo'shanish tuguni sifatida qabul qilinadi.Undan keyin boshlang'ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan boshlang'ich tugunga yaqin (uzunligi bo'yicha) joylashgan tugun tanlanadi. Navbatdagi tugunlararni tanlash, xuddi boshlang'ich tugundagidek, o'zidan oldingi tugunga nisbatan eng yaqin joylashgan tugunni tanlash bilan davom ettiriladi. Tugunlarni tanlash algoritm bo'yicha maqsadli yechimga erishuvchi yo'lni topishgacha davom ettiriladi.


Ta'kidlash lozimki, echimni *kenglik bo'yicha qidiruvda* boshlang'ich tugunga yaqin bo'lgan tugunlar bir nechta bo'lsa, u holda ular orasidan *eng chapdagisi* tanlanadi. Agar echimni qidiruv *tupikli holatga kelib qolsa*, ya'ni joriy tugun maqsadli echimga olib kelmasa va uning chuqurroq tugunlar bilan aloqasi bo'lmasa, u holda oldingi tugunga qaytiladi va ushbu tugundan echimni kengligi bo'yicha qidiruv davom ettiriladi.

### **4-§. Qarshi ta'sirlanish sharoitida qidiruv**

Shunday masalalar sinfi mavjudki, ularda noaniqlik elementlari uchraydi. Bunday masalalar sinfiga barcha o'yin masalalarini keltirish mumkin. Misol sifatida gugurt o'yinini qaraymiz.


Bir qarashda, bu masala xuddi echimlar daraxtiga o'xshaydi. O'yinchi va uning raqibida har bir bosqichda 3 ta varianta yurish yo'li mavjud. Muammo shundaki, agar biz daraxtning bizni g'alabaga olib boradigan shoxchasini tanlagan bo'lsak, unda bu raqibga hech qanday mos kelmaydi va u bu shoxcha bo'ylab umuman harakat qilmaydi, balki g'alaba qozonishimizga yo'l qo'ymaslik uchun barcha choralarни ko'radi.

Shunday qilib, 2.6-rasmida o'yinlarning "5 - 3 - 0" zanjiri bizga mos keladi (tugunlar harakatdan keyin qolgan gugurtlar sonini bildiradi), ammo raqib hech qachon bunday harakat qilmaydi, balki uchta o'mniga ikkita gugurtni oladi, bu esa bizni yutqazishga olib keladi.



2.6-rasm. «23 ta gugurt» oynida echimlar daraxtining qismi.

U yoki bu harakatning maqsadga muvofiqligini baholash uchun o'z g'alabamizga 1, raqibning g'alabasiga 0 qiymatini beraylik. Bunday holda bizning strategiyamiz natijani maksimal darajaga ko'tarish, raqibning strategiyasi esa uni minimallashtirishdan iborat bo'ladi. Tushunarli bo'ish uchun raqibni - MIN va o'zimizni - MAX deb



belgilaymiz. Echimlar daraxtidan pastga tushib, har bir tugunni eng past darajada baholashimiz mumkin (2.7-rasm).

2.7-rasm. «23 ta gugurt» oynida echimlar daraxtining qismi

(минимакс алгоритм): □- MAKCning yutug'i; ■- MИHning yutug'i.


Ikkala o'yinchi ham o'z manfaatlari yo'lida oqilona harakat qilishini taxmin qilsak, biz har bir qatlardagi o'yinchilarning har bir harakatini yuqoriroq baholashimiz mumkin, ya'ni: harakatlarning barcha variantlaridan MIN 0 baho berganlarni afzal ko'radi, MAX esa 1 baho beradigan harakatlarni afzal ko'radi. Shunday qilib, MAXning har bir harakatining bahosi MINning javob harakatlarining minimal baholariga teng bo'ladi va aksincha, MINning har bir harakatining bahosi MAXning javob harakatlarining maksimum qiymatiga teng bo'ladi.

Umuman olganda minimaks algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) o'yin natijalarini baholash shkalasini tanlash;
- 2) daraxt bo'yicha tushish va yakuniy holatlarga baholarni ta'minlash;
- 3) boshlang'ich tugunlariga baholarni ketma-ket ta'minlash: MIN uchun - boshlang'ich tugunlardan maksimalini, MAKS uchun - minimalini;
- 4) boshlang'ich pozitsiyasining qiymatini tayinlagandan so'ng harakatlarni boshlashingiz mumkin.

Ushbu algoritm minimaks algoritmi deb nomlanadi. Korinib turibdiki, minimaks boyicha baholar har bir o'yinchni uchun pessimistik (umidsizlik) hisoblanadi va shuning uchun muvaffaqiyatli natijani kafolatlaydi.

Minimaks algoritmining kamchiliklari uning mehnatni ko'p talab qilishidadir, chunki butun daraxtni aylanib o'tish talab qilinadi. Ushbu algoritmning modifikatsiyasi Alfa-beta kesishish algoritmi bo'lib, u bu murakkabliklarni sezilarli darajada qisqartiradi. Yuqorida masalani MAKS pozitsiyasi nuqtiga nazaridan qarab natijani maksimallash maqsadini qarab chiqmiz (2.8-rasm). Daraxtdan chap shoxlar bo'ylab pastga tushgan holda, MAX "7-6" harakat qilganda (ettita gugurt mavjud bo'lganda bitta gugurtni olish) MINga "6-5" harakati bilan g'alaba qozonishiga imkon berishiga amin bo'lismiz mumkin. Bunda MAKS harakating bahosi MINning mumkin bo'lgan javoblarining minimal baholari bilan aniqlanganligi sababli, qo'shni "6-4" va "6-3" shoxlari bo'ylab tushishning hojati yo'q va siz darhol "7-5" shox



bo'ylab pastga tushishingiz mumkin.

2.8-rasm. Alfa-betta kesishish bilan minimaks algoritmi.

Aksincha, agar MAX "7-5" ning harakatlari 1 ballga ega ekanligini ko'rsak, u holda "7-4" shoxni tekshirishga hojat qolmaydi.


Alfa-beta kesishish algoritmining samaradorligi tugunlarni tekshirish tartibiga juda bog'liq. Agar biz avval "7-5" harakatini tekshirgan bo'lsak, unda "7-6" harakatini tekshirishimiz shart emas edi. Bu shuni anglatadiki, daraxtdan tushishni eng istiqbolli harakatlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu faqat kerakli ma'lumotga ega bo'lsa mumkin bo'ladi.

## 5-§. Lokal qidiruv algoritmlari va optimallashtirish masalalari

*Lokal qidiruv algoritmlari* bitta joriy holatida ishlaydi (bir nechta yo'l emas) va odatda faqat joriy holatdan qo'shni holatga o'tadi. Qoidaga ko'ra, bunday qidirish paytida bosib o'tgan yo'llar haqida ma'lumot saqlanmaydi. *Lokal qidiruv algoritmlari* HFni muntazam ravishda tadqiq etishni nazarda tutmasa ham (ular tizimli emas), ularning ikkita muhim afzalligi bor: *birinchidan, ular juda kam miqdordagi xotiradan foydalanadi va odatda ular doimiy, ikkinchidan, ular ko'pincha tizimli algoritmlarni qo'llab bo'lmaydigan katta va cheksiz (uzluksiz) HFda maqbul echimlarni topishga imkon beradi.*

Lokal qidiruv algoritmlari maqsad funksiyani qidirishdan tashqari, sof optimallashtirish muammolarini hal qilishda foydali vosita bo'lib, uning maqsadi maqsadli funksiyasi nuqtai nazaridan eng yaxshi holatni topishdan iborat. Chunki ko'plab optimallashtirish muammolari qidiruvning "standart" modeliga mos kelmaydi.

*Lokal qidiruvning mohiyatini tushunish* uchun HFning grafigini ko'rib chiqish mumkin (2.9-rasm). Ushbu grafik "joylashish" (bu holat bilan belgilanadi) va "balandlik" (evristik xarajatlar funksiyasi yoki maqsad funksiya qiymati bilan belgilanadi) bilan tavsiflanadi. Agar balandlik baho qiymatiga to'g'ri keladigan bo'lsa, unda masala eng quyi chuqurlikni - global minimumni topish masalasidan iborat bo'ladi va agar balandlik maqsad funksiyaga to'g'ri keladigan bo'lsa, unda eng yuqori cho'qqini - global maksimumni topish masalasidan iborat bo'ladi. (Minimal va maksimal ko'rsatkichlarni qarama-qarshi belgilar bilan olish orqali o'zgartirish mumkin) Lokal qidiruv algoritmlari shunday manzarani o'rganadi. To'liq lokal qidiruv algoritmi har doim maqsad funksiyani global minimum / maksimum ko'rinishda topadi, agarda u mavjud bo'lsa.



2.9-rasm. HFning manzarasi.

2.10-rasmda balandlik maqsad funksiyaga mos keladigan bir o'lchovli

HFning manzarasi berilgan bo'lib, unda global maksimumni topish masalasi

qo'yilgan. Strelka yordamida ko'rsatilgandek, yuqoriga ko'tarilish yordamida qidiruv jarayonida hozirgi holatni yaxshilash uchun uni o'zgartirishga uriniladi.

### 6-§. Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv

*Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv* - bu lokal qidiruv algoritmlari oиласига tegishli bo'lgan matematik optimallashtirish texnikasi. Bu algoritm masalani ixtiyoriy echimidan boshlanib, so'ngra echim elementlaridan birini bosqichma-bosqich o'zgartirib, eng yaxshi echimni topishga harakat qiladigan va takrorlanadigan usul hisoblanadi. Agar yechim eng yaxshi echimni beradigan bo'lsa, yangi echimni olish uchun harakat qilinadi va bu harakat echimni yaxshilab bo'lmaydigan darajaga yetguncha davom ettiriladi.

*Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv* algoritmi maqsad funksiyasining maksimal (yoki minimal) qiymatga erishishini ta'minlaydigan parametrlarning kombinatsiyasini topadi.

Bu algoritmni quyidagi hollarda ishlatalish mumkin:

1. Holat bir nechta parametrlar to'plami ko'rinishida bo'lsa.
2. Shunday holatni topish kerakki unda maqsad funksiyasi maksimalga (yoki minimalga) erishsin.

**Algoritminig asosiy g'oyasi.** Algoritm bo'yicha qidiruv tasodifiy nuqtadan boshlanadi. Amaldagi mavjud bo'lgan quyidagi holatlarning ro'yxati har bir parametrlarni ketma-ket o'zgartirish orqali tuziladi. Ya'ni, har bir keyingi holat avvalgisidan faqat bitta parametr bilan farq qiladi. Mavjud bo'lganlar ro'yxatidan keyingi holatda maqsad funksiyasi maksimal bo'lgani tanlanadi. Algoritm maqsad funksiyasining joriy tugundan kattaroq qiymatiga ega bo'lgan qo'shni holatlar mavjud bo'limganda to'xtaydi.

Algoritm samarali ishlamasligi yoki hatto ba'zi qidiruv fazolari uchun echimni topa olmasligi mumkin. Masalan, bir nechta lokal maksimumlarga ega bo'lgan holatlar mavjud bo'lishi mumkin (bir necha balandliklar, tepaliklar). Yana bir xavf - bu *yassilik*, shuningdek koordinata o'qlaridan biriga parallel bo'limgan *qirralar*, *tizmalar* bo'lishi mumkin.

Bunga qarshi kurashish uchun turli xil qo'shimcha vositalardan foydalaniladi, masalan, algoritmi bir necha marta qayta ishlatish mumkin.

Bu algoritm *SI nazariyasida* boshlang'ich nuqtadan maqsad holatiga erishish uchun keng qo'llaniladi. Bir-biri bilan bog'liq qator algoritmlar yordamida keyingi nuqta va boshlang'ich nuqtalarni o'zgartirish mumkin. *Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv* boshqa algoritmlarga qaraganda qidiruvni amalga oshirish vaqt cheklanganda yaxshi natijalar beradi, bu esa real vaqt tizimlarida muhim ahamiyatga ega, chunki oz sonli qadamlar yaxshi echirnga (optimalga yoki unga yaqin) yaqinlashtiradi.

**Algoritmining matematik tavsiisi.** Bu algoritm  $f(x)$  maqsadli funksiyani maksimallashtirishga (yoki minimallashtirishga) harakat qiladi, bu erda  $x$  uzluksiz va/yoki diskret qiymatlar vektori hisoblanadi. Algoritm har bir iteratsiyada  $x$  da bitta elementni tuzatadi va kiritilgan tuzatishlar  $f(x)$  qiymatni yaxshilayaptimi yoki yo'qligini aniqlaydi. Cho'qqiga chiqishda  $f(x)$  ni yaxshilaydigan har qanday o'zgarish qabul qilinadi va bu jarayon  $f(x)$  qiymatni yaxshilanib bo'lmaydigan darajaga yetguniha davom ettiriladi. Bu holda  $x$  echim "local optimum" deb aytildi.

Diskret vektorli fazoda  $x$  ning har qanday mumkin bo'lgan qiymatini grafda tugun sifatida ifodalash mumkin. Grafda cho'qqiga chiqishda bir tugundan boshqa tugunga o'tiladi va  $x_n$  nuqtada lokal

maksimumga (yoki lokal minimumga) erishguncha har doim  $f(x)$ ning qiymatini lokal ravishda oshirib (yoki kamaytirib) boriladi.

Cho'qqiga chiqishda faqat global maksimum izlanmaydi, balkim u lokal maksimumga ham olib kelishi mumkin. Agar funksiya qavariq bo'lsa bunday muammo bo'lmaydi. Biroq, barcha funksiyalar qavariq bo'lmasligi sababli cho'qqiga chiqishda global maksimumni topa olmasligi mumkin. Bu holda ushbu muammoni bartaraf etishda boshqa lokal qidiruv algoritmlaridan, masalan, cho'qqiga chiqishning tasodifiy qidiruv, tasodifiy yurish va otjik imitatsiyali algoritmlardan foydalaniladi.

## 7-§. Otjig emulyatsiyali qidiruv

Qandaydir tarzda cho'qqiga chiqishni tasodifiy yurish bilan birlashtirishga urinish samaradorlikni va to'liqlikni ta'minlaydi. Ushbu turdag'i algoritm otjig (tavlanish) emulyatsiyasi algoritmi hisoblanadi [20, 31]. Metallurgiyada tavlanish bu materiallarni yuqori haroratgacha qizdirib, so'ngra ularni asta-sekin sovitib, metall va shishani temperatura qilish uchun ishlataladigan jarayondir, bu esa materialni past energiyali kristal holatiga o'tkazishga imkon beradi. *Otjig emulyatsiyali qidiruv yordamida echimni qidiruv jaryoni shundan iboratki, dastlab kuchli silkitish (yuqori haroratgacha qizdirilishga o'xshash) bo'ladi, shundan so'ng silkitish intensivligi asta-sekin pasayadi (bu haroratning pasayishi bilan taqoslanishi mumkin).*

*Otjig emulyatsiyali qidiruv algoritmining ichki sikli cho'qqiga chiqish*

algoritmining sikliga to'liq o'xshaydi, ammo eng yaxshi harakat o'rniga tasodifiy tanlangan harakatni amalg'a oshiradi. Agar bu harakat vaziyatni yaxshilasa, u har doim qabul qilinadi. Aks holda, algoritm berilgan harakatni 1dan kam ehtimollik bilan qabul qiladi. Bu ehtimollik harakatning «yomonlashishi» bilan  $\Delta E$  qiymatga qarab eksponentsiyal ravishda kamayadi va bunda uning bahosi yomonlashadi. Bundan tashqari, ehtimollik "harorat" pasayishi bilan kamayadi, shuning uchun harorat ko'tarilganda boshida "yomon" harakatlarga yo'l qo'yilishi mumkin. Agar jadvalda  $T$  da yetarlicha sekin pasayish nazarda tutilgan bo'lsa, u holda bu algoritm 1-ga yaqinlashish ehtimoli bilan global optimallashtirishni topishga imkon beradi.

Dastlab, 1980-yillarning boshlarida otjig emulyatsiyali qidiruv algoritmi SBIS muammolarini hal qilish uchun keng qo'llanilgan.

Bundan tashqari, ushbu algoritm ishlab chiqarishni rejalashtirish muammolarini va boshqa keng ko'lamli optimallashtirish muammolarini hal qilishda keng qo'llanildi.

## 8-§. Evristikli qidiruv

Ko'p hollarda maqsadli hal qiluvchi y'olni topishda tugunlar  $N$  va yoylar  $L$  ro'yxatidan iborat grafda qidiruvni qisqartirish (vaqtini, hisoblash hajmini) maqsadida ba'zi bir qo'shimcha axborotlardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shunday qo'shimcha axborotlar *evristikli* deyiladi. Evristikli axborotlar yordamida qidiruv evristikli qidiruv deyiladi. Masala haqidagi evristik axborotlarni hisobga olib alternative tugunlarni tanlash protsedurasi evristike deyiladi

Masala haqidagi qo'shimcha (evristikli) axborotlar ba'zi hollarda tugunlardan iborat HFda, ya'ni tugunlar to'plamida baholash funksiyasi  $f(n)$  shaklida sonli ifoda ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

HFdagagi n-tugundagi baholash funksiya(BF)si  $f()$ ,  $n$  - tugunlardan qidiruvni davom ettirishni baholash uchun haqiqiy son  $f(n)$  bilan taqqoslanadi.  $f(n)$ ning qiymati qanchalik kichik (ba'zi masalalarda qanchalik katta) bo'lsa, ushbu n-tugundan qidiruvni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun ham evrisrtik qidiruvni ba'zi hollarda maqsadli qidiruv deb atashadi.

*Evristik qidiruvning g'oyasi quyidagidan iborat:* yo'lning boshlanish tuguni sifatida nomzod tugunlar orasidan afzalroq tugunni tanlash kerak va ushbi tugun grafdagi hal qiluvchi yo'lning boshlang'ish tuguni sifatida qabul qilinadi. Undan keyin boshlang'ich tugundan boshlanadigan yo'lni davom ettirish uchun boshlang'ich tugundan chiqadigan bir qancha alternativ tugunlardan BFsi kichikroq (ba'zi hollarda kattaroq) qiymatga ega bo'lgan tugun tanlanadi. Yo'lni davom ettirish uchun navbatdagi tugunlarni tanlashda bir qancha alternativ tugunlardan BF kichikroq (ba'zi hollarda kattaroq) qiymatga ega bo'lgan tugunlar tanlanadi. Tugunlarni tanlash algoritm bo'yicha maqsadli yechimga erishuvchi yo'lni topishgacha davom ettiriladi.

BFdan foydalishiga asoslangan ko'plab evristik qidiruv usullari mavjud. Bular qatoriga chiziqli programmalashtirishdagi simpleks usuli,  $A^*$  algoritmi, sonli tahlildagi ketma-ket yaqinlashish usullari, minimaxli usullar, al'fa-betta algoritm, dinamik programmalash, shoxlar va chegaralar usuli, bo'linish va baholash usulilarini kiritish mumkin.

Evristik qidiruvni tasvirlash uchun namuna sifatida *A\** algoritmini keltiramiz.

### 8.1. *A\** qidiruv algoritmi

Bu algoritm HF ko'rinishida berilgan tugunlar to'plamida evristik axborotlar baholi funksiya shaklida ifodalanganda evristik qidiruvda qo'llaniladi [49, 78]. Aytaylik, yechiladigan masalaning HFni ifodalovchi grafda  $N = \{n_1, n_2, \dots, n_r\}$  - tugunlar to'plami,  $L = \{l_1, l_2, \dots, l_s\}$  - yoyslar to'plami berilgan bo'lzin. Ushbu grafdag'i ixtiyoriy  $L = (n_i, n_j) \in L$  yoy uchun ushbu yoyning bahosini ifodalovchi  $c(n_i, n_j)$  son aniqlangan bo'lzin. Agar bir nechta maqsadli tugunlar mavjud bo'lsa, u holda boshlang'ich tugunni  $n_0$ , maqsadli tugunni esa  $t$  yoki  $t_i$  bilan belgilaymiz.

$f(\circ)$  BFning qiymatini shunday aniqlaymizki, uning  $n$  tugunlardagi qiymati  $f(n)$  ikkita qiymatlar yig'indisi bahosidan iborat bo'ladi:

1) boshlang'ich  $n_0$  tugunlardan  $n$  tugungacha bo'lgan yo'lning minimal bahosi;

2)  $n$  tugunlardan qaysidir maqsadli  $t$  yoki  $t_i$  tugungacha bo'lgan yo'lning minimal bahosi;

Agar birinchi bahoni  $g^*(n)$  va ikkinchi bahoni  $h^*(n)$  bilan belgilasak, u holda  $f(n)$  baholsh funksiyasi  $f^*(n)=g^*(n) + h^*(n)$  bo'ladi.  $g^*(n)$  va  $h^*(n)$  fynksiyalarni  $c(n_i, n_j)$  lar yordamida quyidagicha aniqlash mumkin:

$$g^*(n) = \min_{\{l_\alpha\}_{n_0}^n} \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{l_\alpha}, n_{j_\alpha}) ;$$

$$h^*(n) = \min_{l_\alpha} \min_{\{l_\alpha\}_{n_0}^n} \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{l_\alpha}, n_{j_\alpha})$$


Bu yerda formuladagi  $g^*(n)$  uchun minimum boshlang'ich  $n_0$  tugundan  $n$  tugungacha bo'lgan barcha  $\{l_\alpha\}_{n_0}^n$  yo'llar bo'yicha hisoblanadi. Formuladagi  $h^*(n)$  uchun tashqi minimum barcha maqsadli  $t_i$  tugunlar bo'yicha, ichki minimum esa boshlang'ich  $n$  tugundan tugallanadigan maqsadli  $t_i$  tugungacha bo'lgan barcha  $\{l_\alpha\}_m^n$  yo'llar bo'yicha hisoblanadi.  $\{l_\alpha\}_m^n$  belgilash boshlang'ich  $m$  tugundan  $n$  tugallanadigan ixtiyoriy yo'l uchun foydalilanadi.

Umumiy holda sini  $f(n) = g(n) + h(n)$  aniqlash mumkin, bu yerda  $g(n)$  funksiy -  $g^*(n)$  funksiyalarning qandaydir bahosi (yaqinlashish),  $h(n)$  funksiya esa -  $h^*(n)$  funksiyalarning qandaydir bahosi (yaqinlashish).  $g(n)$  funksiyining bahosi sifatida  $n_0$  tugunlardan  $n$  tugungacha bo'lgan  $\{l_\alpha\}_{n_0}^n$  yo'llardagi yoylar bahosining yig'imdisi, ya'ni  $g(n) = \sum_{l_\alpha \in \{l_\alpha\}_{n_0}^n} c(n_{i_\alpha}, n_{j_\alpha})$ .

Barcha maqsadli bo'limgan tugunlar uchun  $h(n) \leq h^*(n)$  shartni qanoatlantiruvchi  $f(n) = g(n) + h(n)$  A\* algoritmi deb ataladi. Barcha maqsadli bo'limgan tugunlar uchun  $h(n) \leq h^*(n)$  shat qatnashmasa BF  $f(n) = g(n) + h(n)$  A algoritmi deb ataladi.

A va A\* algoritmlarida  $g(n)$  funksiya  $g^*(n)$  funksiyalarning qandaydir bahosi hisoblanadi. Ikkala algoritmda ham tugunlarni qidiruvni davom ettirish uchun alternativ tugunlar orasidan  $f(n)$  funksiyaning eng kichchik qiymatiga mos keladigan tugun tanlanadi.

*Misol.* Aitaylik qidiruvning 1-qadamida  $S_0$  tugun ochilgan bo'lsin va undan yo'lning baholash qiymatlari  $\hat{g}(V_1) = 3$  va  $\hat{g}(V_2) = 7$  ega bo'lgan  $V_1$  va  $V_2$  tugunlar chiqqan bo'lsin. 2-qadamda  $V_1$  tugun ochiladi va undan  $V_3$  va yana  $V_2$  tugun chiqadi, bunda  $V_1$  tugundan  $V_2$  tugunga olib boruvchi yo'lning baholash funksiya qiymati  $\hat{g}(V_1) = 3$ . Ko'rinib turibdiki,  $S_0$  tugundan  $V_2$  tugungacha bo'lgan qisqa yo'lning bahosi  $\hat{g}(V_2) = 6$  (2.11-rasm).



2.11-rasm.

Ta'kidlash joizki,  $\hat{g}(V) = 7 \geq g(V) = 6$ .


### Nazorat savollari

1. HFda echimni qidiruv usullari odatda qanday tiplarga bo'linadi?
2. Holatlar daraxtini qurish qanday amalga oshiriladi ?
3. Ojiz algoritmlarning maqsadi nimadan iborat?
4. Deykstr algoritmi qanday qoidalarga amal qiladi?
5. Chuqurligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi nimadan iborat?

6. Kengligi bo'yicha qidiruv algoritmining g'oyasi nimadan iborat?
7. Qarshi ta'sirlanish sharoitida qidiruvda qanday masalalar qaraladi?
8. Lokal qidiruvning mohiyatini tushuntiring?
9. Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv algoritmini g'oyasi qanday?
10. Otjig emulyatsiyali qidiruv algoritmining mazmunini tushuntiring?
11. Evristik qidiruvning g'oyasi nimadan iborat?
12. Umumiy holda A\* algoritmda baholash funksiyasi qanday ko'rinishda aniqlanadi?

### Nazorat testlari

1. Daraxtda masalalar ostilarining o'zaro aloqasi strukturasi .....tiplarda bo'lishi mumkin.
  - a) VA-strukturalar va VA-YOKI-strukturalar;
  - b) VA-strukturalar va VA-U HOLDA-strukturalar;
  - c) VA-strukturalar va U HOLDA-YOKI-strukturalar;
  - e) AGAR -U HOLDA -strukturalar va VA-YOKI-strukturalar.
2. Daraxtda A masala yechiladi, agarda .....masalalar yechilsa.




- a) B va C yoki D; b) B yoki E; c) B va C yoki G; e) B va C yoki H.
3. Grafda tugunlarning chuqurligi deganda ..... pog'onalari tartib raqamiga teng bo'lgan son tushuniladi.
  - a) tugunlarning;
  - b) yoylarning;
  - c) tugun va yoylarning;
  - d) qo'shma tugunlarning.
4. Grafda yo'lni .....bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning baholash funksiyasi qiymati ushbu tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga .....proportsional bo'ladi.
  - a) chuqurligi; to'g'ri;
  - b) kengligi; to'g'ri;
  - c) chuqurligi; teskari;
  - e) ierarxikli; teskari.
5. Grafda yo'lni ..... bo'yicha qidiruvda ixtiyoriy tugunning baholash funksiyasi qiymati ushbu tugundan boshlang'ich tugungacha bo'lgan masofaga .....proportsional bo'ladi.

- a) kengligi; teskari;    6) kengligi; to'g'ri;  
 c) chuqurligi; teskari; e) ierarxikli; teskari.
6. Ojiz algoritm - bu qarolarni qabul qilish jarayonini elementar bosqichlarga bo'lish mumkinligiga asoslanib, ..... qaror qabul qilinadigan optimallashtirish muammolarini hal qilish usuli.  
 a) har bir tugunda alohida;    6) faqat oxirgi tugunda;  
 c) faqat boshlang'ich tugunda;    d) boshlang'ich va oxirgi tugunlarda.
7. Deykstr algoritmi grafdag'i ..... tugundan .....  
 tugunlargacha bo'lgan eng ..... yo'lni topadi.  
 a) alohida; barcha boshqa; qisqa; 6) faqat boshlang'ich; oxirgi; qisqa;  
 c) alohida; barcha boshqa; uzun; d) alohida; barcha boshqa; uzun.
8. To'liq lokal qidiruv algoritmi har doim maqsad funksiyani topadi, agarda  
 u mavjud bo'lsa va optimal algoritm har doim ..... minimumni / maksimumni .....  
 a) global; topadi;    6) globalmas; topadi;  
 c) lokal; topmaydi;    d) global; topmaydi.
9. Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv algoritmi masalani ixtiyoriy echimidan boshlanib, so'ngra echim elementlaridan birini ..... o'zgartirib, eng yaxshi echimni topishga harakat qiladigan va ..... usul.  
 a) bosqichma-bosqich; iteratsiyali;    6) aralash; parallel;  
 c) kombinatsiyali; takrorlanmaydigan; d) aniq; uzluxsiz.
10. A\* algoritmda baholash funksiyasi umumiy holda qanday beriladi ?  
 a)  $f(n) = g(n) + h(n)$ ; 6)  $f(n) = h(n)$ ; c)  $f(n) = g(n)$ ; e)  $f(n) = g(n) + h(n)+1$ .


### Masala va topshiriqlar

1. A boshlang'ich tugunli 3 va 5 qatlamli "va-yoki" tipli daraxtni quring.
2. "Agar B va C yoki D va K masalalar yechilsa, u holda A va E yoki F va G masalalar yechiladi" mulohazani graf ko'rinishda tasvirlang.
3.  $((E \rightarrow F) \rightarrow B) \wedge (G \rightarrow C) \vee ((H \rightarrow I) \vee D) \rightarrow A$  mantiqiy formulani graf ko'rinishda tasvirlang.
4. O'zbekiston Respublikasi kartasidan foydalanib, viloyatlarni bog'lovchi transport harakati marshrutini cuqurligi, kengligi va A\* qidiruv algoritmlari asosida aniqlang va graf ko'rinishda tasvirlang.

5. Robot o'z harakatini n punktlarning ixtiyoriy bittasidan boshlab, har birida faqat bir martadan bo'lib, yana boshlang'ich punktiga qaytib kelishi kerak. Quyidagi grafda berilgan  $A \rightarrow E, A \rightarrow F, B \rightarrow V, V \rightarrow E$  marshrutlar uchun eng qisqa yo'lni toping. Ushbu marshrutlarni daraxt ko'rinishda tasvirlang.




6. Aytaylik zavodlar orasidagi masofalar berilgan bo'lsin.



Zavodlar orasidagi masofa biryoqlama, ya'ni harakat bir tomonga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Zavodlar orasidagi masofaning yig'indi qiymati va maksimal qiymatini aniqlang:

- 1) A-E; 2) A-F; 3) A-H; 4) A-G;

7. Deykstr algoritmidan foydalanib alohida tugundan barcha boshqa tugunlarga bo'lgan eng qisqa yo'lni toping.



- 1) A-D; 2) A-F; 3) A-E; 4) C-F; 5) F-B; 7) E-C; 8) F-E.

### 3-BOB. SUN'iy INTELLEKTDA BILIMLARNI TAQDIM ETISH


#### 1-§. Sun'iy intellekt rakursida tasavvur va idrok

##### 1.1. Tasavvur

*Tasavvur* - bu qandaydir tushunchani figura, yozuv, til yoki formal shaklda qabul qilinadigan amal hisoblanadi.

*Bilimlarni tasavvur qilish* - bu figuralar, yozuvlar va tillar asosida chin mulohazalarni formallashtirishdir. Bilimlarni tasavvur qilishga taalluqli passiv aspektga kitob, jadval, ma'lumot bilan to'ldirilgan xotira kiradi. Sida tasavvur qilishning quyidagi aspektrilari belgilanadi, ya'ni bilish faol operatsiyalardan biri bo'lib, nafaqat bilimlarni saqlash, balki olingen bilimlar asosida fikr yuritish imkonini beradi. Shuningdek, bilimlarni tasavvur qilish manbai - fanda anglashni, uning oxirgi maqsadi esa - informatikaning dasturiy vositalari hisoblanadi. Bilimlarni tasavvur qilishga taalluqli ko'pgina holatlar juda ham chegaralangan sohalarga qarashli bo'ladi, *masalan*, inson holatini tasvirlab berish, o'yindagi holatlarni tasavvur qilish (masalan, shaxmatda figuralarning joylashishi), korxona ishchilarining joylashishini tasavvur qilish, manzarani tasavvur qilish.

Bilimlarni tasavvur qilishning ko'plab formal tizimlari mavjud bo'lib, ular bilimlarni tasavvur qilish modellari yoki tillari deb yuritiladi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Bilimlarni tasavvur qilish modellarasi.

Bilimlarni tasavvur qilish tillari orasida *strukturalashgan* va *strukturalashmagan* ma'lumotlar modellarini ajratish mumkin.

*Strukturalashmagan* ma'lumotlar haqidagi bilimlarni formallashtirish ikki bosqichdan iborat [41]:

1. Bilimlarni tabiiy-tilli belgili tizimlar asosida formallashtirish. Masalan, turli janrlardan matnlarni hosil qilish;

2. Matnlarni indeksatsiyash, sahifa va lug'at tuzish.

*Strukturalashmagan ma'lumotlar modellari* sifatida indeksirlashning formal tillari qaraladi. Strukturalashgan ma'lumotlarni (deklarativ bilimlarni) MBda saqlash uchun ko'p hollarda ierarxikli, tarmoqli, relyatsionli, obyektlili, obyektlı-relyatsionli va ko'p o'lchovli modellardan foydalilanildi.

Protsedurali bilimlarni tasavvur qilish uchun formal-mantiqiy, produksiyali, freymli va semantik tarmoqlar modellaridan foydalanildi.

## 1.2. Idrok

*Idrok* -bu his-tuyg'ularda bo'lgani kabi, uning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qiladigan narsalar va hodisalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan odamning ongida aks ettirishning aqliy bilim jarayonidir.

*Idrokning asosiy va muhim sharti* - bu obyektiv dunyodagi obyektlar va hodisalarning hissiy organlarga ta'siri. Oddiy so'zlar bilan idrok nima? Hayot jarayonida inson dunyoni bilishni to'xtatmaydi. Misol uchun, do'konda siz biror narsaga qiziqasiz: siz uni to'qimalar, vazn, zichlik, rang, hid, ta'm va shunga o'xshash narsalarni tushunish uchun qo'lingizga olasiz, ya'ni kerakli sezgi organlarni (oziq - ovqat - ta'm, kitob-ko'rish) ishlatasiz. Bu xususiyatlarning barchasi turli xil his-tuyg'ularga olib keladi, ular birgalikda obyektning tasvirini yaratadi. Shunday qilib, bilish jarayoni idrok etishdan iborat bo'ladi.

**Idrok qilish pog'onalari.** Ushbu jarayon 4 pog'onani o'z ichiga oladi:

1. *Aniqlash* - bu erda tashqaridan ma'lum bir rag'bat borligini tushunamiz (quloq ma'lum bir signalni sezadi).

2. *Ajratish* - bu stimulning haqiqiy hissi (inson bu ovoz ekanligini tushunadi).

3. *Identifikatsiyalash* - ruhiy tajribada mavjud bo'lganlar orasida tasvirni qidirish (u tanishlardan qaysi biriga o'xshash?).

4. *Tanib olish* - tasvirni muayyan toifaga tegishli ekanligini aniqlash (bu derazadan tashqarida bolalarning kulgisi).

*Idrok qilish xususiyatlariga quyidagilar kiradi.*

1. *Tanlash (Selektivlik)* - bir vaqtning o'zida bosqalarning fonida bir obyektni imtiyozli ravishda ajratish. Kitob do'konida siz keyingi o'qish uchun qaysi birini sotib olish kerakligini aniqlash uchun kitoblarni birma-bir ko'rib chiqasiz.

2. *Idrok qilishning predmeti* - bu obyektni atrof-muhit obyektlarining muayyan toifasiga kiritishdir. Misol uchun, yashil, dumaloq, qattiq va shirin - bu olma, meva va yashil, uzun va jingalak - bu timsoh, hayvon.

3. Apperseptsiya (*idrokning tajribaga va bilimga bog'liqligi*) tasvirning shakllanishiga aqliy tajribaga, shaxsning shaxsiy xususiyatlariga qarab ifodalanadi. Qisqacha aytganda, odamlar o'z e'tiqodlari, nuqtai nazarlari, qadriyatları va ehtiyojlariga tayanib, bir xil narsalarni boshqacha qabul qilishadi.

4. *Yaxlitlik (butunlik)* - bu tasvir har doim olingan his-tuyg'ularning kombinatsiyasi asosida butun sifatida qabul qilinishini ko'rsatadigan xususiyatdir. Ya'ni, u faqat rang yoki ovozni yaratolmaydi. Misol uchun, qurbaqa chivinni chivin deb hisoblamaydi, agar u harakatsiz qolsa, u ov qilmaydi.

5. *Strukturaviylik* shundan iboratki, idrok shaxsiy his-tuyg'ularning yig'indisi emas. Tasvir faqat ularning o'zaro munosabatlari tufayli tug'iladi. Har bir element butun bilan bog'liq holda mazmunli bo'ladi. Misol uchun, katta, temir va suvda suzadi - bu paroxod, temir yo'lدا katta va temir - bu poezd. Ko'rinish turibdiki bitta elementni almashtirish tasvirni o'zgartiradi.

6. *Barqarorlik* - bu atrofdagi narsalarning nisbiy barqarorligi. Nima uchun nisbiy? Kun davomida sizning uyingiz ko'k rangga ega ekanligini aniq ko'rasiz, lekin tunning boshlanishi bilan u kul rangga aylanadi. Shu bilan birga, siz uyingiz sizniki ekanligini aniq bilasiz, chunki siz vizual idrokning o'zgarishi haqiqatiga ahamiyat bermaysiz.

7. *Zehnlilik* - bu atrofdagi olamning obyektlari va hodisalarining anglab olinishi. Misol uchun, agar biz qoshiqni ko'rsak, unda nima uchun va uni qanday ishlatalishni darhol tushunamiz. Bu tushuncha tug'ma emasligini tasdiqlaydi: biz uni hayot davomida o'rganamiz.

**Idrok qilish turlarini sinflash.** Idrok qilish turlarining bir nechta sinflari mavjud:

*Modallik bo'yicha:* 1) *Vizual* - vizual tasvirmi yaratish; 2) *Eshitish-tovushlarni qabul qilish*; 3) *Sezuvchanlik bilan idrok qilish-dokunsal hislar orqali atrof-muhit haqida ma'lumotni o'qish*; 4) *Hid sezish organi-hidlarni ajratish*; 5) *Ta'm sezish organlari* - ta'm sezgilari yordamida timsolni yaratish.

*Etakchi analizator bo'yicha:*

1) *Oddiy ko'rinish* - bu ko'rish, eshitish va teginish. Bunday idrok etishlar barcha sog'lom odamlarda mavjud. Bir kishi tez-tez

foydalananadigan analizatorga qarab, u tegishli turdag'i idrokchilar bilan bir guruh odamlar deb ataladi;

2) *Kinestetikli* (his-tuyg'ular, harakat) - inson (u kinestetik deb ataladi), bu narsalarning harakatiga, bu narsalarning paydo bo'lishiga asoslangan ma'lumotlarni hisoblaydi. Uning nutqida doimo "qabul qilish", "ushlab olish", "sinash", "his qilish", "his qilish" so'zлari bor»;

3) *Audiali* (ovozli) - dunyoni idrok qilishning aksariyati eshitish orqali amalga oshiriladi. Bunday odamlar tez-tez "men eshitaman", "eshiting", "tinglang", "tovushlar" va boshqalarni aytadilar;

4) *Vizualli* (ko'rishli) - etakchi qabul qiluvchi ko'zlar: "men ko'rayapman", "qarayman", "tasavvur qilaman" kabilalar hisoblanadi.

## 2-§. Bilim va mulohaza

### 2.1. Bilim

*Ma'lumotlar* - bu alohida faktlar bo'lib, PrSdagi obyektlar, jarayonlar va hodisalarini hamda ularning xossalarni tavsiflaydi.

*Bilimlar* - bu PrSdagi obyektiv qonuniyatlar (prinsiplar, aloqalar, qonunlar) bo'lib, ular amaliy faoliyat va professional tajribalar natijasida olinadi va mutaxassislarga ushbu sohada masalalarni qo'yish va yechishga imkoniyat yaratadi.

*Bilim* - bu tashqi olamdan tirik mavjudod (subyekt) yordamida idrok etilgan axborotlar. Bilimning ma'lumotdan farqli tomoni uning subyektivligidadir. Bilim subyektning hayotiy tajribalariga, uning tashqi olam bilan o'zaro aloqalar tarixiga, ya'ni uning o'rganish va o'zini-o'zi o'rganish jarayonlariga asoslanadi.

SI bo'yicha yaratilgan adabiyotlarga asoslangan holda bilimning ma'lumotlardan farqli tomonlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- bilimlar ko'proq strukturalashgan bo'ladi;
- bilimlarda ma'lumotlarga o'xshab bilimlarning alohida elementlari emas, balki ular orasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyatga ega;

- bilimlar ma'lumotlarga nisbatan o'zini-o'zi izohlovchi bo'ladi, ya'ni bilimlarda ulardan qanday foydalinish haqidagi axborotlar mavjud bo'ladi;

- bilimlar ma'lumotlarga nisbatan faolroq bo'ladi, ya'ni bilimlar ulardan foydalananayotgan tizim harakatiga ta'sir etishi mumkin.

EHMDa bilimlar ma'lumotlar kabi belgili ko'rinishda - formulalar, matnlar, fayllar, axborot massivlar va sh.k. ko'rinishida tasvirlanadi.

### **2.1.1. Bilimlarning xususiyatlari**

Bilimlar quyidagi xususiyatlarga ega [7]:

*1. Ichki izohlanuvchanlik.* Har bir axborot birlik yagona nomga ega bo`lishi lozim. IT bu nomga ko`ra axborotni topadi, hamda bu nom zikr etilgan so`rovrlarga javob beradi. Xotirada saqlanuvchi ma'lumotlar nomlardan forig` qilinsa, ularni tizim tomonidan identifikatsiya qilish imkoniyati bo`lmaydi. Ma'lumotlarni faqatgina dasturni yozgan dasturchi ko`rsatmasiga ko`ra xotiradan oladigan dastur identifikatsiya qila olardi.

*2. Strukturaviylik.* Axborot birliklar qat'iy strukturaga ega bo`lishi va ular uchun «ichma-ichlik» prinsipi bajarilishi zarur. Har bir axborot birlik boshqa ixtiyoriy birining tarkibiga kiritilishi mumkin va har bir axborot birlikdan uni tashkil etadigan qandaydir axborot birlikni ajratish mumkin. Boshqacha aytganda alohida axborot birliklar orasida «qism-butun», «tur-xil» yoki «element-sinf» kabi munosabatlarni ixtiyoriy o`rnatish imkoniyati mavjud bo`lishi kerak.

*3. Bog`langanlik.* Axborot bazada axborot birliklar orasida har xil turdag'i bog`lanishlarni o`rnatish imkoniyati ko`rilgan bo`lishi kerak. Avvalo bu bog`lanishlar axborot birliklar orasidagi munosabatlarni xarakterlashi mumkin. Munosabatlар semantikasi deklorativ yoki protsedurali xarakterga ega bo`lishi mumkin. Masalan ikki yoki undan ortiq axborot birliklar «bir vaqtning o`zida» munosabati orqali, ikkita axborot birliklar «sabab-natija» yoki «yonma-yon bo`lish» munosabatlari orqali bog`langan bo`lishi mumkin.

*4. Semantik metrika.* Ba`zi hollarda axborot birliklar to`plamida axborot birliklarning holatiy yaqinligini xarakterlovchi munosabatini, ya`ni axborot birliklar orasidagi assotsiativ bog`lanish kuchini berish foydali. Uni axborot birliklar uchun relevantlik munosabati deyish mumkin. Bunday munosabat axborot bazada qandaydir namunaviy vaziyatni ajratish imkonini beradi (masalan, «harid», «chorrahada harakatni boshqarish»). Relevantlik munosabatlari axborot birliklar bilan ishlaganda topilgan bilimlarga yaqin bilimlarni topishga imkon beradi.

*5. Faollik.* EHMlarning paydo bo`lishi va ularda ishlatiladigan axborot birliklarning ma'lumotlarga va buyruqlarga ajratilishidan boshlab ma'lumotlar passiv, buyruqlar esa faol vaziyatda yuzaga keldi. EHMda sodir bo`ladigan barcha jarayonlar buyruqlar yordamida amalga oshiriladi, ma'lumotlar esa bu buyruqlar tomonidan kerak bo`lganda foydalaniлади.

Bilimlarning sanab o'tilgan beshta xususiyatlari shunday qirralarni aniqlaydiki, qaysikim ma'lumotlar bilimlarga va MB esa BBga aylanadi.

### 2.1.2. Bilimlarning tiplari va bilimlarni sinflash

Bilimlarning izohlarini hisobga olib, ularni ikkita: *obyektiv* va *subyektiv* (inson bilimlari) bilimlarga ajratish mumkin [2].

*Obyektiv bilimlar* aniq obyekt yoki obyektlar sinfini (narsalar, jarayonlar, hodisalar va h.k.) tavsiflash bilan bo'g'liq.

*Subyektiv bilimlar* inson, insonlar guruhi yoki sun'iy bilimlar manbalaridan (kitob, o'quv kursi, gazeta, ilmiy jurnal, videofilm va boshqalar) olinadi.

Ko'p hollarda bilimlar sifatida - predmetlar, hodisalar, ularning hossalari va ular orasidagi munosabatlarni ifodalovchi fahmlovchi dinamik modellar qaraladi. Psixologik jihatdan bilimlar sezuvchu, tasvirli va belgili modellar shaklida mavjud bo'ladi. Bilimlarni yuqorida keltirilgan *izohlashlar nuqtai-nazaridan* to'rtda guruhga birlashtirish mumkin [2] (3.2-rasm).

#### Bilimlarni izohlashning turlari

##### *Psixologikli:*

- 1) psixik timsollar; 2) fahmlovchi modellar.

##### *Intellektualli:*

- 1) muammoli sohadagi obyektlar haqidagi faktlarni, ushbu obyektlarning hossalari va ular orasidagi bog'lanish munosabatlarini saqlovchi ma'lumotlar; 2) muammoli soha kechayotgan jarayonlar tavsivlari; 3) muammoli soha doirasida bir xil tipli masalalarni yechish uslublari haqidagi axborotlar.

##### *Formalli-mantiqiy:*

maxsus protseduralar yordamida muammoli soha haqida xulosalar chiqarishda yangi bilimlarni olish uchun qo'llaniladigan formallahgan axborotlar

##### *Axborotli-texnologiyali:*


EHM xotirasida saqlanuvchi va intellectual daturlar bilan ishlashda foydalaniladigan strukturalashtirilgan axborotlar.

3.2-rasm. Bilimlarni izohlash nuqtai-nazaridan sinflash.

### 3.2-rasmda:

- psixologikli - bilimlarni psixologlar izohlaydi;
- intellektualli - bilimlarni SI sohasidagi mutaxassislar izohlaydi;
- formalli-mantiqli - bilimlarni mantiqchilar izohlaydi;
- axborotli-texnologokli - bilimlarni pragmatik-daturchilar va axborot tizimlarni yaratuvchilar izohlaydi.

Bilimlarni manbalardan olish xarakterlariga, foydalanish hamda ishonchlilik darajalari va maqsadga bog'liqligiga qarab sinflash 3.3-rasmda keltirilgan [2].



3.3-rasm. Bilimlarni sinflash.

Bilimlarni olishning *manbalariga qarab* ular *aprior* va *hosil qilinadigan* bilimlarga bo'linadi. *Aprior bilimlar* MBni o'z ichiga olgan ITlar o'z faoliyatini boshlanguncha undagi MBda aniqlanadi va

to'planadi. *Hosil qilinuvchi bilimlar* MBdan foydalanish jarayonida shakllantiriladi.

Ushbu bilimlarning manbalari sifatida exspertlar, tashqi sun'iy kuzatuvchi qurilmalar (turli xildagi datchiklar, timsollarni angllash mexanizmlari va h.k) hamda IT doirasida bilimlarni hosil qilish va xulosalash qoidalari hamda protseduralari bo'lishi mumkin.

Bilimlardan *foydalanish aspektlariga qarab* ularni *deklarativli* (faktlar, ma'lumotlarning tavsifiy tipi), *protsedurali* (qandaydir muammoli sohada bir xil tipdag'i masalalarni yechish uslublari haqidagi axborotlar) va *metabilimlarga* (bilimlar haqidagi bilimlar) *ajratish mumkin* [2].

*Deklarativ bilimlar* obyektlarni va ular orasidagi munosabatlarni tavsivlash uchun qo'llanildi.

*Protsedurali bilimlar* -o'zini-o'zi izohlovchi bilimlardan iborat bo'lib, protseduralarni tavsiflashda qo'llaniladi. Bu protseduralarda PrSning hamda uning MBdag'i modellari o'zgarishi bilan bog'liq harakatlari dasturlashtirilgan bo'lishi mumkin. Bunda BBning ba'zi qismlarini qayta ishlovchi maxsus protseduralar nabori joriy holatni ifodalaydi.

*Metabilimlar* ko'p hollarda bilimlar haqidagi bilimlar shaklida aniqlanadi va bilimlardan foydalanish prinsiplari haqidagi umumiylar ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

Bundan tashqari bilimlarni quyidagi tiplarga ajratishadi:

- interfeysli - atrof-muhit bilan aloqa qiluvchi bilimlar;
- muammoli- PrS haqidagi bilimlar;
- protsedurali - masalarni yechish usullari haqidagi bilimlar;
- strukturali - operatsion tizimlar haqidagi bilimlar;
- metabolimlar - bilimlarning hossalari haqidagi bilimlar.

*Maqsadga yo'naltirilganlik nuqtai-nazaridan* bilimlarni extensionalli (aniq, tashqi) va intensionalli (abstraktli, maqsadli) tiplarga ajratish mumkin. *Extensionalli bilimlar* haqiqiy olamdag'i obyektlar haqidagi faktlarni ifodalaydi. Ushbu bilimlarga misollar sifatida relyatsion bazalarni keltirish mumkin:

- 1) Axmedov avtomobilga ega;
- 2) To'rtburchak-bu geometrik shakl;
- 3) Yerdan quyoshgacha bo'lgan masofa 150 mlrd. km;

*Intensionalli bilimlar* faktlarni bir-biri bilan bog'lovchi qoidalari yoki haqiqiy olam qonuniyatlarini ifodalaydi. Ushbu bilimlarga misollar sifatida mahsuliy bazalarni keltirish mumkin:

- 1) Inson shaxsiy mulkga ega bo'lishi mumkin, masalan, avtomobil;
- 2) Agar geometrik shaklning to'rtda burchagi bo'lsa, u holda bu to'rburchak;
- 2) Planetada hayot bo'lishi uchun, u yerdan 100-300 mlrd.km masofada bo'lishi kerak.

## 2.2. Mulohaza

**Mulohaza** - bu mantiqiy izchil shaklda bayon etilgan muayyan mavzu doirasida izchil fikr va xulosalardir. Mantiqda mulohaza ikki xil ma'noga ega - *umumiyya* va *maxsus*. *Umumiyya* mulohazalash deb aqlning faoliyatiga aytildi, ba'zida mulohazalash fikrlash tushunchasi bilan sinonimdir. *Maxsus ma'noda*, mulohaza tushunchasi tahlilni ifodalash uchun ishlataladi, argumentlarni har qanday holat foydasiga aqliy yondashish va bu argumentlar izchil va metodik tarzda ifodalanishi kerak, shuning uchun ular isbotlanadigan tasdiqlarni keltitirib chiqarish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

*Har qanday mulohaza tabiiy ravishda bir necha qismga bo'linadi:*

➤ birinchidan - boshlang'ich nuqtani tashkil etuvchi va dalilning yakuniy maqsadini ifodalovchi mavzu yoki holatning aniq ta'rifining mavjudligi;

➤ ikkinchidan - isbotlanadigan holat foydasiga hizmat qiladigan dalillarni o'tkazish va tahlil qilish. Mulohazalashning keng qamrovli bo'lishi uchun nafaqat argumentlarni hisobga olish, balki tekshirish kerak, ya'ni tasdiqlangan holatga qarshi bo'ladijan barcha faktlar va qoidalar faqat aniq ma'noga ega ekanligini va bu holat bilan kelishilganligini ko'rsatish kerak.

➤ Uchinchidan - har qanday mulohazaning oxirgi holati uning xulosasi yoki yakuniy natijasidir. Har qanday mulohazaning tortishish markazi ijobjiy va salbiy tomonlarni topish va ularni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Mulohazaning mazmuni obyekt yoki hodisaning mohiyatini aniqlashdan iborat. Mulohazada tushunchalar aniqlanishi mumkin, umumiyl tushunchalar uning turlari bo'yicha ajralib chiqadi, bir xil umumiyl kontseptsiyani to'playdi, bir-biriga o'xshash narsalar va hodisalarni o'xshashlik yoki farqni ko'rsatish uchun taqqoslaydi, hodisalarning sabablari va oqibatlari ko'rsatiladi, bu yoki boshqa fikrlar rad etilishi yoki tasdiqlanishi mumkin.

*Mulohaza - og'zaki taqdimot, tushuntirish, muayyan fikrni tasdiqlasdir.* Mulohazada ma'lum bir fikr mantiqan asoslanadi va isbotlanadi, asosli xulosalar chiqariladi. Isbotlarni ketma-ketligi taqdim etish mulohazaning asosiy fikrini rivojlantirishning asosiy shartidir. Tahlilning birinchi bosqichida mulohazada odatda uch qism ajratiladi: 1) tezis (bir fikr ifodalanadi); 2) bu fikrning isboti yoki rad etilishi (argumentlar va misollar); 3) xulosa. Tezis aniq ifodalangan va isbotlanadigan bo'lishi kerak. Argumentlar ishonchli va yetarli bo'lishi kerak. Argumentlar sifatida dalillar keltiriladi. Dalil eng jiddiy va eng aniq isbot hisoblanadi.

*Mulohazalash turlari.* Amalda turli xil mulohazalash turlari mavjud: *Mulohazalash-isbotlash*, *mulohazalash-tushuntirish*, *mulohazalash-fikrlash*. Ushbu turlarning har biri o'z xususiyatlariga ega.

*Mulohazalash-isbotlash*-bu monologik bayonot bo'lib, uning maqsadi tezisning chinligini yoki yolg'onligini isbotlashdir. Uning odatiy sxemasi quyidagicha: savolga munosabat - savol-tezis (savolga javob) - tezisning isboti - xulosalar. Tezisdan keyin har doim "Nima uchun shunday?"» degan savolni qo'yish kerak.

*Mulohazalash - tushuntirishda* tezisning chinligini yoki yolg'onligini isbotlashning hojati yo'q. *Mulohazalash - tushuntirishning asosiy vazifasi* tezisning mazmunini iloji boricha aniqroq ochishdir.

*Mulohazalash-fikrlash*, odatda, savol-javob shaklida, savollarni matnda aks etadimi yoki yo'qmi degan savolga asoslanadi. Mulohazalash-fikrlash misollar berish, taqqoslash yoki qarama-qarshilik ko'rsatish, sabab-oqibat munosabatlarini ko'rsatish, ajratish, kengaytirish yoki umumlashtirish zarur bo'lgan tushuntirish va isbotlarni o'z ichiga oladi.

Mulohazalashning barcha turlari uchun o'ziga xos xatoliklar sifatida isbotning yo'qligi yoki yetarli dalillarning yo'qligi, tezisni, dalillarni, qoidalar va dalillash uslublarini, dalillarning ishonchliliginini almashtitish kabilarni keltirish mumkin.

### 3-§. Mantiqiy agentlar

Odamlar juda ko'p narsani bilishadi va fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi ravshan. Bundan tashqari, bilim va fikrlash sun'iy agentlar uchun juda muhimdir, chunki ular muvaffaqiyatli xatti-harakatlarning shakllanishini ta'minlaydi. Harakat natijalari haqidagi bilim, muammolarni hal qiluvchi agentlarga murakkab muhit variantlarida

muvaqqatiyatlari harakat qilish imkonini beradi. Biroq, muammolarni hal qiluvchi agentlarning bilimlari juda aniq va yetarlicha moslashuvchan emas. *Bilimlarga asoslangan agentlar* juda ko'p umumiy shakkarda ifodalangan bilimlardan foydalanishlari, axborotni ko'plab tashqi sharoitlarga mos ravishda birlashtirib, qayta tiklashlari mumkin.

Bundan tashqari, bilim va fikrlash atrof-muhitning qisman kuzatilgan variantlarida harakat qilish kerak bo'lganda hal qiluvchi rol o'yinaydi. *Bilimga asoslangan agent*, umumiy bilimlarni hozirgi idrok qilishning natijalari bilan birlashtirib, harakatni tanlashdan oldin hozirgi holatning yashirin tomonlarini aniqlashga qodir. Misol uchun, terapevt bemorni davolash usulini tanlashdan oldin unga tashxis qo'yadi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri kuzatish mumkin bo'limgan og'riqli holatni aniqlaydi. Terapevt tomonidan qo'llaniladigan bilimlarning ba'zilari darsliklar va o'qituvchilar tomonidan olingan qoidalar shaklida bo'ladi va yana bir qismi terapevt har doim so'z bilan ta'riflay olmaydigan birlashtiruvchi tasvirlar shaklida taqdim etiladi. Ammo, agar bu birlashtiruvchi tasvirlar terapevtning miyasida paydo bo'lsa, ular ham bilim sohasiga kiradi.

*Fikrlash* bizni kundalik bilimlarning yakuniy zaxirasidan foydalanib, deyarli cheksiz fikr ifoda shakkari bilan kurashishga imkon beradi. Bunday turdag'i noaniqliklarga duch kelganda muammolarni hal qiladigan agentlar qiyinchiliklarga duch kelishadi, chunki ular kutilmagan vaziyatlar bilan bog'liq muammolarni taqdim etishning qo'llaniladigan usuli ko'rib chiqilayotgan variantlar sonining eksponentsiyal o'sishiga olib keladi.

*Bilimlarga asoslangan agentlarni o'rganish* bilan shug'ullanishning muhim sababi shundaki, bunday agentlar katta moslashuvchanlik bilan ajralib turadi. Ular aniq belgilangan maqsadlar shaklida ifodalangan yangi vazifalarni bajarishga qodir, ular tezda vakolatga ega bo'lishlari, ko'rsatmalar olishlari yoki o'z muhitidan olingan yangi bilimlarni o'zlashtirishlari mumkin, bundan tashqari ular o'zlarining muhitidagi o'zgarishlarga moslasha oladi, tegishli bilimlarni yangilaydi.

Mantiqiy agentlarning bilimlari har doim aniq bo'ladi, ya'ni agent ba'zi mulohazalarning mavjudligini bilmasligi mumkin, lekin bu dunyodagi har bir mulohaza chin yoki yolg'ondir.

Mantiqiy bilimga asoslangan agentlar uchun tasavvur qilishning oddiy usullaridan biri bo'lib xizmat qiladigan afzalliklarga ega, ammo mantiq ba'zi jiddiy cheklov larga ham egadir. Shubhasiz, insonlar va boshqa agentlar tomonidan qisman kuzatilgan atrof-muhit variantlarida

olib borilgan mulohaning katta qismi noaniq bo'lgan bilimlarga asoslangan. Mantiq bunday noaniqlikni to'g'ri taqdim etishga imkon bermaydi.

#### 4-§. Predikatlar mantiqi

Predikatlar mantiqi(PM)da quyidagi  
*simvollardan* foydalanamiz [31, 39]:

1.  $\rho, q, r, \dots$  simvollar – 1 (chin) va 0 (yolg'on)  
qiymatlar qabul qiluvchi o'zgaruvchi mulohazalar.

2.  $x, y, z, \dots$ -qandaydir  $M$  to'plamdan qiymat oluvchi predmet o'zgaruvchilar;  $x_0, y_0, z_0, \dots$ -predmet konstantalar, ya'ni predmet o'zgaruvchilarning qiymatlari.

3.  $P(\cdot), F(\cdot)$  - bir joyli o'zgaruvchi predikatlar;  $Q(\cdot, \cdot, \dots, \cdot)$ ,  $R(\cdot, \cdot, \dots, \cdot)$  -  $n$  joyli o'zgaruvchi predikatlar.

4.  $P^o(\cdot), Q^o(\cdot, \cdot, \dots, \cdot)$  - o'zgarmas predikatlar simvoli.

5.  $\wedge, \vee, \neg, \rightarrow$  - mantiqiy amallar simvollari.

6.  $\forall x, \exists x$  - kvantorli amallar simvollari.

7. ( , ) (qavs, vergul) – qo'shimcha simvollar.

**Predikat tushunchasi.** Mantiq algebrasida mulohazalar faqatgina chin yoki yolg'on qiymat olishi nuqtai nazaridan qaraladi. Bunda mulohazalarning strukturasi va mazmuni qaralmaydi. Ammo fanda va amaliyotda mulohazalarning strukturasi va mazmunidan kelib chiqadigan xulosalardan foydalaniladi.

Masalan, «Axmad-inson; demak, Axmad-sutemizuvchi». Asos (shart) va xulosa MMning elementar mulohazalari bo'ladi va ularni bu mantiq nuqtai nazaridan bo'linmas, bir butun deb va ularning ichki strukturasini hisobga olmasdan qaraladi. Shunday qilib, mantiq algebrasi mantiqning muhim qismi bo'lishiga qaramasdan, ko'pgina fikrlarni tahlil qilishga qodir (yetarli) emas.

Shuning uchun ham MMni kengaytirish masalasi vujudga keldi, ya'ni elementar mulohazalarning ichki strukturasini ham tadqiq eta oladigan mantiqiy sistemani yaratish muammosi paydo bo'ldi.

Bunday sistema MMni o'zining bir qismi sifatida butunlayiga o'z ichiga oladigan PMdir.

PM an'anaviy formal mantiq singari elementar mulohazani *subyekt* va *predikat* qismlarga bo'ladi.



*Subyekt* - bu mulohazada biror narsa haqida nimadir tasdiqlaydi; *predikat* - bu subyektni tasdiqlash.'

Masalan, «Zarrux-talaba» mulohazasida «Zarrux» - subyekt, «talaba» - predikat. Bu mulohazada «Zarrux» «talaba bo'lish» xususiyatiga ega ekanligi tasdiqlanadi.

Agar keltirilgan mulohazada ma'lum Zarruxni odamlar to'plami S dagi  $x$  o'zgaruvchi bilan almashtirsak, u holda « $x$ -talaba» ko'rinishidagi mulohazaga ega bo'lamiz.  $x$  o'zgaruvchining bir xil qiymatlari uchun bu shakl chin mulohazalar va  $x$  o'zgaruvchining boshqa qiymatlari uchun bu shakl yolg'on mulohazalar beradi.

Aniqki, bu forma bir  $x$  argumentli funksiyani aniqlaydi. Bu funksiyaning aniqlash sohasi natural sonlar to'plami  $N$  va qiymatlar sohasi  $\{1, 0\}$  to'plam bo'ladi.

Biror  $M$  to'plamda aniqlangan va  $\{1, 0\}$  to'plamdan qiymat qabul qiluvchi bir argumentli  $P(x)$  funksiyaga bir joyli (bir o'rinci) predikat deb aytildi [61, 100].  $M$  to'plamga  $P(x)$  predikatning aniqlanish sohasi deb aytamiz.

$P(x)$  predikat chin qiymat qabul qiluvchi hamma  $x \in M$  elementlar to'plamiga  $P(x)$  predikatning *chinlik to'plami* deb aytildi, ya'ni  $P(x)$  predikatning chinlik to'plami -  $I_1 = \{x : x \in M, P(x) = 1\}$  to'plamdir.

Masalan, « $x$ -bakalavr» -  $P(x)$  predikati S talabalar to'plamida aniqlangan va uning *chinlik to'plami* hamma bakalavrlar to'plamidan iborat. Bir joyli predikatlarga yuqorida keltirilgan misollar *predmetlarning xususiyatlarini ifodalaydi*.

Agar  $P(x)$  predikat barcha  $x \in M$  to'plamda chin (yolg'on) qiyamat qabul qilsa, u holda u *aynan chin (aynan yolg'on)* deb aytildi [61, 100].

Endi *ko'p joyli predikat* tushunchasini aniqlaymiz. *Ko'p joyli predikat predmetlar orasidagi munosabatni aniqlaydi*.

«Kichik» munosabati ikki predmet orasidagi binar munosabatni ifodalaydi. « $x < y$ » (bu yerda  $x, y \in Z$ ) binar munosabat ikki argumentli  $P(x, y)$  funksiyani ifodalaydi. Bu funksiya  $Z \times Z$  to'plamda aniqlangan va qiymatlar sohasi  $\{1, 0\}$  to'plam bo'ladi.

*Ikki joyli predikat* deb  $M = M_1 \times M_2$  to'plamda aniqlangan va  $\{1, 0\}$  to'plamdan qiyamat oluvchi ikki argumentli [61, 100].

Masalan, « $x, y$ -talaba» uchun  $P(x, y)$  predikati  $M = M_1 \times M_2$  talabalar to'plamida aniqlangan bo'lsin. «Teng» munosabati ikki talaba

orasidagi binar munosabatni ifodalaydi. « $x = y$ » (bu yerda  $x, y \in M$ ) binar munosabat ikki argumentli  $P(x, y)$  funksiyani ifodalaydi. Bu funksiya  $M = M_1 \times M_2$ , to'plamda aniqlangan va qiymatlar sohasi  $\{1, 0\}$  to'plam bo'ladi.

$n$  - joyli predikat ham xuddi shunday aniqlanadi.

Umumiy holda PMda faktlar  $n$ -joyli  $P(x_1, x_2, \dots, x_n)$  predikatlar bilan belgilanadi. Bu yerda  $P$ -predikat (funktör) va  $x_i$ -predikatning argumentlari. Argumentlar predikatlat nomi yoki  $f(x_1, x_2, \dots, x_n)$  funksiyalar bo'lishi mumkin. Bu yerda  $f$ -funksiya nomi,  $x_1, x_2, \dots, x_n$ -xuddi predikatlar argumentlari kabi PrS o'zgaruvchilari yoki o'zgarmaslar hisoblanadi. Predikatni izohlash natijasida funkторlar va argumentlar PrSdan (*qatorlar, sonlar, strukturalar va h.k.*) o'zgarmas qiymatlar qabul qiladi.

( $n > 1$ )-joyli predikatdan bilimlar muxandisida  $n$  ta mohiyatlar (obyektlar)-predikat argumentlarni bir-biri bilan o'zaro bog'laydigan  $n$ -joyli munosabatlarni tasvirlash uchun foydalilanildi.

*Misol.* Ota ("Farrux", "Zarrux Farruxovich") predikat "Farrux" va "Zarrux Farruxovich" mohiyatlar qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langanligini anglatadi, chunonchi, Farrux Zarruxning otasi yoki Zarrux Farruxning o'g'li hisoblanadi.

( $n=1$ )-joyli predikat predikat nomi bilan belgilangan obyektning argumenti yoki xarakteristikasini belgilovchi mohiyat (obyekt) xususiyatini ifodalaydi.

*Misol.* Uy-g'ishtli, 5-baho, "Amir Temur"-ko'cha, "20 noyabr 1958 y." - tug'ilgan kun, "Sun'iy intellekt"-imtihon.

( $n=0$ )- joyli predikat (argumentlarsiz) barcha PrSga taalluqli hodisa, belgi yoki xususiyatni anglatishi mumkin. Masalan, "ishning tugashi", "darsning boshlanishi", "daryoning oqishi", "soatning yurishi".

**Predikatlar ustida mantiqiy amallar.** Predikatlar ham mulohazalar singari faqtgina chin (1) va yolg'on (0) qiymat qabul qilganliklari tufayli ular ustida MMdagi hamma mantiqiy amallarni bajarish mumkin.

Bir joyli predikatlar misolida MMdagi mantiqiy amallarning predikatlarga tatbiq etilishini keltiramiz.

$M$  to'plamda  $A(x)$  va  $B(x)$  predikatlar aniqlangan bo'lsin.  $A(x)$  va  $B(x)$  predikatlar uchun mantiqiy amallar chinlik jadvali yordamida aniqlanadi (3.4 -jadval).

3.4 -jadval. Predikatlar uchun mantiqiy amallarning chinlik jadvali.

$A(x)$	$B(x)$	$\overline{A(x)}$	$\overline{B(x)}$	$A(x) \wedge B(x)$	$A(x) \vee B(x)$	$A(x) \rightarrow B(x)$	$A(x) \leftrightarrow B(x)$
1	1	0	0	1	1	1	1
1	0	0	1	0	1	0	0
0	1	1	0	0	1	1	0
0	0	1	1	0	0	0	1

*Misol.*  $N$  natural sonlar to'plamida  $A(x)$ : « $x$  - toq son» va  $B(x)$ : « $x$  - 5 ga karrali» predikatlar uchun « $x$  - toq son va  $x$  - 5 ga karrali» predikatlar konyunksiyasi  $A(x) \wedge B(x)$  mos keladi va uning chinlik sohasi  $M_a \cap M_b = \emptyset$  - bo'sh to'plamdan iborat bo'ladi. Bu holda  $A(x) \wedge B(x)$  formulaning aynan yolg'on ekanligini aniqlaymiz.

*Misol.*  $M$  bakalavrlar to'plamida  $P(x)$ : « $x$  - bakalavr» va  $Q(x)$ : « $x$  - stipendiya sovrindori» predikatlar uchun « $x$ -bakalavr yoki  $x$ -stipendiya sovrindori» predikatlar dizyunksiyasi  $A(x) \vee B(x)$  mos keladi va uning chinlik sohasi  $M_a \cup M_b \neq \emptyset$  - bo'shmas to'plamdan iborat bo'ladi. Bu holda  $A(x) \vee B(x)$  formulaning aynan chin ekanligini aniqlaymiz.

**Umumiylilik va mavjudlik kvantorlari** [31, 39].  $M$  to'plamda aniqlangan  $A(x)$  predikat berilgan bo'lsin. Agar  $a \in M$  ni  $A(x)$  predikatning  $x$  argumenti o'rniga qo'ysak, u holda bu predikat  $A(a)$  mulohazaga aylanadi.

PMda yana ikkita amal mavjudki, ular bir joyli predikatni mulohazaga aylantiradi.

**Umumiylilik kvantori.**  $M$  to'plamda aniqlangan  $A(x)$  predikat berilgan

bo'lsin. Har qanday  $x \in M$  uchun  $A(x)$  chin va aks holda yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohaza ifodasini  $\forall x A(x)$  shaklda yozamiz. Bu mulohaza endi  $x$  ga bog'liq bo'lmay qoladi va u quyidagicha o'qiladi: «Har qanday  $x$  uchun  $A(x)$  chin».  $\forall$  simvol umumiylilik kvantori deb aytildi. Aytilgan fikrlarni matematik tilda quyidagicha yozish mumkin:

$$\forall x A(x) = \begin{cases} 1, \text{ agar xamma } x \in M \text{ uchun } A(x) = 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, \text{ aks xolda.} \end{cases}$$

$A(x)$  predikatda  $x$  ni erkin (ozod) o'zgaruvchi va  $\forall x A(x)$  mulohazada  $x$  ni umumiylilik kvantori  $\forall$  bilan bog'langan o'zgaruvchi deb aytildi.

**Mavjudlik kvantori**  $A(x)$  predikat  $M$  to'plamda aniqlangan bo'lzin. Hech bo'limganda birorta  $x \in M$  uchun  $A(x)$  predikat chin va aks holda yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohaza ifodasini  $\exists A(x)$  shaklda yozamiz. Bu mulohaza  $x$  ga bog'liq emas va uni quyidagicha o'qish mumkin: «Shunday  $x$  mavjudki,  $A(x) = 1$ », ya'ni

$$\exists A(x) = \begin{cases} 1, & \text{agar birorta } x \in M \text{ uchun } A(x) = 1 \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{aks xolda.} \end{cases}$$

$\exists$  simvol mavjudlik kvantori deb ataladi.  $\exists x P(x)$  mulohazada  $x$  o'zgaruvchi  $\exists$  kvantori bilan bog'langan bo'ladi.

*Misol.* M talabalar to'plamida  $A(x)$  predikat berilgan bo'lzin: « $x$  - stipendiya sovrindori». Kvantorlardan foydalanib ushbu predikatdan quyidagi mulohazalarni hosil qilish mumkin:  $\forall x A(x)$  - «Barcha talabalar stipendiya sovrindori bo'ladi»;  $\exists x A(x)$  - «Shunday talabalar mavjudki, ular stipendiya sovrindori bo'ladi». Ravshanki, birinchi mulohaza yolg'on va ikkinchi mulohaza chin bo'ladi.

Kvantorli amallar ko'p joyli predikatlarga ham qo'llaniladi. Masalan,  $M$  to'plamda ikki joyli  $A(x, y)$  predikat berilgan bo'lzin.  $A(x, y)$  predikatni kvantorli amallardan foydalanib quyidagi ko'rinishlarda ifodalash mumkin:

$$\forall x \forall y A(x, y), \exists x \forall y A(x, y), \forall x \exists y A(x, y), \exists x \exists y A(x, y).$$

*Misol.* Talabalar to'plamida aniqlangan  $A(x, y)$ : « $x$  o'xshash  $y$ » predikatni quyidagi shakllarda berish mumkin:

1.  $\forall x \forall y A(x, y)$  - «Har qanday  $x$  talaba har qanday  $y$  talabaga o'xshash».

2.  $\exists x \forall y A(x, y)$  - «Shunday  $x$  talaba mavjudki, u har qanday  $y$  talabaga o'xshashdir».

3.  $\forall x \exists y A(x, y)$  - «Har qanday  $x$  talabaga uchun shunday  $y$  talaba mavjudki,  $x$  talaba  $y$  talabaga o'xshash».

4.  $\exists x \exists y A(x, y)$  - «Shunday  $x$  talaba uchun shunday  $y$  talaba mavjudki,  $x$  talaba  $y$  talabaga o'xshash».

Bu misollardan ko'rilib turibdiki, umumiy holda kvantorlar tartibi o'zgarishi bilan mulohazaning mazmuni va demak, uning mantiqiy qiymati ham o'zgaradi.

*Misol.* 3-joyli  $x, y, z$  qiymatlar uchun quyidagi tasdiq berilgan:

"Agar  $x$  ning otasi-  $y$  va onasi- $z$  bo'lsa, u holda  $y$  va  $z$  -  $x$  ning ota-onasi bo'ladi;

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:  $A(x, y)$ -  $x$  ning otasi-  $y$ ;  $B(x, z)$ -  $x$  ning onasi- $z$ ;  $D(x, y, z)$ -  $y$  va  $z$  -  $x$  ning ota-onasi. U holda berilgan tasdiq 3-joyli predikat  $\forall(x, y, z)(A(x, y) \wedge B(x, z) \rightarrow D(x, y, z))$  ko'rnishda ifodalanadi.

Chekli son elementlari bo'lган  $M = \{a_1, a_2, \dots, a_n\}$  to'plamda aniqlangan  $A(x)$  predikat berilgan bo'lsin. Agar  $A(x)$  predikat aynan chin bo'lsa, u vaqtida  $A(a_1), A(a_2), \dots, A(a_n)$  mulohazalar ham chin bo'ladi. Bu holda  $\forall x A(x)$  mulohaza va  $A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$  konyunksiya ham chin bo'ladi.

Agar hech bo'lмаганда birorta  $a_k \in M$  element uchun  $A(a_k)$  yolg'on bo'lsa, u holda  $\forall x A(x)$  mulohaza va  $A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$  konyunksiya ham yolg'on bo'ladi. Demak,  $\forall x A(x) = A(a_1) \wedge A(a_2) \wedge \dots \wedge A(a_n)$  tengkuchli ifoda to'g'ri bo'ladi. Yuqoridagidek fikr yuritish yo'li bilan  $\exists x A(x) = A(a_1) \vee A(a_2) \vee \dots \vee A(a_n)$  tengkuchli ifodaning mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Bu yerdan kvantorli amallarni cheksiz sohalarda konyunksiya va dizunksiya amallarining umumlashmasi sifatida qarash mumkinligi kelib chiqadi.

**Predikatlar mantiqi formulasining qiymati tushunchasi.** Endi PM formulasining qiymati tushunchasini aniqlaylik [31, 39].

PM formulasining mantiqiy qiymati uch xil o'zgaruvchilar: 1) formulaga kiruvchi o'zgaruvchi mulohazalarning; 2)  $M$  to'plamdag'i erkin predmet o'zgaruvchilarning; 3) predikat o'zgaruvchilarning qiymatlariga bog'liq bo'ladi.

Uch xil o'zgaruvchilardan har birining ma'lum qiymatlarida PMning formulasini chin yoki yolg'on qiymat qabul qiluvchi mulohazaga aylanadi.

*Misol.* Bemorlar to'plami M da  $A(x)$ ,  $B(x)$ ,  $C(x)$  va  $D(x)$  predikatlar berilgan bo'lsin:

$A(x)$ : « $x$  bemorning harorati  $40^{\circ}$  dan yuqori»;

$B(x)$ : « $x$  bemorning boshida og'riq bor»;  $C(x)$ : « $x$  bemorda yo'tal bor»;

$D(x)$ : « $x$  bemor gripp».

Berilgan predikatlardan quyidagi mulohaza tuzish mumkin - «Agar  $x$  bemorning harorati  $40^0$  dan yuqori, boshida og'riq va yo'tal bor bo'lsa, u holda  $x$  bemor gripp». Ushbu mulohazaga mos PM formulasi

$\forall x(A(x) \wedge B(x) \wedge C(x) \rightarrow D(x))$  quriladi va qiymati hisoblandi.

**Predikatlar mantiqining tengkuchli formulalari. Predikatlar mantiqining tengkuchli formulalari.** PMda ham tengkuchli formulalar tushunchasi mavjud. PMning ikkita  $A$  va  $B$  formulalari o'z tarkibiga kiruvchi  $M$  sohaga oid hamma o'zgaruvchilarning qiymatlarida bir xil mantiqiy qiymat qabul qilsalar, ular  $M$  sohada tengkuchli formulalar deb hisoblanadi va  $A \equiv B$  ko'rinishda yoziladi. Agarda mulohazalar algebrasidagi hamma tengkuchli formulalar ifodasidagi o'zgaruvchi mulohazalar o'rniغا PMdagi formulalar qo'yilsa, u holda ular PMning tengkuchli formulalariga aylanadi. Ammo, PM ham o'ziga xos asosiy tengkuchli formulalarga ega. Bu tengkuchli formulalarning asosiyalarini keltiraylik.  $A(x)$  va  $B(x)$  - o'zgaruvchi predikatlar va  $C$  - o'zgaruvchi mulohaza bo'lsin. U holda PMda murakkab formulalarni normal shaklga keltirishda (soddalashtirishda) quyidagi asosiy tengkuchli formulalardan foydalaniлади [31, 39]:

$$\begin{aligned} 1) \quad & \overline{\forall x A(x)} \equiv \exists x \overline{A(x)}; \quad 2) \quad \overline{\exists x A(x)} \equiv \forall x \overline{A(x)}; \quad 3) \quad \forall x A(x) \equiv \exists x \overline{\overline{A(x)}}; \\ 4) \quad & \exists x A(x) \equiv \forall x \overline{A(x)}; \quad 5) \quad \forall x A(x) \wedge \forall x B(x) \equiv \forall x[A(x) \wedge B(x)]; \\ 6) \quad & C \wedge \forall x B(x) \equiv \forall x[C \wedge B(x)]; \quad 7) \quad C \vee \forall x B(x) \equiv \forall x[C \vee B(x)]; \\ 8) \quad & C \rightarrow \forall x B(x) \equiv \forall x[C \rightarrow B(x)]; \quad 9) \quad \forall x[B(x) \rightarrow C] \equiv \exists x B(x) \rightarrow C; \\ 10) \quad & \exists x[A(x) \vee B(x)] \equiv \exists x A(x) \vee \exists x B(x); \end{aligned} \quad 11)$$

$$\exists x[C \vee B(x)] \equiv C \vee \exists x B(x);$$

$$12) \quad \exists x[C \wedge B(x)] \equiv C \wedge \exists x B(x); \quad 13)$$

$$\exists x A(x) \wedge \exists y B(y) \equiv \exists x \exists y[A(x) \wedge B(y)];$$

$$14) \quad \exists x[C \rightarrow B(x)] \equiv C \rightarrow \exists x B(x); \quad 15) \quad \exists x[B(x) \rightarrow C] \equiv \forall x B(x) \rightarrow C;$$

$$16) \quad \forall x A(x) \equiv \forall y A(y); \quad 17) \quad \exists x A(x) \equiv \exists y A(y).$$

**Predikatlar mantiqi formulasining normal shakli.** PM formulasinihg normal shaklida faqat inkor, konyunksiya, dizunksiya ( $,$ ,  $\wedge$ ,  $\vee$ ) amallari va kvantorli amallar ( $\forall$ ,  $\exists$ ) qatnashib, inkor amali elementar formulalarga (predmet o'zgaruvchilar va o'zgaruvchi predikatlarga) tegishli bo'ladi.

Ravshanki, mulohazalar algebrasi va PMdagi asosiy tengkuchliliklardan foydalaniib, PMning har bir formulasini *deyarli normal shaklga* keltirish mumkin.

*Misol.*  $(\exists x A(x) \leftrightarrow \forall y B(y)) \rightarrow D(z)$  formulani *deyarli normal shaklga* keltiraylik.

$$\begin{aligned}
 & (\exists x A(x) \leftrightarrow \forall y B(y)) \rightarrow D(z) = (\exists x A(x) \rightarrow \forall y B(y)) \wedge (\forall y B(y) \rightarrow \exists x A(x)) \rightarrow D(z) = \\
 & = (\overline{\exists x A(x)} \vee \forall y B(y)) \wedge (\overline{\forall y A(y)} \vee \exists x A(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists x A(x)} \wedge \overline{\forall y A(y)} \vee \overline{\exists x A(x)} \wedge \exists x A(x) \vee \\
 & \vee \forall y B(y) \wedge \overline{\forall y A(y)} \vee \forall y B(y) \wedge \exists x A(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists x A(x)} \wedge \overline{\forall y A(y)} \vee 0 \vee 0 \vee \forall y B(y) \wedge \\
 & \wedge \exists x A(x)) \rightarrow D(z) = (\overline{\exists x A(x)} \wedge \overline{\forall y A(y)} \vee \forall y B(y) \wedge \exists x A(x)) \rightarrow D(z) = \\
 & = (\overline{\exists x A(x)} \wedge \overline{\forall y A(y)} \vee \forall y B(y) \wedge \exists x A(x)) \vee D(z) = (\overline{\exists x A(x)} \wedge \overline{\forall y A(y)} \wedge \overline{\forall y B(y)} \wedge \exists x A(x)) \vee \\
 & \vee D(z) = \overline{\exists x A(x)} \vee \overline{\forall y A(y)} \wedge \overline{\forall y B(y)} \vee \overline{\exists x A(x)} \vee D(z) = \\
 & = (\exists x A(x) \vee \forall y B(y)) \wedge (\exists y \overline{B(y)} \vee \forall x \overline{A(x)}) \vee D(z).
 \end{aligned}$$

Demak,

$$(\exists x A(x) \leftrightarrow \forall y B(y)) \rightarrow D(z) = (\exists x A(x) \vee \forall y B(y)) \wedge (\exists y \overline{B(y)} \vee \forall x \overline{A(x)}) \vee D(z)$$

PMning *deyarli normal shakldagi* formulalari orasida *normal shakldagi formulalari* muhim ro'l o'ynaydi.

Bu formulalarda kvantorli amallar yoki butunlay qatnashmaydi, yoki ular mulohazalar algebrasining hamma amallaridan keyin bajariladi, ya'ni *normal shakldagi formula* quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$(\sigma x_1)(\sigma x_2) \dots (\sigma x_n) A(x_1, x_2, \dots, x_m), \quad n \leq m,$$

bunda  $(\sigma x_i)$  simvoli o'rniga  $\forall x_i$ , yoki  $\exists x_i$  kvantorlarning biri tushuniladi va  $A$  formula ifodasida kvantorlar bo'lmaydi.

*Misol.*  $S \equiv \forall x \exists y A(x, y) \wedge \exists x \forall y B(x, y)$  formulani *normal shaklga* keltirish talab etilsin.  $A$  formulada tengkuchli almashtirishlarni o'tkazib, uni *normal shaklga* keltiramiz:

$$\begin{aligned}
 S & \equiv \forall x \exists y A(x, y) \wedge \forall x \exists y \overline{B(x, y)} \equiv \forall x (\exists y A(x, y) \wedge \exists z \overline{B(x, z)}) \equiv \\
 & \equiv \forall x \exists y (A(x, y) \wedge \exists z \overline{B(x, z)}) \equiv \forall x \exists y \exists z (A(x, y) \wedge \overline{B(x, z)}).
 \end{aligned}$$

**Bajariluvchi va umumqiymatli formulalar.** Agar PMning  $S$  formulasi  $M$  to'plamdagisi ba'zi o'zgaruvchilarning qiymatlarida chin qiyomat qabul qilsa, u holda  $S$  formula  $M$  sohada bajariluvchi formula deyiladi [31, 39].

$S$  formula  $M$  sohada aynan chin (yolg'n) formula deyiladi, agarida  $M$  to'plamdagisi barcha o'zgaruvchining qiymatlarida chin

(yolg'on) qiymat qabul qilsa. Aynan chin formulani umumqiyatli formula yoki mantiq qonunu deb ham atashadi.

*Misol.*  $S = \forall x[A(x) \vee \overline{P(x)}]$  formula istalgan ixtiyoriy  $M$  sohada aynan chin bo'ladi. Demak, u umumqiyatli formula, ya'ni mantiqiy qonundir.

#### 4.1. Birinchi tartibli predikatlar mantiqi

1- tartibli mantiqiy predikatlarning yuqori tartibli predikatlardan farqi shundaki, ularda predikatlar argumenti sifatida ifodalardan (formulalardan) foydalanish ta'qilanganadi.

PMda masalani yechish ma'lum tasdiqlar (formulalar) yoki aksiomalardan foydalaniib formulalar yoki predikatlar ko'rinishidagi maqsadli tasdiqlarni isbotlashga keltiriladi.

1960-yillarning oxirida PMda *Robinson* tomonidan "teskaridan" isbotlashga asoslangan rezolyutsiyalar usuli taklif qilindi. Bunga ko'ra maqsadli tasdiq aksiga qarama-qarshisiga (teskarisiga) aylantiriladi va aksiomalar to'plamiga qo'shiladi, ushbu yo'l bilan hosil qilingan tasdiqlar to'plamining birgalikdamasligi (qarama-qarshi ekanligi) isbotlanadi. Rezolyutsiyalar usuli bilan isbotlashni bajarish uchun tasdiqlar to'plami ustuda ba'zi almashtirishlarni bajarish talab etiladi, xususan, ular TKNSH ga keltiriladi.

Formulalarni EHMda yengil ifodalanadigan TKNSH ga keltirish quyidagi bosqichlardan iborat [31,39]:

1. Implikatsiyalar qatnashgan formulalarni inkor va dizyunksiy qatnashadigan formulalarga hamda kvantorli formulalar ustida kelgan inkorlardan kvantor amallarin ozod qilish tengkuchliliklari yordamida almashtirishlar amalga oshiriladi:

$$1) x \rightarrow y = \overline{x} \vee y; \quad 2) \overline{x \wedge y} = \overline{\overline{x} \vee \overline{y}}; \quad 3) \overline{x \vee y} = \overline{\overline{x} \wedge \overline{y}};$$

$$4) \overline{\forall x A(x)} \equiv \exists x \overline{A(x)}; \quad 5) \overline{\exists x A(x)} \equiv \forall x \overline{A(x)}.$$

2. O'zgaruvchilarni standartlashtirish yoki o'zgaruvchilarni ajratish amalga oshiriladi:

$$6) ((\forall x A(x)) \vee B) \equiv (\forall y(A(y) \vee B));$$

$$7) ((\exists x A(x)) \vee B) \equiv (\exists y(A(y) \vee B));$$

$$8) ((\forall x A(x)) \wedge B) \equiv (\forall y(A(y) \wedge B));$$

$$9) ((\exists x A(x)) \wedge B) \equiv (\exists y(A(y) \wedge B)).$$

Bu yerda  $y$  o'zgaruvchi  $B$  formulaga taalluqli emas deb qaraladi.

$$10) ((\forall x A(x)) \vee (\forall x B(x))) \equiv (\forall x (\forall y (A(x) \vee B(y))),$$

bu yerda  $y$  o'zgaruvchi  $A(x)$  va  $B(x)$  formulalarga taalluqli emas,

$$11) (\exists x A(x)) \vee (\exists x B(x)) \equiv (\exists x (A(x) \vee B(x))),$$

$$12) (\forall x A(x)) \wedge (\forall x B(x)) \equiv (\forall x (A(x) \wedge B(x))),$$

$$13) ((\exists x A(x)) \wedge (\exists x B(x))) \equiv (\exists x \exists y (A(x) \wedge B(y))).$$

bu yerda  $y$  o'zgaruvchi  $A(x)$  va  $B(x)$  formulalarga taalluqli emas.

Bu bosqichda har bir formulada bog'liq o'zgaruvchilar shunday qayta nomlanadiki, kvantorlar bilan bog'langan oz'garuvchilar har bir kvantor uchun yagona o'zgaruvchilarga aylanadi. Bu shunday fakt asosida amalga oshiriladiki, bunda bog'liq o'zgaruvchilar kvantor doirasida formulaning chinligini o'zgartirmaydigan va formulada qatnashmagan boshqa o'zgaruvchiga almashtiriladi.

Masalan,  $(\forall x) (A(x) \vee B(y)) \wedge (\forall x) (F(x))$  ifoda

$(\forall x) (A(x) \vee B(y)) \wedge (\forall z) (F(z))$  ifodaga

almashtiriladi.

3. *Mavjudlik kvantorlarini yo'qotish*. Bu bosqichda mavjudlik kvantorlari  $g(x)$  deb ataladigan Skolema funksiyasi yoki argumentli predkatlarni o'tkazish (hisoblash), ya'ni o'zgaruvchi-argumentning aniqlanish sohasidagi o'zgarmaslar bilan almashtiriladi.

6-10 tengkuchliliklar PMning ixtiyoriy formulasini quyidagi ko'rinishga almashtiradi:

$$(Q_1 x_1) (Q_2 x_2) \dots (Q_n x_n) F(1, x_2, \dots, x_n),$$

bu yerda ixtiyoriy  $Q_r$  bu umumiylilik kvantori yoki mavjudlik kvantori,  $F(x_1, x_2, \dots, x_n)$  - kvantorlarni saqlamovchi formula. Bunday ko'rinishdagi formulaga skolemli o'zgarmaslarini va funksiyalarini kiritish bilan barcha mavjudlik kvantorlarini yo'qotish mumkin. Buning uchun PMning quyidagi qonunlaridan foydalanish mumkin:

$$14) (\forall x) (Q_1 y_1) \dots (Q_m y_m) F(y_1, y_2, \dots, y_m) \equiv \\ \equiv (Q_1 y_1) \dots (Q_m y_m) F(a, y_1, \dots, y_m),$$

bu yerda  $Q_1, \dots, Q_m$  - ixtiyoriy kvantorlar,  $a$  - o'zgarmas simvol formulaning boshida turgan  $(\forall x)$  ifodasiiga mos keluvchi shunday o'zgarmaslar sifatida alfavitga kiritiladi va  $a$  - o'zgarmas simvol skolemli o'zgarmas deb ataladi.

$$15) (\forall x_1) (\forall x_2) \dots (\forall x_k) (\exists y) (Q_1 z_1) \dots (Q_m z_m) \\ F(x_1, x_2, \dots, x_k, y, z_1, \dots, z_m) \equiv (\forall x_1) (\forall x_2) \dots (\forall x_k) (Q_1 z_1) \dots (Q_m z_m) \\ F(x_1, x_2, \dots, x_k, f(x_1, x_2, \dots, x_k), z_1, \dots, z_m),$$

bu yerda  $Q_1, \dots, Q_m$  - ixtiyoriy kuantorlar,  $k$ -joyli funksionalli simvol f formulaning boshida turgan  $(\forall x_1)(\forall x_2) \dots (\forall x_k)(\exists y)$  ifodasiga mos keluvchi shunday funksiya sifatida alfavitga kiritiladi va  $f(x_1, x_2, \dots, x_k)$  - funksiya skolemli fuksiya deb ataladi.

16)  $\exists x A(x) \equiv A(a)$ , bu yerda  $a$  - skolemli o'zgarmas.

Almashtirishlarga misollar:

Boshlang'ich formula

$$\begin{aligned} &(\forall x) y \\ &(\forall x)(\forall y) z \\ &(\exists x)(F(x)) \end{aligned}$$

Natijaviy formula

$$\begin{aligned} &g(x) \\ &g(x, y) \\ &F(a), F(b) \end{aligned}$$

bu yerda  $a$  va  $b$  - o'zgarmaslar. Skolema funksiyasi mavjudlik kuantori bilan bog'langan o'zgaruvchilarning aniqlanish sohasini boshqa o'zgaruvchilarning aniqlanish sohasiga akslantirishni amalga oshiradi.

4. Umumiylilik kuantorlarini formulaning boshiga chiqarish. 6-16 qonunlar skolemli shakldagi ixtiyoriy PM formulalarini almashtirishni ta'minlaydi. Quyidagi ko'rinishdagi formula shunday ataladi.

$$\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n, A.$$

Bu yerda  $A$  formula o'zida umuman kuantorlarni saqlamaydi, faqat o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar, skolema o'zgarmasları va funksiyalarını saqlaydi.  $A$  formula KNF dan iborat  $\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n, A$  skolema shakli kauzal shakl deyiladi. Kauzal shakl quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

$$\forall x_1, \forall x_2, \dots, \forall x_n (D_1 \wedge D_2 \wedge \dots \wedge D_m).$$

Bu yerda  $D_1, D_2, \dots, D_m$  - diyunktarni klauzalar yoki gaplar deb atashadi.

5. Umumiylilik kuantorlarini yo'qotish. Agar formulada biror x o'zgaruvchi bo'lsa, u holda uning aniqlanish sohasidagi barcha qiymatlarida formular o'rini degan nuqtai-nazaridan kuantorlarni olib tahashhish orqali amalga oshiriladi.

6. Distributivlik qonunidan foydalanib formulani TKNSH ko'rinishga keltirish

$$A \vee (B \& C) = (A \vee B) \& (A \vee C).$$

7.  $\wedge$ -simvolni yo'qotish. Bu  $(A \wedge B)$  ko'rinishdagi formulani  $\{A, B\}$  formulalar to'plamiga almashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

*Misol.* Aytaylik formulani TKNSH ko'rinishga keltirish kerak [60]:

$$(\forall x) \left\{ A(x) \rightarrow \left\{ (\forall y) [A(y) \rightarrow A(f(x, y))] \wedge \overline{(\forall y)} [B(x, y) \rightarrow A(y)] \right\} \right\}.$$

Implikarsiyalni  $\vee$  va " $-$ " amallari orqali ifodala, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ \overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [ \overline{A(y)} \vee A(f(x, y)) ] \wedge (\forall y) [ \overline{B(x, y)} \vee A(y) ] \} \}$$

Inkorni ichkariga siljитib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [ \overline{A(y)} \vee A(f(x, y)) ] \wedge (\exists y) [ \overline{B(x, y)} \wedge \overline{A(y)} ] \}) \}$$

O'zgaruvchilarни almashtirib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [ \overline{A(y)} \vee A(f(x, y)) ] \wedge (\exists z) [ \overline{Q(x, z)} \wedge \overline{P(z)} ] \}) \}$$

z o'zgaruvchi  $g(x)$  Skolemli funksiyaga almashtirib, mavjudlik kvantorini yo'qotib, quyidaginin hosil qilamiz

$$(\forall x) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ (\forall y) [ \overline{A(y)} \vee A(f(x, y)) ] \wedge [ B(x, g(x)) \wedge \overline{A(g(x))} ] \}) \}$$

Umumiylig kvantorini formula boshiga chiqarib, quyidagini hosil qilamiz:  $(\forall x)(\forall y) \{ (\overline{A(x)} \vee \{ [\overline{A(y)} \vee A(f(x, y))] \wedge [B(x, g(x)) \wedge \overline{A(g(x))}] \}) \}$

Distributivlik qonunini qo'llab, quyidagini hosil qilamiz:

$$(\forall x)(\forall y) \{ [ \overline{A(x)} \vee \overline{A(y)} \vee A(f(x, y)) ] \wedge [ \overline{A(x)} \vee B(x, g(x)) ] \wedge [ \overline{A(x)} \vee \overline{A(g(x))} ] \}$$

Umumiylig kvantorlarini yo'qotib va konyunksiy formulasini ularning to'plamari bilan almashtirib, quyidagi formulalar (gaplar) to'plamini hosil qilamiz:

$$K_1 : \overline{A(x)} \vee \overline{A(y)} \vee A(f(x, y));$$

$$K_2 : \overline{A(x)} \vee B(x, g(x));$$

$$K_3 : \overline{A(x)} \vee \overline{A(g(x))}.$$

1-tartibli PM formulalarini programmalashtirishda eng keng tarqalgani Prolog tili hisoblanadi.

*1-tartibli PM bilimlarni tasvirlash usuli sifatida quyidagi kamchiliklarga ega:*

- mantiqiy xulosalashning monotonligi, ya'ni olingan oraliq ma'lumotlar natijalarini qayta ko'rish imkoniyati yo'qligi (ular gipotezalar emas, balki faktlar sifatida qaraladi);
- predikatlarning parametrlari sifatida boshqa predikatlarni qo'llash mumkim emasligi, ya'ni bilimlar haqidagi bilimlarni (metabilimlarni) ifodalashning mumkin emasligi;
- mantiqiy xulosalashning determinallashganligi, ya'ni noravshan bilimlar bilan ishlash imkoniyatining yo'qligi.

## 4.2. Sun'iy intellektda mantiqiy xulosalashlar

**Deduktiv mantiqiy xulosalash.** Aytaylik masala predikatlar hisobi tilida tavsiflangan bo'lzin. Agar  $F_0$  orqali boshlang'ich tasdiqlarni,  $F_g$  orqli maqsadli tasdiqlarni belgilasak, u holda teoremlar shaklida berilgan masalani formal ko'rinishda  $F_0 \rightarrow F_g$  yozish mumkin [31].

Boshqacha so'z bilan aytganda,  $F_0$  to'plamdan mantiqiy ravishda  $F_g$  formula kelib chiqishini isbotlash zarur.  $F_g$  formula  $F_0 \rightarrow F_g$  to'plamdan mantiqiy ravishda kelib chiqadi, agarda  $F_0$  to'plamni qanoqtantiruvchi har bir izohlash  $F_g$  formulani ham qanoatlantirsa. Agarda  $F_0$  to'plam  $F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \rightarrow F_g$  formula bilan tasvirlangan bo'lsa, u holda predikatlar hisobining deduktiv xulosalash masalasi formulalarning umumqiymatlilagini aniqlashga keltiriladi:

$$F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \rightarrow F_g$$


Xulosalash jarayonida ko'p hollarda teskaridan isbotlash usulidan foydalaniladi, ya'ni yuqorida keltirilgan formulaning umumqiymatliligi emas, balki formulaning bajariluvchi emasligi aniqlanadi:

$$-(F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \rightarrow F_g) \text{ yoki } F_1 \wedge F_2 \wedge \dots \wedge F_n \wedge \neg F_g$$

Boshqacha so'z bilan aytganda, birlashmaning bajarilmasligi isborlanadi. Ba'zi formulalar to'plamining bajarilmasligini aniqlash rad etish deyiladi.

SITlarining mahsuliy masalalarini yechishda deduktiv xulosalashning asosan ikkita: *teskari va to'g'ri xuloslash* usullari mavjud (bu xulosalashlar ma'ruzaning mahsuliy modellar mavzusida to'liq keltirilgan).

Hozirgi vaqtgacha SITlari sohasida ko'plab mantiqiy xulosalash tizimlari ma'lum (3.4-rasm) [20, 31, 37].



### 3.4-rasm. Mantiqiy xulosalash tizimlarining xarakteristikasi.

Bu yerda AO'T-axboritli - o'Ichov tizim. Bu tizimarning barchasi bir-biridan foydalaniladigan modellari, mantiqiy xulosalash ko'rinishlari, ifodalanish uslublari, mantiqiy xulosalash usullari bilan farq qiladi (3.4-rasm).

**Fikrlash va deduktiv xulosalash prinsipi.** SIning ajralmas qismlaridan biri-bu gipotezalar generatori, teoremalarni isbotlash va hisoblagichlardan tashkil topgan fikrlaydigan ITlar hisoblanadi.

*Fikrlash deganda - qandaydir tasdiqlarni qabul qilishga olib keladigan (majbur qiladigan) argument(fakt)lar ketma-ketligi tushuniladi.*

*Deduksiya* - bu fikrlashning yuqori darajadagi ideallashtirilgan va chegaralangan shakli hisoblanadi. Agar biz inson fikrlashining ba'zi aspektlarini (axborotlarning to'griligi, noaniqligi, qarama-qarshiligi va h.k) modellashtirmoqchi bo'lsak, u holda *deduksiya* aniq yetarli bo'lmaydi va bu holda fikrlashning boshqa shakllaridan, ya'ni *abduksiya* va *induksiyadan* foydalanish mumkin.

*Deduksiya (inglizchadan deducere - chiqarmoq)* - zamonaviy mantiq termini bo'lib, mantiqiy qonunlar asosida biror mazmunni boshqasidan chiqarishni bildiradi.

Deduksiya tushunchasi Aristotel ishlarida ham uchraydi [20, 31, 37]. *Fikrlar to'plamidan aqli xulosalarni olishni ta'minlovchi qoidalar to'plamini Aristotel sillogizm deb atagan.*

Ushbu holatda fikr deganda-tabiyy tilda to'rtda shakldan biri bilan ifodalanadigan tugallangan mulohaza tushuniladi:

- 1) barcha x lar uchun A bajariladi -  $(\forall x)A(x)$ ;
- 2) birorta x lar uchun A bajarilmaydi -  $(\forall x)\overline{P(x)}$ ;
- 3) ba'zi x lar uchun A bajariladi -  $(\exists x)A(x)$ ;
- 4) ba'zi x lar uchun A bajarilmaydi -  $(\exists x)\overline{P(x)}$ .

Aristotelning davomchilari *sillogizmga* asoslanib, fikrlashga nisbatan yoqori pog'onadagi abstraktsiyada turgan mulohazalar uchun deduktiv xulosalash prinsipini formallashtirdilar. Ushbu xulosalash qoidalaridan eng mashhurlari quyidagilar hisoblanadi [20, 31, 37].

1. *Modus Ponendo Ponens*:  $\frac{x \rightarrow y, x}{y}$  - «Agar implikatsiya  $x \rightarrow y$  va  $x$  chin bo'lsa, u holda  $y$  chin bo'ladi».

2. *Modus Tollendo Tollens*:  $\frac{x \rightarrow y, \bar{y}}{x}$  - «Agar implikatsiya  $x \rightarrow y$  va  $y$  yolg'on bo'lsa, u holda  $x$  yolg'on bo'ladi».

3. *Modus Ponendo Tollens*:  $\frac{x \wedge y, x}{y}$  - «Agar  $x$  chin va

konyunksiya  $x \wedge y$  yo'g'on natijaga ega bo'lsa, u holda  $y$  yolg'on bo'ladi».

4. *Modus Tollendo Ponens*:  $\frac{x \vee y, \bar{x}}{y}$  - «Agar  $x$  yolg'on va

dizyunksiya  $x \vee y$  chin bo'lsa, u holda  $y$  chin bo'ladi».

Bu qoidalar yordamida mulohazalar hisobi tizimida xulosalash uchun juda qulay bo'lган *«zanjirli xulosa»* qoidasi formallashtirildi.

*Zanjirli xulosa*: «Agar implikatsiya  $x \rightarrow y$  chin va implikatsiya  $y \rightarrow z$  chin bo'lsa, u holda implikatsiya  $x \rightarrow z$  chin bo'ladi».

**Abduktiv mantiqiy xulosalash.** *Abduksiya* - bu tushuntiruvchi gipotezalarni shakllantirish jarayoni. Aniqrog'i, taklif qilingan tushuntirishlar uchun berilgan nazariyalar va kuzatuvlar asosida abduktiv xulosalash tushuntirishlar orasidan bitta yoki ko'proq eng yaxshi tushuntirishlarni aniqlashi lozim.

*Abduktiv xulosalash* kuzatilayotgan hodisa va faktorlarni tushuntirish yoki sababini aniqlash uchun qo'llaniladi.

*Abduktiv xulosalash quyidagi sxema boyicha tasvirlanadi*: qoida va natijalar berilgan bo'ladi, *xususiy holat-sababni* aniqlash talab etiladi. SIda abduktiv xulosalash deganda eng yaxshi abduktiv tushuntirish tushuniladi.

*Misol.* Quyidagi qoida mavjud: «*Ushbu qutidagi barcha mevalar olmalar*»; Kuzatish natijasi quyidagicha: «*Bu mevalar olmalar*»; U holda abduksiya bo'yicha quyidagi xulosaga kelinadi: «*Bu olmalar ushbu qutidan olingan*» (sabab-tushuntirish);

Ko'p hollarda abduktiv xulosalashdan kuzatilayotgan tizimlarning noto'g'ri harakatlarini tashxislashda foydalaniladi. SITlarining amaliy

sohalarida abdultiv xulosalash tabiiy tilni tushunish, rejalashtirish, rejani anglab olish hamda bilimlarni to'plash va o'zlashtirish kabi masalalarni yechishda qo'llaniladi [31, 37]. Shuningdek, abduktiv xulosalash fanda va kunlik hayotimizda korxonaning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, kosmik nurlanishlarni o'rganish kabi masalalarni yechishda ham keng qo'llaniladi.

**Induktiv mantiqiy xulosalash.** SIda abduktiv va deduktiv xulosalashdan tashqari xulosalashning induktiv sxemalaridan ham foydalaniladi. Xulosalashning bunday sxemalari mavjud xususiy tasdiqlarning umumlashmasini hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Umumlashtirish qobilyati tabiiy intellektning muhim funksiyasi hisoblanadi va ulardan yangi bilimlarni hosil qilishda foydalaniladi. Shuning uchun xulosalashning induktiv sxemasi SIning o'rganuvchi tizimostilari elementi hisoblanadi. Chunki, o'rganish jarayonida mavjud faktlar majmuidan umumlashtirish yo'li bilan yangi tushunchalar va faktlar shakllantiriladi. Xulosalashning induktiv sxemalari bilimlarni hosil qilish jarayonini avtomatlashtirishda keng qo'llaniladi.

Induktiv xulosalashning umumiyligi muammosi-bu «tabiatning ba'zi bir muntazamligini ifodalovchi faktlardan qonunlarga o'tganda biz nimaga asoslanamiz» degan prinsipni tushuntirishdan iborat.

*Misol.* Berilgan: x; y. Topish kerak: R.

x: Axmedov - abiturient; y: Axmedov - xujjat topshirishga haqli;  
R: Barcha abiturientlar xujjat topshirishga haqli.

### Nazorat savollari

1. Tasavvur nima va bilimlar qanday tasavvur qilinadi?
2. Idrok nima va idrok qilish qanday pog'onalaridan iborat?
3. Bilimlarning qanday turlari va xususiyatlari mavjud?
4. Subyekt va predikat tushunchalarini izohlang?
5. Bir joyli, ikki joyli va ko'p joyli predikatlarning ta'riflarini keltiring?
6. Umumiylig va mavjudlik kvantorlari amallarini tushuntiring?
7. PMning qanday tengkuchli formulalarini bilasiz?
8. PM formulasini normal shaklga keltirishning qanday algorimlarini bilasiz?
9. Deduktivli, induktivli va abduktivli mantiqiy xulosalashlarni izohlang?

## Nazorat testlari

1. .... - bu qandaydir tushunchani figura, yozuv, til yoki formal shaklda qabul qilinadigan amal hisoblanadi.  
a) Tasavvur; b) Idrok; c) Bilim; d) Mulohaza.
2. .... bu dunyoning sub'ektiv rasmini shakllantiradigan bilim jarayonidir.  
a) Idrok; b) Tasavvur; c) Bilim; d) Mulohaza.
3. Idrok qilish pog'onalarini to'g'ri ko'rsating?  
a) Aniqlash, Ajratish, Identifikatsiya, Tanish;  
b) Tasavvur, Aniqlash, Ajratish, Identifikatsiya;  
c) Bilim, Ajratish, Identifikatsiya, Tanish;  
d) Mulohaza, Identifikatsiya, Sinflash, Tanish.
4. Bilimlar nima?  
a) obyektiv qonuniyatlar; b) obyektlar to'plami;  
c) exspertlar to'plami; e) predmet soha.
5. Umumiylar mulohazalash deb aqning ..... aytildi,  
ba'zida mulohazalash fikrlash tushunchasi bilan.....  
a) faoliyatiga; sinonimdir; b) faoliyatiga; teskaridir;  
c) Bilimiga; teskaridir; e) Tasavvuriga; sinonimdir.
6. Mulohazalash turlari to'g'ri ko'rinishda ifodalangan javobni ko'rsating.  
a) Mulohazalash-isbotlash, mulohazalash-tushuntirish,  
mulohazalash-fikrlash;  
b) Mulohazalash-isbotlash, mulohazalash-tasdiqlash, mulohazalash-o'rganish;  
c) Mulohazalash-o'qitish, mulohazalash-tushuntirish, mulohazalash-sinflash;  
e) Mulohazalash-sinflash, mulohazalash-tushuntirish, mulohazalash-tanish.
7. Fikrning hususiylikdan umumiyligga, qator faktorlardan qonunga harakat jarayoni-bu.....  
a) induksiya; b) tahlil; c) sintez; e) deduksiya.
8. Fikrning umumiylikdan hususiylikga, qonundan alohidalikning namoyon bo'lishiga harakat jarayoni-bu.....  
a) deduksiya; b) tahlil; c) sintez; e) abstraktlashtirish.
10.  $N$  mevalar to'plamida  $P(x), Q(x)$  va  $R(x)$  predikatlar berilgan bo'lsin: « $x$ -olma»,  $P(x)$ : « $x$ -olma pishgan»,  $Q(x)$ : « $x$ -olma qizil»,

$R(x)$ : « $x$ -olma shirin»;

Ushbu predikatlardan foydalanib  $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x))$  formulaning qiymatini aniqlang?

- a)  $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x)) = 1$ ;
- b)  $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x)) = 0$ ;
- c)  $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x)) = 1,5$ ;
- d)  $\exists x(P(x) \wedge Q(x) \rightarrow R(x)) = \bar{1}$ ;

11. Berilgan:  $x; y$ .

$x$ : Fariza -talaba;  $y$ : Fariza - a'lo baho olishga haqli;

Induktiv xulosalash to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

- a) Barcha talabalar a'lo baho olishga haqli;
- b) Barcha talabalar a'lo baho olishga haqli emas;
- c) Barcha a'lo bahoga o'qiydiganlar-talaba;
- d) A'lo bahoga o'qiydiganlarning barchasi-talaba.

### Masala va topshiriqlar

1. Agar  $A=«Axmad - abituriyent»$  va  $V=«Axmad hujjat topshirishga haqli»$ .

«Ixtiyoriy abituriyent hujjat topshirishga haqli» mulohazaga mos mantiqiy formulani quring.

2. Quyidagi PM formulalarini deyarli normal shaklga keltiring:

- 1)  $\forall x \exists y F(x, y) \leftrightarrow (\exists x P_1(x) \rightarrow \exists x P_2(x))$ ,
- 2)  $\forall x [F(x) \vee \overline{\forall y B(x, y)}] \vee (\exists x P_1(x) \rightarrow \exists x P_2(x))$ ,
- 3)  $\exists x A(x, z) \wedge \exists x \forall y B(x, y) \rightarrow \forall x \forall y \overline{C(x, y, z)}$ ,
- 4)  $\exists x (P_1(x) \wedge P_2(x)) \rightarrow (\exists x P_1(x) \wedge \exists x P_2(x))$ ;
- 5)  $(\forall x P_1(x) \vee \forall x P_2(x)) \rightarrow \forall x (P_1(x) \vee P_2(x))$ ;
- 6)  $\forall x (q \rightarrow P_1(x)) \leftrightarrow (q \rightarrow \forall x P_1(x))$ ;
- 7)  $\exists x (A_1(x) \rightarrow A_2(x)) \leftrightarrow (\forall x A_1(x) \rightarrow \forall x A_2(x))$ ;
- 8)  $\forall x P(x) \vee \forall x Q(x) \leftrightarrow \forall x (P(x) \vee Q(x))$ ;
- 9)  $\exists x P(x) \vee \exists x Q(x) \leftrightarrow \exists x (P(x) \vee Q(x))$ .
- 10)  $\overline{\exists x (A(x) \wedge B(x))} \wedge (\forall (A(x) \rightarrow B(x)))$ .
- 11)  $\exists x (P_1(x) \wedge P_2(x)) \leftrightarrow (\exists x P_1(x) \wedge \exists x P_2(x))$ ;
- 12)  $(\forall x P_1(x) \vee \forall x P_2(x)) \leftrightarrow \forall x (P_1(x) \vee P_2(x))$ ;

- 13)  $\forall x(P(x_1) \rightarrow P_2(x)) \leftrightarrow (\forall xP_1(x) \rightarrow \forall xP_2(x));$
- 14)  $\forall x(A(x) \rightarrow B(x)) \wedge \exists x(D(x) \wedge \overline{R(x)});$
- 15)  $\forall x \exists y \forall z(P(x, y, z) \rightarrow Q(x, y, z));$
3. Quyidagi keltirilgan mulohazalarni birinchi tartibli predikatlar ko'rnishiga keltiring:
- 1) Filialning har talabasi ingliz yoki nemis yoki fransuz tilini o'rghanadi.
  - 2) Filialning barcha talabalari o'zbek, ingliz va rus tillarini o'rghanadi.
  - 3) Ba'zi qurilmalar ossilloograflar bilan jihozlangan.
  - 4) Har bir odam yoki ba'zi odamlar dam oladi.
  - 5) Bironta odam dam olmaydi.
  - 6) Topshiriqlarni bajargan ba'zi bir talabalarga imtihonga kirishga ruxsat berildi.
  - 7) Topshiriqlarni bajarmagan birorta talabaga imtihonga kirishga ruxsat berilmadi.
  - 8) Ba'zi bir talabalar 2020 yilda ingliz tilidan imtihonda qatnashdi..
  - 9) Ingliz tilidagi imtihonda qatnashgan har bir talaba uni topshiradi.
  - 10) Birorta ham olma shirin emas.
  - 11) Barcha srnlar orasida manfiy sonlar mavjud.
  - 12) Ixtiyoriy aksiya qimmatli qog'oz hisoblanadi.
  - 13) Barcha sut emizuvchilar hayvon yoki inson hisoblanadi.
  - 14) Maktabni yoki kollejni yoki liseyni bitirgan har bir inson oliy ta'lrim muassasiga xujjat topshirishga haqli.
  - 15) Har bir silindrning ustida kub turibdi.
4. Quyidagi mantiqiy mulohazalar berilgan:
- 1) Umumiy fakt:  $(\forall m) \text{Inson}(m) \Rightarrow \text{Abituriyent}(m).$
  - 2) Xususiy fakt:  $\text{Inson}(\text{Axmad}).$
  - 3) Xulosa:  $\text{Abituriyent}(\text{Axmad}).$
- Quyidagi mantiqiy xulosa qanday qiymat qabul qiladi:  
 $((\forall m)\text{Inson}(m) \Rightarrow \text{Abituriyent}(m)) \wedge \text{Inson}(\text{Axmad}) \Rightarrow \text{Abituriyent}(\text{Axmad}).$
5. Aytaylik  $M$  - odamlar to'plami. Quyidagi predikatlar berilgan bo'lsin:  
 Otasi ( $m_1, m_2$ ) chin bo'ladi, qachonki agar  $m_1$  shaxs  $m_2$  shaxsning otasi bo'lsa va Erkak ( $m$ ) chin bo'ladi, qachonki  $m$  - erkak bo'lsa, va Erkak ( $m$ ) yolg'on bo'ladi, qachonki  $m$  - ayol bo'lsa. Quyidagi predikatlarning chinligini aniqlang:

- 1)  $(\forall m_1, m_2) (Otasi(m_1, m_2) \wedge Erkak(m_1) \Leftrightarrow Ota(m_1, m_2))$ .
  - 2)  $(\forall m_1, m_2) (Otasi(m_1, m_2) \wedge \neg Erkak(m_1) \Leftrightarrow Ona(m_1, m_2))$ .
  - 3)  $(\forall m_1, m_2) ((\exists m_3) Otasi(m_1, m_3) \wedge Otasi(m_3, m_2) \wedge Erkak(m_1) \Leftrightarrow Nabira(m_2, m_1))$ .
6. Quyidagi qoida mavjud: «*Axmedov sutemizuvchi*»;  
Kuzatish natijasi quyidagicha: «*Barcha odamlar sutemizuvchi*»;  
Abduktiv xulosalashdan foydalanib Y xususiy holat sababni aniqlang?
7. Berilgan X; Y. X: Axmedov -talaba; Y: Axmedov -o'qiydi;  
Induktiv xulosalashdan foydalanib R ni toping?
8. Berilgan X; Y. X: odam -sutemizuvchi; Y: Axmedov -odam;  
Deduktiv xulosalashdan foydalanib R ni toping?

## 4 - BOB. EKSPERT TIZIMLAR

### 1-§. Ekspert tizimlarning xususiyatlari, muhimligi va afzalliklari

**Ekspert tizimlarning xususiyatlari, muhimligi va afzalliklari.** 80-yillarning boshlarida SI sohasidagi ilmiy izlanishlar jarayonida «Ekspert tizimlar» nomini olgan mustaqil yo`nalish shakllandı [7].

*ET bo`yicha izlanishlarning maqsadi* - shunday dasturlar yaratish kerakki, nafaqat inson – ekspert uchun qiyin bo`lgan masalalarni yechsin, balkim ekspert oladigan natijalardan sifati va samaraliligi bo`yicha kam bo`lmagan natijalarni bersin.

ETlari - bu kompyuter yordamida ishlaydigan, turli faoliyat sohalarida qarorlar qabul qilishning maxsus yaratilgan murakkab tuzilmali modeldir. Mazkur modelning ish prinsipi shundayki, u xuddi ekspertlar kengashi kabi mulohaza yuritib, yechimi izlab topilishi kutilayotgan qiyin vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini taklif etishga moslashtirilgan.

*ETlarning asosiy xususiyatlari :*

- ET masalani yechish uchun yuqori sifatli tajribalar va bilimlarni qabul qiladi;
- ETdagi bilimlar doim to`planib va yangilanib boriladi;
- ET bashorat qilish qobiliyatiga ega bo`ladi.
- ET ishchilarga va mutaxassislarga o`quv qo`llanmasi sifatida foydalanilishi mumkin.

*ETni loyihalashda va ishlab chiqish jarayonida* ETni loyihalashning instrumental muhitini ishlab chiquvchilar, ETni yaratishdagi instrumental muhit, ETning o`zi, ekspert, bilimlar muxandisi(BM) va BB administratori va foydalanuvchi qatnashadi.

*ETning muhimligi quyidagilardan iborat:*

- ET texnologiyalari kompyuterda yechiladigan va yechimi iqtisodiy samara olib keladigan amaliy masalalar ko`lamini oshiradi;
- ET texnologiyalari murakkab sohalarni qayta ishlashda yuqori sifat va uzoq muddatlilikga erishishni ta'minlaydi;
- bir necha marta qayta ishlashlar sifatini boshqaruvchi murakkab tizimlar sifatining yuqoriligi va dasturlarni qayta ishlash darajasining pastligi;
- ET texnologiyalari bilan an'anaviy dasturlashtirish texnologiyalarini birlashtirganda: dasturchi tomonidan emas, foydalanuvchi tomonidan sohaning dinamik modifikatsiyalarini

ta'minlash; sohalarning yanada «silliqligi»; yaxshi grafika, interfeys va o'zaro ta'sir hisobiga dasturiy mahsulotga yangi sifatlar qo'yiladi.

*ETning asosiy afzalliklari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:*

- har qanday tashkilotda ekspertlar tizimi nihoyatda asqotadi, chunki ushbu tizimdan foydalanish tufayli korxona rahbariyati eng avvalo, ratsional tarzda xodimlar shtatini qayta tuzish, vaqtini tejash, byurokratiya ko'lamenti ancha cheklash, qog'ozbozlikka chek qo'yish imkoniyatini qo'lga kiritadi;

- tegishli mavzuga(muammoga) daxldor bo'lgan barcha ma'lumotlar, ularni izlab topish va foydalanish qoidalarining hammasi kompyuter xotirasida saqlanadi. Bundan tashqari, SI qabul qilgan qarorlari qandaydir taxmin va farazlarga asoslangan bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtida ETlari va ularning alohida elementlari loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis qo'yish, tarjimonlik, referentlik, taftish, tavsiyanomalar ishlab chiqish, buxgalteriya hisoblarini olib borish, hisobotlarni tayyorlashda, bank faoliyatida, xodimlarni boshqarish sohasida keng qo'llanilmoqda.

Yetakchi *mutaxassislar* fikricha, keyingi izlanishlarda ET quyidagicha qo'llanilishi mumkin:

- ET loyihalashtirish, qayta ishlash, ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish, qo'llab - quvvatlash va xizmat ko'rsatishning barcha sohalarida asosiy o'rinni egallaydi;

- savdo sohasidagi ET texnologiyalari o'zaro ta'sir etuvchi tayyor intellektual modullar sohalari integratsiyasida revolyutsion kuchayishni ta'minlaydi.

ET faqat murakkab amaliy masalalarni yechishda qo'llaniladi. Yechimning sifati va samaradorligi borasida ET yechimlari inson - ekspert yechimlaridan qolishmaydi. ET yechimi «shaffofligi» bilan ajralib turadi, ya'ni foydalanuvchiga yechim sifatli darajada tushuntiriladi. ETning bu xususiyati o'z bilimlari asosida biror xulosaga kelish qobiliyatining mavjudligi bilan xarakterlanadi. ET o'z bilimlarini ekspert bilan munosabatlari vaqtida to'ldirib boradi.


Ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtida ET texnologiyasi moliya, neft va gaz sanoati, energetika, transport, farmatsevtika, ishlab chiqarish, kosmos, metallurgiya, tog'-kon ishlari, kimyo, ta'lim, sellyuza-qog'oz sanoati, telekommunikatsiya va aloqa hamda boshqa turli muammoli sohalarning turli xil tipdag'i masalalarini (izohlash, oldindan aytish-bashorat qilish tashxis, loyihalashtirish, konstruktsiyalash, boshqarish,

tushuntirish) yechishda ishlataladi.

## 2-§. Bilimlarni taqdim etish: tamoyil va usullari

### 2.1. Bilimlarni taqdim etishning tarmoqli modellari

«Semantik tarmoq» (ST) termini 1968-69 yillarda R.Kullian ishlarida paydo bo’lgan [41].



*Semantika* – bu biror ma’noni anglatuvchi simvollar va obyektlar o’rtasida munosabatlarni o’rnatuvchi fan hisoblanadi.


*Semantik tarmoq* - bu yo’naltirilgan graf bo’lib, uning tugunlari - tushunchalarga, yoylari esa -tugunlar orasidagi munosabatlarga mos keladi.

*Tarmoqli modellar strukturasi*. Bu turdagি model asosida ST deb nomlangan konstruktsiya yotadi. TMlarni formal ko’rinishda quyidagicha berish mumkin:

$$H = \langle I, C_1, C_2, \dots, C_n, G \rangle.$$

Bu erda  $I$  axborot birliklar to’plami;  $C_1, C_2, \dots, C_n$  - axborot birliklar orasidagi bog’lanish turlari to’plami.  $G$  berilgan bog’lanish turlari to’plamidan  $I$  ga kiradigan axborot birliklar orasidagi bog’lanishlarni beradi.

*Tarmoqli model(TM)larning sinflari*. TMlarni sinflashning umumiy sxemasi 4.1-rasmda keltirilgan.



4.1-rasm.TMlarning sinflari.

Tarmoqda tugunlarga qo’yilgan chegaralar va ular orasidagi aloqalarga qarab tarmoqlar quyidagi turlarga bo’linadi (4.1-rasm) [41]:

- oddiy tarmoqlar - tugunlari ichki strukturaga ega bo’lmaydi;
- ierarxikli tarmoqlar- tugunlari tarmoqli strukturaga ega bo’ladi;

- birjinsli tarmoqlar - tugunlar orasidagi munosabatlar bir xil bo'jadi;
  - birjinslimas tarmoqlar- tugunlar orasidagi munosabatlar turli xil bo'jadi.
- Munosabatlar turiga qarab tarmoqlar quyidagilarga bo'linadi:*
- binarli (ikkili) (faqat ikkita obyekt o'rtasudagi munosabatlar qaraladi).
  - N - arli (N - joyli) (ikkitadan ortiq obyektlar o'rtasidagi maxsus munosabatlar qaraladi).

*PrSdagi obyektlar, jarayonlar o'rtasidagi munosabatlarga qarab tarmoqlar quyidagi turlarga bo'linadi (4.1-rasm):*

- *sinflochchi tarmoqlar* - bunda strukturalashtirish munosabatlaridan foydalanadi (tarmoqlar BBda axborot birliklar o'rtasida turli ierarxik munosabatlarni kiritish imkoniyatini yaratadi);

- *funktionalli tarmoqlar* - fuksional munosabatlarning qatnashishi bilan tafsiflanadi. Ularni ba'zida hisoblash modellari ham deb atashadi, chunki ular bir axborot birliklarni boshqasi bilan ifodalashga imkon beradi;

- *semantikli tarmoqlar*- obyektlar, tushunvhalar o'rtasida turli turdagи munosabatlardan foydalanish imkonini beradi;


- *freymli tarmoqlar*- bu barcha xususiyatlarga ega bo'lgan pretmer sohadagi obyektlarni (holatlarni) tafsiflash uchun qo'llaniladigan STlarning qismidan iborat;

- *senariylar (senariyli tarmoqlar)*-bunda kauzalli (sabab-oqibat) munosabatlar hamda «vosita-natija», «asbob(aslaha, quroq)-harakat» va boshqa munosabatlardan foydalaniladi.

**Semantik tarmoqlar va tavsifi.** Agar TMda turli xil bog'lanishlarga ruxsat etilsa, u holda ularni odatda *semantik tarmoqlar* deb atashadi.

*Semantik tarmoq* - bu graf bo'lib, uning tugunlari obyektlarga yoki tushunchalarga, tugunlarni bog'lovchi yoiylari esa-tugunlar o'rtasidagi munosabatlarga mos keladi.

Umumiy holda STlar strukturasini formal ko'rinishda quyidagicha taqdim etish mumkin  $S = \{O, R\}$ , bu yerda  $O = \{O_i, i = \overline{1, n}\}$ - obyektlar to'plami;  $R = \{R_j, j = \overline{1, k}\}$ - obyektlar o'rtasidagi munosabatlar to'plami (4.2-rasm.).



4.2-rasm.Semantik tarmoqga misol.

**Semantik tarmoqlarda munosabatlarning turlari.** STlarda eng ko'p tarqalgan munosabatlar turi ierarxikli tur hisoblanib, ular elementlar, to'plamlar va obyektlar orasidagi munosabatlarni tavsiflaydi. Ularga quyidagilar kiradi:

1) *Sinflash munosabati ISA* (inglizchada “is a”). Ba'zan bu munosabat

“member of” deb nomланади. Member of” о'zbek tilida «бу» (birlikda) yoki «мазмун» (ко'плиқда) kabilarni bildiradi, masalan, “Axmad - бу одам”.

2) *To'plam va to'plamostilari o'rtaSIDagi munosabat AKO* (“a kind of”), masalan, «Magistrlar talabalar to'plamosti». AKO munosabatining ISA munosabatlaridan farqli tomoni shundaki, sinflashda-«bitta ko'pga» munosabatidan, to'plamostida esa - «ко'п ко'pga» munosabatidan foydalанилади.

3) *Butun va qism munosabati*. Meronimiya munosabati - “butun-qism” munosabati (“has part”). Meronim - bu biror obyekt boshqa obyektning qismi hisobланади. Xolonomiya munosabati - “qism-butun” munosabati (“is a part”).

*Misol.* Qo'l -tana uchun xolonim (“qism-butun” munosabati). Tana -qo'l uchun mironim (“butun-qism”).

Shunday qilib, ierarxik turli munosabatlarni qo'llashdan qanday obyektlar


sinflar va qanday obyektlar sinflarning ekzempliyarlari ekanligi kelib chiqadi.

STlarda ierarxik munosabatlardan tashqari ko'p hollarda quyidagi munosabatlarning turlaridan foydalанилади (ikkinchи qavsdan tugunlar turi ko'rsatilgan):

1) funksional munosabatlar («kelib chiqadi», «ta'sir etadi», ...) (obyekt - obyekt);

- 2) sonli munosabatlar («katta», «kichchik», «teng», ...) (obyekt - obyekt yoki obyekt -xususiyat);
- 3) fazoli munosabatlar («dan uzoq», «ga yaqin», «orqasida», «ustida», «tagida», «yuqorida», ...) (obyekt - obyekt);
- 4) vaqtli munosabatlar («oldin», «keyin», «bilan birvaqtida», ...) (obyekt - obyekt);
- 5) atributli munosabatlar («xususiyatga ega», «qiymatga ega»,...) (obyekt -xususiyat yoki xususiyat -qiymat);
- 6) Mantiqiy munosabatlar («va», «yoki», «emas») (obyekt - obyekt yoki xususiyat - xususiyat);
- 7) lingvistik munosabatlar.

*Misol.* 4.3-rasmda «Avtomobil» uchun ST grafi keltirilgan bo'lib, ushbu grafda tugunlar sifatida «inson», «Axmedov», «Neksiya», «avtomobil», «transport turi» va «dvigatel» tushunchalari qatnashayapti.



4.3-rasm. «Avtomobil» semantik tarmog'iga misol.

*TMlarning yutuq va kamchiliklari.* Bilimlarni taqdim etishni TMlarning yutuqlari - bu ularda tushuncha(obyekt)larning bir-biriga bo'g'lanishlari va ichma-ich joylashishlarini belgilovchi munosabatlarning berilish mexanizmlarining mavjudligi va yuqori darajada strukturalashganligi bo'lib, ular bazaviy tushunchalar va munosabatlar asosida ixtiyoriy tushunchalarni (shu jumladan makroholatlarni) samarali tavsiflashni ta'minlaydi. *Asosiy kamchiligi esa -mantiqiy modellarga nisbatan mantiqy hulosalash protseduralarining murakkabligi.*

## 2.2. Bilimlarni taqdim etishning mahsuliy modellari

**Mahsuliy model tuzilmasi.** Umumiyl holda mahsuliy qoida deganda yidagi ifoda tushuniladi [7] :

$$(i); Q; P; A \Rightarrow B; N.$$

Bu yerda *i*-mahsulot nomi bo'lib, bu nom yordamida mazkur mahsulot mahsulotlar to`plamidan ajratib olinadi. Nom sifatida mahsulotning mazmunini aks ettiruvchi qandaydir leksema (masalan, «kitoblar haridi» yoki «qulfning kodlari to`plami») yoki tizim xotirasida saqlanuvchi mahsulotlar to`plamidagi mahsulotning tartib raqami olinishi mumkin.

*Q* element mahsulotning qo'llanilish sohasini xarakterlaydi. Bunday sohalar inson kongnitiv strukturalaridan oson ajratiladi.

Mahsuliy qoidaning asosiy elementi uning yadrosi  $A \Rightarrow B$  hisoblanadi. Mahsuliy qoida yadrosini o`zgartirish  $\Rightarrow$  sekvensiya (implikatsiya) ishorasining chap va o`ng tomonida nima turganligiga bog`liq holda turli xil bo`lishi mumkin. Mahsuliy qoida yadrosini oddiy o`qish quyidagi ko`rinishda bo`ladi: IF A THEN B. Yadroring murakkabroq konstruktsiyalarida o`ng tomonda alternativ holatlarga ruxsat etiladi. Masalan, IF A THEN V<sub>1</sub> ELSE V<sub>2</sub>. Sekvensiya oddiy mantiqiy ma'noda A ning rostligidan V kelib chiqishiga o`xshash mantiqiy ishora sifatida izohlanishi mumkin. Mahsuliy qoida yadrosi boshqa ko`rinishda ham izohlanishi mumkin. Masalan, A, V harakatni amalga oshirish uchun kerak bo`ladigan biror bir shartni tavsiflashi mumkin.

P element mahsuliy qoida yadrosining qo'llanilish sharti hisoblanadi. Odatda P mantiqiy ifoda bo`ladi (qoidaga ko`ra predikat). R «rost» qiymat qabul qilganda mahsuliy qoida yadrosi faollahshadi. Agar R yolg`on bo`lsa mahsuliy qoida yadrosini ishlatib bo`lmaydi.

N element mahsuliy qoidaning keyingi shartini tavsiflaydi. Ular faqat mahsuliy qoida yadrosi amalga oshgandagina faollahshadi. N element mahsuliy qoidaning keyingi sharti V ni amalga oshirgandan keyin bajarish kerak bo`ladigan harakat va protseduralarni tavsiflaydi. Masalan, magazinda biror mahsulot xarid qilingandan keyin mahsulotlar ro`yxatidan shunday turdagи mahsulotning sonini bittaga kamaytirish amalga oshiriladi.

*Misol.* *i* - xarid qilish; *Q*-savdo markaziga borish; *P*- pulning borligi; *A*  $\rightarrow$  *B* - agar X byum sotib olmoqchi bo`lsang, u holda uning narxini kassaga to`la va chekni sotuvchiga ber; *N*- magazinda mavjud bo`lgan mahsulotlar ro`yxati bo`lib, ushbu mahsulot soni bittaga kamayadi.

*Misol.* Берилган:

1. Boshlang'ich qiymatlar: МБ: А, F;
2. Qoidalari: Qoida 1: А  $\wedge$  G  $\wedge$  C  $\rightarrow$  D; Qoida 2: C  $\wedge$  F  $\rightarrow$  G;

Qoida 3: A → C; Qoida 4: C → D; Qoida 5: G → D.

Aytaylik, maqsad Dning chinligini keltirib chiqarishdan iborat bo'lsin. Birinchi navbatda D ning MBsida bor yoki yo'qligi tekshiriladi. Qaralayotgan misolda D o'zgaruvchi MB da yo'q, shuning uchun sistema D ning chinligini hosil qilish uchun berilgan qoidalar orasidan o'ng tomonida D mavjud bo'lган qoidalardan foydalanadi. O'ng tomonida D mavjud bo'lган qoidalarga 1, 4, 5-qoidalar kiradi. Masalan, 5-qoidada D ning chinligi G ning chinligidan kelib chiqadi. Buning uchun G ning MB sida borligi tekshiriladi. G o'zgaruvchi MB sida yo'q. Demak qoidalar orasidan o'ng tomonida G mavjud bo'lган qoidalar tanlanadi. Bunday qoida 2: C  $\wedge$  F → G. Bu qoidada F o'zgaruvchi MB sida bor va C o'zgaruvchi yo'q. Shuning uchun qoidalar orasidan o'ng tomonida C mavjud bo'lган qoidalar tanlanadi. Bu qoida 3: A → C. Bu qoidada A o'zgaruvchi MB sida bor bo'lганligi uchun C o'zgaruvchi chin bo'ladi.

Demak Qoida 3: A → C; Qoida 2: C  $\wedge$  F → G; Qoida 5: G → D larning ketma-ket bajarilishidan D ning chinligi kelib chiqadi. Shunday qilib maqsadga erishildi.

**To'g'ri va teskari xulosalash.** MTlarda xulosalashning ikkita turi, ya'ni to'g'ri va teskari xulosalaslar mavjud [2]:

1) to'g'ri xulosalashda izlash mahsulotning chap tomonidan boshlanadi, ya'ni A shart tekshiriladi va A ning bajarilishidan bo'g'liq bo'lган mahsulotlar faollahshadi;

2) teskari xulosalashda izlash mahsulotning o'ng tomonidan boshlanadi, ya'ni


B shartning bajarilishi uchun zarur bo'lган A ning qiymatlari izlanadi;

**To'g'ri xulosalash.** To'g'ri xulosalash masalani yechish uchun tizimning ishchi xotirasida faktlar sifatida saqlanadigan boshlang'ich ma'lumotlarning berilishi bilan boshlanadi. Boshlang'ich ma'lumotlarga qo'llaniladigan qoidalar yangi faktlarni hosil qiladi va ularni ishchi xotiraga saqlaydi. Ushbu jarayon ishchi xotirada maqsadli funksiyani hosil qilguncha davom ettiriladi.

*Misol.* Qoidalar-mahsulotlar to'plami berilgan bo'lsin: 1)  $G \wedge H \rightarrow C$ ; 2)  $I \wedge K \rightarrow D$ ; 3)  $L \wedge M \rightarrow E$ ; 4)  $N \rightarrow F$ ; 5)  $O \rightarrow F$ ; 6)  $C \rightarrow A$ ; 7)  $D \rightarrow A$ ; 8)  $E \rightarrow B$ ; 9)  $F \rightarrow B$ ; 10)  $A \rightarrow goal$ ; 11)  $B \rightarrow goal$ .

Boshlang'ich qiymatlar:  $START = \{L; M; N\}$ .

Masalaning daraxtli yechim 4.4 - rasmida tasvirlangan.



4.4-rasm. Masalaning daraxtli yechimi.

Daraxtning tugunlari mulohazalarga, yoylari esa chiqish qoidalariga mos qo'yilgan. Chiqish jarayoni  $L, M, N$  boshlang'ich faktlar to'plamini ishchi xotiraga joylashtirish bilan boshlanadi va Goal maqsadli tugunni ishchi xotiraga joylashtirish bilan tugallanadi. Chiqish yo'naliishi daraxt yonida keltirilgan bo'lib, uning harakati boshlanish tugundan ( $L, M, N$  mulohazalar) maqsadli tugunga (Goal) mos keladi. Shuning uchun bunday xulosalash *ma'lumotlar bilan boshqariladigan xulosalash* deb ataladi. Ta'kidlaymizki, bunday xulosalashlar ekspert tizimlarda ko'proq qo'llaniladi.

**Teskari xulosalash.** MTlarda teskari xulosalash ishchi xotirada saqlanadigan maqsadli tasdiqlardan boshlanadi. Undan keyin maqsad bilan taqqoslanuvchi xulosani ta'minlovchi qoida-mahsulot izlanadi. Ushbu qoidaning shartlari ishchi xotiraga joylashtiriladi va u yangi maqsad ostiga aylanadi. Ushbu jarayon maqsadli tasdiqni hosil qiluvchi faktlarni ishchi xotirada hosil qilguncha davom ettiriladi. Teskari fikrlesh zanjiri 4.4 - rasmning o'ng tomonida kelririlgan.

**MTlarning yutuqlari va kamchiliklari.** MTlarning keng qo'llanilishining asosiy *yutuqlari* quyidagilardan iborat:

- 1) Mahsuliy qoidalalar inson tomonidan oson qabul qilinadi.
- 2) Alohiba mahsuliy qoidalalar boshqa qoidalarga bog'liq bo'limgan holda BBga qo'shilishi, olib tashlanilishi yoki o'zgartirilishi mumkin va bu hollarda barcha tizimlarni qaytadan dasturlash talab etilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, kata hajmli bilimlarni taqdim etish qiyinchilik tug'dirmaydi.

3) Mahsuliy qoidalalar yordamida deklarativ hamda protsedurali bilimlar ifodalanadi.

MTlarning *kamchiliklari* sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1) Insonga xos bilimlar strukturasidan farqliligi;

- 2)Qoidalarning o'zaro munosabatlarining tushunarsizligi;
  - 3)Bilimlar timsolining butunligini baholashning murakkabligi;
  - 4)Bilimlarni ishlash samaradorligining pastligi.
- Uncha katta bo'limgan (o'nlab qoidalalar) tizimlarni yaratishda mahsuliy qoidalalar o'zining yaxshi tomonini ko'rsatsa, bilimlar hajmining oshishi bilan mahsuliy qoidalarning kuchsiz tomonlari ham seziladi.

### **2.3. Bilimlarni taqdim etishning freymli modellari**

"Freym" so'zi ingliz tilidan olingen bo'lib, paycha, panjara, ichki skelet kabi mazmunlarda ishlataladi. Freymlar nazariyasining mohiyati quyidagicha. Inson yangi holatga tushib qolgan paytda, u o'zining xotirasidagi freymlar deb nomlanuvchi asosiy strukturasiga murojaat qiladi. Ya'ni bunday holatda to'g'ri yechimni qabul qilish uchun namunalarga murojat qilish kerakligini eslaydi.

**Freym va freymli model.** Sida freymlarning turli ta'riflari mavjud.

Quyida ularning bazi birlarini keltiramiz [7, 21, 31]:

*Freym* - bu Sida haqiqiy vaziyatlarning harakat sxemasini o'zida aks ettiruvchi bilimlarni taqdim etish ulubi.

*Freym* -bu slotlar(maydon)dan iborat ma'lumotlar strukturasi.

*Slot* (inglizcha - slot- (teshik, kovak, tirqish, yoriq) terminalli (ierarxiyaning beti) bo'lishi yoki freymning quyi bosqichini o'zida namoyon qilishi mumkin.

*Freymli model* haqiqiy olam obyektlarining ierarxiyasini yaxshi tizimlashtirishga imkoniyat yaratadi.

*Freymli modellar* strukturalashgan semantik tarmoqlar hisoblanadi. Bunday tarmoqlarda obyektlar va hodisalar freymlar ko'rinishida tavsiflanadi. Boshqa turdag'i modellardan farqli ravishda freymli modellarda axborot birliklarning qat'iy strukturasi qayd qilinadi. Bu yerda slotning qiymati (strukturasi) bo'lishi mumkin. Slotning qiymati sifatida freymni taqdim etishda ichkima - ichki tamoyilini amalga oshirishga imkon beradi, freymni aniqlashtirishda unga va slotlarga aniq nom beradi va slotlarni to'ldirish sodir bo'ladi.

*Freymli modellarning yutuqlari* ularning kompaktliligi, ko'rgazmaliligi, egiluvchanligi, modulliligi va axborot birliliklarni

yozishda birxilligi bilan xarakterlanadi. Freymli modellarning asosiy kamchiliklari ularda xulosalashni boshqarish mexanizmlarining etishmasligi hisoblanadi.

**Freymning tuzilmasi.** Rasmiy ravishda freym - bu ma'lumot turi [7]:

$$F = \langle N, S_1, S_2, S_3 \rangle.$$

Buda N - obyektning nomi;  $S_1$  - freymning deklarativ semantikasini aniqlovchi faktlardan iborat slotlar to'plami;  $S_2$  - boshqa freymlar bilan bog'lanishlarni (kauzal, semantik va h.k.) ta'minlovchi slotlar to'plami;  $S_3$  - freymning protsedurali semantikasini aniqlashda almshtirishlarni ta'minlovchi slotlar to'plami.

Freymlarni quyidagi konstruksiya bilan ham ifodalash mumkin:

$$F = \langle \langle r_1, b_1 \rangle, \langle r_2, b_2 \rangle, \dots, \langle r_n, b_n \rangle \rangle,$$

bu yerda,  $F$  - freym nomi,  $r_i$ -slot nomi,  $b_i$  - slotning qiymati.

*Misol.* 4.5-rasmدا tushunchalarni freymlar ko'rinishda taqdim etishga namunalar keltirilgan.

Mobil telefon
1. <i>Vazifasi</i> : nutqni uzatish va qabul qilish.
2. <i>Tarkibi</i> : radioblok, raqam tergich, koder, ...
3. <i>Maqsadi</i> : Nutqiy so'zlashish.
4. <i>Aloqa</i> : WAP, GPRS, 3G

4.5-rasm. Tushunchalarni freymlar ko'rinishda taqdim etish.


**Freymarning turlari.** Freym modeli yetarlicha universal hisoblanadi, chunki u dunyo haqidagi turli xildagi bilimlarning hammasini quyida keltirilgan freymli modellarning turlari orqali ko'rsatib berish imkonini beradi:

- *freymlar-strukturalar* - obyektlar va tushunchalarni (kiritma (zayem), garov, veksel) belgilash uchun foydalaniladi
- *freymlar - rollar* (menedjer, kassir, mijoz);
- freymlar - senariylar (inqiroz, yig'ilish, aktsionerlar, bayramlarni o'qazish, ovqatlanish);
- freymlar - vaziyatlar (trevoga, halokat, qurilmaning ishchi rejimi).
- freym-экземпляр - PrSning joriy holatini tavsiylovchi aniq freymdan foydalanish;
- freym - namuna - PrSning yetarli holatlarini yoki obyektlarni tavsiyflash uchun shablondan foydalanish;

- freym-sinf - namunalar freymlarining majmuasini taqdim etish uchun yuqori darajadigi freymlardan foydalanish;

**Freymlar o'rasidagi aloqalarning turlari.** Freymli modellarda freymlar o'rtasida «dan iborat», «qism-butun», fazoli («dan uzoq», «ga yaqin», «orqasida», «ustida», «tagida», «yuqorida», ...), vaqtli («oldin», «keyin», «bilan birvaqtda», ...), atributli («xususiyatga ega», «qiymatga ega», ...), «sabab-oqibat», AKO-alоqalar, IS-A-alоqalar kabi munosabatlardan foydalaniladi.

**AKO-alоqalar.** Obyekt yoki jarayon haqidagi ma'lumotlarni strukturlashgan holda bitta freymda ifodalash, fikriy jarayonlarini boshqa freymlar bilan slotlar yoki AKO (a kind of-bu) belgilari yordamida bog'lash orqali ifodalash mumkin (4.6-rasm). Bu yerda "O'quvchi" tushunchasi yuqori qismda joylashgan "Bola" va "Inson" freymlari ketma-ketligi xossasi sifatida kelayapti.




4.6-rasm. AKO-alоqali freymli tarmoqlar.

### 3-§. Ekspert tizimlarning tarkibi

Statik strukturali tipdagи ET masalaning yechilishi vaqtida atrof-olamdagи ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olmagan holda ishlataladi. Amaliyotda qo'llanilgan birinchi ETlar statik bo'lgan.

Tipik statik ET quyidagi asosiy komponentlardan iborat [7] (4.7-rasm):



4.7-rasm. Statik ETning strukturasi.

Ishchi xotira joriy vaqtdagi yechilayotgan masalada boshlang`ich va oraliq ma'lumotlarni saqlashga mo'ljallangan.

*Ishchi xotira (BB)* ETda qaralayotgan sohani tasvirlovchi uzoq muddatli ma'lumotlarni saqlash uchun mo'ljallangan.


*Yechuvchi* ishchi xotiradagi boshlang`ich ma'lumotlar va MBdag'i bilimlaridan foydalanib, shunday qoidalar ketma-ketligini shakllantiradi, ularni boshlang`ich ma'lumotlarda qo'llaganda masalaning yechimiga olib keladi.

*Bilimlarni hosil qilish (to `plash) komponenti* foydalanuvchi - ekspert tomonidan amalga oshiriluvchi bilimlar bilan ETni to`ldirish jarayonini avtomatlashtiradi.

*Tushuntirish komponenti* tizim qanday qilib yechimga ega bo`lganligi (yoki nima sababdan tizim yechimga ega emasligi)ni va ekspertga tizimni sinovdan o'tkazish va olingan natijaga foydalanuvchining ishonchini oshirishda yordam beradigan qanday bilimlardan foydalanganligini tushuntiradi.

*Muliqot komponenti* masalasini yechish mobaynida bilimlarni hosil qilish va ishning natijalarini tushuntirish jarayonida foydalanuvchi bilan do'stona muloqotni tashkillashtirishga mo'ljallangan.

4.8-rasmida ko`rsatilganidek, dinamik ET arxitekturasini statik ET arxiteturasi bilan taqqoslaganda, unga 2 ta komponent kiritilgan: tashqi dunyonи modellashtirish tizim osti va tashqi olam bilan bog`liq tizim osti. Oxirgisi tashqi olam bilan bog`liq holda datchiklar va tekshiruvchilar (kontroller) orqali amalga oshiriladi.



4.8-rasm. Dinamik ETning strukturası.

Ta’kidlaymizki, 4.7 va 4.8-rasmlarda ko’rsatilgan ETlar strukturalari faqatgina komponentlarni(funksiyalarni) aks ettiradi va ko’pgina narsalar «kadr ortida» qolib ketadi.

#### 4-§. Ekspert tizimni yaratishning bosqichlari


ET ni yaratish ishlari davomida quyidagi 6 pog’onani o’z ichiga oluvchi ishlab chiqarishning aniq texnologiyasi yuzaga keladi (4.9-rasm).

*Idenifikatsiyalash* bosqichida yechimini kutayotgan masalalar aniqlanadi, ETni ishlab chiqishning maqsadi, ekspertlar va foydalanuvchi tiplari aniqlanadi.

*Kontseptuallashtirish* bosqichida muammo sohasining tarkibiy tahlili o’tkaziladi, o’llaniluvchi tushunchalar va ularning o’zarlo aloqasi aniqlanadi, masalaning yechilish usuli belgilanadi.

*Formallashtirish* bosqichida texnik vositalar tanlanadi va barcha ko’rinishdagи bilimlarni tasvirlash usullari aniqlanadi, asosiy tushunchalar shakllantiriladi, bilimlarni izohlash usullari aniqlanadi, tizimning ishi modellashtiriladi, tizimning maqsadiga ko’ra tushunchalarning adekvatligi, yechish usullari, tasvirlash vositalari va bilimlarning manipulyatsiyasi baholanadi.

*Bajarish* bosqichida ekspert tomonidan BBni to'ldirish amalga oshiriladi.




4.9-rasm. ETni yaratish texnologiyasi.

### 5-§. Qoidalarga asoslangan ekspert tizimlar

Qoidalarga asoslangan ETlarida muammolarni hal qilish bo'yicha bilimlar "Agar...., u holda" qoidalari shaklida taqdim etiladi. Ushbu yondashuv, ETidagi PrS haqidagi bilimlarni taqdim etishning eng qadimgi usullaridan biri bo'lib, uning tuzilmasi 4.10-rasmda ko'rsatilgan. Eng tabiiy usul sifatida tijorat va eksperimental ETlarda keng ishlataladi.

**Maqsadga qaratilgan mahsuliylar tizimi (MT)** va masalalarini echish. Qoidalarga asoslangan ETning arxitekturasi muammolarni hal qilish uchun MT modeli nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin.

Agar 4.10-rasmida keltirilgan ET mahsulot sifatida qaralsa, u holda PrS haqidagi BB mahsulot qoidalari to'plami sifatida qaralishi mumkin. Qoidalarga asoslangan tizimda "shart-harakat" juftligi "Agar...., u holda" qoidalari bilan ifodalansa, u holda sabab shartga va oqibat xulosaga mos keladi. Agar shart qondirilsa, ET xulosanining



haqiqatini anglatuvchi harakatni amalga oshiradi. Bu xususiy holatlarni ishchi xotirada saqlash mumkin. Chiqish mexanizmi "tanib olish-harakat" MT siklini amalga oshiradi. Bunday holda boshqaruv ma'lumotlar asosida yoki maqsadga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Ko'pgina PrSlar to'g'ridan-to'g'ri qidiruvga mos keladi. ETda maqsadga asoslangan holda, maqsadli ifoda ish xotirasiga joylashtiriladi. Tizim qoidalar xulosalarini maqsadli ifoda bilan taqqoslaydi va ularning old shartlarini ishchi xotirasiga qo'yadi. Bu muammo oddiy qism maqsadlarga ajratish bilan mos keladi. Mahsulliy tizimning keyingi iteratsiyasida jarayon davom etadi va bu shartlar xulosala qoidalari bilan taqqoslanadigan yangi maqsadlarga aylanadi. Tizim ishchi xotirasidagi barcha qism maqsadlar gipotezasi chin bo'lguncha ishlaydi. Shunday qilib, ETda teskari qidiruv inson muammolarini hal qilishda gipotezani sinash jarayoniga yaqin keladi.

**Xulosalashni tushuntirish.** Xulosalashni tushuntirishni shakllantirish prinsiplarini mahsuliy tipdag'i ekspert tizimlarda qaraymiz. ITlarda xulosalashni tushuntirishni shakllantirish quyidagi sabablarga ko'ra muhim hisoblanadi:

- birinchidan, agar oxirgi foydalanuvchi fikrlashlarning aniq bajarilganligiga ishonmasa, u holda tizimning ko'rsatmalariga ishonch hosil qilmaydi;

- ikkinchidan, BM barcha tizimlarning ishlashi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak;

- uchinchidan, PrS ekspertlari ekspert bilimlarining to'g'ri qo'llanilayotganligiga ishonch hosil qilish uchun tizimlarning fikrlash jarayonini tekshirishga muxtoj bo'lsa.

Xulosalarni tushuntirishni o'rghanish uchun tizim foydalanuvchilarini ikki tipdag'i savollarni berishi kerak:

- 1) Nima uchun tizim foydalanuvchiga ushbu savolni berish kerak deb hisoblaydi?

- 2) Tizim qanday qilib ushbu xulosaga keldi?

Ushbu savollarga javoblarni shakllantirish mexanizmini teskari xulosalash misolida tushuntiramiz.

*Misol.* Foydalanuvchiga so'rovlar bilan maqsadga asoslangan muammolarni hal qilishning misoli sifatida, biz avtomobilning kichik diagnostika tizimini ko'rib chiqamiz (4.11-rasm). Bu to'liq diagnostika tizimi emas, chunki unda faqat to'rtta oddiy qoida qaraladi. Bu qoidalar

zanjirlarini shakllantirish, yangi ma'lumotlarni integratsiya qilish va tushuntirish imkoniyatlaridan foydalanishni ko'rsatadigan misoldir.

Aytaylik, avtomobilni tashxislovchi qoidalar berilgan bo'lsin:

*Qoida 1:*

Agar yoqilg'i kelsa = «ha» va dvigatel holati = «notekis ishlasa»,

u holda sabab = «svechada».

*Qoida 2:*

Agar dvigatel holati = «yurmasa» va yoritish holati = «ishlamasa»,

u holda sabab = «akkumulyatorda» yoki «ulagichlarda».

*Qoida 3:*

Agar dvigatel holati = «yurmasa» va yoritish holati = «ishlsa», u holda sabab = «starterda».

*Qoida 4:*

Agar bakda yoqilg'i mavjud = «ha» va karbyuratorda yoqilg'i mavjud = «ha», u holda yoqi'lg'i keladi = «ha».

Xulosalash jarayoni ishchi xotiraga maqsadni kiritish bilan boshlanadi:

sabab = X,

bu yerda X-birinchi o'zgaruvchi bo'lib, u ixtiyoriy qator bilan taqkoalanishi mumkin.

Xulosalash jarayonida

hosil qilingan X o'zgaruvchining qiymati dvigatel nosozligining

sababini ko'rsatadi.


Aytaylik, agar qoidalar

yozilish tartibida faollashsa, u holda 1-qadamning xulosasi bilan taqqoslash

natijasida 1-qadamda X o'zgaruvchi «svechada» qiymatini oladi. Keyin

tizim 1-qoidaga asosan yoqilg'ining kelishi va dvigatelning qanday ishlashini aniqlashga harakat qiladi (4.11-rasm).

Birinchi masalaostini yechish uchun 4-qoida faollashadi. Bu holda ishchi hotirada «bakda yoqilg'i mavjud» va «karbyuratorda yoqilg'i mavjud» kabi faktlar va ularning qiymatini tizim yordamida o'rnatuvchi qoidalar mavjud bo'lmasa, u holda foydalanuvchiga keltirilgan faktlar



bo'yicha savollar beriladi. Bundan tashqari 4-qoidaning bajarilishidan keyin dvigatelning holati bo'yicha ham foydalanuvchiga savollar beriladi (4.12-rasm).

Odatda tizimga faktlarning yetarli qiymati ma'lum bo'ladi. U holda foydalanuvchiga yetarli javoblarning bittasini tanlash taklif etiladi. Qaralayotgan holatda foydalanubchining tizim bilan quyidagicha muloqoti

bo'lishi mumkin:

Bakda yoqilg'inining mavjudligi (ha/yo'q)?

ha

Karbyuratorda yoqilg'inining mavjudligi (ha/yo'q)?


ha

Dvigatelning holati (notekis ishlayapti, yurmayapti)?

notekis ishlayapti

Bundan keyin

tizim dvigatel  
nosozligining sababi  
haqida ma'lumot  
beradi: sabab =  
«svechada». Agar  
foydalanuvchi  
tizimning u yoki bu  
savolni nima uchun  
berayotganligini  
bilmoxchi bo'lsa, u  
holda javob sifatida  
«nimaga»so'zi  
kiritiladi. Masalan:



Dvigatel holati (notekis ishlayapti, yurmayapti)?  
nimaga

Natijada quyidagi javob olinadi:

1) yoqilg'i kelayapti = «ha», demak, agar

2) dvigatel holati = «notekis ishlayapti», u holda sabab = «svechada».

Bu holda tizim foydalanuvchiga berilgan savol bilan bo'g'liq joriy qoidani namoyish etadi.

Shunday qilib, qoidalarga asoslangan ET (Turbo-Prolog) taqqoslash vaqtida kirish ma'lumotlari orqali kelib chiqadigan ko'plab qoidalarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga ET tizimning turli

modullarini tanlaydigan va faollashtiradigan chiqish mexanizmida interpretatori o'z ichiga oladi. Ushbu interpretatorning ishi uch bosqichning ketma-ketligi bilan ta'riflanishi mumkin:

1. Interpretator namuna qoidalarini BBda ma'lumotlar elementlari bilan taqqoslaydi.

2. Agar bitta qoidadan ortiq qoidalar chaqirilsa, unda interpretator

qoidani tanlash uchun nizoni hal qilish mexanizmidan foydalanadi.

3. Interpretator savolga javob topish uchun tanlangan qoidani qo'llaydi. Ushbu uch bosqichli interpretatsiya jarayoni davriy bo'lib, u tanib olish - harakat sikli deb ataladi.

## **6-§. Modellar asosida, tajriba negizida mulohaza qilish va gibrildizimlar**

**Modellarga asoslangan mulohaza.** Modellarga asoslangan birinchi mulohazalash tizimlari 1970-yillarning o'rtasida paydo bo'ldi va 1980 - yillarda rivojlanishda davom etdi.

Modelga asoslangan mulohazalash, masalan, qurilma modeli tuzilganda va uning asosida xulosalar chiqarilganda asboblarning noto'g'ri ishlashini tashxislashda eng qulay hisoblanadi.

*Modellarga asoslangan sifatli mulohazalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:*

1. Qurilmaning har bir komponentining tavsifi, ularning xatti-harakatlarini modellashtirishga imkon beradi.

2. Qurilmaning ichki tuzilishi tavsifi. Odatda tarkibiy qismlarning taqdimoti va ularning o'zaro munosabatlarini modellashtirish qobiliyati bilan ularning o'zaro aloqasi mavjud. Ichki strukturaning talab qilinadigan bilim darajasi abstraktsiya darajasiga va kutilgan tashxisiga bog'liq.

3. Xususiy muammoni tashxislash. Bu qurilmaning haqiqiy xatti-harakatlarini kuzatishni talab qiladi, odatda uning kirish va chiqishlarini o'lchash amalga oshiriladi. Bunda kirish va chiqish o'lchovlarini olish eng oson hisoblanadi.

Masala kuzatilgan xatti-harakatlarni hisobga olgan holda noto'g'ri komponentlarni aniqlashdan iborat bo'ladi. Bu turli xil tarkibiy qismlar va ularning kombinatsiyasi uchun muayyan xato shakllarini tavsiflovchi qoshimcha qoidalarni talab qiladi. Mulohazalash tizimi tizimning

kuzatilgan xatti-harakatlarini tushuntirib beradigan eng katta xatoliklarni aniqlashi kerak.

*Modellardagi sabab-oqibat va tizimli ma'lumotlarni taqdim etish uchun turli ma'lumotlar tuzilmalaridan foydalanish mumkin. Qurilmaning sababi va funksionalligini aks ettirish uchun modellar asosida mulohazalash dasturida qoidalar ko'pincha qo'llaniladi. Qoidalar, shuningdek, komponentalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin. Obyektga yo'naltirilgan tizimlar qurilma tavsifi va model tarkibiy qismlarining ichki tuzilishini tavsiflash uchun qulay vosita hisoblanadi. Bunday holda, o'zgaruvchilar obyekt a'zolari hisoblanib, ular qurilma yoki komponentlarning holatini ifodalaydi, usullar esa qurilmaning funksiyasini aniqlaydi.*

Modelni ishlab chiqish va tavsiflash jarayonini aniqlashtirish uchun [45] ishdan olingan qurilmalar va zanjirlarni tahlil qilishning misolini ko'rib chiqamiz.


*Misol.* Qurilmaning xatti-harakati qurilma terminallaridagi qiymatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlaydigan ko'plab ifodalar bilan tavsiflanadi. 4.13-rasmda ko'rsatilgan summator uchun bu ifodalar quyidagi ko'rinishga ega.

Agar A va B nuqtalarida qiymatlar ma'lum bo'lsa, u holda C nuqtasida qiymat  $A+B$  (yalpi chiziq) deb hisoblanadi. Agar C va A ma'lum bo'lsa, unda B nuqtadagi qiymat  $C-A$  (katta shtrix chiziq) sifatida hisoblanadi. Agarda C va B qiymatlari ma'lum bo'lsa, u holda A nuqtada qiymat  $C-B$  (shtrix chiziq) ko'rinishda hisoblanadi.

**Modellarga asoslangan mulohazalashning afzalliklari va kamchiliklari.** *Modellarga asoslangan mulohazalashning afzalliklari quyidagicha.*

1. Masalani echishda PrSning funksional va tizimli bilimlaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi. Bu turli masalalarni echishda mulohazalash mexanizmining samaradorligini oshiradi, shu jumladan, tizimni ishlab chiqishda ko'zda tutilmagan masalalarni ham.

2. Modellarga asoslangan mulohazalash mexanizmlari odatda juda samarali hisoblanadi. Ular masalalarni echishning kuchli va moslashuvchan vositalari hisoblanadi, chunki ular odamlar kabi yangi



4.13-rasm. Summator munosabatining tavsifi.

muammolarga duch kelganda ko'pincha dastlabki ma'lumotlarga qaytadilar.

3. Ba'zi bilimlarni turli masalalarni echishda qo'llash mumkin. Modellarga asoslangan mulohazalash tizimlari ko'pincha nazariy ilmiy bilimlarga asoslangan bo'ladi. Ilm-fan odatda umumiylar nazariyalar bilan ishlayotganligi sababli bunday umumlashma ko'pincha modellarga asoslangan mulohazalash mexanizmining imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Odatda modellarga asoslangan mulohazalash tizimlari sabab tushuntirishlarni ta'minlaydi. Shunday qilib foydalanuvchilarga nosozlik sabablarini chuqurroq tushunishlari uchun muhim ta'lim rolini bajaradigan tushunchalarni beradi.

*Modellarga asoslangan mulohazalashning kamchiliklari quyidagicha.*

1. *PrSda eksperimental (tavsiylovchi) bilimlarning etishmasligi.* Qoidalarga asoslangan mulohazalashda ishlatiladigan evristik usullar ekspert baholarining muhim sinfini aks ettiradi.

2. *PrSning aniq modeliga ehtiyojning mavjudligi.* Ko'pgina sohalardagi bilimlar modellarga asoslangan mulohazalashda ishlatilishi mumkin bo'lgan qat'iy ilmiy asosga ega. Biroq, ko'plab sohalarda, masalan, ayrim tibbiy sohalarda, loyixalash yoki moliyaviy ilovalarning ko'plab masalalarida yaxshi aniqlangan ilmiy nazariya mavjud emas. Bunday hollarda modellarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish mumkin emas.

3. *Yuqori murakkablik.* Modellarga asoslangan mulohazalash odatda batafsil darajada amalga oshiriladi, bu esa sezilarli asoratlarga olib keladi. Shuning uchun mutaxassislar birinchi navbatda evristikani rivojlantiradilar.

4. *Favqulodda vaziyatlar.* Ko'pgina elektron komponentlarning nosoz ishlashi yoki o'zaro ta'sir qilish kabi g'ayritabiiy holatlар tizimning funksionalligini o'zgartirishi va bu taxmin qilish qiyin bo'lgan holatlarga olib kelishi mumkin.

**Tajribaga asoslangan mulohazalash.** Bunday mulohazalashda yangi muammolarni hal qilish uchun tajribaga asoslangan holda muammolarni hal qilish uchun ma'lum echimlarni o'z ichiga olgan batafsil MBdan foydalaniлади.

*Tajribaga asoslangan mulohazalash mexanizmi quyidagicha ishlaydi:*

1. Xotirada tegishli vaziyatlarni topadi. Agar yechim yangi vaziyatda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin bo'lsa, u holda vaziyat to'g'ri deb hisoblanadi. Odamlar va mulohazalashning sun'iy mexanizmlari umumiy belgilarga asoslangan o'xshashlikni aniqlaydi: masalan, agar ikki bemorda simptomlar va kasallik tarixi bilan bog'liq bir qator umumiy belgililar mavjud bo'lsa, unda ular bir xil kasallikkilarga ega va ular bir xil davolanish kursiga mos keladi. Samarali qidirish uchun xotira shunga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Odatda vaziyatlar o'zlarining muhim belgilari bilan indekslanadi, bu esa shunga o'xshash holatlar uchun samarali qidiruvni ta'minlaydi. Muhim xususiyatlarni aniqlash vaziyatga bog'liq bo'ladi.

2. Topilgan vaziyatni hozirgi holatga moslashtiradi. Odatda, bu holat dastlabki holatni maqsadga aylantiradigan operatsiyalar ketma-ketligidan iborat. Mulohazalash mexanizmi mavjud muammoning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda saqlangan echimdag'i ba'zi operatsiyalarni o'zgartirishi kerak bo'ladi.

3. O'zgartirilgan echimni qo'llaydi. Muayyan vaziyatni o'zgartirish, albatta, muammoning qoniqarli echimini kafolatlamaydi. Birinchi qadamlarni bajarish uchun yana bir iteratsiya talab qilinishi mumkin.

4. Keyinchalik foydalanish uchun muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz echimni saqlaydi. Yangi ishni saqlab qolish indeks tuzilishiga moslashishni talab qiladi.

**GTlar asosida mulohazalash.** *Gibrild ekspert tizimlari (GET)* standart dastur paketlarini (masalan, matematik statistika, chiziqli dasturlash yoki MBni boshqarish tizimlari) va bilimlarni manipulyatsiya qilish vositalarini birlashtiradigan dasturiy kompleksni ifodalaydi.

GET - bu noformal masalalarni echish usuli bo'lib, unda masalani ierarxik qismmasalalar daraxti shaklida tasavvur qilish va ularning har biri uchun o'z echimini ko'rsatishi mumkin. GETni ishlashining asosini bilimlarni taqdim etishning gibrild modeli tashkil etadi. GET masalani ierarxiyani tashkil etuvchi qismmasalalar to'plami deb hisoblaydi.

Gibrild modelda o'tish jarayonida axborot siqiladi va oxir - oqibat yagona ko'rsatkichga, ya'ni keng qamrovli baholashga aylanadi. Biroq, oraliq natijalarning barcha qiymatlari e'tiborga olinadi. Bunday yig'ish sxemasi ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarga xosdir.

*Baholash masalalarini echishda gibrild model muayyan afzallikkilarni beradi:*

1. Turli qismmasalalar uchun turli xil echim usullarini qo'llash mumkin.
2. Agar bitta qismmasalani echish mexanizmida o'zgarish bo'lгanda, qolgan masalalarni to'grilash zarurati mavjud emas.
3. Turli xil echish usullarini bitta qismmasлага qo'llash va echim natijalarini taqqoslash mumkin.
4. Gibrid model asosida ma'lumotlarni yig'ish uning yo'qolishiga olib kelmaydi, balki boshlang'ich asosiy ko'satkichlardan boshlab barcha ma'lumotlar tiklanishi mumkin.

Shunday qilib, GETlar turli usullarni birlashtirib, noformal masalalarni echishda avval tavsiflangan yechim usullariga qaraganda ancha yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.

GET doirasida baholash masalalarini echish jarayoni GETni PrSga moslashtirish, masalalar ierarxiyasini qurish, har bir masala uchun echimlar usulini tanlash, har bir solishtiriladigan masala uchun foydalilaniladigan barcha usullar uchun bilim bazalarini shakllantirish, baholashni hisoblash va olingan baholarni talqin qilish va tushuntirish kabi masalalarni izchil hal etishga imkoniyat yaratadi.

QQQda *GETni umumiy xususiyatlari* quyidagilardan iborat:

1. GETlar bilimlarni yig'ish, toplash, sotib olish va qayta ishlash tizimlari, ya'ni predmet yoki muammoli soha bo'yicha sifatli axborot hisoblanadi.
2. GET tashkiliy va boshqaruv faoliyatining noformal masalalarining semantic echimlarini yaratish (olib tashlash) imkonini beradi.
3. Mazmunli boshqaruv qarori - bu qaror qabul qiluvchi shaxs(QQQSh)ning cheklangan tabiiy tilining ferbal shakldagi tasvirlanishi yoki grafik tasvir sifatida ifodalanishi mumkin bo'lган boshqaruv harakatlarining mohiyatini belgilaydi.

**GET arxitekturasi.** *GET arxitekturasi* - bu QQQSh va ETning intellektual muloqot jarayonida noformal masalalar qarorlarini topish uchun bilimlarni toplash va qayta ishlashni ta'minlaydigan ET dasturiy-apparat vositalalarining funksional-axborot tuzilmasi.

GET arxitekturasining eng muhim elementi (boshqaruv axborot tizimidan farqli) intellektual ta'minotning mavjudligi hisoblanadi.

GET 1) PrS haqidagi BB; 2) Lingvistik protsessor (cheklangan tabiiy tilni modellashtiradi); 3) Muloqot interfeysi (inson va kompyuter muloqotini ta'minlaydi); 4) Xulosalash mashinasi kabi tarkibiy qismlardan iborat.


Umumiy holda GETning qisqartirilgan sxemasini 4.14-rasm ko'rinishda tasvirlash mumkin.

*GETning muhim sohasi* - bu turli mulohazalash modellarining kombinatsiyasi hisoblanadi. Bir nechta paradigmalarni birlashtiradigan gibrid arxitekturada bir yondashuvning samaradorligi boshqasining zaif tomonlarini qoplashi mumkin. Turli yondashuvlarni birlashtirib, ularning har biriga xos bo'lgan kamchiliklarni chetlab o'tish mumkin. *Misol uchun, qoidalar va tajribaga asoslangan mulohazalashning kombinatsiyasi quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:*

1. Qoidalar asosida mulohaza yuritishdan oldin ma'lum vaziyatlarni ko'rib chiqish qidiruv xarajatlarini kamaytirishi mumkin.
2. Misollar va istisnolar vaziyatlarning MBda saqlanishi mumkin.
3. Qidiruv natijalari kelajakda foydalanish uchun saqlanishi mumkin.

Shu bilan birga mulohazalash mexanizmi qayta qidirish uchun xarajatlarni ishlatmaslikning oldini oladi.

Gibrid usullar tadqiqotchilar va dastur ishlab chiquvchilarining e'tiboriga loyiqidir. Biroq, bunday tizimlarni qurish bir qator muammolarni hal qilishni talab qiladi. Ushbu holat uchun mulohazalash usulini, mulohazalash usulini o'zgartirish vaqtini aniqlash, mulohazalash usullari o'rtaсидаги farqlarni aniqlash, bilimlarni almashishni ta'minlaydigan g'oyalarni ishlab chiqish kerak.



4.14-rasm. GETning qisqartirilgan sxemasi.


### 7-§. Adaptiv rejalashtirish

**Rejalashtirish.** *An'anaviy rejalashtirish bilimga asoslangan, chunki reja tuzish QQQ jarayonida bilim va qisman rejalarining qismlarini tashkil etishni talab qiladi. Rejalashtirish ETlarda vaqt bo'yicha sodir etilgan hodisalar haqida fikr yuritishda qo'llaniladi. Rejalashtirish ishlab chiqarish va boshqaruvda ilovalarni topadi. Tabiiy tilni tushunish masalalarida ham muhimdir, chunki odamlar ko'pincha rejalar, maqsadlar va niyatlarni muhokama qilishadi.*

*Misol uchun reja nuqtalari sifatida robotning harakatlarini keltirish mumkin (4.15-rasm). Misolda "b xonadan a blokni olib kelish" rejasining nuqtasini amalga oshirish uchun quyidagi harakatlar ketma-ketligi talab qilinadi:*

- 1) Qo'lda bo'lgan hamma narsani erga qo'yish; 2) B xonaga borish.  
 3) A blokga boorish; 4) A blokni olish; 5) B xonadan chiqish; 6) Asl joyga qaytib borish.

*Rejalar muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan ketma-ketlik topilgunga qadar mumkin bo'lgan harakatlar fazosida qidiruv yordamida yaratiladi. Bu fazo har bir harakatni amalga oshirishda o'zgarib turadigan muhit holatlarini ifodalaydi. Qidiruv maqsad funksiyaga erishguncha davom ettililadi.*



4.15-rasm. Bloklar muhiti.

*Rejalashtirish qidiruv usullariga bog'liq va bir qator noyob savollarni keltirib chiqaradi. Rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati murakkab sharoitlar va harakatlarni tavsiflash zaruriyati hisoblanadi. Obyektni qo'lga olish - uning joylashuvi va robot qo'lining holatini o'zgartirishni anglatadi (endi u obyektni siqadi). Shu bilan birga, eshiklar, xonalar yoki boshqa narsalarning joylashuvi o'zgarmaydi. Muhitning bir holatida haqiqiy bo'lgan va ma'lum bir harakatni amalga oshirayotganda o'zgarib turadigan narsalarning ta'rifи chegara muammosi deb ataladi.*

4.15 - rasmida stolning yuqori yuzasiga o'matilgan beshta *a*, *b*, *c*, *d*, *e* bloklar ko'rsatilgan. Barcha bloklar bir xil o'lchamdagи *kublar* hisoblanadi. Ba'zi bloklar to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga joylashtiriladi. Robotning qo'lida har qanday erkin blokni (uning yuqori qismida blok yo'q) ushlab turadigan va uni stol yuzasida yoki boshqa erkin blokning yuqori qismida biron-bir joyga ko'chiradigan tutqich mavjud. Robotning qo'li quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin (*L*, *V*, *W*, *X*, *Y* va *Z* o'zgaruvchilar):

- *goto (X,Y,Z)* - *X*, *Y* va *Z* koordinatalari bilan tavsiflangan joyga o'tishni ta'minlaydi. Ushbu manzil *pickup(W)* buyrug'ida bevosita o'rnatilishi mumkin, bunda *W* - *X*, *Y*, *Z* koordinatalarga ega.

- *pickup (W)* - blok *W*ni joriy joyidan olishni va uni ushlab turishni bajaradi. Blok erkin deb taxmin qilinadi, bu vaqtida robotning qo'li bo'sh bo'ladi va kompyuter *L* blokining joriy joylashuvini biladi.

- *putdown (W)* - stol ustidagi qandaydir nuqtaga *L* blokni tushirish uchun q'ollaniladi. Ushbu harakatni bajarish davomida joriy momentda robot qo'lining ushlagichi bilan *W* bloki ushlab turiladi.

- *stack (U,V)* - *U* blokni *V* blokning yuqori qismiga qo'yishni ta'minlaydi.

- *unstack (U,V)* - U blokni V blokning yuqori qismidan olib tashlashni bajaradi. Ushbu buyruqni bajarishdan oldin U bloki erkin bo'lishi va V blokning yuqori qismida joylashgan bo'lishi hamda robot qo'li bo'sh bo'lishi kerak.

*Muhitning holati ko'plab predikatlar va ular o'rtaсидаги муносабатлар билан тавсифланади:*

- *location (WXYZ)* - W blok X, Y, Z koordinatalarga egaligini tavsivlaydi;

- *on (X,Y)* - X blok to'g'ridan-to'g'ri Y blokning yuqori tomonida joylashganligini tavsiflaydi.

- *clear (X)* - X blokining yuqori tomoni bo'shligini bildiradi;

- *gripping (X)* - robotni ushlab turgichi X blokni ushlab turishini anglatadi;

- *gripping ()* - robotni ushlab turgichi bo'sh ekanligini tavsiflaydi;

- *ontable (W)* - W blok stol ustida joylashganligini bildiradi; *ontable (W)* yozuvni *location(WXYZ)* predikatning qisqa shakli hisoblanadi, bunda Z - stolning pog'anasi.

Agar har bir blokning joylashuvi va ularning yangi joyga ko'chirilishi haqidagi ma'lumotlar kompyuterda yozilgan bo'lsa, unda muhitning tavsifini ancha soddalashtirilish mumkin. U holda 4.15-rasmida keltirilgan bloklar muhiti predikatlar to'plami bilan ifodalanishi mumkin.

- 1-holat: 1)  $(\forall X)(\underline{\text{clear}(x)} \leftarrow (\exists Y)(\text{on}(Y, X)))$ ;
- 2)  $(\forall Y)(\forall X)(\underline{\text{on}(Y, X)} \leftarrow (\underline{\text{ontable}(Y)})$ ;
- 3)  $(\forall Y)\underline{\text{gripping}()} \leftrightarrow \underline{\text{gripping}(Y)}$ ;

Endi *clear(b)*, *ontable(a)* va *grippingQ* uchun biz bir qator chin munosabatlarni (deklarativ ma'noda) yoki bajaruvchi qoidalarni (protsedurali ma'noda) tasvirlaymiz. Birinchi tasdiqga ko'ra, Agar X bloki erkin bo'lsa, unda X ning yuqori qismida joylashgan Y bloki mavjud bo'lmaydi. Protsedura shaklida buni quyidagicha talqin qilinish mumkin: "*X blokini bo'shatish uchun X ning yuqori qismida bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday Y blokini olib tashlash kerak*". Endi vaziyatlarga ta'sir qiluvchi va yangi sharoitlarga olib keladigan qoidalarni ishlab chiqamiz. Shu maqsadda predikatlarni mantiqiy tasvirlash uchun yana protsedurali semantikani kiritamiz. *Pickup*, *putdown*, *stack*, *unstack* operatorlari quyidagi tarzda aniqlanadi:

- 4)  $(\forall X)(piskup(X) \rightarrow (gripping(X)) \leftarrow (gripping() \wedge \wedge clear(X) \wedge ontable(X))))$ ;
- 5)  $(\forall X)(putdown(X) \rightarrow ((gripping() \wedge ontable(X) \wedge \wedge clear(X)) \leftarrow gripping(X)))$ ;
- 6)  $(\forall X)(\forall Y)(stack(X, Y) \rightarrow ((on(X, Y) \wedge gripping() \wedge \wedge clear(X) \leftarrow clear(Y) \wedge gripping(X))))$ ;
- 7)  $(\forall X)(\forall Y)(unstack(X, Y) \rightarrow ((clear(Y) \wedge gripping(X)) \leftarrow \leftarrow on(X, Y) \wedge clear(X) \wedge gripping()))$ ;

Bloklar muhitining yangi holatlarini yaratish uchun o'zaro munosabatlar qoidalarini qo'llashdan oldin chegaralar muammosiga murojaat qilish kerak. Muhitning yangi holatini tavsiflashda invariant predikatlarni aniqlaydigan chegaralar-qoidalar aksiomalaridan foydalaniadi. Masalan 4.30-rasmdagi B blokga *pickup* operatori qo'llanilsa, unda barcha bloklarga talluqli bo'lgan barcha operatorlar navbatdagi holatlarda chin bo'lib qoladi. Bloklar muhiti uchun bir nechta chegara qoidalarni tasvirlash mumkin:

- 8)  $(\forall X)(\forall Y)(\forall Z)(unstack(Y, Z) \rightarrow (ontable(X) \leftarrow ontable(X)))$ .
- 9)  $(\forall X)(\forall Y)(\forall Z)(stack(Y, Z) \rightarrow (ontable(X) \leftarrow ontable(X)))$ .

Ushbu qoidalarni *ontable* predikati *stack* va *unstack* operatorlariga nisbatan invariant ekanligini anglatadi. Bu X va Z o'xshash bo'lganda ham shin bo'ladi, agarda Y=Z bo'lsa, unda bu ifodalarning biri chin bo'lmaydi. Boshqa chegara aksiomalari *stack* va *unstack* operatorlari faqat T ning ba'zi parametrлари uchun *on* va *clear* predikatlarning qiymatlarini o'zgartirishiga olib keladi. Chegaralar operatorlari va aksiomalari HFni aniqlaydi.

*Unstack* operatori tomonidan aniqlangan holatni ko'rib chiqamiz. *Unstack(X, Y)* operatorini bajarish uchun bir vaqtning o'zida uchta shart bajarilishi kerak: *on(X, Y)*, *gripping(X)* va *clear(X)*. Ushbu shartlar bajarilganda, *unstack* operatorining qo'llanilishi *gripping(X)* va *clear(Y)* yangi predikatlarga olib keladi. 1- holatini tasvirlaydigan qolgan predikatlar 2-holatda ham chin bo'lib qoladi. 2- holatga o'tish *unstack* operatori yordamida va 1-holat predikatlarining chegaralar aksiomalari orqali amalga oshiriladi.

2-holat: 1) *ontable(a)*; *on(b, a)*; *clear(b)*; 2) *ontable(c)*; *clear(c)*; *clear(d)*; 3) *ontable(d)*; *gripping(e)*; *clear(e)*.

*Quyidagi xulosalarga kelamiz:*

1. Rejalahshtirishni HFda qidiruv sifatida qarash mumkin.
2. Yangi holatlar *stack* va *unstack* kabi umumiy operatorlar va chegara qoidalari bilan aniqlanadi.
3. Dastlabki holatdan maqsadga erishish yo'lini topish uchun graflardagi qidiruv usullarini qo'llash mumkin.

**Adaptiv rejalahshtirish.** *Adaptiv rejalahshtirish* - tizimning maqsadlari va uning imkoniyatlariiga mos keladigan dinamik o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida tizim obyektning maqbul xattiharakati senariyasini ishlab chiqishga imkon beruvchi boshqaruv qarorlarini tayyorlash va asoslash jarayoni hisoblanadi.

*Adaptiv rejalahshtirish g'oyasi* tizimning ishlash natijalariga qarab o'tgan davr rejasini tuzatishga asoslangan rejalarни shakllantirishga asoslanadi. *Rejalahshtirish* usullar va texnologiyalarga qarab markazlashtirilgan (direktiv), markazlashtirilmagan, normativ, indikativ, iterativ, intuitiv kabi turlarga bo'lindi.

*Iterativ (bosqichma-bosqich) rejalahshtirish* ish davom etayotgan jarayonlarga qaratilgan rejaning doimiy yangilanishi sifatida amalga oshiriladi va mijozning ustuvor yo'naliishlarini va rejalahshtiruvchilarni, tashkilotning boshqa vakillarini baholash orqali rejaning joriy versiyasiga kiritilishi kerak bo'lgan imkoniyatlar to'plamining ta'rifidir.

*Normativ rejalahshtirish (standartlarga asoslangan)* qidiruvdan farqli o'laroq (tadqiqot, savolga javob beradigan bo'lsa, nima bo'ladi... ), nima qilish kerakligi haqidagi savolga javob beradi. Bu dastur sohalarini aniq tasniflashni, indikatorlarni o'lchash usullarini, ularning chegara qiymatlarini aniqlashni talab qiladi va ko'pincha ijtimoiy sohada qo'llaniladi. Deyarli barcha islohotlar - uy-joy kommunal xo'jaligi, pensiya va harbiy-normativ rejalahshtirishni nazarda tutadi.

*Vaziyatli (adaptiv) rejalahshtirishda* reja tez o'zgaruvchan tashqi muhitga bozor signallarini qo'lga kiritish va ularga tezda javob berishga imkon beruvchi vositalar yordamida moslashish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

*Indikativ rejalahshtirish* parametr tizimini (indikatorlarni) shakllantirish jarayonini, xo'jalik yurituvchi sub'ektning yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizimning holatini va unga ta'sir o'tkazish choralarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

*Rejalahshtirish tamoyillariga* strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi, rejalahshtirish obyektlarini ularning ahamiyatiga ko'ra tartiblashganligi, rejalahshtirilgan ko'rsatkichlarning yetarliligi,

rejalashtirishning moslashuvchanligi, menejment tizimining tashqi muhit parametrlari bilan bog'liqligi, rejaning barqarorligi, imkoniyatlari, muvozanati (zahiraning eng muhim ko'rsatkichlari bo'yicha taqdim etilgan holda), iqtisodiy asoslanishi, rejalshtirish tizimini avtomatlashtirilganligi va fikr-mulohazalarni ta'minlanganligi kabi ketma-ketligi kiradi.

*Adaptiv rejalshtirish* hisoblash rejimida ishlaydigan maxsus modellar to'plami uchun rejalshtirilgan vazifalarni optimal tarzda amalga oshirishni hisoblashni ta'minlash uchun qo'shimcha ishlov berishdan foydalanishga imkon beruvchi rejalarни ishlab chiqishni nazarda tutadi.

## **8-§. Ekspert tizimlarga misollar**

Hozirgi vaqtida ETlar turli muammoli sohalarda turli masalalarni yechishda qo'llanilmoqda, jumladan, iqtisodiyotda, neft va gaz ishlab chiqarishda, energetika, transport, farmatsevtika, kosmos, kimyo, ta'lim, telekommunikatsiya hamda aloqa va boshqa sohalarda ETlarga ba'zi bir misollar keltiramiz [7, 31, 37]:

➢ *DENDRAL* - murakkab organik molekulalar strukturalarini taniydi;

➢ *MOLGEN* - DNK strukturasini aniqlaydi;

➢ *XCON* - VAX 11 hisoblash komplekslarini loyihalashtiradi;

➢ *MYCIN* - ichak kasalliklariga tashxis qo'yadi;

➢ *PUFF* - sil kasalligiga tashxis qo'yadi;

➢ *MACSYMA* - algebraik ifodalarni soddalashtiradi;

➢ *PROSPECTOR* - foydali qazilmalarni topishda maslahat beradi;

➢ *POMME* - mevali bog'larga qarashga maslahat beradi;

➢ *AIRPLANE* - samolyot yerga qo'nishida uchuvchiga yordam beradi;

➢ *ESPLAN* - Baku neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarishni rejalshtiradi;

➢ *MODIS* - gipertonik kasalliklarning turli shakllariga tashxis qo'yadi;

➢ *MIDAS* - energetik tizimlarda ishdan chiqish holatlarini aniqlaydi va tuzatadi;

➢ *I&W*- razvedkadagi analitiklarga keyingi qurolli to'qnashuv qachon va qayerda bo'lishini bashorat qilishda yordamlashadi;

➤ *ACES* - xaritada o`zgarish kiritish bo`yicha kartografik ishlarni amalga oshiradi; *ASTA* -bu analitikka tutuvchi signalni jo`natgan radar turini aniqlashga yordam beradi;

➤ *DART* - raqiblarning buyruq beruvchi markazlari, boshqaruvi va aloqalarining razvedka qilinganida olingan natijalarni qayta ishlashga yordamlashadi;

➤ *HANNIBAL* - bu raqibning radioalmashish razvedkasi sohasida vaziyatni baholashni amalga oshiradi;

➤ *RUBRIC* - foydalanuvchiga formatlanmagan matnlarni o`zida mujassamlashtirgan MBga kirish huquqini olishga yordam beradi;

➤ *YES/MVS* - katta EHM dagi katta razryadli MVS operatsion tizimlarni boshqaradi;


➤ *NetWizard* - lokal tizimlarni loyihalovchi ET;

➤ *CODES* - MBni ishlab chiquvchi mutaxassisiga MBning kontseptual sxemasini aniqlash uchun IDEF1 yondashuvni qo`llashni istayotgan mutaxassisiga yordamlashadi.


➤ *MIXER* - Texas Instruments SBIS TI990 uchun ishlab chiqilgan mikrodasturlarni yozishda dasturchilarga ko`maklashadi.

➤ *ACE* - telefon tarmog`idagi nosozliklarni aniqlaydi, uni sozlash va tiklash chora-tadbirlari bo`yicha tavsiyalar beradi.


Ishlab chiqarishda, harbiy sohada, informatikada, kompyuter tizimlarida, elektronikada keng va samarali qo`llanilayotgan ETlarga misollar 4.16-rasmda keltirilgan.




ACU VISTA Rs880t  
UTT (UZI) ET.




Artida –  
Kardiologik  
statsionar ET.




Sniffer Pro WAN – global  
tarmoq protokollarini tahlili  
giluvchi ET.



SUN SMP – 4000  
Dvigatelga tashxis  
qo'yuvchi ET.




Compacs®-micro –  
Qurilmalarni avtomatik  
vibrodiagnostika qiluvchi  
ET.



MC 400 (TP), Expert  
Set – Mikroskopiya  
ET.



Feniks 100 (Phoenix-100) –  
Mikroorganizmni antibiotikka  
ta'sirchanligini aniqlash va  
identifikatsiyalashni avtomatik  
tahlil qiluvchi ET.



EdiTracker – Nutq  
fonogrammasini  
aniqlovchi ET.

#### 4.16 - rasm. ETlarga misollar.

O'zbekistonda ham shunday ETlaridan ayrimlari ishlatalmoqda. O'zbekiston respublikasi qonunchiligining elektron axborot tizimini ishlab chiqaruvchi Norma kompaniyasi tomonidan bir qancha milliy ETlari yaratilgan va amalda qo'llanilmoqda (1-bob 5-§ da keltirilgan).

#### Nazorat savollari

1. ETlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. TMlar strukturasini formal ko'rinishda qanday berish mumkin?

3. Umumiy holda mahsuliy qoida qanday ifodalanadi?
4. To'g'ri va teskari xulosalashning mohiyati nimadan iborat?
5. Freym tuzilmasi qanday komponentlardan tashkil topgan?
6. ETning asosiy afzalliklari jumlasiga nimalarni kiritish mumkin?
7. ETni loyihalashda va ishlab chiqishda kimlar qatnashadi?
8. Statik va dinamik ET qanday asosiy komponentlardan iborat?
9. Qoidalarga asoslangan ETlarida bilimlar qanday qoidalari shaklida taqdim etiladi?
10. Modellarga asoslangan mulohazalashning mohiyati nimadan iborat?
11. Tajribaga asoslangan mulohazalashning mohiyati nimadan iborat?
12. Gibrild ekspert tizim (GET) nima va u qanday afzalliklarni beradi?
13. GET qanday tarkibiy qismlardan iborat?
14. Adaptiv rejalarshirish qanday jarayon?
15. Masalalarни echish uchun qanday ETlar ishlab chiqilgan?

### Nazorat testlari

1. Ekspert tizim nima?
  - a) Blimlarga asoslangan amaliy muloqot tizimi;
  - b) Amaliy matematik paket; c) Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi;
  - e) Faqat formulalarga asoslangan tizim.
2. Ekspertiza sohasidagi qoidalarni qo'llashning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun ishlatalidigan bilimlar-bu ..... hisoblanadi
  - a) metabolimlar; b) semantik bilimlar; c) predmetli bilimlar;
  - e) texnologik bilimlar.
3. Ekspert tizimlar tashqi muhitga bog'liqlik darajasiga qarab ..... ekspert tizimlarga bo'linadi.
  - a) statik va dinamik;
  - b) umumiy vazifani bajaruvchi va kontseptuallashtirilgan;
  - c) umumiy vazifani bajaruvchi va idenifikatsiyalashtirilgan;
  - e) formallashtirilgan va maxsuslashtirilgan.
4. Tarmoqli modellarni formal ko'rinishini ko'rsating?
  - a)  $H = \langle I, C_1, C_2, \dots, C_n, G \rangle$ ;      b)  $P_1 \wedge P_2 \wedge \dots \wedge P_n \rightarrow B$ ;      c)  $A_1 \wedge B_2 \wedge \dots \wedge C_n \rightarrow D$ ;
  - e)  $H = \langle I, C, \Gamma, D \rangle$ .
5. Umumiy holda mahsuliy qoidani to'liq ifodalovchi tizimni ko'rsating?

a) (i); Q; P; A  $\Rightarrow$  B; N; b) (i); A  $\Rightarrow$  B; N; c) A  $\Rightarrow$  B; N; e) (i); Q; P; N.

6. Teskari xulosalashda izlash mahsulotning ..... tomonidan boshlanadi,

ya'ni ..... bajarilishi uchun zarur bo'lgan ..... qiyatlari izlanadi;

a) o'ng; B shartning; A ning; b) o'ng; A ning; B shartning;

c) chap; B shartning; A ning; e) chap; A ning; B shartning.

7. Qoidalarga asoslangan ekspert tizimlarida muammolarni hal qilish bo'yicha bilimlar ..... qoidalari shaklida taqdim etiladi.

a) "Agar...., u holda"; b) "Faqat...., u holda";

c) "Faqat va faqat ...., u holda"; e) "U yoki bu ...., u holda".

8. ..... asoslangan mulohazalash mexanizmida xotirada tegishli vaziyatlarni topadi, topilgan vaziyatni hozirgi holatga moslashtiradi, o'zgartirilgan echimni qo'llaydi va reyinchalik foydalanish uchun muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz echimni saqlaydi.

a) Tajribaga; b) Modelga; c) Ekspertga; e) Usulga.

9. ..... ekspert tizimlar turli usullarni birlashtirib, noformal masalalarni echishda avval tavsiflangan yechim usullariga qaraganda ancha yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.

a) Gibrild; b) Avtonom; c) Dinamik; e) Statik.

10. ..... rejalashtirish - korxonaning maqsadlari va uning imkoniyatlari mos keladigan dinamik o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy obyektning maqbul xatti-harakati senariyasini ishlab chiqishga imkon beruvchi boshqaruv qarorlarini tayyorlash va asoslash jarayoni.

a) Adaptiv; b) Obyektiv; c) Subyektiv; e) Avtonom.

### Masala va topshiriqlar

1. Quyidagi masalalar uchun ekspert tizim ishlab chiqing.

1) Imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishda vaqt ajratishni tavsiya qiladigan.

2) Bakalavr ishi uchun mavzu tanlaydigan.

3) Bemorning sog'lig'ini aniqlash uchun.

4) Abituriyent uchun universitet va mutaxassislikni tanlash bo'yicha.

5) Shaxsning temperament turini belgilaydigan.

6) Kichik biznes sohasida moliyaviy qarorlarni qabul qilish uchun.

7) Universitetni tugatgandan so'ng ish joyini tanlash bo'yicha.

8) Avtomobil tanlovi bo'yicha.

- 9) Kompyuterda muammolarni bartaraf etish bo'yicha.
  - 10) Kir yuvish mashinasini tanlash bo'yicha.
  - 11) Shaxsiy kompyuter konfiguratsiyasini tavsiya etuvchi.
  - 12) Futbol o'yini natijasini bashorat qiladigan.
  - 13) Axborot xavfsizligi tizimini tanlash bo'yicha.
  - 14) Dasturiy ta'minot sifatini baholash bo'yicha.
  - 15) Geologik tosh turini aniqlash uchun.
  - 16) Mahalliy tarmoq serverini sozlashni tavsiya etuvchi.
  - 17) Web-saytlarni yaratishda vositalarni tanlash bo'yicha.
  - 18) Talabalarning mavzu bo'yicha bilimlarini baholash uchun.
  - 19) Darsslarni rejalashtirish uchun.
  - 20) Ichimlik suvi tarkibini tahlil qilish uchun.
2. Belgilangan dastur doirasi uchun oddiy ekspert tizimini ishlab chiqish. Ekspert tizimida kamida beshta ob'ekt haqida ma'lumot bo'lishi kerak.
- 1) Qushlar. 2) Bاليq. 3) Uy hayvonlari. 4) Sabzavotlar. 5) Meva.
  - 6) Kiyim. 7) Poyabzal. 8) Mebel. 9) Idishlar. 10) Musiqa asbobiari.
  - 11) Kino. 12) Tasviriy san'at turlari. 13) Teleko'rsatuvalar.
  - 14) Qishki sport turlari. 15) Yozgi sport turlari.
  - 16) Yer transporti turlari. 17) Havo transporti turlari.
  - 18) Suv transporti turlari.

## **5-BOB. MA'LUMOTLAR VA BILIMLAR NOANIQLIGINI TAQDIM ETISH**

### **1-§. Noaniqliklar manbalari va turlari**

*Noaniqlikning paydo bo'lishi iqtisodiy, siyosiy, tabiiy, vaqtinchalik va boshqa manbalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. U tashqi yoki ichki muhit, vaziyatlarning qarama-qarshiligi, manfaatlarning nomuvofiqligi va boshqalar tomonidan vujudga kelishi mumkin.*  
*Noaniqlikning asosiy sabablarini quyidagicha aniqlash mumkin:*

- axborotlarning etishmasligi va sifatsiz bo'lishi;
- iqtisodiy jarayonlarning nomutanosibligi elementining mavjudligi;
- qarshi harakatning mavjudligi (ongli yoki ongsiz).

*"Noaniqlik"* - turli sabablar va birinchi navbatda qarorni amalgam shartlari haqida noto'la va noaniq axborotlarning, shuningdek ular bilan bog'liq bo'lган xarajatlar va natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqmasligi yoki xatolikligi haqidagi tushunchadir.

*Noaniqlikning* bir nechta manbalar bor, lekin *birinchi navbatda - bu to'liqmaslik bo'lib*, u iqtisodiy sohada, bizni o'rabi turgan atrof-muhit haqidagi bilimlarimizning etishmasligidir. Bunday noaniqlik bilan inson mazmunli qarorlar qabul qilishni ancha vaqt oldin duch kelgan. Tabiat qonunlarini anglab etmaslik ko;p hollarda ishlab chiqarish faoliyatiga to'sqinlik qildi va iqtisodiyotni samarali boshqarishga imkon bermadi.

*Noaniqlikning yana bir manbai* - bu tasodif bo'lib, u o'xshash sharoitlarda tirli ro'y beradi va uni oldindan taxmin qilish mumkin emas. Har bir ishni har kuni rejalashtirish mumkin emas. Uskunaning ishdan chiqishi va mahsulotga bo'lган talabning to'satdan o'zgarishi, xom ashyni etkazib berishning kutilmaganda to'xtab qolishi-bularning barchasi tasodifdir.

*Noaniqlikning uchinchi sababi* - bu qarshi harakat hisoblanadi. Shunday qilib, qarshi harakat etkazib beruvchilarning shartnoma majburiyatlarini buzgan taqdirda, mahsulotga bo'lган talabning noaniqligi, uni sotishdagi qiyinchiliklar bilan o'zini namoyon qilishi mumkin.

Demak *noaniqlik* kelajakdagi hodisalarning ehtimolligi haqidagi axborotning yetarli emasligini anglatadi.

*Noaniqlik* - bu yechimni amalga oshirish shartlari, tasodif yoki qarshi harakat omilining mavjudligi haqidagi ma'lumotlarning to'liq emasligi yoki noishonchliligi hisoblanadi.

*Noaniqlikning paydo bo'lish sabablariga qarab* ularning turli xil ko'rinishlari mavjud. Jumladan, *noaniqlik quyidagi ko'rinishlarga ega*:

➤ sonli - vaziyatdagi obyektlar yoki elementlarning katta soni bilan belgilanadi;

➤ axborotli - texnik, ijtimoiy va boshqa sabablarga ko'ra axborotning etishmasligi yoki uning noaniqligini ifodalaydi;


➤ qiymatli - aniqlilk uchun juda qimmat yoki qurb etmaydigan to'lovlar tufayli xarajatlar;

➤ professionalli - QQQShning yetarli darajada professionallikga ega emaslididan kelib chiqadi (masalan, ta'sir qiluvchi omillarning kerakli soni hisobga olinmaydi);

➤ cheklanganlik - QQQ holatidagi cheklovlar, masalan, vaqt cheklovlar va boshqalar etiborga olinadi;

➤ tashqi muhit- tashqi muhitning xatti-harakati yoki raqobatchining QQQ jarayoniga munosabati bilan bog'liq.

**Noaniqlik turlari.** *Noaniqlik* vaziyatni tavsiflashning to'liqmasligi, kuzatilgan hodisalarning ehtimoliy tabiatliligi, ma'lumotlarni taqdim etishning noaniqligi, tabiiy til so'zlarining ko'pqiyatliligi, xulosalashning evristik usullardan foydalanishligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. *Noaniqlikning eng muhim turlarini daraxt shaklida 5.1-rasmdagidek tasvirlash* mumkin.



5.1-rasm. Noaniqlikning turlari.

*Daraxtning birinchi darajasida noaniqlik xususiyatini sifatli baholashni ifodalovchi atamalar tasvirlangan. Noaniqlik bilimlarning to'liqmasligi yoki ularning noaniqligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.*

Bilimlarning *to'ligmasligi* xulosalar tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlar to'planganida paydo bo'ladi. *Nobirqiyatlik* u yoki bu mulohazalarning chinligi mutlaq aniqlik bilan o'matilishi mumkin emasligini anglatadi. U fizik (fizik noaniqlik) yoki lingvistik (lingvistik noaniqlik) sabablar tufayli hosil bo'ladi. *Fizik noaniqlik* hodisalar, vaziyatlar, obyektlarning holati yoki ma'lumotlarni taqdim etishning noto'g'riliqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

*Lingvistik noaniqlik* sifatli xarakterga ega bo'lgan bilimlarni ifodalash uchun tabiiy tildan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, so'zlarning ma'nolari (polisemiya) va iboralarning ma'nosini ko'pligidan kelib chiqadi. Masalan "dvigatel tez-tez qizib ketadi" yoki "Davron allaqachon katta". Ushbu misollarda noaniqlik "tez-tez" va "katta" tushunchalarining noaniqligi bilan bog'liq. So'z ma'nosini noaniqligini tahlil qilishda sintaktik, semantik va pragmatik noaniqliklar ajratiladi.

## 2-§. Ekspert tizimlar va ehtimollar nazariyasi

**ETdagi noaniqliklar va ular tomonidan yaratilgan muammolar.** ETlarida noaniqlik qanday namoyon bo'ladi va hisobga olinadi? Eng oddiy vaziyatni ko'rib chiqamiz. Aytaylik

*agar (A), u holda (B)*

qoidasi foydalilanilgan bo'lsin va boshqa qoidalar va sabablar ko'rib chiqilayotgan vaziyatlarga aloqasi yo'q deb hisoblaymiz. Bu holda noaniqlik qaerda paydo bo'ladi? ETda u ikki xil bo'lishi mumkin:

- sababni o'zini chinligining noaniqligi (masalan, agar A ni chinligining ishonch darajasi 90% bo'lsa, u holda B qanday qiymatlar qabul qiladi);

- qoidani o'zining noaniqligi (masalan, biz aytishimiz mumkin: "agar A bo'lsa, u holda B ham bo'ladi" shart ko'p hollarda bajariladi, lekin har doim emas).

Yanada murakkab vaziyat yuzaga keladi, agarda qoida quyidagi ko'rinishda berilsa:

*agar (A va B), u holda C,*

bunda biz (A,B) sabablarning har birining cninligiga, hatto ularning birgalikda namoyon bo'lishiga va xulosaning chinligiga bizda qandaydir darajadagi ishonch bo'lshi lozim. *Noaniq bilimlar bilan ETni loyihalash va qurishda* yuzaga keladigan to'rtta muhim muammo mavjud:

- ma'lumotlarning ma'lum bir qismining chinligini (yoki yolg'onligini) o'rnatishning aniqlik darajasini sonli ko'rinishda qanday ifodalash mumkin?
- muayyan sababning xulosasini qo'llab-quvvatlash darajasini qanday ifodalash mumkin?
- xulosaga bir-biridan bog'liq bo'limgan holda ta'sir qiladigan ikkita (yoki undan ko'p) sabablardan birgalikda qanday foydalanish kerak?
- noaniqlik sharoitida xulosalashni tasdiqlash uchun mavjud bo'lgan qarorlar zanjirini muxokama qilish vaziyati qanday bo'lish kerak?

**Ehtimollik nazariyasining asosiy tushunchalari.** Bayes teoremasini kiritishdan oldin ehtimollik nazariyasining ba'zi asosiy tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Aytaylik  $A$  haqiqiy dunyodagi qandaydir hodisasi bo'lsin. Barcha elementar hodisalarning to'plami  $\Omega$  - tanlangan fazo yoki hodisalar fazosi deb ataladi.  $A$  hodisaning ehtimoli  $P(A)$  bilan belgilanadi va har bir  $P(A)$  ehtimollik funksiyasi  $P(A)$  quyidagi uchta aksiomani qonoatlantirishi kerak:

1. Har qanday  $A$  hodisaning ehtimoli manfiy emas, ya'ni

$$\forall A \in \Omega \text{ uchun } P(A) \geq 0.$$

2. Tanlangan fazoning barcha hodisalari ehtimoli 1ga teng, ya'ni  $P(\Omega) = 1$ .

3. Agar  $k$  ta hodisalar  $A_1, A_2, \dots, A_k$  o'zaro bo'g'liqmas bo'lsa (ya'ni, bir vaqtning o'zida sodir bo'lmasligi mumkin), unda bu hodisalardan kamida bittasining ehtimoli alohida ehtimolliklar yig'indisiga teng, ya'ni

$$P(A_1 \cup A_2 \cup \dots \cup A_k) = \sum_{i=1}^k P(A_i)$$

1 va 2 aksiomalarni birlashtirilishi mumkin, bunda

$$\forall A \in \Omega \text{ uchun } 1 \geq P(A) \geq 0.$$

Ushbu tasdiq har qanday hodisaning ehtimoli 0 va 1 orasida ekanligini ko'rsatadi. Ta'rifga ko'ra,  $P(A) = 0$  bo'lsa,  $A$  hodisasi hech qachon sodir bo'lmaydi. Agarda  $P(A) = 1$  bo'lsa, u holda  $A$  hodisasi albatta sodir bo'lishi kerak.

$A$  hodisaning to'ldiruvchisi  $\bar{A}$  kabi belgilanadi va  $\bar{A}$  hodisa o'zida  $\Omega$  dagi  $A$  dan tashqri barcha hodisalarni saqlaydi. Demak  $A$  va

$\bar{A}$  oz'aro bo'g'liqmas (ya'ni  $A \cup \bar{A} = \Omega$ ) bo'lganligi uchun 3-aksiomadan quyidagi kelib chiqadi

$$P(A) + P(\bar{A}) = P(A \cup \bar{A}) = P(\Omega) = 1$$

Bu tenglikni  $P(\bar{A}) = 1 - P(A)$  shaklida qayta yozib  $P(A)$  dan  $P(\bar{A})$ ni hosil qilish mumkin.

### 3-§. Noaniqlilkлarni taqdim etish uchun shartli ehtimollik

**Shartli ehtimollik.** Tasodifiy hodisa eksperiment shartlari to'plamini amalga oshirishda yuz berishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan hodisa sifatida tavsiflanadi. Agar hodisa ehtimolligini hisoblashda eksperiment shartlaridan tashqari boshqa cheklovlar qo'llanilmasa, unda bunday ehtimollik *shartsiz* deb ataladi. Agarda boshqa qo'shimcha shartlar qo'llanilsa, hodisa ehtimoli *shartli* deb ataladi. Masalan B hodisasi sodir bo'lgan qo'shimcha holatda A hodisasining sodir etilish ehtimoli ko'pincha hisoblab topiladi.

Aytaylik B hodisasi sodir etilgan bo'lsin. U holda B hodisasi sodir etilishi natijasida A hodisaning sodir etilish ehtimoli  $P(A \setminus B)$  ko'rinishda belgilanadi va B hodisasi berilganda A hodisaning sodir etilishining *shartli ehtimoli* deb ataladi. Masalan, bemor haqiqatdan ham A kasallikga chalingan bo'ladi, agarda unda faqat B belgi uchrasha.

*Misol.* Urnada 3ta oq va 2 qora to'p bor. Urnadan bir to'p, keyin ikkinchi to'p olinadi. B hodisasi-birinchi olingan to'ping oq bo'lish hodisasi. A hodisasi-ikkinchi olingan to'ping oq bo'lish hodisasi.

Echimi. Shubhasiz, B hodisa sodir etilgan A hodisaning sodir etilish ehtimoli  $P(A \setminus B) = (3-1)(5-1) = 2/4 = 0.5$  bo'ladi. B hodisasi sodir bo'lмаган тақдирда A hodisasi ehtimoli  $P(A \setminus \bar{B}) = (3-0)/(5-1) = 3/4 = 0.75$  bo'ladi.

A va B hodisalarning sodir etilish ehtimoli A va B hodisalarning *birgalikdagi ehtimoli* deb ataladi va  $P(A \cap B)$  ko'rinishda belgilanadi. Bir-biriga bog'liq bo'lмаган A va B hodisalarning ehtimoli ular ehtimollarining *ko'paytmasi* bilan aniqlanad. Masalan agar A hodisasi-detal yaroqli va B hodisasi-detal ranglangan bo'lsa, u holda ushbu detal yaroqli va sifatli ranglangan hodisasiga  $P(A \cap B)$  mos keladi.

Ikki bog'liq hodisaning *birgalikda sodir bo'lishi ehtimoli* ulardan birinchi hodisa sodir etilgan holatdagi ehtimolini ikkinchisining shartli

ehtimoliga ko'paytmasiga tenf, ya'ni  $P(A \cap B) = P(B)P(A \setminus B)$ . Xususiy holda bundan shartli ehtimol formulasi hosil bo'ladi

$$P(A \setminus B) = P(A \cap B)/P(B) \quad (5.1)$$

(5.1) da  $P(B)$  - B hodisa sodir etilishining aprior ehtimoli,  $P(A \setminus B)$ - aposterior ehtimollik, y'ni B hodisaning sodir etilganligi ma'lum bo'lganda A hodisaning sodir etilishining ehtimoli.

Misol. Yuqori misoldagi ma'lumotlar uchun shartli ehtimollik hisoblash formulasidan foydalaniib,  $P(A \setminus B)$  ni hisoblaymiz.

Echimi. Birinchi oq to'pning paydo bo'lish ehtimoli  $P(B) = 3/5 = 0.6$ ga teng. Ikkita to'pning barcha mumkin bo'lgan birikmalarining soni 5 dan 2 tadan, ya'ni  $A_s = 5 * 4 = 20$ ga teng. Ikkita oq to'pning mumkin bo'lgan birikmalarining soni 3 dan 2 tadan bo'lganda  $A_s = 3 * 2 = 6$  ga teng. Bunga asoslanib, A va B larning birqalidagi ehtimoli  $6 / 20 = 0.3$  bo'ladi. U holda B hodisa sodir etilganda A hodisaning sodir etilish ehtimoli  $P(A \setminus B) = 0.3 / 0.6 = 0.5$  bo'ladi. Bu esa yuqoridagi misolda olingan natijaga to'g'ri keladi.

#### 4-§. Bayes qoidasi va undan foydalanish

*Evristik qoidalar* - ekspert tomonidan shakllantirilgan qoidalardir. Ko'plab evristik qoidalar asosida faqatgina ekspert hisoblay oladigan, yani ekspert o'z muammoli sohasidagi farazlarni asoslay oladigan ma'lum hodisalarini yuzaga kelish ehtimolligi yotadi. Haqiqatda esa bu qandaydir farazlarni qilish imkoniyatini beradigan statistik ma'lumotlar mavjudligini anglatadi. Bemorni kuzatish asosida vrach tomonidan qo'yiladigan tashxis bunga misol bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda vrach tajribasi bemorning kasalligini yuqori aniqlik bilan aniqlash imkonini beradi. Albatta vrach xato qilishi ehtimoli mavjud, shuning uchun odatda boshqa tashxislar ham qaraladi.



Bayes biror hodisa avval boshqa bir hodisa sodir etilganligi uchun ro'y berishiga bog'liq tasdiqqa asoslanuvchi ehtimollik uslubiyatini ishlab chiqdi. ETlarda Bayes nazariyasiga tayanuvchi statistik yechimlar keng qo'llaniladi.

Tashxislovchi ETlar inson faoliyatining turli (tibbiyot, texnika, iqtisodiyot va boshqa) sohalarida keng qo'llaniladi. Asosan ularda PrSsi haqidagi bilimlarning mahsuliy modeli ishlataladi. Biroq, agar statistik

ma'lumotlarning "Tushunchalar va ular orasidagi bog'liqliklar" haqidagi qoidalariga asosan qo'llash imkoniyati mavjud bo'lsa, u holda u yoki bu belgi(belgi)lari mavjudligini tekshirish natijalarining aposterior ehtimollarini hisoblash uchun mashhur Bayes teoremasini qo'llash juda ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

*Ehtimollikka quyidagicha ta'rif berish mumkin [5, 31].*

$$P = \frac{\text{natijasi hodisaga keluvchi tajribalar soni}}{\text{tajribalarning umumiy soni}}, \quad 0 \leq P \leq 1.$$

**Bayes ehtimolligi.** Bayes shartli ehtimollik nazariyasini yaratish bilan shug'ullanган. Shartli ehtimollik tajribalarning ma'lum bo'lgan natijalarini hisobga oladi.

*Shartli ehtimollik* - bu qandaydir B hodisaning sodir etilganligi aniq bo'lganda biror A hodisaning ro'y bearish ehtimolidir. Shartli ehtimollik hodisaning ro'y berish ehtimolidir. Shartli ehtimollik  $P(A/B)$  kabi belgilanadi.

Bayesli yondashuvda BBning har bir faktining ishonchlik darjasini noldan birgacha qiymat qabul qiluvchi ehtimollik bilan baholanadi. Dastlabki faktlarning ehtimoli statistik sinovlar usuli yoki ekspertlar so'roviga ko'ra aniqlanadi.

*B* dalil (fakt) va *A* gipotezaning birgalikdagi sodir etilish  $P(A,B)$  ehtimoli - *A* gipotazalarni shartsiz  $P(A)$  ehtimolini *A* gipoteza kuzatilganda *B* dalil(fakt)ning sodir etilganligining shartli ehtimoliga ko'paytmasiga teng bo'ladi [5, 31]:

$$P(A, B) = P(A)P(B/A);$$

*Bayes qoidasiga asosan xulosalash ehtimoli* B hodisa (dalil) sodir etilganda, A hodisa(gipotaza)larning  $P(A/B)$  aposteriorli shartli ehtimolini hisoblashni aniqlaydi:

$$P(A/B) = \frac{P(A, B)}{P(B)},$$

bu yerda  $P(B)$  - *B* dalil(fakt)ning shartsiz (apriorli) ehtimoli;  $P(A, B)$  - *B* dalil va *A* gipotezaning birgalikdagi sodir etilish ehtimoli.

*Misol.* 1100 raqamlar birikmasidan tasodifiy ravishda yoki 1, yoki 0 tanlansin.

Shartli ehtimollik tenglamasini qo'llagan holda, 2 ta urinishda avval 0 raqmi, keyin esa 1 raqami kelishi ehtimolini hisoblash mumkin

$$P(0 \vee 1) = P(1/0) \times P(0).$$

0 raqmini tanlash ehtimoli  $P(0) = 2/4$ , chunki birikmada to`rttadan ikkitasi 0 raqmi. 0 va 1 raqmlarini tanlash ehtimoli  $P(0 \text{ va } 1) = 2/3$ ,  $P(0 \text{ va } 1) = \frac{2}{3} \times \frac{2}{4} = \frac{1}{3}$  aniqlanadi.

**Bayes formulasi.** Aytaylik  $B_1, B_2, B_3, \dots, B_n$  gipotezalarning birortasi

sodir etilganli natijasida A hodisa sodir etilgan bo'lsin. U yoki bu hodisaning sodir etilishning ehtimoli qanday aniqlanadi?

Agar A hodisa sodir etilgan deb hisoblaak, u holda ushbu gipotezaning ehtimoli Bayes formulasi yordamida quyidagicha aniqlanadi [5]:

$$P(A/B_i) = \frac{P(A)P(B_i/A)}{P(B_i)}, - B_i \text{ gipoteza sodir etilganda A hodisaning}$$

sodir

etilish ehtimoli. Bu yerda  $P(B_i)$  - apriorli (sinovgacha baholangan) ehtimol;

$P(B_i/A)$  - bu A hodisaning sodir etilganligini hisobga olgan holda hisoblanadigan gipotezalarning aposteriorli (sinovdan keyin baholangan) ehtimollari.

Umumiy holda  $P(A,B)$  aposteriorli ehtimolni hisoblaydigan *Bayes formulasini* quyidagi shaklda taqdim etish mumkin

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)}, \quad (5.2)$$

bu erda  $P(A)$  - A gipotezaning apriorli ehtimoli;  $P(A/B)$  - B hodisa sodir etilganda A gipotezaning sodir etilish ehtimoli (aposteriorli ehtimoli);  $P(B/A)$  - A gipotezaning sodir etilganligi chin bo'lganda B hodisaning sodir etilish ehtimoli;  $P(B)$  - B hodisani sodir etilishining to'liq ehtimoli.

**Bayes formulasining mazmuni:** B hodisa sodir etilganda A gipotezani sodir etilishining ehtimoli-bu A gipotezaning apriorli  $P(A)$  ehtimolini A gipotezani sodir etilganligi chin bo'lganda B hodisaning sodir etilish  $P(B/A)$  ehtimoliga  $P(A)P(B/A)$  ko'paytmasini B hodisaning sodir etilsh P(B) ehtimoliga bo'linmasiga teng.

**Bayes formulasining «Fizik manosi» va terminologiyasi.** Bayes formulasi «sabab va oqibat o'rmini almashtirish» ni ifodalashga imkonoyat yaratadi: yani oldindan ma'lum bo'lgan dalil asosida

hodisaning sodir etilganligidan shunday ehtimol hisoblanadiki, ushbu ehtimol sabab bilan bo'g'liq bo'ladi.

Ushbu holatda «sabab» harakatini aks ettiruvchi hodisalar-gipoteza(faraz)lar deb ataladi, yani ular bor narsadan sodir etilishi kutilayotgan hodisalar hisoblanadi. Gipotezalar haqiqiyligining shartsiz ehtimoli-*apriorli ehtimol* deyiladi. Hodisalarning sodir etilganlik dalilining shartsiz ehtimoli-*aposteriorli ehtimol* deyiladi.

(5.2) formulaning amaliy qo'llanilishini oddi misolda tushuntiramiz. Aytaylik,  $A$  qandaydir kasallik,  $B$  esa uning belgisi (belgii) bo'lsin. U holda  $A$  kasllikning aprior ehtimoli  $P(A) = N_A/N$  formula bilan aniqlanishi mumkin, bu yerda  $N_A$ - qandaydir xududda  $A$  kasallikga ega bo'lgan odamlar soni;  $N$ -xududdagi barcha odamlar soni. Xuddi yuqoridagidek,  $P(B)$  ehtimol ham  $P(B) = N_B/N$  kabi aniqlanadi, bu eda  $N_B$ - $B$  belgi kuzatilayotgan odamlar soni,  $N$ -barcha odamlar soni. Odatda  $P(A)$  va  $P(B)$  ehtimolliklarning qiymatlari ekspertlar tomonidan tushuntiriladi.

$P(B/A)$  ehtimollik  $A$  kasallikga ega bo'lgan bemorda  $B$  belgining mavjudligiga mos keladi. Uning qiymati ham ekspertlarning so'rov usuli yordamida aniqlanadi.

*Misol.* Ob-havoni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni qaraymiz.

Aytaylik, yomg'ir yog'ish ehtimoli 30% ga teng. Odatdagagi kunda bulutlarning paydo bo'lish ehtimoli ham ma'lum bo'lib, u 50% tashkil etadi. Shuningdek, yomg'ir yog'ish ehtimoli 100% bo'lganda bulutlarning paydo bo'lish ehtimoli ham 100% ni tashkil etadi, chunki agar yomg'ir yog'sa, u holda har qanday holatda ham osmonda bulut bo'ladi.

Demak, bizda quyidagi axborotlar mavjud:

$$P(A) = \text{yomg'r yog'ish ehtimoli} = 30\%;$$

$$P(B) = \text{bulut bo'lish ehtimoli} = 50\%;$$

$$P(B/A) = \text{yomg'ir yoqqanda bulut bo'lish ehtimoli} = 100\%.$$

Agar osmonni bulut qoplasa, uholda yomg'ir yog'ish ehtimolini topamiz. Navbatdagagi kun ertalab osmonni bulut qopladi. Bu holda yomg'ir yog'ish ehtimoli quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)} = \frac{30\% \cdot 100\%}{50\%} = \frac{300\%}{50\%} = 60\%.$$

Demak, yomg'ir yog'ishni bashoratlash ehtimoli 60% ni tashkil etadi.

*Misol.* Sportda yaxshi natijalarga erishishni Bayesli tahlilda qaraymiz.

Masalan, bizni Paxtakor ishtirokidagi o'yin qiziqtiradi va biz o'ylaymizki ushbu o'yinda Paxtakorning g'alaba qilish imkoniyatlari aytрайт bo'yicha 50% ni tashkil etadi. Shuningdek, bizga ma'lumki, Paxtakor ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda yomg'ir yog'ish ehtimoli 10% ni, Paxtakor ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda Paxtakor yutganda yomg'ir yog'ish ehtimoli 11% ni tashkil etgan.

Shunday qilib:

$$P(A) = \text{Paxtakor g'alabasining apriorli ehtimoli} = 50\%;$$

$$P(B) = \text{Paxtakor o'yinida yomg'ir yog'ishning ehtimoli} = 10\%;$$

$$P(B/A) = \text{Paxtakor yutganda yomg'ir yog'ish ehtimoli} 11\%.$$

Demak, Paxtakor ishtirokidagi navbatdagi o'yinda yomg'ir yog'ganda

Paxtakorning g'alaba qilish ehtimolini quyidagi formula bilan hisoblaymiz:

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(B)} = \frac{50\% \cdot 11\%}{10\%} = \frac{550\%}{10\%} = 55\%.$$

**Bayesning kengaytirilgan formulasi.** Ko'p hollarda hodisalar fazosi ( $\{A_i\}$ )  $P(A_i)$  va  $P(B/A_i)$  terminlarda aniqlanadi. Xuddi shu holatda masalalarda va statistik ilovalarda ehtimollari yig'indisi 1(bir)ga teng bo'lgan bir nechta bирgalikdamas gipotezalardan bo'g'liq hodisalarning to'liq ehtimoli  $P(B)$  quyidagicha hisoblanadi:

$$P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i),$$

bu yerda yig'indi ostidagi ehtimolliklar oldindan ma'lum yoki tajribali baholash yordamida olinadi.

Agar  $P(A_1), P(A_2), \dots, P(A_n)$  apriorli ehtimolliklar bilan berilgan bog'liq bo'limgan  $A_1, A_2, \dots, A_n$  gipotazalarning to'liq guruhi qaralayotgan bo'lsa, u holda  $B$  dalil asosida har bir  $A_i$  gipotezaning aposteriorli ehtimoli quyidagi formula yordamida aniqlanadi [13, 78]:

$$P(A_i/B) = \frac{P(A_i)P(B/A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i)}. \quad (5.3)$$

(5.3) formula  $B_1, B_2, \dots, B_m$  dalillar uchun ham o'rinni bo'ladi:

$$P(A_i/B_j) = \frac{P(A_i)P(B_j/A_i)}{P(B_j)} = \frac{P(A_i)P(B_j/A_i)}{\sum_{i=1}^n P(A_i)P(B_j/A_i)}. \quad (5.4)$$

Bu formula Bayes gipotezasining teoremasi deb ataladi. Xususiy holda (5.4) formulani

$$P(A/B) = \frac{P(A)P(B/A)}{P(A)P(B/A) + P(1 - A)P(B/(1 - A))}.$$

ETlarda shartli ehtimollikning

$$P(A) = P(A/B) \times P(B) + P(A/not B) \times P(not B) \quad (5.5)$$

tenglamasidan ham foydalaniladi. Bu holda  $A$  hodisaning ro'y berish ehtimoli  $B$  hodisa sodir etilganligi aniq bo'lganda  $A$  hodisaning ro'y berish  $P(A/B)$  ehtimolini  $B$  hodisaning ro'y berish ehtimoliga ko`paytmasiga  $B$  hodisa ro'y bermaganligi aniq bo'lganda,  $A$  hodisaning ro'y berish  $P(A/not B)$  ehtimolini  $B$  hodisaning ro'y bermaslik ehtimoli  $P(not B)$ ga ko`paytmasi yig`indisiga teng.

*Misol.* Tibbiy tashxis qo'yishda bemorda harorat(H)ning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina (A) bilan kasallanganligining ehtimolini hisoblash talab etiladi. Agar bemor angina bilan kasallangan bo'lmasa, u holda u "anginamas (A)", masalan sog'lom bo'ladi. (5.4) ning xususiy holdagi formulasidan foydalanib, ushbu masala uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$P(A/H) = \frac{P(A) \times P(H/A)}{P(A) \times P(H/A) + P(\bar{A}) \times P(H/\bar{A})}$$

$P(A)$  va  $P(H/A)$  aprior ehtimolliklar ushbu joydan tibbiy statistik tahlil natijasida olingan bo'lishi mumkin. Agar poliklininkadagi yozuvlar asosida 10000 bemordan ushbu davrda 7000 tasi angina bilan kasallangan bo'lsa, u holda apriorli ehtimollik  $P(A) = N_B/N = 7000/10000 = 0.7$ . Tibbiy adabiyotlarni o'rghanish xulosasiga ko'ra  $P(H/A) = 0.8$  o'rnatish mumkin.

$$\text{Endi } P(\bar{A}) = 1 - P(A) = 1 - 0.7 = 0.3,$$

$$P(H/\bar{A}) = 1 - P(H/A) = 1 - 0.8 = 0.2$$

aniqlanadi. Ba'zi hollarda  $P(H/\bar{A})$  qiymat ekspertlar tomonidan ham aniqlanishi mumkin.

Demak

$$F(A/H) = \frac{0.7 \times 0.8}{0.7 \times 0.8 + 0.3 \times 0.2} = \frac{0.56}{0.62} \approx 0.90$$

## 5-§. Bayesli mulohaza

**Eng oddiy mantiqiy xulosa.** ETdagи barcha qoidalar quyidagi shakilda aks ettirilgan holni ko'rib chiqamiz:

*AGAR <H hodisa chin bo'lsa > U HOLDA <E hodisa P ehtimollik bilan kuzatiladi >.*

Shubhasiz, agar H hodisa sodir bo'lsa, unda bu qoidaga muvofiq E hodisa P ehtimollik bilan sodir etiladi. Agar H hodisaning sodir etilishi noma'lum va E hodisa sodir etilgan bo'lsa, u holda masala echimi qanday bo'ladi.

Bayes teoremasi H ning qiymati ma'lum bo'lganda ehtimollikni hisoblashga imkoniyat yaratadi. "A" va "B" ni "H" va "E" ga almashtirish Bayes formulasi uchun muhim emas, lekin uning yordami bilan umumiy ehtimollik nazariyasini tark etib, ETda ehtimollik hisoblarini tahlil qilishga o'tishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan:

- H- gipoteza to'g'ri bo'lgan hodisa;
- E-ko'rsatilgan gipotezaning to'g'riliгини tasdiqlashi mumkin bo'lgan aniq isbot (dalil)ni kelib chiqishining hodisasi.

Bayes formulasini farazlar va dalillar jihatidan qayta yozib quyidagini hosil qilamiz:

$$P(H \setminus E) = \frac{P(E \setminus H)P(H)}{P(E \setminus H)P(H) + P(E \setminus \bar{H})P(\bar{H})}$$

Ushbu formula xulosani dalil bilan bog'lashni va ayni paytda hali tasdiqlanmagan xulosa bilan dalilni aloqasini o'rmatadi. Ushbu sharh, shuningdek, H tomonidan tayinlangan  $P(H)$  xulosaning aprior ehtimolligini aniqlashni yoki ba'zi faktlarni olishni nazarda tutadi.

ETlarda muayyan masalalarni echish uchun zarur bo'lgan ehtimollar ekspertlar tomonidan ta'minlanadi va BBda saqlanadi. Ushbu ehtimolliklar

quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- barcha mumkin bo'lgan farazlarning aprior ehtimoli  $P(H)$ ;
- $P(E \setminus H)$  farazlarining har biri mavjud bo'lganda dalillarning sodir bo'lish shartli ehtimoli.

Masalan, tibbiy diagnostika bo'yicha ekspert muayyan tibbiy sohada barcha mumkin bo'lgan kasalliklarning aprior ehtimolini berishi kerak. Bundan tashqari, har bir kasallik uchun muayyan alomatlar paydo bo'lishining shartli ehtimoli aniqlanishi kerak. Shartli ehtimollik

barcha alomatlar va kasalliklar uchun olinishi kerak, bunda barcha alomatlar har bir kasallikda o'zaro bog'lq bo'lmasligi zarur.

Ikkita  $E_1$  va  $E_2$  hodisalar shartli bo'g'lanmagan deyiladi, agarda qandaydir H faraz bajarilganda ularning birgalikdagi ehtimoli H faraz bajarilganda  $E_1$  va  $E_2$  hodisalar shartli ehtimollar ko'paytmasiga teng bo'lsa, ya'ni

$$P(E_1, E_2 \setminus H) = P(E_1 \setminus H)P(E_2 \setminus H).$$

Foydalanuvchilar ETga kuzatuv ma'lumotlarini (aniqlangan alomatlar ro'yxatini) beradi va ET BBda saqlangan aprior ehtimollar va taqdim qilingan  $E_1, \dots, E_k$  alomatlarni hisobga olib  $H_1, \dots, H_m$  farazlar uchun  $P(H_i \setminus E_1, \dots, E_k)$  ehtimolni hisoblaydi.

$P(H_i \setminus E_1, \dots, E_k)$  -  $E_1, \dots, E_k$  kuzatuvlari boyicha  $H_i$  farazning aposterior ehtimoli deyiladi. Bu ehtimolliklar barcha mumkin bo'lgan farazlarning qiyosiy darajasini, ya'ni nolga teng bo'lmasgan aposterior ehtimolliklar farazlarini beradi. ETni xulosalash natijasi - eng katta ehtimollikga ega bo'lgan farazni tanlab olishdan iborat bo'ladi.

Ta'kidlaymizki, yuqorida keltirilgan Bayes formulasi har bir dalil faqat bitta farazga ta'sir qilishi bilan chegaralanadi. Ushbu formulani bir nechta  $H_1, \dots, H_m$  farazlar va  $E_1, \dots, E_k$  dalillar uchun umumlashtirish mumkin. Bu holda har bir farazning ehtimolligi qandaydir E dalilning paydo

bo'lishi sharti bilan quyidagicha aniqlanishi mumkin:

$$P(H_i \setminus E) = \frac{P(E \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{k=1}^m P(E \setminus H_k)P(H_k)}, \quad i = \overline{1, m}$$

Bu formulani  $E_1, \dots, E_k$  dalillar uchun umumlashtirish mumkin:

$$P(H_i \setminus E_1, \dots, E_k) = \frac{P(E_1, \dots, E_k \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{k=1}^m P(E_1, \dots, E_k \setminus H_k)P(H_k)}, \quad i = \overline{1, m}$$

Bu formula bir qator *kamchiliklarga* ega. Demak maxrajdag'i ifoda bizga barcha mumkin bo'lgan dalillar va farazlarning kombinatsiyalarining shartli ehtimolligini bilishni talab qiladi, bu esa Bayes qoidasini bir qator ilovalar uchun yaroqsiz holga keltiradi. Biroq, dalillarning shartli bog'liqmasligini taxmin qilish mumkin bo'lgan hollarda Bayes qoidasini oddiyroq ko'rinishga olib kelishi mumkin:

$$P(H_i \setminus E_1, \dots, E_n) = \frac{P(E_1 \setminus H_i)P(E_2 \setminus H_i) \dots P(E_n \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{i=1}^n P(E_1 \setminus H_i)P(E_2 \setminus H_i) \dots P(E_n \setminus H_i)P(H_i)}, \quad i = \overline{1, m}$$

Shu bilan birga ayrim hollarda hodisalar bog'liqmasligi haqidagi taxminlar ETda mulohazalar va dalillarning aniqligini yo'qtadi.

**ETlarda ehtimolliklarning tarqalishi.** Hodisalar ehtimoli Bayes qoidalariiga asoslangan ETning bilimlari asosida, kuzatilgan dalillarni hisobga olgan holda farazlarning barcha aposteriorli ehtimolliklarini hisoblash uchun taqsimlanadi. Ushbu aposteriorli ehtimolliklar potentsial chin gipoteza haqida tartibli ma'lumot beradi. Ushbu jarayonni tasvirlaydigan misolni ko'rib chiqamiz.

*Misol.* Aytaylik, qandaydir ET BBda quyidagilar mavjud:

- uchta  $H_1, H_2, H_3$ , o'zaro bog'lanmagan farazlar;
- uchta  $P(H_1), P(H_2), P(H_3)$  apriorli ehtimollar.

BB turli darajadagi dastlabki farazlarni qo'llab-quvvatlaydigan ikkita shartli bog'liq bo'lмаган dalillarni o'z ichiga olgan bo'lsin. Ushbu misolning barcha farazlari va dalillarining apriorli va shartli ehtimollari quyidagi qiymatlarga ega (5.1-jadval):

5.1-jadval.

$P(\cdot)$	i	1	2	3
$P(H_i)$		0,5	0,3	0,2
$P(E_1 H_i)$		0,4	0,8	0,3
$P(E_2 H_i)$		0,7	0,9	0,0

Shu bilan birga dastlabki farazlar ma'lum bir firmanın ishonchlilikini aniqlash bilan bog'liq hodisani tavsiflaydi:

$H_1$ —"Firmanın o'rtacha ishonchliliği",

$H_2$ —"Firmanın yuqori ishonchliliği",

$H_3$ —"Firmanın past ishonchliliği".

Shu bilan birga, dastlabki farazlarni qo'llab-quvvatlovchi shartli bo'lganmagan dalillar - hodisalar quyidagicha:

$E_1$ —"Firmanın foyda olishi",

$E_2$ —"byudjet bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishi".

Faktlarni to'plash jarayonida farazlar ehtimolligi oshadi, agar faktlar ushbu farazlarni qo'llab-quvvatlasa yoki kamayadi, agarda faktlar farazlarni inkor etsa.

**Birinchi yechim.** Birinchi bosqichda biz faqat bitta dalilga egamiz, ya'ni  $E_1$ . Ya'ni, 1 ehtimollik bilan  $E_1$ , fakt sodir etildi, bu esa biz tekshirgan firma uchun foyda borligini ko'rsatadi.

$E_1$ ni hisobga olib barcha farazlarning aposteriorli ehtimolliklarini Bayes formulasi yordamida hisoblash mumkin:

$$P(H_i \setminus E_1) = \frac{P(E_1 \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{i=1}^3 P(E_1 \setminus H_i)P(H_i)}, \quad i = \overline{1,3}$$

Demak

$$P(H_1 \setminus E_1) = \frac{0,4 \times 0,5}{0,4 \times 0,5 + 0,8 \times 0,3 + 0,3 \times 0,2} = 0,40,$$

$$P(H_2 \setminus E_1) = \frac{0,8 \times 0,3}{0,4 \times 0,5 + 0,8 \times 0,3 + 0,3 \times 0,2} = 0,48,$$

$$P(H_3 \setminus E_1) = \frac{0,3 \times 0,2}{0,4 \times 0,5 + 0,8 \times 0,3 + 0,3 \times 0,2} = 0,12.$$

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinish turibdiki,  $E_1$  faktini hisobga olish  $H_1$  va  $H_2$  farazlariga bo'lgan ishonchlilikning pasayishiga olib keldi,  $H_3$  farazga bo'lgan ishonchlilik ortdi.

**Ikkinci yechim.** Bir vaqtning o'zida ikkita fakt mavjud bo'lgan hollarda, ya'ni  $E_1$  dalil va  $E_2$  dalil bilan tasdiqlangan bo'lsa, unda boshlang'ich farazlarning aposteriorli ehtimollari ham Bayes qoidasi bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$P(H_i \setminus E_1, E_2) = \frac{P(E_1, E_2 \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{i=1}^3 P(E_1, E_2 \setminus H_i)P(H_i)}, \quad i = \overline{1,3}$$

$H_1$  farazlar berilganda  $E_1$  va  $E_2$  dalillari shartli bog'limas bo'lqanda Bayes formulasini quyidagicha yozish mumkin:

$$P(H_i \setminus E_1, E_2) = \frac{P(E_1 \setminus H_i)P(E_2 \setminus H_i)P(H_i)}{\sum_{i=1}^3 P(E_1 \setminus H_i)(E_2 \setminus H_i)P(H_i)}, \quad i = \overline{1,3}$$

Bundan

$$P(H_1 \setminus E_1, E_2) = \frac{0,4 \times 0,7 \times 0,5}{0,4 \times 0,7 \times 0,5 + 0,8 \times 0,9 \times 0,3 + 0,3 \times 0,0 \times 0,2} = 0,393,$$

$$P(H_1 \setminus E_1, E_2) = \frac{0,8 \times 0,9 \times 0,3}{0,4 \times 0,7 \times 0,5 + 0,8 \times 0,9 \times 0,3 + 0,3 \times 0,0 \times 0,2} = 0,607,$$

$$P(H_2 \setminus E_1, E_2) = \frac{0,3 \times 0,0 \times 0,2}{0,4 \times 0,7 \times 0,5 + 0,8 \times 0,9 \times 0,3 + 0,3 \times 0,0 \times 0,2} = 0,0.$$

Dastlabki tartib  $H_1, H_2, H_3$ , bo'lsa-da,  $E_1$  va  $E_2$ , dalillarni olgandan faqat  $H_1$  va  $H_2$ , farazlari qoldi. Shunday qilib,  $H_3$ , faraz  $H_3$ , farazga nisbatan ko'proq ehtimolga ega, chunki  $0,607 > 0,393$ .

Ushbu misolda biz u yoki bu dalillarni qabul qilishda ET elementlari bo'yicha ehtimollarini tarqalish jarayonini ko'rib chiqdik.

**ETlarda ehtimolliklarning ketma-ket tarqalishi.** Haqiqatda ehtimolliklarning tarqalishi alohida dalillarni bosqichma-bosqich yig'ish va ularning alohida  $E$ , qabul qilinishi bilan shartli ehtimollikka ta'siri amalga oshiriladi. Buni apriorli va aposteriorli ehtimolliklardan foydalanib quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1.  $H_1$ , hodisaning apriorli  $P(H_1)$  ehtimoli beriladi.

2. Olingan  $E_1$ , dalil uchun  $P(E_1 \setminus H_1)$  aposteriorli ehtimol hosil qilinadi.

3. Bayes teoremasini hisobga olgan holda  $P(E_1 \setminus H_1)$  aposteriorli ehtimollik hisoblanadi.

4.  $E_2$ , dalilni hisobga olib  $P(H_1 \setminus E_1) = P(H_1 \setminus E_2)$  ko'rinishdagи aposteriorli ehtimolliklarni yangi apriorli ehtimollar sifatida qaraladi.

5. Keyingi bosqichda yangi dalil tanlanadi va 2-qadamga o'tiladi.

Ehtimolliklarni ketma-ket tarqalishini yuqorida keltirilgan misolda keltiramiz. Faraz qilaylik ETga dastlab  $E_1$ , dalil kelib tushgan bo'lsin. U holda:

$$P(H_1 \setminus E_1) = \frac{0,7 \times 0,5}{0,7 \times 0,5 + 0,9 \times 0,3 + 0,0 \times 0,2} = 0,565,$$

$$P(H_2 \setminus E_1) = \frac{0,9 \times 0,3}{0,7 \times 0,5 + 0,9 \times 0,3 + 0,0 \times 0,2} = 0,435,$$

$$P(H_3 \setminus E_1) = \frac{0,0 \times 0,2}{0,7 \times 0,5 + 0,9 \times 0,3 + 0,0 \times 0,2} = 0,0.$$

Hosil qilingan ehtimolliklarni  $H_1, H_2, H_3$ , farazlar uchun yangi aposteriorli ehtimolliklar sifatida qabul qilish mumkin, ya'ni

$$P(\hat{H}_1) = 0,565, P(\hat{H}_2) = 0,435, P(\hat{H}_3) = 0,0.$$

Agar endi qo'shimcha ravishda yana bir yangi dalil, ya'ni  $E_2$ , kelib tushsa, u holda yangi farazlarning aposteriorili ehtimollari faqat yangi kelgan dalil asosida hisoblanishi mumkin:

$$P(H_1 \setminus E_1 E_2) = P(\hat{H}_1 \setminus E_2) = \frac{0,4 \times 0,565}{0,4 \times 0,565 + 0,8 \times 0,435 + 0,3 \times 0,0} = 0,393,$$

$$P(H_2 \setminus E_1 E_2) = P(\hat{H}_2 \setminus E_2) = \frac{0,8 \times 0,435}{0,4 \times 0,565 + 0,8 \times 0,435 + 0,3 \times 0,0} = 0,607,$$

$$P(H_3 \setminus E_1 E_2) = P(\hat{H}_3 \setminus E_2) = \frac{0,3 \times 0,0}{0,4 \times 0,565 + 0,8 \times 0,435 + 0,3 \times 0,0} = 0,0.$$

Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, ehtimolliklarning ketma-ket taqsimotining iteratsiyali jarayoni dalillarning kelib tushishini hisobga olgandagi natijalar bir vaqtning o'zida ikkita dalilning kelib tushishini hisobga olib Bayes qoidasi yordamida olingan natijalarga o'xshash bo'ladi.

**Subyektiv ehtimolliklardan foydalanadigan ETlar.** Ehtimollik nazariyasini noaniqliklarni ifodalashda ishlatalish uchun ET ishlab chiquvchilari ekspertlardan barcha apriorli va shartli ehtimolliklarni olishlari kerak. Bunda ular talab qilingan ehtimolli baholarni kamaytirish uchun hodisalarning shartli bog'lanmasligini e'tiborga oladilar, lekin ular uchun talab qilinadigan baholar soni yetarlicha ko'pchilikni tashkil qiladi.

Shunday qilib, ozchilik ETlar subyektiv ehtimollik nazariyasidan foydalanadi va bu tizimlarning ko'pchiligi nisbatan murakkab bo'limgan masalalarni echishda qo'llaniladi.

*Subyektiv ehtimollarni amalga oshirishda asosiy qiyinchilik* - bu BBni qurish uchun olinishi zarur bo'lgan katta hajmdagi ehtimolliklar soni bilan bog'liq. Misol uchun tibbiy diagnostikaning ba'zi sohalari 100 ta tashxis va 700 ta alomatlarga ega bo'ladi. Bu esa kamida 70100 (70000 shartli + 100 apriorli) ehtimollik qiymatlarini olinishini talab etadi. Bundan tashqari eski tizimlarda kamdan-kam hollarda amalga oshiriladigan alomatlarning bog'liqmasligi talab etilgan, bu esa ideal holatda kamdam-kam uchraydi.

### Nazorat savollari

1. Noaniqlikning paydo bo'lishi qanday manbalar bilan bog'liq?
2. Noaniqlikni kelib chiqishini asosiy sabablari nimalar?

3. Obyektiv va subyektiv noaniqliklarni izohlang?
4. Paydo bo'lish sabablariga qarab noaniqlikning qanday ko'rinishlari mavjud?
5. Noaniqlikning qanday turlari mavjud?
6. ETdagি noaniqliklar va ular tomonidan yaratilgan muammolarni keltiring?
7. Evristik qoidalar nima?
8. Ehtimollik va shartli ehtimollik nima?
9. B dalil va A gipotezaning birgalikdagi sodir etilish ehtimolini izohlang?
10. Bayes qoidasiga asosan xulosalash ehtimoli qanday aniqlanadi?
11. Bayes formulasining mazmuni nimadan iborat?
12. Bayesning kengaytirilgan formulasini izohlang?
13. Expert tizimlarda shartli ehtimollikning qanday ko'rinishidan foydalaniadi?
14. ETda eng oddiy mantiqiy xulosalashda qanday qoidadan foydalaniadi?
15. ETlarda ehtimolliklarning tarqalishini izohlang va miisol keltiring?
16. ETlarda ehtimolliklarning ketma-ket tarqalishini izohlang va miisol keltiring?
17. Subyektiv ehtimolliklardan foydalananadigan ETlardagi asosiy qiyinchilik nimadan iborat?

### Nazorat testlari

1. .... jarayon sifatida yetarli (to'la) ma'lumotga ega bo'limgan yoki topshiriqning murakkabligi tufayli xatoli qarorlar qabul qilgan xodimning faoliyati qaraladi.
  - a) Noaniqlik; b) Nobirqiyatlichkeit; c) Noto'liqlilik;
  - e) Noishonchlichkeit.
2. .... noaniqlik hodisalar, vaziyatlar, obyektlarning holati yoki ma'lumotlarni taqdim etishning noto'g'riliqi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.
  - a) Fizik; b) Tezkor; c) Lingvistik; e) Professional.
3. .... noaniqlik sifatli xarakterga ega bo'lgan bilimlarni ifodalash uchun tabiiy tildan foydalinish bilan bog'liq bo'lib, so'zlarning ma'nolari (polisemiya) va iboralarning ma'nosi ko'pligidan kelib chiqadi.

- a) Lingvistik; b) Tezkor; c) Fizik; e) Professional.
4. Evristik qoidalari ..... shakllantirilgan qoidalardir.  
 a) ekspert tomonidan;      b) bilimlar muhandisi tomonidan;  
 c) aksiomalar yordamida; e) matematik usullar yordamida.
5. Qandaydir B hodisaning sodir etilganligi aniq bo'lganda biror A hodisaning ro'y berish ehtimoli-bu ..... ehtimollikdir.  
 a) shartli; b) apriorli; c) aposteriorli; e) shartsiz.
6. B dalil va A gipotezaning birgalikdagi sodir etilish ehtimolini aniqlaydigan ifodani to'g'ri ko'rsating?  
 a)  $P(A, B) = P(A)P(B/A)$ ;      b)  $P(A, B) = P(B)P(B/A)$ ;  
 c)  $P(A, B) = 1 - P(A)P(B/A)$ ;    e)  $P(A, B) = P(B)P(B/(1 - A))$ .
7. Gipotezalar haqiqiyligining shartsiz ehtimoli-bu ..... ehtimoldir.  
 a) apriorli; b) aposteriorli; c) Bayesli; e) shartli.
8. Hodisalarning sodir etilganlik dalilining shartsiz ehtimoli-bu ..... ehtimoldir.  
 a) aposteriorli; b) shartli; c) Bayesli; e) apriorli.
9. Ob-havoni bashoratlash masalasini yechishda sizda quyidagi ehtimolliklar mavjud:  
 $P(A) = \text{yomg'r yoqish ehtimoli} = 40\%$ ;  
 $P(B) = \text{bulut bo'lismi ehtimoli} = 60\%$ ;  
 $P(B/A) = \text{yomg'ir yoqqanda bulut bo'lganlik ehtimoli} = 90\%$ .  
 Bayes formulasidan foydalanib joriy vaqtida yomg'ir yog'ish ehtimolini toping?  
 a) 60%; b) 11%; c) 110%; e) 90%.
10. Hodisalarning toliq ehtimolini aniqlovchi ifodani to'g'ri ko'rsating?  
 a)  $P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B/A_i)$ ;    b)  $P(B) = \sum_{i=1}^n P(B_i)P(B/A_i)$ ;  
 c)  $P(B) = \sum_{i=1}^n P(A_i)P(B)$ ;    e)  $P(B) = \sum_{i=1}^n P(B_i)P(B/A_i)$ .
11. Bemorga tibbiy tashxis qo'yishda sizga quyidagi ma'lumotlar berilgan. Oxirgi 10 yil davomida poliklinikaga murojaat qilgan 20000 nafar bemordan 16000 nafari gripp bilan kasallanganligi expert(shifokor)lar tomonidan aniqlangan bo'lsin. Quyidagi A="Gripp" va  $\bar{A}$  ="Gripmas" belgilashlarni kiritib,  $P(A)$  va  $P(\bar{A})$  ehtimollarni aniqlang. Shuningdek, B="Harorat" belgilashni kiritib, tibbiy adabiyotlarni o'rganish xulosasiga ko'ra A="Gripp" bilan kasallangan bemorlarda B="harorat"ning oshish  $P(B/A)=0.9$  ehtimoli

o'matilganligini e'tiborga olib,  $P(B/\bar{A})$  ni aniqlang. Aniqlangan  $P(A) =?$ ,  $P(\bar{A}) =?$ ,  $P(B/\bar{A})=?$  asosida Bayes formulasidan foydalanib  $P(A/B)$  ehtimolni hisoblang?

- a) 0.97; b) 0.95; c) 0.98; e) 0.90.

### Masala va topshiriqlar

1. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Aytaylik, bemorning rentgen tekshirishlari natijasida unda sil kasalligi borligi ehtimoli 0,8 ga teng, sog' odamni bemor sifatida belgilash ehtimoli 0,03 ga teng. Sil kasalligiga uchraganlar sonining barcha aholiga nisbatan ulushi 0,002 ga teng. Rentgen natijasiga ko'ra bemor deb topilgan odamning sog' bo'lish ehtimolini toping.

2. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Aytaylik, odama harorat oshish ehtimoli 40% ga teng. Odadagi kunda odama grippning paydo bo'lismi ehtimoli ham ma'lum bo'lib, u 50% tashkil etadi. Shuningdek, harorat oshish ehtimoli 100% bo'lganda grippning paydo bo'lismi ham 100% ni tashkil etadi, chunki agar harorat oshsa, u holda har qanday holatda ham odama gripp bo'ladi. Agar odam gripp bo'lsa, u holda harorat oshish ehtimolini toping.

3. Kasallikni bashoratlash masalasini yechishda bayesli tahlildan foydalanishni keltiring. Tibbiy tashxis qo'yishda bemorda haroratning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina bilan kasallanganligining ehtimolini hisoblash talab etiladi. Agar bemor angina bilan kasallangan bo'lmasa, u holda u "anginamas", masalan sog'lom bo'ladi. Agar poliklininkadagi yozuvlar asosida 20000 bemordan ushbu davrda 15000 tasi angina bilan kasallangan va tibbiy adabiyotlarni o'rganish xulosasiga ko'ra  $P(\text{Harorat/Angina})=0.8$  o'matish mumkin bo'lsa, u holda bemorda haroratning oshganligi kuzatilganligi uchun uning angina bilan kasallanganligining ehtimolini Bayes formulari yordamida aniqlang.

4. Sportda yaxshi natijalarga erishishni Bayesli tahlilini keltiring. Aytaylik, futbol o'yinida nasaf komandasining g'alaba qilish imkoniyatlari reyting bo'yicha 70% ni tashkil etadi. Shuningdek, bizga ma'lumki, Nasaf ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda futbol ishqibozlari kelish ehtimoli 30% ni, Nasaf ishtirokida o'tkazilgan o'yinlarda Nasaf

yutganda futbol ishqibozlari kelish ehtimoli 90% ni tashkil etgan. Nasaf ishtirotidagi navbatdagi o'yinda ishqibozlar kelganda Nasafning g'alaba qilish ehtimolini toping.

5. Aytaylik, rentgen tekshirish natijalariga asosan bemorning tuberkulez kasalligi bilan xastalanganlik ehtimoli 0,7 va sog'lom odamning ushbu kasallik bilan xastalanganlik ehtimoli 0,03 aniqlangan bo'lsin. Poliklininkadagi yozuvlar asosida 20000 bemordan ushbu davrda 15 tasi tuberkulez bilan kasallangan bo'lsin. Tekshirish natijasida kasal deb hisoblangan odamlarning sog' chiqishining shartli ehtimolini toping.

6. Aytaylik, bemorning rentgen tekshirishlari natijasida unda sil kasalligi borligi ehtimoli 0,8 ga teng, sog' odamni bemor sifatida belgilash ehtimoli 0,03 ga teng. Sil kasalligiga uchraganlar sonining barcha aholiga nisbatan ulushi 0,002 ga teng. Rentgen natijasiga ko'ra bemor deb topilgan odamning sog' bo'lish ehtimolini toping.

## **6-BOB. NORAVSHAN MANTIQ VA UNING EKSPERT TIZIMLARGA QO'LLANILISHI**

### **1-§. Noravshan bilimlar va ular ustida amallar**

#### **1.1. Noravshan bilimlar**

Ma'lumotlar va bilimlarning noaniqligi, ularning turlari 5-bobda qaralgan edi. Endu ITlarni yaratishda muhim hisoblangan noravshan bilimlarni tasvirlash muammosiga to'xtalamiz. *Noravshan bilimlar* ozining tabiyatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin va shartli ravishda quyidagilarga bo'linadi: *noto'g'rilik, noaniqlik, nobirqiyatlik, yani ular ixtiyoriy norashanlik bo'lib, ular orasida qat'iy chegara mavjud bo'lmaydi.*



Obyektlar to'plami va majmuasi matematikada asosiy tushunchalar hisoblanadi. Lekin insonda shunday bilimlar va tashqi olam bilan shunday aloqalar mavjudki, ularni klassik ma'noda *to'plam deb atash mumkin emas*. Bunday bilimlar to'plamini (yoki to'plamostini) «*noravchanli to'plamlar* (yoki *to'plamostilar*)» deb hisoblanadi. Bu to'plamlar noravshan chegarali sinflar bo'lib, “*elementning sinfga tegishli*” qoidasidan “*elementning sinfga tegishlimas*” qoidasiga keskin tarzda emas, balki asta-sekinlik bilan o'tiladi. Mohiyat nuqtai -nazaridan insonning fikrlashi klassik ikkiqiyatli yoki ko'pqiyatli mantiqga emas, balki chin qiymatli noravshan mantiqga, notavshan aloqali va noravshan xulosalash qoidalariiga asoslanadi.

Oxirgi vaqtarda noravshan boshqarishda noravshan to'plam(NoT)lar nazariyasini qo'llash ancha faol va natijali tadqiqot sohalaridan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, sifatli bilimlarni shakllantirish va SITlarda, ayniqsa, ETlarda ekspertlar bilan tabiiy tilda ishslash jarayonida lingvistik noaniqliklar bilan bog'liq jihatlar boyicha tadqiqotlar faollashdi.

#### **1.2. Imkoniyatlar nazariyasi**

*Imkoniyatlar nazariyasi* - bu muayyan turdag'i noaniqlik bilan ishslash uchun matematik nazariya bo'lib, u ehtimollar nazariyasiga zid hisoblanadi. U imkoniyat va zaruriylikni mos ravishda Odan Igacha, imkoniyatsizlikdan imkoniyatlilikgacha va keraksizlilikdan

zaruriylikgacha bo'lgan o'lchovlardan foydalanadi. L. Zade bиринчи bo'lib 1978 yilda imkoniyatlar nazariyasini o'zining NorTlar va noravshan mantiq(NM) nazariyalarini kengaytirish maqsadida taqdim etdi. D. Dyubua (D. Dubois) va G. Prade (H. Prade) keyinchalik uning rivojlanishiga o'z hissalarini qoshdilar. Ilgari, 1950-yillarda iqtisodchi Dj. Shekl potentsial kutilmagan hodisalar darajasini tasvirlash uchun min/max-algebrani taklif qilgan. 1990-yillarning oxirida Moskva davlat universiteti professori YU. P. Pyt'ev imkoniyatlar nazariyasi variantini taklif qilgan bo'lib, unda imkoniyat va zaruriylik chiziqli additiv-hisobli funksional qiymatlari (integral) bilan aniqlangan.

Imkoniyatlar nazariyasi usullarining mazmunli talqini ehtimollar nazariyasi usullardan sezilarli darajada *farq* qiladi. Hodisalar imkoniyati muntazam stoxastik eksperimentda uning paydo bo'lish chastotasini baholaydigan ehtimoldan farqli o'laroq, ushbu hodisaning chinligini uning boshqa har qanday hodisalarga nisbatan afzalligini nisbiy baholashga qaratilgan. Ya'ni, faqat "*ko'proq*", "*kamroq*" yoki "*teng*" munosabatlar mazmunli talqin qilinishi mumkin. Shu bilan birga imkoniyat eksperiment bilan bog'laydigan hodisa-chastota talqiniga ega emas (ehtimollikdan farqli o'laroq). Shunga qaramasdan *imkoniyatlar nazariyasi* haqiqatni tajribali faktlar, bilimlar, farazlar, tadqiqotchilarning mulohazalari asosida matematik tarzda modellashtirishga imkon beradi.

*Imkoniyatlar nazariyasi NMning yo'naliishlaridan biri bo'lib, unda noaniq bilimlarga asoslangan aniq shakllantirilgan masalalar ko'rib chiqiladi.* Bunday masalalarga misol keltiramiz.

*Misol.* Aytaylik qutida 10 ta shar bor, lekin ularning bir nechta qizil ekanligi ma'lum. Qutidan olingan sharning qizil bo'lish ehtimoli qanday? Faqat bir necha shar qizil ekanligini bilish asosida kerakli qiymatni hisoblash mumkin emas. Shunga qaramay [0.1] oralig'dagi  $P(qizil)$ ning har bir  $X$  qiymati uchun  $P(qizil) = X$  ning imkoniyatlarini quyidagicha hisoblash mumkin.

Birinchidan, biz "birnecha" ni NorT sifatida aniqlaymiz, masalan:

$$f_{\text{birnech}} = \{(3, 0.2), (4, 0.6), (5, 1.0), (6, 1.0), (7, 0.6), (8, 0.3)\}. \quad (6.1)$$

(6.1) dagi  $(3, 0.2)$  ifoda - 10 dan 3 tani anglatadi va u "birnechta" tushunchasiga unchalik mos kelmaydi, lekin  $(5, 1.0)$  va  $(6, 1.0)$  ifodalardagi 10 dan 5 ta va 10 dan 6 ta qiymatlari 10 ning "birnechta" tushunchasi bilan mukammal darajada mos kelishini anglatadi. NorTning ta'rifiga asosan 1 va 10 qiymatlari NorTga kirmaydi, chunki

"birnechta" tushunchasi "bittadan ko'p" va "hammasi emas" degan ma'noni anglatadi.

Endi  $P(qizil)$  uchun imkoniyatlarni taqsimlash formulasi

$$f_{P_{qizil}} = \text{birnechta} / 10, \quad (6.2)$$

taqdim etiladi.

(6.2) dan foydalanib

$$f_{P_{qizil}} = \{(0.3, 0.2), (0.4, 0.6), (0.5, 1.0), (0.6, 1.0), (0.7, 0.6), (0.8, 0.3)\} \quad (6.3)$$

hosil qilinadi.

(6.3)da  $(0.3, 0.2)$  ifodada  $P(qizil) = 0.3$  qiymat 20% ga teng bo'lgan imkoniyatni bildiradi.  $P(qizil)$ ni noravshan ehtimollik (fuzzy probability) deb hisoblash ham mumkin.

Imkoniyatlar nazariyasidan farqli ravishda NM bo'gliklilik va kesishish operatori nuqtai-nazaridan kompozitsiyali hisoblanadi. NM nazariyasi bilan munosabatlarni quyidagi klassik misol bilan tushuntirilishi mumkin.

*Noravshan mantiq:* shishaning yarmi to'lgan bo'lsa, "shisha to'la" mulohazaning haqiqiy darajasini 0.5 deb aytish mumkin. "To'liq" so'z shishadagi suyuqlik miqdorini tasvirlaydigan noravshan predikat sifatida ko'rildi.

*Imkoniyatlar nazariyasi:* bitta shisha bor, u yoki to'liq yoki to'liq bo'sh. "Shisha to'la bo'lish imkoniyat darjasasi, 0.5" degan mulohaza ishonch darajasini tasvirlaydi.

NorTlar nazariyasida ikki qiymatli bul mantiqning rolini NM o'yinaydi. NMda obyektning to'plamga mansubliliqi 0 dan 1 gacha oralig'ida qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Savol tug'iladi: murakkab mulohazaning chinligini hisoblash uchun noaniqlik kontseptsiyasidan qanday foydalanish kerak?

Klassik mantiqda

*Davron(Bola)  $\wedge$  Sevadi(Bola, o' yinchoqni)*

mulohaza faqat va faqat shundagina chin hisoblanadi, agarda ushbu ifodaning ikkala hadi ham chin bo'lsa. NMda agar F va G lar noravshan predikatlar bo'lsa u holda ularning konyunksiyasi va dizyunksiyasi

$f_{F \wedge G}(x) = \min(f_F(x), f_G(x))$  va  $f_{F \vee G}(x) = \max(f_F(x), f_G(x))$  aniqlanadi. Bunga asosan agarda *Davron(Bola) = 0.9* va *Sevadi(Bola, o' yinchoqni) = 0.7* bo'lsa, u holda *Davron(Bola)  $\wedge$  Sevadi(Bola, o' yinchoqni) = 0.7* bo'ladi.

Endi quyidagi vaziyatni qaraymiz. Aytaylik inkor Davron(Bola) ifoda mavjud bo'lsin. U holda  $\bar{P} = 1 - P$  formulaga asosan Davron(Bola) =  $1 - \underline{\text{Davron}(Bola)}$  hosil bo'ladi. Buni hisobga olib Davron(Bola)  $\wedge$  Davron(Bola) ifodani qaraymiz. Ushbu ifodaning chinlik ehtimoli 0 ga teng, ya'ni Davron(Bola)  $\wedge$  Davron(Bola) = 0.

Biroq, NorTda ushbu ifodaning qiymati 0.1 ga teng. Buning mohiyati

shundan iboratki, ifodaning qiymati bolaning NorTdag'i boshqa nomlarga mansubli ekanligini ko'rsatadi. Davron(Bola) = 0.9 ifodaning ma'nosи shundaki, biz bu bolaning Davron ismli bolalarga mansubliligining ishonchliligi 90% ni tashkil etadi. Shuni ham ta'kidlash joizki Bolaning boshqacha nomlanishi haqida ham ishonchlilik mavjud bo'ladi.

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, NM biz ega bo'lgan bilimlar noravshan tushunchalar bilan ifodalangan vaziyatlar bilan shug'llanadi. Biroq tushunchalarning noaniqligi noaniqlikning yagona manbai emas. Ba'zan faktlarning o'ziga ham ishonch yo'q bo'ladi. Bunday holda NM imkoniyatlar nazariyasi asosida quriladi.

*Gipotezaning imkoniyati* - bu qaror qabul qiluvchi shaxsning gipotezasini ko'rib chiqadigan darajadir. Imkoniyatning ehtimollikdan ancha farqli tomoni shundaki, ehtimollik gipotezani paydo bo'lishiga ishonch kuchini ko'rsatdi. Imkoniyatlarni o'chash uning qiymatlari [0,1] oraliq'ida bo'lishini talab qiladi.

*Gipotezaning muqarrarligi* bir minus teskari gipotezaning imkoniyati bilan aniqlanadi. Misol uchun, sizning o'qituvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lish imkoniyati 0,95 va yomon munosabat bo'lish imkoniyati 0,3 bo'lsin. U holda yaxshi munosabatning muqarrarligi  $1 - 0,3 = 0,7$  ga teng.

### 1.3. Noravshan to'plamlar

Noravshan to'plam(NoT)lar nazariyasi (*fuzzy sets theory*) bo'yicha ilmiy ishlarning boshlanishi Berkli universiteti professori *Lotfi Zade* tomonidan 1965 yilda "Information and Control" jurnalida chop etilgan "Fuzzy Sets" ilmiy maqolasi bilan bog'liq [19]. "Fuzzy" tushunchasi *noravshan*, *noqat'iy*, *notiniq* kabi ma'nolarni bildiradi. Bu tushuncha an'anaviy qat'iy matematika va Aristotel mantiqida

qo'llaniladigan qat'iy "tegishli-tegishlimas", "chin-yolg'on" kabi tushunchalarda oraliq tushunchalarni hosil qilish maqsadida ishlatgan.

*NoTlar nazariyasi* - bu shunday ma'noni anglatadiki, bunda klassik matematika va haqiqiy olamda uchraydigan noaniqliklarning yaqinlashish yo'liga qadam tashlanadi, insoniyatning fikrlash va tanib olishga jarayonlarini yaxshi tushunish niyati amalgalashadi.

*Noravshan o'zgaruvchi tushunchasi*. L. Zade noravshan o'zgaruvchi(*NoO*) tushunchasini quyidagi ushlik ko'rinishda kiritdi [19, 31]:

$$\langle \alpha, U, G \rangle,$$

bu yerda  $\alpha$  - *NoO*ning nomi;  $U$  - universal to'plam(UT)ning aniqlanish sohasi;  $G$  -  $U$  dagi NTning mumkin bo'lган noravshan qiymatlariga (sematiskasiga) chegaralarni tavsiylovchi NoT;  $U$  to'plamning fizik tabiatiga qarab *NoO*'lar sonli va sonlimaslarga ajratilishi mumkin.  $U \subset R^1$  qanoatlantiruvchi o'zgaruvchilarni sonli ozgaruvchilar deb ataymiz.

NoTlarning asosiy qoidalari va ta'riflarini keltiramiz [19, 31].

*Noaniq/Noravshan (fuzzy - ingliz atamasidan) obyekt, holat va hodisalarini noaniq, to'liq bo'lmasagan, taxminiy, mumkin bo'lgan baholashlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday baholashlar ekspert fikr(mulohaza)larida shakllanadi.*

*Noravshan to'plamlarning klassik va aniq to'plamlardan asosiy farqi ularning [mansub bo'lishi - mansub bo'lmasligi] oraliqda mansublik daraja qiymatlarining to'plam tushunchasi bilan (ha, yo'q o'rniiga) ish olib borishidan iborat.*

*Noravshan to'plam tushunchasi*. Aytaylik,  $U$ -qandaydir obyektlar to'plami ( $u$  bilan belgilanadigan elementlar, nuqtalar va  $A: U \rightarrow [0; 1]$ ) bo'lsin.  $U$  to'plamda  $A$  noravshan (noaniq, xira) to'plam deb tartiblangan juftliklar majmuasi  $A\{u, \mu_A(u)\}; u \in U$  tushuniladi. Bu yerda  $A(u)$ -u elementning  $A$  ga mansubligini (tegishliligini) bildiradi,  $A, a\mu_A: U \rightarrow [0, 1]$  -  $U$  to'plamda  $M$  fazoga akslantiruvchi funksiya bo'lib, mansublik fazosi deb aataladi [19, 31, 48].

*Noravshn to'plamostilarining to'plami va uning xossalari* [19, 31, 37, 48].  $U$  to'plamostilarining to'plamini  $P(U)$  ko'rinishda belgilaymiz. Masalan,  $U = \{u_1, u_2, u_3\}$  elementlar berilgan bo'lsa, u holda  $P(U) = \{\emptyset, \{u_1\}, \{u_2\}, \{u_3\}, \{u_1, u_2\}, \{u_2, u_3\}, \{u_1, u_3\}, \{u_1, u_2, u_3\}\}$ , yani  $P(U)$  to'plam  $2^3=8$  elementlardan ( $|P(U)| = 8$ ) iborat bo'ladi. Umumiy holda  $U = \{u_1, u_2, \dots, u_n\}$  elementlar berilgan bo'lsa, u holda, yani

$P(U)$  to'plam 2<sup>n</sup> elementlardan ( $|P(U)| = 2^n$ ) iborat bo'ladi. NoTlarda «NoT ostilarining to'plami» boshqacha yo'l bilan aniqlanadi. M fazo sifatida [0; 1] intervalda  $M=[0, 0.5, 1]$  qiymatlarni olsak, u holda  $U = \{x_1, x_2\}$  NoTlarning  $P(U)$  to'plamini quyidagicha hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} P(U) = & \{(x_1|0), (x_2|0)\}, \{(x_1|0), (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0.5), (x_2|0)\}, \\ & \{(x_1|0.5), (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0), (x_2|1)\}, \{(x_1|1), (x_2|0)\}, \{(x_1|1), \\ & (x_2|0.5)\}, \{(x_1|0.5), (x_2|1)\}, \{(x_1|1), (x_2|1)\}\}. \end{aligned}$$

Umumiy holda, agar  $U$  to'plam  $U = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$  elementlardan va  $M$  fazo  $[a; b]$  intervaldagи  $M = \{y_1, y_2, \dots, y_m\}$  qiymatlardan iborat bo'lsa, u holda NoTlarning soni  $|P(U)| = m^n$  aniqlanadi.

**Mansublik funksiyasi (MF).** MF - bu  $A$  NoT bilan ifodalaniladigan

tushunchaga  $u \in U$  elementi mos bo`lishi darajasining sub'ektiv o`lchovi. Bu  $u$  holat paydo bo`lgan holda  $A$  holatni kuzatish shartli ehtimoli emas, balki  $A$  NoT bilan ifodalaniladigan tushunchasi bilan  $u$  holatni izohlash mumkinligi (mumkinlik darajasi).

MFni qurishning ikkita, yani *bevosita* va *bilvosita* usullar sinfi mavjud. *Bevosita usullar* bir yoki bir nechta ekspertlar tomonidan berilgan baholashlarga asoslanadi. Bu holda MF [48]

$$\mu_A(U) = n_1/m \quad (6.4)$$

formula bo'yicha belgilanadi. Bu yerda  $n_1$  - A NT ga  $u \in U$  elementning mansubligi to`g'risida quyilgan savolga to`g'ri javob bergen ekspertlar soni;  $n_2$  - salbiy javob bergen ekspertlar soni;  $m = n_1 + n_2$  - ekspertlarning umumiy soni.

*Misol.* Berilgan  $U = \{1, 2, 3, 4, 5\}$  to'plamda "Ikkidan sal ko'proq" tushunchani formallashitiradigan  $A$  NoT ni qurish kerak. Faraz qilaylik, oltita ekspertlar bilan o'tkazilgan so'rov quyidagi natijalarni berdi (6.1-jadval).

6.1-jadval.

	$U$				
$m$	1	2	3	4	5
$n_1$	0	0	6	4	1
$n_2$	6	6	0	2	5

6.1-jadvaldagi ma'lumotlarga va (6.1) formulaga asoslanib

$$\mu_A(1) = 0; \mu_A(2) = 0; \mu_A(3) = 1; \mu_A(4) = 0.7; \mu_A(5) = 0.2.$$

hosil qilamiz. Natijada  $A$  NTning MFsi

$$\mu_{\alpha}(u) = \{<1/3>, <0.7/4>, <0.2/5>\} \text{ belgilanadi.}$$

Ko'rib chiqilgan usul eng sodda bo'lib eng past aniqlikga ega. *Bevosita usullar* qatoriga ekspertlar bilan o'tkazilgan so'rov asosida olinadigan formula, jadval, sanab chiqish va h.k. ko'rinishda Mfning berilish usullari ham kiradi.

*Bilvosita usullar* qulayroq bo'lib, ularning orasida juft-juftli solishtirish usuli eng ko'p qo'llaniladigan usul hisoblanadi.

Bu usulda so'rov natijasi  $M = [m_{ij}]$ ,  $i, j = \overline{1, n}$  ko'rinishdagi matritsa shaklida beriladi. Bu yerda:  $n$  - MFning qiymatlarini solishtiradigan nutqalar soni;  $m_{ij}$  elementlar - A NoTga  $u_i \in U$  elementlarning  $u_j \in U$  elementlariga nisbatan mansublik darajasini baholashlarini belgileydi, yani ular ekspert fikri bo'yicha  $\mu_{\alpha}(u_i)$  qiymati  $\mu_{\alpha}(u_j)$  qiymatidan necha marta katta bo'lganligini ko'rsatadi. Bu holda  $m_{ii} = 1$ ,  $m_{jj} = 1/m_{ii}$ .

Ekspert ishlataladigan tushunchalarni baholash va izohlashlar Saati shkalasiga muvofiq 9 ballik tizimda qabul qilingan (6.2-jadval).

#### 6.2-jadval.

Tushunchani ma'nosi	$m_{ij}$
$\mu(u_i)$ taxminan $\mu(u_j)$ ga teng	1
$\mu(u_i)$ sal $\mu(u_j)$ dan katta	3
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan katta	5
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan sezilarli darajada katta	7
$\mu(u_i)$ $\mu(u_j)$ dan ancha katta	9
Sanab o'tilgan baholashlar darajasi bo'yicha oraliqdagi baholashlar	2, 4, 6, 8

6.2-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib,  $(u_1, u_2, \dots, u_n)$  nuqtalardagi MFsi qiymatlari

$$\mu_{\alpha}(u_i) = m_{ii} / \sum_{j=1}^n m_{ij}, \quad (6.5)$$

bo'yicha hisoblab chiqiladi. Bu yerda  $i, j \in I = \{1, 2, \dots, n\}$ .  $j$  ning qiymati ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi.

$\mu_{\alpha}(u_i)$  qiymatlarini topish uchun  $M = [m_{ij}]$ ,  $i, j = \overline{1, n}$  matritsaning ixtiyoriy ravishda tanlab olingan  $j$ -ustunini belgilab,  $m_{ij}$  elementlar

qiymatlarini  $j$  - ustundagi barcha elementlar qiymati jamiga nisbatlarini hisoblab chiqish kerak.

*Misol.* Faraz qilaylik, ikki nuqta orasidagi masofani tasvirlash uchun  $\beta$ - “Masofa” LO’

$T = \{\alpha_1 = "Kichik", \alpha_2 = "O'rta", \alpha_3 = "Katta"\}$  term-to'plami bilan qo'llaniladi. Asosiy to'plam  $U = \{1, 3, 6, 8\}$  ko'rinishda berilgan. " $\alpha_1 - Kichik$ " term  $\langle \alpha_1, U, G_i \rangle$  NO' yordamida ifodalanadi.

“Kichik” termni ifodalaydigan  $G_i$  NTning  $\mu_{G_i}(u)$  MFni qurish kerak. Ekspertlarni so'rash natijasida quyidagi juft-juftli solishtirish  $m_{ij}$  ( $i = 1, n; j = 1, m$ ) matritsasi (6.1-rasm) hosil qilingan bo'lsin. Bu yerda, masalan,  $m_{12} = 5$  element ekspert  $\mu_{G_1}(1)$  ni  $\mu_{G_1}(3)$  ga nisbatan katta qiymati bilan baholashini,  $m_{14} = 7$  element esa - ekspert  $\mu_{G_1}(1)$  ni  $\mu_{G_1}(8)$  ga nisbatan sezilarli darajada katta qiymati bilan baholashini ko'rsatadi.

	1	3	6	8	
1	1	5	6	7	
3	1/5	1	4	6	
6	1/6	1/4	1	4	
8	1/7	1/6	1/4	1	

6.1-rasm. Solishtirish matritsasi.

$M$  matritsaning birinchi ( $j = 1$ ) ustunini belgilab, uning elementlar qiymatlarini  $M1 = \{1, 1/5, 1/6, 1/7\}$  ko'rinishda ajratib olamiz. Keyin (6.5) formuladan foydalanib, “Kichik” termni ifodalaydigan  $G_i$  NTning  $\mu_{G_i}(u)$  MF qiymatlarini

$$\mu_{G_i}(1) = \mu_{G_i}(u_1) = \frac{m_{11}}{\sum_{i=1}^4 m_{ii}} = \frac{1}{1,55} = 0,64; \mu_{G_i}(3) = 0,16; \mu_{G_i}(6) = 0,11; \mu_{G_i}(8) = 0,09.$$

topamiz. Shunday qilib  $G_i$  NT quyidagicha ifodalanadi:

$$G_i = \langle 0,64/1, 0,16/3, 0,11/6, 0,09/8 \rangle$$

Agar  $M$  fazo faqat ikkita 0 va 1 nuqtalardan iborat bo'lsa, u holda  $A$  noaniqmas (aniq) deb ataladi va unung MFsi noaniqmas to'plamning xarakteristik funksiyasi bilan mos tushadi.

## 1.4. Noravshan mantiq amallari

“Inkor” (“Noravshan inkor”), “Va” (“Noravshan konyunksiya”), “Yoki” (“Noravshan dizyunksiya”) amallarining ta’riflarini keltiramiz [3, 19, 31, 48].

1) “Noravshan inkor” (aniq “Inkor” amalining o`xshashi) - bu natijada  $[0,1]$  baholashni beradigan  $[0,1]$  noravshan baholashning unar inkori amalidir. Bu amal “1dan ayirish” sifatida belgilanadi, yani  $T(-x)=1-x$ ,  $N^o = (x)$   $\text{inkori} = \bar{x} = 1-x$ ,  $x = x$ ,  $x \in [0,1]$ , bu yerda  $T$  - mulohazaning to`g`rilik darajasi. Bu qo`shimcha  $NoT$  tushunchasiga mos keladi.  $N^o$  amali quyidagi talablarga javob beradi:

- $N^o(0) = 1$ ,  $N^o(1) = 0$  - chegara shartlari;
- $N^o(N^o(x)) = x$ ,  $\forall x = [0,1]$  - ikkilik inkori;
- $x_1 < x_2 \rightarrow N^o(x_1) > N^o(x_2)$  - qiymatlarini teskarilariga aylantirish.

$x = 0,5$  (“Bilmayman”, “Indifferentlik/Befarqlik”) bo`lganda uning inkori ham  $N^o(x) = 0,5$  bo`ladi. Shuning uchun 0,5 - bu noravshan

tushunchaning markaziy qiymati. Unga nisbatan  $x \vee N^o(x)$  tushunchalar simmetrik qiymatlarni qabul qiladi.

Bul algebrasida “Inkor” amali mantiq o`zgaruvchining teskari qiymatini (masalan, “0 - issiq” uchun “1 - sovuq” va aksincha) izohlaydi.  $N^o$  amali esa, masalan, “Sovuq” uchun “Sovuq emas” tushunchani izohlaydi. Bunda “Sovuq” va “Issiq” tushunchalari orasida “Sovuq emas” tushunchasi ko`p qiymatlarni qabul qilishi mumkin.

2) Noravshan “Va” - uch burchakli  $t$  - miqdor - bu  $[0,1]$  oraliqda  $T : [0,1] \times [0,1] \rightarrow [0,1]$  qiymatlarni qabul qiladigan ikki o`zgaruvchilar funksiyasidir.

$T$  amali quyidagi talablarga javob beradi:

-  $x_1 T x_2 = x_2 T x_1$ ,  $x_1 T 0 = 0$ ,  $\forall x \in [0,1]$  - cheklanganlik (chegara shartlari);

- $x_1 T x_2 = x_2 T x_1$  - kommutativlik;
- $x_1 T (x_2 T x_3) = (x_1 T x_2) T x_3$  - assotsiativlik;
- $x_1 \leq x_2 \rightarrow x_1 T x_2 \leq x_2 T x_2$  - monotonlik.

$T$  - miqdor amaliga xos bo`lgan amal - bu minimum (min) yoki mantiqiy ko`paytirish (konyunksiya) amali

$$x_1 T x_2 = \min(x_1, x_2) = x_1 \wedge x_2, T(x_1 \wedge x_2) = \min(T(x_1), T(x_2)),$$

yoki quyidagi noravshan konyunksiyaning muqobil formulalari:

$$x_1 \wedge x_2 = x_1 \times x_2 = x_1 x_2 - \text{algebraik ko'paytirish},$$

$$x_1 \wedge x_2 = \max\{(x_1 + x_2 - 1), 0\} - \text{chegarali ko'paytirish},$$

$$x_1 \wedge x_2 = \begin{cases} x_2, & \text{agar } x_1 = 1, \\ x_1, & \text{agar } x_2 = 1, \\ 0, & \text{qolgan hollarda.} \end{cases} - \text{drastik ko'paytirish.}$$

3) "Noravshan Yoki" - uch burchakli  $S$  - miqdor - bu  $[0,1]$  oraliqda  $S : [0,1] \times [0,1] \rightarrow [0,1]$  qiymatlarni qabul qiladigan ikki o'zgaruvchilar funksiyasidir.  $S$  uchun chegara shartlari  $xS1 = 1, xS0 = x, \forall x \in [0,1]$  ko'rinishda ifodalanadi.

$S$  - miqdor amaliga xos bo'lgan amal - bu maksimum (max) yoki mantiqiy yig'indi (dizyunksiya) amali  $x_1 S x_2 = \max(x_1, x_2) = x_1 \vee x_2$ , yoki quyidagi noravshan dizyunksiyaning muqobil formulalari:

$$x_1 S x_2 = x_1 \oplus x_2 = x_1 + x_2 - x_1 x_2 - \text{algebraik yig'indi};$$

$$x_1 \vee x_2 = \min\{(x_1 + x_2), 1\} - \text{chegarali yig'indi};$$

$$x_1 \vee x_2 = \begin{cases} x_2, & \text{agar } x_1 = 0, \\ x_1, & \text{agar } x_2 = 0, \\ 1, & \text{qolgan hollarda.} \end{cases} - \text{drastik (drastic) yig'indi.}$$

Noravshan mantiqda  $x \wedge \bar{x} = \phi$  (yoki  $x \wedge (1-x) = \phi$ ) (uchinchisini inkor qilish),  $x \vee N(x) = E$  (yoki  $x \vee (1-x) = X$ ) (ayniyatlar), ( $E, X$  - universal to'plam,  $\phi$  - bo'sh to'plam) munosabatlar ham bajarilmaydi. Bu yerda  $0.5 \geq x \wedge (1-x) \geq 0$ ;  $0.5 \leq x \vee (1-x) \leq 1$  o'zaro nisbatlar yuz beradi.

Noravshan mantiqda, qoida bo'yicha, mantiqiy amallar (algebraik - ayrim hollarda) qo'llaniladi.

## 1.5. Noravshan to'plamlar ustida oddiy amallar

NoTlar nazariyasida  $P(U)$  to'plamlar ustida bajariladigan asosiy amallar quyidagilardan iborat [19, 31, 48].

**Yutilish amali.** Aytaylik  $U$ -mansubliklar to'plami,  $A$  va  $B$  -  $U$  to'plamda berilgan NoTostilari bo'lsin. Agar  $\forall u \in U: A(u) \leq B(u)$  bo'lsa, u holda  $A$  to'plam  $B$  to'plamda saqlanadi (yoki  $B$  to'plam  $A$  to'plamni o'z ishiga oladi) deb aytildi va  $A \subset B$  kabi belgilanadi.

*Misol.* Aytaylik  $U = \{u_1, u_2, u_3, u_4\}, M = [0,1]$  berilgan bo'lsin.

$$A = \{(x_1|0.4), (x_2|0.2), (x_3|0), (x_4|0)\},$$

$$B = \{(x_1|0.7), (x_2|0.4), (x_3|0), (x_4|1)\}.$$

Bu yerda  $0.4 < 0.7, 0.2 < 0.4, 0 = 0, 0 < 1$ . Demak  $A \subset B$ .

*Tenglik amali.*  $U$  to'plamdagи ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilar shunda va faqat

shundagina teng  $A = B$  bo'ladi, agarda  $\forall u \in U: \mu_A(u) \leq \mu_B(u)$ .

*Misol.* Aytaylik  $U = \{u_1, u_2, u_3, u_4\}, M = [0,1]$  berilgan bo'lsin.

$$A = \{(x_1|0.5), (x_2|0.6), (x_3|1), (x_4|0)\},$$

$$B = \{(x_1|0.7), (x_2|0.8), (x_3|1), (x_4|0)\}.$$

Bu yerda  $0.5 < 0.7, 0.6 < 0.8, 1 = 1, 0 = 0$ . Demak  $A = B$ .

*To'ldiruvchi amali.*  $U$  to'plamdagи ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilar bir-birini

to'ldiradi  $B = \sim A$  yoki  $\sim A = B$ , agarda  $\forall u \in U: \mu_B(u) = 1 - \mu_A(u)$ , bu  $B = \sim A$  yoki  $\sim A = B$  kabi belgilanadi.

*Misol.* Aytaylik,  $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6\}, M = [0,1]$ .

$$A = \{(x_1|0.25), (x_2|0.73), (x_3|1), (x_4|0), (x_5|0), (x_6|0.08)\}.$$

$$B = \{(x_1|0.75), (x_2|0.27), (x_3|0), (x_4|1), (x_5|1), (x_6|0.92)\}.$$

U holda ko'rinish turibdiki,  $\sim A = B$ .

*Kesishish amali.*  $U$  to'plamdagи ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilarining kesishmasi ( $A \cap B$ ) bir vaqtда  $A$  va  $B$  to'plamlarda mavjud elementlardan eng kichiklaridan iborat NoT sifatida  $\forall u \in U: \mu_{A \cap B}(u) = \min(\mu_A(u), \mu_B(u))$  aniqlanadi.

*Misol.*  $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}, M = [0,1]$ .

$$A = \{(x_1|0.4), (x_2|0.8), (x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.3)\},$$

$$B = \{(x_1|0.6), (x_2|0.6), (x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.7)\},$$

$$A \cap B = \{(x_1|0.4), (x_2|0.6), (x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.3)\}$$

*Birlashtirish amali.*  $U$  to'plamdagи ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilarining bitlashmasi ( $A \cup B$ ) bir vaqtда  $A$  va  $B$  to'plamlarda mavjud elementlardan eng kattalaridan iborat NoT sifatida  $\forall u \in U: \mu_{A \cup B}(u) = \max(\mu_A(u), \mu_B(u))$  aniqlanadi.

*Misol.*  $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}, M = [0,1]$ .

$$A = \{(x_1|0.4), (x_2|0.8), (x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.3)\},$$

$$B = \{(x_1|0.6), (x_2|0.6), (x_3|0), (x_4|0), (x_5|0.7)\},$$

$$A \cup B = \{(x_1|0.6), (x_2|0.8), (x_3|0), (x_4|1), (x_5|0.7)\}$$

**Algebraik ko'paytma.**  $U$  to'plamdagı ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilarining  $(A \times B)$  algebraik ko'paytması  $\forall u \in U: \mu_{A \times B}(u) = \mu_A(u) \times \mu_B(u)$  aniqlanadi.

**Noravshan to'plamlarning dekart ko'paytmasi.**  $A_i, i=1,\overline{n}$  NTostilarning dekart ko'paytması - bu

$$A_1 \times A_2 \times \dots \times A_n = \{(<\mu_{x_1}(x_1), \mu_{x_2}(x_2), \dots, \mu_{x_n}(x_n)>)\}$$

to'plami, bu yerda  $x_i \in X_i$ ;

$$\mu_x(x_1, x_2, \dots, x_n) = \min\{\mu_{x_1}(x_1), \mu_{x_2}(x_2), \dots, \mu_{x_n}(x_n)\}.$$

**Misol.**  $X = \{10, 15, 20, 25\}$  va  $Y = \{5, 6, 7\}$  ko'rinishdagi asosiy to'plamlar berilgan. Ushbu to'plamlarda noravshan top'lamoştilari

$$A_1 = \{<1/10>, <0.8/15>, <0.5/20>, <0.3/25>\} \text{ va}$$

$$A_2 = \{<1/5>, <0.5/6>, <0.2/7>\}$$

belgilangan. Ular ustida dekart ko'paytmasi amali bajarish natijasida quyidagi natijalar olinadi:

$$\begin{aligned} A_1 \times A_2 = & \{<1/(10,5)>, <0.8/(15,5)>, <0.5/(20,5)>, <0.3/(25,5)>, \\ & <0.5/(10,6)>, <0.5/(15,6)>, <0.5/(20,6)>, <0.3/(25,6)>, \\ & <0.2/(10,7)>, <0.2/(15,7)>, <0.2/(20,7)>, <0.2/(25,7)>\}; \end{aligned}$$

**NoTlarning ayirmasi.**  $U$  to'plamdagı ikkita  $A$  va  $B$  NTostilarining ayirmasi - bu  $A \setminus B = \{\mu_{A \setminus B}(x) / x\}, x \in X$ , bu yerda  $\mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)}$  ko'rinishdagi to'plam.

**Misol.** Aytaylik,  $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4\}, M = [0,1]$ .

$$A = \{(x_1 | 0.25), (x_2 | 0.73), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}.$$

$$B = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.87), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

$$\overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x)$$

asosan

$$\overline{B} = \overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) = \{(x_1 | 0.65), (x_2 | 0.13), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}$$

$$\text{Endi } A \setminus B = \{<\mu_{A \setminus B}(x) / x\} = \mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)} = \min(\mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)})$$

$$\text{asosan } A \setminus B = \{(x_1 | 0.25), (x_2 | 0.13), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}.$$

**NoTlarning simmetrik ayirmasi.**  $U$  to'plamdagı ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilarining simmetrik ayirmasi - bu  $A \Theta B = \{\mu_{A \Theta B}(x) / x\}, x \in X$ , bu yerda  $\mu_{A \Theta B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x)$  ko'rinishdagi to'plam.

**Misol.** Aytaylik,  $U = \{x_1, x_2, x_3, x_4\}, M = [0,1]$ .

$$A = \{(x_1 | 0.25), (x_2 | 0.73), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}.$$

$$B = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.87), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

$$1) \overline{\mu_B(x)} = 1 - \mu_B(x) \text{ asosan}$$

$$\bar{B} = \overline{\mu_b(x)} = 1 - \mu_b(x) = \{(x_1 | 0.65), (x_2 | 0.13), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}.$$

Endi

$$A \setminus B = \{<\mu_{A \setminus B}(x)> / x\} = \mu_{A \setminus B}(x) = \mu_A(x) \wedge \overline{\mu_B(x)} = \min(\mu_A(x), \overline{\mu_B(x)})$$

$$\text{asosan } \mu_{A \setminus B}(x) = A \setminus B = \{(x_1 | 0.25), (x_2 | 0.13), (x_3 | 1), (x_4 | 0)\}.$$

$$2) \mu_A(x) = 1 - \mu_A(x) \text{ asosan}$$

$$\bar{A} = \overline{\mu_A(x)} = 1 - \mu_A(x) = \{(x_1 | 0.75), (x_2 | 0.27), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

$$\text{Endi } B \setminus A = \{<\mu_{B \setminus A}(x)> / x\} = \mu_{B \setminus A}(x) = \mu_B(x) \wedge \overline{\mu_A(x)} = \min(\mu_B(x), \overline{\mu_A(x)})$$

$$\text{asosan } \mu_{B \setminus A}(x) = B \setminus A = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.27), (x_3 | 0), (x_4 | 1)\}.$$

3)

$$\mu_{A \oplus B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x) \text{ va}$$

$$\mu_A(x) \vee \mu_B(x) = \max(\mu_A(x), \mu_B(x)) \text{ formulalarga asosan}$$

$$\mu_{A \oplus B}(x) = \mu_{A \setminus B}(x) \vee \mu_{B \setminus A}(x) = \{(x_1 | 0.35), (x_2 | 0.27), (x_3 | 1), (x_4 | 1)\}.$$

*Algebraik (diz'yunktivli) yig'indi.* U to'plamdag'i ikkita A va B NTostilarining algebraik (dizyunktivli) yig'indisi  $A \oplus B$  birlashma va kesishma amallari yordamida quyidagicha aniqlanadi:

$$A \oplus B = (A \cap B) = (A \cap B) \cup (A \cap B) = \mu_A(u) + \mu_B(u) - \mu_A(u) \times \mu_B(u).$$

$$\text{Misol. } U = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\},$$

$$A = \{(x_1 | 0.4), (x_2 | 0.8), (x_3 | 0), (x_4 | 1), (x_5 | 0.3)\},$$

$$B = \{(x_1 | 0.6), (x_2 | 0.6), (x_3 | 0), (x_4 | 0), (x_5 | 0.7)\},$$

$$A \oplus B = \{(x_1 | 0.76), (x_2 | 0.92), (x_3 | 0), (x_4 | 1), (x_5 | 0.79)\}.$$

*To'plamlarni noravshan kiritish (qo'shish) amali.*  $A_1$  NoTni  $A_2$  NoTga kiritish darajasi  $\nu(A_1, A_2) = \bigwedge_{x \in X} (\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x))$  qiymat bilan belgilanadi. Bu yerda  $\rightarrow$  (implikatsiya) amali quyidagi:

- Lukasevich mantiqi bo'yicha  $\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = 1 \wedge (1 - \mu_{A_1}(x) + \mu_{A_2}(x));$

- Zade mantiqi bo'yicha -

$$\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = (1 - \mu_{A_1}(x)) \vee (\mu_{A_1}(x) \wedge \mu_{A_2}(x));$$

- Mamdanı mantiqi bo'yicha -

$$\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x) = \mu_{A_1}(x) \wedge \mu_{A_2}(x) = \min(\mu_{A_1}(x), \mu_{A_2}(x));$$

qidalar yordamida belgilanadi.

*Misol.* Asosiy  $X = \{x_1, x_2, x_3, x_4, x_5\}$  to'plamda NTostilari

$$A_1 = \{<0.3/x_1>, <0.6/x_2>, <0.4/x_3>\} \text{ va}$$

$$A_2 = \{<0.8/x_1>, <0.5/x_2>, <0.7/x_3>, <0.6/x_5>\}$$

berilgan bo'lsin. Shu NoTostilarining kiritish va tenglik darajasi qiymatlarini topish talab etiladi.

Lukasevich mantiqidan foydalangan holda quyidagi natijalarni olamiz:

a) kiritish darajasi qiymatlari

$$\begin{aligned} v(A_1, A_2) &= (0 \rightarrow 0.8) \wedge (0.3 \rightarrow 0.5) \wedge (0.6 \rightarrow 0.7) \wedge (0 \rightarrow 0) \wedge (0.4 \rightarrow 0.6) = \\ &= (1 \wedge (1 - 0 + 0.8)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.3 + 0.5)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.6 + 0.7)) \wedge \\ &\quad (1 \wedge (1 - 0 + 0)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.4 + 0.6)) = 1 \wedge 1 \wedge 1 \wedge 1 = 1; \\ v(A_2, A_1) &= (0.8 \rightarrow 0) \wedge (0.5 \rightarrow 0.3) \wedge (0.7 \rightarrow 0.6) \wedge (0 \rightarrow 0) \wedge (0.6 \rightarrow 0.4) = \\ &= (1 \wedge (1 - 0.8 + 0)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.5 + 0.3)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.7 + 0.6)) \wedge \\ &\quad (1 \wedge (1 - 0 + 0)) \wedge (1 \wedge (1 - 0.6 + 0.4)) = 0.2 \wedge 0.8 \wedge 0.9 \wedge 1 \wedge 0.8 = 0.2. \end{aligned}$$

*NoTlarning tengligi amali.*  $A_1$  NoTni  $A_2$  NoTga tenglik darajasi

$\mu(A_1, A_2) = \bigwedge_{x \in X} (\mu_{A_1}(x) \leftrightarrow \mu_{A_2}(x))$  qiymat bilan belgilanadi. Bu yerda  $\leftrightarrow$  tenglik (ekvivalentlik) amali

$\mu_{A_1}(x) \leftrightarrow \mu_{A_2}(x) = (\mu_{A_1}(x) \rightarrow \mu_{A_2}(x)) \wedge (\mu_{A_2}(x) \rightarrow \mu_{A_1}(x))$  yordamida belgilanadi.

$v(A_1, A_2)$  noravshan kiritish ifodani inobatga olgan holda

$\mu(A_1, A_2) = v(A_1, A_2) \wedge v(A_2, A_1)$  hosil qilamiz.

*Misol.* Yuqoridagi misolda Lukasevich mantiqidan foydalangan holda

quyidagi kiritish darajasi va qiymatlari  $v(A_1, A_2) = 1$  va  $v(A_2, A_1) = 0.2$  aniqlangan edi. Bulardan foydalanib endi tenglik darajasi qiymatini aniqlaymiz  $\mu(A_1, A_2) = v(A_1, A_2) \wedge v(A_2, A_1) = 1 \wedge 0.2 = 0.2$ .

*NoTlar orasidagi masofa.* U to'plamdagagi ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilar orasidagi Xemmmimng masofasi

$$d(A, B) = \sum_{i=1}^n |\mu_A(u_i) - \mu_B(u_i)|$$

aniqlanadi. *Misol.*

	$u_1$	$u_2$	$u_3$	$u_4$	$u_5$	$u_6$	$u_7$
$A =$	1	0	0	1	0	1	1
$B =$	0	1	0	0	0	1	1

$$\begin{aligned} d(A, B) &= |1 - 0| + |0 - 1| + |0 - 0| + |1 - 0| + |0 - 0| + |1 - 1| \\ &\quad + |0 - 1| = 1 + 1 + 0 + 1 + 0 + 0 + 1 = 4. \end{aligned}$$

n quvvatga ega bo'lgan chekli  $U$  to'plamdagagi ikkita  $A$  va  $B$  NoTostilar orasidagi Xemmmimng masofasi  $\delta(A, B) = \left(\frac{1}{n}\right) d(A, B)$  aniqlanadi.

*Misol.* Yuqoridagi misoldan  $\delta(A, B) = d(A, B)/7 = 4/7$  hisoblash mumkin.

Masofa tushunchasidan to'plamning *noravshanlik darajasini* o'lchash uchun foydalaniladi. *Noravshanlik o'lchovi* - bu protseduralar, qaror qabul qilish (QQQ), TTOda va h.k. larda sifatni baholash parametri hisoblanadi.

NoTlar uchun noravshanlik darajasi aniqlangan bo'lsa, u holda quyidagi mansublik qoidasi asosida NoTdani ravshan to'plamni hosil qilish mumkin:

$$\mu_A = \begin{cases} 0, & \text{agar } \mu_A(u_i) < 0.5, \\ 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) \geq 0.5. \end{cases}$$

*Misol.*

	$u_1$	$u_2$	$u_3$	$u_4$	$u_5$	$u_6$	$u_7$	$u_8$
Noravshan to'plam	0.2	0.8	0.5	0.3	1	0	0.9	0.4
Ravshan to'plam	$u_1$	$u_2$	$u_3$	$u_4$	$u_5$	$u_6$	$u_7$	$u_8$
	0	1	0	0	1	0	1	0

*$\alpha$ -pog'onali to'plamosti.* Aytaylik  $\alpha \in [0, 1]$ ; A NoTostining  $\alpha$ -pog'onali to'plamosti deb-  $A_\alpha = \{x | \mu_A(x) \geq \alpha\}$  NoTostiga aytildi.

*Misol.* Aytaylik, A NoTosti berilganim bo'lsin.

	$u_1$	$u_2$	$u_3$	$u_4$	$u_5$	$u_6$	$u_7$
$A =$	0.4	0.2	0	0.5	0.3	0.7	0.9

A NoTostiga  $\alpha$ -pog'onali to'plamostini qo'llab  $A_{0.3}$  va  $A_{0.6}$  ravshan to'plamostilariga ega bo'lamiz:

	$u_1$	$u_2$	$u_3$	$u_4$	$u_5$	$u_6$	$u_7$
$A_{0.3} =$	1	0	0	1	1	1	1
$A_{0.6}$	0	0	0	0	0	1	1

## 1.6. Noravshan munosabatlar

Munosabat tushunchasi matematika va SIT, TTO, murakkab tizimlarni

loyihalash, xulosalash, BBni shakllantirish, tahlil, boshqarish, QQQ, modellashtirish kabi masalalarda muhim ahamiyatga ega [19, 31, 48].

Noravshan *implikatsiya* va *kompozitsiya* amallari noaniqlik sharotlarida qarorlarni qabul qilishda noravshan munosabat qiymatlarni topish va noravshan mantiqiy xulosalarni shakllantirish uchun asosiy bo'lib hisoblanadi.

Faraz qilaylik  $E = E_1 x E_2 x \dots E_n x - E_i, i = \overline{1, n}$  universal to'plamlarning dekart ko'paytmasi bo'lsin.  $M = [0, 1]$  - qandaydir MFlar

to`plami. U holda noravshan juftli munosabat o`zining qiymatlarini  $M$  to`plamdan oladigan  $E$  to`plamning  $R$  qism to`plami deb ataladi.

$n = 2$  va  $M = [0,1]$  bo`lganda, masalan  $X = E$ , va  $Y = E$ , to`plamlar o`rtasidagi noravshn munosabat ( $NM$ ) har bir  $(x, y) \in X \times Y$  elementlar juftiga  $\mu_r(x, y) \in [0,1]$  qiymatni muvofiqlatiradigan  $R : (X, Y) = [0,1]$  funksiya bilan ifodalanadi.

$X \times Y$  to`plamda beriladigan  $NM$   $x \in X, y \in Y : x R y$  tavsiflanadi. Bunday munosabat *binar (ikkili) munosabat deb ataladi*. Agar  $X = Y$  bo`lsa, u holda  $R : X \times X \rightarrow [0,1]$   $x$  to`plamda berilgan  $NM$  deb nomlanadi.

NMlar *matritsa* yoki *graf* ko`rinishda beriladi.  $X$  to`plamdagi  $R$  noravshan binar munosabat - bu  $X \times X$  ko`paytmaning  $\mu_r : X \times X \rightarrow [0,1]$  MFsi bilan ifodalanadigan qism to`plamidir. Aniq  $(x_i, x_j) \in X \times X$  o`zgaruvchilar jufti uchun  $\mu_r(x_i, x_j)$  qiymati  $x_i, R x_j$ , munosabat *to`g`irlik darajasini* belgilaydi.

Kichik va cheklangan  $X$  da  $R$  NMning  $M(R)$  *kvadrat matritsa* ko`rinishida berilishi qulay hisoblanadi. Bu matritsaning ustun va satrлari  $x \in X$  elementlar bilan belgilanadi, yani satr  $x_i$ , ustun  $x_i$ , bilan, elementlari esa  $r_{ij} = \mu_r(x_i, x_j)$  qiymat bilan aniqlanadi.


*Misol.*  $X = \{1, 3, 5, 7, 9\}$  ko`rinishdagi asosiy to`plam berilgan. Bu  $X$  to`plamda  $R$  - “Ancha katta” munosabatni topish kerak. Ekspert xulosalari bo`yicha bu munosabatning matritsasi 6.2-rasmdagi ko`rinishda bo`ladi.

Bu munosabat  $G = (X, U)$  *graf ko`rinishda* beriladi. Bu yerda  $X = x_1, x_2, \dots, x_n$  - uchlar to`plami,  $U = \{\langle \mu_r(x_i, x_j) / (x_i, x_j) \rangle\}$ ,  $\mu_r(x_i, x_j) > 0$ ,  $x_i, x_j \in X$  - yo`naltirilgan ( $x_i$  uchdan  $x_j$  uchga) noravshan yoylar to`plami.

	1	3	5	7	9
1	0	0	0	0	0
3	0.2	0	0	0	0
5	0.5	0.1	0	0	0
7	0.8	0.4	0	0	0
9	1	0.8	0.5	0	0

6.2 - rasm.

Misolda keltirilgan  $R$  - “Ancha katta” munosabatni aks etadigan graf 6.3-rasmda keltirilgan.



6.3 - rasm.  $R$  - “ancha katta” munosabatni aks etadigan graf.

**NMning proyeksiyalari.**  $R$  ning birinchi proyeksiysi  $\mu_R^{(1)}(x) = \bigvee_y \mu_R(x, y)$  va ikkinchi proyeksiysi  $\mu_R^{(2)}(x) = \bigwedge_y \mu_R(x, y)$  MF lari bilan aniqlanadi [31, 37, 48]. Birinchi proyeksiyalarning ikkinchi proyeksiysi (yoki teskarisi) NMning global proyeksiysi deb ataladi va  $h(R)$  bilan belgilanadi:

$$h(R) = \bigvee_x \bigvee_y \mu_R(x, y) = \bigvee_y \bigvee_x \mu_R(x, y)$$

*Misol.*  $R$  matritsani beramiz va NMning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalarini hisoblaymiz (6.4-rasm).

	$y_1$	$y_2$	$y_3$	$y_4$	1-proyeksiya
$x_1$	0.3	0.6	0	0.5	0.6
$x_2$	0.7	0.8	0.4	0.1	0.8
$x_3$	1	0.5	0.7	0.6	1
$x_4$	0.8	0.1	0.3	0	0.8
	2-proyeksiya				Global proyeksiya
	1	0.8	0.7	0.6	1

6.4-rasm. NMning proyeksiyalarini hisoblash.

**Ikkita NMning kompozitsiyasi.**  $X \times Y$  dagi  $R_1$  va  $Y \times Z$  dagi  $R_2$  NMlarning kompozitsiya amali  $X \times Z$  da NMni aniqlashga imkon beradi.

**Max-min kompozitsiya.** Aytaylik  $R_1 \subset X \times Y$  va  $R_2 \subset Y \times Z$  bo'lsin.  $R_1$  va  $R_2$  munosabatlarning “max-min” - kompozitsiyasi  $R_1 \circ R_2$  shaklda belgilanadi va quyidagi ifoda bilan aniqlanadi [19, 31, 37, 48]:

$$\mu_{R_1 \circ R_2}(x, z) = \bigvee_y [\mu_{R_1}(x, y) \wedge \mu_{R_2}(y, z)] = \max[\min(\mu_{R_1}(x, y), \mu_{R_2}(y, z))].$$

Bu yerda  $x \in X, y \in Y, z \in Z$ .

*Misol.* Aytaylik  $\mu_{R_1}(x, y), \mu_{R_2}(y, z)$  MFlari chegaralangan  $x \in X, y \in Y, z \in Z$  UTda  $R_1$  va  $R_2$  jadvallar ko'rinishda berilgan bo'lzin.  $R_1$  va  $R_2$  munosabatlarning  $R_1 \circ R_2$  "max-min" - kompozitsiyasini aniqlaymiz (6.7-rasm).

	$y_1$	$y_2$	$y_3$	$y_4$
$x_1$	0.3	0.5	1	0
$x_2$	0.6	0.7	0	0.2
$x_3$	0.8	0	1	0.1

	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$
$y_1$	0.	0.	0	1
$y_2$	9	4		
$y_3$	0.	5	1	0.4
$y_4$	6		0	0.3
$y_5$	0.	4	1	0.7

		$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$
$x_1$		-	-	-	-
$x_2$		-	-	-	-

6.5 - rasm.

6.7-rasmdagi  $R_1$  va  $R_2$  munosabatlarning matritsalar bilan berilgan qiyamatlaridan foydalanib  $R_1 \circ R_2$  kompozitsiya quyidagicha hisoblanadi:

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_1}(y_1, z_1)) = \min(0.3, 0.9) = 0.3;$$

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_2), \mu_{R_1}(y_2, z_1)) = \min(0.5, 0.3) = 0.3;$$

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_3), \mu_{R_1}(y_3, z_1)) = \min(1, 0.6) = 0.6;$$

$$\min(\mu_{R_1}(x_1, y_4), \mu_{R_1}(y_4, z_1)) = \min(0, 0.4) = 0;$$

$$\max[\min(\mu_{R_1}(x_1, y_1), \mu_{R_1}(y_1, z_1))] = \max(0.3, 0.3, 0.6, 0) = 0.6.$$

Xuddi shunday hisoblashlarni amalga oshirish bilan  $R_1 \circ R_2$  "max-min" - kompozitsiyasini qolgan elementlari xam aniqlanadi. Natijalar 6.5 - rasmdagi  $R_1 \circ R_2$  jadvalda keltirilgan.

## 2-§. Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari

Noravshan mantiqiy xulosalash tizimlari ko'psonli NoTlar ilovalarida (ETlar, BBni avtomatik boshqarish tizimlari, TTOga, murakkab tizimlarni loyihalash, NTlar, QQQ tizimlari, tabiiy tilni tushunish va h.k.) muhim ahamiyatga ega.

Bunday tizmlarning ko'pchiligi noravshan dalillar va xulosalardan iborat «Agar . . . , u holda . . . » ko'rinishdagi mantiqiy qoidaga asoslanadi.

QQQ tizimlarida boshqaruv qarorlarining xususiyati va qiymatlari  $R$  munosabatni chiqarishning kompozitsiya qoidasi asosida belgilanadi. Formal ko'rinishda bunday QQQ modeli  $(X, R, Y)$  uchligi bilan beriladi. Bu yerda  $X = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$ ,  $Y = \{y_1, y_2, \dots, y_m\}$  -  $A_i$  kirishlar va  $B_j$  chiqishlar bilan berilgan asosiy to'plamlar,  $R$  - "Kirish - chiqish" NM.

Odatda  $R$  munosabat ekspert tomonidan so'z bilan ifodalangan va keyinchalik formallashtirilgan sifatli axborot asosida quriladi. Ekspert axborotlari "Agar  $A_1$ , u holda  $B_1$ , yoki Agar  $A_2$ , u holda  $B_2$ , ..., yoki Agar  $A_n$ , u holda  $B_n$ " shaklidagi mulohazalar yig'indisi ko'rinishda ifodalanadi. Bu yerda  $A_i, B_j$  - tegishli  $\mu_{A_i}(x), \mu_{B_j}(y), x \in X, y \in Y$  MF'leri bilan beriladigan kirish va chiqishga ega bo'lgan NTlar.  $R_i = \ll \text{Agar } A_i, u \text{ holda } B_i \gg$  qoidasi  $\mu_{R_i \rightarrow B_j}(x, y)$  MF bilan belgilanadi. Uning qiymati yuqorida keltirilgan formula yordamida topiladi. "Yoki" bog'lamasi  $R_i$  qoidalar yig'indisini birlashtiradi va natijada umumlashtirilgan yakuniy  $R$  qoidasi hosil bo'ladi [31, 37, 48]:

$$R = \bigcup_i R_i = \max_i (\min(\mu_{A_i}(x), \mu_{B_i}(y))), i = \overline{1, n}.$$

Agar joriy vaqt uchun tizimning kirish holati aniq  $A'$  qism to'plam bilan belgilangan va umumiyy  $R$  boshqaruv qarori ma'lum bo'lsa, u holda ushbu  $R$  qarorning tizimni kirishiga ta'siri natijasi  $B' = A' \circ R$  chiqarishning kompozitsiya qoidasi yordamida belgilanadi. Bu holatda  $\mu_{B'}(y)$  qiymatlari yuqorida keltirilgan maksminli amali yordamida quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} \mu_{B'}(y) &= \bigvee_x (\mu_A(x) \wedge \mu_R(x, y)) = \bigvee_x (\mu_A(x) \wedge (\mu_{A'}(x) \wedge \mu_B(y))) = \\ &= (\bigvee_x (\mu_A(x) \wedge \mu_{A'}(x))) \wedge \mu_B(y) = \mu_{A \wedge A'}(x) \wedge \mu_B(y) = \delta \wedge \mu_B(y). \end{aligned}$$

Bu yerda  $\delta = \mu_{A \wedge A'}(x)$  - "Agar  $A$ , u holda  $B$ " qoida(implikatsiya)da "Agar  $A$ " va "Agar  $A'$ " mulohazaning to'g'rilik darajasini ko'rsatadi. U foydalanuvchi talablari va qoidalarda beriladigan ma'lumotlar o'rtasidagi muvofiqlik darajasini belgilaydi.

*Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish(NMXCH)*ning bir qancha algoritmlari mavjud [19, 31, 37, 48]. Ular bir-biridan implikatsiya

qoidalaridan foydalanishi bilan farq qiladi. Tegishli aniq qoidani ekspert o'zining mezoniga qarab tanlab oladi.

**Mamdan bo'yicha noravshan xulosa chiqarish.** Faraz qilaylik, quyidagi ikki qoda

$$R_1 : \text{Agar } x \text{ bu } A_1 \text{ va } u \text{ bu } B_1, \text{ u holda } z \text{ bu } C_1;$$

$$R_2 : \text{Agar } x \text{ bu } A_2 \text{ va } u \text{ bu } B_2, \text{ u holda } z \text{ bu } C_2,$$

berilgan bo'lsin, bu yerda:  $x, y$  - kirish o'zgaruvchilar;  $Z$  - chiqish o'zgaruvchi;  $A_1, A_2, B_1, B_2, C_1, C_2$  - kirish va chiqish o'zgaruvchilarning muayyan(aniq) MFlari, yani tegishli MF bilan berilgan noravshan termlari.

Beriladigan  $x_0, y_0$  aniq(ravshan) qiymatlari asosida  $z_0$  ning aniq qiymatini topish kerak.

$R_1$  va  $R_2$  qoidalar uchun tegishli  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$ , to'g'rilik darajalari  $\alpha_1 = \mu_{A_1}(x_0) \wedge \mu_{B_1}(y_0)$ ,  $\alpha_2 = \mu_{A_2}(x_0) \wedge \mu_{B_2}(y_0)$  ifodalar bilan belgilanadi.

NMXCh algoritmi quyidagi protseduralarning bajarilishidan iborat [19, 37]:

1) Aniq (ravshan)  $x_0, y_0$  qiymatlarni fuzzifikatsiyash, yani  $A_1, A_2, B_1$  va  $B_2$  NTlarning  $x_0$  va  $y_0$  aniq qiymatlari uchun tegishli MF qiymatlariga asoslanib,  $\alpha_1$  va  $\alpha_2$ , to'g'rilik darajalarini hisoblash.

2)  $R_1$  va  $R_2$  munosabatlar uchun oraliq -  $\mu_{C_1}(z)$  va  $\mu_{C_2}(z)$  noravshan chiqarishlarni shakllantirish. Bunda implikatsiya amali sifatida minimum (noravshan konyunksiya) amali  $\mu_{C_1}(z) = \alpha_1 \wedge \mu_{C_1}(z)$ ,  $\mu_{C_2}(z) = \alpha_2 \wedge \mu_{C_2}(z)$  qo'llaniladi.

Keyin olingan  $\mu_{C_1}(z)$  va  $\mu_{C_2}(z)$  NTlar, maksimum (noravshan dizyunksiya) amali yordamida birlashtiriladi va yakuniy  $\mu_c(z)$  NMXCh qiymati topiladi:

$$\begin{aligned} \mu_c(z) &= \mu_{C_1}(z) \vee \mu_{C_2}(z) = [\alpha_1 \wedge \mu_{C_1}(z)] \vee [\alpha_2 \wedge \mu_{C_2}(z)] = \\ &= \max[\min(\alpha_1, \mu_{C_1}(z)), \min(\alpha_2, \mu_{C_2}(z))] \end{aligned}$$

3) Noaniq  $\mu_c(z)$  qiymatni, kirish o'zgaruvchining aniq  $x_0, y_0$  qiymatlarga munosib bo'lган, aniq  $z_0$  qiymatga o'zgartiriladi (defuzzifikatsiyalanadi). Buning uchun amalda ikkita, yani sentroidni va maksimum sentroidni topish usullari qo'llaniladi. Tsentroidni topish

usuli uchun  $Z_{TS} = \sum_{j=1}^n \mu_c(z_j) z_j / \sum_{j=1}^n \mu_c(z_j)$  foydalilanadi. Maksimum

tsentroidni topish usuli uchun  $Z_{MM} = \sum_{j=1}^n \frac{z_j}{m}$  ishlataladi.

Defazzifikatsiyalash uchun boshqa usullar ham mavjud, yani maydon markazi, chap(birinchi) maksimum, o'ng(oxirgi) maksimum va b.q.

**Larsen bo'yicha noravshan xulosa chiqarish.** Bu yerda algebraik ko'paytma amali ko'rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo'llaniladi.

Bu holda yechim  $\mu_{c_i}(z) = \alpha_i \cdot \mu_{c_i}(z)$ ,  $\mu_{c_i}(z) = \alpha_i \cdot \mu_{c_i}(z)$  ko'rinishlarda topiladi. Ularni birlashitirish natijasida yakuniy  $\mu_c(z)$  NMXCh qiymati  $\mu_c(z) = [\alpha_1 \cdot \mu_{c_1}(z)] \vee [\alpha_2 \cdot \mu_{c_2}(z)]$  aniqlanadi [31, 37].

**Zade bo'yicha noravshan xulosa chiqarish.** Bu holda maksimin amali ko'rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo'llaniladi. Yechim

$$\mu_{c_i}(z) = (1 - \alpha_i) \vee \mu_{c_i}(z); \quad \mu_{c_r}(z) = (1 - \alpha_r) \vee \mu_{c_r}(z); \\ \mu_c(z) = [(1 - \alpha_1) \vee \mu_{c_1}(z)] \vee [(1 - \alpha_2) \vee \mu_{c_2}(z)]$$

topiladi [19].

**Lukasevich bo'yicha noravshan xulosa chiqarish.** Bu holda Lukasevich qoidasi ko'rinishdagi noravshan implikatsiya amali qo'llaniladi. Yechim quyidagicha topiladi [31]:

$$\mu_c(z) = [1 \wedge (1 - \alpha_i + \mu_{c_i}(z))] \vee [1 \wedge (1 - \alpha_r + \mu_{c_r}(z))]$$

### 3-§. Lingvistik o'zgaruvchilar


**Lingvistik o'zgaruvchi (LO')** noravchan o'zgaruvchlarga nisbatan ancha yuqori tartibli hisoblanadi. Bu shu bilan aniqlanadiki, LO'ning qiymati noravshan hisoblanadi. *Masalan, «sifat»* LO'sining qiymadi «past», «ancha past», «o'rtacha», «yuqoriroq», «yuqori», «ancha yuqori» va h.k. bo'lishi mumkin. Keltirilgan har bir qiymat NoO'ning nomi hisoblanadi. Demak, *LO'ning qiymati* sonli o'zgaruvchi emas, balki tabiiy tildagi yoki formal tildagi *so'z* yoki *gap* hisoblanadi. LO'ning bu xossasi murakkab, odatdagil tabiiy tilda sonli murakkab tavsiflanuvchi tizimlarni va hodisalarini taxminiy tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

*LO' tushunchasi* - bu quyidagi ko'rinishdagi *beshlik*:

$$(A, T(A), U, V, M).$$

Bu yerda:  $A$ -linistik o'zgaruvchi nomi;  $T(A)$ - $A$  o'zgaruvchilarning term-to'plami, yani  $A$  o'zgaruvchining lingistik qiymatlari nomlarining to'plami bo'lib, bu qiymatlarning har biri  $U$  UTdan olingan NoO'ning qiymatlar hisoblanadi;  $U$  - UT bo'lib, LO'ning aniqlanish sohasini (qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarning intervalini) ifodalaydi;  $V$ -sintaktik qoida bo'lib, bu  $A$  o'zgaruvchining qiymatlari nomini hosil qilishni grammatisklar shaklida berish uchun qo'llaniladi;  $M$ -semantik qoida bo'lib, U UTning  $T(A)$  NoTostilarining har bir NoO'sini moslashtirish uchun qo'llaniladi;

*Misol.* Aytaylik bizni o'rabi turgan havo haroratining qiymati quyidagi tushunchalar bilan aniqlansin: «juda sovuq», «sovuk», «salqin», «sovukmas», «issiq», «juda issiq». Har bir tusuncha-qiyamatga qandaydir harorat mos keladi (6.6-rasm).



6.6-rasm. «Harorat» LO'si.

*Misol.* Aytaylik ishlab chiqariladigan  $A$ ="Mahsulot hajmi"ning bahosi NoO'lar tushunchalari- «kam», «o'rtachadan past», «o'rtacha», «o'rtachadan yuqori», «ko'p» yordamida belgilansin. Eng ko'p mahsulot ishlab chiqarish hajmi 20 ming/soat bo'lsin. Bunday bahoni formallashtirish LO'  $A$  = «mahsulotlar hajmi» yordamida amalga oshirilishi mumkin va u quyidagi naborlar bilan xarakterlanadi:

(*Mahsulotlar hajmi*,  $T(A) [0, 20], V, M$ ),

bu yerda  $T(A) = \{«kam», «o'rtachadan past», «o'rtacha», «o'rtachadan yuqori», «ko'p»\}$  -  $A$ ="Mahsulot hajmi" LO'ning term-to'plami,  $U=[0,20]$  - UT bo'lib, LO'ning aniqlanish sohasini (qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarning intervalini) ifodalaydi;  $V$  -  $T(A)$  to'plam elementlarini birma-bir tekshirish protsedurasi;  $M$  - mavjud mahsulot hajmini NoO' qiymatlarni ("kam", "o'rtachadan past" va h.k)

mos qo'yuvchi protsedura, bu protsedura ekspertli so'rov natijasida amalga oshiriladi.

Ta'kidlaymizki, lingvistik mantiqda noravshan xulosalashlarni qurishning bir nechta variantlari mavjud. Yuqorida qarab chiqilgan "max-min" varianti hamma vaqt ham bizning sezgimiz (intuitsiyamiz) bilan mos tushmaydi.


#### 4-§. Ekspert tizimlarda noravshan mantiqning qo'llanilishi

##### 4.1. Noravshan to'plamlarning ekspert tizimlarni qurish nazariyasi bilan bog'liqligi

NoTlar va noravshan mantiq nazariyasi elementlari samarali qo'llaniladigan muhim yo'nalish noravshan ekspert tizim(NET)larning asosi bo'lgan noravshan boshqaruv tizimlarini qurish hisoblanadi.



*Noravshan boshqaruv tizimi (NBT)* - bu noravshan mantiq elementlaridan foydalangan holda ma'lumotlarni tahlil qilishning matematik modellariga asoslangan boshqaruv tizimi hisoblanadi. NBT arxitekturasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: fuzifikatsiya va defuzifikatsiya bloklari, qoidalar bazasi, noravshan xulosa chiqarish mexanizmi (algoritmi). NBT tuzilmasi 6.7-rasmda keltirilgan.




6.7-rasm. NBT sxemasi.

*NBTlarining umumiyl maqsadi* - boshqarish obyekti to'g'risida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga asoslanib QQQ uchun xulosa chiqaradigan odamning fikrlash jarayoniga taqlid qilishdan iborat.

*NET* - bu bilimlarni LO'lar va noravshan qoida(NQ)lar ko'rinishida ishlatajigan hamda yangi bilimlarni olish uchun noravshan

xulosa algoritmlaridan foydalanadigan ETdir. NET tuzilmasi 6.8-rasmda keltirilgan.



6.8-rasm. NET sxemasi.

Murakkab tizimlarni boshqarishda bunday noravshan usullardan muvaffaqiyatli foydalanishning kaliti tizimlarning boshqarish obyekti haqidagi matematik modellar, obyektning xatti-harakatlarini kuzatishning haqiqiy ma'lumotlari va o'rganilayotgan soha mutaxassislari - odamlarning bilimlari kabi asosiy ma'lumotlar manbalaridan foydalanish qobiliyatiga egaligidir.

*NETlarning muhim afzalliklari* - bu chiziqli emasligi, noaniq ma'lumotlardan foydalanish qobiliyati, ekspert xulosalarini olish va qayta ishslash uchun qulaylikni mavjudligi hisoblanadi.

NQlar bazasini shakllantirishda LO'lardan foydalaniladi va ular yordamida quyidagi turdag'i qoidalar tizimini yaratish mumkin:

*AGAR  $x_1$  bu  $A_1$  VA  $x_2$  bu  $A_2$  bo'lsa, U HOLDА  $x_3$  bu  $A_3$  bo'ladi yoki (6.6)*

*AGAR  $x_1$  bu  $A_1$  YOKI  $x_2$  bu  $A_2$  bo'lsa, U HOLDА  $x_3$  bu  $A_3$  bo'ladi bu erda  $x$  - LO'lar; A-NorTlar bo'lib, ular LO'ning asosiy yoki G protseduralari yordamida o'zgartirilgan qiymatlariga mos keladi.*

(6.6) dagi qoidalar shartlari bilan bog'liq bo'lgan  $x_1$  va  $x_2$  o'zgaruvchilar kirish o'zgaruvchilari va  $x_3$  xulosa - chiquvchi LO' deb nomlanadi. NQga misol sifatida (6.6) formuladagi birinchi ifodaga o'xshash tuzilishga ega bo'lgan quyidagi ifodani keltirish mumkin:

<i>AGAR investitsiyalar hajmi</i>	<i>katta</i>	<i>VA to'lov muddati</i>	<i>juda katta</i>
<i>U HOLDA loyihaning jozibadorligi</i>	<i>past</i>		

*Noravshan xulosa chiqarish tizimining vazifasi* - bu qoidalar bazasiga asoslanib kirish o'zgaruvchilarining haqiqiy (ko'pincha aniq sonli) qiymatlari uchun chiqish o'zgaruvchilarining qiymatlarini aniq shaklda yoki NorT shaklida aniqlashdan iborat. Buning uchun qo'yilgan vazifaning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan bir qator noravshan xulosa chiqarish algoritmlari ishlab chiqilgan. Noravshan xulosaning asosiy prinsiplarini birinchi bo'lib ingliz matematigi E. Mamdani tomonidan ishlab chiqilgan.

#### **4.2. Ekspert tizimlarda ishonchlilik koeffitsientlari va dalillarni chamlash**

Har qanday ETning asosi QQQ jarayonini soddalashtirish uchun tuzilgan bilimlar to'plamidir. Ushbu bilimlar dalillar va qoidalar shaklida bo'ladi. ETdagi dalillar va qoidalar har doim ham chin yoki yolg'on bo'lmaydi. Ba'zan dalilning ishonchliligi yoki qoidanining aniqligi haqida qandaydir *ishonchsizlik daroji mavjud bo'ladi*. Agar bu shubha aniq ifodalangan bo'lsa, u "*ishonchlilik koeffitsiyenti*" deb ataladi.

*Ishonchlilik koeffitsienti (IK)* - bu dalil yoki qoida ishonchli yoki haqqoniy deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ehtimollik yoki ishonchlilik darajasini bildiradigan son. Ushbu koeffitsient ET tomonidan chiqarilgan qarorga ishonchlilik darajasini baholash hisoblanadi. Ishonchlilik nazariyasi (yoki ishonchlilik koeffitsientlari nazariyasi) Bayesli mulohazaga alternativ hisoblanadi. Bu nazariyaning asosiy tamoyillari 1975 yilda Buxanan va Shortliff tomonidan taklif qilingan va keyinchalik ular qon infektsiyalarini tashxislash va davolash uchun yaxshilab ishlab chiqilgan.

Standart *statistik usullar* noaniq hodisa (yoki dalil) chin yoki yolg'on bo'lish ehtimoli bo'lgan taxminga asoslanadi. *Ishonchlilik nazariyasi xuddi noravshan mantiq* kabi noaniq ishonchlilik daroji sifatida taqdim etiladi. Har bir *noaniq usulida ikki bosqich mavjud*. *Birinchisi*: ishonchlilik darajasini ifodalash uchun imkoniyat bo'lishi

kerak. *Ikkinchisi*: bilimga asoslangan tizimdan foydalanish jarayonida ishonchlilik darajasini manipulyatsiya qilish (masalan, birlashtirish) kerak.

Ishonchlilik nazariyasi *ishonchlilik koeffitsiyentlaridan* foydalanishga asoslangan. *IKlari* dalillarga (yoki ekspertning bahosiga) asoslangan hodisaga (dalil yoki gipotezaga) ishonchlilikni ifodalaydi. Aqli tizimlarda noaniqlik bilan shug'ullanish uchun ishonchlilik omillaridan foydalanishning bir necha usullari mavjud.

Bu usullardan biri 1 yoki 100 sonlarini mutlaq chin (to'liq ishonch) va 0 ni ishonchli yolg'on uchun foydalanadi. *Ushbu ishonchlilik koeffitsientlari ehtimoliy hisoblanmaydi*. Misol uchun, biz "yomg'ir yog'ishi mumkin bo'lgan 90% imkoniyat bor" deb gapirganimizda, yoki yomg'ir yog'adi (90%) yoki yomg'ir yo'q (10%) bo'ladi. Noehtimolli yondashuvda bilan biz quyidagilarni aytishimiz mumkin: IK yomg'ir=90 yomg'ir yog'ishi mumkin degan ma'noni anglatadi.

Ishonchlilik nazariyasi *ishonchlilik va ishonchsizlik* tushunchalarini taklif qiladi. Ushbu tushunchalar bir-biridan bog'liqmas bo'lib, ehtimollikdagi kabi birlashtirilmasdan, balki ular quyidagi formulaga muvofiq birlashtirilishi mumkin:

$$IK(B,C)=IO'(B,C)-NO'(B,C), \quad (6.7)$$

bunda  $IK(B,C)$  -  $C$  dalillar(hodisalar)ni hisobga olgan holda  $B$  gipoteza(xulosa)ga ishonchlilik koeffitsienti;  $IO'(B,C)$  -  $C$  dalillar berilganda  $B$  gipoteza ishonchlilikning o'lchovi;  $NO'(B,C)$  -  $C$  dalillar berilganda  $B$  gipoteza ishonchsizligining o'lchovi.

$IK(B,C)$  va  $IO'(B,C)$  ehtimollik o'lchovlari hisoblanmaydi.  $IK$  -1 dan

+ 1gacha o'zgaradi:  $IK = -1$  - mutlaq yolg'on va  $IK = +1$  - mutlaq chin; va  $IK = 0$  - to'liq bilmaslik degan ma'noni anglatadi.  $IO'$  va  $NO'$  qiymatlari 0 dan 1 gacha o'zgaradi. IKdan foydalanish ilgari surilgan farazlarni ularning haqiqiyligi darajasiga ko'ra tartibga solish imkonini beradi.

Ishonchlilik nazariyasining yana bir muhim tomoni shundaki, undagi

Ishonchlilik o'lchoblari ekspertlar o'z xulosalarida beradigan ma'lumotlarining baholashlariga mos keladi.

Ushbu usul birinchi marta MYCIN [31] ETda qo'llanilgan. Gipotezalarni tasdiqlash uchun ehtimollik nazariyasidan foydalanadigan Bayes yondashuvidan farqli o'laroq, MYCIN tizimining usuli ekspertlarning amaliy tajribasidan olingan evristik fikrlarga asoslangan.

Agar ekspert ma'lum bir xulosaning ishonchliligi darajasini baholasa, u "aniq", "juda ehtimol", "imkon boricha", "hech narsa aytish mumkin emas" va hokazo kabi noravshan tushunchalardan foydalanadi. MYCIN tizimini ishlab chiquvchilar bu noravshan tushunchalarni -1 dan +1 oraliq'ida o'zgarib turadigan IKlari miqyosida namoyish etishga qaror qilishdi.

Buning uchun ikkita *baholash* kiritildi: *IO'* va *NO'*. *IO'*ni baholash ma'lum bir dalilning chinlik darajasini aks ettiradi va 0 dan +1 gacha bo'lgan qiymatni oladi. *NO'* bahosi ma'lum bir dalilning yolg'on darajasiga to'g'ri keladi va -1 dan 0 gacha bo'lgan qiymatlarni oladi. *IK* tomonidan belgilanadigan *IK*(6.4) ko'rinishdagi farqni ifodalaydi. Agar *IK* = +1 ga teng qiymatga ega bo'lsa, unda dalil chin hisoblanadi. Agar *IK* = -1 bo'lsa, unda dalil yolg'on bo'ladi. IKlarning qiymatlari o'lchovlar shkalasida 6.9-rasmda ko'rsatilgan.


Qoidalar shartlarini tashkil etuvchi dalillar bo'yicha mantiqiy xulosa davomida mantiqiy operatsiyalar amalga oshiriladi. Natijada murakkab mulohazalar hosil bo'ladi va bunda IKlari quyidagi qoidalarga muvofiq hisoblanadi:

$$1) P_1 \text{ и } P_2 \text{ dalillar orasida mantiqiy } BA \text{ bog'lovchisi bo'lganda} \\ IK(P_1 \wedge P_2) = \min(IK(P_1); IK(P_2)); \quad (6.8)$$

$$2) P_1 \text{ и } P_2 \text{ dalillar orasida mantiqiy } YOKI \text{ bog'lovchisi bo'lganda} \\ IK(P_1 \vee P_2) = \max(IK(P_1); IK(P_2)); \quad (6.9)$$

$$3) P_1 \text{ dalilning inkori bo'lganda} \\ \bar{P}_i = 1 - P_i. \quad (6.10)$$

*Alohibda dalillarni chamalash muammosi.* Noravshan mantiqni qo'llashda yana bir muammo - bu alohibda dalillarni chamalash va ularni "NQlarda" foydalanish muammosi hisoblanadi.



6.9 -rasm. Ishonchhlilik koeffitsiyenlari shkalasi.

*Misol.* Aytaylik, bir xil natijaga ega bo'lgan ikkita NQlar mavjud bo'lsin:

- 1 - qoida : AGAR a VA b U HOLDA c; (6.11)
- 2 - qoida : AGAR e YOKI f U HOLDA c.

Shuningdek, a, b, e va f larning IO'lari (chinlik darajasi aniqligi) ma'lum bo'lsin:  $p(a) = 1$ ;  $p(b) = 0.8$ ;  $p(e) = 0.5$ ;  $p(f) = 0.4$ . U holda (6.8) va (6.9) formulalarga asosan (6.11)dagi 1 va 2-qoidalarda c ning IO'lari  $p(c)$  mos ravishda quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$1 - \text{qoidaning IO': } p(c) = \min(1, 0.8) = 0.8; \quad (6.12)$$

$$1 - \text{qoidaning IO': } p(c) = \max(0.5, 0.4) = 0.5.$$

Aniqlangan  $p(c)$  ning qiymatlaridan qaysi birini tanlash kerak yoki ularning o'rtacha arifmetik qiymatini olish kerakmi?

Shunday qilib, IK - bu "qarshimas" va "qarshi" dalillarni chamalshning oddiy usuli hisoblanadi. Ta'kidlaymizki, yuqoridagi formula qarama-qarshi dalillarni ( $IO'$  va  $NO'$  ikkalasi ham katta) ma'lumotlar yetarli bo'limgan holatlardan ajratishga imkon bermaydi ( $IO'$  va  $NO'$  ikkalasi ham kichik), bu esa ba'zan foydali hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlaymizki, IK,  $IO'$  va  $NO'$  lar ehtimollik o'chovlar emas.  $IO'$  va  $NO'$  ehtimollar nazariyasining ba'zi aksiomalariga bo'y sunadi, ammo ular hech qanday populyatsiyaning namunalari emas va shuning uchun ularga statik izoh berib bo'lmaydi. Ular shunchaki gipotezalarni mavjudlik darajasiga ko'ra

tartiblashga imkon beradi.

**Dalillarni chandalash.** Shortliff dalillarni chandalash uchun *aniqlik kiritish* h formulasini taqdim etdi. *Aniqlik kiritish* formularasi yangi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri eski natijalar bilan birlashtirishga imkon beradi. Bu har bir taxmin bilan bog'liq bo'lgan ishonch va ishonchszilik o'lchovlariga ham tegishli. Bunday holda (6.7) formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$IO'(B : C_1, C_2) = IO'(B : C_1) + IO'(B : C_2)(1 - IO'(B : C_1)). \quad (6.13)$$

$C_1$  va  $C_2$  o'rtasidagi vergul  $C_1$  dan keyin  $C_2$  ning kelishini bildiradi. Xuddi shunday tarzda *NO*'ning qiymatlari ham aniqlanadi.

**Aniqlik kiritish formularasi.** (6.13) formula ikkita muhim xususiyatga ega:

1)  $C_1$  va  $C_2$  tartibining ahamiyatsizligini hisobga olganda (6.13) formyla simmetrikdir; 2) Qo'llab-quvvatlovchi dalillar to'planganda *IO'* (yoki *NO'*) aniqlik tomon harakat qiladi.

*Misol.* Yuqoridagi misolda keltirilgan (6.11) qoidalar asosida (6.12) ko'rinishda aniqlangan  $c$  ning alohida *IO'* lari asosida (6.13) formuladan foydalanib (6.11) dagi 1 va 2- qoidalarning birlashmasini aniqlaymiz:

$$IO'[c : 1 - qoida, 2 - qoida] = IO'[c : 1 - qoida] + IO'[c : 2 - qoida] *$$

$$*(1 - IO'[c : 1 - qoida]) = 0,8 + 0,5(1 - 0,8) = 0,9.$$

$$\text{Demak } IO'[c : 1 - qoida, 2 - qoida] = 0,9.$$

Shunday qilib dalillarning birlashtirilgan *IO'* alohida olingan har bir dalilni *IO'*dan yuqori bo'lar ekan. Bu bizning intuitsiyamizga ham mos keladi, chunki bitta va xuddi shu yo'nalishga ishora qiluvchi ko'plab dalillar bir-birini kuchaytiradi. Bunday tashqari 1 va 2-qoidalarning qo'llanilish tartibini o'zgartirish mumkin, ammo bu natijalarga ta'sir qilmaydi.

**Qoidalarning ishonchliligi.** Shortliff sxemasi ma'lumotlar kabi qoidalar ham ishonchsiz bo'lishi mumkinligiga imkon beradi. Bu vaziyatlarning kengroq sinfini tavsiflashga imkon beradi. Bunda har bir qoida "*susayish koeffitsienti (SK)*" bilan ta'minlanadi (0 va 1 orasidagi son) va bu son qoidaning ishonchliligini bildiradi.

U holda ixtiyoriy i-qoidaning  $P_j$  u  $P_k$  dalillari orasida mantiqiy *BA* bog'lovchisi bo'lganda i-qoidaning *SK* bilan ta'minlangandagi *IO'*

$$IO'[c : i - qoida] = IK(P_j \wedge P_k) \times SK_i, \quad (6.14)$$

agarda  $P_j$  и  $P_k$  dalillari orasida mantiqiy YOKI bog'lovchisi bo'lganda i-qoidaning SK bilan ta'minlangandagi IO'

$$IO'[c : i - qoida] = IK(P_j \vee P_k) \times SK_i \quad (6.15)$$

aniqlanadi. Bunda  $IK(P_j \wedge P_k)$  va  $IK(P_j \vee P_k)$  qiymatlari mos ravishda (6.8) va

(6.9) qoidalardan aniqlanadi.

Shunday qilib, agar (6.11) ko'rinishda berilgan misolda 1-qoidani  $SK=0,6$  susayish koeffitsienti va 2-qoidani esa  $SK=0,8$  susayish koeffitsienti bilan ta'minasak, u holda (6.14) va (6.15) formulalarga asosan (6.12) ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$IO'[c : 1 - qoida] = \min(1, 0.8) * 0.6 = 0.48;$$

$$IO'[c : 2 - qoida] = \max(0.5, 0.4) * 0.8 = 0.4.$$

U holda (6.13) aniqlik kiritish formulasini qo'llab 1 va 2-qoidalarn birlashmasidan c xulosani IO' ni aniqlash uchun quyidagini hosil qilamiz:

$$IO'[c : 1 - qoida, 2 - qoida] = IO'[c : 1 - qoida] + IO'[c : 2 - qoida] *$$

$$(1 - IO'[c : 1 - qoida]) = 0,48 + 0,4 (1 - 0,48) = 0,48 + 0,208 = 0,688.$$

Ko'p hollarda 0 dan 1 gacha bo'lgan sondan iborat ishonchlilik chegarasi kiritiladi. Agar ma'lum bir xulosaning IK ushbu sondan kichik bo'lsa, u holda bunday xulosani e'tiborga olmaslik mumkin.

**Xulosa.** Shortliff o'z sxemasini nazariy jihatdan asoslashga urindi, ammo bu unchalik ishonchli emas edi. Biroq Shortliff sxemasi amaliy masalalarda, xususan, MYCIN ETida va unga ergashgan boshqa tizimlarda o'zini yaxshi ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega.

**MYCIN tizimida ishonchlilik koeffitsientlarini aniqlash.** MYCIN tizimida IKlari nafaqat dalillarga, balki qoidalarga ham bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, qoidalarning ishonchsizligini hisobga olish ta'minanadi va ular ko'pincha evristikli mulohazalar asosida shakkantiriladi. Qoidaning ishonchlilik koeffitsientini  $IK_q$  yordamida belgilanadi.  $IK_q$  koeffitsient cnin shartlarda qoida xulosasining chinligi darajasiga mos keladi. Agar old shartlar  $IK_{old} \neq 1$  bilan tavsiflansa, u holda  $IK_{xul}$  xulosa  $IK_{xul} = IK_{old} * IK_q$ , boyicha hisoblanadi

Xulosalash jarayonida bitta xulosa turli qoidalalar bilan tasdiqlanishi mumkin va har bir qoidadagi xulosaning o'zining IK mavjud bo'ladi. Shubhasiz, bir necha qoidalalar bilan tasdiqlangan IK oshishi kerak. Qandaydir xulosa ko'proq dalillarga ega bo'lsa uning ishonchlilik darajasi 1ga yaqinroq bo'ladi. Umuman olganda, ba'zi xulosani qo'llab-

quvvatlash uchun dalillarning kombinatsiyasi *EMYCIN tizimida* ishlataladigan quyidagi formulalarga muvofiq amalga oshiriladi:

$$IK = IK_1 + IK_2 - IK_1 * IK_2, \text{ agar } IK_1 > 0, IK_2 > 0;$$

$$IK = IK_1 + IK_2 + IK_1 * IK_2, \text{ agar } IK_1 < 0, IK_2 < 0;$$

$$IK = \frac{IK_1 + IK_2}{1 - \min(|IK_1|, |IK_2|)}, \text{ agar } IK_1 * IK_2 \leq 0, IK_1 \neq \pm 1, IK_2 \neq \pm 1;$$

$$\text{Agar } IK_1 \neq \pm 1, IK_2 \neq \pm 1, \text{ u holda } IK = 1.$$

Uch yoki undan ortiq qoidalar bilan shakllantirilgan xulosalar *IK* yuqoridaagi formulalarni qo'llash orqali ketma-ket ravishda chiqarilishi mumkin. *IKlari usuli* soddaligi tufayli ushbu usulning *afzalliklarini* aniqlaydigan ishonchsz bilimlarga asoslangan xulosalashni qo'llab-quvvatlaydigan ko'plab tizimlarda keng qo'llaniladi. *Usulning kamchiliklari* nazariy asosning yo'qligi, shuningdek, *IKlarini* tanlashning murakkabligi bilan bog'liq.

*IKlarni aniqlashning umumiy tamoyillari* quyidagicha shakllantiriladi.

1) Barcha shartlarning *IKlari* orasidan mantiqiy operator *VA* tomonidan ajratilgan minimal *IK* tanlanadi.

2) Agar qoida *YOKI* operatororga ega bo'lsa yoki *VA* operator tomonidan ajratilgan qoidalarning barcha shartlari va *YOKI* operator bilan bog'liq barcha shartlardan *IKlari* minimal qiymatga ega bo'lgani tanlanadi.

3) Tanlangan *IKni* qoidalar *IKlariga* ko'paytiriladi.

4) Agar bir xil mantiqiy xulosaga ega bo'lgan bir nechta qoidalar mavjud bo'lsa, u holda olingan barcha *IKlaridan* maksimal miqdorga ega bo'lgani tanlanadi.

Bu tamoilarni misollarda ko'rib chiqamiz.

*Misol.* C mantiqiy xulosaga ega bo'lgan ikkita qoidani ko'rib chiqamiz:

*AGAR A (IK = 0.3 ) VA B (IK = 0.6) U HOLDA C ( U HOLDA = 0.5);*

*AGAR D(IK = 0.4) VA E(IK = 0.7) U HOLDA C (U HOLDA = 0.9).*

Keltirilgan qoidalarda C mantiqiy xulosa uchun IK quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{aligned} IK &= \max((\min(0.3, 0.6) \times 0.5), (\min(0.4, 0.7) \times 0.9)) = \\ &= \max((0.3 \times 0.5), (0.4 \times 0.9)) = \max(0.15, 0.36) = 0.36. \end{aligned}$$

*Misol.* YOKI mantiqiy operatorini qo'llashga misol keltiramiz:

*AGAR A (IK=0.3) VA B (IK=0.6) YOKI D (IK=0.5) BO'LSA,  
U HOLDA C (IK=0.4).*

Ushbu misolda C xulosa uchun IK quyidagicha hisoblanadi:  
 $IK = \max(\min(0.3, 0.6), 0.5) \times 0.4 = \max(0.3, 0.5) \times 0.4 = 0.5 \times 0.4 = 0.2.$

#### 4.3. Gipotezalarning o'xshashlik munosabati

Bayes teoremasining turli manbalardan olingan ma'lumotlarni bog'lash uchun qo'llanilishi haqida to'xtalib o'tamiz [31]. Ushbu yondashuv dalillarning ishonchliliqi asosida raqobatlashadigan gipotezalarning nisbiy ehtimolligini hisoblab chiqadi. Qo'llaniladigan qoida

$$O'M(H:E) = P(E:H) / P(E:H') \quad (6.16)$$

asoslanadi. Bunda o'xshashlik munosabati ( $O'M$ ) aniq  $H$  gipoteza berilganda  $E$  hodisa yoki dalilning  $P(E:H)$  ehtimolini  $H'$  gipotaza yolg'on bo'lganda  $E$  hodisa yoki dalilning  $P(E:H')$  ehtimoliga bo'linmasi kabi aniqlanadi.

Masalan, agar biz medalga ega bo'lgan abiturienlar orasidan kirish imtihonida a'lo baholilar chiqish ehtimolini va boshqa abituriyentlar orasidan ham a'lo baholilar chiqish ehtimolini bilsak, u holda kirish imtihonini a'lo baho bilan topshirgan abituriyentning medal sovrindori ekanligining ehtimolini hisoblashimiz mumkin.

Agarda  $E$  hodisa sodir bo'lganligi ma'lum bo'lsa, u holda ko'rib chiqilayotgan gipoteza inkoniyatlariga anqlik kiritish uchun  $O'M$ dan foydalanish mumkin. [31] ga asosan imkoniyatlar tushunchasidan foydalanib Bayes qoidasini taqdim etamiz. Qandaydir  $X$  hodisa sodir etilganda  $B$  ga qarshi  $A$  ning  $O(A)$  imkoniyatlarini quyidagicha yozish mumkin

$$O(A) = P(A/X) / P(B/X) = P(A/X) / [1 - P(B/X)]. \quad (6.17)$$

(6.17) da  $O = O(A)$  va  $P = P(A/X)$  belgilashlarni kiritib  $O$  va  $P$  orasidagi munosabatlar uchun quyidagi ifodalarni hosil qilamiz

$$O = P / (1 - P); \quad P = O / (1 + O) \quad (6.18)$$

Anqlik kiritishning bayesli sxemasi quyidagi ifodaga keladi

$$O^*(H) = O(H) \times O'M(H:E), \quad (6.19)$$

bu erda  $O(H)$ - H foydasiga talluqli apriorli imkoniyatlar,  $O^*(H)$  -  $O'M$ ga mos ravishda  $E$  hodisa sodir etilganda natijaviy aposterior imkoniyatlar.

Bunday holda turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni oddiy ko'paytirish orqali hisobga olish mumkin. Raqobatbardosh gipotezalar va ular sodir bo'lganligi ma'lum bo'lgan hodisalar uchun apriorli imkoniyatlар berilgan taqdirda aposterior imkoniyatlар va undan keyin ehtimolliklar osongina hisoblab chiqiladi. O'Mlari har gipoteza bo'yicha har bir hodisa qanchalik tez-tez sodir bo'lishini ko'rsatadigan ikki o'chovli jadvaldan olinadi.

*Misol.* 6.3-jadvalda 100 kishining umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan 44 kishi 75 yildan ortiq, qolganlari esa 80 va undan kam yil yashagan va ularning orasida sigaret chekkanlar va chekmaganlar soni ko'rsatilgan.

**6.3-jadval. Insonning umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar.**

Chekishga munosabati	Umr ko'rish davomiyligi > 75 yosh	Umr ko'rish davomiyligi ≤ 75 yosh	Jami
Chekuvchilar	20	33	53
Chekmovchilar	24	23	47
Jami	44	56	100

Bu tanlovdagi 100 nafar insondan 75 yildan ko'p yashaydiganlarning aprior imkoniyatlari

$$O(Uzoq yashagan) = 44/56 = 0.7857 \quad (6.20)$$

aniqlanadi.

O'xshashlik munosabatlari esa quyidagicha aniqlanadi:

$$O'M(Uzoq yashagan : Chekuvchi) = (20/44)/(33/56) = 0.8815; \quad (6.21)$$

$$O'M(Uzoq yashagan : Chekmovchi) = (24/44)/(23/56) = 1.3280.$$

Aytaylik, uzoq umr ko'rish bilan bog'liq bo'lgan yana bir o'zgaruvchi sifatida insonning jinsi ham hisobga olingan bo'lsin (6.4-jadval).

**6.4-jadval. Erkak va ayolning umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar.**

Inson jinsi	Umr ko'rish davomiyligi > 75 yosh	Umr ko'rish davomiyligi ≤ 75 yosh	Jami

Erkaklar	20	36	56
Ayollar	24	20	44
Jami	44	56	100

6.4-jadvaldan ko'rindiki erkaklar uchun O'M

$$O'M(Uzoq yashagan : Erkak) = (20/44)/(36/56) = 0.7071 \quad (6.22)$$

va ayollar uchun O'M

$$O'M(Uzoq yashagan : Ayol) = (24/44)/(20/56) = 1.5273 \quad (6.23)$$

aniqlanadi.

Endi uzoq umr ko'rish uchun (75 yoshdan oshgan) aprior imkoniyatlarning qiymati (6.20) ifodada  $O(Uzoq yashagan) = 0.7857$  bo'lganligini hisobga olib, biz sigaret chekuvchi erkakning uzoq umr ko'rishining aposterior imkoniyatlarini (6.21) va (6.22) ifodalardan foydalanib quyidagicha aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} O'M(Uzoq yashagan) &= O'M(Uzoq yashagan : Chekuvchi) \times \\ &\times O'M(Uzoq yashagan : Erkak) \times O(Uzoq yashagan) = \\ &= 0.8815 \times 0.7071 \times 0.7857 = 0.4857. \end{aligned}$$

Boshlang'ich ehtimol 0.44 bo'lganda bu qiymat 0,3288 ehtimolga mos keladi. Bu ikkita salbiy omilni hisobga olish natijasini bildiradi.

O'Mlari har doim musbat bo'lib,  $O'M > 1$  bo'lsa gipotezalar foydasiga dalillarni ko'rsatadi,  $O'M < 1$  bo'lsa dalillar gipotezalarga qarshi va  $O'M = 1$  bo'lsa dalillar qaralayotgan gipotezaning o'xshashligiga ta'sir qilmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib O'M quyidagi afzalliklarni beradi degan xulosaga kelish mumkin:

- bir nechta ma'lumot manbalarini birlashtirishga ruxsat berish;
- agar dalillar ishonchsiz bo'lsa ularni tuzatish mumkin.

#### 4.4. Ekspert tizimlarida xulosalarning noravshan qoidalari

Mantiqiy xulosalashning NQsi tartiblangan (A, B) juftlikdan iborat bo'lib, bu erda A - X kiruvchi qiymatlar fazosining noravshan qismto'plami

va B - Y chiquvchi qiymatlar fazosining noravshan qismto'plamidir.

Masalan: AGAR narx yuqori VA talab kam bo'lsa,  
 $U \quad HOLDA \quad tovar \quad aylanmasi \quad kam,$

(6.23)

bu erda *narx* va *talab* kirish o'zgaruvchilari; *aylanma* - chiquvchi qiymat; *yugori*, *past* va *kam* - narx, talab va aylanma qiymatlar to'plamlarida mos ravishda aniqlangan mansublik funksiyalari.

Noravshan xulosa chiqarish qoida(NXChQ)lari qoidalar bazasini tashkil qiladi. NETda barcha qoidalar bir vaqtning o'zida ishlaydi va ularning natijaga ta'sir darajasi har xil bo'lishi mumkin.

ETida NXChQlarni qayta ishlash jarayoni 4 bosqichdan iborat:

1. Qoidalarning chap tomonlari IO'sini hisoblash ("agar" va "u holda" o'rtasida) - xulosa qoidalarining chap tomonida ko'rsatilgan kiruvchi qiymatlarning noravshan qismto'plamlarga mansublik darajasini aniqlash.

2. Birinchi bosqichda olingan chin qiymatlarga mos holda xulosa qilish qoidalarining o'ng tomonida ("u holda" dan keyin) ko'rsatilgan noravshan qismto'plamlarni o'zgartirish.

3. O'zgartirilgan noravshan qismto'plamlarni birlashish (superpozitsiyasini hosil qilish).

4. Birlashish natijasini skalarizatsiyalash, ya'ni noravshan qismto'plamlardan skalyar qiymatlarga o'tish.

Har bir qoidaning chap tomonining IO'sini aniqlash uchun NET noravshan qismto'plamlarning MFlarining qiymatlarini kiruvchi o'zgaruvchilarining mos keladigan qiymatlaridan hisoblab chiqadi. Masalan, (6.23) qoida uchun *yugori* noravshan qismto'plamda o'zgaruvchan *narxning* o'ziga xos qiymatining paydo bo'lish darajasi aniqlanadi. Qismto'plamdag'i o'zgaruvchining paydo bo'lishining belgilangan darajasi "narx juda zo'r" predikati chinligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chinlik qiymatlarni hisoblashda mantiqiy amallarni qo'llash mumkin.

Olingan chinlik qiymatidan qoidaning o'ng tomonida ko'rsatilgan NorTni o'zgartirish uchun foydalilanadi. Ushbu o'zgartirishni amalgamoshirish uchun ikkita usuldan biri qo'llaniladi: "minimum" (correlation-min encoding) va "ko'paytirish" (correlation-product encoding). Birinchi usul qoidaning chap tomonini chin qiymati asosida qoidaning o'ng tomonida ko'rsatilgan to'plam uchun mansublik funksiyasini cheklaydi

Barcha qoidalarning chiqish natijalari NET tomonidan alohida hisoblab chiqiladi. Bunday holda ba'zi bir qoidalarning o'ng tomonida bir xil noravshan o'zgaruvchi ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Umumlashtirilgan natijani aniqlash uchun barcha qoidalarni hisobga olish kerak. Shu maqsadda tizim ushbu o'zgaruvchilarining har biri bilan

bog'liq NorTlarning superpozitsiyasini amalga oshiradi. Ushbu operatsiyani xulosa qilish qoidalarini noravshan birlashmasi deb atashadi. Masalan,

*AGAR narx past bo'lsa, U HOLDA talab yuqori bo'ladi,*

*AGAR narx yuqori bo'lsa, U HOLDA talab past bo'ladi*

qoidalarning o'ng tomoni bir xil, ya'ni *talab* o'zgaruvchini o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar bajarilganda olinadigan ikkita noravshan qismto'plam ET tomonidan birlashtirilishi kerak.

"MaxCombination" usuli bo'yicha NorTlarning mansublik funksiyalarining birlashmasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_{\max}(x) = \max \{\mu_i(x); \forall x, i \in [1, n]\} \quad (6.24)$$

Birlashtirishning "SumCombination" usulining mazmuni barcha mansublik funksiyalar qiymatlarini birlashtirishdan iborat

$$\mu_{\sum}(x) = \sum_{i=1}^n \mu_i(x); \forall x, i \in [1, n] \quad (6.25)$$

Xulosa qilish qoidalari bazasini qayta ishlashning yakuniy bosqichi noravshan qiymatlardan o'ziga xos skaler qiymatlarga o'tish hisoblanadi. NorTni bitta qiymatga aylantirish jarayoni "skalarizatsiyalash" yoki "defuzzifikatsiyalash" deb nomланади.

Ko'pincha NorTning mansublik funksiyasining qiymati sifatida "tsentroid defuzzifikatsiyalash usuli" (centroid defuzzification method) ishlatalidi. Uzluksiz va diskret  $\mu(x)$  MFsi holatida  $x_c$  qiymatni aniqlaydigan ifodalar quyidagi ko'rinishga ega

$$x_c = \int x \mu(x) dx / \int \mu(x) dx; \quad x_c = \sum_i x_i \mu_i(x) / \sum_i \mu_i(x). \quad (6.26)$$

Boshqa keng tarqalgan skalarizatsiyalash yondashuvi bu MFlarining maksimal qiymatidan foydalanish (modal defuzzification method) hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, superpozitsiya (birlashtirish) va skalarizatsiya usullarini tanlash NETning istalgan xatti-harakatiga qarab har bir aniq holatda amalga oshiriladi.

### Nazorat savollari

1. NoO' tushunchasi ushlik ko'rinishda qanday beriladi?
2. MF nima va uni qurishning bevosita va bilvosita usullarini keltiring?
3. NoTlar ustida bajariladigan mantiqiy va oddiy amallarni keltiring?
4. NoTdan ravshan to'plamni qanday hosil qilinadi?
5. NM nima va ular matritsa yoki graf ko'rinishda qanday beriladi?

6. NMning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalari qanday aniqlanadi?
7. NMning max-min kompozitsiya qanday ifoda bilan aniqlanadi?
8. Mamdani, Larsen va Zade bo'yicha noravshan xulosa chiqarish qanday amalga oshiriladi?
9. LO' tushunchasi qanday ko'rinishda beriladi?
10. NET nima?
11. NBT arxitekturasining asosiy tarkibiy qismlari qanday?
12. IK, ishonchlilik va noishochlilik o'lchovlari qanday aniqlanadi?
13. Mulohazalarda IKlari qanday qoidalarga muvofiq hisoblanadi?
14. ETlarda noravshan mantiqdan foydalanish xususiyatlari qanday?
15. ETda NXCh qoidalari qayta ishslash jarayonini tushuntiring?

### Nazorat testlari

1. Noravshan to'plam tushunchasini ifodasi to'g'ri ifodalangan javobni ko'rsating?
  - a)  $A\{u, \mu_A(u)\}; u \in U;$
  - b)  $A\{u, \mu_A(u)\}; \mu_A(u) \in U;$
  - c)  $A\{u, \mu_A(u), U\}; A \in U;$
  - e)  $A\{u, \mu_u(A)\}; u \in U.$
2. Mansublik funksiyasi - bu ..... bilan ifodalaniladigan tushunchaga ..... mos bo'lishi darajasining sub'ektiv o'lchovi.
  - a)  $A$  noravshan to'plam;  $u \in U$  elementi;
  - b)  $A$  noravshan to'plam;  $U$  to'plami;
  - c)  $U$  ravshan to'plam;  $u \in U$  elementi;
  - e)  $A$  ravshan to'plam;  $u \in U$  elementi;
3. Mansublik funksiyasini qurishning bevosita usuli ekspertlar tomonidan berilgan qanday baholashga asoslanadi?
  - a)  $\mu_A(U) = \frac{n_1}{m};$
  - b)  $\mu_u(A) = \frac{n_1}{m};$
  - c)  $\mu_A(U) = \frac{2n_1}{m};$
  - e)  $\mu_u(A) = \frac{n_1 + m}{m}.$
4. R munosabatning global proyeksiyasini aniqlovchi ifodani to'g'ri ko'rsating?
  - a)  $H(R) = \bigvee_y \bigwedge_x \mu_R(x, y);$
  - b)  $H(R) = \bigvee_y \bigwedge_x \mu_R(x, y);$
  - c)  $H(R) = \bigwedge_y \bigvee_x \mu_R(x, y);$
  - e)  $H(R) = \bigvee_y \mu_R(x, y);$
5. Lingistik o'zgaruvchi tushunchasining strukturasi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating?
  - a)  $\langle A, T(A), U, V, M \rangle;$
  - b)  $\langle A, T(M), U, V, M \rangle;$
  - c)  $\langle A, T(V), U, V, M \rangle;$
  - e)  $\langle A, T(U), U, V, M \rangle.$

6. .... ekspert tizimi - bu bilimlarni ..... o'zgaruvchilar va ..... qoidalar ko'rinishida ishlataligan hamda yangi bilimlarni olish uchun noravshan xulosa algoritmlaridan foydalanadigan ekspert tizimidir.
- a) Noravshan; lingvistik; noravshan; b) Ravshan; raqamli; noravshan;
  - d) Gibrild; lingvistik; ravshan; e) Dinamik; raqamli; ravshan.
7. Noravshan boshqaruv tizimi arxitekturasining asosiy tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?
- a) fuzzifikatsiya; defuzzifikatsiya; qoidalar bazasi; noravshan xulosa chiqarish mexanizmi;
  - b) fuzzifikatsiya; interpretator; malumotlar bazasi; ravshan xulosa chiqarish mexanizmi;
  - d) defuzifikatsiya; integrallash; identifikatsiya; qoidalar bazasi;
  - e) interpretator; defuzifikatsiya; malumotlar bazasi; ekspert.
8. Ishonchlilik koeffitsientini (IK) aniqlash ifodasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?
- ... a)  $IK(B,C)=IO'(B,C)-NO'(B,C)$ ; b)  $IK(B,C)=IO'(B,C)+NO'(B,C)$ ;
  - d)  $IK(B,C)=IO'(B,C)*NO'(B,C)$ ; e)  $IK(B,C)=NO'(B,C)-IO'(B,C)$ .
9. Oddiy mulohazalardan VA bog'lovchisi yordamida murakkab mulohazalar hosil qilinganda ishonchlilik koeffitsientlari (IK) qaysi ifoda bilan aniqlanadi?
- a)  $IK(P_1 \wedge P_2) = \min(IK(P_1), IK(P_2))$ ;
  - b)  $IK(P_1 \vee P_2) = \min(IO'(P_1), NO'(P_2))$ ;
  - d)  $IK(P_1 \wedge P_2) = \max(IK(P_1), IK(P_2))$ ;
  - e)  $IK(P_1 \vee P_2) = \maxmin(IK(P_1), IK(P_2))$ .
10. Yangi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri eski natijalar bilan birlashtirishga imkon beradigan aniqlik kiritish formulasi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?
- a)  $IO'(B:C_1, C_2) = IO'(B:C_1) + IO'(B:C_2)(1 - IO'(B:C_1))$ ;
  - b)  $IO'(B:C_1, C_2) = IO'(B:C_1) - IO'(B:C_2)(1 - IO'(B:C_1))$ ;
  - d)  $IO'(B:C_1, C_2) = IO'(B:C_1) - IO'(B:C_2)(1 + IO'(B:C_1))$ ;
  - e)  $IO'(B:C_1, C_2) = IO'(B:C_1) + IO'(B:C_2)(1 + IO'(B:C_1))$ .

## Masala va topshiriqlar

1.  $U$  - noravshan to'plamda  $A$ (erkak) va  $B$ (ayol) - noravshan to'plamostilari berilgan bo'l sin.

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0.8), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.3)\}$$

$$B = \{(155|0.2), (160|0.3), (170|1.0), (185|0.6), (190|0.5), (195|0.4)\}$$

Aniqlang:

- 1)  $A \subset B$  yoki  $B \subset A$ ; 2)  $A = B$ ; 3)  $A \cap B$ ; 4)  $A \cup B$ ; 5)  $A \oplus B$ ; 6)  $A * B$ ;
- 7)  $A \cap B \subset A \cup B$ ; 8)  $A \cap B \subset A \cup B$ ; 9)  $A \oplus B \subset A \cup B$ ; 10)  $A \oplus B \subset A \cap B$ ;
- 11)  $\bar{A} \cap B \supset (A \cup B) \cap A$ ; 12)  $A \cap \bar{B} \subset A \cap (A \cup B)$ ; 13)  $(A \oplus B) \cap B \subset A \cup B$ ;
- 14)  $(A \oplus B) \cup A \subset \bar{A} \cap \bar{B}$ ; 15)  $(A * B)(A \oplus B) \cup A \subset \bar{A} \cap \bar{B}$ ; 16)  $A \setminus B \subset A * B$ ;
- 17)  $(A * B) \cup (A \oplus B) \setminus \bar{A} \cap \bar{B}$ ; 18)  $(A * B) \cap (A \oplus B) \setminus \bar{A} \cap \bar{B}$ ; 19)  $A \ominus B \subset A \cap \bar{B}$
- 20)  $((A \cup B) \setminus (\bar{A} \cup (A \ominus B))) \subset (A \oplus B)$ ; 21)  $((A \cap B) \setminus \bar{B} \cup (A \ominus B)) \subset (A * B)$ .

2.  $U$  - noravshan to'plamda  $A$ (erkak) to'plamosti berilgan bo'l sin..

$$U = \{155, 160, 170, 185, 190, 195\}, M = [0,1]$$

$$A = \{(155|0.1), (160|0.2), (170|0), (185|0.5), (190|0.4), (195|0.7)\}$$

Quyidagi  $\alpha$ -дараражали ( $\alpha = A_{0,3}; \alpha = A_{0,6}$ )

$$\mu_A = \begin{cases} 0, & \text{agar } \mu_A(u_i) < \alpha, \\ 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) < \alpha, \\ 0 \text{ yoki } 1, & \text{agar } \mu_A(u_i) = \alpha. \end{cases}$$

qidadan foydalanim noravshan  $A$  to'plamostini ravshan to'plamostiga keltiring.

3.  $X = \{1, 3, 5, 7, 9\}$  ko'rinishdagi asosiy to'plam va ekspert xulosalari bo'yicha bu munosabatning matritsasi quyidagi ko'rinishda berilgan.

	1	3	5	7	9
1	0	0	0	0	0
3	0.3	0	0	0	0
5	0.4	0.2	0	0	0
7	0.6	0.8	0	0	0
9	1	0.6	0.4	0	0

Bu  $X$  to'plamda  $R$  - "Ancha kichik" munosabatni aks ettiradigan graf ko'rnisgda tasvirlang.

4. Quyidagi noravshan qiymatlar to'plami berilgan:

$\#$	$y_1$	$y_2$	$y_3$	$y_4$	$y_5$
$x_1$	0.1	0.2	1	0.4	0.6
$x_2$	0.5	0.7	0.2	0.1	0.8
$x_3$	0.6	0.1	0.3	0.3	0.9
$x_4$	0.4	0.7	0.6	0.3	0
$x_5$	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6
$x_6$	0.6	0.8	0.5	0.7	0.3
$x_7$	0.9	1	0.3	0.5	0.7

Noravshan munosabatlarning birinchi, ikkinchi va global proyeksiyalarini aniqlang.

5.  $R_1:X \times Y$  va  $R_2:Y \times Z$  noravshan munosabatlar matrisa ko'rinishda berilgan:

$R_1:$

$\#$	$y_1$	$y_2$	$y_3$	$y_4$	$y_5$
$x_1$	0.1	0.2	1	0.4	0.6
$x_2$	0.5	0.7	0	0.1	0.8
$x_3$	0.6	0.1	0.3	0	0.9
$x_4$	0.4	0.7	0.6	0.3	0
$x_5$	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6
$x_6$	0.6	0.8	0.5	0.7	0.3
$x_7$	0.9	1	0.3	0.5	0.7

$R_2:$

$\#$	$z_1$	$z_2$	$z_3$	$z_4$	$z_5$
$y_1$	0.1	0.2	1	0.4	0.6
$y_2$	0.5	0.7	0	0.1	0.8
$y_3$	0.6	0.1	0.3	0	0.9
$y_4$	0.4	0.7	0.6	0.3	0
$y_5$	0.3	0.5	0.8	0.4	0.6

"Max-min kompozisiya" amalini qo'llab  $R_1:X \times Y$  va  $R_2:Y \times Z$  noravshan munosabatlardan  $R_1 \circ R_2$  ni toping.

6. Bir xil xulosaga ega bo'lgan quyidagi NQlar berilgan (dalillar uchun IO' qiymati qavs ichida ko'rsatilgan) bo'lsin.

1-qoida. AGAR Davron kompyuterda dastur tuzsa ( $IO'=0,75$ ) VA Davron nazariy fanlarni yoqtirmasa ( $IO'=0,6$ ), U HOLDA Davron informatika ixtisosligini tanlaydi. Bu erda quyidagi belgilashlarni kiritamiz. *P1-dalil*: Davron kompyuterda dastur tuzsa ( $IO'=0,75$ ); *P2-dalil*: Davron nazariy fanlarni yoqtirmasa ( $IO'=0,6$ ); *C xulosa*: Davron informatika ixtisosini tanlaydi.

2-qoida: AGAR Davron aniq fanlar bilan shug'ullanishni yaxshi ko'rsa ( $IO'=0,5$ ) YOKI Davron kompyuterda ishlashni yaxshi ko'rsa ( $IO'=0,7$ ), U HOLDA Davron informatika ixtisosligini tanlaydi. Bu

erda quyidagi belgilashlarni kiritamiz. *P1-dalil*: Davron aniq fanlar bilan shug'ullanishni yaxshi ko'rsa ( $IO' = 0,5$ ); *P2-dalil*: Davron kompyuterda ishlashni yaxshi ko'rsa ( $IO' = 0,7$ ); *C xulosa*: Davron informatika ixtisosligini tanlaydi.

*Talab qilinadi.* 1 va 2 - qoidalarda *P1* va *P2*- dalillar orasida  $IK(P1 \wedge P2)$  va  $IK(P1 \vee P2)$  larni toping hamda 1 va 2 - qoidalarning birlashmasi uchun  $IO'$  ni quyidagi ifodasining qiymatini hisoblang:

$$IO' [\text{informatika: 1-qoida, 2-qoida}] = ?$$

7. Aytaylik, bir xil natijaga ega bo'lgan ikkita NQlar:

1 - qoida : AGAR a VA b U HOLDA c;

2 - qoida : AGAR e YOKI f U HOLDA c;

berilgan hamda a, b, e va f larning  $IO'$ lari:

$$p(a) = 0.8; p(b) = 0.9; p(e) = 0.4; p(f) = 0.5;$$

ma'lum bo'lsin. Shunigdek, 1-qoida SK=0,5 va 2-qoida esa SK=0,6 susayish koeffitsientlari bilan ta'minlangan bo'lsin.

*Talab qilinadi.*

1) 1-qoidani SK=0,6 va 2-qoidani SK=0,8 susayish koeffitsientlari bilan ta'minlab, (6.14) va (6.15) formulalarga asosan 1 va 2-qoidalarning har biri uchun *c* xulosaning  $IO'$ larini aniqlang:

$$IO'[c : 1\text{-qoida}] = ?; IO'[c : 2\text{-qoida}] = ?.$$

2) 1-qoidani SK=0,6 va 2-qoidani SK=0,8 susayish koeffitsientlari bilan ta'minlab hosil qilingan 1- va 2-qoida uchun *c* xulosaning alohida aniqlangan  $IO'$ lari asosida (6.13) formuladan foydalanib 1 va 2-qoidalarning birlashmasi uchun  $IO'$  ni aniqlang:

$$IO'[c : 1\text{-qoida}, 2\text{-qoida}] = ?$$

8. D mantiqiy xulosaga ega bo'lgan uchta qoida berilgan bo'lsin.

1-qoida: AGAR A (IK=0.2) VA B (IK=0.5) VA C (IK=0.8)

U HOLDA D (U HOLDA=0.7);

2-qoida: AGAR K (IK=0.3) VA E (IK=0.7) VA T (IK=0.4)

U HOLDA D (U HOLDA=0.7);

3-qoida: AGAR F (IK=0.4) VA L (IK=0.5) VA U (IK=0.8)

U HOLDA D (U HOLDA=0.9);

Keltirilgan 1-3-qoidalarni birgalikda qo'llab D mantiqiy xulosa uchun IKni hisoblang.

9. Gipotezalarning o'xshashlik munosabatidan foydalanib quyidagi masalani yeching. 6.5-jadvalda 100 kishining umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan 40 kishi 80 yildan ortiq,

qolganlari esa 80 va undan kam yil yashagan va ularning orasida sportchi va spotchimaslar soni ko'rsatilgan.

**6.5-jadval. Insonning umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar.**

Sportga munosabati	Umr ko'rish davomiyligi > 80 yosh	Umr ko'rish davomiyligi ≤ 80 yosh	Jami
Spotchi	22	26	48
Spotchimas	18	34	52
Jami	40	60	100

*Talab qilinadi. 6.5-jadvaldan foydalanib quyidagilarni aniqlang:*

1) 100 nafar insondon 80 yildan ko'p yashaydiganlarning aprior imkoniyatlarini -  $O(Uzoq yashagan) = ?$

2) O'xshashlik munosabatlarini:

$$O'M(Uzoq yashagan : spotchi) = ?$$

$$O'M(Uzoq yashagan : spotchimas) = ?$$

10. Gipotezalarning o'xshashlik munosabatidan foydalanib quyidagi masalani eching. 6.6-jadvalda 100 kishining umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ulardan 40 kishi 80 yildan ortiq, qolganlari esa 80 va undan kam yil yashagan va ularning orasida erkaklar va ayollar soni ko'rsatilgan.

**6.6-jadval. Erkak va ayolning umr ko'rish davomiyligi to'g'risidagi ma'lumotlar.**

Jinsi	Umr ko'rish davomiyligi > 80 yosh	Umr ko'rish davomiyligi ≤ 80 yosh	Jami
Erkaklar	18	36	54
Ayollar	22	24	46
Jami	40	60	100

*Talab etiladi. 6.6-jadvaldan foydalanib quyidagilarni aniqlang:*

1) erkaklar uchun  $O'M(Uzoq yashagan : Erkak) = ?$

2) ayollar uchun  $O'M(Uzoq yashagan : Ayol) = ?$

11. Ikkiti omilni, ya'ni 10-masalada sportga munosabat (6.5-jadval) va 11-masalada insonning jinsi turini (6.6-jadval) hisobga olib, ularning birgalikda sodir etilishining aposterior imkoniyatlarini aniqlang.

1) 9 - masaladagi uzoq umr ko'rish uchun (80 yoshdan oshgan) hisoblanadigan  $O(Uzoq yashagan) = ?$  aprior imkoniyatlarni va  $O'M(Uzoq yashagan : spotchimas) = ?$  hamda 10-masaladagi  $O'M(Uzoq yashagan : Erkak) = ?$  qiymatlarni hisobga olib, sportchimas erkakning uzoq umr ko'rishining aposterior imkoniyatlarini aniqlang:  
 $O'M(Uzoq yashagan) = O'M(Uzoq yashagan : Shug'ullanmovchi) \times$   
 $\times O'M(Uzoq yashagan : Erkak) \times O(Uzoq yashagan) = ?$

2) 9 - masaladagi uzoq umr ko'rish uchun (80 yoshdan oshgan) hisoblanadigan  $O(Uzoq yashagan) = ?$  aprior imkoniyatlarni va  $O'M(Uzoq yashagan : spotchi) = ?$  hamda 10-masaladagi  $O'M(Uzoq yashagan : Erkak) = ?$  qiymatlarni hisobga olib, sportchimas erkakning uzoq umr ko'rishining aposterior imkoniyatlarini aniqlang:  
 $O'M(Uzoq yashagan) = O'M(Uzoq yashagan : Spotchi) \times$   
 $\times O'M(Uzoq yashagan : Erkak) \times O(Uzoq yashagan) = ?$

## 7-BOB. NEYRON TARMOQLAR

### 1-§. Neyron tarmoqlarning asosiy tushunchalari va elementlari

**Asosiy tushunchalar.** Neyron tarmoq(NT)larning o'rganish qobiliyati bo'yicha birinchi tadqiqotlar *Makkolok* va *V. Pitts* tomonidan olib borilgan. Ular tomonidan 1943 yilda "Nerv faoliyatiga talluqli g'oyalarning mantiqiy mulohazalari" ilmiy ishida neyron modeli qurilgan va sun'iy NT(SNT)lari qurishning asosiy qonun-qoidalari shakllantirilgan [8, 11, 31]. 1962-yilda *F.Rozentblatt* tomonidan "*Perseptron*" NT modeli yaratildi [35]. 1970-yillarda tasvirlarning burlishi va mashtabining o'zgarishidan qat'iy nazar, murakkab obyektlarni tanib oluvchi "*Kognitron*" yaratildi [31]. 1982-yilda amerikalik biofizik *Dj. Xopfield* tomonidan *Xopfield* NTlari taklif qilindi [8, 11, 31]. Kiyev Kibernetika institutida 1970-yillardan boshlab stoxastikli NTlar ustida ilmiy-tadqiqotlar olib borildi. 1986 yilda *Dj.Hinton* va uning jamoasi tomonidan "Neyron tarmoq"lar modellari va ularni o'rganish algoritmlari" nomli maqolasi chop etildi [11].




Hozirgi vaqtida Rossiyada neyrotexnologiyalar sohasida Rossiya fanlar akademiyasi qoshida A.I.Galushkin [8] raxbarligidagi neyrokompyuter(NK)lar markazi, Moskva davlat universitetida A.V.Chechkin [11] raxbarligidagi neyrotexnologiyalar ilmiy maktabi va Krasnoyarsk davlat universitetida A.N.Gorban [11] raxbarligidagi neyrotexnologiyalar ilmiy maktablari shakllangan.

Neyrokibernetika sohasidagi ilmiy va amaliy ishlar strukturası 7.1-rasmida keltiilgan [2].

Ajratilgan yo'naliishlardan birinchisi sun'iy neyronlardan NTlarni qurish va qo'llash bilan bog'liq. Ularni dasturiy ifodalash uchun *neyropaket*(NP)lar, fizik ifodalash uchun esa - *neyrokompyuter* (NK)lar yaratiladi. *Neyropaket* deb - NKlar muhitini emulyatsiyalaydigan dasturlar tizimi tushuniladi.

*NPlarni sinflash* [2] ishda taklif qilingan bo'lib, unga asosan *NPlar* quyidagi asosiy sinflarga ajratilgan: 1) Boshqa NPlarni yaratish uchun NPlar (NPlarni qurish uchun asboblar); 2) Universal NPlar. Universallik deganda-turli strukturali va turli o'rganuvchi algoritmlar bilan SNTlarni modellashtirish imkoniyatlari tushuniladi; 3) Murakkab funksionalli va maxsuslashtirilgan vositalar uchun neyronlardan foydalanuvchi maxsuslashtirilgan NP: tasvirlarni ishlash, obyektlarni tanib olishga,

qo'lyozma va bosma simvollarni tanib olishga, nutqlarni tanib olishga, dinamikli tizimlarni boshqarish, moliyaviy tahlil va b.q.; 4) Neyronli ETlar. 5) SNTni genetik o'rGANISH paketlari; 6) SNTdan foydalanuvchi noravshan mantiqiy paketlar; 7) Offisdan foydalanuvchi integrallashgan paketlar.




7.1-rasm. Neyrokibernetika sohasidagi ilmiy va amaliy ishlar strukturasi.

*NPlarga misollar:* OWL (yaratuvchi-Hyper Logic Sof.); Neuro Windows (yaratuvchi -Ward Systems Group); NNet+ (yaratuvchi - Neuro Metric Vision System); Neural Network Toolbox for Matlab

(yaratuvchi -Math Works); NeuroOffice (yaratuvchi -ЗАО «Альфа Систем»).

Neyron bosh miyaning tarkibiy birligi bo'lib, ularni o'zaro harakati axborotni qayta ishlash jarayonida elektr signallarni uzatish va ketma-ket, parallel, kuchaytirish-kamaytirish, nochiziqli qayta o'zgartirish, jamlash kabi qayta o'zgartirishlar yo'li bilan bajariladi. Inson miysi  $10^{10}$ - $10^{11}$  neyronlardan iborat. Ular orasida mavjud bo'lgan aloqalar  $10^{22}$  gacha etishi mumkin. Shuning uchun NTlarni tasvirlash va modellashtirish imkoniyatlari juda katta. Sun'iy neyron modeli biologik neyronning funksional xususiyat va xossalari aks etadi (7.2-rasm).



7.2-rasm. Biologik neyron.

Neyron - elektr faoliylikka ega bo'lgan va organizmni operativ boshqaradigan tirik organizmlar nerv hujayralarining alohida turi hisoblanadi. Neyron tarkibi: *soma (tan)*, *dendritlar* - kirish axborotlarni va *akson* - chiqish axborotlarni uzatadigan o'simtalardan iborat bo'ladi. Har bir neyron faqat bir akson va bir necha dendritlardan iborat. Neyronning chiqish signali (qo'zg'alishi, impulsi) boshqa neyronga nerv birikish (*sinaps*)lar orqali keladi. Bu holatda qo'zg'alish signallari kuchaytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Shuning uchun neyron tanasi kirishiga ikki turdag'i - qo'zg'alishli va tormozlanishli signallar keladi. *Neyron tanasi* - bu signallarni algebraik jamlab, shu jamlangan signal ustida nochiziqli qayta o'zgartirish amalini bajaradi. Jamlangan signal qiymati qandaydir chegaralı qiymatidan oshgan holatda neyron qo'zg'aladi va chiqish signalni boshqa neyronlarga yuboradi.

NT hisoblashlarning matematik asosi - har qanday ko‘p o‘zgaruvchilardan bog‘liq bo‘lgan nochiziqli funksiyani oldindan belgilangan aniqligi bilan chiziqli amal va ketma-ket ulangan bir o‘zgaruvchidan bog‘liq bo‘lgan nochiziqli funksiyalar yordamida approksimatsiyalash (ifodalash) qoidasi bo‘ladi.

NTli hisoblashlarning asosiy xususiyatlari: a) *konneksiyanistlik* - axborotni va qayta ishlash algoritmlarni eslash sifatida neyronlar orasidagi o‘lchangan bog‘lanishlardan foydalanish; b) *o‘rgatish* - masalalarni berilgan sinfiga NTlarni sozlash jarayonida “dasturlash” funksiyani bajarish. Mazkur xususiyatlar NTlarni universallik, ommaviy parallelilik va golografiklik (tuzilmaning qisman buzilishida ishlash jarayonini saqlash) xossalalar bilan ta’minlaydi.

NT hisoblashlarning *afzalligi* quydagi holatlarda ko‘rinadi:

- masalalarni matematik usullar yordamida formallashtirish mumkin bo‘lmaganda;
- mavjud formallashtiriladigan masalani yechish uchun matematik apparati mavjud bo‘lmaganda;

•formallashtiriladigan masalani yechishning matematik apparati juda katta resurs(vaqt, texnika, energiya va boshqa)larni talab qilganda.

*NT - ma’lumotlar oqimini tahlil qilib, undagi qonuniyatlarini o‘rganib, o‘z ishini takomillashtirish xususiyatiga ega bo‘lgan algoritmlar to‘plamining umumiyl nomlanishi.*

NTli texnologiya quyidagi ikki xususiyatdan iborat:

- ta’lim olish xususiyati, ya’ni aniq misollar orqali bilimini oshirish;

- yangi vaziyatlarni tushunib olish yoki bashoratlash xususiyati.



NT texnologiyasini *qo’llash quyidagi bosqichlarga* binoan bajariladi:

1. *Muammoni aniq ta’riflash.* Bu yerda biz olishimiz zarur bo‘lgan natijani aniq tasavvur qilishimiz shart. Masalan, obligatsilardan olinadigan foydani grafigi: investitsion loyihani maqbulli ko‘rsatkichi.

2. *Boshlang‘ich ma’lumotlarni aniqlash va tayyorlash.* Bu yerda jarayonni tasvirlovchi zaruriy aniq va to‘liq ma’lumotlarni to‘plash ko‘zda tutiladi. Shu bois ushbu bosqichda o‘rganiladigan muammo sohasi bo‘yicha mutaxassis jalg qilinishi shart.

3. *Tizimga ma’lumotlarni kiritish, testdan o‘tkazish.* Ushbu bosqichdan asosiy maqsad - asosiy vaziyatlarni tashkillashtirish va ma’lumotlarni ushbu vaziyatlar bo‘yicha taqsimlash.


**Neyron tarmoqlarning elementlari.** Neyroinformatikada algoritmlar va qurilmalarni tavsiflash uchun maxsus "sxemotexnikalar" shakllantirilgan bo'lib, ulardag'i elementlar qurilmalar: summatorlar, sinapslar, neyronlar va boshqalar masalalarni yechish uchun tarmoqlarda birlashgan bo'ladi. Neyrotizimlarning eng muhim elementlaridan biri - bu *adaptivli (moslashuvchan) summator* hisoblanadi. Adaptivli summator  $x$  kirish signalini vektorini  $\alpha$  parametrlar vektoriga skalyar ko'paytmasini hisoblaydi (7.3-rasm). Uni adaptiv deb atashining boisi - unda  $\alpha$  parametrlarga moslashuvchi bektorning mavjudligidir. Ko'pchilik masalalarda chiqish signallarining chiziqli birjinslimas funksiyalariga ega bo'lish foydali hisoblanadi. Uni hisoblashni ham  $0$ -li kirishda doimiy bitta signaldan olinadigan ( $n+1$ ) kirishdan iborat adaptivli summator yordamida tasvirlash mumkin (7.4-rasm).




7.3.-rasm. *Adaptivli summator.*

7.4.-rasm. *Birjinslimas adaptivli summator.*

*Signalni chiziqsiz o'zgartirkich* 7.5-rasmida tasvirlangan. U skalyarli  $x$  kirish signalini oladi va uni  $\varphi(x)$  fumksiyaga aylantiradi.





7.5-rasm. *Signalni chiziqlimas o'zgartirkich.*



7.6.-rasm. *Shoxlash nuqtasi.*

*Shoxlash nuqtasi* bitta signalni bir nechta manzillarga tarqatish uchun hizmat qiladi (7.6-rasm). U skalyarli  $x$  kirish signalini oladi va uni o'zining barcha chiqishlariga uzatadi. Standartli formal neyron kirish summatori, chiziqsiz o'zgartirkich va chiqishdagi shoxlash nuqtalaridan iborat bo'ladi (7.7-rasm).



7.7-rasm. Formal neyron.

7.8-rasm. Neyronga misol.

7.8-rasmida quyidagi belgilashlardan foydalilanilgan:

$x$  - neyronning kirish signallar vektori;  $\alpha$  - neyronning sinaptikli vaznlari vektori;  $\Sigma$  - neyronning kirish sigallari summatori;  $p = (\alpha, x)$  - kiruvchi summatorning chiquvchi signali;  $\sigma$  - funksional o'zgartkich;  $y$  - neyronning chiquvchi signali.

*Chiziqli aloqa-sinaps*-summatoridan alohida uchramaydi, lekin ba'zi bir fikrlashlarda bu elementni aloxida ajratish qulay hisoblanadi (7.9-rasm). Agar sinapsning kirish signalini  $x$ , sinaptikli vaznni esa  $\alpha$  yordamida belgilasak, u holda sinapsning chiquvchi signali  $\alpha x$  ga teng bo'ladi. Aloqalarni faqat kirish signallari summatoriga emas, balki shoxlash nuqtasiga ham ulash foydalali bo'lishi mumkin.

$$x \xrightarrow{\alpha} \alpha x$$

Natijada adaptivli summatorga ikkiyoqlama va "chiqishli yulduz" deb nomlanuvchi elementni hosil qilamiz. Uning chiqish aloqalari signalni o'zining vazniga ko'paytirishdan hosil bo'ladi.


Demak, NTlarni hosil qilidigan asosiy elementlarga tavsif berildi.

## 2-§. Neyron tarmoqlar arxitekturasi

Endi NTlarni qanday qilib qurish masalasini qaraymiz. NTlarni qurish uchun bir qancha standart arxitekturalardan foydalilanadi va ulardan ortiqchasini olib tashlash yoki ulariga qo'shish yo'li bilan ko'plab foydalilanadigan tarmoqlar quriladi.

NTlar to'plamida ikkita bazaviy arxitekturalarni ajratish mumkin: *qatlamlari* va *tolabog'langan* tarmoqlar.

**Qatlamlı tarmoqlar.** Bu holda neyronlar bir nechta qatlamlarda joylashdi (7.10-rasm).



7.10-rasm. Qatlamlı tarmoqlar.

Birinchi qatlamdagi neyronlar kirish signallarini qabul qiladi, ularni almashtiradi va shoxlash nuqtalari yordamida ikkinchi qatlam neyronlariga uzatadi. Undan keyin ikkinchi qatlam almashtirilgan signallarni qabul qiladi va shoxlash nuqtalari yordamida uchinchi qatlam neyronlariga uzatadi va h.k. k-qatlampacha davom ettililadi. Natijada k-qatlamda izohlovchiga va foydalanuvchiga chiqish signallari beriladi. Agar teskarisi oldindan kelishib olinmagan bo'lsa, u holda har bir  $i$ -qatlamning chiquvchi signali barcha  $(i+1)$ -neyronlarning kirishiga uzatiladi. Neyronlar soni har bir qatlamda ixtiyoriy bo'lishi mumkin va boshqa qatlamdagi neyronlar soni bilan oldindan hech qanday bo'g'liq emas. *Kirish signallarini uzatishning standart uslubu*-bu birinchi qatlamdagi barcha neyronlarning kirish signallarini qabul qilishi hisoblanadi. Bunda har bir qatlam o'z nomiga ega: *birinchisi-kiruvchi, ikkinchisi yashirin, uchinchisi-chiquvchi* qatlamlardan iborat bo'ladi.

**To'labog'langan tarmoqlar.** Har bir neyron o'zi bilan birgalikda chiquvchi signallarini qolgan neyronlarga uzatadi. *Tarmoqlarning chiquvchi signallari* - barcha signallar yoki tarmoqlarning bir nechta taktlarining ishlashi natijasida hosil bo'lgan ba'zi bir chiquvchi signallardan iborat bo'lishi mumkin. Bunda barcha kirish signallari barcha neyronlarga uzatiladi.

**To'labo'g'langan tarmoqlar** uchun neyronning kirish summatori ikkiga tarqaladi: *birinchisi* - tarmoqlarning kirish signallarining chiziqli funksiyasini hisoblaydi, *ikkinchisi esa* - oldingi qadamda olingan boshqa neyronlarning chiquvchi signallarining chiziqli funksiyasini hisoblaydi.

Summatorning chiquvchi signalini almashtiruvchi  $\phi$ - chiziqlimas ozgartirichning neyronlarni faollashtiruvchi funksiyasi (xarakteristikali

funksiyasi) tarmoqlarning barcha neyronlari uchun bir xil bo'lishi mumkin (7.7-rasmga qarang). Bu holda tarmoq *birjinsli* deyiladi. Agarda φ - chiziqlimas o'zgartkich qiymatlari neyrondan neyronga o'tganda o'zgaradigan yana bitta yoki bir nechta parametrlardan bog'liq bo'lsa, u holda bunday tarmoq *birjinslimas* tarmoq deb ataladi.

To'labog'langan va qatlamlili tarmoqlar o'rtasidagi muhim farq mavjud boladi, qachonki taktlar sonining ishlashi oldindan chegaralanmagan bo'lsa. *Qatlamlili tarmoqda* taktlar sonining ishlashi oldindan chegaralangan, *to'labog'langan tarmoqda* esa - chegaralanmagan bo'ladi. Shuning uchun qatlamlili tarmoq to'labog'langan tarmoqning xususiy xoli hisoblanadi.

### **3-§. Neyron tarmoqlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning umumiyligi sxemasi va uslubiy jihatlari**

***NTlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning umumiyligi sxemasi.*** NTlarni obyekt(timsol)larni tanib olishga o'rgatish uchun obyektlardan iborat *o'rgatuvchi tanlov* (*O'T*) zarur bo'ladi. Har bir obyekt kiruvchi parametrlar tasvirlanadi va oldindan ma'lun bo'lgan javoblar bilan beriladi. Masalan, tibbiy tashxislash masalasida kiruvchi parametrlar sifatida bemorning tibbiy xususiyatlaridan foydalanilsa, oldindan ma'lum bo'lgan javob sifatida unga qoyiladigan diagnoz hisoblanadi.

***NTlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning umumiyligi sxemasini qaraymiz.***

1. O'Tdan joriy (boshida birinchi) obyekt olinadi va uning kiruvchi parametrlari o'rgatuvchi NTlarning kiruvchi sinapslariga uzatiladi. Odatda obyektning har bir kiruvchi parametri unga mos kiruvchi sinapsga uzatiladi.

2. NT berilgan sondagi taktlarning bajarilishini amalga oshiradi va kiruvchi signallarning vektori neyronlar o'rtasidagi bog'lanishlar bo'yicha tarqaladi.

3. Neyronlar yordamida hosil qilingan chiquvchi signallar o'lchanadi.

4. Hosil qilingan signallarni izohlash amalga oshiriladi va tarmoq yordamida obyektida mavjud bo'lgan javobning talab etilayotgan javob bilan farqli tomonlarini xarakterlaydigan baho hisoblanadi. Bu baho mos funksiyalar baholari yordamida hisoblanadi. Baho qancha kichik bo'lsa, u holda tarmoq yordamida olingan javob talab qilingan javobga

shuncha yaqin bo'ladi. Agar baho nolga teng bo'lsa, u holda oldindan ma'lum bo'lgan javobga erishildi deb hisoblanadi.

5. Agar obyekt bahosi nolga teng bo'lsa, u holda hech qanday ish amalga oshirilmaydi. Aks holda baholar asosida aloqalar matritsasining har bir sinaptikli vazni uchun tuzatish koeffitsiyentlari hisoblanadi, undan keyin esa sinaptikl vaznlarni moslashtirish amalga oshiriladi (teskari ishslash amalga oshiriladi). Tarmoqlarning vaznlarini bunday to'g'rilash esa-tarmoqlarni obyektni tanib olishga o'rgatish deb ataladi.

6. Navbatdagi obyekt olinadi va yordagi qadamlardagi amallar takrorlanadi. O'rgatuvchu tanlovnning birinchi obyektdan oxirgi obyektigacha barcha obyektlarni tekshirish tarmoqni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning bitta sikli deb ataladi.

Siklning bajarilishida har bir obyekt o'zining bahosiga ega bo'ladi. Bundan tashqari O'Tdagi barcha obyektlar to'plamining yig'indi bahosi hisoblanadi. Agarda siklning bir nechta qadamidan keyin obyektlar to'plamining yig'indi bahosi nolga teng bo'lsa, u holda tarmoq yordamida o'rgatish jarayoni to'xtaydi, aks holda sikllar takrorlanadi.

To'liq o'rgatishga erishish uchun o'rgatish sikllarining soni ko'plab faktorlarga bog'liq bo'ladi. Bu faktorlarga O'Tning hajmi, kiruvchi parametrarning soni, obyektning ko'rinishi, NTlar turi va parametrlari hamda tarmoqlar nomlanganda ushbu tarmoqlarda vaznlarning tavakkal joylashishi kiradi.

***NTlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning uslubiy jihatlari.***  
Ba'zi hollarda shunday holatlar uchraydiki, bunda tarmoq obyektni tanib olishga o'rgata olmaydi. Bu shunday holatda ro'y beradiki, qachonki o'rgatishning qandaydir pog'onasida o'rgatuvchi parametrlar va natijalar o'rtasidagi qonuniylikni bundan keyin izlash imkoniyatlari mumkin bo'lmay qoladi. Masalan, oddiy holatda tarmoqga bir hil parametrlarga ega bo'lgan turli sinflarga tegishli ikkta obyekt yoki turli javov qiymatiga ega bo'lgan ikkita obyekt berilishi mumkin. Korinib turibdiki, bu holda ikkita obyekt fazoning bitta nuqtasiga tushadi, shuning uchun ularni bir-biridan ajratish mumkin bo'lmaydi va o'rgatish jarayoni to'xtaydi. NTlarni boshqaruvchi dastur o'rgatish jarayonining to'xtaganligi haqida signal beradi va bundan keyin o'rgatish jarayoni mumkin emasligini ko'rsatadi. Bu holatda NTlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatuvchi mutaxassisning vazifasi bunday holatlarning oldini olishdan iborat, ya'ni bunday holat ro'y bermasligi

uchun u masalani qat'iy qo'yishi va O'Tni sinchkovlik bilan nazorat qilishi talab etiladi.

NTlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishda yana bir muhim jihatni e'tiborga olish zarur. O'rgatish yutug'i umuman ko'p hollarda tarmoqlardagi neyronlar soniga yoki aniqrog'i tarmoqlar soniga bog'liq. Chunonchi, tamoqlardagi "tajriba" tarmoqlarning vaznli koeffitsiyentlarida saqlanadi. Nazariy jihatdan neyronlar va tarmoqlar sonini cheksiz ko'paytirish natijasida hammavaqt berilgan O'Tda NTlarni to'liq o'rgatishga erishish mumkin. Bu holda eng muhim masala o'rgatuvchi NTlarning nafaqat O'Tdagi obyektlarni, balkim O'Tga kirmagan yangi obyektlarni ham yaxshi tanib olishi eng muhim masala hisoblanadi.

#### **4-§. Neyron tarmoqlar yordamida yechiladigan asosiy masalalar**

*NTlar - TTO*, ma'lumotlarni ishlash, timsollardagi ma'lumotlarni to'ldirish, assosiativli qidiruv, sinflash, optimallashtirish, bashoratlash, tashxis qo'yish, signallarni ishlash, jarayonlarni boshqarish, ma'lumotlarni segmentlash, ma'lumotlarni siqish, murakkab jarayonlarni boshqarish, mashinali ko'rish, nutqlarni tanish kabi sohalarga qo'llanilmoqda.

Quyida keltiriladigan predmet sohalarining har birida NTlar uchun masalaning qo'yilishini aniqlashtirish mumkin. Hozirgi kunda bunday masalalarni yechishning muvaffaqiyatli amaliy tadbiqiyoq sohalarini birma-bar qarab chiqamiz.

*Iqtisod va biznes*. Bozorlar va banklarning sinishini oldindan aytish, avtomatik diling, kreditlarni qaytarmaslikning oqibatini baholash, ko'chmas mulk narxini baholash, avtomatik reytinglash, buyum va pulli oqimlarni optimallashtirish, chek va shakllarni hisoblashni avtomatlashtirish kabi masalalarni yechishda qo'llaniladi. Misol: yirik savdo shaxobchalarida ma'lumotlarning katta oqimimini tahlil qiluvchi NTli vosita (<http://www.retek.com>).

*Tibbiyot*. Bu sohada tibbiy tasvirlarni ishlash, bemorlarning holatini monitoring qilish, tashxis qo'yish, davolashni samaradorligini faktotli tahlil qilish, davolashni nazorat qilish, tibbiy asboblar shovqin(xatolik)lari ko'rsatkichlarini tozalash kabi masalalar yechiladi. Misol: ko'z qatlami tomirlaridagi melonomlarni oldindan tashhislash tizimi (<http://www.chat.ru/neurocon>).

*Avionika.* Bu sohada o'qitilgan avtopilotlar, radar signallarini tanib olishda, kuchli zarar ko'rgan samolyotni adaptiv boshqaruvi, uchuvchisiz uchish apparatlari - dronlarni boshqarish. Misol: Samolyotning qanday shikastlanish turidan qat'iy nazar real vaqt rejimida uchishni avtomatik rejimga o'tkazish.

*Aloqa.* Bu sohada bideoaxborotlarni siqish, tezkor kodlash-dekodlash, sotkali tarmoqlarni va paketlarni marshrutlash sxemalarini optimallashtirish kabi masalalar yechiladi. Misol: ranglarni 240:1 darajada qisish orqali kodlashtirishning maxsus sxemasini (<http://www.ee.duke.edu/cec/JPL/paper.html>).

*Internet.* Bu sohada axborotlarni assotsiativ qidiruv, elektron kotibalar va tarmoqlardan foydalanuvchi agentlar, tizimlarda axborotlarni filtrlash, manzilli reklama, elektron savdo uchun manzilli marketing kabi masalalar yechiladi. Misol: alohida neyroagentlar ko'rinishidagi foydalanuvchilarning kasbiga qiziqishlarini va foydalanishlarini ta'minlovchi AGENTWARE tizimi (neyrokotibalar) (<http://www.agentware.com>).

*Siyosiy texnologiyalar.* Bu sohada sotsiologik so'rovlarni tahlil qilish va umumlashtirish, reytinglarni tashhislashni oldindan aytish, muhim faktorlarni ajratib olish, aholining sotsial dinamikasini vizuallashtirish kabi masalalar yechiladi.

*Xavfsizlik va qo'riqlash tizimlari.* Ushbu sohada shaxsni anglab olish, shaxs ovozini va yuzini tanib olish, avtombillarning tartib raqamini tanib olish, aerokosmik rasmlarni tahlil qilish, axborot oqimlarni monitoring qilish, yasama(imzo, rasm, so'z, chek va h.k.)larni aniqlash kabi masalalar yechiladi. Misol: yasama cheklarni aniqlash tizimi (Tearing up the Rules, Banking Technology, noyabr 1993).

*Axborotlarni kiritish va ishslash.* Ushbu sohada qo'lyozma cheklarni ishslash, imzolarni, barmoq izlarini va ovozlarni aniqlash, kompyuterga iqtisodiy va soliq xujjatlarini kiritish kabi masalalar yechiladi. Misol: to'lov xujjatlarini va soliq deklaratsiyalarini avtomatik kiritish va anglab olish uchun Flex Read seriyali paketlar.

*Ishlab-chiqarishni avtomatlashtirish.* Ishlab-chiqarish jarayonlarining holatini optimallashtirish, mahsulot sifatini nazorat qilish, ko'p o'lchovli dispatcherli ma'lumotlarni monitoringlash va vizuallashtirish, favqulodda vaziyatlar haqida xabar berish.

*Robototexnikada:* robot oldindagi ko'rish maydonini, obyektlarni va

to'siqlarni tanib olishgai, harakat yo'lini qurish; manipulyatorni nazorat qilish, muvozanatni saqlash.

*Geologik o'rghanish(razvedka)da:* seysmik ma'lumotlarni tahlil qilish, foydali qazilmalarni qidirishning assotsiativ uslublari, qazilma boylik manbalarini baholash.

NTlarning yuqorida keltirilgan sohalarda qo'llanilishining to'liq tavsiflari [7, 8, 11, 26, 27, 29, 31, 35, 36] ishlarda to'liq keltirilgan. Haqiqatan ham NTlar - ma'lumotlarga ishlov berish va tahlil qilishning turli xil masalalarini yechish uchun kuchli va moslashuvchan vositalar majmuidir. Bunga quyidagilar kiradi:

1) *Sinflash.* Bunday masalalarda obyektning belgilar vektori  $X_n = \{x_1, x_2, \dots, x_n\}$  beriladi. Bular asosida har bir obyektni o'zaro kesishmaydigan  $C_1, C_2, \dots, C_m$  ( $C_i \cap C_j = \emptyset, i \neq j, i, j = \overline{1, m}$ ) sinflardan biriga, ya'ni  $C_i$  sinfga kiritish kerak. Masalan, uchadigan obyektlarning belgilari qanotlar, dvigatel, patlar va h.k. bo'lishi mumkin. Bunday obyektlarning sinflari: Samolyot, Qush, Raketa va h.k. kabilar bo'lishi mumkin. Belgilarning majmuisi kirish vektorini, sinflar majmuisi esa - chiqish vektorini tashkil qiladi. Mazkur masalani yechish uchun  $n$  ta kirish va  $m$  ta chiqish neyronlardan iborat bo'lgan perseptron turdag'i NT quriladi. Aniq belgilar vektori kirishga berilganda NTning chiqish qatlamida eng yuqori darajadagi faol neyron tanlanadi. Bu neyron beriladigan belgilarga muvofiq bo'lgan sinfni belgilaydi. Masala to'g'ri yechilishi uchun NTni o'rgatish kerak. O'rgatish jarayoni(O'J)da tadqiq qilinayotgan obyektlarning o'zgaruvchan bog'lanishli koeffitsiyentlarining qiymatlari belgilar va sinflarning aniq qiymatlariga munosib etib moslanadi.

2) *Klasterlash.* Bu masalalarda belgilar majmuisi asosida obyektlar alohida klaster(sinf)larga ajratiladi. Bitta sinfga kiradigan obyektlar belgilar majmuisi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lishi kerak. Turli sinflarga kiradigan obyektlar esa belgilar majmuisi bo'yicha bir-biridan uzoq bo'lishi kerak. Bunday masalani yechish uchun dastlabki belgilar majmuasida qatnashadigan belgilar soniga teng bo'lgan kirish va sinflar soniga teng bo'lgan chiqish neyronlardan iborat bo'lgan NT quriladi. Bunday NTning vaznli koeffitsiyent qiymatlari o'rgatish jarayonda topiladi.

3) *Approksimatsiyalash.* Bunday masalada izlangan  $F(x)$  funksiyaga to'g'ri keladigan va  $d[F(x), F^*(x)] < \epsilon$  qanoatlantiradigan approksimatsiyalovchi  $F^*(x)$  funksiyasi tanlab

olinadi. Bu yerda  $\varepsilon$  - funksiyalar o'rtasidagi masofa uchun berilgan kichik qiymat (porog). Umumiy holda  $F(x)$  funksiyaning ko'rinishi noma'lum bo'ladi. U  $x_1 \rightarrow y_1, x_2 \rightarrow y_2, \dots, x_n \rightarrow y_n$  turdag'i "kirish - chiqish" qiymatlar juftligi bilan beriladi. Bu yerda  $x_i$  - kirish o'zgaruvchilar qiymatlari,  $y_i$  esa chiqishdagi funksiyalar qiymatlari. An'anaviy matematik usullardan foydalanib, avval kerakli approksimatsiyalash modeli ( $F^*(x)$  funksiyaning ko'rinishi) tanlab olinadi. Keyin tanlab olingan mezonlar bo'yicha  $F^*(x)$  funksiyaning koeffitsiyentlari topiladi. NTlar universal approksimatorlar bo'lib, approksimatsiyalovchi  $F^*(x)$  funksiyani tanlab olishni talab qilmaydi. Bu yerda NTni o'rgatish uchun faqat qayd qilingan  $\{x_i \rightarrow y_i\}$  juflar qaraladi. Bu masala obyektlarni identifikatsiyalashda, ularning aniq modellarini qurish murakkab bo'lgan holatlarda keng qo'llaniladi.


4) *Avtoassotsiatsiyalash*. Bu masala assotsiativli xotira modellarini qurish masalasi bilan bog'liq. Assotsiativ xotirali neyron modelida neyron guruhlar orqali tegishli obyektlarning ba'zi qismalarini xotiraga olinishi ta'minlanadi. Bunday NTning kirishiga obyektning qismi berilganda uning chiqishida butun obyektni tavsiflaydigan neyronlarning barchasi faollashtiriladi.

Shuni qayd qilish kerakki, bir qatlamlili NTlar faqat sodda masalalarni yechish qobiliyatiga ega. Murakkab masalalarni yechish uchun turli tipdagi ko'p qatlamlili NTlar ishlataladi.

### 5-§. Neyron tarmoqlarni o'rgatish usullari

O'Jda NT ning bog'lanishli vazn koeffitsiyenti, chegara va tuzilma kabi qiymatlari to'g'rilanadi. Shu holatda mazkur parametrlarning boshlang'ich qiymatlari odatda tasodifiy ravishda beriladi.

NTning o'rgatish usullari tasnifi 7.11-rasmida keltirilgan ko'rinishda ifodalanadi.



7.11-rasm. NTning o'rgatish usullari tasnifi.

Tasnifning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri-bu tashqi muhit bilan o'zaro aloqaning mavjudligi. O'rgatish (o'qitish) jarayonida tashqi muhittidan keladigan axborotning miqdori va sifati (semantikasi, ma'nosi)ga ko'ra o'qituvchili (supervised learning), o'qituvchisiz (unsupervised learning) va tasdiqlash (reinforcement learning)ni o'rgatadigan usul (algoritm)larga ajratiladi.

*O'qituvchili usulda* oldindan barcha o'rgatish juftlaridan iborat bo'lgan o'rgatish to'plami shakllanadi. O'rgatish jufti  $X$  kirish va unga muvofiq bo'lgan  $Y$  chiqish vektorlar qiymatlari bilan ifodalanadi. Bu holatda har bir  $x_i$  kirish vektorining  $i$ -komponentasi  $i$ -kirish neyronga keladigan signalga muvofiq bo'ladi. Shunga o'xshash har bir  $y_j$  chiqish vektorining  $j$ -komponentasi  $j$ -chiqish neyronda paydo bo'ladigan signalga muvofiq bo'ladi.

O'Jda chiqish vektorlarining qiymati berilgan kirish vektorlarining qiymatlariga muvofiq oldindan berilgan chiqish qiymatlarining

og‘ishlarini hisobga olib topiladi. Bu og‘ishlarning qiymatiga muvofiq NTning parametrlari mazkur og‘ishlar qiymatlarini minimum(berilgan)ga keltirish bilan to‘g‘irlanadi. O‘qituvchili o‘rgatish algoritmlarining orasida eng keng tarqalgani xatoliklarni (to‘lqlarni) teskari tarqatish algoritmi (error backpropagation) hisoblanadi.

*O‘qituvchisiz usullarda* o‘rgatish to‘plami faqat kirish vektorlari majmaisini o‘z ichiga oladi. Bu holatda qo‘llaniladigan raqobatli o‘rgatish algoritmi (competitive learning) klasterlash masalalarini yechish uchun NTning parametrlarini to‘g‘rilaydi. O‘rgatish jarayonida tegishli klasterga kiradigan kirish komponenta(neyron)lari va bu klasterni tavsiflaydigan chiqish neyronlari orasidagi bog‘lanishli vaznlarning qiymatlari maksimal darajada ko‘paytiriladi. Shuningdek, chiqish neyronining faol bo‘lmagan kirish neyronlari bilan bog‘lanishli vaznlar qiymatlari kamaytiriladi.

*Tasdiqlash bilan o‘rgatish usullari* yuqorida keltirilgan ikkita usulning o‘rtasida turadi. Bu usulning asosiy tamoyili tashqi muhitdan (o‘qituvchidan) keladigan “Tasdiqlash - rad qilish” yoki “Rag‘batlantirish - jazolash” (reward/penalty) signalining mavjudligi bo‘ladi. Bunday O’Jda navbatdagi kirish vektori berilganda NTning harakati qoniqarli bo‘lsa, u holda tasdiqlash («+1») signal, aks holda - rad qilish («0» yoki «-1») signal orqali bajariladi. Bu holatda tarmoqda tasdiqlash signallarini olish tezligini oshirishni ta‘minlash maqsadida vazn koeffitsiyentining qiymatlarini tegishli ravishda o‘zgartiradi. Bu vazn koeffitsiyentining qiymati maqbul darajasiga yetmaguncha O’J davom etadi.

*Tuzilmali o‘rgatish usullari* endi rivojlana boshladi. Ular murakkab masalalarini yechish uchun mo‘ljallangan NTni qurishga imkoniyat beradi.

*Kirishlarga quyiladigan talablar* bo‘yicha o‘xshashliklarga va yagona buyruqqa asoslangan o‘rgatish usullariga ajratiladi. Bu holatda tadqiq qilinadigan obyektlarni tavsiflaydigan etalon to‘plam shakllanadi. Berilgan etalonga muvofiq NT parametrlari shunday qilib tanlanadiki, kirish belgilarinining tegishli qiymatlarida faqat mazkur belgilarga ega bo‘lgan chiqish neyronlari faollashishi kerak.

*Stoxastik o‘rgatish usullari* ehtimolli qoidalarga, determinalli usullar esa - aniq qoidalarga asoslanadi.

## 6-§. Neyron tarmoqlar tavsifi

### 6.1. Neyron tarmoqlarning turlari

Hozirgi kunda NTlarning juda ko‘p xilma-xilliklari mavjud. Ularni tarmoq tuzilishi, neyron modelining xususiyatlari, o‘qitish xususiyatlariga ko‘ra ajratishadi. Tuzilishiga ko‘ra NTlarni to‘liqsiz bog‘lanishli (yoki qatlamlı) va to‘liq bog‘lanishli, tasodify va regulyar (qat’iy) bog‘lanishli, simmetrik va nosimmetrik bog‘lanishli kabi turlarga ajratish mumkin.

*To‘liqsiz bog‘lanishli* NTlar to‘liqsiz bog‘langan yo‘naltirilgan graflar bilan tavsiflanadi. Bunday NTlarning keng tarqalgan turi *perseptronlar* hisoblanadi. Ular bir qatlamlı (oddiy perseptronlar) va ko‘p qatlamlı, to‘g‘ri, kesishuvchi va teskari bog‘lanishli turlarga bo‘linadi. *To‘g‘ri bog‘lanishli* NTlarda  $j$ -qatlam neyronlari kirishlarda faqat  $i$  -qatlamdagi neyronlar, ya’ni quyi qatlamdagi neyronlar bilan bog‘lanishi mumkin (bu yerda  $j > i$ ). *Kesishuvchi bog‘lanishli* NTlarda bir qatlam ichida bog‘lanishga ruxsat beriladi, ya’ni yuqorida keltirilgan tengsizlik  $j \geq i$  ga almashadi. *Teskari bog‘lanishli* NTlarda  $j < i$  bo‘lganda  $j$  -qatlamning kirishlarda  $i$ -qatlam bilan aloqasi ham ishlataladi. Bundan tashqari bog‘lanish shakliga qarab perseptronlar *regulyar* va *tasodify* bog‘lanishli turlarga ajratiladi.

Kirish va chiqishlarda ishlataladigan signallarga qarab NTlar *analog* va *binar* turlarga bo‘linadi.

Vaqtni modellashtirish bo‘yicha NTlar *uzluksiz* va *diskret* vaqtli tarmoqlarga bo‘linadi. Dasturiy foydalanish uchun diskret vaqtli turi ishlataladi.


*Kirishlarda axborotni uzatish* usuliga ko‘ra Ntlar kirish va chiqish neyronlariga, kirish neyronlarining kuchiga qarab signallarni uzatuvchi turlarga bo‘inadi.

*Chiqishlarda axborotni uzatish* usuliga ko‘ra NTlar chiqish neyronlariga qarab va chiqish neyronlari kuchiga qarab signallarni qabul qiluvchi turlarga ajraladi.


*O‘qitish usuliga ko‘ra* NTlar kirishlar bo‘yicha va chiqishlar bo‘yicha o‘qitish turlarga bo‘linadi. Kirishlar bo‘yicha o‘qitishda o‘qituvchi misol faqat kiruvchi signallar vektoridan iborat bo‘ladi, chiqishlar bo‘yicha o‘qitishda unga kiruvchi vektorga mos keladigan chiquvchi signallar vektori ham kiradi.

NTlarning arxitekturasi va turlari neyronlarning tarmoqdagi bog'lanish tartibi bilan belgilanadi.

NTlarini ikki asosiy: to'liq bog'langan va iyerarxikli turlariga ajratadi (7.12-rasm). *To'liq bog'langan NT* - bu har bir neyronning chiqishi barcha boshqa neyronlar kirishlari bilan, uning kirishlari esa qolgan neyronlar chiqishlari bilan bog'langan tarmoq. Bundan tashqari har bir neyronning chiqishi uning kirishiga ulangan bo'ladi ("o'z - o'ziga bog'lanish") (7.12, a- rasm).  $N$  neyronlardan iborat bo'lgan to'liq bog'langan NTda bog'lanish soni  $N^*N$  teng.



a) To'liq bog'langan NT.




b) Iyerarxikli NT.


7.12-rasm. NTlar turlari.

*Iyerarxikli NT* - bu neyron guruhlaring tegishli alohida qatlam va darajalarda joylashgan tarmog'i. Bunday NTda tegishli qatlamning har bir neyroni oldindi va keyingi qatlamlarning har bir neyronlari bilan bog'langan bo'ladi (7.12, b -rasm). Uning kirish va chiqish qatlamlari tashqi muhit bilan ham bog'langan.

*Bog'lanish yo'nalishlari bo'yicha* teskari aloqasiz (feed - forward) (7.13-rasm) va teskari aloqali (feed-back) (7.14-rasm) NTlar ajratiladi.



7.13 - rasm. Teskari aloqasiz NT.



7.14 - rasm. Teskari aloqali NT.


Agar teskari aloqali NTda o‘zining bir qatlamdagи neyronlar о‘rtasida tormozlaydigan (manfiy bog‘lanishli vaznlar bilan) aloqalarini bo‘lsa, u holda bunday tarmoqni lateral yoki lateralli tormozlanishli NT deb ataydi (7.15-rasm).

*Bir qatlamlı NT* - bu sodda, iyerarxik, norekurrent turdagи tarmoq. Bunday tarmoqda tashqi muhit signallarini qabul qiladigan va taqsimlaydigan kirish neyronlar qatlami hamda hisoblanadigan neyronlar qatlami mavjud bo‘ladi. Ularning har birining chiqish signallari uning kirishiga keladigan vaznlangan yig‘indi funksiyasi sifatida belgilanadi. Chiqish signallar majmuisi NTning  $Y = W * X$  chiqish vektorini tashkil qiladi. Bu yerda  $X$  -  $n$  o‘lchamli kirish vektori;  $W$  -  $n * m$  o‘lchamli ( $m$  - chiqish katlamning neyronlari soni) bog‘lanish vaznlar matritsasi;  $Y$  -  $m$  o‘lchamli chiqish vektori.

*Ko‘p qatlamlı NT* - bu bir nechta hisoblanuvchi neyronlar qatlamlaridan iborat bo‘lgan tarmoqlar. Bunday qatlamlar soni ko‘payishi bilan tarmoqning hisoblash qvvati ham oshadi.

## 6.2. Mak-Kallock-Pitts neyron tarmog’ining formal modeli

Sun’iy neyron modeli ilk bor 1943 yilda Dj. Mak-Kallock va U. Pitts tomonidan tavsiflangan [11, 31]. Mak-Kallock-Pitts neyronining formal modeli 7.16 - rasmda ko‘rsatilgan. Bu model hozir ham NTlarda alohida neyronni tavsiflash uchun keng qo’llaniladi. Bu yerda  $x_i$  - neyronning  $i$  - kirishidagi signal,  $\omega_i$  - neyronning  $i$  - kirishi massasi,  $y$  - neyronning chiqishi,  $h$  - neyronning ishlash chegarasi.



7.16-rasm. Mak-Kallock-Pitts neyron tarmog’ining formal modeli.

Modelda neyron kirishlaridagi signallarning orttirilgan yig‘indisi  $h$  chegaraviy qiymat bilan taqqoslanadi, agar u chegaradan oshib ketsa chiqishda signal mavjud bo‘ladi. Neyronlarning hozirgi modelida

cheгаравиј функција умумиј holda чизиqli функција билан алмаштирилди. Бу функција сифатида  $f(S) = \frac{S}{S + \alpha}$  көлтөріш мүмкін.  $\alpha$  параметр одатда siljish дејілди. Шунинг үчүн одатда нейрон ко'пайтувчилар, summator va чизиқсиз элементлардан ташкіл топған дејілди.


### 6.3. Rozenblatt perseptronи

*Perseptron тәріғі.* Perseptron бинарлы кириш сигналдарын анықтауда обектларни иккита синфа ажыратылыш масаласын ечіши керак. Кириш сигналдарынаборын  $n$ -о'lчовли  $x$  векторы билан белгилайық. Векторнаның барлық элементтері «*Chin(1)*» және «*Yolg'on(0)*» мәндердегі о'згарувларынан табылады.

Perseptron деңгээ -  $\Psi = [\sum_{i=1}^m \alpha_i \varphi_i > \theta]$  функцияның мәндерін анықтауда. Бу жерде  $\alpha_i$  - перseptron мөні,  $\theta$  - cheгаравиј мән (порог),  $\varphi_i$  - кириш сигналдарынан мәндерлері, [ ]-кавырмалардың о'згарувларынан «*Chin*» және «*Yolg'on*» мәндерлериден 0 және 1 болынан мәндерге табылады [35]. Perseptronнаның кириш сигналдары сипаттауда барлық тармоқтардың кириш  $x$  сигналдары және барлық перseptronлардың чиқыш сигналдарынан табылады. Доимий  $\varphi_0 \equiv 1$  кириш сигналынан жоғарыда көрсетілгенде және  $\alpha_0 = -\theta$  етібога олған перseptronны  $\Psi = [\sum_{i=1}^m \alpha_i \varphi_i > 0]$  ко'ринишда ыздырылады.

Kориниб түрібдікі, ушбу ifoda cheгаравиј мәндерін анықтауда алмаштыргички бітта нейрон билан анықтауда. Нейронлардың шундай барлық сигналдарынан табылады (каскад) *ко'пқатлашып* перseptron деңгээ аталаады.

*Rozenblatt perseptronи* тарихи биринчи о'ргатувиhi NT анықтауда. Perseptronнаның барлық тармоқтары мавжуд (7.17 және 7.18 - ресмилар).




7.17. Birqatlamli perseptron.

*Klassikli perseptronni*, ya'ni chegaraviy qiymatlari neyronlarga va kirish signallari qiymati no'l yoki birga teng bo'lgan tarmoqni qaraymiz.

Barcha sinaptikli (kirish) vaznlar butun sonlardan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pqatlamli perceptron o'zining imkoniyatlari bo'yicha ikkiqatlamliga ekvivalent bo'ladi. Barcha neyronlar sinapsiga ega bo'lib, ushbu sinapslarga doimo birlik signal uzatiladi. Ushbu sinapsning vaznni bundan keyin chegaraviy qiymat (porog) deb ataymiz. Birinchi qatlamning har bir neyroni barcha bog'lanishli aloqalarda kirish signallaridan chiquvchi va minus ishora bilan olingan hamda ikkiga kamaytirilgan chegaraviy qiymati kirish signallarining summatorlar soniga teng bo'lgan bitta sinaptikli vaznga ega bo'ladi.

Ta'kidlaymizki, to'la birinchi qatlamni qurish uchun  $2^n$  ta neyronlardan foydalanish talab qilinadi, bu yerda  $n$  - perseptronning kirish signallari to'plami. Albatta  $n$  ning yetarli katta qiymatlarida bunday tarmoqlarni qurish mumkin bolmaganligi uchun bu holda birinchi qatlamning ba'zi neyronlar to'plamostilaridan foydalaniladi. Bunday to'plamostilari sonini faqat masalani to'liq yechib bo'lgandan keyin aniqlash mumkin. Odatda foydalaniladigan to'plamostilari tadqiqotchi tomonidan qandaydir *mazmunli mulohazalar asosida* yoki *tavakkal ravishda* tanlanadi.



7.18-rasm. Ikkiqatlamli perseptron.

Ta'kidlaymizki, agar perseptronga bиринчи синфнинг обыекти келиб тушса, у holda perseptron чиқишда nol(0)ли signal, agarda обыект иккинчи синfdan келиб тушса - bir(1)ли signal berishi kerak. Perseptronning bat afsil tavsifi va ifodasi [35] ishda keltirilgan.

#### 6.4. Assotsiativ xotirali neyron tarmoqlari

Assotsiativ xotirali NTlarni tuzishdan oldin *assotsiativli xotira* qanday tuzilma va u qanday masalalarini yechishda qo'llaniladi kabi savollarni qarab chiqamiz.

Insonda assotsiatsiya paydo bo'lishi uchun u обыект haqidagi to'liq bo'lmanan ba'zi axborotlarni olishi va ushbu axborotlar asosida обыектни bat afsil tavsiflashi mumkin bo'lsa. Masalan, odam haqida ba'zi bir axborotlarga asoslanib uni tanib olish mumkin. Bu holda odatdag'i ko'nikma bo'yicha inson xotirasida assotsiatsiya paydo bo'ladi. Ta'kidlash joizki, обыектни aniq tanib olish uchun to'liq bo'lmanan axborotlar yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun обыектларни to'liq tanib olishga erishish uchun ular haqidagi qo'shimcha axborotlardan ham foydalanish talab etiladi.

Yuqoridagi misollardan келиб чиқиб аytish mumkinki, *assotsiativli xotira*-bu noto'liq va qisman noishonchli axborotlar asosida обыект haqida yetarli to'liq tafsifni tiklashga imkoniyat yaratadi.

Endi masalalarini *assotsiativli xotira yordamida yechishni formallashtirish* jarayonini qaraymiz [11]:

1. Tanib olinadigan obyektlar bilan ular haqidagi boshlang'ich axborotlarning o'zaro munosabatlarini aniqlash va obyektlarni aniq tavsiflash uchun qo'shimcha axborotlar bilan to'ldirish.

2. Boshlang'ich axborotlardan noishonchli axborotlarni olib tashlash va qolganlari asosida tanib olish masalani yechish.

Bu yerda obyektning *aniq tavsifi* deganda assotsiativli xotira uchun yetarli bo'lган barcha axborotlar tushuniladi. Ikkinci masala qadam-qadam yechilmaydi, balki olingan axborotlarning ma'lum bo'lган etalonlar va noishonchli axborotlarni saralab olingan axborotlar bilan o'zaro munosabatini aniqlash amalga oshiriladi.

*Misol. Masalaning formal qo'yilishi.*  $n$ -o'lchovli  $\{x^i\}$  vektorda  $m$  ta etalonlar to'plami berilgan bo'lsin. Shunday tarmoq qurish kerakki, ushbu tarmoqning kirishida ixtiyoriy obyektni tasvirlaydigan  $x$  vektor tarmoqning chiqishida "Eng o'xhash" etalonni aniqlasın.


Quyida obyekt deganda  $\pm 1$  koordinatali  $n$ -o'lchovli vektorlar va etalon misolida  $x$  ga "Hammadan ko'ra" tushunchasiga  $x$  ga yaqin  $x'$  vektor tushuniladi. Ko'rinish turibdiki, bu talab  $x$  va  $x'$  vektorlarning maksimal skalyar ko'paytmasiga ekvivalent

$$\|x - x'\|^2 = \|x\|^2 + \|x'\|^2 - 2(x, x').$$

O'ng qismning birinchi ikki qo'shiluvchisi ixtiyoriy  $x$  va  $x'$  obyektlar uchun mos tushadi, negaki barcha obyektlarning vektor uzunliklari  $\sqrt{n}$  ga teng. Demak yaqin obyektlarni izlash masalasi shunday obyektlarni izlashga olib kelinadiki, ularning skalyar ko'paytmasi maksimal bo'lishi kerak bo'ladi.

#### 6.4.1. Xopfild neyron tarmoqlari

*Xopfild NT* - bu alohida turdag'i teskari aloqali NT. Bunday tarmoqda har bir neyronning kirishiga,  $X$  kirish vektorining tegishli komponentasidan tashqari, birinchi qatlarning taqsimlovchi neyronlari orqali boshqa neyronlarning chiqish signalari ham keladi. U bitta neyronlar qatlamanidan iborat bo'lib, neyronlar soni bir vaqtida tarmoqning kirishi va chiqishi hisoblanadi. Xopfild NTlari taniqli assotsiativ xotirali tarmoqlar hisoblanadi. Xopfild NTlarining struktursi 7.19-rasmda keltirilgan [11].



7.19-rasm. Xopfield tarmoq'ining strukturali sxemasi.

Assotsiativ xotirali tarmoq sifatida masalani yechish quyidagicha shakllantiriladi. Aytaylik etalon obyektda (tasvirlar, jarayonlar...) qandaydir kirish signallar nabori oldindan ma'lum bo'lsin. NT kirishga berilgan mukammal bo'lмаган ixtiyoriy signallardan ularga mos keluvchi etalonni ajratib olishi yoki kirish signallari bорorta ham etalon obyektga mos kelmasligi haqida xulosa berishi kerak. Umumiyl holda ixtiyoriy signal  $X = \{x_i: i=0...n-1\}$  shaklda tavsiflanishi mumkin, bu yerda  $n$  - tarmoqdagi nevronlar soni va kirish hamda chiqish vektorlarining о'lchovi. Har bir  $x_i$  element +1 yoki -1 ga teng. k-etalonni tavsiflovchi vektorni  $X^k$  deb, uning komponentalari mos ravishda  $-x_i^k$  deb belgilanadi, bu yerda  $k=0...m-1$ ,  $m$  - etalonlar soni. NT berilgan ma'lumotlar asosida qandaydir etalonni tanib olganda uning chishida xuddi shu namuna hosil bo'ladi, ya'ni  $Y = X^k$ , bu yerda  $Y$  - tarmoqning chiqish signallarining qiymatlari:  $Y = \{y_i: i=0...n-1\}$  bo'ladi. Aks holda chiquvchi vektor birorta ham etalon bilan mos tushmaydi.

Tarmoqni nomlash jarayonida tarmoqning vaznli koeffitsiyentlari quyidagicha о'rnatiladi [11]:

$$w_{ij} = \begin{cases} \sum_{k=0}^{m-1} x_i^k x_j^k, & i \neq j \\ 0, & i = j \end{cases}.$$

Bu yerda  $i$  va  $j$  - indekslar, mos ravishda, oldsinaptikli va ortsinaptikli neyronlar,  $x_i^k, x_j^k$  -  $k$ -etalon vektorining  $i$ -va  $j$ -elementlari.

*Xopfild NTlarining ishlash algoritmi* quyidagicha ( $p$  - iteratsiyalar tartib raqami):

1. Tarmoqning kirishiga noma'lum signal beriladi. Ushbu signalni haqiqiy kiritish aksonlar qiymatlarini o'rnatish yordamida amalga oshiriladi:  $y_i(0) = x_i, i = 0 \dots n-1$ . Qavsdagi nol tarmoqning ishlash sikllaridagi nolli iteratsiyani bildiradi.

2. Neyronlarning yangi holati  $s_j(p+1) = \sum_{i=0}^{n-1} w_{ij} y_i(p), j=0 \dots n-1$

va aksonlarning yangi qiymati  $y_j(p+1) = f[s_j(p+1)]$  hisoblanadi.

3. Oxirgi iteratsiyadan keyin aksonlarning chiqish qiymatlarining o'zgarganligi tekshiriladi. Agar o'zgargan bo'lsa, u holda 2-qadamga, aks holda tugatish (agar chiqishlar bir maromda bo'lsa). Bu holda chiquvchi signal o'zida kirish signallari bilan eng yaxshi mos tushadigan etalon obyektni aks ettiradi.

Xopfild tarmog'ini *diskret vaqt oralig'ida* quramiz. Tarmoq kiruvchi  $x$  vektorni shunday o'zgartirishni amalga oshirishi kerakki,  $x'$  chiquvchi vektoring hisoblangan to'g'ri javobi etalonga yaqin bo'lishi kerak.

Tarmoqning o'zgarishini  $x' = \text{Sign}\left(\sum_{i=1}^m w_i x^i\right)$  ko'rinishda izlaymiz. Bu yerda,  $w_i$  -  $i$ - etalonning vazni bo'lib, uning  $x$  vektorga yaqinligini xarakterlaydi, *Sign* - chiziqlimas operator,  $y_i$  koordinatali vektorni

$\text{sign}(y_i)$  koordinatali vektorga o'zgartiradi.

**Tarmoqlarning harakat qilishi.** Tarmoq quyidagi tartibda ishlaydi:

1. Tarmoq kirishiga  $x$  obyekt beriladi, chiqishida esa  $x'$  obyekt hosil qilinadi.

2. Agar  $x' \neq x$  bo'lsa, u holda  $x = x'$  bo'ladi va 1- qadamga o'tiladi.

3. Olingan  $x'$  vektor natija hisoblanadi.

Shunday qilib, hamma vaqt natija tarmoqni o'zgartirishdagi qo'zg'almas nuqta hisoblanadi va xuddi shu shart (tarmoqning obyektni quyta ishlashdagi o'zgarmasligi) to'xtash sharti bo'lib hisoblanadi.

Aytaylik  $i' - x$  obyektga yaqin joylashgan etalon raqami bo'lsin. Agar  $x$  boshlang'ich obyektga proporsional yaqin etalonning vazni tanlansa, u holda  $x^i$  obyekt  $x^{i'}$  etalonga  $x$  ga qaraganda yaqin bo'ladi va bir nechta

iteratsiyalardan so'ng  $x^i$  obyekt  $x^{i'}$  etalon bilan ustma-ust tushadi.

(7.1) ko'rinish Xopfild tarmog'inining *diskret varianti* hisoblanib, unda taqdim etilayotgan obyekt vazni etalonlarning skalyar ko'paytmasiga teng.

$$x' = \text{Sign} \left( \sum_{i=1}^m (x, x^i) x^i \right) \quad (7.1)$$

Xopfild tarmoqlari (7.1) haqida [24] ishda ma'lum bo'lib, ular "0.15 n tartibli sust korrelirlangan obyektlar"ni eslab qolish va aniq tasvirlash xususiyatiga ega. Bu mulohaza ikkita *cheklanishlar*, ya'ni etalonlar soni 0.15 n dan oshmaydi va etalonlar sust korrelirlangan bo'ladi. Xususan, ikkinchi cheklanish muhim ahamiyatga ega, negaki tarmoq ishlov beradigan obyektlar ko'pincha juda o'xshash bo'ladi.

Misol tariqasida lotin alfavitining harflarini keltirish mumkin. Xopfild tarmog'ini (7.1) formula yordamida o'rganganda uchta birinchi harflarni (7.20, a, b, v - rasmlarga qarang) tanib olishgada, tarmoqning kirishiga javob sifatida ixtiyoriy etalonlar taqdim etilganda, 7.20, g-rasmda keltirilgan harflar olinadi (barcha harflar 10x10 nuqtali ramkalarda keltirilgan). Bunday keltirilgan misollar bilan assotsiativ xotirada tarmoqning ishlash sifati haqidagi birinchi savol quyidagicha: Tarmoq bu etalon harflarning o'ziga to'g'ri ishlov bera oladimi (ya'ni ularni buzmaydими)?

Obyektlarning korrelirlangan o'lcovisi deb -  $C_{ij} = \frac{|(x^i, x^j)|}{n}$  miqdor qaraladi.




7.20-rasm. Harf tasvirlarini tanib olish: a, b, v - etalonlar, g - ixtiyoriy etalonni ko'rsatishda tarmoq javobi.

#### 6.4.2. Xemming neyron tarmoqlari

Agar NT yordamida etalonni oshkora ko'rinishda emas, balki uning tartib raqaminigina olish yetarli deb hisoblansa, u holda assotsiativ

xotirali Xemming NTidan foydalanish qulay hisoblanadi [11]. Bunday holda Xemming tarmog'iga Xopfild tarmog'iga nisbatan xotira va hisoblashlar hajmi kam sarflanadi. Bu Xemming NTining strukturasidan ham ochiq ko'rindi (7.21-rasm).



7.21-rasm. Xemming NTning strukturali sxemasi.

Tarmoq ikkita qatlamdan iborat. Birinchi va ikkinchi qatlamlarning har biri  $m$  ta neyronlardan iborat, bu yerda  $m$ -etalonlar soni. *Birinchi qatlam neyronlari* tarmoqning kirishlar bilan bo'g'langan  $n$  ta tarmoqlardan (soxta nolli qatlamni hosil qiluvchi) iborat. *Ikkinchi qatlam neyronlari* bir-biri bilan *ingibitorli* (manfiyli teskari) sinaptikli aloqalar bilan bo'g'langan. Har bir neyron uchun musbat teskari aloqali bitta sinaps uning aksонлари bilan birlashtirilgan.

*Xemming NTlarining goyasi* - bu testlanayotgan obyektdan boshqa barcha etalon obyektlargacha bo'lган Xemming masofasini topishdan iborat. *Xemming masofasi* deb ikkita binar qiymat qabul qiluvchi vektorlarning bitlardagi farqlar soniga aytildi. Tarmoq kirishdagi noma'lum obyektgacha minimal masofaga ega bo'lган etalon obyektni tanlashi kerak va natijada tarmoqda ushbu etalon obyektga mos keluvchi bitta chiqish faollashadi.

Birinchi qatlamning vaznli koeffitsiyentlarining nomlanish jarayoniga va chegaraviy qiymatli (porogli) aktivlashuv funksiyasiga

quyidagi qiymatlar beriladi:  $w_k = x_i^k / 2$ ,  $i=0 \dots n-1$ ,  $k=0 \dots m-1$ ;  $T_k = n / 2$ ,  $k = 0 \dots m-1$ . Bu yerda  $x_i^k$  - k-etalon obyektning i-elementi.

Ikkinchi qatlamda tarmoqlarni to'xtatuvchi vaznli koeffitsiyentlarni qandaydir  $0 < \varepsilon < 1/m$  qiymarlarga teng qilib olinadi. Neyronning sinapsi o'zi bilan bo'g'langan aksonlari bilan  $+1$  vaznga ega bo'ladi.

*Xemming tarmoqlarining ishlash algoritmi quyidagicha:*

1. Tarmoqning kirishlariga noma'lum  $X = \{x_i: i=0 \dots n-1\}$  vektor berildi. Ushbu vektordan foydalanib birinchi qatlamning neyronlari holati hisoblanadi (yuqoridagi qavslı index qatlam tartib raqamini bildiradi):

$$y_j^{(0)} = s_j^{(0)} = \sum_{i=0}^{n-1} w_i x_i + T_j, j=0 \dots m-1.$$

Bundan keyin olingan qiymatlar bilan ikkinchi qatlam aksonlari qiymatlari nomланади:  $y_j^{(2)} = y_j^{(0)}$ ,  $j = 0 \dots m-1$ .

2. Ikinci qatlam neyronlarining yangi holati

$$s_j^{(2)}(p+1) = y_j(p) - \varepsilon \sum_{i=0}^{n-1} y_i^{(2)}(p), k \neq j, j = 0 \dots m-1$$

va ularning aksonlarining qiymatlari  $y_j^{(2)}(p+1) = f[s_j^{(2)}(p+1)]$ ,  $j = 0 \dots m-1$  hisobланади.

3. Oxirgi iteratsiyadan keyin ikkinchi qatlan neyronlarining chiqishi qiymatlarining o'zgarganligi tekshiriladi. Agar o'zgargan bo'lsa, u holda 2-qadamga, aks holda tugatish.


Ta'kidlash joizki, Xemming NTlari bilan obyektlarni tanib olish boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha oddiy hisobланади.

#### 6.4.3. Ikki yo'nalishli assotsiativli xotira

*Ikki yo'nalishli assotsiativli xotira (IAX)* Xopfild tarmoqlarining mantiqiy davomi bo'lib, ularga ikkinchi qatlam qoshiladi. IAX strukturasi 7.22 -rasmda keltirilgan [11, 31].

Tarmoq bir-biri bilan assotsiatsiyalashgan juft obyektlarni eslsh qobiliyatiga ega. Aytaylik juft obyektlar  $X^k = \{x_i^k: i=0 \dots n-1\}$  va  $Y^k = \{y_j^k: j=0 \dots m-1\}$ ,  $k=0 \dots r-1$  (bu yerda r-juft obyektlar soni) vektorlar ko'rinishida yozilgan bo'lsin. Tarmoqning birinchi qatlamining kirishiga qandaydir  $P = \{p_i: i=0 \dots n-1\}$  vektorning uzatilishi ikkinchi qatlamning kirishida qandaydir boshqa  $Q = \{q_j: j=0 \dots m-1\}$  vektorni tashkil qilishga chaqiradi va ushbu vektor keyin yana birinchi qatlamning kirishiga tushadi.

Vektorlarning har bir shunday siklida birinchi va ikkinchi qatlamlarning chiqishlarida etalon obyektlarning juftligiga yaqinlashadi, ya'ni ulardan eng boshida tarmoqning kirishiga uzatilgan birinchisi  $X$ -obyekt  $P$  ga juda o'xshash bo'ladi, ikkinchisi -  $Y$  - esa u bilan assotsiyalangan bo'ladi. Vektorlar o'rtasidagi assotsiyalashuv birinchi qatlamning vaznli  $W^{(I)}$  matritsasida kodlashtiriladi.



7.22-rasm. IAX ning strukturali sxemasi.

Ikkinch qatlamning vaznli  $W^{(2)}$  matritsasi birinchi qatlamning vaznli  $W^{(I)}$  matritsasining transponirlangan  $(W^{(I)})^T$  matritsasiga teng. IAX tarmog'ini obyeklarni tanib olishga o'rgatish jarayoni. xuddi *Xopfild tarmoqlari* kabi,  $W$  va  $W^T$  matritsalarning elementlari qiymatlarini oldindan quyidagi formula yordamida hisoblashdan iborat:

$$w_{ij} = \sum_k x_k y_j, i = 0 \dots n-1, j = 0 \dots m-1 \quad (7.2)$$

Bu formula xususiy hol uchun, ya'ni obyektlar vektor ko'rinishda yozilganda  $W = \sum_k X^T Y$  matritsali tenglamaning kengaytirilgan ko'rinishdagi yozuvi hisonlanadi. Bunda mos  $[n \times 1]$  va  $[1 \times m]$  o'chovli ikkita matritsaning ko'paytmasi (7.2) ko'rinishga keladi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelamiz. *Xopfilda, Xemming va LAX* tarmoqlari noto'liq va noto'g'ri (buzilgan) axborotlar bo'yicha obyektlarni tiklash masalasini oddiy va samarali yechishga

imkoniyat yaratadi. Ushbu tarmoqlar hajmining unchalik katta emasligi (eslab qoladigan obyktlar soni) shundan iboratki, ular nafaqat obyektlarni eslab qoladi, balkim ularni umumlashtiradi ham, masalan, Xemming tarmoqlari yordamida maksimal o'xshashlik kriteriyasi asosida obyektlarni sinflashni ham amalga oshiradi. Shuning bilan birgalikda keltirilgan NTlar uchun daturiy va apparatik modellarni qurish ularning ko'plab sohalarda qo'llanilishiga imkoniyat yaratadi.

## 6.5. O'qituvchisiz o'rgatuvchi neyron tarmoqlari

Yuqorida keltirilgan tarmoqlar o'qituvchili o'rgatuvchi tarmoqlarga kiradi. Ularni muvaffaqiyatli qo'llash uchun ekspertning ishtiroti zarur bo'ladi.

O'qituvchisiz o'rgatuvchi tarmoqlarda o'rgatish jarayonida tarmoqlarning vaznlari to'g'rilanib (tuzatilib) boriladi. Bunda tarmoqlarni to'g'rilib borish neyronlardagi mavjud vaznli koeffitsiyentlar asosida olib boriladi. Ushbu prinsip asosida ishlashdigan Xebba NTini keltiramiz.

### 6.5.1. Xebba tarmog'i bo'yicha o'rgatishning signallli usuli

Bu usul bo'yicha o'rgatishda vaznlarning o'zgarishi quyidagi qoida bo'yicha aniqlanadi [11, 31, 53, 54]:

$$w_y(t) = w_y(t-1) + \alpha \cdot y_i^{(n-1)} \cdot y_j^{(n)}, \quad (7.3)$$

bu yerda  $y_i^{(n-1)}$  - (n-1)-qatlamning i-neyronining chiquvchi qiymati;  $y_j^{(n)}$  - n-qatlamning j-neyronining chiquvchi qiymati;  $w_y(t)$  va  $w_y(t-1)$  - sinapsning vaznli koeffitsiyentlari bo'lib, ular mos ravishda t va (t-1)-iteratsiyalarda ushbu neyronlarni birlashtiradi;  $\alpha$  - o'rgatish tezligining koeffitsiyenti. Bu yerda va bundan keyin n sifatida tarmoqning ixtiyoriy qatlami tushuniladi.

Xebba tarmog'i bo'yicha o'rgatishning *differensial usuli* ham mavjud.

$$w_y(t) = w_y(t-1) + \alpha \cdot [y_i^{(n-1)}(t) - y_i^{(n-1)}(t-1)] \cdot [y_j^{(n)}(t) - y_j^{(n)}(t-1)] \quad (7.4)$$

Bu yerda  $y_i^{(n-1)}(t)$  va  $y_i^{(n-1)}(t-1)$  - (n-1)-qatlamni i-neyronining t va (t-1) iteratsiyalardagi mos chiqish qiymatlari;  $y_j^{(n)}(t)$  и  $y_j^{(n)}(t-1)$ -n-qatlamni i-neyronining t va (t-1) iteratsiyalardagi mos chiqish qiymatlari.

Yuqorida keltirilgan formulalar asosida *Xebba tarmog'i bo'yicha o'rgatishning to'liq algoritmi* quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Barcha vaznli koeffitsiyentlarga katta bo'limgan qiymatlar ta'minlanadi.

2. Tarmoqning kirishiga kiruvchi obyekt uzatiladi va uyg'otuvchi signallar klassik to'griqatlamlili prinsip bo'yicha tarmoqning barcha qatlamlarga tarqaladi (feedforward), ya'ni tarmoqdagi har neyron uchun orttirilgan yig'indi hisoblanadi va unga neyronning aktivlashgan funksiyasi qo'llaniladi, natijada neyronning chiqish qiymatlari  $y_i^{(n)}$ ,  $i=0\dots M_i-1$ , ( $M_i$  - i-qatlamdagisi neyronlar soni;  $n=0\dots N-1$ ,  $N$  - tarmoqdagi qatlamlar soni) hosil bo'ladi.

3. (7.3) yoki (7.4) formulalar bo'yicha olingan neyronlarning chiqiash

qiymatlari asosida vaznli koeffitsiyentlar o'zgartiriladi.

4. Chiqish qiymatlari berilgan aniqlikda barqarorlashmagunch 2-qadamdan sikl bajarilaveradi.

Siklning ikkinchi qadamida kiruvchi obyektlarning barchasi navbatma-navbat tarmoqning kirishiga taqdim qilinadi.

### 6.5.2. Koxonen neyron tarmoqlari

Koxonen tarmoqlari [24] dinamik yadrolar usulining xususiy holi bo'lib, sinflash masalasini *o'qituvchisiz yechadigan tarmoqlar* hisoblanadi. Koxonen tarmoqlarining fazoli variantini qaraymiz. n-o'chovli fazoda m nuqtadan (obyektdan) iborat  $\{x^p\}$  nabor berilgan bo'lsin. *Talab qilinadi*,  $\{x^p\}$  nuqtalar to'plamini Evklid masofasining kvadrati bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan k ta singlarga ajratish. Buning uchun  $\alpha^i$  ta shunday k nuqtalarni topish kerakki, ular uchun  $D = \sum_{i=1}^k \sum_{x \in P_i} ||\alpha^i - x||^2$  minimal bo'lsin, bu yerda  $P_i = \{x: ||\alpha^i - x|| < ||\alpha^q - x||, \forall q \neq i\}$ .

Bu masalani yechishning turli algoritmlari mavjud. Ulardan eng samaralirog'ini keltiramiz [11, 24].

1. Ba'zi boshlang'ich  $\alpha^i$  nuqtalar naborini beramiz.

2.  $\{x^p\}$  nuqtalar to'plamini quyidagi qoida bo'yicha K ta sinflarga ajratamiz



$$P_i = \{x: ||\alpha^i - x|| < ||\alpha^q - x||, \forall q \neq i\}.$$


3. Hosil qilingan ajratish bo'yicha minimallik sharti  $D_i = \sum_{x \in P_i} ||\alpha^i - x||$  bo'yicha yangi  $\alpha^i$  nuqtani hisoblaymiz.

$|P^i|$  yordamida i-sinf dagi nuqtalar sonini belgilaymiz va 3-qadamda qo'yilgan masalaninig yechimini quyidagi ko'rinishda yozish mumkin  
 $a^i = \frac{1}{|P_i|} \sum_{x \in P_i} x$ .

Algoritmning 2 - va 3-qadamlarini  $a^i$  nuqtalar nabori o'zgarmas bo'lib qolguncha davom ettiramiz. Obyektlarni sinflashga o'rgatishning oxirida shunday n NTni hosil qilamizki, u ictiyoriy  $x$  nuqtadan barcha qolgan  $a^i$  nuqtalargacha Evklid masofasining kvadratlarini hisoblaydi va  $x$  nuqtani k-sinfning biriga talluqli ekanligini aniqlaydi. Tarmoqda javob sifatida minimal signalni beruvchi neyronning tartib raqami olinadi.

Endi ushbu algoritmni NTli ifodalashni qaraymiz. Birinchidan, Evklid masofasining kvadratini hisoblashni tarmoqlar ko'rinishida ifodalash ancha murakkab hisoblanadi (7.23, a-rasm).





б) Кoxонен to'ri i-neyronining teskari ishlashi.

7.23-rasm. Koхонен тармог'i va neyronlarining to'g'ri va teskari ishlashi.

Ta'kidlaymizki, kvadrat masofalarini to'liq hisoblash shart emas. Haqiqatdan ham:

$$||\alpha^i - x|| = (\alpha^i - x, \alpha^i - x) = ||\alpha^i|| - 2(\alpha^i, x) + ||x||.$$

Oxirgi formulada birinchi had  $x$  nuqtadan bo'g'liq emas, ikinci had adaptivli summator yordamida hisoblanadi va uchinchi had barcha taqqoslanadigan qiymatlar uchun bir xil. Demak, har bir sinf uchun birinchi ikkita hadlarni hisoblaydigan NTni oson hosil qilish mumkin (7.23, б-rasm).

O'rgatuvchi tarmoqni qisqartirishning ikkinchi tomoni algoritming ikkinchi va uchinchi qadamlarini ajratishdan voz kechish hisoblanadi.

#### *Sinflash algoritmi.*

1. 7.23, б-rasmda keltirilgan bitta neyronlar qatlidan iborat NT kirishiga  $x$  vektor uzatiladi.

2. Minimal javobni beradigan neyron tartib raqami  $x$  vektor qarashli bo'lgan sinf raqami hisoblanadi.

#### *O'rgatish algoritmi.*

1. Barcha tarmoqlardagi tuzatishlarni nolga teng deb hisoblaymiz.

2.  $\{x^p\}$  to'plamdag'i har bir nuqta uchun quyidagi protseduralarni bajaramiz.

2.1. Tarmoqda sinflash uchun nuqtani (obyektni) olamiz.

2.2. Aytaylik sinflashda nuqta 1-sinfga tegishli degan javob olingan bo'lsin. U holda tarmoqning teskari ishlashi uchun  $\Delta$  vektor uzatilgan bo'lsin va uning koordinatalari quyidagi qoida bo'yicha aniqlansin:

$$\Delta_i = \begin{cases} 0, i \neq 1 \\ 1, i = 1 \end{cases}$$

2.3. Ushbu nuqtalar uchun hisoblangan tuzatmalar oldingi hisoblanganlarga qo'shiladi.

3. Har bir neyron uchun quyidagi prorseduralarni amalga oshiramiz.

3.1. Agar oxirgi sinaps bilan hisoblangan tuzatma 0 ga teng bo'lsa, u holda NTdan olib tashlanadi.

3.2. Aytaylik, o'rgatish parameteri qiymati-oxirgi sinaps yordamida hisoblangan tuzatmaga teskari qiymatga teng bo'lsin.

3.3. Birinchi n ta sinapslarda to'plangan tuzatmalarning kvadratlar yig'indisini hisoblaymiz va (-2) ga bo'lib, oxirgi sinapsning tuzatmasiga kiritamiz.

3.4.  $h_1 = 0, h_2 = -2$  parametrlar bilan o'rgatish qadamini bajaramiz.

4. Agar yana hisoblangan sinaptikli vaznlar oldingi qadamda olingan vaznlardan farq qilsa, u holda algoritmnинг birinch qadamiga o'tamiz.

## 7-§. Neyron tarmoqlarning yutuqlari va kamchiliklari

*NTlarning bilimlarni tasvirlash usuli sifatidagi yutuqlari:*

- bilimlarni formallshtirishning zarur emasligi, ya'ni formallashtirishning obyektlarni o'rganishga almashganligi;
- noravshan bilimlarni tabiiy tasvirlash va ishslash tabiiy intellectual tizimidek, ja'ni inson miyasidek amalga oshiriladi;
- parallel ishslashga yo'naltirilganligi - mos apparatli quvvatlash natijasida real vaqtda ishslash imkoniyatini ta'minlaydi;
- ko'po'lchovli ma'lumotlar va bilimlarni ishslash imkoniyati.

*NTlarning bilimlarni tasvirlash usuli sifatidagi kamchiliklari:*

- NTlar ishi natijalarini verballashtirishning va nima uchun u yoki bu qarorni qabul qilganligini tushuntirishlarning qiyinligi;
- olingan natijalarni takrorlanishini va birqiyamatliligini ta'minlashning mumkin emasligi.

Hozirgi vaqtda NTlardan foydalanib bilimlarni tasvirlashning mantiqiy va empiric usullarini bitta tizimga birlashtirish g'oyasi ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ning natijasida semantikli NTlar, noravshan NTlar va "Ikkiyaramsharli" ETlar kabi tadqiqot yo'nalishlari paydo bo'ldi. Bu yo'nalishlardagi tadqiqotlarning maqsadi - bu shunday SIT yaratiga yo'naltirilgan bo'lib, ular xuddi insong'a o'xshab

o'rgatish qobiliyatiga ega bo'lishi, o'rgatishda tashqi olam parametrlari va simvolli tushunchalar hamda tushunchalar ierarxiyasini o'rtasidagi assotsiativli aloqalarni yaratishi, assotsiativli izlash va mantiqiy xulosalashni birgalikda qo'llab masalalarni yechishi kerak.

### Nazorat savollari

1. NTlar qanday elementlardan iborat?
2. "Perseptron" qanday ishlaydi?
3. Neyron nima va neyron tarkibiga nimalar kiradi?
4. NTli hisoblashlarning afzalligi qanday holatlarda ko'rinishi?
5. NT qanday murakkab masalalarni yechishda qo'llaniladi?
6. Mak-Kallop-Pitts neyronining formal modeli qanday?
7. To'g'ri bog'lanishli va to'liqsiz bog'lanishli NT sxemasini keltiring?
8. NTlarning qanday turlari mavjud?
9. To'liq bog'langan, iyerarxikli NTlar sxemasini keltiring?
10. Bir qatlamli va ko'p qatlamli NTlar qanday tarmoqlar?
11. Xopfild va Xemming NT sxemalarini keltiring?
12. NTlar yordamida yechiladigan tanib olish, sinflash, klasterlash, approksimatsiyalash va avtoassotsiatsiyalash masalalari mohiyatini tushuntiring?
13. NTlarni o'rgatishning o'qituvchili, o'qituvchisiz va tasdiqlash usullarini tushuntiring?
14. Xopfild tarmog'ida neyronlarning to'g'ri va teskari faollashuvi sxemasini keltiring?

### Nazorat testlari

1. Elektr faolliklikka ega bo'lgan va organizmni operativ boshqaradigan tirik organizmlar nerv hujayralarining alohida turi - bu ..... hisoblanadi.
  - a) neyron; b) sinaps; c) akson; e) soma.
2. Dendritlar, akson, soma ..... tarkibiga kiradi.
  - a) neyron; b) sinaps; c) tarmoq; e) kompyuter.
3. NTlar yordamida asosan qanday tipdag'i masalalar yechiladi?
  - a) sinflash, klasterlash, approksimatsiyalash, avtoassotsiatsiyalash;
  - b) differensiallash, klasterlash, integrallash, avtoassotsiatsiya;
  - c) bo'laklash, ketma-ket izlash, to'plamlarni qo'shish;
  - e) to'plamlarni ko'paytirish, mantiqiy amallar bajarish, sinflash.

4. To'g'ri bog'lanishli NTlarda odatda uch turdag'i qanday neyronlar qatlamlari mavjud bo'ladi ?  
 a) Kiruvchi, yashirin va chiquvchi; b) Topologik , o'xshashlik va chiquvchi; c) O'qituvchili, vaznli va sinapsli; e) Buyruq-asosli, topologik va kiruvchi.
5. O'rgatishni tashkil etishga ko'ra NTlar qanday turlarga bo'linadi?  
 a) O'qituvchili va o'qituvchisiz; b) Topologikli va chiquvchi signallarsiz; c) O'qituvchili va vaznli; e) Buyruq-asosli va topologikli.
6. Har bir neyronning chiqishi barcha boshqa neyronlar kirishlari bilan, uning kirishlari esa qolgan neyronlar chiqishlari bilan bog'langan bo'lsa-bu ..... NT deyiladi.  
 a) to'liq bog'langan; b) topologikli; c) o'qituvchili; e) to'liq bog'lanmagan.
7. Neyron guruhlarining tegishli alohida qatlam va darajalarda joylashgan tarmog'i - bu ..... NT bo'ladi.  
 a) iyerarxikli; b) topologikli; c) o'qituvchili; e) to'liq bog'langan.
8. Bir nechta hisoblanuvchi neyronlar qatlamlaridan iborat bo'lgan tarmoqlar - bu ..... NTlar bo'ladi.  
 a) ko'p qatlamli; b) to'liq va topologikli; c) teskari aloqali;  
 e) lateralli va to'liq bog'langan.
9. Mak-Kallokk va U. Pits NTining formal modeli qaysi formula bilan tavsiflanadi?  
 a)  $S = \sum \omega_i x_i$ ; b)  $S = \frac{1}{n} \sum \omega_i x_i$ ; c)  $S = -\frac{1}{2} \sum \omega_i x_i$ ; e)  $S = -\sum \omega_i x_i$ .
10. Perseptron nechta qatlamli bo'lishi mumkin ?  
 a) ko'pqatlamli; b) faqat bir qatlamli; c) faqat ikki qatlamli;  
 e) faqat nol qatlamli.
11. Xopfild NTlari .....va.....hisoblanadi.  
 a) bir qatlamli; teskari aloqali; b) bir qatlamli; to'g'ri aloqali;  
 c) ko'p qatlamli; teskari aloqali; e) ko'p qatlamli; to'g'ri aloqali.
12. Xemming NTining kirishdagi ..... obyektgacha .....masofaga ega bo'lgan etalon obyektni tanlashi kerak va natijada tarmoqda ushbu etalon obyektgachasiga mos keluvchi .....chiquish faollashadi.  
 a) noma'lum; minimal; bitta; b) noma'lum; maxsimal; bitta;  
 c) noma'lum; minimal; ikkita; e) noma'lum; minimal; uchta.

## Masala va topshiriqlar

- NTlardan foydalanib kichik harflarni katta harflarga aylantiring. Bunda kichik harflar NTning kirishiga beriladi va chiqishid mos kata harflar hosil bo'ladi.
- NTlar yordamida darajalarni radianlarga o'tkazishni amalga oshiring.
- NTlar yordamida valyuta konvertorini dollardan so'mga o'tkazishni amalga oshiring.
- Ikkita kirish, ikkita chiqish va bir nechta yashirin neyronlarga ega bo'lgan NT berilgan bo'lsin. Tarmoqni shunday tashkil qilishkerakki, kirish signallarining joylari chishda joylarini o'zgatsin, ya'ni kirisga 0.47 va 0.64 sonlari berilsa, chiqishda 0.64 va 0.47 sonlari hosil bo'lsin.
- NTni ikkita son ustida arifmetik amallarni bajarishga o'rgating.
- NTni ikkita binar o'zgaruvchilar ustida mantiqiylarni amallarni bajarishga o'rgating.
- NTdan foydalanib zodiac belgisini sana va oyga qarab belgilashni amalga oshiring. Zodiak belgisi tarmoqning chiqish neyronidan kelgan signal kattaligi bilan belgilanadi.
- Quyidagi jadvalda nuqtalar nabori berilgan bo'lsin.

X	0	1	2	3	4	5	6	7	8
Y	3.75	6.45	3.78	2.89	9.65	4.98	5.76	2.74	8.05

Ushbu bog'liqlikni NT yordamida ikkinchi darajali polinom ko'rinishda


aproksimatsiya qiling. Natija boshlang'ich nuqtalarni va neyron tarmog'i

yordamida hosil qilingan egri chiziqdan iborat bo'lishi kerak.

9. NT yordamida  $[0,1]$  oraliqdagi uchta sonni ko'paytirish amalini bajaran.

11. Siqish koefitsienti 2 ga teng bo'lgan  $16 \times 16$  piksellli ikkilik tasvirlarni siqishni neyron tarmog'i yordamida amalga oshiring.

12.  $5 \times 7$  o'lchovli matrliza ko'rinishda berilgan 0 dan 9 gacha bo'gan raqamlarni tanib oluvchi NTni quring.



10. Quyidagi jadvalda obyektlar, ularning binar parametrlari va obyektlarning qaysi sinfga qarashliligi berilgan bo'lsin.

Obyek t	Parametrlar			Sinf
	1	2	3	
1	1	1	0	1
2	1	0	1	1
3	0	1	1	2
4	0	1	0	3
5	0	1	1	2
6	0	0	1	3
7	0	1	0	3
8	1	1	1	1
9	0	0	0	2

Ushbu jadvaldan foydalanib, agar obyektning 1-parametri = 1 bo'lsa, u holda 1-sinfga, agar 2-parametri = 3 bo'lsa, u holda 2-sinfga, aks holda 3-sinfga qarashli bo'l shini to'g'ri aniqlovchi neyron tarmog'ini yarating.

## **8-BOB. VIZUAL AXBOROTNI QAYTA ISHLASH TIZIMLARINING QO'LLANILISH SOHALARI, VAZIFALARI VA TASNIFLANISHI**

### **1-§. Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib olish masalasi**

Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib oluvchi tizim(TOT)lar. Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni o'rganish va tanib olish TOTlar nazariyasining muhim masalalari jumlasiga kiradi. Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni o'rganish va tanib olish masalalarini yechishda, avval tasvir ko'rinishdagi obyektlar qayta ishlanadi va kompyuterga kiritiladi. Kompyuter tasvir ko'rinishdagi obyektdan tizim taniydig'an qismlarni topadi va bu tasvir ko'rinishdagi obyektni haqiqiy belgililar bilan, ya'ni mashina kodi bilan almashtiradi.

Hozirgi kunda ilmiy tahlil qilinishi lozim bo'lgan tasvirlarni asosan quyidagilarga ajratish mumkin:

- harakatdagi tasvirlar (bunday tasvirlar turiga yurib ketayotgan shaxs, harakatdagi avtomashina va h.k.larni misol qilib ko'rsatish mumkin);
- biometrik tasvirlar (shaxs yuzi, barmoq izi, ko'z qorachig'i va h.k.);
- biologik yoki tibbiyotga oid tasvirlar (mikroskop yordamida olingan hujayralar tasvirlari va h.k.);
- kosmik tasvirlar (sputnik yordamida olingan yer sathi yoki turli boshqa sayyoralar sathi tasvirlari va h.k.);
- haritalar va turli geologik tasvirlar.

Tasvirlarni ilmiy tahlil qilish uchun uni qayta ishlash usullaridan foydalilanadi. Tasvirlarni *qayta ishlash usullariga* rangli tasvirni kulrang tasvirga o'tkazish, tasvirni binar (oq-qora) tasvirga o'tkazish, tasvirlarni bo'laklash, chegara ajratish, tasvir sifatini yaxshilash, tasvirni burchak bo'yicha burish, tasvirni masshtablash kabilarni keltirish mumkin. Tasvirlar bilan bog'liq masalalarning aksariyatida tasvirdagi obyektni tahlil qilish va uni tanib olish muammolari hal etiladi. Masalan, harakatdagi avtomashina raqamini tanib olish, fotosuratdagi shaxsni tanib olish va h.k. Tasvirdagi obyektlarni tanib olish uchun esa TOTlar usullaridan foydalilanadi [4, 12, 17, 18, 28, 33, 43].

Masalani hal etishda birinchi bosqichda qilinadigan ish - bu tasvirlarni qayta ishlash orqali obyekt belgilarni ajratib olishdir. Ikkinci bosqichda ajratib olingan belgilarni tahlil qilish orqali obyekt

tanib olinadi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, obyektni tanib olish natijasining ishonchiligi birinchi bosqichda olinadigan natijalarga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun tasvirlarni qayta ishslash va ular asosida obyekt belgilarini aniqlashda masala mohiyatidan kelib chiqqan holda usullarni tanlash hamda ular asosida ishonchli algoritmlarni yaratish talab etiladi.

Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib olishda shablonli, strukturali va belgili tanib olish tizimlaridan foydalaniлади.

**Belgilar asosida TOTlar.** Bu tizimlarda har bir tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarning o'rtacha tasviri n-o'lchovli belgilar fazosidagi obyekt sifatida aks ettiriladi. Bu yerda kiruvchi tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib olishda qiymati hisoblanadigan belgilar ro'yxati tanlanadi. Hosil qilingan  $n$  o'lchovli vektor etalon bilan taqqoslanadi va tasvir ko'rinishda berilgan obyektlar ularning ichidan ko'proq mos keladiganiga tegishli bo'ladi. Obyektlar sinfini tavsiflashni yaxlitligining zarur, ammo yetarli bo'limgan sharti shundan iboratki, berilgan sinfdagi barcha obyektlar tavsifni qanoatlantirishi kerak.

**Shablonlar asosida TOTlar.** Bunday tizimlar alohida tasvir ko'rinishda berilgan obyekt belgilarini rastrliga almashtiradi, uni bazada mavjud bo'lgan barcha etalonlar bilan taqqoslaydi va kiruvchi tasvir ko'rinishda berilgan obyektlardan eng kam nuqtalar bilan farq qiluvchi shablonni tanlaydi. Shablonlar asosida TOTlar tasvir ko'rinishda berilgan obyektlar kamchiliklariga yetarlicha bardoshli va kirituvchi ma'lumotlarni o'rganish jarayonida yuqori tezlikka ega, ammo shabloni unga ma'lum bo'lgan shriftlarnigina yaxshi taniy oladi. Agar taniladigan shrift etalondan ozgina farq qilsa, shablonlar asosida tanib oluvchi tizimlar hatto yuqori sifatli tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni o'rganish jarayonida ham xato qilishi mumkin.

**Strukturali TOTlar.** Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib olishda strukturali TOTlardan keng foydalaniлади. Bu usullarga ko'ra tasvir ko'rinishda berilgan obyektlar bir nechta muhim va doimiy qatnashadigan obyektlarga ajratiladi. Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarning muhim nuqtalari sifatida uning chetki nuqtalari va ikkita kesmaning yoki uchta kesmaning kesishishidan hosil qilingan tugunlar hisobga olinadi. Rastri tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarning vektorli ko'rinishi deganda shunday grafni tushunamizki, undagi tugunlarga tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarning chetki va kesishish nuqtalari, qirralariga esa chetki va kesishish nuqtalari orasidagi bog'lanishlar mos keladi. Bog'langan nuqtalar sifatida tasvir ko'rinishda

berilgan obyektlarning rastrida o'zaro bog'langan ikkita nuqta tushuniladi.

**Tasvir ko'rinishida berilgan obyektlardan etalon obyektlarni hosil qilish algoritmi.** Tasvirlarni tanib olishni o'rgatish jarayonini modellahtirish uchun tasvir ko'rinishida berilgan obyektlar bilan mashina o'rtasida ma'lum bir aloqani o'rnatish talab qilinadi. Tasvirni mashinaga kiritish uchun uni avvalombor kodlashtirish, yani mashina tiliga o'tkazish talab etiladi. Shuning uchun tasvirlarni kodlashtirishning ba'zi bir tamoyillarini ko'rib chiqamiz. Bizga tasvir timsoli tushirilgan ekran berilgan bo'lsin. Ushbu ekranni ma'lum katakchalarga bo'lamiz va uni tartiblaymiz. Bunday ekranni tarmoq yoki retseptor maydon deb qabul qilamiz. Tarmoqning har bir kvadratini retseptor deb ataymiz [12].

Raqam, harf va yordamchi simvol ko'rinishida berilgan tasvirlarni kodlashtirishda biz tabiiy usuldan foydalanamiz. Buning uchun vertikal va gorizontal to'g'ri chiziqlar bilan bo'lingan kvadratchalardan iborat to'rnii olamiz. Ushbu to'rga tasvirlarni tushiramiz. To'ning kataklariga tasvirning qismlari tushsa -1, agarda tushmasa - 0 qo'yamiz. To'ning satrlarini ketma-ket yozib chiqamiz. Natijada tasvirning 1 va 0 lardan iborat ikkilik kodi hosil bo'ladi.

Umumiyl holda tasvirning kodi  $x_1, x_2, \dots, x_n$  bilan ifodalanadi. Bu yerda  $i$ - kvadrat tartibi,  $n$  - kvadratlar soni bo'lib,  $x_i$  - 0 yoki 1 qiymat qabul qiladi.

Tasvirlarning kodi aniqroq bo'lishi uchun olingan to'rnii ko'proq kvadratlarga bo'lish zarur, ya'ni vertikal va gorizontal chiziqlar sonini ko'paytirish kerak. Bu usulni kriminalistika masalalarida, ya'ni barmoq izlarini kodlashtirishda va guvohlarning bergen ma'lumotlariga binoan shaxs rasmini chizishda va uni kodlashtirishda, shuningdek, turli xil imlo bilan yozilgan harflarni, raqamlarni va boshqa simvollarni hamda imzolarni kodlashtirishda qo'llasak bo'ladi.

Masalan, "S" harfi va "9" raqamini kodlashtirsak, quyidagi kodlarni hosil qilamiz (8.1-rasm):

0	0	1	1	1	0
0	0	1	1	1	0
0	0	1	0	0	0
0	0	1	1	1	0
0	0	0	0	1	0
0	1	0	0	1	0
0	1	1	1	0	0

1	1	1	1	1	0
1	0	0	0	1	0
1	0	0	0	1	0
1	1	1	1	1	0
0	0	0	0	1	0
0	1	0	0	1	0
0	0	1	1	1	0

8.1-rasm.

“S” - 001110 001110 001000 001110 000010 010010 011100

“9” - 111110 100010 100010 111110 000010 010010 001110

Aytaylik bizga turli xil dastxat bilan yozilgan  $A$  harfi berilgan bo‘lsin. Bu  $A$  harflarining har birini kodlashtirib, ulardan bitta etalon  $A$  harfini hosil qilamiz. Buning uchun bir xil o‘lchamli to‘r olamiz va har bir  $A$  harfini ushbu to‘rga tushiramiz va mos ravishda ularning har biri uchun kodlarni hosil qilamiz. Hosil bo‘lgan kodlarni ustun bo‘yicha yig‘indisini topamiz. Undan keyin hosil bo‘lgan yig‘indilarni satr bo‘yicha qo‘shamiz va hosil bo‘lgan yig‘indini 0 dan farq qiluvchi razryadlar soniga bo‘lamiz. Natijada turli dastxatdagi  $A$  harflarining o‘rtacha qiymat chiqadi. Ushbu o‘rtacha qiymatni bo‘sag‘a sifatida qabul qilamiz va har bir razryadni ushbu bo‘sag‘a bilan solishtiramiz. Agar  $x_i$  razryaddagi son bo‘sag‘a dan katta yoki teng bo‘lsa 1, aks holda 0 qo‘yamiz. Hosil bo‘lgan yangi kod turli xil dastxat bilan yozilgan  $A$  harflarning o‘rtachasi, ya’ni etaloni bo‘ladi. Bu jarayonning algoritmi quyidagi qadamlardan iborat:

1.  $n^*m$  o‘lchovli to‘r olinadi.

2.  $n^*m$  o‘lchovli to‘rga tasvirni tushiriladi.

3. Kodlashtiriladi:

$$x_{ij} = \begin{cases} 1, & \text{agar tasvir qismi katakchaga tushsa,} \\ 0, & \text{agar tasvir qismi katakchaga tushmasa} \end{cases} \quad i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$$

4. Kodlar tagma - tag joylashtiriladi va mos razryadlar ustun bo‘yicha qo‘shiladi va yangi  $Z$  kod hosil qilinadi.

5.  $Z$  kodni razryadlari qo‘shiladi va  $S$  yig‘indi hosil qilinsdi.

6. Hosil bo‘lgan  $S$  yig‘indi  $z_i \neq 0$  bo‘lgan razryadlar soniga bo‘linadi va hosil bo‘lgan son o‘rtacha qiymat, ya’ni bo‘sag‘a  $\delta$  deb qabul qilinadi.

7.  $\delta$  ga nisbatan etalon tasvir hosil qilinadi:

$$Z = \begin{cases} 1, & \text{agar } z_i > \delta \\ 0, & \text{agar } z_i < \delta \end{cases}$$

*Misol:* Bizga 5 xil shaklda yozilgan A harfi berilgan bo'lsin [4] (8.2-rasm).

0 0 0 1 1 0	0 0 0 1 0 0	0 1 0 0 0 0	0 0 0 1 1 0	0 0 1 1 0 0
0 0 1 1 1 0	0 0 1 1 0 0	0 1 1 0 0 0	0 1 1 0 1 0	0 1 1 1 0 0
0 0 1 0 0 0	0 1 1 1 1 0	0 1 0 1 1 0	1 1 0 0 1 1	0 1 0 1 1 0
0 1 1 1 1 1	1 1 0 1 1 0	1 1 1 1 1 1	1 0 0 0 1 1	0 1 0 0 1 0
1 1 0 0 0 1	0 0 0 0 0 1	1 0 0 0 0 0	1 1 1 1 1 1	0 1 0 0 1 1
0 0 0 0 0 1	0 0 0 0 0 1	1 0 0 0 0 0	0 0 0 0 0 1	0 0 0 0 0 0

8.2-rasm

Bu raqamlardan quyidagi kodlar hosil qilinadi va ustunlar bo'yicha mos razryadlar qo'shiladi.

A 000110	001110	001010	011111	110001	000001
A 000100	001110	011110	110110	000001	000001
A 010000	011000	010110	111011	100000	100000
A 000110	011010	110011	100011	111111	000001
A 001100	011100	010110	010010	010011	000000
Z - 011420	035330	142351	342253	331124	100003

Hosil bo'lgan  $Z$  kodni  $z_i$  razryadlari yig'indisi  $S = 73$  hisoblanadi.  $z_i \neq 0$  bo'lgan razryadlar soni  $t = 28$  iborat. O'rtacha qiymat, ya'ni  $\delta = s/t = 73/28 \approx 2.6$  bo'sag'a aniqlanadi. Hosil bo'lgan  $\delta \approx 2.6$  bo'sag'a yordamida  $Z$  kodlashtiriladi:

$$Z = \begin{cases} 1, & \text{agar } z_i > 2.6 \\ 0, & \text{agar } z_i < 2.6 \end{cases}$$

Natijada  $Z = 000100011110 010110 110011 110001 000001$  hosil bo'ladi. Ushbu kod besh xilda yozilgan A harflarning etaloni bo'ladi (8.3-rasm). Hosil bo'lgan etalon kodda 1 raqami bo'lgan razryadlar A harfi uchun bo'lgan umumiylususiyatlarini anglatadi, ya'ni ushbu hususiyat A harflarining ko'prog'ida uchraydi va 0 raqami bo'lgan razryadlar A harflarining ko'pchilik qismida uchramaydigan xususiyatni bildiradi.

**Yangi obyektlarni tanib olish.** Tasvir ko'rinishida, masalan turli shaklda yozilgan harflarni o'rganish


0 0 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0
0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0
0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0
0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0	0 1 1 1 1 0
1 1 0 0 0 0	1 1 0 0 0 0	1 1 0 0 0 0	1 1 0 0 0 0	1 1 0 0 0 0

8.3-rasm


jarayonida biz etalon ishoralar jadvalini hosil qilamiz. Bu etalon jadvalni hosil qilishda biz belgilar fazosini va obyektlar sonini qisqartirdik, ya’ni etalon jadvalda faqat muhim belgilar va obyektlarni qoldirdik. Ushbu belgilar va obyektlardan biz yangi obyekt(YO)larni tanib olishda foydalanamiz. Bu jarayon quyidagicha amalga oshiriladi: YO larning koordinatalari etalon jadvaldagidek ustunlar bo‘yicha mashinaga kiritiladi. Biz obyektning kodini satr sifatida hosil qilamiz. Mashina YOning kodini jadvaldagagi har bir obyektning kodi bilan solishtiradi. Agar YOning kodi etalon jadvaldagagi obyektlarning birortasi bilan mos tushsa, mashina YOni mos tushgan obyekt joylashgan sinfga qarashli ekanligini aniqlaydi.

Agarda YOning kodi turli sinflarda uchraydigan bir nechta obyektlarning kodi bilan mos tushsa, u holda YO qaysi sinfdagi obyektlarga ko‘proq o‘xshasa, o’sha sinfga qarashli bo‘ladi. Bu jarayon ko‘proq ovoz olish yo‘li bilan sinflashtirish deyiladi. Bu holda o‘xshashlik funksiyalarining qiymatini hisoblash, baholarni hisoblash, chekli qisqartirish va qismiy pretsedentli algoritmlardan foydalanish mumkin. Biz quyida harf va raqamlarni etalonini topish va yangi harf va raqamlarni o‘xshashlik funksiyalarini hisoblash algoritmidan foydalanib tanib olish dasturiy ta’midot(DT)ini keltiramiz.


**Dasturiy ta’midot.** Qo‘lyozma tasvirlar, masalan  $\Phi$  harfini 8 ta turli xil tasviri kompyuterga kiritiladi [4] (8.4-rasm). 8 xilda kirilgan  $\Phi$  harfini etaloni 8.5-rasmdagi oynachada hosil bo‘ladi. 8.5-rasmdagi tashqi oyna maydonchasiga yangi  $\Phi$  harfi kiritiladi va 8.5-rasmdagi  $\Phi$  harfini etaloni bilan solishtirish natijasida uning qaysi harf ekanligi 8.7-rasmdagidek aniqlanadi.




8.4-rasm.



8.5-rasm.



8.6-rasm.



8.7-rasm.

## 2-§. Strukturali belgilar bilan berilgan obyektlarni tahlil qilish va tanib olish

Strukturali TOTni yaratishda strukturali belgilar bilan berilgan obyektlarni avtomatik qayta ishlash va ularni tanib olish bo'yicha avtomatlashgan tizimini yaratish uchun bir necha muammolarni hal qilish kerak. Buning uchun strukturali belgilar bilan berilgan obyekt tasvirlarni tafsiflovchi burchaklari, kesishish chiziqlari, chetki nuqtalari, vertikal va gorizontal chiziqlari va h.k.larni aniqlash va ular orasidagi bog'lanishlarni topish masalalaridir. Qo'lida chizilgan obyekt tasvirlarni kompyuterga kiritish, ularni qayta ishlash, ularning boshlang'ich strukturali belgilar ro'yxatidan muhimlarini topish strukturali TOTni yaratishning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Bunday TOTni yaratish uchun qo'lida chizilgan obyekt tasvirlari kompyuterga maxsus skanerlar orqali kompyuterga kiritiladi va qayta ishlanadi. Undan keyin kompyuterda maxsus algoritmik dasturlar yordamida avvalo tasvirni xarakterlovchi belgilar ro'yxati tuziladi va undan keyin ular orasidan muhimlari aniqlanadi.

Aytaylik, obyekt tasvirining nomlariga mos  $K_1, K_2, \dots, K_l$  sinflar berilgan bo'lsin. Sinf sifatida tasvir nomimi belgilaymiz. Har bir  $K_i$  sinfdagi tasvir turli shakllardan iborat bo'lishi mumkin. Bu tasvirlar majmuasini etalon tanlov (EtT) ko'rinishda berish mumkin (8.1-jadval).

8.1-jadval. Etalon tanlov.

Sinflar	Tasvirlar	Belgilar
$K_1$	1 - tasvir	$\alpha_{11} \alpha_{12} \dots \alpha_{1n}$
	.....	.....
	$m_1$ - tasvir	$\alpha_{m_1 1} \alpha_{m_1 2} \dots \alpha_{m_1 n}$
...	...	...
$K_l$	$m_{(l-1)}$ - tasvir	$\alpha_{m_{(l-1)1}} \alpha_{m_{(l-1)2}} \dots \alpha_{m_{(l-1)n}}$
	.....	.....
	$m_l$ - tasvir	$\alpha_{m_{l1}} \alpha_{m_{l2}} \dots \alpha_{m_{ln}}$

Bu yerda  $n$  - tasvirlarda berilgan belgilar soni,  $m_1, m_2, \dots, m_r$  - mos ravishda  $K_1, K_2, \dots, K_r$  sinflardagi tasvirlar soni bo'lib,  $m = m_1 \cup m_2 \cup \dots \cup m_r$ .

Shuningdek, bizga qandaydir yangi tasvirlar to'plami (sinov tanlov) berilgan bo'ladi (8.2-jadval).

Bu yerda,  $r$  - belgilar soni,  $r$  - yangi berilgan tasvirlar soni.

8.2-jadval. Sinov tanlov.		
Tasvirlar	Belgilar	
1 - tasvir	$b_{11} b_{12} \dots b_{1n}$	
.....	.....	
r - tasvir	$b_{r1} b_{r2} \dots b_{rn}$	

*Talab etiladi:* Tasvirlarni kompyuterga turli shakllarda kiritib, shakllarning belgilar ro'yxatini aniqlash, etalon tasvirlarni hosil qilish va ularning muhim belgilari asosida sinov tanlovda berilgan yangi tasvirlarni oldindan berilgan sinflarning qaysi biriga tegishli ekanligini aniqlash.

**Tasvir ko'rinishda berilgan geometrik shakl(GSH)larni tanib olish.** Aytaylik, GSHlarning qo'lda chizilgan turli tasvirlari berilgan bo'lsin [4]. GSHlarni tanib olish algoritmi keltiramiz. Bu algoritm bo'yicha har bir GSHda chekka nuqtalari, kesishish nuqtalari, vertikal chiziqlari, gorizontal chiziqlari, kesmalar kesishmasi, yuqori vertikal va gorizontal chiziqlar kesishmalari, quyi vertikal va gorizontal chiziqlar kesishmalari, vertikal va gorizontal chiziqlar kesishmalari, ovallar, yuqori ovallar va quyi ovallari, burchaklar miqdori, bissiktrisa, absissa, ordinata, mediana kabi belgilar miqdoridan belgilar sifatida foydalaniлади. Masalan, to'rtburchak 4 ta chetki maxsus nuqtalar va ikkita chiziqning kesishishidan hosil bo'lgan nuqtalar va 4 ta chiziqdan iborat. Bu usulda GSHlarni o'rganish jarayonida har bir GSH uchun belgilar ro'yxati quriladi (8.3-jadval).


EiT da har bir GSHning bir nechta ko'rinishi qaraladi. Har bir GSH uchun  $\alpha_i, i=1, n$  belgilar tahlil qilinadi.  $F_i$  orqali  $i$  - belgiga ega bo'lgan GSHlar to'plamini belgilaymiz. U holda har bir  $i$  uchun  $F_i = S_{i1}, \dots, S_{im_i}$  ko'rinishda bo'ladi.  $F_i = S_{i1}, \dots, S_{im_i}$  belgi uchun qarama-qarshiliklar izlanadi. Agar qandaydir 2 ta GSH uchun belgilar qiymati kesishsa  $F_i \cap C_j \neq \emptyset$ , u holda ushbu qarama-qarshilik yo'qotiladi. Bu holda GSHlarni bir-biridan yaxshiroq ajratuvchi shunday  $j$  - belgi topiladi, ushbu belgi  $F$  to'plamni o'zaro kesishmaydigan to'plam

ostilariga ajratadi. Undan keyin har bir to'plam ostilari uchun protsedura takrorlanadi va qarama-qarshiliklar tekshiriladi va h.k.


Umumiy holda bir xil ma'noni anglatuvchi qo'lda chizilgan turli shakldagi bir nechta GSHlardan har birining etalonini hosil qilish va hosil qilingan etalon GSHlar yordamida yangi qo'lda chizilgan GSHlarni tanib olish talab etiladi.

GSHlar uchun yuqorida keltirilgan protsedurani barcha GSHlari uchun amalga oshiramiz va GSHlarni xarakterlovchi xususiyatlardan tashkil topgan ETni hosil qilamiz. Sinov tanlovda berilgan yangi qo'lda chizilgan GSHlarni tanib olish uchun uning xususiyatlari aniqlanadi va EtTdagi GSHlarning mos belgilari bilan solishtiriladi va qaysi GSHga ko'proq o'xshasa, o'sha sinfga qarashli deb topiladi.

**Dasturiya'minot.** GSHlarni kompyuterga kiritish yoki chizish maydonida sichqoncha yordamida chizish bilan ularning bazasi hosil qilinadi [4]. Yangi GSH, masalan parallelogramm kiritiladi (8.8-rasm) va bazadagi GSHlar bilan solishtirish natijasida uning qanday GSH ekanligi 8.9-rasmdagidek aniqlanadi.



8.8-rasm.



8.9-rasm.

### 3-§. Qo'lyozma raqamlarni tanib olish

**Qo'lyozma raqamlarni tanib olish.** Qo'lyozma raqam(QR)larni tanib olishda strukturali usullardan keng foydalilanadi. Bu usullarga ko'ra raqamlar bir nechta muhim va doimiy qatnashadigan elementlarga ajratiladi.

Raqamlarning muhim nuqtalari sifatida uning chetki nuqtalari va ikkita kesmaning yoki uchta kesmaning kesishishidan hosil qilingan tugunlar hisobga olinadi.

QRlarni tanib olishda ishlataladigan *algoritmi* keltiramiz. Har bir raqam uchun quyidagi topologik belgilari hisoblanadi:

1. Raqamning normallashgan maxsus nuqtalari olinadi.

2. Har bir tugundan navbatdagi tugungacha yoyning uzunligi foizlarda hisoblanadi (foizlar grafdagи yoylarning umumiy uzunligidan olinadi).

3. Berilgan maxsus nuqtadan navbatdagi nuqtagacha normallashgan yo'nalish aniqlanadi.

4. Ikkita yoki uchta kesmaning kesishishidan hosil bo'lgan tugunlar aniqlanadi.

5. Ikki yoki uchta kesmanining kesishishidan hosil bo'lgan maxsus nuqtaning navbatdagi chap yoki o'ng tugunlar bilan bog'lanishi aniqlanadi.

Masalan 1 raqami 3 ta chetki  $V_1, V_3, V_5$  maxsus nuqtalar,  $V_2$  va  $V_4$  tugunlar ikkita kesmalarning kesishishidan nuqtalaridan iborat (8.10- rasm).


Usulning mazmuni shundan iboratki, raqamlarni o'rganish jarayonida har bir raqam uchun topologik kodlar quriladi. Bu usulda daraxtsimon tanib olish masalasidan foydalaniildi.

Etda har bir raqamning qo'lyozma shakldagi bir nechta ko'rinishi qaraladi. Har bir raqam uchun  $p[i]$ ,  $i = 1, \dots, N$  belgilar tahlil qilinadi. Bu yerda  $N$ -qaralayotgan raqamning belgilari soni.  $A_i$  orqali 1 raqamida uchraydigan  $i$  - belgining to'plamini belgilaymiz. U holda har bir  $i$  uchun,  $0 < i \leq N$ ,  $A_i$  quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$A_i = A_{i1} \cup A_{i2} \cup \dots \cup A_{im_i}, \text{bu erda } A_{ij} = \{x \in R, s_{ij} \leq x \leq e_{ij}\}$$




$m_i$  har bir  $i$  va har bir  $j$  uchun turlicha. Undan keyin qarama-qarshiliklar izlanadi. Agar qandaydir raqamlar, masalan 1 va 2 uchun belgilari qiymati kesishsa, ya'ni  $A_i \cap B_i \neq \emptyset$ ,  $\forall i, i = 1, 2, \dots, N$  bo'lsa, u holda ushbu qarama-qarshilikni yo'qotishga uriniladi. Bu holda raqamlarni bir-biridan yaxshiroq ajratuvchi shunday  $j$  - belgi topiladiki, ushbu belgi  $A$  to'plamni o'zarlo kesishmaydigan shunday  $A'$ ,  $A''$  to'plam ostilariga ajratadiki, ular uchun  $A = A' \cup A'', A_j = A'_j \cup A''_j$ , bu erda  $A'_j = A_{j1} \cup A_{j2} \cup \dots \cup A_{jk}, A''_j = A_{j_{k+1}} \cup A_{j_{k+2}} \cup \dots \cup A_{jm_j}$ ,  $0 < k < m_j$ . Undan keyin har bir  $A'$ ,  $A''$  uchun protsedura takrorlanadi hamda qarama-qarshiliklar tekshiriladi va h.k.

Boshqa raqamlar uchun maxsus nuqtalar 8.10 - rasmdagidek aniqlanadi.



8.10 - rasm.

**Dasturiy ta'minot.** Raqam tasviri kompyuterga kiritiladi yoki chiziladi, har bir raqam tasviri 8.4-jadvaldagagi belgilar asosida tanib olinadi [4]. Masalan 1, 8, 2 raqamlarning har biri qanday raqam ekanligi dastur yordamida aniqlandi (8.11-8.13-rasmlar).



8.11-rasm.

8.12-rasm.

8.13-rasm.

#### 4-§. Shaxs imzolarini o'xshashlik koeffitsiyentlari asosida tanib olish

Shaxs imzolarni kodlashtirish, o'xshashlik koeffitsiyentlari va funksiyalarini hisoblash asosida yangi shaxs imzolarini tanib olishni ta'minlovchi algoritmi keltiramiz.

Algoritm quyidagi qadamlardan iborat:

1. Tezkor xotiraga  $V$  EtT sifatida  $V_1, V_2, \dots, V_l$  sinf(shaxs)lar nomlari, har bir sinfdagi shaxsning  $X_1, X_2, \dots, X_m$  imzolari hamda  $V'$  sinov tanlov sifatida shaxslarning yangi  $X_1, X_2, \dots, X_m$  imzolari kiritiladi yoki kom'pyuterda chiziladi.

2.  $X_1, X_2, \dots, X_m$  imzolar  $n * m$ - o'lchovli retseptor maydonida kodlashtiriladi va hosil qilingan  $n * m$  kodlar 1-o'lchovli  $x_1, x_2, \dots, x_n$  vector shakliga keltiriladi.

3.  $i = 1$ .  $V'$  dan  $X_i$  imzo olinadi.

4.  $j = 1$ .  $V$  dagi  $V$ , sinf tanlanadi.

5.  $k = 1$ .  $V$ , sinfdan  $X_t$  imzo tanlanadi.

6.  $t = 1$ .  $V$  dagi  $X_t$  imzo kodi va  $V$ , sinfdagi  $X_t$  imzo kodi bilan  $a_i, h_i, q_i, b_i$  koefitsiyentlar hisoblanadi [4, 43].

7.  $t = t + 1$ . Agar  $t \leq n$  bo'lsa, u holda algoritm 6-qadamga o'tadi, aks holda 8-qadamga o'tadi.

8.  $k = k + 1$ . Agar  $k \leq m$  bo'lsa, u holda algoritm 5-qadamga o'tadi, aks holda 9-qadamga o'tadi.

9.  $V$  dagi  $X_t$  imzo kodi va  $V$ , sinfdagi  $X_t$  imzo kodi bilan hisoblangan  $a_i, h_i, q_i, b_i$  koefitsiyentlarning har birining yig'indisi hisoblanadi [4, 43]:

$$a_{\Sigma} = a_1 + a_2 + \dots + a_n, \quad h_{\Sigma} = h_1 + h_2 + \dots + h_n, \quad q_{\Sigma} = q_1 + q_2 + \dots + q_n,$$

$$b_{\Sigma} = b_1 + b_2 + \dots + b_n.$$

10.  $V$ , sinf uchun  $n_{\Sigma} = a_{\Sigma} + h_{\Sigma} + q_{\Sigma} + b_{\Sigma}$  hisoblanadi.

11.  $V$ , sinf uchun 9 ta o'xshashlik funksiyalarining qiymatlari hisoblanadi [11, 109].

12.  $j = j + 1$ . Agar  $j \leq l$  bo'lsa, u holda algoritm 4-qadamga o'tadi, aks holda 13-qadamga o'tadi.

13.  $i = i + 1$ . Agar  $i \leq m$  bo'lsa, u holda algoritm 3-qadamga o'tadi, aks holda 14-qadamga o'tadi.

14.  $V$  dagi  $X_t$  imzoning qaysi sinf(shaxsga)ga tegishli ekanligini aniqlash uchun

$$15. R(X_t) : \begin{cases} X_t \in V, \text{ agar } S'_t > S^t \\ X_t \notin V, \text{ agar } S'^t > S^t \\ X_t \notin V, \text{ va } X_t \in V_t, \text{ agar } S'_t = S^t \end{cases} \quad (i = \overline{1, 9})$$


HQQdan foydalilanildi.

**Dasturiyta'minot.** Shaxs imzolarini kompyuterga kiritish yoki kompyuterda sichqoncha yordamida hosil qilish 8.14 - rasmdagidek va ularni kodlashtirish 8.15 - rasmdagidek amlaga oshiriladi [4].

Natijada shaxs imzolarining kodlaridan iborat  $V$  etalon va  $V$  sinov


tanlovlari hosil qilinadi (8.15-rasm).  $V$  dagi yangi shaxs imzosini (8.16-rasm) tanib olish uchun uning kodini  $V$  da joylashgan har bir sinfdagi

shaxs imzolarining kodlari bilan o'xshashlik koeffitsiyenlari va ular asosida o'xshashlik funksiyalari hisoblanadi [4, 43]. O'xshashlik funksiyalarining qiymatlari asosoda hal qiluvchi qoida (HQQ)  $R(X')$  quriladi va undan yangi imzolarni tanib olishda foydalilanadi.



### 8.14-rasm.

## 8.15-rasm.



## 8.16-rasm.

## 8.17-rasm.

Yangi imzoning qaysi shaxsga tegishli ekanligi haqidagi natija aniqlanadi

## Информационный объект Документ - шаблон регистра

## 8.18-rasm.

## **5-§. Rastrli tasvirlar va videotasvirlarga ishlov berish va tadqiqot o'tkazish dasturiy vositalari**

Rastrli tasvirlarga ishlov berishning dasturiy vositalarini ishlatalishiga qarab shartli ravishda ikkiga ajratib olish mumkin: foydalanuvchilar uchun va tadqiqotchilar uchun. Foydalanuvchilar uchun dasturiy vositalarga shaxsiy, korxona va tijorat ishlarida foydalaniladigan dasturiy vositalarni kiritish mumkin, masalan, Adobe Photoshop, CorelPhoto-Paint, PhotoFinish, Picture Man, Paintbrush, VixWin Platinum (tibbiyotchilar uchun) va boshqalar. Tadqiqotchilar uchun dasturiy vositalar tasvirlarga ishlov berish algoritmlarini sinovdan o'tkazish, dastur tuzish va ilovalar yaratish uchun mo'ljallangan bo'ladi va ularga yuqori dasturlash tillari (C++, Java, Python, C#, ...) va amaliy matematik dasturiy paketlar(MATLAB, Mathcad, Maple, Mathematica va boshqalar)ni keltirish mumkin.

Raqamli videotasvirlarga ishlov berish dasturiy vositalarini ham shunday sinflashtiradigan bo'lsak, birinchi sinfdagilarga Kinostudiya Windows (Movie Maker), VirtualDub, Avidemux, Adobe After Effects, ZS4 Video Editor, VSDC Free Video Editor, Pinnacle Studio, Corel VideoStudio Pro, Edius videomontaj dasturlarini va ikkinchi sinfga esa obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillari, OpenGL, OpenCV, MATLAB tizimini misol qilib keltirish mumkin.

OpenCV - kompyuterning ko'rish algoritmlarining, tasvirlarga ishlov berish va ochiq kalitga ega bo'lgan umumiy belgilanishdagi sonli algoritmlarning kutubxonasıdir. C/C++ da amalga oshirilgan, shuningdek, Python, Java, Ruby, Matlab, Lua va boshqa tillar uchun ishlab chiqilmoqda. Akademik va tijorat maqsadlarida bemalol foydalanishi mumkin — BSD litsenziysi shartlarida tarqatiladi.

MATLAB paketida tasvirlarga ishlov berish vositasi. MATLAB nomi ingliz tilidagi MATrixLABoratory so'z birikmasidan kelib chiqadi. MATLAB tizimi LINPACK (Linear System Package) va EISPACK (Eigen System Package) loyihalari doirasida ishlab chiqilgan matriksali dasturiy mahsulotladan foydalanishni engillashtirish uchun yozilgan edi.

Hozirgi vaqtida MATLAB yadroasi matriksali hisoblashlar uchun eng zamonaviy DTni o'z ichiga oladigan LAPACK (Linear Algebra Package) va BLAS (Basic Linear Algebra Subprograms) kutubxonalariga o'rnatilgan. Universitet muhitida MATLAB

matematika, texnika va boshqa ilmiy fanlar bo'yicha boshlang'ich va chuqurlashtirilgan kurslar uchun standart hisoblash asbobi hisoblanadi.

Sanoatda esa MATLAB ko'pgina tadqiqotchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan keng foydalaniladi. MATLAB tizimidan ingliz tilida toolbox (asboblar to'plami) deb ataladigan ixtisoslashtirilgan dasturlar to'plamlari ko'rinishida keng foydalaniladi.

Image Processing Toolbox raqamli ishlov berish va tasvirlar tahlili uchun vositalarning keng spektorini tavsiya etadi. MATLAB ilovalarini ishlab chiqish muhiti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Image Processing Toolbox paketi kuchni asosiy ilmiy yoki amaliy vazifani hal etishga to'plash imkonini yaratgan holda sizni kodlashning uzoq davom etadigan operatsiyasini bajarish va algoritmlarni sozlashdan xalos etadi [34].

MATLAB va Image Processing paketi foydalanuvchining yangi g'oyalari va usullarini rivojlantirish, joriy etish uchun maksimal darajada moslashtirilgan.

Image Processing Toolbox ilovasi MATLAB muhitida raqamli hisoblashlar imkoniyatini kengaytiradigan funksiyalar to'plamidan iborat. *Ilova tasvirlarga ishlov berishning turli operatsiyalarini*, jumladan tasvirlarning vaqt oralig'idagi qayta o'zgarishi, morfologik operatsiyalar, o'zgaruvchan va qobiqli ishlov berish, turli filtrlar yordamida chiziqli filtrlash, tasvirlarni tahlil qilish va ularni yaxshilash, tasvirlarni tiklash, buzilishlarni yo'q qilish, qaratilgan sohasiga ishlov berish kabilarni o'z ichiga olgan holda qo'llab quvvatlaydi.

Ilovaning ko'pgina funksiyalari MATLAB tizimida mantiqiy-fayllar ko'rinishida taqdim etiladi. Ularda tasvirlarga ishlov berishning eng ko'p ma'lum bo'lgan algoritmlari amalga oshirilgan. Shuningdek, funksiyalarning ushbu algoritmlarni amalga oshiradigan dasturiy kodlarini qo'rib chiqish imkoni mavjud.

Image Processing Toolbox ilovasining barcha M-fayllari bir xil funksiyalarga ega va ulardan Signal Processing Toolbox va Wavelet Toolbox kabi boshqa ilovalar M-fayllari kombinastiyalarda foydalanish mumkin.

Image Processing Toolbox paketi olimlar va muhandislar uchun raqamli ishlov berish va tasvirlarni tahlil qilish uchun vositalarning keng spektrini taqdim etadi. Uning *asosiy xususiyatlari* tasvirlar detallarini tiklash va ajratish, rasvirning ajratilgan qismi bilan ishslash, tasvirni tahlil qilish, chiziqli filtrlash, tasvirlarni qayta o'zgartirish, geometrik o'zgarishlar, muhim detallar kontrastligini oshirish, binar

o'zgarishlar, tasvirga ishlov berish va statistika, rang o'zgarishlari, palitraning o'zgarishi va tasvirlar turlarini o'zgartirish kabilardan iborat.

MATLAB va Image Processing Toolbox paketi foydalanuvchining yangi g'oyalari va usullarini rivojlantirish uchun maksimal darajada moslashgan. Buning uchun mumkin bo'lgan o'ziga xos va noan'anaviy masalalarni hal etish uchun yo'naltirilgan paketlar to'plami mavjud.

Image Processing paketi hozirgi vaqtida dunyo bo'yicha 4000 ta kompaniya va universitetlarda ishlatiladi. Shu bilan birga foydalanuvchilar ushbu paket yordamida juda ko'p sohalarga tegishli, masalan: kosmik tekshiruvlar, harbiy ishlab chiqarishlar, astronomiya, tibbiyat, biologiya, robotlarni qurish, materialshunoslik, genetika va boshqa sohalar bilan bog'liq masalalarni hal etmoqdalar.

Image Processing Toolbox ilovasi tasvirlarga ishlov beradigan standart algortimlar va grafik vositalarning to'liq to'plamidan iborat. Siz tasvirni yaxshilashni, shovqinni kamaytirishni, tahlil qilish, vizuallashdirish va algoritmlarni rivojlantirishingiz mumkin. Asboblar panelining ko'pgina funksiyalari ko'p oqimli hisoblanadi.

MATLAB paketini yuqori dasturlash tillari (C/C++, Java, Delphi, FORTTRAN) bilan qiyoslasak, u ochiq arxitekturaga ega va yangi algoritmlarni ishlab chiqish hamda sohaga oid masalalarni yechishda vaqtin tejaydi. Unda yozilgan dasturni C++, Java yoki FORTTRAN tillariga avtomatik o'tkazish imkoniyati mavjud. Shuning uchun biz quyida faqat MATALAB paketida tasvirlarni tahlil qilish uchun misollar keltiramiz.

**Misol. Rang asosida yuzni topish.** Kompyuterli ko'rish tizimining masalalaridan biri tasvirda shaxs yuzini tanib olishni avtomatlashtirish masalasi hisoblanadi. Bu masalani yechishda ko'plab yondashuvlar mavjud bo'lib, ushbu ishda ranglarni tahlil qilish asosida tasvirda yuzni avtomatik topish usulini MATLAB muhitida qarab chiqamiz [18].

**1-qadam.** Matlab muhitida biror rasmni o'qib olinadi (8.19 - rasm):

```
clear; %boshlang'ich tasvirni o'qish;
L=imread('im.jpg'); [N M
s]=size(L);
```

```
L=double(L)./255; figure,
imshow(L); title('Rasm');
```

**2-qadam.** So'ngra yuz tasvirida xarakterli ranglardagi piksellarni tanlash zarur, buning uchun ularning intensivligining o'rtachasini va o'rtacha kvadratik

chetlanishini aniqlaymiz:

```
[x,y,z]=impixel; r=median(z(:,1));
std_r=std(z(:,1));
g=median(z(:,2));
std_g=std(z(:,2)); b=median(z(:,3)); std_b=std(z(:,3));
```


Yuz piksellari intensivligi qiymatlari va ularning mumkin bo'lgani variatsiyasi haqidagi bilimlarga tayanib tasvir segmentlanadi (8.20-rasm):

%Ranglar tahlil asosida segmentlash.

```
for i=1:N; disp(i); for j=1:M; if (abs(L(i,j,1)-r)<std_r)&(abs(L(i,j,2)-g)<std_g)&(abs(L(i,j,3)-b)<std_b); L1(i,j)=1; else L1(i,j)=0; end; end; end;
```

figure, imshow(L1);title('Segmentlash natijasi');

Segmentlash natijasida yuz tasviri piksellari intensivligiga mos piksellar boshqa obyektlarda ham uchrashi va ular ham segmentlanishi mumkin. Bu paytda segmentlangan tasvida kerakli obyektni, ya'ni yuzni topish talab qilinadi. Qidirish mezoni turlicha bo'lishi mumkin: maydon, shakl va boshqalar. Masalan, yuz tasviri katta bo'lmagan sohani egallaydi, degan farazni olaylik. Maydonga asoslangan mezon orqali yuzni qidirish maydondan kichik sohalarni olib tashlash mumkin.




8.19 - rasm.



8.20-rasm.

**3-qadam.** %boshqa obyektlar (berilgan qiymatlardan kichik maydon)ni olib tashlash, shovqinni tozalash (8.21-rasm).


```
[mitka num]=bwlabel(L1,8);
feats=imfeature(mitka,'Area',8);
Areas=zeros(num); for i=1:num;
Areas(i)=feats(i).Area; end;
idx=find(Areas>750);
L1=ismember(mitka,idx);
figure,imshow(L1);title('Tozalash
natijasi');
```



8.21-rasm.

**4-qadam.** Segmentlangan yuz tasvirida boshqa obyektlarni olib tashlash (8.22-rasm): L1=L1-L1;

```
[mitka num]=bwlabel(L1,8);
feats=imfeature(mitka,'Area',8);
Areas=zeros(num); for i=1:num;
Areas(i)=feats(i).Area; end;
idx=find(Areas>750);
L1=ismember(mitka,idx); L1=L1-
L1; figure,imshow(L1); title('Yuz
tasvirni tozalash');
```




8.22-rasm.

Bu mezon boyicha yuz tasvirini ishonchli qidirish etarli bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun yuz tasvirini qidirishda boshqa mezondan foydalanish lozim. Odatda yuz shakli haqidagi aprior ma'lumotlariga asoslanadigan mezonlarni tavsiya qilish mumkin.

**5-qadam.** Avval segmentlangan yuz tasvirini to'g'rito'rtburchak bilan

belgilaymiz (8.23-rasm):

```
MIN_i=N;MIN_j=M;MAX_i=0;
MAX_j=0; for i=1:N;
    disp(i); for j=1:M;
        if L1(i,j)==1; if iMAX_i;
            MAX_i=i; end; if j>MAX_j;
            MAX_j=j;
        end; end; end; figure,
        imshow(L);
```



8.23-rasm.

```
line([MIN_j MAX_j],[MIN_i MIN_i]);hold on;
line([MAX_j MAX_j],[MIN_i MAX_i]);
line([MAX_j MIN_j],[MAX_i MAX_i]);
line([MIN_j MIN_j],[MIN_i MAX_i]);hold off;
```

### Nazorat savollari

1. Tasvir ko‘rinishida berilgan obyektlardan etalon obyektlar qanday hosil qilinadi?
2. Tasvirlar kodlarga qanday aylantiriladi?
3. Tasvirlarning kodi aniqroq bo‘lishi uchun to‘rda qanday operatsiyani amalga oshirish kerak?
4. Bo‘sag‘a sifatida qanday qiymatni olamiz?
5. Mutloq va nisbiy kodli tavsiflash nima?
6. Tasvirlarni qayta ishslashning va tanib olishning qanday usullari mavjud?
7. Belgilar, shablonlar va strukturali TOTlarning farqlari nimada?
8. Obyektlarning tasvirlaridan etalon qanday hosil qilinadi?
9. GSHlarni tanib olish qanday amalga oshiriladi?
- 10.QRIlni maxsus nuqtalar bo‘yicha tanib olish qanday amalga oshiriladi?
- 11.Shaxs imzolarini tanib olish algoritmini keltiring.
- 12.Vdieotasvir nima?
- 13.Raqamlarni binar rastrga keltirish qanday amalga oshiriladi?

### Nazorat testlari

1. Obyektlarni kodli tavsiflash ..... kodli tavsiflashga bo‘linadi.
  - a) mutloq va nisbiy; b) mutloq va oddiy; v) oddiy va abstrakt;
  - g) mutloq va abstrakt.
2. Mutloq kodli tavsiflashda ..... qarab yetarli aniqlik bilan tasvirni yana tiklash mumkin.
  - a) kodiga; b) o‘rtachasiga; v) boshlang‘ich shartga;
  - g) chegaraviy shartga.
3. Nisbiy kodli tavsiflashda ..... ba’zi bir belgilari hisobga olinadi.
  - a) obyektning; b) sinfning; v) belgining; g) boshlang‘ich shartning.

4. Tasvir timsoli tushirilgan to‘r .....maydoni deb nomlanadi.  
a) retseptor; b) yadro; v) sinf; g) satr.
5. Tasvir timsoli tushirilgan to‘ning katakchalari ..... deb nomlanadi.  
a) retseptor; b) tekislik; v) satr; g) yadro.
6. Tasvir ko‘rinishda berilgan obyektlarni anglashda qanday tizimlardan foydalilanildi?  
a) shablonli, strukturali, belgili; b) shablonli, ehtimolli, mantiqli;  
v) strukturali,determinalli, sonli; g) shablonli, belgili, nominalli.
7. Belgilar asosida tanib oluvchi tizimarda har bir tasvir ko‘rinishda berilgan obyektlarning ..... tasviri ..... belgilar fazosidagi obyekt sifatida aks ettiriladi.  
a) o‘rtacha; n-o‘lchovli; b) shablonli; diskret;  
v) strukturali; sonli; g) sonli; nominalli.
8. Shablonlar asosida tanib oluvchi tizimar alohida tasvir ko‘rinishda berilgan obyekt belgilarini ..... almashtiradi, uni bazada mavjud bo‘lgan barcha ..... bilan taqqoslaydi va kiruvchi täsvir ko‘rinishda berilgan obyektlardan eng ..... nuqtalar bilan farq qiluvchi shablonni tanlaydi.  
a) rastrliga; etalonlar; kam; b) shablonliga; obyektlar; kam;  
v) strukturaliga; etalonlar; ko‘p; g) sonliga; obyektlar; ko‘p.
9. Strukturali tanib oluvchi tizimarga ko‘ra tasvir ko‘rinishda berilgan obyektlar bir nechta ..... va .....qatnashadigan obyektlarga ajratiladi.  
a) muhim; doimiy; b) shablon; kam;  
v) muhimmas;; etalonlar; g) sonli; muhim.
10. Raqamlarning binar rastri deganda ..... nuqtalardan iborat shunday ikki o‘lchovli matritsa tushuniladiki, bunda raqamlar ..... rangda va fonlar ..... rangda beriladi.  
a) oq va qora; qora; oq; b) 1 va 2; 1; 0; v) ko‘k va sariq; sariq; oq;  
g) oq va qizil; qora; oq.
11. Rastrli raqamlarning vektorli ko‘rinishi deganda shunday grafni tushunamizki, undagi tugunlarga raqamning ..... mos keladi.  
a) bog‘langan nuqtalari; b) bog‘lanmagan nuqtalari;

v) kesishmaydigan chiziqlari; g) bog‘lanmagan chiziqlari.

### Masala va topsiriqlar

1.  $x$  xil qo‘lyozma shaklda yozilgan  $y$  ( $K_1$ -sinf) va  $z$  ( $K_2$ -sinf) raqam yoki harfrlarini mxn retseptor maydonida kompyuterda kodlashtiring.  $x$  xil qo‘lyozma shaklda yozilgan  $y$  va  $z$  raqam yoki harfrlarning etalonini aniqlovchi va yangi ikkitadan  $y$  va  $z$  raqamlarini  $K_1$  yoki  $K_2$ -sinfga tegishli ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.

#### Topshiriq variantlari

Variantlar	$x$	$y$	$z$	$n$	$m$	$k$
1	10	1	7	6	5	1
2	12	A	B	5	5	2
3	14	3	8	5	7	3
4	9	S	T	8	5	2
5	15	5	6	7	6	2
6	20	R	G	6	6	3
7	14	D	W	6	4	1
8	16	2	8	6	8	2
9	14	F	5	7	7	3
10	16	2	S	5	8	1
11	10	T	7	6	5	1
12	12	K	B	5	5	2
13	14	8	8	5	7	3
14	9	3	T	8	5	2
15	15	U	6	7	6	2
16	20	L	G	6	6	3
17	14	Q	W	6	4	1
18	16	P	8	6	8	2
19	14	H	5	7	7	3
20	16	7	S	5	8	1

2. Quyidagi jadvalda keltirilgan GSHlarni aniqlovchi DT yaratting.

Variyantlar	Geometrik shakllar	Shakllar soni	Yangi shakllar soni
1	Uchburchak va to‘rtburchak	10	6
2	Uchburchak va	8	6

	<b>parallelogram</b>		
3	Uchburchak va romb	14	5
4	Uchburchak va trapetsiya	9	4
5	Uchburchak va doira	10	5
6	To‘rtburchak va parallelogram	12	4
7	To‘rtburchak va romb	8	4
8	To‘rtburchak va trapetsiya	12	6
9	To‘rtburchak va doira	14	7
10	Parallelogram va romb	12	7
11	Parallelogram va trapetsiya	8	4
12	Parallelogram va doira	9	4
13	Romb va trapetsiya	12	6
14	Romb va doira	8	4

3. Shaxs imzolarini namunaviy imzolar asosida tanib oluvchi DT yarating.

## **9-BOB. GENETIK ALGORITMLAR VA ULARNING MODIFIKATSIYALARI**

### **1-§. Genetik algoritm va uning asosiy tushunchalari**

GAlar g'oyasi J. Xolland tomonidan XX asrning 60-yillari oxiri 70-yillari boshlarida taklif qilingan va uning birinchi tadqiqotlar natijalari "Tabiiy va sun'iy tizimlarga moslashish" [47] monografiyasida, shuningdek, uning aspiranti Kennet De Yongning dissertatsiyasida [14] umumlashtirilgan. Shuningdek, D. E. Goldberg [10] tomonidan oddiy GA tuzilmasi to`g`risida ilmiy ishlar chop etilgan.

GAlar tirik organizmlar dunyosida yuz beradigan tabiiy jarayonlarni, xususan, evolyutsiyani va tirik mavjudotlar populyatsiyasining shu bilan bog'liq tanlanishini (tabiiy tanlanishini) kuzatish va nusxalashga urinishlar natijasida paydo bo'lgan.

*GA - bu tabiatdagi tabiiy seleksiyalashga o'xshash mexanizmlardan foydalanib, kerakli parametrлarni tasodify tanlab olish, birlashtirish va o'zgartirish orqali optimallashtirish va modellashtirish muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan evristik qidiruv algoritmi.* Bu EHning bir turi bo'lib, evolyutsiya muammolarini tabiiy evolyutsiya usullaridan foydalangan holda, masalan *meros, mutatsiyalash, tanlab olish va chatishtirish* kabi muammolarni hal qiladi. GAlar o'z ishlarida irsiyat, o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlanishning evolyutsion tamoyillaridan foydalananadilar.

**Genetik algoritmning asosiy tushunchalari.** GAlarda genetikadan olingan bir qator atamalar, birinchi navbatda genlar va xromosomalar, shuningdek populyatsiya, individual, allel, genotip, fenotip kabilalar ishlatiladi. Shuningdek, ushbu atamalarga mos keladigan texnik leksikadagi tushunchalar, xususan, zanjir, ikkilik ketma-ketlik, tuzilma kabilardan ham foydalaniladi [36].

**Populyatsiya** - bu cheklangan xromosoma(zot)lar to'plami. GAlarda populyatsiyaga kiritilgan *xromosomalar* ular ichida kodlangan muammoli parametrлar to'plami bo'lgan xromosomalar bilan ifodalanadi, ya'ni, echimlar, boshqacha qilib aytganda qidiruv fazosidagi nuqtalar (qidiruv nuqtalari) deb ataladi.

**Xromosoma** - bu irsiy ma'lumotlarning tashuvchisi. Xromosomalar to'plami individni xarakterlaydi. Xromosoma genlardan tashkil topgan. **Xromosomalar** (qatorlar yoki kodlar ketma-ketligi deb ham ataladi) - bu



genlarning tartiblangan ketma-ketliklari hisoblanadi. Ba'zi bir ilmiy ishlarda xromosomalar *organizmlar* deb ham ataladi.

*Gen* (xususiyat, belgi yoki detektor deb ham ataladi) - bu genotipning atomar elementi, xususan xromosomalar hisoblanadi. *Genlar* - irsiy axborotni kodlash elementlari. Axborotni bitli kodlash ko'pincha genlar vazifasini bajaradi.

*Genetik operator* - bu avlodni olish uchun zarur bo'lgan bir yoki bir nechta ota-onalarga nisbatan tartiblangan harakatlar ketma-ketligi.

*Individ (organizm)* - xromosomalar to'plami.

*Individual moslanuvchanlik* - kerakli parametrga nisbatan berilgan parametrlar to'plami uchun maqsad funksiyasining qiymati.

*Genotip yoki tuzilma* - bu ma'lum bir individning xromosomalar to'plami hisoblanadi. Binobarin, populyatsiyaning individual a'zolari genotiplar yoki bitta xromosomalar bo'lishi mumkin (keng tarqalgan holatda siftida genotip bitta xromosomadan iborat bo'lgan holar qaraladimasala

*Fenotip* - bu ma'lum bir genotipga mos keladigan qiymatlar to'plami, ya'ni masala parametrlarining dekodlangan tuzilmasi yoki to'plami (echimi, qidiruv fazosining nuqtasi).

*Allel* - bu ma'lum bir genning qiymati, shuningdek xususyatning qiymati yoki xususiyatning bir varianti sifatida aniqlanadi.

*Lokus yoki joy* - bu ma'lum bir genning xromosoma(zanjir)da joylashgan joyini ko'rsatadi. Genlar joylarining to'plami *loklar* deb ataladi.

*Moslanuvchanlik funksiyasi (MosF)* - bu genetikaga xos bo'lib, u populyatsiyadagi muayyan xromosomalarning jismoniy tayyorgarligini baholash va eng munosiblarini tirik qolish evolyutsion prinsipiiga muvofiq ular orasida eng munosibini (ya'ni MosFning maksimal qiymatlariga ega bo'lganini) tanlashga imkon beradi. *Genetika algoritmining* har bir takrorlanishida ma'lum bir populyatsiyaning har bir xromosomasiini jismoniy tayyorgarligi MosFdan foydalangan holda baholanadi va shu asosda muammoning potentsial echimlari to'plamini tashkil etadigan jismoniy xromosomalarning navbatdagi populyatsiyasi yaratiladi, misol sifatida optimallashtirish masalasini keltirish mumkin.

*Xromosomalarning boshlang'ich populyatsiyasini yaratish* - bu MosF parametrlarining qiymatlari tasodifiy tanlangan va ushbu parametr qiymatlari uchun MosF qiymati topilgan holat hisoblanadi.

*Seleksiyalash (tanlash)* - ko'payish uchun eng yaxshi moslashuvchanligi bo'lgan xromosomalarni seleksiyalash

(moslanuvchanlik (maqsad) funksiyasi qiymati bo'yicha saralash). Xromosomaning moslanuvchanlik tayyorgarligi qanchalik yaxshi bo'lsa, kelajak avlodga uning genlarini chatishirish va meros qilib olish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi.

*Chatishiruv* - bunda tasodifiy ravishda xromosomalar qatoridagi qo'shni bitlar orasida uzilish nuqtasi tanlanadi. Ikkala ota-onalarning xromosomalari ham shu vaqtida ikkita segmentga bo'linadi. Keyin, turli xil ota-onalarning tegishli segmentlari biriktiriladi va avlodning ikkita genotipi olinadi.

*Mutatsiyalash* - bu genlarning tasodifiy o'zgarishi. Tasodifiy tanlangan gen qandaydir ehtimollik bilan bosqasiga o'zgaradi.

*Inversiyalash* - xromosoma kodi qismlarini kelish tartibini o'zgartirish bo'lib, bunda tasodifiy ravishda xromosoma kodidagi qo'shni bitlar orasida uzilish nuqtasi tanlanadi. Uzilish nuqtasi bo'yicha ota-onalarning xromosoma kodidagi qismlar joulari almashtiriladi va undan keyin birlashtiriladi.

*Avlod* - GAdagi navbatdagi populyatsiya va "yangi avlod" yoki "*avlodlar avlodi*" atamasi xromosomalarning yangi yaratilgan populyatsiyasiga nisbatan qo'llaniladi.

*Ikkilik kodlash* - bu xromosomaning genotipini nol va birdan iborat raqamli ketma-ketlik sifatida aks ettirish usuli.

*Haqiqiy kodlash* - bu xromosomaning genotipini haqiqiy sonlar to'plami sifatida aks ettirish usuli.

*Rekombinatsiyalash (aralashma)* - bu genlarning yangi kombinatsiyalarini paydo bo'lishiga olib keladigan jarayondir

*Urchish* - ota-onalarning xromosomalari genlarininining rekombinatsiyalash natijasida yangi xromosomalarni yaratishni anglatadi. Urchish uchun ikki: *chatishiruv* va *mutatsiyalash* amallari bajariladi.

*Chatishiruv amali* - bu ota-onalarning juftlari genlarini qayta kombinatsiyalash yo'li bilan avlodlarning mutlaqo yangi xromosomalarni yaratishga imkoniyat beradi.

*Mutatsiyalash amali* - bu ayrim xromosomalar tuzilmalarida tegishli o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

**Sodda GA mexanizmi.** *U quyidagi protseduralarni o'z ichiga oladi:*

a) tasodifiy ravishda dastlabki xromosomalar (parametrlarni bit satrlar, string-xromosomlar, xromosomalar)ning ketma-ketliklar populyatsiyasini shakllantirish;

b) olingan dastlabki populyatsiyaga seleksiya, mutatsiyalash va chatishtiruv amallarni qo'llash;

v) ushbu amallarning bajarilishi natijasida xromosomalarning yangi populyatsiyalarini shakllantirish;

g) yangi populyatsiyaning moslanuvchanlik darajasi(MD)ni baholash (tanlangan mezon asosida) va moslashuvchanlik bahosi qoniqarli bo'lgan populyatsiyani yangi dastlabki populyatsiya sifatida saqlab qolish, aksincha - yo'qotish (yaroqsiz deb topish). Oxirgi holatda avvalgi dastlabki populyatsiyaga qaytiladi va seleksiyalash, mutatsiyalash hamda chatishtiruv amallari yangi parametrlar bilan barcha protseduralar takrorlanadi.

**GAlarning qo'llanilish sohalari.** GAlarni tez-tez ishlatib turadigan ba'zi sohalarni ham keltirib o'tamiz:

- *optimallashtirishda* - ma'lum cheklovlar to'plami ostida maqsad funksiyasining berilgan qiymatini maksimal darajaga ko'tarish yoki kamaytirishdan iborat;

- *iqtisodiyotda* - veb-model, o'yinlar nazariyasidagi muvozanatni aniqlash, mahsulotlar narxlari va boshqalar kabi turli xil iqtisodiy modellarni tavsiflash uchun ham ishlatiladi;

- *Ntlarida* – Ntlarni (ayniqsa takrorlanuvchi Ntlarni) o'rgatishda qo'llaniladi;

- *parallellel hisoblashda* - GA shuningdek juda yaxshi bir vaqtida ishlash qobiliyatiga ega va muayyan muammolarni hal qilishda juda samarali vosita bo'lib, tadqiqot uchun yaxshi maydon yaratadi.

- *tasvirlarni qayta ishlashda* - turli xil raqamli tasvirlarni qayta ishlashda foydalaniladi hamda piksellarni zichli taqqoslashda ishlatiladi.

- *avtotransport yo'nalishidagi muammolarda* - bir nechta yumshoq vaqt oynalari, bir nechta orborlar va turli tipdag'i parklar orasidagi marshrutlarni aniqlashda qo'llaniladi;

- *rejallashtirish ilovalarida* - turli xil rejallashtirish masalalarida, xususan vaqtini aniqlash masalalarida ishlatiladi;

- *robot yo'lini generatsiya qilishda* - robotning qo'li bir nuqtadan ikkinchisiga o'tishda harakatlanadigan yo'lni rejallashtirish uchun ishlatiladi;

- *samolyotlarni parametrik loyixalashda* - parametrlarini o'zgartirish va yaxshi echimlarni ishlab chiqish uchun samolyotlarni loyihalashda foydalaniladi;

- *Dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) tahlilida* - namunadagi spektrometrik ma'lumotlar yordamida DNKning tuzilishini aniqlash uchun foydalaniladi;

- *multimodal optimallashtirishda* - bir nechta optimal echimlarni topish kerak bo'lganda multimodal optimallashtirishda ishlataladi.

**GA ning afzalliklari.** Bunga quyidagilar kiradi:

- hech qanday yasama ma'lumotlarini talab qilmaydi (ular haqiqiy hayottagi ko'plab muammolar uchun mavjud bo'lmasligi mumkin);

- bu an'anaviy usullarga qaraganda tezroq va samaraliroq ishlaydi;

- juda yaxshi parallel ishlash imkoniyatlarga ega;

- uzluksiz va diskret funksiyalarni hamda ko'p maqsadli masalalarni

optimallashtiradi;

- bitta yechim emas, balki "yaxshi" echimlar ro'yxatini taqdim etadi;

- vaqt o'tishi bilan yaxshilanadigan muammoga doimo javob oladi;

- qidiruv fazosi juda katta bo'lganida va ko'plab parametrlar mavjud bo'lganda foydalanish qulay.

**GA ning cheklovleri va kamchiliklari.** Bunga quyidagilar kiradi:

- GA barcha muammolarga mos kelmaydi, ayniqsa, sodda va ular uchun ma'lumot mavjud bo'lgan muammolar uchun;

- MosF qiymati maslani echishda bir necha bor hisoblab chiqiladi, bu esa ba'zi masalalarni echishda hisoblashlar hajmining oshishiga olib keladi;

- stoxastik bo'lganligi sababli echimning optimalligi yoki sifatiga hech qanday kafolat mavjud emasligi;

- agar GA to'g'ri bajarilmasa u optimal echimga yaqinlashmasligi mumkin.

GAlardan foydalanib masalalarni echishda quyidagi *muammoli holatlar* paydo bo'lishi mumkin: aniq global optimallashtirish kerak bo'lganda; funksiyani baholashni bajarish vaqtি uzoq bo'lganda; masalaning birortasini emas, balki barcha echimlarini topish kerak bo'lganda; echimlarni kodlash oddiy bo'limganda.

## 2-§. Genetik algoritmlarda kodlash

Masalani echish uchun obyektning har bir xususiyatini GAda ishlatalish uchun mos bo'lgan shaklda taqdim etish kerak bo'ladi. Dastlabki populyatsiyani seleksiyalash - bu parametrlarni xromosomalar

ko'rinishida ifodalash bilan bog'liq bo'lib, u xromosomali ifodalash deb ataladi [36]. Bu ifodalash kodlash uslubi bilan aniqlanadi.

So'nggi yillarda GAning samarali bajarilishini ta'minlash uchun turli xil kodlash usullari ishlab chiqildi. Ularni *ikkilik kodlash*, *Greya usuli bilan kodlash* [36], *butun sonli kodlash*, *haqiqiy sonli kodlash* va *ma'lumotlar umumiyyatini tuzilmasini kodlash* kabi sinflarga bo'lish mumkin.

**Ikkilik kodlash.** Ikkilik  $B_2 = \{0,1\}$  alfavitni kiritamiz. Butun sonli  $\beta = (\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n)$  vektorni  $B_2 = \{0,1\}$  alfavitda aks ettirish uchun ikkilik belgilarning shunday  $\theta$  maksimal sonini aniqlash kerakki, u  $[0, K]$  sohadan olingan ichtiyoriy  $\beta$ , qiyamatni ikkilik kodga akslantirish uchun etatlari bo'lsin. Aniqlangan  $\theta$  parametr quyidagi tengsizlikni qanoatlantiradi

$$K < 2^\theta, \quad (9.1)$$

bunda  $K = \max K_i (1 \leq i \leq n)$ . U holda  $\beta_i (0 \leq \beta_i \leq 2\theta)$  uchun

$$\beta_i = \sum_{j=1}^i \alpha_j \times 2^{i-j}, \quad (9.2)$$

yozish mumkin, bu erda  $\alpha_j$  - ikkilik son (0 yoki 1);  $\theta$ - butun  $\beta_i$  sonni kodlovchi ikkilik so'zning uzunligi.

**9.1-misol.**  $\beta_i = 19$  sonni xromosoma qatori sifatida tasvirlaylik.  $\beta_i = 19$  sonini ikkilik kodda ifodalash uchun (9.1) va (9.2) formulalarni e'tiborga olgan holda  $\theta = 5$  aniqlaymiz, chunki  $2^\theta = 2^5 = 32$ . (9.2) formula bo'yicha quyidagini hosil qilamiz:

$$\begin{aligned} 19 &= 1 \times 2^{5-1} + 0 \times 2^{5-2} + 0 \times 2^{5-3} + 1 \times 2^{5-4} + 1 \times 2^{5-5} = \\ &= 1 \times 2^4 + 0 \times 2^3 + 0 \times 2^2 + 1 \times 2^1 + 1 \times 2^0. \end{aligned}$$

U holda xromosomaning kodli satri quyidagicha bo'ladi:

1	0	0	1	1
---	---	---	---	---

Bitta  $\alpha'_i$  xromosoma  $n$  ta gen bilan tavsiflanadi va ularning har biri tegishli boshqariladigan o'zgaruvchining butun sonli kodini shakllantirish uchun javobgar hisoblanadi. Bu holda xromosomani quyidagi  $E(X)$  shaklida aniqlash mumkin (9.1-jadval):

### 9.1-jadval. Xromosomaning tasvirlanishi.

$\alpha'_1$	...	$\alpha'_o$	$\alpha''_1$	...	$\alpha''_o$	...	...	...	$\alpha'''_1$	...	$\alpha'''_o$
$e_o(\beta_1)$		$e_o(\beta_2)$			...			$e_o(\beta_n)$			
1-gen		2-gen			...			$n$ -gen			
1-lokus		2-lokus			...			$n$ -lokus			
Xromosoma											

Shunday qilib xromosoma tayinlangan uzunlikdagi bitli qator hisoblanadi. Bu holda qatorning har bir qismiga *gen* mos keladi. Qator ichidagi genning uzunligi bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin. Masalan, har biri to'rtta element genomni bilan kodlangan beshta xususiyatlari obyekt uchun xromosomalarning umumiy uzunligi  $5 \times 4 = 20$  bit [0010 1010 1001 0100 1101] bo'ladi.

Ikkilik qatorlar (xromosomalar) uchun  $n$  bitlardan foydalanganda satrning ikkilik kodidan o'nlik qiymatiga o'tkazilish  $x_i = a_i + decimal(100\dots010) \frac{b_i - a_i}{2^n - 1}$  formula bo'yicha amalgama oshiriladi, bunda  $a_i$  va  $b_i$  -  $i$ -xususiyatning quyi va yuqori chegaralari;  $decimal(100\dots010_2)$  - ikkilik qatorning o'nlik qiymati.

*Greya usuli bilan kodlash.* So'nggi yillarda GAda Greya kodidan foydalanish tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu esa xemmingli siljishni tuzatish imkoniyatini kafolatlaydi. Ushbu usul bilan standart usulda butun sonlarni kodlovchi ikkilik qator  $s_1, \dots, s_k$  tegishli  $g_1, \dots, g_k$ , satrga quyidagicha aylantiriladi:

$$g_k = \begin{cases} s_1, & \text{ecru } k=1 \\ s_{k-1} \oplus s_k, & \text{ecru } k>1 \end{cases}$$

bu erda  $\oplus$  belgi ikki modul bo'yicha yig'ishni bildiradi (ya'ni  $0 \oplus 0 = 0; 0 \oplus 1 = 1; 1 \oplus 0 = 1; 1 \oplus 1 = 0$ ).

Teskari almashtirish  $s_k = \sum_{j=1}^k \oplus g_j$ , ifoda bilan aniqlanadi, bu erda yig'indi 2 modul bo'yicha olinadi.

9.2-jadvalda ikkilik kod va Greya kodi yordamida 0 dan 7 gacha bo'lgan butun sonlarni kodlash natijalari taqqoslash uchun ko'rsatilgan.

### 9.2-jadval. Ikkilik va Greya kodlarni taqqoslash.

<b>Butun</b>	0	1	2	3	4	5	6	7
<b>Binarli kod</b>	000	001	010	011	100	101	110	111
<b>Greya kodi</b>	000	001	011	010	110	111	101	100

Ta'kidlaymizki, qo'shni butun sonlarni kodlaydigan qatorlar orasidagi Xemming masofasining minimal qiymati 1 ga teng bo'ladi.

**Butun sonli kodlash.** Butun sonli kodlash butun son qiymatlarini qabul qiladigan o'zgaruvchilar to'plamining optimal qiymatlarini topish masalasini hal qilishda afzalroq hisoblanadi. Misol sifatida chekli to'plam bilan chegaralangan holatga {Shimol, Sharq, Janub, G'arb} larni ifodalovchi {0, 1, 2, 3} qiymatlar to'plami bilan chegaralangan kvadrat panjarada yo'lni topish masalasini keltirish mumkin. Bunday holatda butun sonli kodlashni 9.1 - rasmdagidek tasvirlash mumkin

1	2	3	4	2	3	1	4	3	4
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

9.1-rasm.

Har qanday holatda ham butun sonli kodlash ikkilik kodalshga nisbatan afzalroq hisoblanadi.


**Haqiqiy sonli kodlash.** Ko'pincha mumkin bo'lgan echimni namoyish etishning eng to'g'ri usuli - bu haqiqiy sonlar qatori hisoblanadi. Bunday holda  $k$  genlardan iborat genotip vektor hisoblanadi va u 9.2-rasmdagidek tasvirlanadi.

0.1	0.2	0.3	0.4	0.2	0.3	0.1	0.4	0.3	0.4
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----

9.2-rasm.

### 3-§. Klassik genetik algoritm va uning asosiy bosqichlari

Klassik GAning bosqichlari 9.3-rasmda tasvirlangan. GAning asosiy bosqichlarini tahlil qilamiz [9, 36].



9.3-rasm. GA bosqichlarini blok-sxemasi.

1. **Initsializatsiyalash** - tasodifiy ravishda dastlabki xromosomalarning populyatsiyasini shakllantirishdan iborat. Populyatsiya kattaligi, ya'ni undagi xromosomalar soni, masalaning kattaligiga bog'liq bo'lib tadqiqotchi tomonidan beriladi. Har bir xromosoma - bu 0 va 1 dan iborat bo'lgan ikkilik tizimda kodlangan satr dan iborat bo'ladi. Masalan, agar xromosomalar 0 dan 31 gacha butun sonlar bilan ifodalangan bo'lsa, unda uning ikkilik tizimda kodlangan ifodasi

$$x_1 = (00000); \quad x_2 = (00001); \quad x_3 = (00010); \quad \dots; \quad x_{31} = (11111).$$

ko'rinishda tasvirlanadi. Bu yerda har bir satrda 5 ramz(bit)lar mavjud. Ular *genlar* deb, satrlar esa - *xromosomalar* deb nomланади.

Shunday qilib, boshlanishda initsializatsiyalash bloki tasodifiy ravishda  $m$  ta xromosomalardan iborat bo'lgan

$$x_1 = (01100); \quad x_2 = (01001); \quad x_3 = (10010); \quad \dots; \quad x_m = (01101)$$

populyatsiyani shakllantiradi.

**2. Baholash** - olingan xromosomalarning MDni, ya'ni ularning yaroqliliginini aniqlashdir. Bular xromosomalarning sifatini (yaroqliliginini) baholashda (masalan, optimallashtiriladiganda)  $f(x)$  funksiyani optimallashtirish nuqta(xromosoma)lardagi  $f(x_1), f(x_2), \dots, f(x_n)$  qiymatlarini  $f(x_i) = \sum_{k=1}^l x_k (i = \overline{1, n})$  hisoblash yo`li bilan aniqlanadi, bunda  $l$ -xromosomaning uzunligi. Keyin *populyatsiyaning* umumiy bahosi (yig`indisi)

$$F = \sum_{i=1}^l f(x_i) \quad (9.3)$$

hisoblanadi, bu yerda  $f(x_i) - x_i$  xromosomaning sifatini baholash funksiyasi.

Populyatsiyada xromosomalar MosFlarning o`rtacha qiymatini  $F_c$ , bilan belgilanadi va  $F_c = F/n$  aniqlanadi. (9.3)ni hisobga olib har bir xromosomaning "*Omon qolish*" ehtimoli

$$P_c(x_1) = f(x_1)/F; \quad P_c(x_2) = f(x_2)/F; \quad \dots; \quad P_c(x_n) = f(x_n)/F \quad (9.4)$$

hisoblanadi. Keyin (9.4) nisobga olib har bir xromosomaning *kumulyativ* deb ataladigan "*Omon qolish*" ehtimoli - *yaroqliligi* baholash

$$P_{cum}(x_1) = P_c(x_1); \quad P_{cum}(x_2) = P_c(x_1) + P_c(x_2); \quad \dots; \quad P_{cum}(x_n) = \sum_{i=1}^n P_c(x_i) \quad (9.5)$$

amalga ohriladi.

Topilgan baholash qiymatlari oldingi popultsiya xromosomalarining tegishli baholashlar qiymatlari bilan solishtiriladi. Agar ularning farqi kichik(berilgan mumkin bo`lgan doirada) bo`lsa, u holda qidirish jarayoni to`xtatiladi. Bunday holat, qoida bo`yicha, qandaydir bir nechta, yoki oldindan berilgan generatsiyalar sonidan keyin kelib chiqadi. Aks holda navbatdagi seleksiyalash blokiga o`tiladi.

Populyatsiyada xromosomalarning yaroqliliginini baholash ushbu populyatsiyaning har bir xromosomasi uchun MosFni hisoblashdan iborat. Ushbu funksiya qiymati qanchalik katta bo`lsa, xromosomaning sifati shunchalik yuqori bo`ladi.

**3. Algoritmini to`xtatish shartini tekshirish.** GA ni to`xtatish sharti uning o`ziga xos qo'llanilishiga bog'liq. Optimallashtirish muammolarida, agar MosFning maksimal (yoki minimal) qiymati ma'lum bo`lsa, u holda algoritm kutilgan optimal qiymatga talab qilingan aniqlikda ershgandan keyin to`xtashi mumkin. Algoritmini

to'xtatish uning bajarilishi oldin erishilgan qiymatning yaxshilanishiga olib kelmasa ham sodir bo'lishi mumkin. Algoritm ma'lum bir belgilan vaqtadan keyin yoki ma'lum bir qator takrorlashni bajargandan so'ng to'xtatishi mumkin. Agar to'xtash sharti bajarilgan bo'lsa, u holda "eng yaxshi" xromosomani seleksiyalashning yakuniy bosqichiga o'tish amalga oshiriladi, aks holda keyingi seleksiyalash (tanlov) bosqichga o'tadi.

**4. Seleksiyalash** - bu tabiiy genetik tanlashga o'xshash. *Seleksiyalash* natijasida yuqori yaroqli baholash qiymatlariga ega bo'lgan xromosomalar tanlab olinadi, chunki ularning "Omon qolish" imkoniyati ko'proq bo'ladi.

Seleksiyalashni o'tkazish uchun tasodifli sonlar datchigi  $[0,1]$  intervaldan  $r_i$  tasodifiy sonni chiqaradi. Agar uning qiymati  $P_{\text{ham}}^k < r_i \leq P_{\text{ham}}^{k+1}$  intervalda bo'lsa, unda navbatdagi generatsiyaga  $x_{i,i}^k$ , ( $i$ -generatsiya tartibi) xromosoma tanlab olingan deb hisoblanadi. Ushbu tasodifiy soni bilan protsedura  $n$  marta takrorlanadi va natijada navbatdagi generatsiyada  $n$  ta xromosomalar tanlab olinadi. Bu holatda yuqoriyoq yaroqli baholash qiymatlariga ega bo'lgan xromosomalarning yangi generatsiyada bir nechta nusxalari bo'lishi mumkin, kichik qiymatlarga ega bo'lganlarining esa - bitta ham nusxasi bo'lmasligi mumkin.

*Xromosomalarning tanlovi* keyingi populyatsiya uchun avlodni, ya'ni keyingi avlodni yaratishda ishtirok etadigan xromosomalarning tanlanishidan (ikkinchi bosqichda hisoblangan MosF qiymatlari asosida) iborat. Bunday tanlov tabiiy tanlanish prinsipiqa muvofiq amalga oshiriladi, ya'ni unga ko'ra MosFning eng yuqori qiymatiga ega bo'lgan xromosomalar yangi xromosomalarni yaratishda ishtirok etishda eng katta imkoniyatlariga ega bo'ladi. Seleksiyalashning turli xil usullari mavjud. *Eng mashxur usullardan biri* - bu mashhur qimor o'yiniga o'xshashligi bilan nom olgan *ruletni tanlash* (*roulette wheel selection*) usuli hisoblanadi. Har bir xromosomani ruletka g'ildiragi sektori bilan bog'lash mumkin, uning qiymati ushbu xromosomaning MosF qiymatiga mutanosib ravishda o'rnatiladi. Shuning uchun, MosF qiymati qanchalik katta bo'lsa, rulet g'ildiragidagi sektor shunchalik katta bo'ladi. Barcha rulet g'ildiragi ko'rib chiqilayotgan populyatsiyaning barcha xromosomalarning MosF qiymatlari yig'indisiga mos keladi. (9.4) ifodani e'tiborga olib belgilangan har bir  $x_i (i=1, n)$  xromosomaga (bu erda  $n$  - populyatsiyalar sonini bildiradi) quyidagi formulaga muvofiq foizda ifodalangan g'ildirak sektori mos keladi:

$$q(x_i) = P_c(x_i) \cdot 100\% , \quad (9.6)$$

Xromosomani seleksiyalash ruletni burish natijasida ifodalanishi mumkin, chunki "g'olib" (ya'ni tanlangan) xromosoma ushbu g'ildirakning tashlab yuborilgan sektoriga tegishli. Shubhasiz, sektor qanchalik katta bo'lsa, mos keladigan xromosoma "g'alaba qozonishi" ehtimoli katta bo'ladi. Shuning uchun berilgan xromosomani seleksiyalash ehtimoli uning MosF qiymatiga mutanosib bo'ladi. Agar rulet g'ildiragining butun atrofi raqamli  $[0,100]$  oraliq sifatida ifodalangan bo'lsa, u holda xromosomani seleksiyalash  $[a,b]$  oraliqdan raqamni tanlash bilan aniqlanishi mumkin, bu erda  $a$  va  $b$  mos ravishda g'ildirakning ushbu sektoriga mos keladigan aylana qismining boshi va oxirini bildiradi, bunda  $0 \leq a < b \leq 100$ . Bunday holda rulet g'ildiragi bilan tanlash g'ildirak atrofidagi ma'lum bir nuqtaga mos keladigan  $[0,100]$  oraliqdagi raqamni tanlashga mos keladi. Boshqa seleksiyalash usullari 8-§ da qaraladi.

Seleksiyalash jarayoni natijasida ota-onal populyatsiyasi (OOP) yaratiladi.

**5. Chatishtiruv** - bu amalning bajarilishda seleksiyalash natjasida tanlab olingan xromosomalar ichidan tasodifiy ravishda juftli chatishtirish uchun xromosomalarning tasodifiy soni saralab olinadi. Bu son oldindan berilgan  $P_c$  (ko'pincha  $0 \leq P_c(x_i) \leq 1$ ) *chatishtirish ehtimolining* qiymatiga bog'liq. Masalan, agar  $P_c = 0.25$  va populyatsiya kattaligi 16 ga teng bo'lsa, u holda har bir generatsiyada aynan 4 ta xromosoma chatishtiruv amali(ChA)da qatnashadi. *ChA quyidagicha bajariladi:* agar chatishtirishga tasodifiy ravishda  $x_m$  va  $x_k$  xromosomalar tanlab olingan bo'lsa va xromosoma uzunligi  $l$  ga teng bo'lsa, u holda tasodifiy sonlar datchigi  $j$  ( $1 \leq j \leq l$ ) tasodifiy sonni chiqaradi ( $j$  - chatishtirish nuqtasi). Shu nutqadan xromosomalar kesiladi va  $x_m$  va  $x_k$  avlodlarni ( $x_m$  va  $x_k$  - ota-onalardan) olish uchun ularning o'ng qismlari o'rnilari almashtiriladi.

$$x_m = (1101101)$$

Faraz qilaylik  $x_k = (1110010)$  va tasodifiy son  $j = 3$ . Unda

$$x_m = (110 : 0010)$$

chatishtirish natijasida  $x_m$  va  $x_k$  avlodlari  $x_k = (111 : 1101)$

ko'rinishni oladi.

Shu amalni boshqa tanlangan juftlar uchun bajarib, chatishtirish jarayoni tugatiladi. Olingan yangi avlodlarni, ota-onalari bilan birga yangi populyatsiya tarkibiga kiritadi.

**6. Mutatsiyalash** - bu yangi populyatsiyaning shakllantirish bo'lib, u tabiiy genetik mutatsiyalashga o'xhash bo'ladi. *Bu amal xromosomaning bir genini (bitini) o'zgartiradi.* Mutatsiyalash ehtimoli  $P_n$  (ko'pincha  $0 \leq P_n(x_i) \leq 0.1$ ) tasodifiy ravishda oldindan beriladi. Bu son mutatsiyalash uchun mo'ljallangan xromosomalar sonini belgilaydi. Masalan, agar  $P_n = 0,05$  va populyatsiya kattaligi 20 ga teng bo'lsa, u holda mutatsiyalashda 1 xromosoma ( $20 * 0,05 = 1$ ) qatnashadi. Agar mutatsiyalash uchun  $x_k = (1\ 1\ 1\ 0\ 0\ 1\ 0)$  xromosoma tanlangan bo'lsa, u holda  $j (1 \leq j \leq l)$  tasodifiy sonni chiqaradi. Uning qiymati bo'yicha 1 dan 0 ga yoki 0 dan 2 ga o'zgariladigan xromosoma genining tartibi belgilanadi. Masalan, agar  $j = 1$  bo'lsa, u holda xromosomaning faqat birinchi genining qiymati 1dan 0ga o'zgariladi va natijada  $x_k = (0\ 1\ 1\ 0\ 0\ 1\ 0)$  ko'rinishdagi mutatsiyalashgan genni hosil qilamiz. Bu  $x_k$  xromosoma yangi populyatsiyaga kiritiladi.

Odatda mutatsiyalash ehtimoli juda kichik bo'ladi. Bu mutatsiyalashlar nihoyatda kam uchraydigan tirik organizmlar olamiga o'xhashlikdan kelib chiqadi.

**7. "Eng yaxshi" xromosomani tanlash.** Agar algoritmni to'xtatish sharti bajarilgan bo'lsa, unda ish natijasini chiqarish amalga oshiriladi, ya'ni masalaning kerakli echimi taqdim etiladi. Eng yaxshi echim - bu eng yuqori MosF qiymatiga ega bo'lgan xromosoma hisoblanadi.

Shundan keyin navbatdagi baholash va seleksiyalash protseduralari bajariladi va natijada dastlabki kattaligi (populyatsiyadagi xromosomalar soni) bilan yangi populyatsiya shakllanadi.

Yuqorida aytilganidek, bu jarayon yaroqlilik darajasi berilgan qiymatiga yetganda yoki oldindan berilgan generatsiyalar soni bajarilgandan keyin to'xtatiladi.

*Xulosa* qilib shuni aytish kerakki, GAlar organizmlar populyatsiyasining vaqt o'tishi bilan genetik o'zgarishidan iborat tabiiy evolyutsiya jarayonining xususiyatlarini meros qilib olgan bo'ladi.

## 4-§. Klassik genetik algoritmnning bajarilishini tasvirlash

Klassik GAning ishlash jarayonini 9.3-rasmda keltirilgan bloksxemadan foydalanib maksimal birliklar soniga ega bo'lgan xromosomalarni topishdan iborat bo'lgan juda soddalashtirilgan va ancha sun'iy misolni ko'rib chiqamiz.

*9.2-misol.* Aytaylik, xromosomalar 12 ta gendan iborat bo'lsin va populyatsiya 8 xromosomani o'z ichiga olsin. Tushunarlik eng yaxshi xromosoma 12 ta birlik(gen)dan iborat bo'ladi. GA yordamida ushbu masalani echish jarayoni qanday bajarilishining bosqichlarini ketma-ket ko'rib chiqamiz.

1. *Initisializatsiyalash* - xromosomalarning boshlang'ich populyatsiyasini seleksiyalashni amalga oshiradi. 12 bit uzunlikdagi 8 ta ikkilik ketma-ketlikni tasodifiy ravisida dastlabki xromosomalarning populyatsiyasini shakllantirishdan iborat. Bunga, masalan, tanga tashlash orqali erishish mumkin (96 martadan tanganing "gerb" tomoni tushsa 1 qiymat va "raqam" tomoni tushsa 0 qiymat yoziladi). Shunday qilib, boshlang'ich populyatsiyani shakllantirish mumkin:

$$\begin{aligned} x_1 &= [111001100101]; & x_2 &= [001100111010]; & x_3 &= [011101110011]; \\ x_4 &= [001000101000]; & x_5 &= [010001100100]; & x_6 &= [010011000101]; \\ x_7 &= [101011011011]; & x_8 &= [000010111100]. \end{aligned} \quad (9.7)$$

2. *Baholash* - populyatsiyada xromosomalarning yaroqliligini baholashni amalga oshiradi. Bu bosqichda qaralayotgan misolda eng ko'p birlarni o'z ichiga olgan xromosomani topish masalasi echiladi. Shuning uchun MosF xromosomadagi birlar sonini aniqlaydi. MosFni  $f$  bilan belgilaymiz. U holda (9.7) ko'rinishda hosil qilingan boshlang'ich populyatsiyadan har bir xromosoma uchun  $f$  funksiyaning qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} f(x_1) &= 7; & f(x_2) &= 6; & f(x_3) &= 8; & f(x_4) &= 3; \\ f(x_5) &= 4; & f(x_6) &= 5; & f(x_7) &= 8; & f(x_8) &= 5. \end{aligned} \quad (9.8)$$

$x_i$ , va  $x_j$ , xromosomalar eng katta qiymatlarga ega bo'lgan MosFlari bilan tavsiflanadi. Ushbu populyatsiyada ular masalani echishda eng yaxshi nomzodlar hisoblanadi. Agar GAning blok - sxemasiga muvofiq (9.3-rasm) algoritmnii to'xtatish sharti bajarilmasa u holda keyingi qadamda (9.7) ko'rinishdagi populyatsiyadan yangi xromosomalarni seleksiyalash amalga oshiriladi.


3. *Seleksiyalash* - xromosomalarni tanlashni ta'minlaydi. Xromosomalarni tanlash ruletka usuli yordamida amalga oshiriladi.

(9.3), (9.4) va (9.5) formulalar asosida (9.7) ko'rinishdagi boshlang'ich populyatsiyadan

$$q(x_1) = 15,22\%; q(x_2) = 13,04\%; q(x_3) = 17,39\%; q(x_4) = 6,52\%; \quad (9.9)$$

$$q(x_5) = 8,70\%; q(x_6) = 10,87\%; q(x_7) = 17,39\%; q(x_8) = 10,87\%.$$

foizlar hisoblanadi va foizlarda hosil qilingan qiymarlarga ruletka g'ildiraklarining mos sektorlari hosil qilinad (9.4-rasm).



9.4-rasm. 9.2-misolda seleksiyalashni amalga oshirish uchun ruletka g'lidiraklaridan foydalanish.

Ko'riniib turibdiki  $x_1$  xromosoma uch marta va  $x_2$  xromosoma ikki marta tanlangan. Ta'kidlaymizki, (9.8) formulada aynan  $x_1$  va  $x_2$  xromosomalarning MosF eng katta qiymatlarga ega. Shu bilan birga eng past MosF qiymatiga ega bo'lgan  $x_4$  xromosoma ham tanlangan. Shu tarzda tanlangan barcha xromosomalar ota-onasiga birlashmasiga (roditeskiy pulga) kiritilgan.

4. *Chatishiruv* - genetik operatorlarni qo'llashni amalga oshiradi. Faraz qilaylik seleksiya jarayonida tanlangan xromosomalarning birortasi ham mutatsiyalashga uchramayapti va ularning hammasi chatishiruv uchun mo'ljallangan xromosomalar populyatsiyasini tashkil qiladi. Bu chatishiruv ehtimolini  $P_c(x_i) = 1$  va mutatsiyalash ehtimoli  $P_e(x_i) = 0$  anglatadi. Aytaylik ushbu xromosomalardan tasodifiy

ravishda ota-onalarning juftliklari  $x_1 \text{ va } x_2$ ;  $x_3 \text{ va } x_4$ , shakllantirilgan bo'lsin.

Tasodifiy ravishda birinchi  $x_1 \text{ va } x_2$ , juftlik uchun  $I_4 = 4$ , ikkinchi  $x_3 \text{ va } x_4$ , juftlik uchun  $I_4 = 3$ , uchinchi  $x_1 \text{ va } x_3$ , juftlik uchun  $I_4 = 11$  va to'rtinchi  $x_2 \text{ va } x_4$ , juftlik uchun  $I_4 = 5$  chatishtiruv nuqtalari tanlangan bo'lsin.

Bu holda chatishtiruv jarayoni 9.5-rasmida ko'rsatilgandek amalga oshiriladi.

Ota-onalarning birinchi juftligi: Avlodlarning birinchi juftligi:  
 $x_1 = [001100111010]$  Chatishtiruv  $x_1' = [0011|11011011]$

$x_2 = [101011011011]$   $I_4 = 4$  nuqtada  $x_2' = [1010|00111010]$

Ota-onalarning ikkinchi juftligi: Avlodlarning ikkinchi juftligi:  
 $x_3 = [111001100101]$  Chatishtiruv  $x_3' = [111|011011011]$

$x_4 = [101011011011]$   $I_4 = 3$  nuqtada  $x_4' = [101|001100101]$

Ota-onalarning uchinchi juftligi: Avlodlarning uchinchi juftligi:  
 $x_1 = [011101110011]$  Chatishtiruv  $x_1' = [01110111001|0]$

$x_2 = [001000101000]$   $I_4 = 11$  nuqtada  $x_2' = [00100010100|1]$

Ota-onalarning to'rtinchi juftligi: Avlodlarning to'rtinchi juftligi:  
 $x_3 = [011101110011]$  Chatishtiruv  $x_3' = [01110|1011011]$

$x_4 = [101011011011]$   $I_4 = 5$  nuqtada  $x_4' = [10101|1110011]$

9.5 - rasm. 9.2 -misolda xromosomalarni chatishtiruv jarayoni.

Chatishtiruv operatorining bajaruilshi natijasida 4 ta avlodlar juftligi hosil bo'ladi.

5. *Mutatsiyalash*-yangi populyatsiyalarning shakllanishini amalga oshiradi. 9.5-rasmida keltirilgan ChAning bajarilishi natijasida quyidagi avlodlar populyatsiyasini hosil qilamiz:

$$x_1' = [01111011011]; \quad x_2' = [101000111010]; \quad x_3' = [111011011011];$$

$$x_4' = [101001100101]; \quad x_1' = [011101110010]; \quad x_2' = [001000101001]; \quad (9.10)$$

$$x_3' = [011101011011]; \quad x_4' = [101011110011].$$

Bu erda  $x_i'$  ( $i = \overline{1,8}$ ) - chatishtiruv natijasida hosil bo'lgan yangi xromosomalarni bildiradi.

Ushbu populyatsiya xromosomalarining MosFlarining qiymatlari quyidagilardan iborat bo'ladi

$$\begin{aligned} f(x_1^*) &= 8; \quad f(x_2^*) = 6; \quad f(x_3^*) = 9; \quad f(x_4^*) = 6; \\ f(x_5^*) &= 7; \quad f(x_6^*) = 4; \quad f(x_7^*) = 8; \quad f(x_8^*) = 8. \end{aligned} \quad (9.11)$$

(9.8) va (9.11) dagi qiymatlarni solishtirganda, ko'rinish turibdiki (9.11) bilan aniqlangan avlodlar populyatsiyasini MosFlarining o'rtacha qiymati (9.8) bilan aniqlangan ota-onalar populyatsiyasi MosFlari o'rtacha qiymatiga qaraganda ancha yuqoriligi bilan xarakterlanadi.

Ta'kidlaymizki, yangi avlodlar populyatsiyaning "o'rtacha" moslanuvchanligi qiymati oldingi ota-onalar populyatsiyaning "o'rtacha" moslanuvchanligi qiymatiga qaraganda yuqoriroq bo'ladi va shuning uchun MosFning katta qiymatiga ega bo'lgan xromosomalar keyingi avlodlarda

paydo bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

### 5-§. Genetik algoritmlar va an'anaviy optimallashtirish usullari

*GA* - bu muammoni hal qilish usullarining tabiiy evolyutsiyasini va birinchi navbatda optimallashtirish muammolarini aks ettiruvchi usul hisoblanadi. GAlar *an'anaviy optimallashtirish* usullaridan bir necha asosiy elementlari bilan ajralib turadi. Xususan, GAlar [36]:

1) masala prametrlerining berilgan boshlang'ich qiymatlarini emas, balki ularning kodlashtirilgan qiymatlarini qayta ishlaydi;

2) echimni bitta nuqtadan emas, balki ularning ma'lum bir populyatsiyasidan qidirishni amalga oshiradi;

3) maqsad funksiyasining hosilalari yoki boshqa qo'shimcha ma'lumotlaridan emas, balki faqat maqsad funksiyasining o'zidan foydalanadi;

4) seleksiyada deterministik qoidalarni emas, balki ehtimolli qoidalarni qo'llaydi.

Parametrlarni kodlashtirish, populyatsiyalar ustida amallarni amalga oshirish, masala haqida minimal ma'lumotdan foydalanish va jarayonlarning tasodifiy shakllanishini amalga oshirishda qatnashadigan to'rt xususiyat GAlarning barqarorligini va ularning keng qo'llaniladigan boshqa texnologiyalardan ustunligini belgilaydi [10].

*9.3-misol.* Bir o'zgaruvchi maqsad funksiya  $f(x) = 25 + 10x - 46x^2 + x^3$  ifoda bilan berilgan bo'lsin.  $x \in [-10, 53]$  oraliq'ida maqsad funksiyasining maksimal va minimal qiymatini topish talab qilinadi.

*I. Klassik optimallashtirish nazariyasidan foydalangan holda echimni aniqlash.*

Shubhasiz, bu maslani matematik tahlil usullari yordamida echish mumkin. Bu holda echimni topish algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Birinchi hosilani aniqlash:  $f'(x) = 10 - 92x + 3x^2$ .
2.  $10 - 92x + 3x^2 = 0$  kvadrat tenglamaning ildizlarini aniqlash:  
 $x_1 = 30.558, x_2 = 0.109$ .
3. Ikkinci hosilani aniqlash:  $f''(x) = -92 + 6x$ .
4. Ekstremum turini aniqlash:

$$f''(x_1) = f''(30.558) = -92 + 6 \times 30.558 = 91.348 > 0 \rightarrow \min;$$

$$f''(x_2) = f''(0.109) = -92 + 6 \times 0.109 = -91.348 < 0 \rightarrow \max.$$

5. Ekstremum nuqtalarida boshlang'ich funksiya qiymatlarini aniqlash:

$$f(x_1) = f(30.558) = 25 + 10 \times 30.558 - 46 \times 30.558^2 + 30.558^3 = -14089;$$

$$f(x_2) = f(0.109) = 25 + 10 \times 0.109 - 46 \times 0.109^2 + 0.109^3 = 25.5.$$

6. Funksiya qiymatlarini oraliq chegaralarida aniqlash:

$$f(-10) = 25 + 10 \times (-10) - 46 \times (-10)^2 + (-10)^3 = -5675;$$

$$f(53) = 25 + 10 \times 53 - 46 \times 53^2 + 53^3 = 20218.$$

7. Maqsad funksiyasining maksimal va minimal qiymatlarini aniqlash:

$$x = 53 \text{ da } y_{\max} = \max(-14089, 25.5, -5675, 20218) = 20218;$$

$$x = 30.558 \text{ da } y_{\min} = \min(-14089, 25.5, -5675, 20218) = -14089.$$

## *II. GA yordamida echimni aniqlash.*

Matematik tahlil usullari yordamida aniq echimni osongina topish mumkinligiga qaramay, quyida maqsad funksiyasining maksimal qiymatini hisoblashning bitta iteratsiyasi misolida GA yordamida masalaning echimini aniqlash keltirilgan.

Masalani (xromosomani) echish variantini berilgan oraliqda  $x$  ning butun sonli qiymatiga mos keluvchi bitli qator ko'rinishda ifodalash mumkin. Shunday qilib, gen - bu qatorning alohida bitta biti, xromosoma - bu 6 bitlik ketma-ketlik, genotip bitta xromosomadan iborat (genotip = xromosoma), fenotip - bu bitli qatorni o'nlikdagi ko'rinishi minus 10 dan iborat, ya'ni ( $x_i - 10$ ).

Aytaylik populyatsiya o'lchovi 4 ta xromosomani tashkil etsin, chatishtiruvlar soni - 2 ta, mutatsiyalashlar soni avlod uchun 1 ta avloddan iborat bo'lsin. Mutatsiyalash jarayoni satrning bitlaridan tasodifiy tanlangan bittasini teskariga aylantirishdan iborat.

Bu holda echimni topishning GA quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Dastlabki populyatsiyaning xromosomalari tasodifiy hosil qilinadi (9.3-jadval).

9.3-jadval. Seleksiyalash.

Xromo-soma	Xromosomalarni ifodalash		Fenotip ( $x_i _{10-10}$ )	$f(x)$ qiymati
	Bitli	O'nli		
$x_1$	011011	27	17	$f(17) = -8186$
$x_2$	100010	34	24	$f(24) = -12407$
$x_3$	000100	4	-6	$f(-6) = -1355$
$x_4$	111001	57	47	$f(47) = 2704$
O'rtacha qiymat - $F_{\text{av}} = F/4$				-4811
Maksimal qiymat - $f_{\max}(x)$				$f(47) = 2704$
Minimal qiymat - $f_{\min}(x)$				$f(24) = -12407$
Yig'indi - $F = \sum_{i=1}^4 f(x_i)$				-19244

2. Birinchi iteratsiya - bu chatishiruv operatori. Chatishiruv uchun tasodifiy ravishda ikkita juftlik ( $x_1, x_2$ ) va ( $x_2, x_4$ ) tanlangan bo'lсин. Har bir juftlikda qismqatorlarga bo'linish boshqa juftlikdan mustaqil va tasodifiy ravishda sodir bo'ladi. Avlodlar bir ota-onaning chap qismqatorini ikkinchisining o'ng qismqatorini birlashtirish orqali hosil qilinadi (9.4-jadval).

9.4-jadval. Birinchi iteratsiya - chatishiruv.

Chatishiruv juftliklari	Ota-onा			Avlod	
	Tanlangan nuqta	Xromo-soma	Bitli ifodasi	Xromo-soma	Bitli ifodasi
$x_1 \text{ va } x_2$	j=2	$x_1$	01   1011	$x_5$	01   0010
	j=2	$x_2$	10   0010	$x_6$	10   1011
$x_2 \text{ va } x_4$	j=4	$x_2$	1000   10	$x_7$	1000   01
	j=4	$x_4$	1110   01	$x_8$	1110   10

3. Birinchi iteratsiya - mutatsiyalash operatori. Mutatsiyalash uchun  $x_7$  avlod tasodifiy tanlanadi va undagi inversiya uchun  $j=3$  bit

(razryad) tasodifiy tanlanadi. Natijada,  $x_7$  avlod(xromosoma)ning kodi  $x_7=100001$  dan  $x_7=101001$  ga o'zgaradi.

4. Birinchi iteratsiya - reduksiyalash operatori. Ota-onalar va avlodlardan eng yaxshi xromosomalarni seleksiyalashda populyatsiya sonini hisobga olgan holda maqsad funksiyasining maksimal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi (9.5-jadval).

9.5-jadval. Birinchi iteratsiya - reduksiyalash.

Xromo-soma	Xromosomalarni ifodalash		Fenotip ( $x_i$ ) <sub>10</sub> -10)	$f(x)$ qiymati
	Bitli	O'nli		
<b>Ota-onalar</b>				
$x_1$	011011	27	17	$f(17) = -8186$
$x_2$	100010	34	24	$f(24) = -12407$
$x_3$	000100	4	-6	$f(-6) = -1355$
$x_4$	111001	57	47	$f(47) = 2704$
O'rtacha qiymat - $F_{\text{ср}} = F/4$				-4811
Maksimal qiymat - $f_{\max}(x)$				$f(47) = 2704$
Minimal qiymat - $f_{\min}(x)$				$f(24) = -12407$
Yig'indi - $F = \sum_{i=1}^4 f(x_i)$				-19244
<b>Avlodlar</b>				
$x_5$	010010	18	8	$f(8) = -2327$
$x_6$	101011	43	33	$f(33) = -13802$
$x_7$	101001	41	31	$f(31) = -14080$
$x_8$	111010	58	48	$f(48) = 5113$
O'rtacha qiymat - $F_{\text{ср}} = F/4$				-6274
Maksimal qiymat - $f_{\max}(x)$				$f(48) = 5113$
Minimal qiymat - $f_{\min}(x)$				$f(31) = -14080$
Yig'indi - $F = \sum_{i=5}^8 f(x_i)$				-25096

Shunday qilib, birinchi iteratsiya natijalariga ko'ra optimal echimni (ikkinchi iteratsiya) izlashni davom ettirish uchun quyidagi populyatsiya olinadi (9.6-jadval).

9.6-jadval. Ikkinchchi iteratsiya.

Xromo-soma	Xromosomalarni ifodalash		Fenotip ( $x_i$ ) <sub>10-10</sub> )	$f(x)$ qiymati
	Bitli	O'nli		
$x_3$	000100	4	-6	$f(-6) = -1355$
$x_4$	111001	57	47	$f(47) = 2704$
$x_5$	010010	18	8	$f(8) = -2327$
$x_8$	111010	58	48	$f(48) = 5113$
O`rtacha qiymat - $F_{\text{ср}} = F/4$				1034
Maksimal qiymat - $f_{\max}(x)$				$f(48) = 5113$
Minimal qiymat - $f_{\min}(x)$				$f(8) = -2327$
Yig`indi - $F = \sum_{i=1}^4 F(x_i)$				4135

Bitta iteratsiyada populyatsiya sifati sezilarli darajada oshdi. Agar boshlang'ich populyatsiyada maqsad funksiyasining o`rtacha qiymati - 4811 va uning minimal qiymati -12407 tashkil qilgan bo'lsa, u holda birinchi iteratsiyadan keyin populyatsiyada o`rtacha qiymat 1034 ga, minimal qiymati esa -2327 ga teng bo'lди. Optimal echim  $f(53) = 20218$  bo'lganda (analitik echimga qarang) maksimal qiymat  $f(47) = 2704$  dan  $f(48) = 5113$  gacha oshdi. Ushbu misol umuman populyatsiyani yaxshilash jarayonini va eng yaxshi echimni aniq aks ettiradi.

## 6-§. Genetik algoritmlar haqidagi asosiy teorema

**Sxema tushunchasi.** GAning ishlashini yaxshiroq tushunish uchun *sxema* tushunchasidan foydalaniladi va GAlar bilan bog'liq bo'lgan va sxema teoremasi deb nomlangan asosiy teorema shakllantiriladi [9, 10, 36]. Ba'zi umumiy xususiyatlarga ega, ya'ni bir-biriga o'xshash bo'lgan xromosomalar to'plamini aniqlash uchun *sxema tushunchasi kiritildi*. Agar allellar 0 yoki 1 qiymatlarni qabul qilsa (ikkilik alfavitga ega bo'lgan xromosomalar qaralsa), u holda bu sxema

ba'zi oldindan belgilangan joy(joy)larda 0 yoki 1 qiymatlardan iborat xlorosomalar to'plamini ifodalaydi.

Sxemalar ko'rib chiqayotganda kengaytirilgan  $\{0, 1, *\}$  alfavitdan foydalanish qulay bo'lib, unda 0 va 1 ga qo'shimcha ravishda har qanday etarli, ya'ni 0 yoki 1 qiymatni bildiruvchi qo'shimcha \* belgi kiritiladi. Ma'lum bir joydagi \* belgisi "ahamiyatsiz" degan ma'noni anglatadi. Masalan,

$$1 * 01 = \{1001, 1101\}; \quad * 0 * 11 = \{00011, 00111, 10011, 10111\}$$

Xromosoma ushbu sxemaga tegishli deb hisoblanadi, agarda har bir

$j$  ( $j = 1, 2, \dots, l$ , bu erda  $l$  - xromosomaning uzunligi) - joy (lokus) uchun xromosomaning  $j$  - joyini egallagan belgi sxemaning  $j$  - joyini egallagan \* belgiga mos kelsa, ya'ni \* belgiga 0 ham va 1 xam mos kelsa. Xuddi shunday xromosoma sxemaga mos keladi va xromosoma sxemani ifodalaydi degan tasdiq xam o'rinli hisoblanadi. Ta'kidlash mumkinki, agar sxemada  $m$  ta \* belgilari mavjud bo'lsa, unda ushbu sxema  $2^m$  ta xromosomalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari  $L$  uzunlikga ega bo'lgan har bir xromosoma  $2^L$  ta sxemalarga tegishli bo'ladi. 9.7 - jadvalda 2 uzunlikdagi xromosomalar tegishli bo'lgan sxemalar ko'rsatilgan.

9.7-jadval. 2 uzunlikdagi xromosomalar tegishli bo'lgan sxemalar.

Holatlar	Sxemalar			
	1	2	3	4
00	**	*0	0*	00
01	**	*1	0*	01
10	**	*0	1*	10
11	**	*1	1*	11

Demak 2 uzunlikdagi xromosomalar 4 ta turli sxemalarga mos keladi. Xuddi shunday  $L$  uzunlikga ega bo'lgan har bir xromosoma  $2^L$  ta sxemalarga mos keladi.

GA eng moslanuvchanlik xromosomalar transformatsiyasi prinsipiga asoslanadi. Aytaylik  $P(0)$ - xromosomalarning boshlang'ich populyatsiyasini va  $P(k)$ - algoritmnning  $k$ -iteratsiyasida populyatsiyani anglatsin. Har bir  $P(k)$  ( $i = 1, 2, \dots$ ) populyatsiyadan eng yaxshi moslanuvchanlikga ega bo'lgan xromosomalar tanlov usuli bilan tanlanadi va ular  $M(k)$ - OOPga kiritiladi. Undan keyin  $M(k)$

populyatsiyadagi xromosomalarni ota-onasiga juftligiga birlashishi va  $P$ -ehtimollik bilan ChAni bajarilishi, shuningdek  $P$ -ehtimollik bilan mutatsiyalash amalini bajarilish natijasida  $M(k)$  populyatsiyadagi xromosomalarning avlodlarini o'z ichiga oluvchi yangi  $P(k+1)$  populyatsiya shakllantiriladi.

Qaraladigan sxema  $S$  bilan belgilanadi va ushbu sxemaga mos keladigan  $P(k)$  populyatsiya xromosomlari soni  $n^*(S, k)$  bilan belgilanadi. Shuningdek  $n^*(S, k)$ ni  $P(k) \cap S$  to'plamning elementlari soni deb hisoblash mumkin.

Endi GAda sxemalarini o'zgartirishga ta'sir qiladigan xromosomalarni *seleksiyalash*, *chatishitiruv* va *mutatsiyalash* amallarini birma-bir qarab chiqish mumkin.

**1. Xromosomalarni seleksiyalash.** Bu amalning bajarilishi natijasida  $P(k)$  populyatsiyadagi xromosomlar (9.4) ifoda bilan aniqlangan ehtimollik bilan  $M(k)$  ota-onasiga juftligiga nusxalanadi.  $F(S, k)$  bilan  $S$  sxemaga mos keluvchi  $P(k)$  populyatsiyadagi xromosomlarning MosFlarining o'rtacha qiymati belgilanadi. Agar  $S$  sxemaga mos keluvchi  $P(k)$  populyatsiyada xromosomlar soni  $P(k) : S = \{x_1, \dots, x_{n^*(S, k)}\}$  bo'lsa, u holda har  $S$  sxemaga mos keluvchi har bir xromosomaning sifatini (yaroqliligini)  $f(x_i) = \sum_{i=1}^{n^*(S, k)} x_i$  hisoblash mumkin, bunda  $I^*(I^* \leq I)$ - $S$  sxemaga mos keluvchi xromosomaning uzunligi bo'lib, bu uzunlik xromosomadagi doimiy 0 va 1 lar soni bilan belgilanadi.

Endi  $S$  sxemaga mos keluvchi  $P(k)$  populyatsiyada xromosomlarning umumiy bahosi (yig'indisi)

$$F(S, k) = \sum_{i=1}^{n^*(S, k)} f(x_i) / n^*(S, k). \quad (9.12)$$

Aniqlanadi, bunda  $F(S, k)$  qiymat  $S$  sxemaning  $k$ -iteratsiyadagi *moslanuvchanligi* deb ataladi.

$N$  quvvatga ega bo'lgan  $P(k)$  populyatsiyadagi xromosomlar MosFlarining yig'indisini  $Q(k)$  bilan belgilasak, u holda

$$Q(k) = \sum_{i=1}^{n^*(k)} f(x_i). \quad (9.13)$$

$k$ -iteratsiyadagi  $P(k)$  populyatsiyada xromosomlar MosFlarining o'rtacha qiymatini  $\bar{F}(k)$  bilan belgilanadi va u quyidagicha aniqlanadi

$$\bar{F}(k) = \frac{1}{N} Q(k). \quad (9.14)$$

Aytaylik  $x_i^{(k)}$ - $M(k)$  OOPning elementi bo'lsin. Har bir  $x_i^{(k)} \in M(k)$  va har bir  $i = 1, \dots, n^*(S, k)$  bo'lganda  $x_i^{(k)} = x_i$ , bo'lish ehtimoli  $f(x_i)/f(k)$  munosabat bilan aniqlanadi. Shuning uchun  $M(k)$  populyatsiyada kutiladigan xromosomalar soni  $x_i$  ga teng va u quyidagini tashkil qiladi

$$N \frac{f(x_i)}{Q(k)} = \frac{f(x_i)}{\bar{F}(k)}.$$

Demak  $M(k)$  populyatsiyasiga kiritish uchun  $P(k) \cap S$  to'plamdan tanlab olinishi kutiladigan xromosomalar soni (9.12) dan quyidagicha aniqlanadi

$$\sum_{i=1}^{n^*(S, k)} \frac{f(x_i)}{\bar{F}(k)} = n^*(S, k) \frac{F(S, k)}{\bar{F}(k)}$$

Agarda  $M(k)$  populyatsiyasidagi har bir xromosoma bir vaqtida  $P(k)$  populyatsiyaga ham tegishli bo'lsa, u holda  $P(k) \cap S$  to'plamni tashkil etuvchi xromosomalar  $M(k)$  populyatsiyasiga kiritish uchun  $P(k) \cap S$  to'plamdan tanlab olingan xromosomalar hisoblanadi.

Aytaylik  $b(S, k)$ - $S$  sxemaga mos keluvchi (ya'ni  $P(k) \cap S$  to'plam elementlari soni)  $M(k)$  populyatsiyasidagi xromosomalar soni bo'lsin. U holda yuqoridagi mulohazalardan quyidagi xulosaga kelinadi, ya'ni  $S$  sxemaga mos keluvchi  $M(k)$  populyatsiyasida kutiladigan xromosomalar sonining  $b(S, k)$  qiymati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$E[b(S, k)] = n^*(S, k) \frac{F(S, k)}{\bar{F}(k)}. \quad (9.15)$$

Bundan kelib chiqadiki, agar  $S$  sxema MosF qiymati o'rtacha qiymatdan yuqori bo'lgan xromosomalarni o'z ichiga olsa (ya'ni,  $S$  sxemaning  $k$ -iteratsiyadagi moslanuvchanligi  $P(k)$  populyatsiyadagi xromosomalar MosFning o'rtacha qiymatidan katta bo'lib chiqsa, ya'ni  $F(S, k)/\bar{F}(k) > 1$  bo'lsa), u holda  $S$  sxemaga mos keladigan  $M(k)$  populyatsiyadan kutilgan xromosomalar soni  $S$  sxemaga mos keladigan  $P(k)$  populyatsiyadagi xromosomalar sonidan ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ta'kidlash mumkinki - seleksiyalash (tanlash) moslanuvchanligi "o'rtacha darajadan yaxshiroq" bo'lgan sxemalarning

tarqalishiga va "yomonroq" moslanuvchanlikga ega bo'lgan sxemalarning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

$M(k)$  populyatsiyasidagi xromosomalarda chatishtiriv va mutatsiyalash genetik operatorlarining ta'sirini tahlil qilishga o'tishdan oldin  $S$  sxemani tartibi va qamrovi tushunchalari aniqlanadi [36]. Buning uchun  $L$  bilan xromosomalarning  $S$  sxemaga mos keladigan *uzunligi* belgilanadi.

**Sxema tartibi.**  $S$  sxemaning tartibi  $h(S)$  bilan belgilanadi va u  $S$  sxemadagi doimiy joylar soni, ya'ni  $\{0, 1, *\}$  alfavitdagi nollar va birlar soni bilan aniqlanadi. Agar  $S$  sxemaning  $\{0, 1, *\}$  alfavitida  $*$  lar sonini  $I_*(S)$  bilan belgilasak, u holda  $S$  sxemani  $h(S)$  tartibini quyidagicha aniqlash mumkin

$$h(S) = l - I_*(S). \quad (9.16)$$

**9.4-misol.** Aytaylik  $l = 6$  uzunlikga ega bo'lgan  $S$  sxemalar berilgan bo'lsin:

$$\begin{aligned} S_1 &= (10 * 1 * 0); S_2 = (*011 * 0); S_3 = (1 ** 1 * 0); S_4 = (10 *** * *); \\ S_5 &= (1 * * * * *); S_6 = (* * * * * *). \end{aligned}$$

U holda (9.16) ifodadan foydalanib har bir  $S$  sxemaning tartibi quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} h(S_1) &= (10 * 1 * 0) = 4; h(S_2) = (*011 * 0) = 4; h(S_3) = (1 ** 1 * 0) = 3; \\ h(S_4) &= (10 *** * *) = 2; h(S_5) = (1 * * * * *) = 1; h(S_6) = (* * * * * *) = 0. \end{aligned}$$

Demak  $S$  sxemaning  $h(S)$  tartibi har doim  $[0, L]$  intervaldagи butun son hisoblanadi.

**Sxema qamrovi.**  $S$  sxema qamrovi deganda sxemaninig uzunligi  $d(S)$  tushuniladi va u  $\{0, 1, *\}$  alfavitdan iborat  $l$  uzunlikdagi  $S$  sxemaning 0 yoki 1 bilan tugagan ong oxirgi joyi bilan 0 yoki 1 bilan boshlangan chap joyi orasidagi masofa (farq) bilan aniqlanadi.

Agar  $\{0, 1, *\}$  alfavitdan iborat  $l$  uzunlikdagi  $S$  sxemaning 0 yoki 1 bilan tugagan ong oxirgi joyini  $I_{ong}(S)$  bilan va  $S$  sxemaning 0 yoki 1 bilan boshlangan chap joyini  $I_{chap}(S)$  bilan belgilasak, u holda  $S$  sxemani  $d(S)$  qamrovini quyidagicha aniqlash mumkin

$$d(S) = I_{ong}(S) - I_{chap}(S) \quad (9.17)$$

**9.5-misol.** Aytaylik  $l = [3, 6]$  oraliqdagi uzunlikga ega  $S$  sxemalar berilgan bo'lsin:

$$S_1 = (1 * 10); \quad S_2 = (* 0 * 1 *); \quad S_3 = (* 10 * 01); \quad S_4 = (****); \quad S_5 = (1 * * *);$$

$$S_6 = (** * 0); \quad S_7 = (10100); \quad S_8 = (0000); \quad S_9 = (1111).$$

U holda (9.17) ifodadan foydalaniб har bir  $S$  sxemaning qamrovi quyidagicha aniqlanadi:

$$d(S_1) = (1 * 10) = 4 - 1 = 3; \quad d(S_2) = (* 0 * 1 *) = 4 - 2 = 2;$$

$$d(S_3) = (* 10 * 01) = 6 - 2 = 4; \quad d(S_4) = (****) = 0 - 0 = 0;$$

$$d(S_5) = (1 * * *) = 1 - 1 = 0; \quad d(S_6) = (** * 0) = 4 - 4 = 0;$$

$$d(S_7) = (10100) = 5 - 1 = 4; \quad d(S_8) = (0000) = 4 - 1 = 3;$$

$$d(S_9) = (1111) = 4 - 1 = 3.$$

Demak  $S$  sxemaning  $d(S)$  qamrovi har doim  $[0, l-1]$  intervaldagi butun son ifodalanadi. Ta'kidlash mumkinki, agar  $S$  sxema faqat doimiy 0 va 1 lardan iborat bo'lса, u holda ushbu sxemaning qamrovi  $(l-1)$  ga teng bo'ladi (9.5-misolda  $d(S_5)$  va  $d(S_6)$  larga qarang). Shuningdek,  $S$  sxema faqat bitta doimiy 0 yoki 1 dan iborat bo'lса, u holda ushbu sxemaning qamrovi 0 ga teng bo'ladi (9.5-misolda  $d(S_3)$  va  $d(S_4)$  larga qarang). *Xulosa qiladigan bo'lсak S sxemaning qamrovi unda mavjud bo'lgan ma'lumotlarning mazmunini tavsiflaydi.*

**2. Chatishtiruv amali (ChA).** GAdagi sxemalarni qayta ishlashga ChA ta'siri haqida fikr yuritiladi. Avvalo shuni ta'kidlash mumkinki chatishtiruv jarayonida ba'zi sxemalar boshqalariga qaraganda yo'qolib ketishga ko'proq duchor bo'ladi. Masalan,  $S_1 = 1 * * * * 0 *$  va  $S_2 = ** 01 * * *$  sxemalarni hamda ikkala sxemaga ham mos keladigan  $x = [1001101]$  xromosoma ko'rib chiqiladi. Ko'riniб turibdiki  $S_2$  sxemaning "omon qolish" imkoniyati  $S_1$  sxemaga nisbatan ko'proq, chumki  $S_1$  sxemaning 1, 2, 3, 4 va 5 chatishtiruv nuqtalarida "bo'linish" ga ko'proq moyillik mavjud bo'lib, bu bo'linish  $S_2$  sxemada faqat 3 chatishtiruv nuqtasini tanlaganda amalga oshadi. Shuning uchun ikkala sxemaning ham qamroviga asosiy e'tibor qaratiladi, chunki sxemalar qamrovi chatishtiruv jarayoniga muhim ta'sir korsatadi.

ChAning  $M(k)$  populyatsiyasiga ta'sirini tahlil qilish jarayonida  $P(k) \cap S$  OOP to'plamidan olingan va  $S$  sxemaga mos keladigan ma'lum bir xromosoma ko'rib chiqiladi. Ushbu xromosomaning chatishtiruv uchun tanlanish ehtimoli  $P_e$  ga tengdir. Agar ushbu

xromosoma avlodlaridan birortasi ham  $S$  sxemaga tegishli bo'lmasa, u holda bu chatishtiruv nuqtasi ushbu sxemaning biringchi va oxirgi doimiy belgilari (0 yoki 1) o'tasida bo'lishi kerak. Buning amalga oshish ehtimoli  $d(S)/(l-1)$ ga tengdir. Bundan quyidagi *xulosalar* chiqarish mumkin.

$M(k) \cap S$  OOP to'plamidagi ba'zi xromosomaning chatishtiruv uchun tanlanishi va uning avlodlaridan birortasi ham  $S$  sxemaga tegishli emasligi ehtimoli yuqoridan

$$P_c \frac{d(S)}{(l-1)} \quad (9.18)$$

qiymat bilan chegaralangan bo'ladi. Ushbu qiymat  $S$  sxemani "*omon qolmaslik (yo'qolish)*" ehtimoli deb ataladi.

$M(k) \cap S$  populyatsiyasi to'plamidagi ba'zi xromosomaning chatishtiruv uchun tanlanishi va chatishtiruv natijasida uning avlodlaridan ehg kamida bittasi  $S$  sxemaga tegishli bo'lishligi ehtimoli quyidan

$$1 - P_c \frac{d(S)}{(l-1)} \quad (9.19)$$

qiymat bilan chegaralangan bo'ladi. Ushbu qiymat  $S$  sxemani "*omon qolishlik (yashahlik)*" ehtimoli deb ataladi.

Ko'rinib turibdiki, agar berilgan xromosoma  $S$  sxemaga tegishli va u chatishtiruv uchun tanlangan bo'lsa hamda ikkinchi ota-onal xromosomasi ham  $S$  sxemaga tegishli bo'lsa, u holda ularni ikkalasining avlodlari ham  $S$  sxemaga tegishli bo'ladi. (9.18) va (9.19) - ifodalar natijalari sxemani "yo'q qilish" yoki "omon qolish" ehtimolligini baholashda  $S$  sxemani qamrovi ko'rsatkichi  $d(S)$ ning dolzarbligini tasdiqlaydi.

**3. Mutatsiyalash amali.** Endi mutatsiyalashning  $M(k)$  ota-onal juftligi sohasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Mutatsiyalash operatori  $P_e$  ehtimol bilan tasodifiy ravishda xromosomaning ma'lum bir yoyidagi 0 qiymatini 1 ga va aksincha 1 qiymatini 0 ga o'zgartiradi. Korinib turibdiki, ushbu amaldan so'ng xromosomaning joylaridagi barcha 0 va 1 lari o'zgarishsiz qolgandagina sxema mutatsiyalash natijasida omon qoladi.

Demak  $M(k) \cap S$  populyatsiyasi to'plamidan olingan va  $S$  sxemaga tegishli bo'lgan xromosoma ushbu  $S$  sxemada shunda va faqat shundagina qoladi, agarda  $S$  sxemani joylaridagi doimiy 0 va 1 lariga

mos keluvchi xromosomaning joylaridagi 0 va 1 laridan birortasi ham mutatsiyalash jarayonida o'zgarmasdan qolsa. Bunday hodisaning amalga oshish ehtimolligi  $(1 - P_c)^{n(S)}$  ga teng bo'ladi. Ushbu natijani quyidagi *xulosa* shaklida ifodalash mumkin.

$M(k) \cap S$  OOP to'plamidan olingan ba'zi bir xromosomalarining mutatsiyalash amalidan keyin  $S$  sxemaga tegishli bo'lish ehtimoli

$$(1 - P_c)^{n(S)} \quad (9.20)$$

ifoda bilan aniqlanadi. *Ushbu qiymat mutatsiyalashdan keyingi S sxemaning "omon qolish" ehtimoli deb ataladi.*

Agar mutatsiyalash ehtimoli  $P_c$  kichik ( $P_c < 1$ ) bo'lsa, u holda (9.20)

ifoda bilan aniqlangan mutatsiyalashdan so'ng  $S$  sxemaning "omon qolish"

ehtimoli taxminan quyidagi ifodaga teng deb taxmin qilinishi mumkin

$$1 - P_c \times h(s) \quad (9.21)$$

Agar  $M(k) \cap S$  populyatsiyasi to'plamidan olingan xromosoma  $S$  sxemaga mos keladigan avlodni beradigan bo'lsa, u holda ushbu xromosoma  $P(k+1) \cap S$  ga (yangi populyatsiyaga mos keladigan  $S$  sxemaga) tegishli bo'lishini hisobga olganda (9.18) - (9.21) ifodalarda keltirilgan seleksiyalash, chatishtiruv va mutatsiyalashning birgalikdagi ta'sirining samarasi quyidagi ko'payish (reporoduksiya) sxemasining qurilishiga olib keladi [123]:

$$E[n^*(S, k+1)] \geq n^*(S, k) \frac{F(S, k)}{\bar{F}(k)} \left(1 - P_c \frac{d(s)}{l-1}\right) (1 - P_c)^{n(S)} \quad (9.22)$$

(9.22) ifodadagi bog'liqlik ma'lum bir sxemaga mos keladigan xromosomalar soni joriy populyatsiyadan keyingi populyatsiyaga o'tishda qanday o'zgarishini ko'rsatadi. Ushbu o'zgarish (9.22) ifodaning o'ng tomonida ko'rsatilgan uchta omil tufayli yuzaga keladi, xususan:  $F(S, k)/\bar{F}(k)$  - MosFning o'rtacha qiymatining rolini aks ettiradi,  $(1 - P_c \times d(s)/(l-1))$  - chatishtiruvning ta'sirini ko'rsatadi va  $(1 - P_c)^{n(S)}$  - mutatsiyalashning ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu omillarning har birining qiymati qanchalik katta bo'lsa, kelgusi populyatsiyada xromosomalarining  $S$  sxemaga mos kelishlarini kutilgan soni shuncha katta bo'ladi. (9.21) ifodani e'tiborga olib, (9.22) ifodani quydagicha ifodalash mumkin

$$E[n^*(S, k+1)] \geq n^*(S, k) \frac{F(S, k)}{F(k)} \left( 1 - P_c \frac{d(s)}{l-1} - P_m h(s) \right) \quad (9.23)$$

Katta populyatsiyalar uchun (9.23) ifodani quyidagicha approksimatsiya qilish mumkin

$$n^*(S, k+1) \geq n^*(S, k) \frac{F(S, k)}{F(k)} \left( 1 - P_c \frac{d(s)}{l-1} - P_m h(s) \right) \quad (9.24)$$

(9.23) va (9.24) formulalardan kelib chiqadiki, keyingi avloddagi  $S$  sxemaga mos keladigan kutilayotgan xromosomalar soni ushbu sxemaga tegishli bo'lgan xromosomalarning haqiqiy soniga, sxemaning nisbiy moslanuvchanligiga hamda sxemaning tartibi va qamroviga bog'liqdir. Shunisi e'tiborga loyiqliki, o'rtacha darajadan yuqoriroq hamda kichik tartibli va qamrovli sxemalar keyingi populyatsiyalarda ularning avlodlari sonining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Ushbu o'sish ko'rsatkichli xarakterga ega bol'ib, u (9.15) ifodadan kelib chiqadi. Katta populyatsiyalar uchun (9.15) ifodani rekurrent bo'g'lanish ko'inishga almashtirish mumkin [36]

**Sxema haqidagi teorema.** O'rtacha darajadan yuqori bo'lgan kichik tartibli sxemalar o'zining kichik qamrovi va MosF bilan GAning keyingi avlodlarida o'zlarining namunalari sonini o'sishini yaqqol ko'rsatishini shakllantiradi.

9.2-misolni e'tiborga olib, quyidagi misolda GA asosida sxemalarni ishslash jarayoni tahlili keltiriladi.

**9.6-misol.** Aytaylik 9.2-misolda 12 ta gendan iborat xromosomalar boshlang'ich populyatsiya (9.7) ko'rinishdagi 8 xromosomani o'z ichiga olgan bo'lzin.

Quyidagi  $S_0 = [*****11]$  sxema qaraladi va ushbu sxemada GA bajarilishi jarayonida qatnashchilar (genlar) soni va MosF qanday o'zgarishi ko'rib chiqiladi.

$S_0$  sxemaning uzunligi (genlar soni)  $l = 12$  ga teng bo'lib, uning tartibi (9.16) ifodaga asosan  $h(S_0) = l - l_{\text{c}}(S_0) = 12 - 10 = 2$  va qamrovi  $d(S_0) = l_{\text{ong}}(S_0) - l_{\text{chap}}(S_0) = 12 - 11 = 1$ . (9.7) dagi boshlang'ich 8 ta populyatsiyadan  $S_0$  sxemaga quyidagi ikkita xromosomalar mos keladi:

$$x_1 = [011101110011]; \quad x_2 = [101011011011]; \quad (9.25)$$

Eslatib o'tish joizki chatishiruv va mutatsiyalash ehtimollari mos ravishda  $P_c = 1$  va  $P_m = 0$  teng deb hisoblanadi.  $S_0$  sxemaning  $P(0)$  boshlang'ich populyatsiyada  $F(S_0, 0)$  moslanuvchanligini (9.12)

formulaga asosan aniqlash uchun avvalo  $P(0)$  populyatsiyadagi  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_i$ , va  $x_i$ , xromosomalar uchun  $f(x_i) = 8$  va  $f(x_i) = 8$  moslanuvchanlik qiymatlari aniqlanadi. Ushbi qiymatlarni (9.12) formulaga qo'yib  $P(0)$  populyatsiyada  $F(S_0, 0)$  moslanuvchanlik  $F(S_0, 0) = \sum_{i=1}^8 f(x_i) / 2 = (8 + 8) / 2 = 8$  aniqlanadi.

$N=2$  quvvatga ega bo'lgan  $P(0)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_i$ , va  $x_i$ , xromosomalar MosFlarining  $Q(0)$  yig'indisi (9.13) formulaga asosan  $Q(0) = \sum_{i=1}^8 f(x_i) = 8 + 8 = 16$  aniqlanadi.

$k = 0$  - iteratsiyadagi  $P(0)$  populyatsiyada  $x_i$ , va  $x_i$ , xromosomalar MosFlarining  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qiymati (9.14) formulaga asosan  $\bar{F}(0) = \frac{1}{2} Q(0) = \frac{1}{2} 16 = 8$  aniqlanadi.

Endi  $P(0)$  populyatsiyada 9.2-misolda GAning initzializatsiyalash bosqichida xromosomalarining boshlang'ich populyatsiyasini tanlashni amalga oshirish natijasida tanlangan boshlang'ich  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8$  xromosomalar uchun  $f(x_i) (i = 1, 8)$  MosFning qiymatlari hisoblanadi:

$$\begin{aligned}f(x_1) &= 7; f(x_2) = 6; f(x_3) = 8; f(x_4) = 3; \\f(x_5) &= 4; f(x_6) = 5; f(x_7) = 8; f(x_8) = 5.\end{aligned}$$

Aniqlangan  $f(x_i) (i = 1, 8)$  funksiyaning qiymatlari (9.12) formulaga qo'yib

$$F(S_0, 0) = \sum_{i=1}^8 f(x_i) / 8 = (7 + 5 + 8 + 3 + 4 + 5 + 8 + 5) / 8 = 46 / 8 = 5.75.$$

$N=8$  quvvatga ega bo'lgan  $P(0)$  populyatsiyada  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8$  xromosomalar MosFlarining  $Q(0)$  yig'indisi (9.13) formulaga asosan

$$Q(0) = \sum_{i=1}^8 f(x_i) = 7 + 5 + 8 + 3 + 4 + 5 + 8 + 5 = 46.$$

$k = 0$ -iteratsiyadagi  $P(0)$  populyatsiyada  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8$  xromosomalar MosFlarining  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qiymati (9.14) formulaga asosan  $\bar{F}(0) = \frac{1}{8} Q(0) = \frac{1}{8} 46 = 5.75$  aniqlanadi.

Demak  $P(0)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1$ , va  $x_2$ , xromosomalarining MosFlarining  $\bar{F}(0) = 8$  o'rtacha qimati ushbu populyatsiyada tanlangan boshlang'ich  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6, x_7, x_8$  xromosomalarining MosFlarining  $\bar{F}(0) = 5.75$  o'rtacha qimatidan katta bo'layapti.

**Chatishiruv - genetik operatorlarni qo'llashni amalga oshirish.** Endi keying  $k=1$  qadamda (9.25) ko'rinishdagi populyatsiyadan ChAni qo'llab yangi xromosomalarni hosil qilish va ular orasidan  $S_0$  sxemaga mos keladiganlarini seleksiyalash amalga oshiriladi.

Faraz qilaylik seleksiyalash jarayonida (9.25) ko'rinishda tanlangan 8 ta xromosomalarining birortasi ham mutatsiyalashga uchramasin va ularning hammasi chatishiruv uchun mo'ljallangan xromosomalar populyatsiyasini tashkil qilsin. Bu esa chatishiruv ehtimolini  $P_e(x_i)=1$  va mutatsiyalash ehtimoli  $P_m(x_i)=0$  ekanligini anglatadi. Aytaylik ushbu xromosomalardan tasodifiy ravishda ota-onalarning  $x_1 \text{ va } x_2; x_1 \text{ va } x_3; x_1 \text{ va } x_4; x_1 \text{ va } x_5$  juftliklari shakllantirilgan bo'lsin. Bu juftliklar uchun 9.2-misolda chatishiruv nuqtalarini tanlash va chatishiruv jarayoni 9.5-rasmida ko'rsatilgandek amalga oshiriladi va natijada (9.10) ifodadagi 8 ta yangi xromosomalar hosil bo'ladi. (9.10) dagi xromosomalar orasidan  $S_0$  sxemaga mos keladiganlari 4ta xromosomani tashkil etadi:

$$\begin{aligned} x_1^* &= [0\ 0\ 1\ 1\ 1\ 0\ 1\ 1\ 0\ 1]; & x_2^* &= [1\ 1\ 1\ 0\ 1\ 1\ 0\ 1\ 1\ 0]; \\ x_3^* &= [0\ 1\ 1\ 1\ 0\ 1\ 0\ 1\ 1\ 1]; & x_4^* &= [1\ 0\ 1\ 0\ 1\ 1\ 1\ 0\ 0\ 1]. \end{aligned} \quad (9.26)$$

$S_0$  sxemaning  $k=1$  qadamdagи  $P(1)$  populyatsiyada  $F(S_0, 1)$  moslanuvchanligini (9.12) formulaga asosan aniqlash uchun avvalo  $P(1)$  populyatsiyadagi  $S_0$  sxemaga mos keluvchi (9.26)dagи  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalar uchun  $f(x_1^*) = 8, f(x_2^*) = 9, f(x_3^*) = 8, f(x_4^*) = 8$  moslanuvchanlik qiymatlari hisoblanadi. Ushbi qiymatlarni (9.12) formulaga qo'yib  $P(1)$  populyatsiyada  $F(S_0, 1)$  moslanuvchanlik  $F(S_0, 1) = \sum_{i=1}^4 f(x_i^*) / 2 = (8 + 9 + 8 + 8) / 4 = 8.25$  aniqlanadi.

$N=4$  quvvatga ega bo'lган  $P(1)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalar MosFlarining  $Q(1)$  yig'indisi

(9.13) formulaga asosan  $Q(1) = \sum_{i=1}^4 f(x_i) = 8 + 9 + 8 + 8 = 33$  aniqlanadi.

$P(1)$  populyatsiyada  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalar MosFlarining  $\bar{F}(1)$  o'rtacha qiymati (9.14) formulaga asosan  $\bar{F}(1) = \frac{1}{4} Q(1) = \frac{1}{4} 33 = 8.25$  aniqlanadi.

Endi  $k=1$  qadamda  $P(1)$  populyatsiyada (9.26)dagи  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*, x_7^*, x_8^*$  xromosomalar uchun

$$f(x_1^*) = 8; f(x_2^*) = 6; f(x_3^*) = 9; f(x_4^*) = 6;$$

$$f(x_5^*) = 7; f(x_6^*) = 4; f(x_7^*) = 8; f(x_8^*) = 8$$

moslanuvchanlik qiymatlari hisoblanadi. Ushbi qiymatlarni (9.12) formulaga qo'yib  $P(1)$  populyatsiyada  $F(S_0, 1)$  moslanuvchanlik quyidagcha aniqlanadi:

$$F(S_0, 1) = \sum_{i=1}^8 f(x_i^*) / 8 = (8 + 6 + 9 + 6 + 7 + 4 + 8 + 8) / 8 = 7.$$

$N=8$  quvvatga ega bo'lgan  $P(1)$  populyatsiyada  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*, x_7^*, x_8^*$  xromosomalar MosFlarining  $Q(1)$  yig'indisi (9.13) formulaga asosan  $Q(1) = \sum_{i=1}^8 f(x_i^*) = 8 + 6 + 9 + 6 + 7 + 4 + 8 + 8 = 56$  aniqlanadi.

$P(1)$  populyatsiyada  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*, x_7^*, x_8^*$  xromosomalar MosFlarining  $\bar{F}(1)$  o'rtacha qiymati (9.14) formulaga asosan  $\bar{F}(1) = \frac{1}{8} Q(1) = \frac{1}{8} 56 = 7$  aniqlanadi.

Demak yangi  $P(1)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalarni MosFlarining o'rtacha qimati  $\bar{F}(1) = 8.25$  ushbu populyatsiyada chatishiruv natijasida hosil qilingan  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*, x_7^*, x_8^*$  xromosomalarni MosFlarining o'rtacha qimati  $\bar{F}(1) = 7$  dan katta bo'layapti. Bundan tashqari yangi  $P(1)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalarni MosFlarining qiymati  $F(S_0, 1) = 8.25$   $P(0)$  populyatsiyada  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalarni MosFlarining qiymati  $F(S_0, 0) = 8$  dan katta, ya'ni  $F(S_0, 1) = 8.25 > F(S_0, 0) = 8$  bo'layapti hamda  $S_0$  sxemaga mos keluvchi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*$  xromosomalarni MosFlarining qiymati  $F(S_0, 1) = 8.25$

keluvchi yangi  $P(1)$  populyatsiyaning quvvati  $N = 4(x_1^+, x_2^+, x_3^+, x_4^+$  xromosomalardan iborat) oldingi  $P(0)$  populyatsiyaning quvvati  $N = 2(x_3^-, x_4^-$  xromosomalardan iborat)dan katta, ya'ni  $N = 4 > N = 2$  bo'layapti.

Sxemalarni qayta ishlashga bag'ishlangan 9.6-misoldan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin. Ushbu misollar GAlarning asosiy teoremasi - sxema haqidagi teoremasini aks ettiradi. U kichik tartibli va kichik qamrovli sxemaga ishlov berishga ta'sir qiladi.

## 7-§. Klassik genetik algoritmning modifikatsiyalari

### 7.1. Genetik operatorlarning turlari

Genetik operatorlarning seleksiyalash, chatish tiruv va mutatsiyalash turlari aniqlangan. Quyida ushbu operatorlarni tahlilini korib chiamiz.

**Seleksiyalash (tanlash) operatori.** Seleksiyalash GAda harakatlantiruvchi kuchni ta'minlaydi. Agar ushbu kuch qanchalik katta bo'lsa, u holda genetik qidiruv tezroq yakunlanishi mumkin, aks holda evolyutsiya jarayoni zarur bo'lganidan ko'ra sekinroq bo'ladi.

Seleksiyalash genetik qidiruvni qidiruv fazosining istiqbolli yo'nalishlariga yo'naltiradi. So'nggi yillar ichida seleksiyalashning ko'plab usullar taklif qilindi va ular orasida quyidagilar eng keng tarqalgan usullar hisoblanadi.

1. *Ruletka usuli yordamida seleksiyalash* (bu usul 9.2-misolda keltirilgan).

2. *Tartiblangan seleksiyalash.* Ushbu protsedura mutanosib ruletka uslubiga xos bo'lgan ba'zi kamchiliklarni yo'q qiladi. Ushbu usul yordamida populyatsiyani MosFlarinining kattaligiga qarab saralash, so'ngra har bir xromosomaga keyingi avlodga qo'shilish ehtimolini beradigan xromosomani ularning darajalariga muvofiq tanlash orqali doimiy seleksiyalash tarzi saqlanib qolinadi. Yuqori darajadagi xromosomalarni kiritish ehtimoli ko'proq bo'ladi. Ruletka g'ildiragi tayinlash funksiyasi bilan belgilangan slotlar bilan quriladi. n o'lchovli populyatsiyaning keyingi avlodgi g'ildirakning n aylanmasidan keyin aniqlanadi. Ushbu protsedura eng

yaxshi xususiyatlarga ega bo'lgan populyatsiya a'zolarini tanlashga yordam beradi.

3. Turnirli seleksiyalash. Bu seleksiyalash tasodifiy va deterministik

yondashuvlarni birlashtirgan protsedura namunasi hisoblanadi. Turnirlar populyatsiy a'zolaridan keyingi avlodda kim ishtirok etishini ko'rsatish uchun ular orasida musobaqalashishni eslatadi. Musobaqa natijasida xromosomani tanlab olish ehtimoli quyidagi omillarga bog'liq:

- populyatsiyadagi xromosomaning darajasi (rangi);

• musobaqa hajmi  $k$  ning o'chovi. Agar turnir qancha katta bo'lsa, u holda o'rtacha MosFlari yuqori bo'lgan a'zolarning imkoniyatlari ko'payadi va o'rtacha MosFdani past bo'lgan a'zolarni kiritish imkoniyati kam bo'ladi;

• musobaqaning eng munosib a'zosi tanlanish ehtimoli. Odatda  $P=1.0$  (determinallashgan musobaqalar) va  $P<1.0$  bilan stoxastik versiyadan ham foydalilaniladi;

• xromosomani tanlash usuli (almashtirish bilan yoki almashtirishsiz). Xromosomani almashtirishsiz tanlashda deterministik ( $k-1$ ) turnirlari bilan populyatsiyaning eng yaroqsiz a'zolari hech qachon tanlanmaydi. Shu bilan birga almashtirish bilan o'tkaziladigan turnirda har doim ham omadli qur'a natijasida populyatsiyaning eng yomon a'zosini ham tanlashi mumkin.

**Chatishtiruv operatori.** Xromosomalarni ikkilik sonli tasvirlashda odatda bitta nuqtali, ikkita nuqtali, ko'p nuqtali va tengo'lchovli chatishtiruv shakllari qo'llaniladi [36]. Ularning barchasi ikkita ota-onadan boshlanadi va ikkita avlod yaratadi. *Ikkilik kodlashda quyidagi uchta usul qo'llaniladi.*

1. *Bir nuqtali chatishtiruv.* Bu chatishtiruvda avvalo  $[0, l-1]$  oraliq'idan tasodifiy son (nuqta) tanlanadi ( $l$ - xromosomaning uzunligi), so'ngra ikkala ota-ona

xromosomalari shu nuqtada bo'linadi va ota-ona xromosomalarining bo'linish nuqtasidan keyingi qismlarini almashtirish natijasida ikkita avlod paydo bo'ladi.

Ushbu turdag'i chatishtiruvning sxemasi 9.6-rasmda keltirilgan

Ota-onalarning juftligi:  
juftligi:

$$x_i = [1111001|01010]$$

Avlodlarning  
 $x_i^* = [1111001|11011]$

$$x_i = [1011101|11011] \quad 9.6\text{-rasmi. Bitta nuqtan} \quad x_i^* = [1011101|01010]$$

Bitta nuqtan Chatishtiruv sxemasi.

2. *Ikki nuqtali chatishtiruv.* Bu chatishtiruv jarayonida avlodlar ota-onalarining xromosomalarining tasodifiy tanlangan ikkita chatishtiruv nuqtalari bilan aniqlangan bo'laklarini meros qilib olishadi (9.7-rasm).

Ota-onalarning juftligi:

$$x_1 = [111|1001|01010] \quad \text{Chatishtiruv}$$

$$x_2 = [101|1101|11011] \quad I_1 = 3 \text{ va } I_2 = 7 \text{ nuqtada } x_1^* = [101|1001|11011]$$

Avlodlarning juftligi:

$$x_1^* = [111|1101|01010]$$

9.7-rasm. Ikkiti nuqtali chatishtiruv sxemasi.

3. *Ko'p nuqtali chatishtiruv.* Bu yuqorida keltirilgan amallarning umumlashtirilishi va shunga mos ravishda ko'p sonli chatishtiruv nuqtalari bilan tavsiflanadi. Masalan 2, 5 va 8 ga teng uchta chatishtiruv nuqtalari va bir xil miqdordagi ota-onalar uchun chatishtiruv natijalari 9.8-rasmda keltirilgan.

Ota-onalarning juftligi:

juftligi:

$$x_1 = [11|101|110|1001] \quad \text{Chatishtiruv } I_1 = 2, \quad x_1^* = [11|110|101|1001]$$

$$x_2 = [01|100|101|1010] \quad \text{9.8-rasm. Uchta nuqtali chatishtiruvga misol.}$$

Xuddi shunday chatishtiruv to'rt va undan ortiq nuqtalar uchun ham bajariladi.

4. *Teng o'lchovli chatishtiruv.* U birinchi ota-onadan qaysi genlarni meros qilib olish kerakligini ko'rsatadigan tasodifiy tanlangan etalonga muvofiq amalga oshiriladi (qolgan genlar ikkinchi ota-onadan olingan).

9.7-misol. Faraz qilaylik, bir juft ota-onalarini

$$x_1 : [010101101010]; \quad x_2 : [111010011011]$$

xromosomalari uchun  $x_e : [101110101100]$  etalon tanlangan bo'lib, unda  $1-x_1$  ota-onadan va  $0 - x_2$  ota-onadan mos keladigan yoyda (lokusda) turgan qimatni (0 yoki 1) qabul qilinishini anglatadi. Buning natijasida birinchi  $x_1^*$  avlod shakllantiriladi. Ikkinci  $x_2^*$  avlodni shakllantirish uchun ham ushbu etalondan foydalaniladi, lekin bu holda undagi  $1-x_2$  ota-onadan va  $0 - x_1$  ota-onadan mos keladigan yoyda turgan qimatni (0 yoki 1) qabul qiladi. Bu holda teng o'lchovli chatishtiruv jarayonini amalga oshirish 9.9-rasmdagidek tasvirlanadi.

Ota-onalarning juftligi:		Avlodlarning juftligi:
$x_1 = [010101101010]$	<i>Chatishtiruv</i>	$x'_1 = [110111001011]$
$x_2 = [111010011011]$		$x'_2 = [011000111010]$
	<i>Lokus: 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 12</i>	
	$x_a = [001101010110]$	

9.9-rasm. Teng o'lchovli chatishtiruvga misol.

Teng o'lchovli chatishtiruv xromosomalarni birlashtirganda juda katta moslashuvchanlikni beradi, bu esa GA bilan ishslashning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan *chatishtiruv amallari* xromosomalardagi genlar ketma-ketligi *butun sonlar* bilan tavsiflanganda ham *o'rinni* hisoblanadi.

Agar xromosomalardagi genlar ketma-ketligi haqiqiy *sonlar* bilan tavsiflansa, u holda ushbu xromosomalar ustida chatishtiruvni amalga oshirish uchu quyidagi uchta turdag'i arifmetik amallridan foydalilanildi.

Keltiriladigan barcha usullarda  $\alpha$  parametrni  $[0,1]$  oraliqdan tanlash tasodifiy ravishda amalga oshiriladi, lekin amaliyotda  $\alpha$  parametrning qiymati o'zgarmas deb qaraladi va u 0.5 ga teng, ya'ni  $\alpha=0.5$ .

1. *Oddiy arifmetik rekombinatsiyalash.* Bu holda avvalo ota-onalarning nuqtasi  $I_k$  tanlanadi. Undan keyin  $x'_i$  birinchi avlod xromosomasi uchun  $x_i$  birinchi va  $x'_j$  ikkinchi avlod xromosomasi uchun  $x_j$  ikkinch ota-onalarning genlarning qiymatlari olinadi va ular mos ravishda  $x'_i$  va  $x'_j$  avlodlar xromosomalariga kiritiladi.  $x'_i$  va  $x'_j$  avlodlar xromosomalarning qolgan  $(k+1), (k+2), \dots, n$  genlarning qiymatlari  $x_i$  va  $x_j$ , ota-onalarning genlarning qiymatlari o'rtacha arifmetik qiymatlaridan hosil qilinadi, ya'ni

$$x'_i \text{ avlod: } \{x_1, x_2, \dots, x_k, \alpha \times y_{k+1} + (1-\alpha)x_{k+1}, \dots, \alpha y_n + (1-\alpha)x_n\},$$

$$x'_j \text{ avlod: } \{y_1, y_2, \dots, y_k, \alpha \times x_{k+1} + (1-\alpha)y_{k+1}, \dots, \alpha x_n + (1-\alpha)y_n\}.$$

Bu erda  $\{x_1, x_2, \dots, x_k, x_{k+1}, x_{k+2}, \dots, x_n\}$  - birinchi  $x_i$  va  $\{y_1, y_2, \dots, y_k, y_{k+1}, y_{k+2}, \dots, y_n\}$ . - ikkinchi  $x_j$  ota-onal xromosomasining genlari.

### 9.8-misol.

Ota-onalarning juftligi:

Avlodlarning juftligi:

$$x_i^* = [0.1 \ 0.2 \ 0.4 \ | \ 0.5 \ 0.7 \ 0.9] \text{ Chatishdiruv } x_i^* = [0.1 \ 0.2 \ 0.4 \ | \ 0.4 \ 0.8 \ 0.7]$$

$$x_i^* = [0.4 \ 0.2 \ 0.3 \ | \ 0.3 \ 0.9 \ 0.5] \quad I_k = 3 \quad x_i^* = [0.4 \ 0.2 \ 0.3 \ | \ 0.4 \ 0.8 \ 0.7]$$

9.10-rasm.  $I_k = 3$  va  $\alpha = 0.5$  bo'lganda oddiy arifmetik rekombinatsiyalash.

2. Alohidar arifmetik rekombinatsiyalash. Bu holda ham avvalo ota-onal xromosomalarining  $x_i$  va  $x_j$  juftliklarida tasodifiy ravishda chatishdiruv nuqtasi  $I_k$  tanlanadi. Undan keyin  $x_i^*$  birinchi avlod xromosomasi uchun  $x_i$ , birinchi va  $x_j^*$  ikkinchi avlod xromosomasi uchun  $x_j$ , ikkinch ota-onal xromosomasidan mos ravishda birinchi  $(1, 2, \dots, (k-1), (k+1), \dots, n)$  ta qiymatlar (genlar) olinadi va ular mos ravishda  $x_i^*$  va  $x_j^*$  avlodlar xromosomalariga kiritiladi. Undan keyin alohida tanlangan  $k$  chatishdiruv nuqtasida  $x_i^*$  va  $x_j^*$  avlodlar xromosomalarning  $k$ -genlarining qiymatlari  $x_i$  va  $x_j$ , ota-onal xromosomalarining  $k$ -genlarining o'rtacha arifmetik qiymatidan hosil qilinadi, ya'ni

$$x_i^* \text{ avlod} : \{x_1, x_2, \dots, x_{k-1}, \alpha \times y_k + (1-\alpha)x_k, x_{k+1}, x_{k+2}, \dots, x_n\},$$

$$x_j^* \text{ avlod} : \{y_1, y_2, \dots, y_{k-1}, \alpha \times x_k + (1-\alpha)y_k, y_{k+1}, y_{k+2}, \dots, y_n\}.$$

Bu erda  $\{x_1, x_2, \dots, x_{k-1}, x_k, x_{k+1}, \dots, x_n\}$  - birinchi  $x_i$  va  $\{y_1, y_2, \dots, y_{k-1}, y_k, y_{k+1}, \dots, y_n\}$ . - ikkinchi  $x_j$ , ota-onal xromosomasining genlari.

### 9.9 - misol.

Ota-onalarning juftligi:

Avlodlarning juftligi:

$$x_i^* = [0.1 \ 0.2 \ 0.4 \ 0.5 \ | \ 0.8 \ 0.4] \text{ Chatishdiruv } x_i^* = [0.1 \ 0.2 \ 0.4 \ 0.5 \ | \ 0.7 \ 0.4]$$

$$x_i^* = [0.4 \ 0.2 \ 0.3 \ 0.3 \ | \ 0.6 \ 0.8] \quad I_k = 5 \quad x_i^* = [0.4 \ 0.2 \ 0.3 \ 0.3 \ | \ 0.7 \ 0.8]$$

9.11-rasm.  $I_k = 5$  va  $\alpha = 0.5$  bo'lganda alohida arifmetik rekombinatsiyalash.

*3. To'liq arifmetik rekombinatsiyalash.* Bu umumiy usul hisoblanib, unda  $x_i^*$  va  $x_j^*$  avlodlar xromosomalarining har bir genining qiymati mos ravishda  $x_i$  va  $x_j$ , ota-onalarining har bir genining o'rtacha arifmetik qiymatidan hosil qilinadi, ya'ni

$$x_i^* \text{ avlod} : \{\alpha \times x_i + (1 - \alpha) y^*\};$$

$$x_j^* \text{ avlod} : \{\alpha \times y^* + (1 - \alpha) x_j\}.$$

Bu erda  $x^* = \{x_1^*, x_2^*, \dots, x_n^*\}$  - birinchi  $x_i$ , ota-onalarining genlari,  $y^* = \{y_1^*, y_2^*, \dots, y_n^*\}$  - ikkinchi  $x_j$ , ota-onalarining genlari.

### 9.10-misol.

Ota-onalarning juftligi:

$$x_i = [0.1 \ 0.8 \ 0.4 \ 0.5 \ 0.7 \ 0.9] \text{ Chatishiruv } x_i^* = [0.2 \ 0.5 \ 0.3 \ 0.4 \ 0.6 \ 0.8]$$

$$x_j = [0.3 \ 0.2 \ 0.2 \ 0.3 \ 0.5 \ 0.7]$$

Avlodlarning juftligi:

$$x_i^* = [0.2 \ 0.5 \ 0.3 \ 0.4 \ 0.6 \ 0.8]$$

$$x_j^* = [0.2 \ 0.5 \ 0.3 \ 0.4 \ 0.6 \ 0.8]$$

9.12-rasm.  $\alpha = 0.5$  bo'lganda to'liq arifmetik rekombinatsiyalash.

**Mutatsiyalash operatori.** Quyida eng ko'p ishlataladigan mutatsiyalash operatorlarning ayrimlarini keltiramiz.

*1. Bitli mutatsiyalash.* Bu mutatsiyalashda xromosomada bir yoki bir nechta tasodifiy bit(gen)lar tanlanadi va ular teskarisiga almashtiriladi. Bu ikkilik kodlangan GA uchun foydalaniladi (9.13-rasm).

0 0 1 1 0 1 0 0 1 0	=>	0 0 1 0 0 1 0 0 1 0
---------------------	----	---------------------

9.13-rasm. Bitli mutatsiyalash.

*2. Tasodifiy aylantirishli mutatsiyalash* - bu butun sonni tasvirlash uchun bitlarni o'zgartirish kengaytmasi hisoblanadi va bunda xromosomada tasodifiy tanlangan genga tegishli qiymatlar to'plamidan tasodifiy qiymat beriladi.

*3. Joylarni almashtirishli mutatsiyalash.* Bunday mutatsiyalashda xromosomada tasodifiy ikkita gen qiymatining joyi tanlanadi va mos ravishda ushbu gen qiymatlari joylarining o'rnlari almashtiriladi. Bu o'rinn almashtirishlarga asoslangan kodlashlarda keng tarqalgan (9.14-rasm).

1 2 3 4 5 6 7 8 9 0	=>	1 6 3 4 5 2 7 8 9 0
---------------------	----	---------------------

9.14-rasm. Joylarni almashtirishli mutatsiyalash.

*4. Joylarni aralashtirishli mutatsiyalash.* Bunday holda xromosomadan genlarning bir qismi tanlanadi va ularning

qiymatlarining joylari tasodifiy ravishda almashtiriladi yoki almashtiriladi (9.15-rasm).

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
=>									

9.15-rasm. Joylarni aralashtitirishli mutatsiyalash.

5. *Teskarili (inversiyali) mutatsiyalash.* Inversiyali mutatsiyalashda aralashtitirish mutatsiyasi kabi xromosomadan genlar qism to'plami tanlanadi va qism to'plam teskarisiga almashtiriladi (9.16-rasm).

0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
=>									

9.16 -rasm. Inversiyali mutatsiyalash.

**Inversiyalash operatori.** Inversiya bitta xromosomada amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish xromosomadagi tasodifiy tanlangan ikkita joy (lokus) orasidagi allellar ketma-ketligini o'zgartiradi.

*9.11-misol.* Aytaylik ota-onha xromosomasi  $x_i = [001100111010]$  berilgan va bunda  $I_i = 3$  va  $I_i = 8$  joylari tasodifiy tanlangan bo'lzin, ya'ni  $x_i = [001|10011|1010]$ . Ushbu xromosomada  $I_i = 3$  va  $I_i = 8$  joylar orasida joylashgan qenlarning qiymatlariga inversiy amalini qo'llab, ya'ni alellarning ba'zi (yoki barcha) 0 qiymatini 1 ga va 1 qiymatini 0 ga almashtirib, yangi avlod  $x'_i = [001|11010|1010]$  xromosoma hosil qilinadi.

## 7.2. Moslanuvchanlik funksiyasini masshtablash

MosFni *masshtablash* ko'pincha ikki sababga ko'ra amalga oshiriladi [36]. *Birinchidan-* bu seleksiyalash usullarini muhokama qilishda aytib o'tilgan GAning erta yaqinlashishini oldini olish uchun qo'llaniladi. *Ikkinchidan* algoritmnini bajarilishining yakuniy bosqichida - agar populyatsiyada sezilarli xilma-xillik saqlanib qolganda va o'rtacha moslanuvchanlik qiymati maksimal qiymatdan unchalik farq qilmaganda. *MosFni masshtablash* - bu istalmagan hodisa deb hisoblangan keyingi avlodlarda o'rtacha va eng yaxshi xromosomalar deyarli bir xil miqdordagi avlodni hosil qiladigan vaziyatni oldini olishga yordam beradi. Algoritmnинг barvaqt yaqinlashishi shundan iboratki, bunda populyatsiyada eng yaxshi, lekin hali optimal bo'limgan xromosomalar hukmronlik qila boshlaydi. *MosFni masshtablash* populyatsiyani optimal bo'limgan xromosomaning ustunligidan himoya qiladi va shu bilan GAning barvaqt yaqinlashishini oldini oladi.

*Masshtablash* - bu MosFni tegishli almashtirishdan iborat bo'ladi. Masshtablashning 3 asosiy usullari mavjud: *chiziqli*, *sigma-qisqartitirish va darajali* [36].

1. *Chiziqli masshtablash (linear scaling)* - bu  $F$  MosFni  $F'$  shaklga keltirish uchun  $F' = a \cdot F + b$  chiziqli bo'g'liqlikdan foydalanib amalga oshirish hisoblanadi. Bu erda  $a$  va  $b$  - o'garmaslar bo'lib, ular shunday tanlanishi kerakki, bunda mashtablashdan oldingi MosFning o'rtacha qiymati mashtablashdan keyingi o'rtacha qiymatiga teng bo'lishi hamda mashtablashdan keyingi MosFning maksimal qiymati uning o'rtacha qiymatiga karrali bo'ladi. Karralilik koeffitsienti ko'pincha 1,2 dan 2 gacha bo'lgan oraliqda tanlanadi. Bunda  $F'$  funksiya manfiy qiymatlarni qabul qilmasligining nazoratini ta'minlash kerak bo'ladi.

2. *Sigma-kesishli masshtablash* - bu  $F$  MosFni  $F'$  shaklga keltirish uchun  $F' = F + (\bar{F} - c \cdot \delta)$  ifodadan foydalanib amalga oshirish hisoblanadi. Bu erda  $\bar{F}$ -butun populyatsiya uchun MosFning o'rtacha qiymatini bildiradi,  $c$  - bu kichik natural son (odatda 1 dan 5 gacha) va  $\delta$  - populyatsiyaning standart og'ishidir. Agar hisoblangan qiymatlar manfiy bo'lsa, unda ular nolga teng deb olinadi.

3. *Darajali masshtablash* - bu  $F$  MosFni  $F'$  shaklga keltirish uchun  $F' = F^k$  ifodadan foydalanib amalga oshirish hisoblanadi. Bu erda  $k-1$  raqamiga yaqin son. Odatda echilayotgan muammoning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda  $k$  qiymat empirik tarzda tanlanadi. Masalan  $k$  ning qiymati sifatida  $k = 1.005$  foydalanish mumkin.

### 7.3. Ko'p mezonli optimallashtirish uchun genetik algoritmlar

*Galar* yordamida echilgan masalalarning aksariyati *bitta optimallashtirish mezoniga ega* [36]. O'z navbatida ko'p mezonli optimallashtirish (KMO) bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyalarni optimallashtiradigan echimni topishga asoslangan. Bunday holda ma'lum bir kelishuv izlanadi va uning rolida *Pareto* ma'nosida optimal bo'lgan echim qatnashadi. *KMOba* odatdagidek optimal echimning kodlangan shakli bo'lgan bitta xromosoma tanlanmaydi, balki Pareto ma'nosida optimal bo'lgan *xromosomalar to'plami* tanlanadi. Foydalanuvchi ushbu to'plamdan optimal echimni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Pareto ma'nosida optimal bo'lgan echimni aniqlashni ko'rib chiqamiz.

$x, y$  bilan fenotiplarni belgilaymiz. U holda  $x$  echim ustunroq deyiladi agarda  $x$  echimga nisbatan yomonroq bo'limgan  $y$  echim mavjud bo'lsa, ya'ni har qanday optimallashtiriladigan  $f_i, i = 1, 2, \dots, m$  funksiya uchun

$$f_i \text{ funksiyani maksimallashtirishda } f_i(x) \leq f_i(y)$$

$$f_i \text{ funksiyani min imallashtirishda } f_i(x) \geq f_i(y)$$

Agarda echim boshqa biron bir erimlarga nisbatan ustun bo'limasa, u holda u ustunmas yoki Pareto ma'nosida optimal echim deb ataladi.

KMO bilan bog'liq bir necha klassik usullar mavjud [36].

1. *KMO usullaridan biri* - bu  $w_i$ , vaznlarni hisoblashga asoslanib funksiyani hisoblash usuli bo'lib, unda  $w_i$ , vaznlarga ega bo'lgan  $f_i$  funksiyalar bitta  $f(x) = \sum_{i=1}^m w_i f_i(x)$  funksiyani tashkil qiladi.

Bu erda  $w_i \in [0,1]$  va  $\sum_{i=1}^m w_i = 1$  bo'ladi.  $w_i$ , vaznlarning turli xil bo'lishi turli xil Pareto echimlarini beradi.

2. *KMO bilan bog'liq yondashuvlardan yana biri* - bu masofalarni hisoblashga asoslanib funksiyini aniqlash usuli hisoblanadi. Ushbu usulning g'oyasi berilgan  $y_i$  qiymatlarini  $f_i(x)$  qiymatlari bilan taqqoslashdan iborat, ya'ni  $f(x) = \left\langle \sum_{i=1}^m |f_i(x) - y_i|^r \right\rangle^{1/r}$ . Bu holda, odatda  $r = 2$  qabul qilinadi va bu Evklid metrikasi hisoblanadi.

3. *KMOning yana bir yondashuvi* - bu populyatsiyani bir xil o'lchamdag'i qismpopulyatsiyalarga bo'lishni o'z ichiga oladi. Bunda ularning har biri bitta optimallashtiriladigan funksiya uchun javob beradi. Bu holda seleksiyalash har bir funksiya uchun alohida tarzda amalga oshiriladi, ammo chatishiruv jarayoni kichik qismpopulyatsiyalar chegaralarini hisobga olmasdan amalga oshiriladi.

## 7.4. Genetik mikroalgoritmlar

*Genetik mikroalgoritm (GM)* - bu ko'p sonli populyatsiyalar va uzun xromosomalarni talab qilmaydigan masalalarni echish uchun mo'ljallangan klassik GAning o'zgargan shakli (modifikatsiyasi) hisoblanadi. Bunday algoritmlar cheklangan vaqtida echimni tez topilishi kerak bo'lgan hollarda (global bo'lishi shart emas) hisoblashlar uchun qo'llaniladi [36]. Gap shundaki, ko'p sonli iteratsiya bilan bog'liq

bo'lgan mashaqqatli hisob-kitoblarni amalga oshirmsaslik kerak. GMlar odatda biroz yomonroq echimlarni topadi, ammo ular kompyuterning hisoblash resurslarini tejashta imkon beradi. Misol sifatida FlexTool dasturining GMini keltirish mumkin [42]. U olti bosqichdan iborat:

1. Xromosomalar soni 5 taga teng bo'lgan populyatsiyani shakllantirish. 5 ta xromosoma tasodifiy tanlanadi yoki oldingi iteratsiyalarda olingan 1ta "yaxshi" xromosoma saqlanadi va qolgan 4 ta xromosoma tasodifiy ravishda olinishi mumkin.

2. Populyatsiyada xromosomalarning MosFning qiymatlari hisoblanadi va eng yaxshi xromosoma tanlanadi. Ushbu xromosoma 5 raqami bilan belgilanadi va u keyingi avlodga o'tkaziladi (elitali strategiya).

3. Turnirli seleksiyalashning deterministik usuli asosida ko'payish uchun qolgan 4 ta xromosoma tanlanadi (musobaqada eng yaxshi xromosoma ham qatnashadi va o'zining nusxasini ota-onasiga juftligi sohasiga kiritish huquqi uchun kurashadi). Turnili seleksiyalash jarayonida xromosomalar tasodifiy ravishda guruhlashtiriladi va har bir qismguruxdagi xromosomalar qolgan 4ta o'rinnar uchun qo'shni qismguruxdagi juftliklar bilan raqobatlashadi. Shunga e'tibor qaratiladiki, ota-onasiga juftligi bir xil xromosomaning ikki nusxasidan iborat bo'lmasligi kerak.

4. Chatishiruv jarayoni  $P_c = 1$  ehtimollik bilan va mutatsiyalash jarayoni  $P_c = 0$  ehtimollik bilan amalga oshirilasi.

5. Algoritmning yaqinlashishi tekshiriladi (genotiplar yoki fenotiplarning mos kelish o'lchovidan foydalangan holda). Agar yaqinlashish sodir etilsa, u holga algoritm 1-qadamga qaytadi, aks holda 6-qadamga o'tiladi.

## 6. 2-bosqichga qaytiladi.

Ta'kidlash mumkinki, GMda populyatsiya miqdori kichik va qat'iy deb qabul qilinadi. Yaxshi xromosomalarning yo'qolishini oldini oladigan elita strategiyasi qo'llaniladi. Populyatsiya soni kichik bo'lgani uchun deterministik seleksiyalash amalga oshiriladi. Chatishiruv  $P_c = 1$  ehtimollik bilan amalga oshiriladi. Mutatsiyalash talab qilinmaydi, chunki algoritmning har bir "qayta boshlash"ida yangi populyatsiyaning shakllanishi bilan etarli xilma-xillik ta'minlanadi, ya'ni yaqinlashuvga erishilganda algoritm 1-qadamga o'tadi. Algoritmning "boshlash" va "qayta boshlash" protseduralari muddatidan oldin yaqinlashishni oldini olish uchun mo'ljallangan. GM har doim eng yaxshi echimlarni izlaydi.

Uni qo'llashning asosiy maqsadi eng qisqa vaqt ichida eng optimal echimni topishdan iborat.

## 7.5. Evolyutsiyali algoritmlar va ularning ilovalari

*Evolvutsiali strategiy(ES)lar* - bu moslashish va evolyutsiya g'oyalariga asoslangan optimallashtirish usuli hisoblanadi. Bu holda mutatsiyalash darajasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi - bu esa o'z-o'zini moslashishga olib keladi.


*Genetik dasturlash(GD)* - bu dasturlar populyatsiyasiga evolyutsion yondashuvni qo'llashdan iborat. *GD* - turli xil algoritmlarni tavsiflash uchun gen injeneriyasi metaforasidan foydalanishga urinish hisoblanadi.

*Evolvutsiali dasturlash(ED)* - xuddi ESlar singari kelajak avlodlarda ota-onadan avlodga xususiyatlarni o'tkazishning turli xil usullari va moslashuviga qaratilgan.

*Evolvutsiali algoritm(EA)lar* - bu GA, ES va EDlashning birlashmasi hisoblanadi.


**EDlar.** EDlarni GAarning umumlashmasi deb hisoblash mumkin. Ularning bir-biridan farqi xromosomalarni ifodalash usullari va genetik operatorlarni amalga oshirish bilan bog'liq. EDlar turli xil ma'lumotlar tuzilmalarini yaratishga imkon beradi, chunki ular nafaqat xromosomalarni ikkilik kodlashi mumkin, balki genetik operatorlarning kengaytirilgan to'plamini ham ta'minlaydi.

Klassik GA va ED o'rtaisdagi asosiy farqni keng ma'noda 9.17 va 9.18 - rasmlarda tasvirlangan sxemalar ko'rinishda ifodalash mumkin.



9.17-rasm. Masalani klassik GA yordamida echish

9.18-rasm. Masalani EA (ED) yordamida echish.



Masalani echishda uni yoki GAdan foydalanish uchun zarur bo'lган shaklga o'tkazish (9.17-rasm) yoki GAni masalani qondiradigan qilib o'zgartirish mumkin (9.18-rasm). Birinchi yondashuvni amalga oshirishda klassik GA va ikkinchi yondashuvni amalga oshirishda esa

ED qo'llaniladi. Shunday qilib, o'zgartirilgan GAlarni umuman EDlar deb atash mumkin [36].

**EAlarning ilovalari.** EAlarning aksariyat dasturlari optimallashtirish masalalariga tegishli bo'ladi. Bu masalalarning har birida ma'lum bir formulada ko'rsatilgan maqsad funksiyasi optimallashtiriladi. Evolver dasturida [15, 36] optimallashtirish va kombinatorika masalalarini echishda ikki xil chatishuv operatorlari va ikki xil mutatsiyalash operatorlaridan foydalaniadi.

Evolver dasturi Excel 8 protsessori bilan o'zaro aloqada bo'lib, unda echilayotgan masala jadvalning tegishli katakchalarida uning parametrlari (o'zgaruvchilari) va funksiya formulasini belgilash orqali tavsiflanadi.

**9.12-misol.** Evolver dasturi yordamida [-5,5] oraliqda berilgan  $x_1, x_2, x_3$ , butun sonlar uchun  $f(x_1, x_2, x_3) = x_1^2 + x_2^2 + x_3^2$  funksiyaning minimal qiymatini toping.

Evolver dasturida hisoblashlar  $N=6$  ta xromosomalar uchun amalga oshirilgan. Bunda chatishuv uchun chatishuv ko'rstkichi 0.9 ga teng deb olindi. Bu shuni anglatadiki, avlod bиринчи ota-onadan 90% ga yaqin genlarni oladi va taxminan 10% ga yaqin genlarni ikkinchi ota-onadan meros qilib oladi. Mutatsiyalash uchun mutatsiyalash ko'rsatkichining 0,1 ga teng qiymati tanlandi va bu genlarning 10% qiymatlari tasodifiy o'zgarishlarga duch kelishi kerakligini ko'rsatadi.

Evolver dasturi yordamida dastlabki  $N=6$  ta populyatsiya yaratiladi:

[-1 3 -3]; [-1 -5 2]; [5 3 -4]; [2 -4 -0]; [5 4 2]; [4 -3 5];

Klassik GAning bitta iteratsiyasiga mos keladigan oltita taktdan keyin, ya'ni  $t=6$  uchun 9.8-jadvalda keltirilganidek MosF qiymatlarining kamayish tartibida saralangan xromosomalar populyatsiyasi olingan.

**9.8-jadval.  $t=6$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.**

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	50	5	3	-4
2	50	5	3	-4
3	45	5	4	2
4	30	-1	-5	2
5	20	2	-4	0
6	19	-1	3	-3

Takilaymizki, populyatsiyaga MosFning qiymati 50 ga teng bo'lgan [4 -3 5] xromosoma kiritilmaydi. U eng yomon xromosoma sifatida chiqarib tashlanadi (eng yuqori MosF ko'satkichiga ega) va uning o'mniga [5 3 -4] xromosomaning nusxasi kiritildi. Ushbu xromosoma ham eng yomon bo'lib chiqadi, shuning uchun u keying  $t=7$  taktda chiqarib tashlanadi.  $t=7$  va  $t=8$  taktlar uchun populyatsiyalar 9.9 va 9.10 - jadvallarda keltirilgan.

9.10 - jadvalning oxirgi 6 - qatorida hozirgi  $t=8$  takt uchun eng kam moslanuvchanlik qiymatiga ega bo'lgan xromosoma joylashgan. 9.10-jadvalning 1-qatorida aholiga yangi kiritilgan xromosoma ko'satilgan. 9.10 - jadvaldag'i [5 4 2] xromosoma - bu avvalgi  $t=6$  populyatsiyadan olingan xromosomaning nusxasi. 9.10 - jadvaldag'i [0 - 4 2] xromosoma - bu  $t=7$  populyatsiyadagi xromosomalardan chatishtiruv va mutatsiyalash natijasida olingan yangi xromosoma. 9.10 - jadvalning 1-qatorida *qalin* bilan belgilangan MosFning qiymati populyatsiyadan chetlatilgan xromosomaga tegishli.

9.9-jadval.  $t=7$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	<b>50</b>	5	4	2
2	50	5	3	-4
3	45	5	4	2
4	30	-1	-5	2
5	20	2	-4	0
6	19	-1	3	-3

9.10-jadval.  $t=8$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	<b>50</b>	0	-4	2
2	50	5	4	2
3	45	5	4	2
4	30	-1	-5	2
5	20	2	-4	0
6	19	-1	3	-3

9.11 va 9.12 - jadvallar  $t=17$  va  $t=18$  taktlardagi populyatsiyalar uchun taqdim etilgan. Ta'kidlaymizki,  $t=18$  - bu klassik GAning 3 ta iteratsiyasiga ( $t=6$  takt 1 ta iteratsiya) to'g'ri keladi. 9.11 - jadvaldag'i populyatsiyada yangi xromosoma oldingi

$t = 16$  taktdagi populyatsida xromosomalar juftligini chatishtiruv natijasida olingan. 9.12 - jadvaldagi populyatsiyada yangi xromosoma oldingi  $t = 17$  taktdagi populyatsida  $[2 \ -4 \ 0]$  xromosomaning o'rtacha genini mutatsiyalash natijasida shakllantirilgan.

9.11-jadval.  $t = 17$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	<b>25</b>	0	-4	0
2	20	2	-4	0
3	20	0	-4	2
4	20	2	-4	0
5	20	2	-4	0
6	19	-1	3	-3

9.12-jadval.  $t = 18$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	<b>20</b>	2	-3	0
2	20	0	-4	2
3	20	2	-4	0
4	20	2	-4	0
5	19	-1	3	-3
6	16	0	-4	0

9.13-jadvalda  $t = 41$  uchun xromosomalar populyatsiyasi keltirilgan. Ta'kidlaymizki  $t = 42$  - bu klassik GAning ettita iteratsiyasiga (avlodlariga) to'g'ri keladi. Bu holatda eng yaxshi echim - bu MosF 5 ga teng bo'lган  $[-1 \ 2 \ 0]$  xromosoma.

MosFning qiymati nolga teng  $[0 \ 0 \ 0]$  bo'lган eng yaxshi (minimal) echimni olish mumkin, agarda algoritmnini keyingi taktlarida bajarilishi paytida ikkinchi  $x_2$  genini mutatsiyalash amalga oshirilsa, ya'ni -3, 3 yoki

2 ni 0 ga almashtirilsa.

9.13-jadval.  $t = 41$  uchun xromosomalar populyatsiyasi.

Xromosoma	$f(x_1, x_2, x_3)$ ning MosF	$x_1$ ning qiymati	$x_2$ ning qiymati	$x_3$ ning qiymati
1	<b>10</b>	0	-3	0
2	10	-1	3	0
3	10	-1	3	0
4	20	-1	3	0

5	9	0	-3	0
6	5	-1	2	0

### Nazorat savollari

1. GA lar qaysi sohalarda va qanday masalalarni echishda qo'llaniladi?
2. GA ning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. GA larda qanday kodlash usullaridan foydalniladi?
4. Klassik GA qanday bosqichlardan iborat?
5. Xromosomalarni seleksiyalash, chatishtiruv va mutatsiyalash jarayoni qanday amalga oshiriladi?
6. Sxema tartibi va qamrovi qanday aniqlanadi?
7. Sxemaga mos keladigan xromosomalar qanday tanlanadi?
8. Sxemaga mos keladigan xromosomalarni MosFlari, chatishtirish, mutatsiyalash qanday amalga oshiriladi?
9. Sxemalar haqidagi teoremaning ma'nosi nimadan iborat?
10. Chahatishtiruv, rekombinatsiyalash va mutatsiyalash amallarining qanday turlari mavjud va ular qanday amalga oshiriladi?
11. Masshtablashning qanday asosiy usullari mavjud?
12. Ko'p mezonli optimallashtirish uchun nimalar tanlanadi?
13. Genetik mikroalgoritmlarning maqsadi nimadan iborat?
14. EDlar va GA larning o'xhashligi va farqlari nimada?
15. Klassik genetik algoritmning ilovalariga misollar keltiring?

### Nazorat testlari

1. .... - bu cheklangan xromosoma (zot)lar to'plami.  
a) Populyatsiya; b) Alel; c) Gen; d) Genotip.
2. .... - bu irlsiy ma'lumotlarning tashuvchisi.  
a) Xromosoma; b) Alel; c) lokus; d) Genotip.
3. .... - bu genetikaga xos bo'lib, u populyatsiyadagi muayyan individlarning jismoniy tayyorgarligini baholash va eng munosiblarini tirik qolish evolyutsion prinsipiga muvofiq ular orasida eng munosibini tanlashga imkon beradi.  
a) Moslanuvchanlik funksiyasi; b) Genetik operator; c) Fenotip;  
d) Individ.
4. Genetik algoritmning asosiy bosqichlari ketma-ketligi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating?  
a) Initsializatsiyalash, baholash, seleksiyalash, chatishtiruv,  
mutatsiyalash;  
b) baholash, seleksiyalash, chatishtiruv, initsializatsiyalash,

- mutatsiyalash;
- c) seleksiyalash, initsializatsiyalash, baholash, chatishtiruv, mutatsiyalash;
- d) mutatsiyalash, initsializatsiyalash, baholash, seleksiyalash, chatishtiruv.
5. Seleksiyalash - .....
- a) yaroqli baholash qiyatlariga ega bo'lgan xromosomalar tanlab olish;
- b) dastlabki xromosomalarning populyatsiyasini shakllantirish;
- c) olingan xromosomalarning yaroqliligini aniqlash;
- d) xromosomalarning tasodifiy sonini saralab olish.
6. Chatishtiruv -
- a) xromosomalarning tasodifiy sonini saralab olish;
- b) dastlabki xromosomalarning populyatsiyasini shakllantirish;
- c) olingan xromosomalarning yaroqliligini aniqlash;
- d) yaroqli baholash qiyatlariga ega bo'lgan xromosomalar tanlab olish.
7. Mutatsiyalash - .....
- a) xromosomaning bir genini(bitini) o'zgartiradi;
- b) dastlabki xromosomalarning populyatsiyasini shakllantirish;
- c) olingan xromosomalarning yaroqliligini aniqlash;
- d) yaroqli baholash qiyatlariga ega bo'lgan xromosomalar tanlab olish.
8.  $S = 1*11*01$  sxemaga mos keladigan mumkin bo'lgan barcha xromosomalar to'plami to'g'ri ko'rsatilgan javoni ko'rsating?
- a)  $S = 1*11*01 = \{1011001, 1011101, 1111001, 1111101\}$ ;
- b)  $S = 1*11*01 = \{1111001, 1011101, 1111001, 1111101\}$ ;
- c)  $S = 1*11*01 = \{1111001, 1011101, 01111001, 1011101\}$ ;
- d)  $S = 1*11*01 = \{1111001, 0111101, 1111001, 1111101\}$ .
9. Masshtablashning asosiy usullari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlan?
- a) chiziqli, sigma-qisqartitirishli, darajali;
- b) chiziqsiz, sigma-o'rinalashtirishli, darajali;
- v) logarifmli, sigma-kesmali, chiziqli;
- g) fenotipli, sigma-alelli, lokusli.
10. Genetik mikroalgoritm ..... sonli populyatsiyalar va ..... uzunlikga ega bo'lgan xromosomalardan iborat masalalarni echish uchun mo'ljallangan.
- a) kam; kichik; b) ko'p; kichik; v) kam; katta; g) ko'p; katta;

## Masala va topshiriqlar

1.0 dan 15 gacha butun sonlar bilan ifodalangan xromosomalar uchun quyidagi

topshiriqlarni bajaring:

- 1.1) uning ikkilik tizimda kodlangan ifodasini aniqlang;
  - 1.2) har bir xromosomaning qiymatini hisoblang;
  - 1.3) xromosomalarning boslang'ich populyatsiyasining umumiy bahosini hisoblang;
  - 1.3) har bir xromosomaning "Omon qolish" ehtimolini hisoblang;
  - 1.4) har bir xromosomaning kumulyativ "Omon qolish" ehtimolini hisoblang.
2. Aytaylik, xromosomalar 12 ta gandan iborat bo'lzin va boshlang'ich populyatsiyada tasodifiy ravishda 10 ta xromosoma tanlangan bo'lzin:  
 $x_1 = [111011101101]$ ;  $x_2 = [101100111101]$ ;  $x_3 = [011101110101]$ ;  
 $x_4 = [001010101001]$ ;  $x_5 = [000010100001]$ ;  $x_6 = [010101110101]$ .
- Ushbu xromosomalar ustida baholash, seleksiyalash, chatishtiruv va mutatsiyash amallarini bajaring.
3. Berilgan  $f(x) = 2x^2 + 3 (0 \leq x \leq 31)$  funksiyaning optimal qiymatini ikkilik kodlashni qo'llab qidirish jarayonini GA yordamida ko'rsating.
4. Aytaylik  $l = 10$  uzunlikga 9 ta  $S$  sxema berilgan bo'lzin:  
 $S_1 = (10 * 1 * 0 * 0 * 1)$ ;  $S_2 = (*0 * 1 * 0 * 011)$ ;  $S_3 = (1 ** 1 * 01 ** 1)$ ;  
 $S_4 = (1010 **** * *)$ ;  $S_5 = (** * * * * * * * 0)$ ;  $S_6 = (** * * * * * * * * *)$ ;  
 $S_7 = (1 * * * * * * * * *)$ ;  $S_8 = (1010100111)$ ;  $S_9 = (1111111111)$ .
- Har bir  $S$  sxemaning  $h(S)$  tartibi va  $d(S)$  qamrovini aniqlang.
5. Yuqoridaq 2-misolda keltirilgan xromosomalar orasidan  $S = *****101$  sxemaga mos keladigan xromosomalarni tanlab oling.  
Talab qilinadi:
- 5.1)  $S$  sxemaga mos tanlab olingan xromosomalarning  $k = 0$  qadamdagi boshlang'ich  $P(0)$  populyatsiyada  $F(S,0)$  MosF, MosFlarning  $Q(0)$  yig'indisi va MosFlarning  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qiymatlarini hisoblang.
  - 5.2) 2-misolda  $P(0)$  populyatsiyada tasodifiy ravishda tanlangan boshlang'ich  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6$  xromosomalar uchun (9.3)

ko'inishda hisoblangan  $F$  MosF, MosFlarining  $Q(0)$  yig'indisi va MosFlarning  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qiyatlarini hisoblang.

- 5.3) 2-misolda  $P(0)$  populyatsiyada  $S = \text{*****}101$  sxemaga mos keluvchi xromosomalarning MosFlarining  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qimatini ushbu populyatsiyada tanlangan boshlang'ich  $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5, x_6$  xromosomalarning MosFlarining  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qimati bilan taqqoslang va xulosa chiqaring.

6. Xromosomalarni chatishadirish maqsadida 2-misolda berilgan xromosomalardan tasodifiy ravishda 3 ta  $\{x_1, x_2, x_3; x_4, x_5, x_6\}$  juftlik tanlangan bo'lsin. Tasodifiy ravishda birinchi  $x_1, x_2, x_3$ , juftlik uchun  $I_1 = 4$ , ikkinchi  $x_4, x_5, x_6$  juftlik uchun  $I_2 = 3$ , uchinchi  $x_1, x_2, x_3$ , juftlik uchun  $I_3 = 5$  chatishiruv nuqtalari belgilangan bo'lsin.

Talab qilinadi:

- 6.1) Tanlangan har bir juftlik uchun belgilangan chatishiruv nuqtasida ChAni qo'llab 3 ta avlodlar juftligiga mos keladigan yangi  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*$  xromosomalarni hosil qiling.
- 6.2) Hosil qilingan yangi 6 ta  $x_1^*, x_2^*, x_3^*, x_4^*, x_5^*, x_6^*$  xromosomalardan  $S = \text{*****}101$  sxemaga mos keladigan xromosomalarni aniqlang va xromosomalarning  $k = 1$  qadamdagি  $P(1)$  populyatsiyada  $F(S, 1)$  MosF, MosFlarining  $Q(1)$  yig'indisi va MosFlarning  $\bar{F}(1)$  o'rtacha qiyatlarini hisoblang.

- 6.3) 5-misolning 5.1 - bosqichida  $P(0)$  populyatsiyada  $S = \text{*****}101$  sxemaga mos keluvchi xromosomalarning MosFlarining  $\bar{F}(0)$  o'rtacha qimatini 6-misolning 6.2 - bosqichida  $P(1)$  populyatsiyada  $S = \text{*****}101$  sxemaga mos keluvchi xromosomalarning MosFlarining  $\bar{F}(1)$  o'rtacha qimatini bilan taqqoslang va xulosa chiqaring.

7. Quyidagi 8 ta ota-onalarning xromosomalari berilgan bo'lsin:

$$x_1 = [111100101010]; \quad x_2 = [101100101010]; \quad x_3 = [011100101010]; \\ x_4 = [101110111011]; \quad x_5 = [111010101010]; \quad x_6 = [111000101010].$$

Talab qilinadi:

- 7.1) Har bir xromosomada tasodifiy ravishda 4 ta gen(bit)ni tanlang va bitli mutatsiyalash usulini qo'llab yangi xromosomani hosil qiling?

- 7.2) Har bir xromosomada tasodifiy ravishda 2 ta gen(bit)ni tanlang va joylarni almashtirishli mutatsiyalash usulini qo'llab yangi xromosomani hosil qiling?
- 7.3) Har bir xromosomada tasodifiy ravishda gen(bit)larning bir qismini tanlang va teskari (inversiyali) mutatsiyalash usulini qo'llab yangi xromosomani hosil qiling?

## 10-BOB. GIBRID INTELLEKTUAL TIZIMLAR

### 1-§. Gibrild intellektual tizimlar tahlili

#### Asosiy tishunchalar va ta'riflar.

"Intelletkual gibrild tizimlar" atamasi 1992 yilda paydo bo'lgan [36]. Mualliflar unga ETlari, NTLari va GAlar kabi intellektualli usullarning gibrild(duragay)larining ma'nosini qo'ygan. Ammo yangi atama integratsiyaning tor doirasini asosan ESlar va NTLari tashkil etdi. Quyida ushbu integratsiya sohasini boshqa mualliflar tomonidan bir nechta *sharhlari* keltirilgan:



1. "Gibrildli yondashuv" - bu faqat neyronli va simvolli modellarning sinergetik kombinatsiyasidan iborat bo'lib, u barcha bilim va hisoblash imkoniyatlariga (qobiliyatlariga) erishishni amalga oshiradi.

2. "Gibrild" atamasi ikki yoki undan ortiq integral tizimlardan tashkil topgan tizim sifatida tushuniladi va ularning har biri har xil taqdimat tillari va chiqish usullariga ega bo'lishi mumkin.

3. Granfield universiteti (Angliya) SI markazining olimlari "gibrild integral tizim"ni bir nechta kompyuter texnologiyalaridan foydalanadigan tizim deb ta'riflaydilar.

4. Sanderland universiteti (Angliya) mutaxassislari "gibrild axborot tizimlari"ni bilim va an'anaviy qayta ishlashni uzlusiz birlashtiradigan katta, murakkab tizimlar deb ta'riflaydilar.

*Gibrild intellektualli tizim(GIT)lar* - bu masalalarni echishda parallel ravishda SIning bir necha xil usullaridan foydalanadigan tizimlar bo'lib, ularga analitik modellar, ESlar, sun'iy NTLari, noravshan tizimlar, GAlar, imitatsiyali statistik modellar, assotsiativ qoidalari va boshqalar kiradi.

2001 yilda GITni yaratish metodologiyasini o'rganish doirasida GITni rivojlantirish uchun muammoli-tarkibiy metodikasi va GITni yaratish texnologiyasini va 2007 yilda GITni rivojlantirish uchun muammoli-instrumental metodologiya taklif qilindi [23].

XX oxiri - XXI asr boshlarida informatika va SI sohasidagi tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri - bu turli usullarni, modellarni va axborot texnologiyalarini birlashtirish va ular asosida GIT yaratish usullarini o'rganish bo'ldi.

## **Integrallanish darjasи nuqtai-nazaridan GITni sinflash.**

Bunga *alohida* (*avtonom*), *o'zgartiriladigan* (*transformatsiyali*), *zaif bog'langan*, *kuchli bog'langan* va *to'liq integrallashgan* tizimlar kiradi. Ushbu tasnifga ko'ra GT integratsiyasi darajalarining har birini ko'rib chiqamiz.

1. *Alohida tizimlar*. Ushbu tizimlar turli jinsli modellarda ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshiradigan mustaqil DT qismlarini o'z ichiga oladi. Aloida modellarni ishlab chiqish gibrildash uchun dolzarbdir va bir nechta maqsadlarga ega bo'lishi mumkin. *Birinchidan*, bunday modellar muammoni ikki yoki undan ortiq turli usullar bilan echish imkoniyatlarini taqqoslash usulini beradi. *Ikkinchidan*, ikki yoki undan ortiq alohida modellarni ketma-ket amalgalash uchun ishlab chiqilgan axborotni qayta ishlash jarayonining to'g'rilingini tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin. *Uchinchidan*, tizimning dastlabki prototipini tezda yaratish uchun mustaqil modellardan foydalanish mumkin, undan keyin ko'proq ishlab chiqish vaqtini talab qiladigan dasturlar yaratiladi. Biroq alohida modellar sezilarli *kamchiliklarga ega*, ya'ni ularning hech biri ma'lumotni yangilashda boshqa modellarga yordam bera olmaydi va barcha modellar bir vaqtning o'zida o'zgartirilishi kerak.

2. *O'zgartiriladigan tizimlar*. Aloida tizimlardan asosiy farqi shundaki, bunday model bitta mustaqil usul yordamida tizim sifatida ishlay boshlaydi va boshqa mustaqil usul yordamida tizim sifatida tugaydi. *O'zgartiriladigan* modellar bir nechta *afzalliklarga ega*. Ular tezda yaratiladi va arzonroq hisoblanadi, chunki faqat bitta model ishlatiladi va yakuniy usul natijalarni atrof-muhitga yaxshi moslashtiradi. Ammo bitta modelni boshqasiga avtomatik o'zgartirish vositasini yaratish va modelni sezilarli darajada o'zgartirish *muammolari* mavjud.


3. *Zaif bog'langan tizimlar*. Bu dasturning ma'lumotlar fayllari orqali bog'langan alohida komponentlarga bo'linadigan birinchi haqiqiy integratsiyasining shakli hisoblanadi. Bunday tizimlarning quyidagi asosiy turlari mavjud. *Zanjirlangan GT* ikkita asosiy funksional komponentdan iborat bo'lib, ulardan biri asosiy protsessor, ikkinchisi esa oldingi yoki keyingi protsessor hisoblanadi. *Iyerarxik GT* ham tarkibiy qismlardan to'liq tarkibiy qismlar sifatida foydalanadi, ammo bu holda ularning biri bo'y sunuvchi bo'lib, ikkinchisiga qo'shiladi va bu masalaning asosiy hal qiluvchi qismi hisoblanadi. *Metaprotsessorli GT* metaprotsessordan va bir nechta funksional komponentlardan iborat

bo'ladi. *Protsessorli GT* masalalarni echishda teng komponentlardan foydalanadi. Har bir komponent ma'lumotni boshqasiga uzatishi, o'zaro aloqada bo'lishi, xuddi shu masalaning quyi topshiriqlarini qayta ishlashi mumkin. Ko'rib chiqilgan zaif bog'langan tizimlar boshqa integrallanuvchi modellarga qaraganda osonroq rivojlanadi va ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradigan dasturlardan foydalanishga imkon beradi.

4. *Kuchli bog'langan modellar*. Bunday modellar integrallashuv darajasini kuchaytirish natijasida vujudga keladi. *Kuchli bog'langan modellar* zaif bog'langan modellar bilan bir xil formatda ishlashi mumkin, ammo ularning protsessorli versiyalari mohiyatan tezroq hisoblanadi. Bu erda "e'lonlar taxtasi", "konveyer metaforasi" va "ichkima-ichki tizimlar" kabi maxsus ishlab chiqish usullaridan foydalanish mumkin. *E'lonlar taxtasi* bir qator mutaxassislarini bilim manbalarini taqlid qiladi, muammoni birqalikda hal qiladi va "taxta" dan ish joyi sifatida foydalanadi. *Konveyerlar metaforasi* integratsiya arxitekturasini belgilaydi. Bunda bilimlar manbai qandaydir pozitsiyalarda joylasjgan bo'ladi. Dinamik obyektlar, ya'ni maqsadlar, ma'lumotlar, bilimlar, rejalar va boshqalar konveyer lentasi bo'y lab harakatlanadi. *Ushbu yondashuvning afzalligi* - bu juda umumiyl tabiat, tasvirlashning soddaligi va echimlar o'tasidagi aloqalarni o'zgartirish, metaforaning tabiiyligi va shaffofligi, shuningdek segmentlarning parallel ishlashi hisoblanadi.

5. *To'liq integratsiyalashgan tizimlar*. Bunday tizimlar ma'lumotlarning umumiyl tuzilmalari va bilimlarni aks ettirishdan birqalikda foydalanadi va tarkibiy qismlar o'tasidagi munosabat ularning tuzilmalarining ikkilik tabiatini orqali amalga oshiriladi. To'liq integratsiyalashgan tizimlarning *afzalliklari* ishonchlik, axborotni qayta ishlash tezligining oshishi, moslashish, umumlashtirish, ya'ni biron bir alohida usulda mavjud bo'lмаган xususiyatlardan iborat. GTlarning muhim qism sinflaridan bir-bu GIT hisoblanadi.

**Arxitektura nuqtai-nazaridan GITni sinflash.** O'z navbatida GITni arxitektura bo'yicha kombinatsiyali, integralli, birlashmali, assotsiativli va taqsimlangan turlarga bo'lish mumkin (10.1-rasm).



10.1-rasm. GIT arxitekturasining turlari.

Bundan tashqari GITning yana bir turini ko'rib chiqish mumkin, uning paydo bo'lishi global Internet orqali tarqatiladigan ma'lumotlar bazalarida saqlanishi mumkin bo'lgan bilim va ma'lumotlar hajmining tez o'sishi bilan bog'liq. Ushbu turdag'i GIT arxitekturasini *taqsimlangan* deb atash mumkin


(10.2-rasm).

1. *Kombinatsiyali GIT*. Bunday GITga misol sifatida ET va NTlarini birlashtiradigan va rasmiylashtirilgan bilimlarni (ETlarida) va rasmiylashtirilmagan bilimlarni (NTlarida) birlashtiradigan gibridd ETlarni keltirish mumkin.

2. *Integrallashgan GIT*. Bunday GIT arxitekturasida asosan integrator moduli hukmronlik qiladi, u maqsadga va echim topishning hozirgi sharoitlariga qarab ishlash uchun tizimga kiritilgan ba'zi aqlii modullarni tanlaydi va kiritilgan modullarning javoblarini birlashtiradi.

3. *Birlashmali GIT*. NTlari va GA ning o'ziga xos xususiyati ularning optimallashtirish orqali o'rganish va moslashish qobiliyatiga egaligidir. Ushbu texnikani boshqa SI texnikasi bilan birlashtirish ularning o'rganish qobiliyati samaradorligini oshirishi mumkin. Ushbu GIT arxitekturasi birlashgan tip sifatida tasniflanishi mumkin.

4. *Assotsiativli GIT*. Bunday tizimni tashkil etadigan aqlii modullar ham alohida, ham boshqa modullar bilan integratsiyalashgan holda ishlay olishi mumkin. Hozirgi vaqtida ushu turdag'i tizimlarning etarli darajada rivojlanmaganligi sababli hali etarlicha ishonchli emas va keng tarqalmagan.



10.2-rasm. Taqsimlangan GIT arxitekturasi.

*5. Taqsimlangan GIT.* Bunday tizimda har bir funksional intellektual modul alohida ishlaydi va tarmoq orqali xabarlarni uzatish bilan boshqa modullar (agentlar) bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Hozirda mavjud bo'lgan ITlar, masalan, ETlari, NTlari va boshqalar agentlarga aylantirilishi mumkin. Taqsimlangan ITga misol sifatida Webga asoslangan yangi texnologiyalar asosida o'qituvchilarini Internetga asoslangan intellektual o'qitish tizimini keltirish mumkin.

So'nggi yillarda SIning an'anaviy usullari, masalan, ETlari, noravshan tizimlar, sun'iy NTlar, GAlar va boshqalar tobora ko'proq GITlarga birlashtirilmoqda.

**GITni qo'llashga misollar.** Avtomatik boshqaruv tizimlaridan GIT ularning intellektualizatsiyasi, ya'ni moslashuvchanligi va avtonomiyasini oshirish orqali olinadi. Quyida GITlarni qo'llashga misollar keltiramiz.

1. *Yo'l xarakatini boshqarishning intellektualli tizimi* - avtomatlashtirilgan transportni boshqarish tizimlari yo'l harakati xavfsizligi va optimal tezligini ta'minlashga mo'ljallangan.

2. *Aqliy uyni boshqarish tizimlari* - binolarni boshqarish tizimlari gibrid paradigmada ishlab chiqiladi va bino o'zining ichki muhit holatini kuzatadigan juda ko'p sonli turli xil sensorlarni o'z ichiga oladi.

3. *Texnologik jarayonlarning intellektualizatsiyasi* - har qanday avtomatlashtirilgan texnologik jarayon GIT sxemasiga kiritiladi va bashorat, reja va faktlarni taqqoslash asosida avtomatlashtirilgan rejimda boshqarish harakatlarini bashorat qilish va rejalashtirish orqali texnologik jarayonlar intellectual ravishda boshqariladi.


4. *Masofaviy ta'larning intellektualizatsiyasi* - masofaviy ta'larning odatiy jarayoni talabaning dars materiallarini mustaqil o'rganishi, boshqa talabalar va o'qituvchilar bilan forumlarda muloqot qilishiga asoslanadi.

## **2-§. Neyro - noravshan tizimlar**

*Neyro-noravshan tizimlar* yoki *noravshan NTlar* - sun'iy aql sohasidagi tizimlar bo'lib, ular sun'iy NTlar va noravshan mantiqqa asoslangan tizimlarning usullarini birlashtiradi. Neyro-noravshan tizimlarning asosiy kuchi shundaki, ular *IF-THEN* qoidalarini izohlash qobiliyatiga ega. Ikkala yondashuvni birlashtirish, bir tomonidan NTlarning o'rganish qobiliyatini va hisoblash quvvatini noravshan mantiqqa ega tizimlarga olib kirishga imkon beradi, boshqa tomonidan,


inson fikrlash tarziga xos bo'lgan NTlarning intellektual imkoniyatlarini noravshan QQQQlari bilan oshiradi.

**Neyro-noravshan model(NNM)larni amalga oshirish usullari.** NNMlarni bir necha usullar bilan amalga oshirish mumkin [1]. Oddiy holatda, kooperativ modelni oldingi protsessor deb hisoblash mumkin, bu erda sun'iy NT o'rganish mexanizmi noravshan xulosa chiqarish (NXCH) qoidalarini belgilaydi. NXCH parametrлari aniqlangandan so'ng sun'iy NT normal ishlaydi (10.3-rasm). Mansublik funksiya(MF)lari odatda o'rganiladigan ma'lumotlardan NT tomonidan approksimatsiya qilinadi.




10.3-rasm. Birgalidagi NNM.

NNMlarni amalga oshirishning yana bir yondashuvi parallel model bo'lib, uning yordamida NT noravshan tizimga kerakli parametrлarni aniqlashda yordam beradi, ayniqsa tizimning kirish o'zgaruvchilarini to'g'ridan-to'g'ri o'lchash mumkin bo'lmasa. O'rganish faqat NTda bo'ladi va noravshan tizim o'zgarishsiz qoladi. Ba'zi hollarda noravshan chiqishlar to'g'ridan-to'g'ri jarayonga tatbiq etilishi mumkin bo'maydi. Bunday holda NT noravshan chiqishlar uchun postprocessor vazifasini bajarishi mumkin. 10.4-rasmida parallel NNM keltirilgan bo'lib, unda kirish ma'lumotlari NTga uzatiladi va NTdan chiqadigan ma'lumot noravshan tizim yordamida qo'shimcha ravishda qayta ishlanadi.



10.4-rasm. Parallel NNM.

**Noravshan NTlarining asosiy tushunchalari va ta'riflari.** Noravshan NTlarining mohiyatini ochib berish uchun yana ikkita kirish va faqat bitta neyronga ega oddiy NTni ko'rib chiqamiz (10.5-rasm).



10.5-rasm. Oddiy NT.

Bu erda  $x_i$  kirish signallari  $w_i$  vaznlar bilan birgalikda  $p_i = x_i w_i$  ( $i = 1, 2$ ) hosil qiladi. Bunday kiruvchi ma'lumotlar neyronning aniq kirishini tashkil etuvchi yig'ish operatsiyasi yordamida birlashtiriladi  $S = x_1 w_1 + x_2 w_2$ .

Neyronning chiqishi kirish tarmog'ini ba'zi bir faollashtirish funksiyalari bilan o'zgartirilishi natijasida hosil bo'ladi  $y = f(S) = f(x_1 w_1 + x_2 w_2)$ . Bunfay funksiya sifatida masalan, sigmasimon tipdagi  $f(x) = 1/(1 + e^{-x})$  funksiyani qarash mumkin. Ko'paytirish, yig'ish va sigmasimon funksiyalari qo'llaniladigan bitta neyronli tarmoq standart NT deb ataladi.

Boshqa operatsiyalarni masalan  $t$  norma yoki  $t$  konormani qo'llash natijasida gibridd NT hosil qilinadi.

*Gibridd NT* - bu aniq signallar, vaznlar va faollashtirish funksiyasidan iborat NT bo'lib, u  $t$  norma,  $t$  conorma yoki boshqa ba'zi uzlusiz amallar yordamida  $x_i$  va  $w_i$ ,  $p_1$  va  $p_2$  larni birlashtirish natijasida hosil qilinadi. Gibridd NTning kirish, chiqish va vaznlari  $[0, 1]$  kesmadagi haqiqiy sonlardan iborat bo'ladi. Elementar gibridd NTlarining quyidagi misollarini ko'rib chiqamiz.

*Misol. "VA" noravshan neyroni.* Bunday holda  $x_i$  signallar va  $w_i$  vaznlar uchburchak konorma  $p_i = S(w_i, x_i)$ ,  $i = 1, 2$  yordamida birlashtiriladi va chiqish uchburchak normalarni qo'llash bilan


$$y = AND(p_1, p_2) = T(p_1, p_2) = T(S(w_1, x_1), S(w_2, x_2))$$

gibridd NTlarining quyidagi misollarini ko'rib chiqamiz.

*Misol. "VA" noravshan neyroni.* Bunday holda  $x_i$  signallar va  $w_i$  vaznlar uchburchak konorma  $p_i = S(w_i, x_i)$ ,  $i = 1, 2$  yordamida birlashtiriladi va chiqish uchburchak normalarni qo'llash bilan

$$y = AND(p_1, p_2) = T(p_1, p_2) = T(S(w_1, x_1), S(w_2, x_2))$$

hosil qilinadi (10.6-rasm).



10.6-rasm. "BA" gibrild neyronning tuzilishi.

Agar  $T = \min$  va  $S = \max$  qabul qilinsa, u holda noravshan neyron "BA" *min-max* kompozitsiyasini  $y = \min \{w_1 \vee x_1, w_2 \vee x_2\}$  ifodalaydi:

*Misol. "YOKI" noravshan neyroni.* Bunday holda  $x_i$  signallar va  $w_i$  vaznlari uchburchak konorma  $p_i = T(w_i, x_i)$ ,  $i = 1, 2$  yordamida birlashtiriladi va chiqish uchburchak konormalarni qo'llash bilan

$$y = OR(p_1, p_2) = S(p_1, p_2) = S(T(w_1, x_1), T(w_2, x_2))$$

Agar  $T = \min$  va  $S = \max$  qabul qilinsa u holda noravshan neyron "YOKI" *max-min* kompozitsiyasini  $y = \max \{w_1 \wedge x_1, w_2 \wedge x_2\}$  ifodalaydi. "YOKI" gibrild neyronning tuzilishi ham 10.6-rasmdagidek tasvirlanadi.

*Sugeno algoritmi* neyro-noravshan xulosalashning adaptiv tizimlarini qurishda eng ko'p qo'llaniladi. Noravshan xulosalash algoritmi asosida fikrlash tizimi quriladi (10.7-rasm) [36]. Noravshan fikrlash tizimini bloklari tavsifi 8-bobda keltirilgan.

**Defuzifikatsiyalash jarayonida aniqlangan tuzilmaga ega noravshan boshqaruv moduli (NBM).** Noravshan boshqarish tizimini signalni to'g'ri tarqlishli ko'p qatlamlari NTshaklida tasvirlash mumkin.

**Modul tuzilmasi.** 6-bobda NBMning tuzilishi va uning batafsil tavsifi keltirilgan. Endi modulning har bir elementini amalga oshirish usulini ko'rib chiqamiz [36].

*1. Qoidalar bazasi.* NBMning to'g'ri ishlashi uchun asos bo'lgan bilim

noravshan qoida shaklida quyidagi shaklda yoziladi, ya'ni


$$R^k : IF x_1 \text{ bu } A_1^k \text{ AND } \dots \text{ AND } x_n \text{ bu } A_n^k \text{ THEN } (y \text{ bu } B^k).$$

Agar noravshan imlikatsiya sifatida ko'paytirish operatsiyasidan foydalanssa, u holda quyidagi formula hosil bo'ladi

$$\mu_{A^k \rightarrow B^k}(x, y) = \mu_{A^k}(x) \mu_{B^k}(y). \quad (10.1)$$

$A_1 \subseteq X_1, A_2 \subseteq X_2, \dots, A_n \subseteq X_n$  NoTlarning dekart ko'paytmasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\mu_{A^k}(x) = \mu_{A_1^k \times \dots \times A_n^k}(x) = \mu_{A_1^k}(x) \dots \mu_{A_n^k}(x). \quad (10.2)$$



10.7-rasm. Noravshan fikrlash tizimi.

2. Xulosa chiqarish bloki.  $\bar{B}'$  NoTning MFsi quyidagicha aniqlanadi

$$\mu_{\bar{B}'}(y) = \sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x)^T * \mu_{A' \rightarrow B'}(x, y)\} \quad (10.3)$$

$T$  normani ko'paytma shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x)^T * \mu_{A' \rightarrow B'}(x, y)\} = \sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x) \mu_{A' \rightarrow B'}(x, y)\} \quad (10.4)$$

(10.3) va (10.4) ifodalarni birlashtirish natijasida quyidagi almashtirishni amalga oshirish mumkin:

$$\mu_{\bar{B}'}(y) = \sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x)^T * \mu_{A' \rightarrow B'}(x, y)\} = \sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x) \mu_{A' \rightarrow B'}(x, y)\} =$$

$$\sup_{x \in X} \{\mu_{A'}(x) \mu_{A'}(x) \mu_{B'}(y)\} = \sup_{x_1, x_2, \dots, x_n \in X} \{\mu_{A'}(x_1) \dots \mu_{A'}(x_n) \mu_{A'}(x_1) \dots \mu_{A'}(x_n) \mu_{B'}(y)\}$$

Natijada xulosa chiqarishning quyidagi ifodasi hosil bo'ladi

$$\mu_{\bar{B}'}(y) = \sup_{x_1, x_2, \dots, x_n \in X} \{\mu_{B'}(y) \prod_{i=1}^n \mu_{A'}(x_i) \mu_{A'}(x_i)\} \quad (10.5)$$

3. Fuzzifikatsiyalash bloki. Singleton tipidagi operatsiyani qo'llaylik, ya'ni

$$A'(x) = \begin{cases} 1, & \text{agar } x = \bar{x}, \\ 0, & \text{agar } x \neq \bar{x}. \end{cases} \quad (10.6)$$

Ta'kidlaymizki (10.5) formuladagi supremumga faqatgina  $x = \bar{x}$  bo'lganda erishiladi, ya'ni  $A'(\bar{x}) = 1$  bo'lganda. Bu holda (10.5) ifoda quyidagi shaklni oladi:

$$\mu_{\bar{B}'}(y) = \mu_{B'}(y) \prod_{i=1}^n \mu_{A'}(\bar{x}_i) \quad (10.7)$$

4. Defuzzifikatsiyalash bloki. Bunda markaziy o'rta tarqatish usuli qo'llaniladi

$$\bar{y} = \sum_{k=1}^n \bar{y}^k \mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) / \sum_{k=1}^n \mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) \quad (10.8)$$

(10.8) formulada  $\bar{y}^k$  -  $B^k$  NoTning markazi, ya'ni  $\mu_{\bar{y}^k}(y)$  maksimal qiymatga erishadigan nuqta  $\mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) = \max \{\mu_{\bar{y}^k}(y^k)\}$ .

(10.7) ifodani (10.8) formulaga qo'yib, quyidagini hosil qilamiz

$$\bar{y} = \sum_{k=1}^n \bar{y}^k \left\langle \mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) \prod_{i=1}^n \mu_{x_i^k}(\bar{x}_i^k) \right\rangle / \sum_{k=1}^n \left\langle \mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) \prod_{i=1}^n \mu_{x_i^k}(\bar{x}_i^k) \right\rangle \quad (10.9)$$

Agar  $\mu_{\bar{y}^k}(y)$  funksiyaning  $\bar{y}^k$  nuqtada oliadigan maksimal qiymat 1 ga teng ekanligi hisobga olinsa, ya'ni

$$\mu_{\bar{y}^k}(\bar{y}^k) = 1, \quad (10.10)$$

u holda (10.9) ifoda quyidagi ko'rinishni oladi

$$\bar{y} = \sum_{k=1}^n \bar{y}^k \left\langle \prod_{i=1}^n \mu_{x_i^k}(\bar{x}_i^k) \right\rangle / \sum_{k=1}^n \left\langle \prod_{i=1}^n \mu_{x_i^k}(\bar{x}_i^k) \right\rangle. \quad (10.11)$$

NBMni loyihalash jarayonining yakuniy bosqichi - bu  $A_i^k, i = 1, \dots, n; k = 1, \dots, N$  NoTlarni namoyish etish shaklini aniqlashdan iborat.

Masalan bu funksiya (Gauss) quyidagicha bo'lishi mumkin [36]:

$$\mu_{x_i^k}(x_i) = \exp \left[ - \left\langle \frac{x_i - \bar{x}_i^k}{\sigma_i^k} \right\rangle^2 \right], \quad (10.12)$$

bunda  $\bar{x}_i^k$  va  $\sigma_i^k$  parametrlar fizik talqinga ega bo'lib,  $\bar{x}_i^k$  - bu markaz va  $\sigma_i^k$  - Gauss egri chizig'ining kengligi.

Quyida ko'rsatilgandek, ushbu parametrlarni o'rganish davomida o'zgartirish mumkin va bu NoTlarining holati va tuzilmasini o'zgartirishga imkon beradi.

Endi taqdim etilgan barcha elementlarni birlashtiraylik. Agar (10.8) bilan aniqlangan defuzzifikatsiyalash, (10.5) ifoda bilan aniqlangan xulosa chiqarish, (10.6) ko'rinishdagi singleton tipidagi operatsiyaga ega bo'lgan fuzzifikatsiyalash va (10.12) shakldagi Gauss MFsidan foydalansak, u holda NBMning yakuniy shaklini quyidagicha hosil qilish mumkin:


$$\bar{y} = \sum_{k=1}^n \bar{y}^k \left\langle \prod_{i=1}^n \exp \left[ - \left\langle \frac{x_i - \bar{x}_i^k}{\sigma_i^k} \right\rangle^2 \right] \right\rangle / \sum_{k=1}^n \left\langle \prod_{i=1}^n \exp \left[ - \left\langle \frac{x_i - \bar{x}_i^k}{\sigma_i^k} \right\rangle^2 \right] \right\rangle. \quad (10.13)$$

(10.13)

(10.13) ifoda noravshan tizimlarni qo'llashning eng taniqli va tez-tez ishlataladigan usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu formulaning har

bir elementini funksiya bloki (yig'indi, ko'paytma, Gauss funksiyasi) shaklida berilishi mumkin, bu esa tegishli kombinatsiyadan so'ng ko'p qatlamlar NT yaratishga imkon beradi. Bunday strukturaning namunasi 10.8-rasmda keltirilgan [36].

Oddiylik uchun sxemada ikkita ( $n=2$ ) kirish bilan boshqaruvin modulli ko'rsatilgan. Qatlamlar L1 dan L4 gacha bo'lgan belgilarni bilan belgilangan.  $\Pi$  belgida ko'rsatilgan elementlar (ko'paytirgichlar) barcha kirish signallarini ko'paytiradi,  $\Sigma$  belgilari bilan ko'rsatilgan elementlar ularni qo'shadi va  $a/b$  element bitta signalni boshqasiga bo'ladi. Aloqalarga qo'yilgan qora nomli nuqtalar ushbu aloqalarning vaznlarini ko'rsatadi. L1 qatlam elementlari  $\bar{x}_i$  va  $\sigma_i^k$  parametrlari Gauss funksiyasini ifodalaydi. Sxema ustidagi ifodalar va strelkalar signalni va uning talqinini bildiradi. Shuningdek, sxemaning alohida elementlari tugunlar deb ataladi. Taqdim etilgan tuzilmada to'rtta qatlam qaralgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat.



10.8-rasm. (10.13) ifodaga asosan NBMni amalga oshirish sxemasi.

*L1-qatlam.* Uning har bir elementi  $A_i^k, i=1, \dots, n; k=1, \dots, N$  NoTning MFsini amalga oshiradi. Ushbu qatlama  $\bar{x}_i^k$  kirish signallari qabul qilinadi va uning chiqishida ushbu signallar uchun  $\mu_{4^k}(\bar{x}_i)$  MFsining qiymatlari hisoblanadi. Ushbu tarmoq tugunlarida kirish va chiqish signallari o'tasidagi funksional bog'liqlik (10.12) formula bo'yicha Gauss funksiyasi aniqlanadi. Uning  $\bar{x}_i^k$  va  $\sigma_i^k$  parametrлari ushbu funksiyaning markazi va kengligi sifatida talqin etiladi. Ular o'rganish jarayonida o'zgartiriladi, bu esa NoTlarini tanlashni

yaxshilaydi. Ushbu parametrlarni fizikaviy talqin qilish NoTlarning MFsining yaxshi boshlang'ich manzilini olishga, shuningdek uni o'rganish jarayonida tahlil qilishga imkon beradi. L1 qatlamlar elementlari soni  $A_i^k, i = 1, \dots, n; k = 1, \dots, N$  mansublikga ega bo'lgan barcha to'plamlar soniga teng.

*L2 - qatlam.* Ushbu qatlamlar aloqalarining konfiguratsiyasi qoidalar bazasiga va ko'paytuvchilar esa xulosa blokiga to'g'ri keladi ((10.7) va (10.10) formulalar). L2 qatlamining chiqishida chiqish natijasi  $\mu_{\bar{B}}(\bar{y}^k)$  MFSi qiymati shaklida hosil bo'ladi. Ushbu qatlamlar elementlari soni  $N$  qoidalar soniga teng. Har bir tugun oldingi qatlamga shunday bog'langanki,  $k$ - qoidaga mos keladigan L2 qatlamning tuguni ushbu qoidanining noravshan xulosalar to'plamiga mos keladigan L1 qatlamining barcha tugunlariga ularadi. Ko'paytgichlardan L2 qatlamining tugunlari sifatida foydalanishda ko'paytirish amalining  $T$  normalari, to'plamlarning dekart ko'paytmasi va noravshan implikatsiyasi uchun ishlatalishi bilan bog'liq.

*L3 va L4 - qatlamlar.* Ikkala qatlam ham (10.8) asosida defuzzifikatsiyalash blokini amalga oshiradi. L3 qatlamning yuqori tuguniga etib boruvchi aloqalar vaznlari va  $\bar{y}^k$  bilan belgilangan NoTlarning MFLari markazlari sifatida talqin etiladi. Ushbu vaznlar o'rganish davomida o'zgartiriladi. L4 qatlamining chiqishida boshqaruv modulining aniqlanmagan chiqish qiymati  $\bar{y}$  hosil bo'ladi.


*Avtomatik boshqarish tizimlari (ABT) sintezi masalalari uchun NNMLaridan foydalanish xususiyatlari.* Intellektual ABT sun'iy NT apparati va noravshan mantig'idan foydalangan holda murakkab chiziqli bo'limgan dinamik obyektlarni aniqlashga imkon beradi va ular uchun chiziqli bo'limgan boshqarish qonunlarini sintez qiladi, bu esa obyektda olingan mavjud eksperimental ma'lumotlarga asoslanib noaniqlik sharoitida ABT sintezining ko'rib chiqilayotgan muammosini hal qilishga imkon beradi.

Avtomatik boshqarish muammolarida NNMining ishlash prinsipini eng keng tarqalgan ANFIS (Adaptiv-Network-based Fuzzy Inference System) modeli misolida ko'rsatish mumkin [1]. ANFIS - moslashuvchan noravshan xulosa chiqarish tarmog'i Takagi-Sugeno noravshan tizimini amalga oshiradi va beshta qatlamdan iborat NThisoblanadi (10.9-rasm).

Tarmoqda  $x_1$  va  $x_2$  o'zgaruvchilar kiruvchi signallar,  $y$  - chiquvchi signal hisoblanadi.

1 - qatlam kirish parametrlarining noravshan termlarini aniqlaydi. Ushbu qatlam tugunlarining chiqishlari kiruvchi signallarning  $\mu_i(x_i)$  MFsiyalari bilan aniqlanadi.

2 - qatlam noravshan qoidalari asoslarini belgilaydi. Ushbu qatlam moslashuvchan emas. Ushbu qatlamning har bir tuguni bitta noravshan qoidasiga mos keladi. Ikkinci qatlamning tuguni birinchi qatlamning tegishli qoidaning zaruriy shartlarini hosil qiladigan tugunlari bilan bog'langan bo'ladi.  $\Omega$ , tuguning chiqishi - bu kirish signallarning hosilasi sifatida hisoblanadigan qoidani bajarish darajasi hisoblanadi.



10.9-rasm. ANFIS NTtuzilmasi.

3-qatlam qoidalarni bajarish darajasini normallashtiradi  $\bar{\omega} = \omega_i / \sum \omega_i$ . Ushbu qatlamning moslashuvchan bo'limgan tugunlari noravshan qoidasi bajarilishining nisbiy vaznini hisoblaydi.

4-qatlam har bir noravshan qoidasining tarmoq chiqishiga qo'shgan hissasini aniqlaydi. To'rtinchchi qatlamning tuguni  $v$ , noravshan qoidasining tarmoq chiqishiga qo'shgan hissasini hisoblab chiqadi.


5- qatlam  $y = \sum y_i$ , boshqaruv (chiqish) signalini hosil qiladi.

NNMlarni tanlash echilishi kerak bo'lgan masalalar sinfiga qarab amalga oshiriladi. NNMlarning FALCON, GARIC, NEFCON, FUN kabi turlari mavjud [1].

### 3-§. Neyron tarmoqlarda evolyutsiyali algoritmlar

*Neyro-genetik GT* - bu NTlarini GALari bilan birlashtiruvchu tizim bo'lib, unda NTlari turli xil masalalarni misollar asosida

o'rganishga, obyektlarni sinflash va ular orasida aloqalarni o'rnatishni amalga oshirsa, *GA*lari qidiruv va optimallashtirishning muhim usullari bo'lib xizmat qiladi (10.10-rasm). *GA*lardan NTlarning ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalanish mumkin va ular yordamida kirishlarning ulanish vaznlarini aniqlash mumkin. Shuningdek, *GA*lardan NTlarda topologiyani tanlash va tarmoqni o'rgatish uchun ham foydalanish mumkin.



10.10-rasm. Neyro-genetik GTsxemasi.

10.11 va 10.12-rasmlarda *GA* va NTlarining yordamchi birlashmalari sifatida qaraladigan masalalarlarni hal qilishning turli xil yondashuvlari tasvirlangan.



#### 4-§. Genetik algoritmlarni qo'llab-quvvatlash uchun neyron tarmoqlar

Aksariyat tadqiqotchilar NTlarining ishlashini ta'minlash uchun *GA*lardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishdi. Bir nechta teskari holatlarga kuzatuv masalasini hal qilish uchun mo'ljallangan GT kiradi va bu [38] da NTlari va *GA*larning yordamchi birlashmasining misoli sifatida tasniflanadi. Ushbu tizimda *GA* eng qisqa yo'lni topishga mo'ljallangan optimallashtirish protsedurasi sifatida ishlataladi. NT *GA*

uchun boshlang'ich populyatsiyani shakllantirish uchun ishlataladi. Ushbu yondashuv sxematik ravishda 10.11-rasmda tasvirlangan.

### 5-§. Neyron tarmoqlarini o'rgatish uchun genetik algoritmdan foydalanish

NTning ishlashini ta'minlash uchun GAdan foydalanishga asoslangan yondashuv sxematik tarzda 10.12-rasmda ifodalangan.



Ko'rib chiqilgan usullarning bunday kombinatsiyasiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalaning uchta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin [38]:

1. Parametrlarni tanlash uchun GAni qo'llash yoki sinflash uchun NT tomonidan foydalaniladigan parametr maydonini o'zgartirish;
2. NTni o'rganishni boshqaradigan o'rganish qoidasini yoki parametrlarini tanlash uchun GAni qo'llash;
3. NTni tahlil qilish uchun GAni qo'llash.

NTlarida GA qo'llanilishining dastlabki ikkita yo'nalishi umuman olganda tarmoqlarning faoliyatini yaxshilashga imkon beradi (ya'ni, sintez masalasini hal qilish), uchinchisi esa ularning ishlashini tahlil qilishga xizmat qiladi.

*NTlarini o'rgatish uchun GAlarni qo'llash.* NTlarini GA yordamida o'rgatish mumkin degan fikr turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan. Ushbu mavzu bo'yicha birinchi ishlarda GAni kichik bir yo'nalishli NTlari uchun o'rgatish usuli sifatida qo'llash masalasi ko'rib chiqilgan [40], ammo keyinchalik bu algoritmni kattaroq o'lchovli tarmoqlar uchun qo'llash amalga oshirildi [38].

Odatda masala berilgan topologiyalar aprioriga ega bo'lган NTlarning vaznlarini optimallashtirishdan iborat. Vaznlar ikkilik ketma-ketliklar (xromosomalar) sifatida kodlangan. Populyatsiyadagi har bir xromosoma neyronlar tarmog'i vaznlarining to'liq to'plami bilan tavsiflanadi. Xromosomalarning yaroqliligini baholash xatoliklar kvadratlarining yig'indisi sifatida berilgan MFsi bilan aniqlanadi, ya'ni NTdagagi har xil kirishlar uchun tarmoq chiqishidagi kutilgan (etalon) va olingan qiymatlar o'tasidagi farqlar aniqlanadi.

NTning vaznni optimallashtirish uchun GAlardan foydalanishda ikkita muhim jihatni keltirish mumkin. Avvalo GAlar vaznlar fazosini global ko'rishni ta'minlaydi va lokal minimalarni topishdan holi bo'ladi. Bundan tashqari ular gradiyentlar haqida ma'lumot olish juda qiyin bo'lgan yoki juda qimmatga tushadigan masalalarda qo'llanilishi mumkin.

*NT topologiyasini tanlash uchun GAlar.* GAni neyronlar tarmog'i bilan birlashtirishning eng aniq usuli sifatida intuitiv ravishda obyektning topologiyasini (bu holda NTni) genotipda kodlash, neyronlar va ular orasidagi bog'lanishlar sonini ko'rsatib, keyinchalik har qanday ma'lum usul yordamida tarmoq vaznni aniqlashga intilish seziladi [38].

Optimal neyronli tarmoq topologiyasini loyihalashtirish ma'lum bir masalaning eng yaxshi (tanlangan mezonga nisbatan) echimini ta'minlaydigan arxitekturani izlash sifatida ifodalanishi mumkin. Ushbu yondashuv barcha mumkin bo'lgan variantlardan tashkil topgan

arxitektura fazosini birma-bir tekshirishni va berilgan optimallik mezoniga nisbatan eng yaxshi nuqtasini tanlashni o'z ichiga oladi.

## 6-§. Adaptiv o'zaro ta'sirlanuvchi tizimlar

Yagona adaptiv tizimi tashkil etuvchi har ikkala usulning adaptiv strategiyalarining kombinatsiyasini GA va NTlarining teng kombinatsiyasiga bog'lash kerak. Ushbu turdag'i tizimlarning *uchta namunasi mavjud* [38]. *Ulardan birinchisi*, tarmoq vaznlarini aniqlash uchun GA bilan optimallashtirish masalasi uchun NT. *Ikkinci misol* NT yordamida GAni amalga oshirish bilan bog'liq. Bu holda neyronlarning quyi tizimlari ko'payish va o'tishning genetik operatsiyalarini bajarish uchun ishlataladi. *Uchinchi misolda*, oldingisiga biroz o'xshash NT bo'lib, u optimallashtirish masalalarini hal qilish uchun mo'ljallangan GAda o'tish operatori sifatida ishlataladi. Taqdim etilgan misollar GA va NTlarining birikmasi bilan bog'liq bo'lib, natijada ikkala usulning eng yaxshi sifatlarini birlashtirgan yanada samarali algoritmi olish imkonini beradi.

## 7-§. Evolyutsiyaning odatiy sikli

Sun'iy NTga ma'lum bir evolyutsiyalash turi kiritilishi bilan darhol xromosoma ma'lumotlarini taqdim etishning tegishli sxemasiga ehtiyoj paydo bo'ladi, ya'ni populyatsiya xromosomalarini genetik kodlash uchun usul yaratilishi kerak bo'ladi. Kodlash usulini ishlab chiqish bunday evolyutsiyali yondashuvning birinchi bosqichi hisoblanadi va shu bilan birga odatdag'i evolyutsiyali jarayon *dekodlash, o'rgatish, yaroqlilikni baholash, reproduksiyalash va yangi avlodni shakllantirish* bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Evolyutsiyaning odatdag'i sikliga muvofiq ushbu masalaning echimlari (fenotiplari) to'plamini olish uchun oldingi (asl) yoki hozirgi populyatsiyaning har bir xromosomasi dekodlanishi kerak. *Vaznlar, arxitekturalar va o'rgatish qoidalar* evolyutsiyasi holatida fenotiplar navbatи bilan vaznlar, arxitekturalar va o'rgatish qoidalarining to'plamlarini aks ettiradi.

*GAg'a ko'ra* boshlang'ich (yoki hozirgi) populyatsiya xromosomalarining MosFning qiymatlari hisoblanadi. *NT* yondashuvni bilan xromosomalarni dekodlashdan so'ng NTlari to'plami olinadi va ular uchun MD ushbu tarmoqlarni o'rganish natijalari bilan belgilanadi.

*Evolyutsiyaning odatdagi siklini amalga oshirishda tegishli NTlari (fenotiplar) to'plamini qurish kerak:*


- vaznar evolyutsiyasi holatida - qat'iy arxitekturaga ega tarmoqlar va ko'plab xromosomalar bilan kodlangan vaznlar;
- arxitekturalar evolyutsiyasi holatida - arxitekturasi xromosomalar bilan kodlangan tarmoqlar;
- o'rgatish qoidalari evolyutsiyasi holatida - tasodifiy ravishda yaratilgan arxitektura va dastlabki vaznlarga ega tarmoqlar.

O'rghanishdan so'ng hozirgi populyatsiyada har bir xromosomaning yaroqlilik holati baholanadi.

GANing navbatdagi bosqichi - bu xromosomalarni seleksiyalashdan iborat. Undan keyin chatishtiruv va mutatsiyalash operatorlari qo'llaniladi. Natjada xromosomalarning yangi populyatsiyasi shakllantiriladi. Algoritmning keyingi bosqichlari keyingi populyatsiya uchun GAni yakunlash sharti bajarilguncha takrorlanadi. Har bir takrorlashda yangi avlod shakllanadi.

Oxirgi avlodning eng yaxshi xromosomasi ushbu masalaning kerakli echimi hisoblanadi. Bu eng yaxshi *vaznlar* to'plamini, eng yaxshi *arkitekturani* va eng yaxshi *o'rgatish qoidasini* beradi.

*Bog'lanishlar vaznlari evolyutsiyasi.* NTlarini tayyorlashga evolyutsiyali yondashuv ikki asosiy bosqichdan iborat (10.13-rasm).



10.13-rasm. NTda eng yaxshi vaznlar naborini topish uchun GAning blok sxemasi (vaznlar evolyutsiyasi holati).

Ulardan *birinchisi* - bu bog'lanishlar vaznlarini tegishli tasviri sxemasini tanlash hisoblanadi. Ushbu vaznlar ikkilik ketma-ketlikda

kodlanishi mumkinmi yoki boshqa biron bir shakl talab qilinadimi degan qaror qabul qilishdan iborat. *Ikkinchи bosqichda* GAga asoslangan evolyutsiyalash jarayoni amalga oshiriladi.

Xromosomani tasvirlash sxemasini tanlagandan so'ng GA *to'rtta bosqichdan iborat odatiy evolyutsiyali siklni* amalga oshiradigan NT vaznlarining kodlangan to'plamini o'z ichiga olgan xromosomalar populyatsiyasiga qo'llaniladi:

1) vaznlar to'plamini tiklash uchun hozirgi avlodning har bir xromosomasini dekodlash va prioritetli arxitektura va o'rghanish qoidasi bilan ushbu to'plamga mos keladigan NTni qurish;

2) o'rghaniladigan timsollarni uning kirish qismiga uzatilganda barcha tarmoq chiqishlarida haqiqiy va ko'rsatilgan qiymatlar orasidagi umumiy o'rtacha kvadrat xatoni hisoblash. Ushbu xato xromosomaning mosligini (tuzilgan tarmoq) aniqlaydi. Tarmoq turiga qarab MosF boshqa yo'l bilan ham o'rnatilishi mumkin.

3) xromosomani ularning moslashuvchanligiga mos keladigan ehtimol bilan yoki ularning darajasiga qarab (seleksiya uslubiga qarab - masalan, ruletka usuli yoki rangli usuli bilan) ko'paytirish;


4) yangi avlodni olish uchun chatishtruv, mutatsiyalash va / yoki inversiyalash kabi genetik operatorlarni qo'llash.

Vaznlar evolyutsiyasini aks ettiruvchi blok-sxema 10.13-rasmida keltirilgan. Ushbu sxemaga muvofiq FlexTool dasturi [42] va Evolver dasturi yordamida XOR tizimini amalga oshiruvchi NT uchun vaznlar hisoblab chiqiladi [15].

**Tarmoq arxitekturasining evolyutsiyasi.** NTlar arxitekturasini evolyutsiyali loyixalashning birinchi bosqichi - bu NTlarda neyronlar orasidagi aloqalar va vaznlarni kodlashtirishdan iborat. NTlarda kodlashtirishning *to'g'ridan-to'g'ri* va *bilvosita* kodlash sxemalari mavjud.

**NTlarda to'g'ridan-to'g'ri kodlash sxemasi.** Bu sxema shuni anglatadiki, har bir NTning aloqasi to'g'ridan-to'g'ri uning ikkilik kodi bilan belgilanadi.  $n \times n$  o'lchamli  $C = [c_{ij}]_{n \times n}$  matritsa  $n$  ta tugunlardan iborat NTlarning aloqalarini anglatadi va bu erda  $c_{ij}$  qiymat  $i$  va  $j$ -neyronlar orasida aloqaning borligi yoki yo'qligini aniqlaydi. Agar  $c_{ij} = 1$  bo'lsa, u holda neyronlar orasida aloqa mavjud, aks holda yo'q. Bunday yondashuvda NTlarni aloqalarini ifodalovchi ikkilik ko'rinishdagi xromosoma  $C$  matritsaning qatorlari (yoki ustunlari) kombinatsiyasidan iborat bo'ladi.

Misol.  $n = 5$  bo'lganda  $C = [c_{ij}]_{5 \times 5}$ , matritsani hosil qilish 10.14-rasmda keltirilgan.



10.14-rasm. Heyron tarmoqlar uchun aloqalar matritsasini kodlashga misol.

Agar  $n$  qiymat tarmoqdagi neyronlar sonini bildirsa, u holda bu neyronlar orasidagi bog'lanishlar  $n^2$  uzunlikga ega bo'lgan ikkilik ketma-ketliknu ifodalaydi. Ushbu kodlash usulining aniq *kamchiliklari* neyronlar tarmog'ining kengayishi bilan genotip uzunligining tez o'sishidir. Bunday kodlashning *kamchiligi* shundan iboratki, agarda tarmoqda neyronlar soni oshsa xromosomada genlar soni ham oshishiga olib keladi. Lekin bunday NTlar sxemalarida xromosomalar uzunligini qisqartiradigan cheklowlarni ham kiritish yo'li bilan kodlar ketma-ketligini qisqartirish mumkin. Xususan, NTlarda faqat bir tomonlama yo'nalishlar qaraladi va  $C$  matritsada faqat berilgan tugun (neyron)ning keyingi qo'shni tugun bilan bog'lanishini aniqlaydigan elementlari hisobga olinadi. Bunday holda 10.14-rasmdagi xromosoma 0110110011 ko'rinishni oladi.

*To'g'ridan-to'g'ri kodlash sxemasi* bir vaqtning o'zida ikkala bog'lanishni, ya'ni neyronlar orasidagi aloqalarni va ularning vaznlarini aniqlash uchun qo'llanilishi mumkin. Ushbu kodlash usuli asosan kichik NTlari uchun qulay hisoblanasi.

**Bilvosita kodlash sxemasi.** Bu sxema NTlarning barcha aloqalarini emas, balki faqat eng muhim xususiyatlarga ega bo'lgan aloqalarni kodlashdan hosil bo'lgan ikkilik ketma-ketlik uzunligini qisqartirish uslubi hisoblanadi. Shu sababli bilvosita kodlash sxemasining sezilarli ustunligi bu aloqalarning ixcham ko'rinishini ifodalaydi. Bunday sxema biologik nuqtai-nazardan ham ancha asoslangan va oqilona hisoblanadi.

Zamonaviy nevrologiyaga ko'ra xromosomalarda kodlangan genetik ma'lumot bilan butun nerv tizimini bevosita va mustaqil ravishda ta'riflash mumkin emas. Ushbu xulosadan quyidagi fakt, ya'ni masalan inson genotipi uning miyasidagi neyronlar sonidan ancha kam miqdordagi genlardan iborat ekanligidan kelib chiqadi. Bilvosita kodlashning turli usullari [36, 38] ishlarda qaralgan.

*Arxitektura evolyutsiyasi* quyidagi bosqichlardan iborat.

1) NTning arxitekturasini tavsiflash uchun hozirgi populyatsiyaning har bir xromosomasini dekodlash.

2) Har bir NTni oldindan belgilangan qoida yordamida birinchi qadамда олинган архитектура билан о'рганиш (uning ба'зи параметрлари о'рганиш жаронида мослашувчан ravishda takomillashtirilishi mumkin). O'рганиш о'рганувчи qoidalarning vaznlari va (agar kerak bo'lsa) parametrlarining tasodifiy tanlangan har xil boshlang'ich qiymatlaridan boshlanishi kerak.

3) Erishilgan o'рганиш natijalariga ko'ra har bir xromosomaning (kodlangan arxitektura) MosF ni baholash amalga oshiriladi. Bu baholash o'рганишning mutlaq o'rtacha kvadratik xatoligi bo'yicha yoki test asosida amalga oshiriladi. Test asosida amalga oshiriladi, agarda eng katta qiziqishni umumlashtirish qobiliyati, eng qisqa o'rgatish davomiyligi yoki arxitekturani soddallashtirish (masalan, neyronlar sonini va ular orasidagi bog'lanishni minimallashtirish) uyg'otsa.

4) Amalga oshirilgan tanlov uslubiga qarab, ularning yaroqliligi yoki darajasiga mos keladigan ehtimollik bilan xromosomalarning ko'payishi.


5) Chatish tiruv, mutatsiyalash va inversiyalash kabi genetik operatorlardan foydalanish natijasida yangi avlodni shakllantirish.

Arxitektura evolyutsiyasini aks ettiruvchi blok-sxema 10.15-rasmida keltirilgan.

**O'rgatish qoidalaring evolyutsiyasi.** Ma'lumki NTlarda turli xil arxitekturalar va o'rgatish masalalarida turli xil o'rgatish algoritmlarini talab qiladi. O'rgatishning optimal (yoki deyarli optimal) qoidasini izlash odatda ekspertlar bilimiga va ko'pincha sinov va xatoliklar usullariga asoslanadi. Shuning uchun NTlarini o'rgatish qoidalaring optimallashtirishning avtomatik usullarini ishlab chiqish juda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Insonning o'rgatish qobiliyatlarini nisbatan zaiflikdan juda kuchli tomonga rivojlanishi sun'iy NTlarini

o'rgatish jarayonida evolyutsiyali yondashuvni qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

O'rgatish qoidalari evolyutsiyasi holatida xromosomalarini aks ettirish sxemasi dinamik xususiyatlarni aks ettirishi kerak. Statik parametrlarni (masalan, arxitektura yoki tarmoq vaznlari) kodlash ancha oddiy amalga oshiriladi.



10.15-rasm. Eng yaxshi NTaxitekturasini topish uchun GAning blok-sxemasi (arxitekturalar evolyutsiyasi holati).

NTning dinamik xususiyatlarini tavsiflashga imkon beradigan universal tasvirlash sxemasini yaratishga urinish, shubhasiz, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, chunki bu holda o'rgatuvchi qoidalaringin butun fazosini qarab chiqish uchun talab qilinadigan juda katta miqdordagi hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun odatda dinamik qoidalari turiga ma'lum cheklolvar qo'yiladi, bu esa o'rgatuvchi qoidaning umumiyl tuzilmasini tanlashga imkon beradi. Ko'p hollarda NTdagi barcha neyronlar aloqalari uchun bir xil o'rgatuvchi qoidasi qo'llanilishi kerakligi aniqlangan va bu qoida quyidagi funksiyasi bilan berilishi mumkin [36]

$$\Delta w(t) = \sum_{k=1}^n \sum_{i_1, \dots, i_k} \left[ \theta_{i_1, i_2, \dots, i_k} \prod_{j=1}^k x_j(t-1) \right], \quad (10.14)$$

bu erda  $t$  - vaqt,  $\Delta w$  - vaznning o'sishi,  $x_i$  - lokal o'zgaruvchilar,  $\theta_{i_1, i_2, \dots, i_k}$  - haqiqiy koeffitsientlar.

O'rgatish qoidalari evolyutsiyasining asosiy maqsadi  $\theta_{i_1, i_2, \dots, i_k}$  koeffitsientlar uchun mos qiymatlarni tanlash hisoblanadi.

*Endi o'rgatish qoidalari evolyutsiyasining odatiy siklini bosqichlarini ko'rib chiqamiz:*

1) NTlari uchun o'rgatish algoritmi sifatida ishlataladigan o'rgatish qoidalari tavsiflash uchun hozirgi populyatsiyaning har bir xromosomasini dekodlash amalga oshiriladi.


2) Tasodifiy ravishda yaratilgan arxitekturalar va vaznlarning dastlabki qiymatlari bilan NTlari to'plamini shakllantirish, shuningdek, ushbu tarmoqlarni o'rgatish yoki testlarning aniqligi, o'rgatish davomiyligi, arxitekturalarning murakkabligi va boshqalar toifalarida 1-bosqichda olingan qoidaga binoan ularning tayyorgarligini hisobga olgan holda baholash amajga oshiriladi.

3) 2-bosqichda olingan har bir NTning bahosi asosida har bir xromosomaning MosF qiymatini hisoblash (kodlangan o'rgatish qoidasi) amalga oshiriladi.

4) Amalga oshirilgan tanlov uslubiga qarab ularning yaroqliligiga yoki darajasiga mos keladigan ehtimollik bilan xromosomalarning ko'payishi sodir etiladi.

5) Chatishtiruv, mutatsiyalash va / yoki inversiyalash kabi genetik operatorlardan foydalanish natijasida yangi avlodni shakllantirish amalga oshiriladi.

*O'rgatish qoidalari evolyutsiyasining odatiy siklini aks ettiruvchi blok-sxema 10.16-rasmida tasvirlangan.*



10.16-rasm. GA asosida NTda eng yaxshi 'orgatuvchi qoidani topish blok-sxemasi (o'rnatuvchi qoidalalar evolyutsiyasi holi).

## Nazorat savollari

1. Gibrild yondashuv nima?
2. GITda SIning parallel ravishda qo'llaniladigan qanday usullari mavjud?
3. Integrallashuv jihatdan GTlar qanday sinflashtiriladi?
4. GITning arxitekturasi qanday tarkibiy qismlardan iborat?
5. Aralashtirilgan, yaxlit, birlashtirilgan va assotsiativ GITlar nima?
6. NNM qanday usullar bilan amalgalashuv qanday?
7. "BA" xamda "YOKI" noravshan neyroni qanday amalgalashuv qanday?
8. Defuzzifikatsiya jarayonida aniqlangan tuzilishga ega bo'lgan NBMning g'oyasi va elementlari qanday?
9. NBMning neyron sxemasi qaysi qatlamlardan iborat?
10. NBMni o'rganish algoritmi qaysi bosqichlardan iborat?
11. ABT sintez qilish uchun NNMlarini qo'llash xususiyatlari qanday?
12. ANFIS moduli nima va u qanday ishlaydi?
13. NTLari GALarni qanday qo'llab-quvvatlaydi?
14. NTLarini o'rgatish uchun GAlar qanday qo'llaniladi?
15. Moslashuvchan o'zaro ta'sir qiluvchi tizimlar uchun misollar keltiring?
16. Evolyutsiyaning tipik siklini tavsiflang?

## Nazorat testlari

1. .... yondashuv - bu neyronli va simvolli modellarning sinergetik kombinatsiyasidan iborat bo'lib, u barcha bilim va hisoblash imkoniyatlariga erishishni amalgalashuv qanday?
  - a) Gibriddi; b) Differensialli; v) Noravshanli; g) Mexanikli.
2. .... intellektual tizimlar - bu masalalarni echishda parallel ravishda sun'iy intellektning bir necha xil usullaridan foydalanadigan tizimlar hisoblanadi.
  - a) Gibrild; b) Noravshan; v) Differensial; g) Mexanik.
3. Gibrild tizimlarni integrallanish darajasi nuqtai-nazaridan sinflash to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?
  - a) alohida, transformatsiyali, zaif bog'langan, kuchli bog'langan, to'liq integrallashgan;
  - b) kombinatsiyali, transformatsiyali, zaif bog'lanmagan, kuchli bog'langan, to'liqmas integrallashgan;
  - v) daraxtli, alohida, ketma-ketli, zaif bog'langan, kuchli bog'langan;
  - g) mantiqli, freymli, zaif bog'langan, produksiyali, to'liq bog'langan;

4. .... bog'langan tizimlar-bu dasturning ma'lumotlar fayllari orqali bog'langan alohida komponentlarga bo'linadigan birinchi haqiqiy integratsiyasining shakli hisoblanadi.  
a) Zaif; b) Alohida; v) Kuchli; g) To'liqmas.
5. Arxitekturaga qarab gibrild intellektual tizimlar qanday sinflarga bo'linadi?  
a) integralli, kombinatsiyali, birlashmali, assotsiativli;  
b) daraxtli, differensialli, birlashmali, kombinatsiyali;  
v) gibrildi, ekspertli, aloxidali, assotsiativli;  
g) kombinatsiyali, grafli, darajali, logarifmli.
6. Neyro-noravshan modellarni amalga oshirishning qanday usullari mavjud?  
a) Birgalikdagi va parallel; b) Uzlukli va kombinatsiyali;  
v) Ketma-ket va uzluksiz; g) Alohida va parallel.
7. .... genetik algoritm uchun boshlang'ich populyatsiyani shakllantirishda ishlataladi.  
a) Neyron tarmog'i; b) Ekspert tizimi;  
v) Noravshan model; g) Genetik model.
8. .... neyron tarmoq uchun boshlang'ich vaznlarni shakllantirishda ishlataladi.  
a) Genetik algoritm; b) Ekspert tizimi;  
v) Noravshan model; g) Defuzzifikatsiyalash.
9. Evolyutsiyaning odatdagи siklini amalga oshirishda vaznlar evolyutsiyasi holatida qat'iy arxitekturaga ega tarmoqlar va ko'plab xromosomalar bilan kodlangan ..... foydalilaniladi.  
a) vaznlardan; b) kiruvchi signallardan;  
v) chiquvchi signallardan; g) funksiyadan.
10. Evolyutsiyaning odatdagи siklini amalga oshirishda arxitekturalar evolyutsiyasi holatida arxitekturasi xromosomalar bilan kodlangan ..... foydalilaniladi.  
a) tarmoqlardan; b) kiruvchi signallardan;  
v) chiquvchi signallardan; g) vaznlardan.
11. Evolyutsiyaning odatdagи siklini amalga oshirishda o'rgatish qoidalari evolyutsiyasi holatida tasodifiy ravishda yaratilgan ..... va dastlabki vaznlarga ega ..... foydalilaniladi.  
a) arxitektura; tarmoqlardan; b) kiruvchi signallar;  
axitekturadan;  
v) chiquvchi signallar; qatlardan; g) vaznlar; kiruvchi signallardan.

## **11-BOB. SUN'iy INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA YO'NALISHLARI**

### **1-§. Sun'iy intellektning resurslar bilan bog'liq muammolari**

SIning resurslar bilan bog'liq muammolari *ikki* tipdag'i resurslarning etishmasligi bilan bo'g'liq. *Birinchisi* - bu kompyuterli resurslarning etishmasligi bo'lib, unda kompyuterlarning hisoblash quvvati, operativ xotira va tashqi xotira hajmlari e'triborga olinadi. *Ikkinchisi* - inson resurslarining etishmasligi bo'lib, unda ilmiynamo intellektual DTlarni yaratishga bilimlarning turli sohalaridan ilg'or mutaxassislarни jalb etish va uzoq muddatli tadqiqot loyihalarni tashkillashtirish talab etiladi.

Bugungi kunda *birinchi tipli resurslar* yaxshi pog'onaga chiqqan bo'lib, ular inson uchun juda qiyin bo'lgan amaliy masalalarni yechmoqda. *Ikkinci tipli resurslar* bilan bog'liq holat esa dunyo bo'yicha yomonlashmoqda. Shuning uchun ham SI sohasidagi muaffaqiyatlar yirik universitetlar qoshidagi uncha ko'p bo'limgan ilg'or tadqiqot institutlari va markazlarida olib borilayotgan ilmiy - tadqiqotlar bilan bog'liq [7] (11.1-jadval).

### **2-§. Istiqbolli yo'nalishlar va texnologiyalar**

SIning istiqbolli yo'nalishlarini mutaxassislar nuqtai-nazaridan qisqacha quyidagicha qaraymiz.

*Neyron tarmoqlari*. Bu yo'nalishda real vaqt rejimida obyektlarni tanib olishga o'rgatish va sinflash algoritmlarini mukamallashtirish, tabiiy tillarni ishslash, tasvirlarni, nutqlarni va signallarni tanib olish va foydalanuvchiga moslashuvchi intellektualli interfeys modellarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

*NTlar* yordamida yechilayotgan asosiy amaliy masalalarga moliyalashtirishni bashoratlash, ma'lumotlarni izlash, tizimlarni tashxislash, tarmoqlar faoliyatini nazorat qilish, ma'lumotlarni shifrlash kabilar kiradi. Oxirgi yillarda *parallel qurilmalar* asosida NTlar ishini sinxronlashtirishning samarali usullarini izlash bo'yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda.

*Evolyutsiyali hisoblash*. Evolyutsiyali hisoblash sohasini (kompyuter ilovalarning va robototexnik qurilmalarning avtonomli va moslashuvchanlik xususiyatlari) rivojlantirishda *nanotexnologiyalarga* e'tibor berilmoqda.

**10.1-jadval. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlarning istiqbolli texnologiyalari bo'yicha asosiy ilmiy maktablar.**

Neyron tarmoqlar (Neural Networks)	Noravshan tizimlar (Fuzzy Systems)	Intellektual robotlar (Robotics)	Mul'tiagentli tizimlar (Multi-agent Systems)	Ma'lumotlar ni intellektual tahlili (Intelligent Data Analyzing)	Tabiiy tilni ishlash (Natural Language Processing)
University of Toronto <a href="http://www.cs.toronto.edu/neu">www.cs.toronto.edu/neu</a> Iowa State University <a href="http://www.cs.iastate.edu">http://www.cs.iastate.edu</a> /~honavar/ailab/, Institute in Sheffield <a href="http://www.shef.ac.uk">http://www.shef.ac.uk</a> , Austrian Research Institute for AI <a href="http://www.ai.univie.ac.at">www.ai.univie.ac.at</a> , Bauman nomidagi MDTU	Stanford University <a href="http://cs.stanford.edu/Research">http://cs.stanford.edu/Research</a> , Iowa State University <a href="http://www.cs.iastate.edu">http://www.cs.iastate.edu</a> , MIT <a href="http://www.ai.mit.edu">http://www.ai.mit.edu</a> , Carnegie-Mellon University <a href="http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/">http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/</a> , University of Melbourne <a href="http://www.cs.mu.oz.au">http://www.cs.mu.oz.au</a> , Stanford University <a href="http://cs.stanford.edu/Research">http://cs.stanford.edu/Research</a> , New	Carnegi-Mellon University <a href="http://www.cs.cmu.edu">http://www.cs.cmu.edu</a> , MIT <a href="http://www.ai.mit.edu">http://www.ai.mit.edu</a> , University of Melbourne <a href="http://www.cs.mu.oz.au">http://www.cs.mu.oz.au</a> , Stanford University <a href="http://cs.stanford.edu/Research">http://cs.stanford.edu/Research</a> , New	Iowa State University <a href="http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/">http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/</a> , Santa Fe Institute <a href="http://alife.santafe.edu">http://alife.santafe.edu</a> , University of Melbourne <a href="http://www.cs.mu.oz.au">http://www.cs.mu.oz.au</a> , Edinburg University <a href="http://www.inf.cs.man.ac.uk">http://www.inf.cs.man.ac.uk</a>	Iowa State University <a href="http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/">http://www.cs.iastate.edu/~honavar/ailab/</a> , Stanford University <a href="http://cs.stanford.edu/Research">http://cs.stanford.edu/Research</a> , Manchester University <a href="http://www.inf.cs.man.ac.uk">http://www.inf.cs.man.ac.uk</a>	Massachusetts Institute of Technologies (MIT) <a href="http://www.ai.mit.edu">Http://www.ai.mit.edu</a> , Stanford University <a href="http://cs.stanford.edu/Research">http://cs.stanford.edu/Research</a> , Edinburg University <a href="http://www.informati.cs.ed.ac.uk">http://www.informati.cs.ed.ac.uk</a> , New University of Lisboa <a href="http://www.di.fct.unl.pt">http://www.di.fct.unl.pt</a> ,

<a href="http://www.chat.ru/~vlasov/">http://www.chat.ru/~vlasov/</a> , RFA SB HM (Krasnoyarsk), Neyrokibernetika instituti (Rostov- Don), SpbGETU, V.M.Glushkov nomidagi kibernetika instituti (Kiyev), XTURE, MIFI, Lebedev nomidagi fizika instituti <a href="http://canopus.lpi.msk.su">http://canopus.lpi.msk.su</a> <a href="http://neurolab/">/neurolab/</a>	University of Lisboa <a href="http://www.di.fc.t.u">http://www.di.fc.t.u</a> nl.pt, Rossiya sun'iy intellekt instituti (Moskva- Novosibirsk) <a href="http://www.aha.ru/~artint/">www.aha.ru/~artint/</a> , Dasturiy tizimlar instituti (Pereslavl'- Zalesskiy) <a href="http://www.botik.ru/PSI/">www.botik.ru/PSI/</a>	Edinburg University <a href="http://www.inf orm">Http://www.inf orm</a> atics.ed.ac.uk, Tokyo University, University of Sussex, V.M.Glushkov nomidagi kibernetika instituti (Kiyev), FAW-Ulm instituti (Germaniya)	ormati cs.ed.ac.uk, Austrian Research Institute for AI <a href="http://www.ai.univie.ac.at">www.ai.univie.ac.at</a> , Rossiya sun'iy intellekt instituti <a href="http://www.aha.ru/~artint/">www.aha.ru/~artint/</a>		Harvard University <a href="http://www.eecs.harvard.edu/ai">http://www.eecs.harvard.edu/ai</a> , Austrian Research Institute for AI <a href="http://www.ai.univie.ac.at">www.ai.univie.ac.at</a> , Bauman nomidagi MDTU <a href="http://www.chat.ru/~vlasov/">http://www.chat.ru/~vlasov/</a> , Rossiya sun'iy intellekt institute (Moskva- Novosibirsk) <a href="http://www.aha.ru/~artint/">www.aha.ru/~artint/</a> , FAW-Ulm instituti (Germaniya)
---	---	---	---	--	---

Evolyutsiyali hisoblash birvaqtida faoliyat ko'rsatayotgan uzellar to'plamidan iborat *o'zini-ozi yig'ish*, *o'zini-o'zi shakllantirish* va *o'zini-o'zi tiklash* tizimlari kabi amaliy muammolariga ta'sir qilmoqda. Bunda raqamli avtomatlar sohasidagi ilmiy natijalarni qo'llash mumkin bo'lmoqda.

*Evolyutsiyali hisoblashning yana bir aspekti*-bu avtonom agentlardan kunlik masalalarini echish uchun shaxsiy kotibalar sifatida foydalanish. Shaxsiy kotibalar shaxsiy hisoblarni, uchinchi avlod algoritmlari yordamida tarmoqlarda kerakli ma'lumotlarni tanlab oluvchi assistantlarni, ishlarni rejalashtiruvchilarni, shaxsiy o'qituvchilarni, virtual sotuvchilarni va h.k. boshqaradi. Bunga robototexnika va u bilan bog'liq barcha sohalar ham taaluqli.

*Evolyutsiyali hisoblashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari*-bu standartlar, intellektual qatlamlar, senriylar/savollar tillari, insonlar va dastururlarning o'zaro aloqasini tashkil etishning samarali uslubiyotlarini ishlab chiqishdan iborat.

Avtonom harakatlanuvhi modellar xonalarni tozalash, egulik buyurtmalar berish va taylorlash, avtomobilarni boshqarish va b.q. sohalarga faol joriy qilinmoqda.

*Kelajakda evolyutsiyali hisoblashdan foydalaniib murakkab masalalarini (genlarga o'xhash tarimoqlardan va katta massivli ma'lumotlardan iborat masalalrni tez tadqiq qilish) yechish uchun avtonomli agentlar jamoasidan foydalaniladi.* Buning uchun evolyutsyaning mumkin bo'lgan quyidagi *yo'nalishlarini o'rganish* bilan shug'ullanish talab qilinadi: *jamoalar bilan ishslash, birgalidagi ishlarni rejalashtirish, aloqalar uslublarini o'rganish, guruxli o'zini-o'zi o'rgatish, noto'liq ma'lumotlar bilan berilgan noravshan sohada kooperativli harakat, qiziqishlari bo'yicha birlashuvchi bir nechta agentlarning harakati, o'zaromunosabat ziddiyatlarini hal qilishni o'rganish va h.k.*

**Noravshan mantiq.** Noravshan mantiq tizimlari barcha sohalarga nisbatan ko'proq gibridli bosqaruv tizimlarida faol qo'llaniladi.

**Tasvirlarni ishslash.** Bu sohada tasvirlarni tavsiflash va tahlil qilish tadqiqotlari tasvirlarni qisish, turli protokollardan foydalaniib uzatilgan tasvirlarni kodlashtirish, biometrik tasvirlarni va sputnikli rasmlarni ishslash kabi masalalarni yechishda davom ettiriladi. Keyingi rivojlanishlar tasvirlarning mazmunini tahlil qilish va indekslash, nusxa olishdan himoyalash, mashinali ko'rish, tasvirlarni tanib olish va sinflash algoritmlarini yaratishdan iborat.

**Ekspert tizimlar.** Ekspert tizimlarga talab yetarli yuqori pog'onda saqlab qolinadi. Bugungi kunda eng katta e'tibor *real vaqt rejimida* ishlaydigan tizimlarga, bilimlarni saqlash, olish, tahlil qilish va modellashtirish, dinamik rejalashtirish tizimlariga qaratilmoqda.

**Intellektualli ilovalar.** Kombinatorli muammolarni (masalan, transport masalalarida uchraydigan) optimal yechimini tez topish qobiliyatiga ega intellektual ilovalar sonining o'sishi rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishi va sanoatining o'sishi bilan bo'g'liq.

**Taqsimlangan hisoblashlar.** Kompyuterli tarmoqlarning tarqalishi va yuqori ishlab chiqarishli klasterlarning yaratilishi taqsimlangan hisoblashlar masalasiga qiziqishni oshirdi. Bu masalalarga resurslarni muvozanatlitshtirish, protsessorlarni optimal yuklash, maksimal samaralilikga erish maqsadida qurilmalarni o'zini-o'zi shakllantirish, yangilanishga talabgor elementlarni kuzatish, tarmoqdagi elementlar orasidagi nomosliklarni aniqlash, dasturlar ishlashining aniqliligini tashxislash kabilar kiradi.

**Real vaqtli operatsion tizimlar.** Avtonom robototexnikli qurilmalarning paydo bo'lishi real vaqtli operatsion tizimlarga talablarni oshiradi. Bu talablarga o'zini-o'zi sozlashni tashkillashtirish, hizmat ko'rsatuvchi operatsiyalarni rejalashtirish, vaqt tanqisligi sharoitida qaror qabul qilishda SI vositalaridan foydalanish kabilar kiradi.

**Intellektualli injeneriya.** Oxirgi yillarda yirik dasturiy tizimlarni (dastiriy injeneriya) yaratish jarayonlarini tashkillashtirish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar SI da alohida qiziqish uyg'otmoqdalar. SI usullari ko'proq boshlang'ich matnlarni tahlil qilish va ularning ma'nosini tushunish, talablarni boshqarish, tasniflashni tuzish, loyihalash, kodli generatsiyash, testlash, sifatni baholash, masalalarni parallel tizimlarda echish kabilarda qo'llanilmoqda.

Dasturiy injeneriya asta-sekinlik bilan bilimlarni tasvirlash va ishslashning (hozircha intellektual injeneriyada asosiy e'tibor bilimlardagi axborotlarni o'zgartirish uslublariga qaratilgan) ko'proq umumiyl muammolarini qaraydigan intellektual injeneriyaga aylnadi.

**O'zini-o'zi tashkillashtiruvchi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT).** O'zini-o'zi tashkillashtiruvchi MBBT haqiqiy masalalarga egiluvchanlik bilan moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi va boshqarishni talab etmaydi.

*SIda mashhurligi bo'yicha quyidagi texnologiyalar guruhlari turadi:*

1) Tabiiy tillarni avtomatik tahlil qilish (leksikali (so'z boyligi), morfologikli, terminalogikli, notanib olishga so'zlarni ajratib olish, milliy tillaarni aniqlash, tarjima qilish, hatolarni tuzatish, lug'atlardan samarali foydalanish);

2) Yuqoriunumli OLAP-ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish, so'rovlarni vizualli berish uslublari;

3) Shoshilinch holatlarda doktorlarga maslahat beruvchi tibbiy tizimlar, jarrohlik operatsiyalar jarayonida aniq harakarni bajaruvchi robotlar-manipulyatorlar;

4) To'liq avtomatlashtirilgan kiberzavodlar yaratish, moslashuvchan tejamkor ishlab chiqarish, tez protiplashtirish, ishni rejalashtirish, ta'minot zanjirini bir-biriga moslashirish;

5) Moliya, tibbiyot va matematika sohalarida haqiqy masalalarni yechishga yo'naltirilgan amaliy usullarni ishlab chiqish;

6) Turli o'yinlar va ovunchoq dasturlar. Yangi yo'nalishli tadqiqotlarga: ijtimoiy harakatlar, munosabatlar, insoniy tuyg'ular, ijodiyot kabilalar kiradi.

*Yaponiyada SIning mashxur yo'nalishlari va texnologiyalari.* Evropa va Amerika mamlakatlariga nisbatan Yaponiyada SI bo'yicha yo'nalishlar va texnologiyalar orasida quyidagi ilmiy maktablar mashxur hisoblanadi:

- E-bozorlar va E-ayksionlar ishlarini modellashtirish va yaratish;
- bioinformatika (kataklarning elektronli modeli, oqsilli axborotlarni parallel kompyuterlarda tahlil qilish, DNK hisoblovchilar);
- tabiiy tillarni ishlash (matnlar ma'nosini tanib olishga va tushunishning o'zini-o'zi o'rnatuvchi ko'ptilli tizimlari);

- Internet (tarmoqlarni va odamlar yashaydigan uylarda real vaqt rejimida ishlaydigan turli datchiklarni, intellektual interfeyslarni integratsiyalash, Internetning amaliy va tizimli tushunchalarini formallashtirish asosida qo'lda bajariladigan ishlarni, katta hajmdagi axborotlardan kerakli ma'lumotlarni ajratib olishning iteratsiyali texnologiyalarini avtomatashtirish);

- robototexnika (mashinali o'rgatish, avtonomli qurilmalarning bir-biri bilan samarali aloqasini tashkil etish, harakatlarni tashkillahatirish, harakatlarni rejalashtirish, harakatlarni tavsiflovchi axborotlarni indekstsya qilish);

- bilimlarni tasvirlash va ishlash uslublari (bilimlar sifatini oshirish, inson-ekspertlardan bilimlarni olish usullari, ma'lumotlarni izlash va tuzish, xujjatlar almashinuvini boshqarish).

Ko'pchilik ishlar mantiqiy xulosalash, robotlarni o'rgatish va ularning harakatini rejalashtirish algoritmlariga bag'ishlangan.

**Harbiy texnologiyalar.** NTIlar sohasidagi tadqiqotlar boshqarishning murakkab masalalarini yechishda yaxshi natijalar olishga imkoniyat yaratmoqda va uni DARPA harbiy ilmiy agentligi moliyalashtirmoqda. Masalan, Smart Sensor Web loyihasi-jang maydonida sinxronli ishlaydigan turli xildagi datchiklarning taqsimlangan tarmoqlarini tashkillashtirishga mo'ljallangan. Bunday tarmoqdagi har bir obyekt (bahosi 300 dollar) vizualli, elektromagnitli, raqamli, kimyoli va b.q ma'lumotlar bilan tasvirlandi. Bu loyiha optimallashtirishning ko'po'lchovli masalalarini yechishning yangi matematik usullarini talab qiladi. Texnikalar ishining to'xtab qolish sabablarini, maqsadlarini, tahlilini va bashoratini avtomatik tarzda aniqlash bo'yicha tadqiqotlar (masalan, ovoz bo'yicha) olib borilmoqda.

Intellektni modellashtirish tizimlarining harbiy sohalarida o'zi yurar robor-mashinalar va boshqaruvchisiz samolyotlardan iborat mustaqil harakatlanuvchi armiyalar haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq yaqin o'n yillarda o'zining yechimini kutayotgan muammolar ham yetarlicha. Eng avvalo bu muammolarga real vaqt rejimida avtomatik tanib oluvchi tizimlarning videoaxborotlarni to'g'ri tahlil qilish qobiliyatiga ega emasligidir. Shuningdek, avtonom qurilmalarning katta birlashmalarida qarama-qarshiliklarni hal qilish, o'zinikini va begonalarni mutlaqo aniq tanib olish, yo'q qilib tashlanadigan nishonni tanlash, tanib olishga bo'Imagan muhitda harakat qilish algoritmlarni ishlab chiqsh kabi masalalarini hal qilish ham dolzarb hisoblanadi.

Shuning uchun harbiylar amliyotda kichikroq mashtabli maqsadlarga erishishga intiladi. Asosiy e'tibor nutqni tanib olish tadqiqotlariga qaratiladi, qo'lda bajariladigan ishlarni avtomatlashtirish va uchuvchilarining mehnatini engillashtirish maqsadida ekspert va maslaxat beruvchi tizimlar yaratiladi. NTlar signallarni ishlashda va suvostidagi toshlarni minalardan farqlashda samarali qo'llanilmoxda. Genetik algoritmlardan harbiy qurilmalarning (mo'ljalni olish, boshqarish tizimlarida) ishlashini aniqlovchi tenglamalarning yechimini evristik izlashda, shuningdek, tanib olish masalalarida-tabiyy va sun'iy obyektlarni ajratishda, harbiy mashinalarning tipini aniqlashda, kameralar yordamida olingan tasvirlarni tahlil qilishda foydalaniladi.

### 3-§. Asosiy xulosalar

*Bugungi kunda SI texnologiyalarini rivojlanishining belgilovchi faktori-* bu kompyuterlarni hisoblash quvvatining o'sish surati hisoblanadi, chunki *inson psixikasining ishlash jarayoni* hozirgacha noma'lumligicha qolmoqda. Shuning uchun SI yo'nalishidagi mavzular yetarli darajada standart shaklda va tarkibi bo'yicha ancha vaqtidan buyon o'zgarmasdan kelmoqda. Lekin zamонави kompyuterlar unumdorligining o'sishi va algoritmlar sifatining oshishi turli ilmiy usullarni amaliyotga qo'llashga imkoniyat yaratmoqdalar. Bunday holatlar hozirgi vaqtgacha intellektual o'yinchoqlarda amalga oshirilib kelangan bo'lsa, endi uydagi robotlar bilan ham shunday holatlar amalga oshiriladi.

Obyektlar juda kam xossalari bilan berilganda vaqtinchalik unitilgan "variantlarni birma-bir oddiy tekshirish" usullaridan (xuddi shaxmat dasturlari kabi) foydalanish qaytadan tiklanmoqda. Bunday yondashuvlar (ularni muvaffaqiyatlri qo'llashning asosiy resursi-bu unymdorlik hisoblanadi) yordamida juda ko'plab masalalarni yechish mumkin (masalan, kriptografiya sohasidagi masalalar). Avtonomli qurilmalarning ishonchli harakat qilishida yetarlicha oddiy, lekin ko'p resurslarni talab etadigan moslashuvchanlik xususiyatga ega bo'lgan algoritmlar yordam beradi. Buning uchun tashqi ko'rinishi odamga o'xshaydigan emas, balki xuddi odamga o'xshab harakar qiladigan tizimlarni yaratish maqsad qilib qo'yiladi.

Olimlar ancha uzoqni ko'zlab kelajakga harakat qilishmoqdalar. Yaqin kelajakda o'z yechimini topishi mumkib bo'lgan masalalar bo'yicha quyidagi savollar mavjud: Mustaqil ravishda o'ziga

o'xshaydigan nusxalarni hosil qilish (nusxalarni k'opaytirish) qobiliyatiga ega bo'lgan avtonom qurilmalarni yaratish mumkinmi? Bunday algoritmlarni fan yaratish qobiliyatiga egami? Bunday mashinalarni biz nazorat qila olamizmi? Bu kabi savollarga hozircha javoblar yo'q.

Formal mantiqni bilimlarni tasvirlash va qayta ishlashga mo'ljallangan amaliy tizimlariga qo'llash faol davom etadi. Shuning bilan birgalikda formal maniq haqiqiy hayotni to'la aks ettiraolmaganligi sababli mantiqiy xulosalashning turli tizimlarining bitta qatlamga birlashuvi amalga oshadi. Bunda obyektlar haqidagi axborotlarni batafsil tasvirlash va bu axborotlarni manipulyatsiya qilish qoidalari qarashlaridan xulosalashni abstrakt formal tavsiflash va xulosalashning universal mexanizmlarini yaratishga o'tiladi, obyektlarnig o'zi esa xarakteristikalarining ehtimolli taqsimlanishiga asoslangan ko'p bo'limgan ma'lumotlar massivi bilan xarakterlanadi.

SI ilmiy etilgan soha bo'lib, u asta-sekinlik bilan oldinga uzlucksiz siljimoqda. Uning kelajakdag'i rivojlanishi turli matematik fanlar kesimida, ayniqsa, mulohazalar va predikatlar mantiqi, ehtimollar nazariyasi, noravshan to'plam va noravshan mantiq kabi fanlarning qo'llanilishi natijasida namoyon bo'ladi.

### Nazorat savollari

1. SIning resurslar bilan bog'liq muammolari qanday tipdag'i resurslarning etishmasligi bilan bo'g'liq?
2. SIning istiqbolli texnologiyalari bo'yicha asosiy ilmiy maktablarni keltiring?
3. NTlar bo'yicha tadqiqotlar qaysi yo'nalishlarda davom etmoqda?
4. Evolyutsiyali hisoblashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini keltiring?
5. Noravshan mantiq tizimlari qanday sohalarda faol qo'llaniladi?
6. Tasvirlarni ishlash sohasida qanday masalalar yechiladi?
7. Ekspert tizimlarga bugungi kunda e'tibor qanday tizimlarni yaratishga qaratilmoqda?
8. Intellektualli ilovalarning o'sishi nimalarga bog'liq?
9. Taqsimlangan hisoblashlarga qanday masalalar kiradi?
10. Real vaqtli operatsion tizimlarga qanday masalalar kiradi?
11. Intellektualli injeneriyada qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

12. SIda mashhurligi bo'yicha qanday texnolgiylar guruxlari turadi?
13. Yaponiyada SIning qanday mashxur yo'nalishlari va texnologiyalari mavjud?
14. NTlar harbiy texnologiyalar sohasida qanday qo'llaniladi?
15. Genetik algoritmlardan harbiy qurilmalarda qanday masalalarda foydalaniлади?
16. Bugungi kunda SI texnologiyalarini rivojlanishining belgilovchi faktorlari nimalarda namoyon bo'ladi?
17. Olimlar oldida yaqin keljakda o'z yechimini topishi mumkib bo'lgan masalalar bo'yicha qanday savollar mavjud?
18. Formal mantiqni bilimlarni tasvirlash va qayta ishlashga qo'llashda qanday prinsiplarga o'tiladi?
19. SIning keljakdagi rivojlanishi qanday fanlarga asoslanadi?

## Xotima

Umid bilan aytmoqchimizki, o'quv qo'llanmani o'rGANIB chiqqach kitobxon uning foydali ekanligi haqida ishonch hosil qiladi, ko'pincha esa SITlarni qo'llash zarurligi, ularning imkoniyatlari, qurish prinsiplari va rivojlanish yo'nalishlari haqidagi tasavvurlarni shakllanishiga olib keladi.

SITlar evolyutsiyasi jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Ulardan ayrimlari (masalan, idrok etish, ET, TOT va sinflash, mashinali tarjima, nutqni tanib olish va boshqalar) bugungi kun uchun axborot - kompyuterli muhitda xizmat qiluvchi insonlar uchun odatiy komponentalar bo'lib hisoblanadi. SITlarning asosiy yo'nalishlaridan biri ET larning amalda keng qo'llanishiga erishilgan (AQSh, Yaponiya va Evropada) bo'lishiga qaramay, ularni ommaviy ishlab chiqarish va yoyishga to'sqinlik qiluvchi bir qator hal bo'limgan quyidagi muammolar bor.

- ETlarni yaratish shu paytgacha uzoq va qiyin jarayon bo'lib qolayotganligi;

- bilimlarni qabul qilish (olish): saralash, strukturalash, tasvirlash, sozlash va bilimlarni kuzatib borish;

- hayotda ko'pincha yechiladigan masalalar vaqt o'tishi bilan turlicha yechilishi taqozo etiladi, ko'pgina ETlar: asosan o'zgarmas masalalarni yechishga mo'ljallanganligi uchun ularni boshqa masalalarga qo'llab bo'lmaydi;

- bilimlar injeneriyalarini dastur bo'yicha quvvatlashning yo'qligi (chunki ekspertdan bilimlarni olish va ularni formallashtirish ETlarni yaratishda eng qiyin va ma'suliyatli masala hisoblanadi).

Demak, ETlarni yaratish va ulardan natijalar olish uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerak.

Boshqalari esa, hozircha ekzotik va amaliy qo'llashdan uzoqda deb tuyulayotganlari, ertagayoq bizning hayotimizga puxtalik bilan kirib keladi.

SITlar ko'plab bilimlar sohasiga tegishli bo'lgan tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Birinchi navbatda diskret matematika, matematik mantiq, kibernetika, matematik lingvistikasi, SI, psixologiya, sistemotexnika va boshqalarni aytish kerak. Bundan tashqari, dasturlash texnologiyasi, Internet, ko'pagentli tizimlar va boshqalarda barcha so'nggi muvaffaqiyatlarda foydalaniлади.

Misol tariqasida, intellektual ATlar va dasturlashning zamonaviy texnologiyalarining o'zaro kirishi natijasi *Microsoft.NET* platformasini ko'rsatish mumkin, uni rivojlantirishda 5 mingdan ortiq mutaxassislar ishlamoqda. Yangi imkoniyatlarni esa u SI g'oya va usullarini mujassamlashtirish hisobiga egallamoqda.

Shunday qilib, kompyuter bilan "tabiiy" muloqotga javob beruvchi *Natural Interface* texnologiyalari qo'lyozma ma'lumotlarni kiritish va tanib olishgani, nutqni tanib olishgani va sintez qilishni ta'minlaydi, shuningdek, turli xil tashqi qurilmalardan qulay foydalanish uchun sharoitlar yaratadi.

*Universal Canvas* texnologiyasi *XML*-sxemaga asoslangan arxitekturani, ya'ni Internet ni "o'qish" uchun platformasidan "o'qish/yoziб olmoq" platformasiga aylantiradi, va hujjatlar ustida o'zaro tahrirlash, manbalarni birlashtirish, tushuntirishlar berish, tahrirlash va tahlil qilish kabi jarayonlarni ta'minlaydi.

*Information Agent* texnologiyasi Internet ga foydalanuvchi vakilni kiritish imkonini beradi, bu vakil foydalanuvchining ehtiyojini, ma'qul ko'rganlarini biladi va Internet - servislarni unga ko'nikishiga imkon beradi.

*Smarttags texnologiyasi Intellisense* texnologiyasining rivojlangani hisoblanadi. U dasturchi - yordamchi *Microsoft Office*, *Internet Explorer* va boshqa ilovalarda, shuningdek, avto`zgartirish, avtoformatlash, avtoto`ldirish va boshqa funksiyalar bilan ishlovchi foydalanuvchining harakatlarini oldindan bilishga va xatolarni tuzatishga imkon beradi.

SIning bazaviy asoslari bilimlarga tayanish, tabiiy tillarda muloqotni tashkil etish, matnni tushunish, mantiqiy xulosa chiqarish, yechimlarni asoslash va tushuntirish hisoblanadi.

O'quv qo'llanmaning hajmi chegaralanganligi tufayli SITlarning barcha yo'nalishlarini qarab chiqish imkonini bermaydi. Amaliy intellektual avtomatlashtirilgan tizim(IAT)lar [2, 5, 7, 20, 25, 31, 37, 41, 50], noravshan mantiq yordamida noravshan xulosalashlarni hosil qilish modellari [5, 7, 19, 31, 48] va ET texnologiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni bibliografik ro'yxatda ko'rsatilgan [7, 31, 32, 37, 45] manbalardan olishlari mumkin. Intellektual TOTlarni qurish modellari [4, 12, 16-18, 24, 28, 33, 43] manbalarda yoritilgan. NTlar [2, 3, 7, 8, 11, 24, 26, 27, 31, 35, 36, 53, 54], GAlar [9, 10, 14, 36-38, 40] va GITlar [1, 22, 23, 36, 37, 38, 40, 42, 49] ishlarda qaralgan.

SITlar investitsiyalar kiritish bo'yicha istiqboli porloq sohalardan biriga aylanmoqda. IATlari investitsiya kiritishda kelajakda eng asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. XXI asrni fan va texnikada SITlar keng qo'llanilmaydi deb fikrlab bo'lmaydi. Tabiiy intellekt imkoniyatlarini ochish uchun sharoitlar yaratilgani tufayli, ular inson hayotining barcha yo'nalishlariga chuqr ta'sir ko'rsatadi, va uni yanada qulay va qiziqarli bo'lishiga olib keladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андриевская Н.В., Резников А.С., Черанев А.А. Особенности применения нейро-нечетких моделей для задач синтеза систем автоматического управления // Фундаментальные исследования. - 2014. - № 11-7. - С. 1445-1449.
2. Башмаков А.И., Башмаков И.А. Интеллектуальные информационные технологии: Учеб. пособие. - М.: Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2005. - 304 с : ил. - (Информатика в техническом университете). ISBN 5-7038-2544-X.
3. Bekmuratov Q.A. Sun'iy intellekt. O'quv qo'llanma. -T.: "Aloqachi, 2019.-312 b. UO'K:004.8. KBK:32.973.2. ISBN 978-9943-5804-8-0.
4. Bekmurodov Q.A., Mamaraufov O.A., Bekmurodov D.Q. Timsollarni anglovchi tizimlar. Oliy ta'lif muassasalari uchun uslubiy qo'llanma. Tashkent. "Navro'z" nashriyoti DUK. 2015. 385 bet. (UDK 004.8. ISBN:978-9943-381-17-9).
5. Бессмертный И.А. Искусственный интеллект - СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. -132 с.
6. Вольфганг Эртел. Введение в искусственный интеллект. Издательства Шпрингер. 2011. 316 с.
7. Гаврилов А.В. Системы искусственного интеллекта: Учеб. пособие: в 2-х ч. - Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2001. - Ч. 1. - 67 с.
8. Галушкин А. И. Нейронные сети: основы теории. - М.: Горячая линия-. Телеком, 2012. - 496 с.: ил. ISBN 978-5-9912-0082-0.
9. Гвозда Т., Algorytmy genetyczne. Wstep do teorii, Варшава, 1995.
10. Goldberg, D. E. Genetic Algorithms in Search, Optimization, and Machine Learning. Reading, MA: Addison Wesley, 1989.
11. Горбань А.Н. Обучение нейронных сетей. М.: изд-во СССР-США СП “ParaGraph”, 1990. 160 с.
12. (30) Гренандер, У. Лекции по теории образов (Том 2. Анализ образов) / У. Гренандер. - М. 2016. - 342 с.
13. David Poole, Alan Mackworth, and Randy Goebel, (1998), Computational Intelligence: A Logical Approach // Oxford University Press, Chapter 1-12, page 1-608.
14. De Jong K. An analysis of the behavior of a class of genetic adaptive systems. Doctoral dissertation. - University of Michigan, Ann Arbor. - University Microfilms No. 76-9381. - 1975.

15. Evolver - средство решения проблем генетических алгоритмов, Axcelis, Inc., 4668 Eastern Avenue N., Сиэтл, WA 98103, США.
16. Журавлев Ю.И., Рязанов В.В., Сенько О.В. Распознавание. Математические методы. Программная система. Практические применения. Издательство ФАЗИС, Москва 2005. -159 с.
17. Kamilov M.M., Nishanov A.X., Beglerbekov R.J. Modified stages of algorithms for computing estimates in the space of informative features. Volume 8, Issue 6, April 2019, Pages 714-717.
18. Журавль, И.М. Краткий курс теории обработки изображений. / И.М. Журавль. М., 1999. <http://matlab.exponenta.ru/imageprocess/book2/75.php>.
19. Заде Д. А. Понятие лингвистической переменной и его применение к принятию приближенных решений / Д. А. Заде. - М. : Мир, 1976. -168 с.
20. Иванов В. М. Интеллектуальные системы: учебное пособие / В. М. Иванов. - Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, 2015. -92 с. ISBN 978-5-7996-1325-9.
21. Искусственный интеллект: в 3 кн. / под ред. Д. А. Попова. -М. : Радиои связь, 1990. -Кн. 1 : Системы общения и экспертные системы. -461 с.
22. Kasabov, Introduction: Hybrid intelligent adaptive systems. International Journal of Intelligent Systems, Vol.6, (1998) 453-454.
23. Колесников А.В. Гибридные интеллектуальные системы: Теория и технология разработки / Под ред. А.М. Яшина. - СПб.: Изд-во СПбГТУ, 2001. - 711 с. - ISBN 5-7422-0187-7.
24. Кохонен Т. Ассоциативная память. -М.: Мир, 1980.
25. М. Тим Джонс. Программирование искусственного интеллекта в приложениях // Пер. с англ. Осипов А. И. -М.: ДМК Пресс, 2006. -312 с.
26. Mano, C. (2014). Definition of neural network. Retrieved on June, 2014 from [http://www.ehow.com/print/about\\_5585309\\_definition-neural-networks.html](http://www.ehow.com/print/about_5585309_definition-neural-networks.html)
27. Mano, C. (2014). Examples of artificial neural network. Retrieved on June, 2014 from [http://www.ehow.com/print/about\\_5585309\\_definition-neural-networks.html](http://www.ehow.com/print/about_5585309_definition-neural-networks.html).
28. Миленский, А. В. Классификация сигналов в условиях неопределенности. Статистические методы самообучения в распознавании образов / А.В. Миленский. - М.: Советское радио, 2012. - 328 с.

29. Mujeeb, R. (2012). Introduction to artificial neural network and machine learning. Palakkad: Government engineering college, sreekrishnapuram.
30. Nilsson, N.J. (2009). The Quest for Artificial Intelligence: A History of Ideas and Achievements. Cambridge University Press, Cambridge, England.
31. Павлов С. Н. Системы искусственного интеллекта: учеб. пособие. В 2-х частях. / С. Н. Павлов. - Томск: Эль Контент, 2011. - Ч. 1. - 176 с. ISBN 978-5-4332-0013-5.
32. Попов Д.А. Искусственный интеллект: в 3 кн. / под ред. Д. А. Попова. -М.: Радио и связь, 1990. -Кн.1: Системы общения и экспертные системы.-461 с.
33. Потапов, Алексей. Автоматический анализ изображений и распознавание образов / Алексей Потапов. - М.: LAP Lambert Academic Publishing, 2017. - 292 с.
34. Rafael C. Gonzales, Richard E. Woods, Steven L. Eddins. Digital image processing using MATLAB. Published by Pearson Education, Inc, publishing as Prentice Hall. 2004.
35. Розенблatt, Ф. Принципы нейродинамики: Перцептроны и теория механизмов мозга = Principles of Neurodynamic: Perceptrons and the Theory of Brain Mechanisms. -М.: Мир, 1965. -480 с.
36. Рутковская Д., Пилинский М., Рутковский Л. Нейронные сети, генетические алгоритмы и нечёткие системы //М.: Горячая линия -Телеком, 2006. -452 с.
37. Stuart Russell and Peter Norvig, (2002), Artificial Intelligence: A Modern Approach//Prentice Hall, Chapter 1-27, page 1-1057.
38. Судзуки К., Какадзу Ю., Подход к анализу бассейнов модели ассоциативной памяти с использованием генетических алгоритмов, в: Белью Р.К., Букер Л. Б. (ред.), Четвертая международная конференция по генетическим алгоритмам, Сан. Матео, Калифорния: Морган Кауфманн, 1991, стр. 539-546.
39. Тураев Х.Т. Дискрет математика. 1, 2 - томлар. Ўқув қўлланма. Т-2001. 456 б.
40. Уитли Д., Применение генетических алгоритмов к обучению нейронных сетей, Труды Седьмой конференции Общества искусственного интеллекта и моделирования поведения, Сассекс, Англия, Pitman Publishing, 1989, стр. 137-144.

41. Филиппович Ю.Н., Филиппович А.Ю. Системы искусственного интеллекта. - М.: МГУП, 2009. - 312 с.
42. FlexTool (GA) M2.1, Flexible Intelligence Group, LLC, Tuscaloosa, AL 35486-1477, США.
43. Фор А. Восприятие и распознавание образов. - М.: Машиностроение. 1989. -272 с.
44. Heidelberg, S. B. (2005). Introduction to Machine Learning Using Neural Nets. Retrieved on 9/02/2015 from <http://link.springer.com/chapter/10.1007/3-540-27335-27>.
45. Hamscher W., Console L., and Kleer J. D. (1992) Readings in Model-based Diagnosis. Morgan Kaufmann, San Mateo, California.
46. Heskes, Tom and Barber, David. (2014). Neural Networks. Retrieved from <http://www.eolss.net/Eolss-sampleAllChapter.aspx>.
47. Holland, J. H. Adaptation in Natural and Artificial Systems. Cambridge, MA: MIT Press. Second edition (1992). (First edition, University of Michigan Press, 1975).
48. Штовба С. Д. Введение в теорию нечетких множеств и нечеткую логику [электронный ресурс] / Д. С. Штовба. - Режим доступа: <http://www.matlab.ru/fuzzylogic/book1/index.asp>.
49. Ярушкина Н. Г. Гибридные системы, основанные на мягких вычислениях. Определение. Архитектура. Теоретические возможности и опыт практического использования // Программные продукты и системы, № 3, 2002, С. 19-22.
50. Ясницкий Л. Н. Введение в искусственный интеллект. 3-е изд.- М.: Издательский центр «Академия», 2010. 176 с.

### Internet manzillari

51. [https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial\\_intelligence](https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_intelligence)
52. [https://www.sciencedaily.com/news/computers\\_math/artificial\\_intelligence/](https://www.sciencedaily.com/news/computers_math/artificial_intelligence/)
53. [https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial\\_neural\\_network](https://en.wikipedia.org/wiki/Artificial_neural_network)
54. <http://neural network sanddeep learning.com>

## Qisqartma so'zlar

<b>ABT</b>	Avtomatik boshqarish tizimi
<b>AKO</b>	“a kind of” - sinflashda-«bitta ko’pgä» munosabatidan, to’plamostida esa - «ko’p ko’pgä» munosabatidan foydalilanildi.
<b>ANFIS</b>	Adaptiv-Network-based Fuzzy Inference System (Moslashuvchan noravshan xulosa chiqarish tarmog’i)
<b>AT</b>	Axborot texnologiya
<b>AO’T</b>	Axboritli - o’lchov tizim
<b>AQT</b>	Axborotni qidirish tizimi
<b>AQSh</b>	Amerika qo’shma shtatlari
<b>BB</b>	Bilimlar bazasi
<b>BM</b>	Bilimlar muxandisi
<b>BF</b>	Baholash funksiysi
<b>BT</b>	Bayesli tarmoq
<b>GA</b>	Genetik algoritm
<b>GD</b>	Genetik dasturlash
<b>GET</b>	Gibridli ekspert tizim
<b>GM</b>	Genetik mikroalgoritm
<b>GSH</b>	Geometrik shakl
<b>GT</b>	Gibridli tizim
<b>GIT</b>	Gibridli intellektual tizim
<b>GET</b>	Gibridli ekspert tizim
<b>CASE</b>	Computer Aided Software Engineering - dasturiy ta’mintoni avtomatik yaratish
<b>CLIPS</b>	C Language Integrated Production System- ekspert tizimni yaratish uchun dasturiy qobiq
<b>DARPA</b>	Defense Advanced Research Projects Agency - AQSh himoya vazirligi istibolli tadqiqotlarni rivojlantirish agentligiri
<b>DM</b>	Data Mining - ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish
<b>DNSH</b>	Dizyuntiv normal shakl
<b>DNK</b>	Dezoksiribonuklein kislota
<b>DT</b>	Dasturiy ta’mint
<b>EA</b>	Evolyutsiyali algoritm
<b>ED</b>	Evolyutsiyali dasturlash
<b>EHM</b>	Elektron hisoblash mashinasi

EL	Elaboration Language - qayta ishlash va aniqlik kiritish tili (IDEF5 da foydalaniladi)
ES	Evolyutsiyali strategiya
ET	Ekspert tizim
EtT	Etalon tanlov
FT	Formal tizim
HF	Holatlar fazosi
HQQ	Hal qiluvchi qoida
HM	Hisoblash mashinasi
HOLAP	Hybrid OLAP - gibridli OLAP (OLAPda ma'lumotlarni saqlash uslubi)
HTML	Hyper Text Markup Language - gipermatnli belgilashlar tili
HTTP	Hyper Text Transport Protocol - gipermatnni uzatish protokoli
IA	Intellektual agent
IAT	Intellektual avtomatlashtirilgan tizim
IK	Ishonchlilik koefitsienti
ISA	“is a” - bu
IO'	Ishonchlilik o'chovi
IT	Intellektual tizim
KAT	Ko'p agentli tizimlar
KDD	Knowledge Discovery in Databases - ma'lumotlar bazasidan bilimlarni ajratib olish
KMO	Ko'p mezonli optimallashtirish
KNSH	Konyunktiv normal shakl
KIF	Knowledge Interchange Format - bilimlar yordamida almashish formati (bilimlarni tasvirlash tillaridan biri)
LIAT	Loyihalash ishlarining avtomatlashtirilgan tizimi
LO'	Lingvistik o'zgaruvchi
MATLAB	Matritsaviy laboratoriya
MT	Mahsuliy tizim
MB	Ma'lumotlar bazasi
MBBT	Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi
MF	Mansublik funksiyasi
MD	Moslanuvchanlik darajasi
MM	Matematik mantiq
MosF	Moslanuvchanlik funksiyasi
HM	Hisoblash mashinasi

<b>HF</b>	<b>Holatlar fazosi</b>
<b>NK</b>	<b>Neyrokompyuter</b>
<b>NBM</b>	<b>Noravshan boshqaruv modeli</b>
<b>NBT</b>	<b>Noravshan boshqaruv tizimi</b>
<b>NET</b>	<b>Noravshan ekspert tizimi</b>
<b>NM</b>	<b>Noravshan munosabat</b>
<b>NoT</b>	<b>Noravshan to'plam</b>
<b>NQ</b>	<b>Noravshan qoida</b>
<b>NMXCH</b>	<b>Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish</b>
<b>NNM</b>	<b>Neyro-noravshan model</b>
<b>NP</b>	<b>Neyropaket</b>
<b>NT</b>	<b>Neyron tarmoq (to'r)</b>
<b>NO'</b>	<b>Noishonchilik o'lchovi</b>
<b>NoO'</b>	<b>Noravshan o'zgaruvchi</b>
<b>NXCH</b>	<b>Noravshan xulosa chiqarish</b>
<b>OOP</b>	<b>Ota-onal populyatsiyasi</b>
<b>OLAP</b>	<b>On-Line Analytical Processing - ma'lumotlarni interaktivli analitik ishlash</b>
<b>OT</b>	<b>Obyektlar to'plami</b>
<b>OYD</b>	<b>Obyektga yo'naltirilgan dasturlash</b>
<b>PEAS</b>	<b>(Performance (samaradorlik), Environment (muhit), Actuators (bajaruvchi mexanizmlar), Sensors (datchiklar))</b>
<b>PM</b>	<b>Predikatlar mantiqi</b>
<b>RNK</b>	<b>Ribonuklein kislota</b>
<b>SNT</b>	<b>Sun'iy neyron tarmoq</b>
<b>SPSS</b>	<b>Statistical Package for the Social Sciences - Ijtimoiy fanlar uchun statistik paket</b>
<b>PrS</b>	<b>Predmet soha</b>
<b>ST</b>	<b>Semantik tarmoq</b>
<b>SI</b>	<b>Sun'iy intellekt</b>
<b>SIT</b>	<b>Sun'iy intellekt tizim</b>
<b>ST</b>	<b>Sinov tanlov</b>
<b>TM</b>	<b>Tarmoqli model</b>
<b>TO</b>	<b>Tanib olish</b>
<b>TOT</b>	<b>Tanib oluvchi tizim</b>
<b>TTO</b>	<b>Timsollarni tanib olish</b>
<b>TTOT</b>	<b>Timsollarni tanib oluvchi tizim</b>
<b>TDNSH</b>	<b>Takomil diz'yunktiv normal shakl</b>

TKNSH	Takomil kon'yunktiv normal shakl
TT	Tabiiy til
TV	Texnik vosita
UT	Universal to'plam
FT	Formal tizim
O'A	O'rganuvchi agent
O'M	O'xshashlik munosabati
O'T	O'rgatuvchi tanlov
QR	Qo'lyozma raqam
QQQ	Qarorl qabul qilish
QQQSh	Qaror qabul qiluvchi shaxs
XML	Extensible Markup Language - belgilashning kengaytiriladigan tili
XMLP	XML Protocol - XML-ma'lumotlarni uzatish protokoli
ChA	Chatishtiruv amali
YaAT	Yangi axborot texnologiya
YO	Yangi obyekt

## Atamalar va tushunchalar izohi

<b>Nº</b>	<b>Atama</b>	<b>Ma’nosi va mazmuni</b>
1.	Aksioma	Isbotsis qabul qilinadigan tasdiq.
2.	Analogiya	Ikkita matematik tushunchalarda mavjud bo’lgan xususiy xossalarning o’xshashligi bo’yicha aqliy xulosalash.
3.	Atribut	1) Belgi, ma’lumotlar tavsifi. 2) Obyektning ajralmas xossasi.
4.	Bilimlar bazasi	HMLarida bilimlar saqlanadigan joy.
5.	Mulohaza	Chin yoki yolg’on qiymat qabul qiluvchi fakr.
6.	Graf	Tugunlar to’plami va ularni birlashtiruvchi yoylarni tasvirlovchi matematik tuzilma.
7.	Daraxt	Sikllarsiz bog’lamgan graf.
8.	Dizyunksiya	“Yoki” mantiqiy amali bo’lib, uni qo’llash natijasida o’zgaruvchilarining birortasi “chin” qiymat qabul qilsa, yangi ifoda “chin” bo’ladi. ✓ belgilanadi.
9.	Tabiiy til	Insonlar o’tasida axborotlarni almashishning odatiy usuli.
10.	Bog’liklik	Funksiyalar va ularning argumentlari o’tasidagi munosabatlar.
11.	Xulosa	“Obyekt - qiymat” juftlik bilan ifodalangan bilimlar bazasi fakti.
12.	Bilimlar	Faktlar, tasdiqlar va evristik qoidalar.
13.	Deklarativli bilimlar	Masala echimi protseduralarini oshkora saqlamaydigan bilimlar.
14.	Evolver	Genetik algorimdan foydalaniib masala echimini aniqlovchi dastur
15.	Kauzallli bilimlar	Predmet sohadagi obyektlar o’tasida sabab-oqibat aloqalari to’g’risidagi bilimlar.
16.	Noaniq bilimlar	Noto’liq, ba’zan qarama-qarshi xususiyatiga ega bilimlar.
17.	Protsedurali bilimlar	“Masala qanday echiladi” savoliga javob beradigan bilimlar.
18.	Induksiya	Xususiylikdan umumiyligini hosil qilish.
19.	Interpretatsiya	Faktlarga aniq va ma’noli mazmundagi bilimlarni qo’shib yozish, sharxlash, tushuntirish.

20.	Chin	Noqarama-qarshi aksiomalar tizimlaridan olingen barcha qat'iy va aniq isbotlanuvchi tasdiqlar xossasi.
21.	COGANN	Genetik algoritmlar va neyron tarmoqlari kombinatsiyasi
22.	Predikatlar hisobi	Argumentlar-o'zgaruvchilar yordamida mantiqiy formulalarning (predikatlarning) xulosalash qoidalari tizimi.
23.	Kvantor	Bir mantiqiy formulani boshqa ko'rinishga o'tkazishni amalga oshiruvchi mantiqiy operator. Kvantorlar umumiylig kuantori $\forall x$ ("barcha x uchun") va mavjudlik kvantoriga $\exists x$ ("shunday x mavjudki, uning uchun") bo'linadi.
24.	Konyunksiya	Barcha argumentlari chin bo'lsa, qiymati chin bo'lувчи, "&" yoki " $\wedge$ " belgilanuvchi mantiqiy amal.
25.	LISP	Sun'iy intellekt sohasida simvolli hisoblashlarni amalga oshirishga mo'ljallangan dasturlash tili.
26.	Mantiq	Fikrlashning qonunlari va normalari, isbotlashning uslublari haqidagi fan.
27.	Ehtimolli mantiq	Chin qiymatlar ehtimolliklar bilan izohlanadigan mantiq.
28.	Noklassik mantiq	Ikkita chinlik qiymatdan ("yolg'on", "chin") ko'p yoki an'anaviy mantiqdan aksiomalar tizimi va xulosalash qoidalari bilan farqlanadigan mantiq.
29.	Noravshan mantiq	Formulalarning chinlik darajasini xarakterlovchi son $0 \leq \mu \leq 1$ (norashanlik o'lchovi) bilan ifodalanadigan mantiq.
30.	Predikatlar mantiqi	Formulalari predikatlardan iborat mantiq.
31.	Formal mantiq	Fikrlash shakllarini o'rganadigan matematik mantiq bo'limi.
32.	FlexTool	Genetik algoritmdan foydalanib masala echimini toppish dasturi
33.	Metabilimlar	Bilimlar haqidagi bilimlar.
34.	Metaqoidalar	Qoidalarni qanday qo'llash haqidagi qoidalalar.
35.	Nobog'lan-ganlik	Shunday aksiomalar (formulalar) tizimi hossasi bo'lib, bunda boshqa aksiomalardan

		(formulalardan) birorta ham aksioma(formula) kelib chiqmaydi.
36.	Noaniqlik	Faktning ishonchligiga qoyilgan cheklov.
37.	Noto'liqlik	Nazariyalar doirasida nazariyaning har qanday formulasini isbot qilish mumkin emasligini bildiradi.
38.	Tajriba	Amaliyatga asoslaninb haqiqiylikni tanib olishga.
39.	To'liqlik	T nazariyaning to'liqligi shuni anglatadiki, bunda ushbu nazariyaning ixtiyoriy f formulasini o'zi chin bo'ladi yoki unga teskari bo'lgan $\tilde{f}$ formula chin bo'ladi.
40.	Xulosalash qoidasi	Nazariyaning bir formulasini boshqa formulalardan olish qoidasi.
41.	Asos	"Obyekt-qiymat" juftlik bilan ifodalangan bilimlar bazasi fakti.
42.	Semantikli	Simvolli ifodaning shakli emas, balki ma'nosi, qiymati yoki muhimligiga taaluqli.
43.	Sintaktikli	Simvolli ifodaning ma'nosi yoki qiymati emas, balki shakli yoki tuzilmasiga talluqli.
44.	Tizim	Obyektlar majmuasi, bir butun sifatida qaralgan obyektlar ustida amallar va ular o'rtasidagi aloqalar.
45.	Xulosa (oqibat)	Boshqa formulalardan xulosalash qoidalari yordamida hosil qilingan formula.
46.	Strategiya	Vaziyatlardan kelib chiqib har bir harakatni belgilovchi variantlarni tanlahni aniqlovchi qoidalari majmuasi.
47.	Evristikli qoida (evristika)	Qandaydir masalani bajarish uchun noto'liq usul.
48.	Ekspertli tizim	Inson bilimlarni egallashga va tajriba orttirishga bir necha yillar sarflaydigan sohalarda yuqori darajadagi ishlarni amalga oshiruvchi mashinali tizim.
49.	Qoida	Bu bilimlar vazifasining IF <Shart>, THEN <harakat> ko'rinishidagi rasmiy usuli.
50.	Evristik	Predmetli sohada yechimlarni qidirishni soddalashtiradigan yoki chegaralaydigan qoidalari.

51.	Sun'iy intellekt	Tabiatdagи jarayon va hodisalarни o'rGANISH(tadqiqot qilish)da insondagi ayrim intellektual qobiliyatlarni texnik jihatdan mujassamlashtirgan umumiy tushuncha.
52.	Rezolyutsiyalar usuli	Predikatlar mantiqidagi teoremalarni isbotlashga asoslangan va isbotlashning mukammal usuli hisoblangan.
53.	Sun'iy intellektli tizim	Fe'l-atvori maqsadga yo'naltirilgan qobiliyatni o'zida aks ettiruvchi ixtiyoriy biologik, sun'iy yoki formal tizimlar.
54.	Bionika	SI sohasidagi tadqiqotlarning bazaviy yo`nalishlaridan biri bo`lib, o`z tarkibida inson ongi uchun xarakterli va inson tomonidan yechiladigan masalalar asosida yotuvchi strukturalar va jarayonlarni sun'iy qaytadan tiklash muammolari bilan shug`ullanadi.
55.	Intellekt	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Lotincha «intellektuz» so`zidan kelib chiqqan bo`lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki fahmlash (aql) ma`nosini beradi.</li> <li>2. Fikrlash qobiliyati, ratsional bilish va shunga o`xshash. Umumiy holda esa fikrlash, shaxsni aqliy rivojlanishi sinonimi bo`lib xizmat qiladi.</li> <li>3. Turmushdagи dalillar o`rtasidagi o`zar bog`liqlikni tushunish qobiliyati. Bu qobiliyat belgilangan maqsadga erishishga olib boruvchi harakatlarni ishlab chiqish uchun kerak bo`ladi.</li> </ol>
56.	Bashoratlash	Oldindan aytish. Bashoratlash berilgan vaziyatlardan ehtimolli oqibatlarni hulosalash. Ob-havo ma'lumotlari, yo'l-transpor hodisasi, hosildorlik, harbiy holat va h.k.larni oldindan aytish.
57.	Tashxis	Kuzatishlar natijasida tizimdagi buzilishlar haqidagi xulosalar.

## MUNDARIJA

So'z boshi .....	3
Kirish.....	8
<b>1-bob. SUN'YIY INTELLEKTGA KIRISH VA INTELLEKTUAL AGENTLAR .....</b>	<b>12</b>
1-§. Asosiy tushuncha va ta'riflar .....	12
2-§. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari.....	13
3-§. Zamonaviy intellektual tizimlar va ularning asosiy yo'nalishlari.....	17
3.1. Neyron tarmoqlar yo'nalishi.....	17
3.2. Axborotli yo'nalishi.....	18
3.3. Sun'iy intellekt tizimlarini sinflash.....	23
4-§. Sun'iy intellektni turli sohalarga tadbiqi .....	24
5-§. O'zbekistonda intellektual tizimlarning rivojlanishi.....	26
6-§. Sun'iy intellektning asosiy tarkibiy qismlari va arxitekturasi .....	27
8-§. Sun'iy intellektning asosiy xususiyatlari.....	29
8.1. Intellektual agentlar.....	29
8.2. Asosiy tushunchalar va ta'riflar .....	31
Intellektual agentlarning xususiyatlari, arxitekturasi va klassifikatsiyasi .....	31
Agentning samaradorlik ko'rsatkichlari, ratsionalligi va muammoli muhit .....	33
8.5. Sun'iy intellekttagi intellektual agentlarning turlari .....	38
8.6. Informatika sohasida intellektual agentlar .....	42
8.7. Ko'agentli tizimlar .....	44
Intellektual agentlarga misollar .....	48
Nazorat savollari .....	47
Nazorat testlari .....	49
Masala va topshiriqlar .....	49
<b>2-bob. SUN'YIY INTELLEKT TAQDIMOT VA QIDIRUV SIFATIDA .....</b>	<b>53</b>
1-§. Axborotli qidiruv va holatlar fazosini tadqiq qilish .....	53
2-§. Holatlar fazosida qidiruv strategiyalari va usullari .....	55
3-§. Ojiz algoritmlar .....	56
3.1. Deykstr algoritmi .....	57
3.2. Chuqurligi bo'yicha qidiruv .....	60

3.3. Kengligi bo'yicha qidiruv .....	61
4-§. Qarshi ta'sirlanish sharoitida qidiruv .....	61
5-§. Lokal qidiruv algoritmlari va optimallashtirish masalalari ..	64
6-§. Cho'qqiga chiqish bilan qidiruv .....	65
7-§. Otjig emulyatsiyali qidiruv .....	67
8-§. Evristikli qidiruv.....	68
8.1. A* qidiruv algoritmi.....	70
Nazorat savollari.....	70
Nazorat testlari.....	71
Masala va topshiriqlar.....	72
<b>3-bob. SUN'IY INTELLEKTDA BILIMLARNI TAQDIM</b>	
<b>ETISH .....</b>	<b>74</b>
1-§. Sun'iy intellekt rakursida tasavvur va idrok .....	74
1.1. Tasavvur .....	75
1.2. Idrok .....	76
2-§. Bilim va mulohaza .....	76
2.1. Bilim .....	78
2.1.1. Bilimlarning xususiyatlari .....	79
2.1.2. Bilimlarning tiplari va bilimlarni sinflash .....	81
2.2. Mulohaza .....	82
3-§. Mantiqiy agentlar .....	83
4-§. Predikatlar mantiqi .....	85
4.1. Birinchi tartibli predikatlar mantiqi .....	87
4.2. Sun'iy intellektda mantiqiy xulosalashlar .....	90
Nazorat savollari.....	94
Nazorat testlari.....	94
Masala va topshiriqlar.....	95
<b>4-bob. EKSPERT TIZIMLAR.....</b>	<b>98</b>
1-§. Ekspert tizimlarning xususiyatlari, muhimligi va afzallikkleri .....	98
2-§. Bilimlarni taqdim etish: tamoyil va usullari .....	100
2.1. Bilimlarni taqdim etishning tarmoqli modellari .....	100
2.2. Bilimlarni taqdim etishning mahsuliy modellari .....	103
2.3. Bilimlarni taqdi etishning freymli modellari .....	106
3-§. Ekspert tizimlarning tarkibi.....	109
4-§. Ekspert tizimni yaratishning bosqichlari.....	110
5-§. Qoidalarga asoslangan ekspert tizimlar .....	111
6-§. Modellar asosida, tajriba negizida mulohaza qilish va gibrildiz tizimlar .....	115

7-§. Adaptiv rejalashtirish .....	120
8-§. Ekspert tizimlarga misollar.....	125
Nazorat savollari.....	127
Nazorat testlari.....	127
Masala va topshiriqlar.....	128
<b>5-bob. MA'LUMOTLAR VA BILIMLAR NOANIQLIGINI TAQDIM ETISH .....</b>	<b>130</b>
1-§. Noaniqliklar manbalari va turlari .....	130
2-§. Ekspert tizimlar va ehtimollar nazariyasi .....	132
3-§. Noaniqliklarni taqdim etish uchun shartli ehtimollik .....	133
4-§. Bayes qoidasi va undan foydalanish .....	135
5-§. Bayesli mulohaza .....	140
Nazorat savollari.....	145
Nazorat testlari.....	146
Masala va topshiriqlar.....	147
<b>6-bob. NORAVSHAN MANTIQ VA UNING EKSPERT TIZIMLARGA QO'LLANILISHI .....</b>	<b>149</b>
1-§. Noravshan bilimlar va ular ustida amallar.....	149
1.1. Noravshan bilimlar.....	149
1.2. Imkoniyatlar nazariyasi .....	149
1.3. Noravshan to'plamlar.....	152
1.4. Noravshan mantiq amallari.....	156
1.5. Noravshan to'plamlar ustida oddiy amallar.....	158
1.6. Noravshan munosabatlar.....	162
2-§. Noravshan mantiqiy xulosa chiqarish qoidalari.....	165
3-§. Lingvistik o'zgaruvchilar.....	168
4-§. Ekspert tizimlarda noravshan mantiqning qo'llanilishi ...	169
4.1. Noravshan to'plamlarning ekspert tizimlarni qurish nazariyasi bilan bog'liqligi .....	169
4.2. Ekspert tizimlarda ishonchlilik koeffitsientlari va dalillarni chandalash .....	171
4.3. Gipotezalarning o'xshashlik munosabati .....	177
4.4. Ekspert tizimlarida xulosalarning noravshan qoidalari .....	180
Nazorat savollari.....	182
Nazorat testlari.....	182
Masala va topshiriqlar.....	184
<b>7-bob. NEYRON TARMOQLAR .....</b>	<b>189</b>
1-§. Neyron tarmoqlarning asosiy tushunchalari va elementlari	189
2-§. Neyron tarmoqlar arxitekturasi .....	194

3-§. Neyron tarmoqlarni obyektlarni tanib olishga o'rgatishning.....	195
4-§. umumiy sxemasi va uslubiy jihatlari.....	197
5-§. Neyron tarmoqlar yordamida yechiladigan asosiy masalalar	200
6.1. Neyron tarmoqlarni o'rgatish usullari.....	202
6.2. Neyron tarmoqlar tavsifi.....	205
6.3. Neyron tarmoqlarning turlari.....	205
6.4. Mak-Kallop-Pitts neyron tarmog'inining formal modeli.....	207
6.4.1. Rozenblatt perseptronni.....	208
6.4.2. Assotsiativ xotirali neyron tarmoqlar.....	211
6.4.3. Xopfild neyron tarmoqlari.....	213
6.5. Xemming neyron tarmoqlari .....	215
6.5.1. Ikki yo'naliqlik assotsiativli xotira .....	215
6.5.2. O'qituvchisiz o'rgatuvchi neyron tarmoqlar.....	216
7-§. Xebba tarmog'i bo'yicha o'rgatishning signalli usuli.....	218
Koxonen neyron tarmoqlari.....	219
Neyron tarmoqlarning yutuqlari va kamchiliklari.....	220
Nazorat savollari.....	221
Nazorat testlari.....	
Masala va topshiriqlar.....	
8-bob. VIZUAL AXBOROTNI QAYTA ISHLASH TIZIMLARINING QO'LLANILISH SOHALARI, VAZIFALARI VA TASNIFLANISHI .....	223
1-§. Tasvir ko'rinishda berilgan obyektlarni tanib olish	223
2-§. masalasi	
Strukturali belgilar bilan berilgan obyektlarni tahlil qilish	228
3-§. va tanib olish .....	231
4-§. Qo'lyozma raqamlarni tanib olish .....	
Shaxs imzolarini o'xshashlik koeffitsiyentlari asosida	232
5-§. tanib olish .....	
Rastrli tasvirlar va videotasvirlarga ishlov berish va tadqiqot o'tkazish dasturiy vositalari .....	234
Nazorat savollari.....	239
Nazorat testlari.....	239
Masala va topshiriqlar .....	241
9-bob. GENETIK ALGORITMLAR VA ULARNING MODIFIKATSIYALARI .....	243
1-§. Genetik algoritm va uning asosiy tushunchalari .....	243

2-§. Genetik algoritmlarda kodlash .....	247
3-§. Klassik genetik algoritm va uning asosiy bosqichlari .....	250
4-§. Klassik genetik algoritmning bajarilishini tasvirlash .....	254
5-§. Genetik algoritmlar va an'anaviy optimallashtirish usullari .....	258
6-§. Genetik algoritmlar haqidagi asosiy teorema .....	262
7-§. Klassik genetik algoritmning modifikatsiyalari .....	273
7.1. Genetik operatorlarning turlari .....	273
7.2. Moslanuvchanlik funksiyasini mashtablash .....	278
7.3. Ko'p mezonli optimallashtirish uchun genetik algoritmlar .....	279
7.4. Genetik mikroalgoritmlar .....	280
7.5. Evolyutsiyali algoritmlar va ularning ilovalari .....	281
Nazorat savollari.....	286
Nazorat testlari.....	286
Masala va topshiriqlar .....	287
<b>10-bob. GIBRID INTELLEKTUAL TIZIMLAR .....</b>	<b>290</b>
1-§. Gibrild intellekktual tizimlar tahlili .....	290
2-§. Neyro-noravshan tizimlar .....	294
3-§. Neyron tarmoqlarda evolyutsiyali algoritmlar .....	301
4-§. Genetik algoritmlarni qo'llab-quvvatlash uchun neyron tarmoqlar .....	302
5-§. Neyron tarmoqlarini o'rgatish uchun genetik algoritmdan foydalanish .....	303
6-§. Adaptiv o'zaro ta'sirlanuvchi tizimlar .....	304
7-§. Evolyutsiyaning odatiy sikli .....	305
Nazorat savollari .....	312
Nazorat testlari .....	313
<b>11-bob. SUN'IY INTELLEKTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA YO'NALISHLARI .....</b>	<b>315</b>
1-§. Sun'iy intellektning resurslar bilan bog'liq muammolari....	315
2-§. Istiqbolli yo'nalishlar va texnologiyalar.....	315
3-§. Asosiy xulosalar.....	321
Nazorat savollari.....	323
Xotima.....	325
Foydalilanigan adabiyotlar .....	328
Qisqartma so'zlar.....	332
Atamalar va tushunchalar izohi.....	336

# **SUN'IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARI**

Nashr uchun mas'ul: B. Mavlonov

Muharrir: U. Yunusov

Badiiy muharrir: F. Sobirov

Dizayner-sahifalovchi: L. Abdullayev

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bichimi 60x84 1/16 Offset qog'ozি.

Times New Roman garniturasi.

Shartli bosma tabog'i 21,5. Nashr hisob tabog'i 15,7.

Adadi 100 nuxada. Buyurtma № 11-12.



100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,  
M.Ismoiliy ko'chasi 1-G uy.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.